O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

THE UNIVERSITY OF PUBLIC
SAFETY OF THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN

JAMOAT XAVFSIZLIGI

Ilmiy-amaliy jurnali

Scientific - practical journal of

PUBLIC SAFETY

MAXSUS SON

KONSTITUTSIYAMIZNING 33 YILLIGI





@jamoatxavfsizligiuniversiteti2120
t.me/jamoat_xavfsizligi_universiteti
jamoatxavfsizligi_universiteti

www.mgjtu.uz

ISSN 3030 - 3230

JAMOAT XAVFSIZLIGI
ilmiy amaliy jurnali

TAHRIR KENGASHI:

ISLAMOV
Baxtiyor Djaxangirovich

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi

DJURAYEV
Rustam Mirzayevich

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondoni, general-mayor, dotsent, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist

ABJANOV
Baurjan Sadikovich

Qozog'iston Respublikasi Milliy gvardiyasi Bosh qo'mondoni o'rinbosari, general-mayor, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

XAKIMOV
Raxim Rasuljonovich

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

SAIDOV
Akmal Xolmatovich

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, Inson huquqlari Milliy markazi direktori

MAMAYUSUPOV
Sarvar Dexkanovich

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondoni o'rinbosari, polkovnik, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Bosh muharrir:
RUSTAMBAYEV
Mirzayusup Xakimovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig'i, polkovnik, yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist

MIRAKULOV
Miravzal Mirodilovich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi sho'ba mudiri, podpolkovnik, yuridik fanlar doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

Turg'unov Oybek Karimovich
Mamasiddiqov Muzaffarjon Musajonovich
Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich
Abdurayimov Sobirjon Sayipjonovich
Zokirov Botirjon Pulatxujayevich
Selimanova Svetlana Mixaylovna
Mirazov Davron Miragzamovich
Akramova Shaxnoza Abrorovna
Kuldashev Ikrombek Xamidullayevich
Xoliqulov Umid Shodiyevich
Usmonov Muxammadi Baxriddinovich
Djaydakbayev Murat Turg'unovich
Axmedov Jamoliddin Davronovich
Narkulova Indira Rustam qizi
Alimova Go'zal Alisherovna
Bulicheva Margarita Faritovna
Kamolov Abdullo Abdurazzokovich
Xaqnazarov Xudoyberdi Dilmurodovich
Shirinova Nargiza Djabbarovna
va boshqalar

Bosh muharrir:
RUSTAMBAYEV
MIRZAYUSUP XAKIMOVICH

Mas'ul muharrir:
ZULFIQOROV
Sherzod Xurramovich

Mas'ul kotib:
KAMOLOV
Abdullo Abdurazzokovich

Muharrir:
Murakayeva Zuxra Ilgizarovna

Dizaynerlar:
Kamolov Abdullo Abdurazzokovich

Korrektor:
Qurbonov Bahrom

Tahririyat manzili:
Toshkent viloyati, Chorsu qo'rg'oni

Tel: **(71) 230-32-71**
Faks: **(71) 230-32-50**
E-mile: **jxu@umail.uz**
web-site: **mgjxu.uz**

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 20-oktabrda 148674-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

MUNDARIJA
ОГЛАВЛЕНИЕ

O‘zbekistonda huquqshunoslik ilmi, ta’limining vujudga kelishi va rivojlanishi (1918-1991 yillar) **Djurayev R.M.**	3
Konstitutsiya milliy taraqqiyotning huquqiy yo‘l xaritasi sifatida **Mamayusupov S.D.**	9
Yangi O‘zbekistonda yangi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi **Rustambayev M.X.**	12
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahalla va ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari sifatida aks etishi **Axmedova M.T.**	24
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishning ilmiy – amaliy jihatlari **Zulfiqorov Sh.X.**	28
Перспективы уголовно-правовой регламентации ограниченной (уменьшенной) вменяемости **Якубов А.С., Азим Шухрат**	33
Конституционная гарантия презумпции невиновности и её процессуальное воплощение в УПК Республики Узбекистан: анализ, практика и международные стандарты **Чиниев Д.А.**	41
Fuqarolarning ekologik huquqini ta’minlashning konstitutsiyaviy asoslari **Usmonov M.B.**	45
Inson qadri va huquqiy davlatning mustahkam poydevori **Shadmanov E.Sh., Irgashev D.I.**	50
Konstitutsiyada xususiy mulk daxlsizligining e’tirofi **Ruziyev R.Dj., Karimov A.V.**	54
O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayonida inson huquq erkinliklarini cheklashning huquqiy asoslari **Alimov G.A.**	57
Значение идеи человеческого достоинства и реализация общественного контроля в Конституции Узбекистана: проблемы и решения **Дадашева А.А., Юсупов Ж.**	63
Insonning ekologik huquqini himoya qilishning konstitutsiyaviy asoslari **Tursunov O.B.**	69
Экономическая эффективность спортивной отрасли: опыт и направления развития Узбекистана **Галатис Х.Г.**	73
O‘zbekistonda intellektual mulk qonunchiligini takomillashtirishning konstitutsiyaviy asoslari **Babakulov Z.K.**	77
Yangi konstitutsiya islohotlari davrida iqlim xavflarini bartaraf etishning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari **Nurmatov M.M., Elov A.A.**	84
Yangilangan Konstitutsiya – parlamentarizmni mustahkamlash sohasidagi islohotlarning yangi bosqichi **Nuridullayev A.A., Safarov J.I.**	88
Konstitutsiya – inson huquq va erkinliklarining kafolati **Tursunov B.S., Sog‘inov N.A.**	94
Giyohvandlik: mohiyati, turlari va namoyon bo‘lish xususiyatlari giyohvandlikni aniqlash uchun tashxis belgilari **Nizametdinxodjayev U.R., Payziyev A.M.**	97
Konstitutsiya –millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning huquqiy kafolati **Mirzayev G.R.**	101
Harbiy xizmatchilar huquq-majburiyati va harbiy intizomini mustahkamlashda yangi Konstitutsiyaning ahamiyati **Yunusov U.A.**	106
Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va konstitutsiyaviy qonunchilikni takomillashtirishning dolzarb ahamiyati **Azamov J.M.**	109
Yangilangan Konstitutsiya – harbiy jinoyat protsessining huquqiy asosi **Alimov M.I.**	114
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - harbiy xizmatchilarni huquq va erkinliklarining kafolati **Olimjonov X.M.**	117
Harbiy xizmatchilar moddiy javobgarligining vujudga kelish asoslari va turlari **Ikramov A.A.**	121

Konstitutsiyaviy nazorat va ma’muriy ta’sir choralari o‘rtasidagi huquqiy muvozanat
G‘iyosov B.X. 127

Normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish — giyohvandlikka qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishi
Payziyev A.M., Ravshanov U.M. 131

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson ekologik huquqlari ifodasi
Xodjayev A.A. 135

Jinoyat subyekti tushunchasi va uning jinoyathuquqiy aham
Karaketova D.Yu. 138

Mudofaa va xavfsizlikni ta’minlashda jamoatchilik bilan hamkorlik (ayrim tashkiliy-huquqiy masalalar)
Xoliqov S.M. 146

Fuqarolar siyosiy ongi va madaniyatiga mafkuraviy tahdidlar ta’sirining ayrim jihatlari
Nazaraliyev B.I. 152

O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi tushunchasi va uning mohiyati
Xolbo‘tayev A.A. 160

Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etishning jinoiy-huquqiy jihatlari
To‘xtayev F.M. 165

Конституционная охрана интеллектуальной собственности: сравнительно-правовой анализ статьи 53 Конституции Республики Узбекистан
Муракаева З.И. 171

Harbiy oilalar bandligini ta’minlash va xorijiy til ta’limini rivojlantirishning huquqiy-institutsional tizimini takomillashtirish
Baqoyev Sh.H. 178

Konstitutsiyaviy tamoyillar va inson qadri ustuvorligi kontekstida harbiy tibbiyot tizimini takomillashtirishning huquqiy va tashkiliy asoslari
Djaydakbayev F.T. 182

Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligi, jamiyat xavfsizligini barqaror ta’minlashning huquqiy asosidir
Haydarov A.U. 187

Sun’iy intellekt davrida jinoyat huquqiy doktrinasining transformatsiyasi
Abbosov M. 191

O‘zbekistonda siyosiy-strategik rejalashtirishning nazariy-metodologik xususiyatlari
Artikov R.S. 198

Gibrid urushlarga qarshi kurashning konstitutsiyaviy asoslari
Zamonov A.A. 202

Konstitutsiya, inson huquq va erkinliklarini ta’minlovchi muhim manba sifatida
Ahmedova H.Sh. 205

Turonda sakkiz ming yil oldin mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi ramziy mezon – o‘lchov tizimiga oid tadqiqotlar tahlili
Xojamberdiyev E.Sh. 208

O‘zbekiston Respublikasi davlat xaridlari qonunchiligining rivojlanish bosqichlari
Usmonov Sh.Sh., Ismoilov M.U. 215

Kursantlarning axloqiy-ruhiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yishdagi moslashuvi hamda harbiy an’analarning ahamiyati
Tursunov Q.G. 221

Jamoat xavfsizligini ta’minlashning konstitutsiyaviy asoslari: O‘zbekiston va xalqaro tajriba qiyosiy tahlili
Rahmanov A.A., 224

Mahalliy davlat vakillari organlari konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarining ivojlanishi tahlili (tarixiy-huquqiy tahlil)
Davletov R. 230

Harbiy xizmatchilar moddiy javobgarligiga oid qonunchilik holati
Po‘latov M.M. 237

Autsorsing tizimining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
Boboxonov S.R. 240

Xalqaro turizm sohasiga oid xalqaro huquqiy hujjatlarning ahamiyati, tashkiliy va normativ xususiyatlari
Usmonova N.A. 246

Qo‘riqlanayotgan obyektlarda intellektual texnik vositalar qo‘llanishining konstitutsiyaviy-huquqiy talqini
Kamolov A.A. 250

O‘zbekiston Konstitutsiyasi va millatlararo totuvlik: sharqiy slavyan diasporasining tarixiy o‘rni va mustaqillik davridagi roli
Norbekov S. 255

Ta’limni tizimini moliyalashtirishning konstitutsiyaviy asoslari
Qurbonov B.B. 258

Davlat boshqaruvining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarining mohiyati
Mirzayev J.M. 262

Конституция: гарант развития детского туризма в Узбекистане
Алимова Р.Б. 265

O‘ZBEKISTONDA HUQUQSHUNOSLIK ILMI, TA’LIMINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI (1918-1991 YILLAR)

Djurayev Rustam Mirzayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni, general-mayor
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda huquqshunoslik ilmi, ta’limini vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi jarayonlari tadqiq etilgan bo‘lib, unda mamlakatimizda yuridik oliy ta’lim muassasalarining tashkil etilishi va faoliyati bilan bog‘liq masalalar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: huquqshunoslik, yuridik ta’lim, huquqshunoslik ilmi tarixi, yuridik ta’lim tarixi, huquq instituti, huquq fakulteti, yuridik institut, yuridik fakultet, kadrlar tayyorlash.

Yuridik sohada professional kadrlar tayyorlash tariximizning barcha davrlarida dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, oliy ta’lim tizimining fundamental yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Zamonaviy huquqshunoslik sohasiga oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash o‘tgan asrning birinchi choragiga to‘g‘ri kelib, bu dastlab, Toshkentda tashkil etilgan Turkiston xalq universiteti tizimida fakultet va bo‘limlarga asos solinishi bilan bog‘liq.

Mavzu yuzasidan olib borgan tadqiqotlarimiz mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida yuridik sohaga kadrlar tayyorlash turli yillarda turli tuzilmalar, xususan, O‘rta Osiyo davlat universiteti fakulteti tarkibidagi bo‘lim, alohida fakultet, alohida institut, ilmiy-tekshirish yoki ilmiy-tadqiqot instituti sifatida faoliyat ko‘rsatgani holda 1991 yilda Toshkent davlat yuridik instituti tashkil etilganiga qadar shonli va tarixiy yo‘lni bosib o‘tdi.

Agar yuridik fakultet, yuridik institut va boshqa nomlar bilan o‘zgarishlarning sabablarini ko‘radigan bo‘lsak, unda ushbu sohaning kengaytirilishi, ilmiy-tadqiqot ishlarining takomillashuvi, ayrim hollarda esa Umumittifoq miqyosidagi fan sohalarining unifikatsiyalash maqsadida amalga oshirilgani ko‘zga tashlanadi.

Yuridik ta’lim sohasidagi dastlabki hujjatlardan biri RSFSR (Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi) Maorif xalq komissarligining 1918-yil 23-dekabrdagi yosh Sovet davlatlarida yuqori darajali yuridik kadrlarni tayyorlash talablarga javob bermagani uchun yuridik fakultetlarni tugatish to‘g‘risida bo‘lib, bu o‘z davridagi “inqilob qonuniyati”ga zid ekani alohida ta’kidlangan.

Shu boisdan ham Ittifoq respublikalarida yuridik fakultetlar o‘rniga ijtimoiy fakultet va bo‘limlarni ochish tavsiya etilgan va faqat ularning tarkibida ayrim huquqiy bo‘lim yoki yo‘nalishlar ochishga ruxsat etilgan xolos. Bir so‘z bilan aytganda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri “yuridik kadrlar tayyorlash”, “yuridik ta’lim”, “yuridik fakultet” tushunchalaridan qochishga, rasmiy hujjatlarda bulardan kamroq foydalanishga harakat qilingan.

Tadqiqotlar natijasida yuridik oliy ta’lim muassasalarining quyidagi tarixiy bosqichlarda rivojlangani ko‘zga tashlanadi:

1. 1918-yilning 21-aprelida Toshkentda Turkiston xalq universiteti tashkil etilib, uning Sotsial-iqtisod fakulteti tarkibida Huquq bo‘limi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur bo‘lim O‘zbekistonda oliy yuridik ta’lim va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishdagi dastlabki qadam bo‘lgan [1];

2. Turkiston xalq universiteti 1921-yilda davlat universiteti sifatida qayta tashkil etilib, uning tarkibidagi Sotsial-iqtisod fakulteti Ijtimoiy fanlar fakultetiga aylantirildi. Ushbu fakultet tarkibida alohida Iqtisod va huquq instituti faoliyat ko‘rsata boshladi. 1923-yilda fakultetni ilk bor bitirganlar 71 nafarni tashkil qilib (shulardan 30 nafari yuristlar edi), bular iqtisod va huquq sohalari bo‘yicha Turkiston davlat universitetida birinchi oliy ma’lumot olgan talabalar bo‘lgan;

3. 1924-yil 8-avgustdagi RSFSR Xalq komissarlari kengashining dekreti bilan Oliy ta’lim muassasalarining tarkibiy tuzilmasiga o‘zgartirish kiritilib, universitetning Ijtimoiy fanlar fakulteti Huquq va xo‘jalik fakulteti etib qayta tashkil etildi;

4. 1926-yildan boshlab fakultet nomi Mahalliy xo‘jalik va huquq fakulteti deb qayta nomlangan. Fakultetda asosan “Jinoyat huquqi” va “Fuqarolik huquqi” ixtisosliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlangan [2]. Garchi, universitetda huquqshunoslar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan

bo‘lsa-da, ta’lim oluvchilar orasida milliy kadrlar salmog‘i o‘ta past edi. Masalan, 1926-yilda O‘rta Osiyo davlat universitetida tahsil olayotgan talabalarning asosiy tarkibini boshqa millat vakillari tashkil etar, 1100 nafar talabadan 20 nafari o‘zbek, 22 nafari qozoq millatiga mansub edi. Ta’lim sifatini oshirishning imkoniyati cheklangan edi. Bunga Sovet davlati siyosatining talabalarni yoppasiga paxta terimiga jalb etishi, oliy ma’lumotli huquqshunoslar, o‘qituvchi kadrlarning yetishmasligi, zaruriy darslik va qo‘llanmalarning yo‘qligi sabab bo‘lgan. Ushbu yillarda fakultetda professorlar A.M.Vinaver, V.A.Krasnokutskiy, Pokrovskiy, Polyanskiy, L.A.Rezsov kabi salohiyatli olimlar dars bergan;

5. 1928-yilga kelib universitetning Mahalliy xo‘jalik va huquq fakulteti Sovet xo‘jalik va huquq fakulteti deb qayta nomlanadi va ushbu fakultetda iqtisodiyot va huquq yo‘nalishida tahsil beriladi. 1928-1929 o‘quv yilida fakultetda 641 nafar talaba tahsil olgan bo‘lib, mahalliy millatlarga mansub talabalar juda kam foizni tashkil etar edi. Buning asosiy sababi mahalliy tilda dars beradigan na pedagog, na darslikning yo‘qligida edi. Vaholanki, davlat boshqaruvi tizimi va huquqiy munosabatlarni tartibga solish uchun minglab kadrlarga ehtiyoj katta edi. Natijada hukumat oldida milliy kadrlarni tayyorlash uchun yangi oliy ta’lim muassasasi tashkil etish zaruriyati paydo bo‘lgan edi.

Ushbu fakultetda o‘sha davrdagi nomlari ancha mashhur bo‘lgan I.N.Trepitsin, A.M.Vinaver, V.A.Krasnokutskiy, N.N.Polyanskiy, I.I.Krilsov, A.A.Piontkovskiy, S.P.Pokrovskiy, N.N.Fioletov, L.D.Uspenskiy kabi professorlar o‘quv mashg‘ulotlari olib borganlar. Ayniqsa, prof. N.L.Lappo-Danilevskiy (1865-1932) o‘quv jarayoniga mahalliy tillarda o‘tiladigan o‘quv mashg‘ulotlarini kiritish, o‘sha tillarda o‘quv dasturlari va qo‘llanmalar tayyorlash, mahalliy aholi farzandlarini o‘qishga ko‘proq jalb etishda jonbozlik ko‘rsatgan olimlardan biri edi.

O‘sha davrda fakultet professor-o‘qituvchilari O‘zbekistonda yuridik muammolarni ilmiy hamda amaliy hal etish masalalariga alohida e’tibor qaratganlar. Masalan, O.Sharofutdinovning “O‘zbekiston SSR Oliy sudi” (1925), A.B.O‘razayevning “O‘zbekiston SSRning sud organlari” (1925), T.P.Norbo‘tabekovning “Inqilobiy qonunchilik va O‘zbekistonda maishiy hayotdagi illatlar” (1925), V.A.Osipovning “Aybsizlik prezumpsiyasi va jinoyat huquqida shaxsning xavfli holati hamda uning jinoiy jarayonda namoyon bo‘lishi” (1930) kabi ko‘plab asarlari ushbu maqsadga xizmat qilgan. Shuningdek, fakultet olimlaridan N.N.Fioletovning “Sovet O‘rta Osiyo respublikalarida vaqf huquqi” (1926), “O‘rta Osiyoda qozilar sudi” (1927), “O‘rta Osiyo musulmon sudlarida (qozilar sudida) sud ishlari” (1928) kabi asarlari o‘sha davr uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Shunday qilib, 1930-yilgacha O‘zDU (SAGU)ning “Sovet xo‘jaligi va huquqi” fakulteti mamlakatimizda huquqshunos kadrlarni tayyorlash va huquq ilmini rivojlantirishda asosiy ta’lim markazi vazifasini bajargan;

6. Huquqshunoslik sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida 1931-yilda O‘zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Sovetining qaroriga ko‘ra, O‘zbekiston XKS qoshida Jahon Obidova nomidagi “Sovet qurilishi va huquqi ilmiy-tadqiqot instituti” tashkil etilgan. Uning birinchi direktori etib Xalq Komissarlari Sovetining raisi Fayzulla Xo‘jayev tayinlangan.

1931-yil noyabr oyida Sovet qurilishi va huquqi ilmiy tekshirish instituti tashkil qilindi. Qisqa muddatda yetuk olimlar va mahalliy yoshlardan pedagogika jamoasini shakllantirishga erishildi. Mazkur institutni tashkil etish va rivojlantirish ishlariga bevosita Muhammadjon Mo‘minov bosh bo‘lib, institutda aspirantura bo‘limi va oliy ma’lumotli yuristlar tayyorlashning yo‘lga qo‘yilishi natijasida mazkur muassasa oliy ma’lumotli milliy yurist kadrlar yetishtirish uchun tayanch vazifasini o‘tadi.

Institutda darslar o‘zbek tilida o‘tilishi yo‘lga qo‘yilishi, ta’lim muassasasining rasmiy nashri – “Sovet qurilishi va huquq” jurnalining tashkil etilishi ham muhim yangiliklardan biri edi. O‘zbek tilida dars berish uchun yuqori malakali pedagogik jamoa shakllantirilib, xususan, professorlar A.Zufarov, I.Is’hoqov, Z.Inomjonov, S.Rajabov, yuridik fanlar doktori H.Nigmatov, shuningdek, H.Bekpo‘latov, H.Hamidov, Sh.Minbayev, Q.Isayev, M.Qurbonov kabi pedagoglar talabalarga o‘zbek tilida ta’lim berganlar.

Muhammadjon Mo‘minov 1932-1935 yillarda institut direktori bo‘lib ishlagan kezlarda mamlakatimizda milliy yuridik kadrlar tayyorlashga mustahkam tamal toshi qo‘yildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning davrida o‘qigan talabalar orasidan nafaqat respublika, balki xalqaro miqyosda tan olingan olim va olimalar, xususan, akademik Xadicha Sulaymonova, shuningdek, Fotih Bakirov, Nurilla Abdullayev, Soatali Maqsudov kabi professor va dotsentlar yetishib chiqdilar.

ISSN 3030-3230

1932-yil 13-oktabrda O‘zSSR Markaziy ijroqo‘mi qoshida Sovet qurilishi va huquqi instituti tashkil etildi. Bu davrda yosh huquqshunoslar dars mashg‘ulotlari olib bora boshladilar, ko‘plab darslik, o‘quv qo‘llanmalar va lug‘atlar nashr qilindi. 1934-yil 27-maydagi O‘zSSR Sovetlari Markaziy ijroiya qo‘mitasining 10-96-7-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq, Obidova nomidagi Toshkent Sovet qurilishi va huquqi institutining asosiy maqsadi davlat qurilishi va huquqi bo‘yicha malakaga ega oliy ma’lumotli mutaxassislar, jumladan shahar kengashlari, tuman ijroiya qo‘mitalari, xalq sudlari, xalq tergovchilari, prokurorlar va axloq tuzatish ishlari muassasalarining rahbar xodimlarini tayyorlashdan iborat bo‘lgan.

1934-yil 21-oktabrdagi O‘zSSR Sovetlari Markaziy ijroiya qo‘mitasi Prezidiumining 17-103-9-sonli qarori asosida O‘zSSR Sovetlari Markaziy ijroiya qo‘mitasi huzuridagi Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquqi instituti ikki muassasaga: O‘zSSR Markaziy ijroiya qo‘mitasi huzuridagi Sovet qurilishi instituti va O‘zSSR Adliya xalq komissarligi huzuridagi Sovet huquqi institutiga bo‘lindi. Ammo, yangi tuzilmalarning moddiy-texnik bazasini shakllantirishga jiddiy e’tibor berilmadi. Bu esa ta’lim jarayonini muvaffaqiyatli olib borish imkonini bermadi.

Shu tariqa 1934-1935 yillarda yuridik kadrlar tayyorlash sohasida rasman 3 ta muassasa faoliyat ko‘rsatgan. Bular: 1. M.Mo‘minov rahbarligidagi Sovet qurilishi va huquqi ilmiy-tekshirish instituti; 2. K.Sarimsoqov rahbarligidagi O‘zSSR Adliya Komissarligi huzuridagi Sovet huquqi instituti; 3. O‘zSSR MIQ huzuridagi Sovet qurilishi instituti.

O‘zSSR Sovetlari Markaziy ijroiya qo‘mitasining 1935-yil 5-yanvarda o‘tkazilgan 1-89-majlisida Sovet qurilishi institutida tuman ijroiya qo‘mita va shahar sovetlarining rahbar mutaxassislarini tayyorlash vazifasi belgilab qo‘yildi. Biroq, iqtisodiy muammolarga yetarli yechim topilmadi. Natijada, O‘zSSR Sovetlari Markaziy ijroiya qo‘mitasi Prezidiumi majlisining 1935-yil 20-martdagi 2/2-sonli qarori asosida O‘zSSR Sovetlari Markaziy ijroiya qo‘mitasi huzuridagi Sovet qurilishi instituti va O‘zSSR Adliya xalq komissarligi huzuridagi Sovet huquqi instituti birlashtirilib, O‘zSSR Sovetlari Markaziy ijroiya qo‘mitasi huzurida yagona Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquqi instituti tashkil etildi.

1934-yil Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquqi instituti tarkibida 3 ta fakultet (Sovet qurilishi, Sovet huquqi, Ishchi fakultetlari), kafedralar, kutubxona, kabinet va laboratoriyalar faoliyat olib borgan bo‘lsa, 1935-yil institutda 2 ta kafedra: Sovet qurilishi va Ijtimoiy-iqtisodiy kafedralar faoliyat olib bordi. Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquqi instituti qisqa muddatda tom ma’nodagi oliy ta’lim muassasasiga aylanib, mahalliy millat vakillaridan ko‘plab oliy ma’lumotli yetuk huquqshunos kadrlarni yetishtirib chiqardi. Shu tariqa Respublikada yuridik ta’lim beruvchi va ilmiy-tadqiqot olib boruvchi ikki muassasa qolgan.

1937-yilda Jahon Obidova nomidagi “Sovet qurilishi va huquqi instituti” O‘zSSR Yustitsiya Xalq Komissariyati qoshidagi “Sovet huquqi” institutiga qo‘shib yuborilib, 1938-yilda mazkur institut “Umumittifoq Toshkent yuridik instituti” deb yangi nom bilan faoliyat yurita boshladi. 1938-yil 22-oktabrda Toshkent yuridik instituti ustavi qabul qilinib, unda institutning maqsad va vazifalari, o‘qish tartibi va boshqa barcha masalalar tartibga solingan. O‘sha yilda institutda 5 ta kafedra faoliyat ko‘rsatgan (Davlat huquqi, Jinoyat huquqi, Sud huquqi, Fuqarolik huquqi, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillar);

7. 1939-yil 9-apreldagi Oliy maktab ishlari bo‘yicha Butunittifoq qo‘mitasining u/132-son buyrug‘i bilan Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquqi instituti Toshkent yuridik instituti nomi bilan qayta tashkil etilib, O‘zSSR Adliya xalq komissarligi huzuriga berildi, 1943-yil 1-martdan esa, SSSR Adliya xalq komissarligi huzuriga o‘tkazildi. 1946-yil 15-iyundan esa institut SSSR Oliy ta’lim vazirligining Toshkent yuridik instituti sifatida faoliyat yurita boshladi;

8. SSSR Oliy ta’lim ministrligining 1946-yil 25-sentabrdagi 638-sonli buyrug‘i asosida 1947/1948 o‘quv yilida O‘ODUda yuridik fakultet tashkil qilindi;

9. 1952-yilda yuridik fakultet tugatilib, uning o‘rnida yuridik institut faoliyat yuritgan bo‘lsa, 1955-yilda yana yuridik fakultet tashkil etildi;

10. 1955-yil 17-martda SSSR Ministrlar sovetining 2030-r sonli buyrug‘iga muvofiq Toshkent yuridik instituti V.I.Lenin nomidagi O‘rta Osiyo davlat universitetining yuridik fakulteti etib qayta tashkil etildi va shundan Toshkent yuridik instituti mustaqil muassasa sifatida faoliyatini tugatdi [3].

1955-yilda Toshkent yuridik instituti O‘rta Osiyo davlat universitetining yuridik fakultetiga aylantirilib universitet tarkibiga qo‘shilgan. Unga dekan etib prof. X.S.Sulaymonova tayinlangan.

X.S.Sulaymonovaning O‘zSSR yustitsiya vaziri etib tayinlanishi munosabati bilan yuridik fakultet dekani etib O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, xizmat ko‘rsatgan yurist B.A.Axmedov tayinlanadi va u 1956-yildan 1967-yilgacha fakultetga rahbarlik qiladi. 1967-yildan 1991-yilgacha mazkur fakultetni O‘zSSRda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi X.Samatova, dots. B.X.Samarxo‘jayev, O‘zFA muxbir a’zosi, yu.f.d., prof. O‘zbekistonda va Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi A.A.Agzamxo‘jayev hamda professor N.G. Gladkovlar samarali boshqarganlar.

Toshkent yuridik instituti ko‘p yillar davomida O‘rta Osiyo davlatlari uchun oliy malakali huquqshunoslar tayyorlashda yagona o‘quv dargohi sifatida alohida rol o‘ynadi. Unda ta’lim olgan va keyinchalik sohaning yetuk olimlari sifatida nom qozongan M.Mo‘minov, K.Sarimsoqov, X.Qurbonov, T.Eshonbekov, X.Sulaymonova, X.Samatova, S.Rajabov, Z.Inomjonov, O.E.Eshonov, F.S.Bakirov, O.X.Rasulov, F.X.Sayfullayev, A.A.A’zamxo‘jayev, Sh.Z.O‘razayev, M.H.Hakimov, M.S.Vosiqovalar nomlarini alohida esga olish biz uchun faxr va iftixor tuyg‘usini uyg‘otadi.

M.Mo‘minov, K.Sarimsoqov, T.Eshonbekov va X.Qurbonovlar mahalliy mutaxassislar sifatida TYUIda birinchilardan bo‘lib o‘quv mashg‘ulotlari olib borgan olimlardan hisoblanadilar. Ular o‘zbek tilida o‘quv qo‘llanmalar, lug‘atlar tayyorlashga katta hissa qo‘shganlar. Masalan, T.Eshonbekov davlat tizimlarini o‘rganish, K.Sarimsoqov ma’muriy-huquqiy atamalar lug‘atini tayyorlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borib, o‘zlarining kitoblarini nashr etganlar. Shuningdek, institutning oliy o‘quv yurti sifatida shakllanishi va yetuk mutaxassislar tayyorlashida professorlar B.L.Manelis, M.D.Lutskiy, S.E.Avrux, dotsentlar G.M.Arenberg va N.A.Kapustyanskiylarning xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim.

TYUIning ilk qaldirg‘ochlaridan biri bo‘lgan O‘zbekiston FA va Tojikiston FAning akademigi S.A.Rajabov (1912-1990) 1946-1954 yillarda Toshkent yuridik institutining rektori sifatida faoliyat ko‘rsatgan. U davlat va huquq nazariyasi hamda tarixi muammolari bo‘yicha yirik mutaxassis hisoblanadi. Keyinchalik S.A.Rajabov Tojikiston davlat universitetining rektori, Tojikiston FA prezidiumi a’zosi sifatida faoliyat yuritdi. U umrining oxiriga qadar ham TYUI bilan ilmiy va insoniy aloqalarini uzmadi.

O‘zbek ayollaridan yetishib chiqqan birinchi oliy ma’lumotli yurist, akademik, yuridik fanlar doktori, professor Xadicha Sulaymonova (1916-1965) 1954-yildan 1956-yilgacha Toshkent yuridik institutining rektori bo‘lgan. 1956-yilda u O‘zFAning haqiqiy a’zosi etib saylangan. 1956-yildan 1958-yilgacha O‘zSSR Yustitsiya vaziri, 1958-yildan 1964-yilgacha O‘zSSR Ministrlar Soveti qoshidagi yuridik komissiyaning raisi bo‘lib samarali faoliyat yuritgan. X.S.Sulaymonova 1964-yilda O‘zSSR Oliy sudining raisi lavozimida xizmat qilgan. U bunday mas’uliyatli lavozim ishonib topshirilgan dunyodagi birinchi ayol huquqshunos edi [4].

X.S.Sulaymonovaning ilmiy tadqiqot ishlari XVIII-XIX asrlarda O‘rta Osiyo xonliklaridagi jinoyat huquqi va zamonaviy jinoyat huquqining qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan. Uning ilmiy izlanishlari sud tizimi va sud ishlarini olib borish, qonunlarni kodifikatsiya qilish va takomillashtirish masalalarini ham o‘z ichiga qamrab olgan. Uning rahbarligida 1957-1959 yillarda O‘zbekistan SSR Jinoyat kodeksi ishlab chiqilgan.

1947-yilda O‘rta Osiyo davlat universiteti tarkibida yuridik fakulteti tashkil etilib, unga N.D.Dektyarenko dekan sifatida tayinlangan. 1950-yilda ushbu fakultet Toshkent yuridik instituti tarkibiga qo‘shib yuborilgan.

Urushdan keyingi yillarda yuridik institutda bosqichma-bosqich tartibda talabalar soni ko‘payib, agar 1946-yilda bitiruvchilar soni 50 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich 1947-yilda 170 nafarga, 1948-yilda esa 280 nafarga yetgan [5]. Shu bilan birga professor-o‘qituvchilar ilmiy salohiyati ham sezilarli darajada oshgan.

Ammo o‘qishga qabul qilingan talabalarning etnik tarkibi aksariyat hollarda xorijiy talabalar hissasiga to‘g‘ri kelib, bu borada 1948/1949 o‘quv yilida qabul qilinadigan talabalarning 70 foizdan kam bo‘lmagan qismi mahalliy xalqlardan iborat bo‘lishi lozimligi belgilangan. Shu bilan birga talabalar uchun o‘zbek tilidagi adabiyotlar yetarli bo‘lmagani uchun 1949/1950 o‘quv yili davomida barcha fanlar bo‘yicha darsliklarni o‘zbek tiliga tarjima qilish vazifasi qo‘yilgan.

O‘zbekistonda zamonaviy yuridik ta’lim va huquqshunoslikning rivojiga munosib hissa qo‘shgan yetuk olimlardan O.Eshonov, F.S.Bakirov (1898-1975), O.H.Rasulov, F.X.Sayfullayev (1911-1988), I.B.Zokirov (1922-2010), Z.I.Inomjonovni (1908-1983), N.D.Degtyarenko, D.M.Rudnitskaya (1900-1955), D.P.Rasseykin (1909-1974), B.I.Vaysman (1914-1960), X.A.Bekbulatov (1909-1966), T.T.Inoyatov (1926-1970)larning hissalari beqiyosdir.

1970 yillarda yuridik fakultetga qabul 50 tadan oshmagan bo‘lib, yuridik kadrlarga bo‘lgan talab esa baland bo‘lgan. O‘zbekiston SSR Adliya ministri tomonidan SSSR Adliya Ministrligiga 1973-yil sentabrda yuborilgan xatida bu boradagi aniq ma’lumotlar berilib, fakultet kvotasini ko‘paytirish taklifi bildirilgan. Ayni vaqtda birinchi navbatda 500 nafar yuridik kadrlarga ehtiyoj bo‘lib, shu jumladan ularning yarmidan ko‘prog‘i davlat boshqaruv organlari uchun zarur bo‘lgan. Bundan tashqari o‘sha vaqtda respublika adliya va sud organlarida ishlayotgan 120 nafar, FXDYO organlarining esa 150 nafar xodimlari oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lmagan.

1970-1980 yillar O‘zbekistondagi yuridik ta’lim rivojida alohida bir davr hisoblanadi. Aynan shu yillari Samarqand davlat universitetida yuridik fakultet (1974), Nukus davlat universitetining tarix fakulteti qoshida huquqshunoslik bo‘limi (1977), Adliya vazirligi qoshida malaka oshirish kurslari (1971) tashkil etilgan. Ushbu o‘quv yurtlarining faoliyatida yuridik fakultetning professor-o‘qituvchilari faol ishtirok etganlar.

1990-yilgacha ToshDU yuridik fakultetida uchta: kunduzgi, kechki va sirtqi bo‘limlar faoliyat olib borgan. Agar 1921-yili Huquq institutini atigi 30 nafar talaba bitirgan bo‘lsa, 1980-yilning oxiriga qadar birgina ToshDU yuridik fakultetini 4 mingdan ziyod yoshlar bitirib chiqdi. Qolaversa, 1921-yil Huquq institutida atigi 9 nafar professor-o‘qituvchi dars bergan bo‘lsa, 1989-1990 o‘quv yilida ularning soni 118 nafarni tashkil etgan. Fakultetda O‘zbekiston FA akademiklari Sh.Z.O‘razayev, X.R.Rahmonqulov, professorlar G.P.Sarkisyans, Ya.E.Pesin, I.A.Libus, K.Z.Alimov, I.B.Zokirov, B.A.Blinder, Z.R.Bovshover, Sh.Sh.Shorahmetov va boshqalar faoliyat olib borishgan.

Shu o‘rinda yuridik sohaga kadrlar tayyorlash masalasi o‘tgan asrning ikkinchi yarmida hududlarda ham dolzarbligi boisdan mamlakatimizning bir qator viloyatlaridagi oliy ta’lim muassasalarida ham yuridik fakultetlar tashkil etilgani ko‘zga tashlanadi.

Huquqshunos kadrlarni tayyorlash va huquq ilmini rivojlantirishda mustaqil Qoraqalpog‘iston davlatining yuridik fakulteti munosib o‘rinni egallaydi. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridik fakultetining tashkil etilishi 1977-yilda tarix-geografiya fakulteti tarkibida Huquqshunoslik kafedrasining ochilishi bilan bog‘liqdir. O‘tgan yillar mobaynida mazkur fakultetda yuridik fanlar nomzodlari A.Dauletov, N.Abdullayev, U.Nurmashov, Sh. Xalikov, M. Xakimov, shuningdek, I.Nuratdinov, K.Umarova, R.Aytmuratova, E.Kutibayeva, J. Niyazova, B.Matmuratov, G.Yuldashevalar ilmiy-pedagogik faoliyat olib bordilar.

1993-yilda esa QDUda yuridik fakulteti tashkil etildi. 1996-yilda yuridik fakulteti tarix fakulteti bilan birlashtirilib, yuridik va tarix fakulteti tashkil etildi. 2003-yilda yuridik fakulteti yana qayta tashkil etilib, uning tarkibida 4 ta kafedra: “Davlat huquqi va boshqaruvi”; “Fuqarolik huquqi”; “Jinoyat huquqi, protsessi kriminalistika; “Xo‘jalik huquqi” faoliyat ko‘rsata boshladi.

1974-yilning 1-sentabrida tarix fakultetining qoshida yuridik bo‘lim ochildi. Shu yili o‘zbek guruhiga 50 nafar talaba qabul qilindi, kechki bo‘lim ham tashkil qilindi.

1978-yilning sentabrida bo‘lim mustaqil yuridik fakultetga aylantirildi. Yuridik fanlarni o‘qitishga o‘qituvchi kadrlarning yetishmasligi tufayli ToshDU yuridik fakulteti bu sohada doimiy ravishda g‘amxo‘rlik qilib turdi 1975-1980 yillarda fakultetda mashg‘ulot o‘tish uchun O‘zSSR FA muxbir azolari A.A.Azamxujayev va Sh.Z.O‘razayevlar professorlar M.X.Xakimov, G.P.Sarkisyans, Ya.E.Pesin, Z.B.Zokirov, dotsent U.O.Ochilov, L.Oxunjonov, Z.Islomov, A.A.Inoyatovlar taklif qilindilar. Ular turli yuridik fanlardan qiziqirli mashg‘ulotlar olib bordilar. Bu borada ayniqsa, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi yuridik fanlar doktori professor A.Axmedovning xizmati diqqatga sazovordir. Olim uzoq yillar «Jinoyatni kvalifikatsiya qilishning nazariy va amaliy muammolari» nomli eng murakkab va aktual maxsus kurs bo‘yicha mashg‘ulot olib bordi, hamda qator yillar davlat imtihon komissiyasining raisi bo‘lib ishladi. U fakultetning yosh o‘qituvchilariga katta yordam berdi.

O‘zbekiston oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining “Huquqshunoslar tayyorlashni universitetdan birida jamlash haqidagi 1985-yil 19-iyuldagi 219-sonli qarorga muvofiq 1986-yilidan o‘quv Samarqand va Nukus Davlat universitetlarida mazkur kadrlarni tayyorlash uchun qabul qilish to‘xtatildi.

O‘zSSR Ministrlar kengashining 1991-yil 15-avgustdagi 221-sonli qaroriga muvofiq O‘zSSR Adliya vazirligi huzurida Toshkent davlat yuridik instituti tashkil etildi.

Fikrimcha o‘rganilgan yillarda yuridik ta’limni bir maromda rivojlanmagani, uni turli to‘siq va muammolarga duch kelganining asl

mohiyatini quyidagi omillar bilan baholash maqsadga muvofiq:

birinchidan, barcha sohalarda bo‘lgani kabi, yuridik ta’lim sohasida markazlashtirish siyosatining oqibatlari ta’sir ko‘rsatgan. Boisi, uzoq yillar mobaynida barcha o‘quv-uslubiy hujjatlar rus tilida tayyor holda ijro uchun yuborilib, Moskvaning ruxsatisiz na o‘quv rejaga o‘zgartirish kiritishga, kitoblarni o‘zbek va boshqa tillarga tarjima qilishga va boshqa o‘quv ishlarini mustaqil yuritishning imkoni bo‘lmagan;

ikkinchidan, ta’lim sifatini oshirish imkoniyatining cheklanganligi bo‘lib, bunga sovet siyosatining talabalarning yoppasiga paxta terimi, poliz ekinlari yig‘ishga jalb etilishi, shuningdek, oliy ma’lumotli huquqshunoslar, o‘qituvchi kadrlarning yetishmasligi, zaruriy darslik va qo‘llanmalarning yo‘qligi kabi omillar sabab bo‘lgan.

uchinchidan, “uzluksiz yuridik ta’lim”ning tarqoqligi muammosi ham mavjud bo‘lib, mazkur davrda oliy yuridik ma’lumot beruvchi fakultet va institutlardan tashqari O‘rta Osiyo yuridik texnikumi, O‘zSSR MIQ huzuridagi ma’muriy va sud xodimlarini tayyorlash kurslari, Adliya xalq komissarligi huzuridagi Respublika kurslari kabi o‘rta ma’lumot beruvchi muassasalar ham faoliyat ko‘rsatgan. Ammo mazkur kurslarning aksariyati tarqoq bo‘lib, tez-tez faoliyati va vazifalari o‘zgarib turgan va ularning ham asosi rus tilidagi o‘quv-uslubiy materiallarni o‘rganishga qaratilgan.

to‘rtinchidan, o‘qitish uchun mahalliy kadrlarning yetishmovchiligi masalasi bo‘lib, bu muammo uzoq yillar mobaynida saqlanib qolgan. Bunga bir vaqtning o‘zida: qabul kvotasining ozligi, kvotada mahalliy xalqlarga ustuvorlik berilmasligi *(faqatgina 1972/1973 o‘quv yiliga kelib mazkur masala kun tartibiga chiqib qabul kvotasida mahalliy millatlar ko‘rsatkichi 60 foizdan kam bo‘lmasligi belgilangan);* oliy ma’lumotli huquqshunos rahbarlarning, o‘zbek tilida dars o‘ta oladigan salohiyatli huquqshunos o‘qituvchilarning ozligi; ayrim dars beradigan salohiyatli ustozlarning rahbarlik lavozimlariga ketishi kabi obyektiv omillar ham sabab bo‘lgan.

beshinchidan, yuridik kadrlarni tayyorlash muassasalarida moddiy-texnik bazaning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani ham yuridik ta’limni bir maromda rivojlanishida qiyinchiliklar tug‘ilishiga olib kelgan.

Аннотация. В статье исследуются процессы возникновения и развития юридической науки и образования в Узбекистане, а также изучаются вопросы, связанные с созданием и деятельностью высших юридических учебных заведений нашей страны.

Ключевые слова: юриспруденция, юридическое образование, история юридической науки, история юридического образования, правовой институт, юридический факультет, юридический институт, факультет права, подготовка кадров.

Annotation. The article examines the historical processes of the emergence and development of legal science and education in Uzbekistan, and explores issues related to the establishment and functioning of higher legal educational institutions in the country.

Key words: jurisprudence, legal education, history of legal science, history of legal education, law institute, faculty of law, legal institute, law faculty, personnel training.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Положение о Среднеазиатского государственного университета и Постановление ЦИК Союза ССР и его утверждение за 1925 г. //Тошкент шаҳар давлат архиви. 38-фонд, 1-рўйхат, 65-иш, 15-варақ;

2. Общий обзор деятельности факультета Местного хозяйства и права САГУ. //Тошкент шаҳар давлат архиви. 38-фонд, 1-рўйхат, 90-иш, 1-2-варақлар;

3. Тошкент шаҳар давлат архиви. 38-фонд, 1-п/п рўйхат, 21-иш, 22-варақ;

4. Тошкент шаҳар давлат архиви. 38-фонд, 1-рўйхат, 90-иш, 2-варақ;

5. Отчет о работе Юридического факультета САГУ за 1948-1949 учебный год. //Тошкент шаҳар давлат архиви. 38-фонд, 1-рўйхат, 785-иш, 2-варақ.

KONSTITUTSIYA MILLIY TARAQQIYOTNING HUQUQIY YO‘L XARITASI SIFATIDA

Mamayusupov Sarvar Dexkanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni o‘rinbosari,
polkovnik, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi milliy taraqqiyotning huquqiy asoslari, davlat va jamiyat rivojlanishining bosh mezoni sifatidagi o‘rni hamda konstitutsiyaviy islohotlarning zamonaviy bosqichlari ilmiy tahlil qilinadi. Konstitutsiyaning strategik rivojlanish jarayonlariga ta’siri, inson huquqlarining kafolatlanishi hamda davlat boshqaruvining modernizatsiyasidagi roli yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, milliy taraqqiyot, huquqiy asos, islohotlar, davlat boshqaruvi, inson huquqlari.

Konstitutsiya har bir davlatning siyosiy-huquqiy tizimini, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘nalishlarini va davlat boshqaruvi tamoyillarini belgilovchi eng muhim me’yoriy hujjatdir. U nafaqat huquqiy normalar majmui, balki jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan qadriyatlar, milliy manfaatlar va strategik maqsadlarning huquqiy ifodasidir. Shu ma’noda, Konstitutsiya davlatning rivojlanish konsepsiyasini belgilovchi huquqiy yo‘l xaritasi sifatida alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, hokimiyatlar bo‘linishi, huquqiy tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillari mustahkamlangan bo‘lib, bu tamoyillar milliy taraqqiyotning izchil davom etishining konstitutsiyaviy kafolatidir.

Bugungi globallashuv va raqobat keskinlashgan sharoitda milliy taraqqiyotning har bir bosqichi Konstitutsiyada belgilangan demokratik prinsiplarga tayanishi muhim. O‘zbekistonning siyosiy va iqtisodiy modernizatsiyasi, “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi, ijtimoiy himoya tizimi, davlat boshqaruvi islohotlari va sud-huquq tizimi yangilanishlari Konstitutsiyaning amal qilayotgan normativ tamoyillari bilan chambarchas bog‘liqdir. Zero, Konstitutsiya davlat siyosatini izchil, tizimli va barqaror asosda olib borishni ta’minlaydigan strategik huquqiy poydevor vazifasini bajaradi.

Shu boisdan Konstitutsiyaning nafaqat huquqiy hujjat sifatidagi o‘rni, balki milliy taraqqiyotning nazariy va amaliy yo‘l xaritasi sifatidagi strategik ahamiyatini chuqur ilmiy tahlil qilish dolzarbdir. Milliy taraqqiyot jarayonlarining izchil va barqaror amalga oshirilishi davlatning asosiy qonunida belgilangan tamoyillarga bevosita bog‘liqdir. Biroq, Konstitutsiyaning jamiyat hayotidagi o‘rni va uning taraqqiyot strategiyalarini belgilovchi yo‘l xaritasi sifatidagi funksiyasi ko‘plab holatlarda yetarlicha chuqur o‘rganilmagan masala bo‘lib qolmoqda. Ayni paytda, mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning konstitutsiyaviy asoslarini ilmiy jihatdan baholash, Konstitutsiya tamoyillarining real amaliyotda qanday ishlayotgani va milliy taraqqiyotga qanchalik ta’sir ko‘rsatayotgani ilmiy tahlilni talab qilmoqda.

Shuningdek, konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida asosiy qonunning zamonaviy rivojlanish sharoitida jamiyat talablariga moslashuvi, huquqiy normalarning amaliy samaradorligi, inson huquqlari ustuvorligining ta’minlanish darajasi ham tadqiqotga muhtoj bo‘lgan dolzarb masalalardandir.

2023–yil 30-aprelda umumxalq referendumi orqali Konstitutsiyaning yangi tahriri qabul qilindi. Hujjat matni sezilarli darajada yangilandi — moddalar soni 128 dan 155 taga, normativ me’yorlar soni esa 275 dan 434 taga ko‘paydi. Prezident vakolati muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. Parlament va mahalliy hokimiyat tizimida struktura va vakolatlar qayta ko‘rib chiqildi: masalan, Senat a’zolari soni qisqartirildi, 100 dan 65 taga tushirildi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari, xalq deputatlari kengashlari va mahalliy boshqaruv tizimida vakolatlar va ularning ishlash tartibi qayta belgilanib, ma’muriy-hududiy boshqaruv tuzilmasi yangilandi. Huquqiy davlat, sud mustaqilligi va qonun ustuvorligi tamoyillari mustahkamlandi, sud mustaqilligi va advokatlik faoliyati kafolatlari kuchaytirildi, konstitutsiyaviy shikoyat instituti joriy qilindi. “Konstitutsiyaviy shikoyat instituti” — bu fuqarolarga yoki tashkilotlarga o‘z konstitutsiyaviy huquqlari buzilgan deb hisoblagan holatlarda bevosita konstitutsiyaviy sudga yoki vakolatli organlarga murojaat qilish imkoniyatini beruvchi mexanizm. Agar shaxs yoki tashkilot davlat organi qaroriga, qonunga yoki boshqa huquqiy aktga

binoan o‘z konstitutsiyaviy huquqlari poymol qilinayotganini sezsa, u shu institut orqali rasmiy shikoyat kiritadi va sud (yoki vakolatli organ) uni konstitutsiyaga muvofiqligini tekshiradi. Ko‘plab davlatlarda konstitutsiyaviy shikoyat instituti mavjud. Germaniyada “Verfassungsbeschwerde” — shaxsiy konstitutsiyaviy shikoyat imkoniyati, Federal Konstitutsiyaviy Sudga murojaat qilinadi. Fransiyada fuqarolarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri konstitutsiyaviy shikoyat qilish huquqi an’anaviy tarzda cheklangan, lekin 2008-yildan so‘ng “Question prioritaire de constitutionnalité” (QPC) instituti joriy qilindi. QPC — bu fuqarolar yoki yuridik shaxslar sud jarayonida qaror qabul qilinayotgan paytda qonunning konstitutsiyaga mosligini shikoyat qilish huquqidir. Mazkur institutlar demokratik jamiyatlarda fuqarolar huquqini mustahkamlash va davlat organlarini nazorat qilish mexanizmi sifatida ishlaydi.

Ushbu o‘zgartirishlar Konstitutsiyani faqat eski matnni yangilash emas, balki mamlakatning “shaxs-jamiyat-davlat” munosabatlarida shaxs va fuqarolik huquqlarini ustuvor qilishga yo‘naltirilganligi bilan diqqatga molik.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yillarda fuqarolik jamiyati institutlari qatoriga kiruvchi nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), jamoat birlashmalari, mahalla va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari kabi strukturalar faollashdi. So‘nggi besh yilda mamlakatda NNTlar soni 22% ga oshdi, jumladan “katta respublika darajasidagi” taxminan 200 dan ortiq yangi NNTlar ro‘yxatdan o‘tkazilganligi qayd etilgan. 2022-yilda davlat budjetidan NNT-lar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy ahamiyatli loyihalarini qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan mablag‘lar oldingi davrlarga nisbatan 5 barobarga oshirilgan.

Konstitutsiyaning 65-moddasida barcha mulkchilik shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta’minlanishi ta’kidlangan. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiy raqobatni rag‘batlantiradi va yangi tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu norma davlatning iqtisodiy sohada adolatli muhit yaratishga intilishi va turli mulkchilik shakllarini bir xil darajada qo‘llab-quvvatlashini ta’kidlaydi. Shu tariqa, davlat xususiy, davlat, jamoat va boshqa mulk shakllarini qonun oldida tenglashtiradi, ularning huquqlarini himoya qiladi hamda noqonuniy aralashuvlarni cheklaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolarning shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlari aniq va keng ko‘lamda belgilangan. Shaxsiy hayotning daxlsizligi, uy-joy daxlsizligi, shaxsiy ma’lumotlar sir saqlanishi kabi huquqlar 31-modda bilan kafolatlangan. Bu o‘zgarishlar orqali davlat siyosatining legitimligi ortibgina qolmay, balki fuqarolarda huquqiy qoniqishni ham keltirib chiqaradi.

Mehnat qilish, kasb tanlash, xavfsiz sharoitda ishlash va end kamida minimal ish haqi bilan ta’minlanish huquqlari 42-modda bilan belgilangan bo‘lib, davlat mehnat bilan ta’minlash va kasbiy tayyorgarlikni rag‘batlantirish majburiyatini oladi. Fuqarolarning ijtimoiy himoya va kambag‘allikni kamaytirish huquqlari 43-modda orqali kafolatlanadi, davlat ushbu yo‘nalishda aniq choralar ko‘rishga majburdir.

Shuningdek, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi huquqlar 50 va 51-modda orqali nazarda tutilgan.Umumiy o‘rta ta’lim bepul va davlat nazorati ostida bo‘lishi, oliy ta’limda keng imkoniyatlar yaratish va malakali tibbiy xizmat olish huquqi kafolatlanadi. Bu holat Konstitutsiyani nafaqat siyosiy-huquqiy norma majmui, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi va farovonligining huquqiy poydevori sifatida qarashga imkon beradi. Bundan tashqari, 49-modda atrof-muhit va ekologik huquqni ta’minlaydi. Bunga ko‘ra har bir inson toza va sog‘lom muhitda yashash huquqiga ega bo‘lib, davlat ekologik barqarorlikni ta’minlash majburiyatini oladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolar davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqi mustahkamlangan. XXII bob, 128-modda saylash va saylanish huquqlarini kafolatlaydi. Har bir saylovchi bir ovozga ega, ovoz berish erkin va yashirin bo‘lishi shart, teng sharoitda amalga oshiriladi. Fuqarolik jamiyati va demokratik boshqaruv prinsiplari shu orqali mustahkamlanadi, davlat organlari va fuqarolar o‘rtasida mas’uliyatli hamkorlik shakllanadi, fuqarolar siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan faollikka undaladi.

Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasi fuqarolarning shaxsiy, ijtimoiy va siyosiy huquqlarini aniq va keng ko‘lamda belgilab, ularni real kafolatlar bilan ta’minlovchi institutlar va mexanizmlarni mustahkamlagan. Sud himoyasi, mehnat va ta’lim huquqlari, mulk daxlsizligi, ekologik va ijtimoiy kafolatlar, ariza va murojaat huquqlari – bularning barchasi Konstitutsiyaning demokratik jamiyat taraqqiyotidagi asosiy omillari sifatida xizmat qiladi.

Bu huquqiy konstruksiya yordamida O‘zbekiston jamiyati inson sha’nini hurmat qiladigan, adolat va tenglik tamoyillariga asoslangan, ijtimoiy barqarorlik va fuqarolar huquqlarini kafolatlovchi davlat sifatida shakllanish imkoniyatiga ega. Shunday qilib,

ISSN 3030-3230

Konstitutsiya faqat davlat boshqaruvi asosi emas, balki jamiyat taraqqiyoti, fuqarolik ongining shakllanishi va ijtimoiy adolatning kafolati sifatida yangi O‘zbekistonning poydevori hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Konstitutsiya davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy siyosiy-huquqiy poydevor sifatida milliy taraqqiyotning aniq yo‘l xaritasini belgilab beradi. Unda inson huquq va erkinliklarining ustuvorligi, davlat hokimiyati tarmoqlarining muvozanati, mahalliy boshqaruvning takomillashuvi, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining mustahkamlanishi kabi tamoyillar mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi bilan uyg‘unlashgan. Konstitutsiyada belgilangan normalarning hayotga to‘liq tatbiq etilishi siyosiy barqarorlikni mustahkamlab, ijtimoiy adolat va iqtisodiy modernizatsiyani jadallashtiradi. Shu jihatdan Asosiy qonun nafaqat mavjud huquqiy tartibotning mezoni, balki kelajak avlodlar uchun barqaror taraqqiyotning ishonchli yo‘l xaritasi vazifasini bajaradi.

Asosiy qonundagi aks etgan normalarning realizatsiya yuzasidan quyidagilarni taklif etish mumkin:

- konstitutsiyaviy qadriyatlarning real hayotga tatbiq etilishini kuchaytirish;
- Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqiy savodxonligini oshirish;
- Davlat boshqaruvining ochiqligi va hisobdorligini mustahkamlash;
- Normativ-huquqiy monitoring tizimini kuchaytirish.

Аннотация. В статье проводится научный анализ Конституции Республики Узбекистан как правовой основы национального развития, ее роли как главного критерия развития государства и общества, а также современных этапов конституционных реформ. Освещается влияние Конституции на процессы стратегического развития, гарантии прав человека и ее роль в модернизации государственного управления.

Ключевые слова: Конституция, национальное развитие, правовая основа, реформы, государственное управление, права человека.

Annotation. The article provides a scientific analysis of the Constitution of the Republic of Uzbekistan as the legal basis of national development, its role as the main criterion for the development of the state and society, as well as the current stages of constitutional reforms. The impact of the Constitution on the processes of strategic development, the guarantee of human rights, and its role in the modernization of public administration are highlighted.

Key words: Constitution, national development, legal framework, reforms, public administration, human rights.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.– Toshkent “Adolat nashriyoti”: 2023.
2. “Uzbekistan: New Constitution Takes Effect” — Library of Congress maqolasi, 2023. The Library of Congress
3. “10 main changes in Uzbekistan’s new constitution” — Kun.uz tahlili. Kun.uz
4. “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasi – huquqiy va adolatli davlat qurishning yorqin mayog‘i” — NHRC (Milliy Huquqiy Markaz) maqolasi. nhrc.uz+1
5. “Uzbekistan’s constitutional amendment expands human rights, freedom of expression” — AA (Anadolu Agency) maqolasi, 2023. Anadolu Ajansı
6. O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markazi (NHRC) “Fuqarolik jamiyati institutlari rivoji va ishtirokchiligi”. Rasmiy axborot materiali. – 2023. URL: https://nhrc.uz/en/news/m7517
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi rasmiy portali (constitution.uz).
8. “Prava cheloveka” (O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari portali).
9. “Fuqarolik jamiyati institutlari va mahalla tizimining konstitutsiyaviy asoslari.”Rasmiy maqola. – 2023.URL: https://pravacheloveka.uz/oz/news/m14932 (Murojaat sanasi: 2025-yil 6-dekabr).
10. OpenDemocracy. Walker, S.“Uzbekistan has 10,000 NGOs — but what do they do?”OpenDemocracy, 2021-yil.URL: https://www.opendemocra-cy.net/en/odr/uzbekistan-has-10000-ngos-what-do-they-do/(Murojaat sanasi: 2025-yil 6-dekabr).

YANGI O‘ZBEKISTONDA YANGI JAMOAT XAVFSIZLIGI KONSEPSIYASI

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

Annotatsiya. Mazkur maqolada Jamoat xavfsizligi universiteti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti bilan hamkorlikda yaqin, o‘rta va uzoq istiqbolda jamoat xavfsizligiga yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zamonaviy xavf-xatar va tahdidlar tahlili asosida ishlab chiqilgan yangi tahrirdagi jamoat xavfsizligi konsepsiyasining mazmun-mohiyati yoritilgan, subyektlar tasniflangan, amalga oshirish mexanizmi belgilangan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi konsepsiyasi, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, jamoat joyi, jamoat xavfsizligiga xavf-xatar, tahdid va tajovuz.

Tahliliy va tadqiqot tuzilmalari faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025-yil 10-oktabrdagi yig‘ilishining 8-sonli bayoni (4-ilova 70-bandi)da ilg‘or xorijiy amaliyot va xalqaro tajriba asosida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini isloh qilish Konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi belgilangan. Mazkur vazifasi ijrosini ta’minlash maqsadida, xorijiy tajriba hamda dunyoda va mamlakatimizda jamoat xavfsizligiga yuzaga kelayotgan asosiy xavf-xatar va tahdidlar tahlili asosida Jamoat xavfsizligi universiteti tomonidan yangi tahrirdagi “Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” loyihasi ishlab chiqildi.

Quyida mazkur konsepsiyaning mazmun-mohiyatiga to‘xtalib o‘tamiz.

I. O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlashning joriy holati tahlili

Yangi O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish, huquqbuzarlikni sodir etishga sabab bo‘layotgan ijtimoiy-maishiy muammolarni ijtimoiy profilaktika choralari tizimi orqali hal etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasida samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni **“Xalq manfaatlariga xizmat qilish”** tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi[1].

Ilk bor, O‘zbekiston Respublikasining **Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi tasdiqlandi**, mazkur tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan hujjat bilan **9 ta** davlat idoralarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan uzviy hamkorlikda har qanday xavf-xatarlarga **barvaqt javob berish mexanizmlari belgilab berildi**[2].

Buning natijasida O‘zbekistonning **xavfsiz davlat** sifatidagi **reyting** va **indekslardagi o‘rni yaxshilanib bormoqda**, **jumladan:**

butunjahon odil sudlov loyihasi (World Justice Project-AQSH) tashkiloti tomonidan har yili o‘tkaziladigan huquq ustuvorligi indeksining “Tartib va xavfsizlik indikatori” bo‘yicha O‘zbekiston, dunyoda **142 ta** davlat orasida **17-o‘rinni,** Osiyoda **49 ta** davlat orasida **5-o‘rinni,** Markaziy Osiyo va Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari orasida **1-o‘rinni egalladi[3];**

Buyuk Britaniyaning Iqtisodiyot va tinchlik institutining **“Safety Perceptions Index”** xavfsizlikni baholash indeksi bo‘yicha 2021-2024 yillar oralig‘ida **eng yaxshi natijani** qayd etib **146 ta** mamlakat orasida **29-o‘rinni** egallab **eng xavfsiz davlat deb tan olindi[4];**

“Transparency International” xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan 2024 yil yakunlari bo‘yicha **Korrupsiyani qabul qilish indeksida** mamlakatimiz 180 ta davlat orasida **121-o‘rinni, Jahon Boshqaruv sifati indikatorlarining korrupsiyani nazorat qilish** yo‘nalishida **0,81 ball** bilan **213 ta** davlat orasida **161-o‘rinni egallagan[5];**

MDH davlatlari orasida O‘zbekiston har **100 ming aholiga** nisbatan sodir etilgan jinoyatlar soni **(359,5 ta)** bo‘yicha **eng xavfsiz davlatlardan biri bo‘lib qolmoqda[6].**

Ayniqsa, mahalla jamoatchiligining faol ishtirokiga tayangan holda jinoyatni jilovlashning **“O‘zbek modeli”** xalqaro hamjamiyatning **yuksak e’tirofiga sazovor bo‘ldi.**

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga

 ISSN 3030-3230

o‘z faoliyatini **“Barcha say-harakatlar inson qadri uchun”** degan ustuvor g‘oya asosida **yanada takomillashtirish** zaruriyatini **keltirib chiqarmoqda.**

Shu nuqtai nazardan yangi tahrirdagi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi jamoat xavfsizligi sohasidagi barcha asosiy xavf-xatar va tahdidlarni qamrab olgan holda ularga qarshi kompleks kurashish uchun **konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi.**

II. Jamoat xavfsizligiga yuzaga kelayotgan asosiy tahdidlarning tahlili

Dunyoda va mamlakatimizda jamoat xavfsizligiga **yaqin, o‘rta va uzoq istiqbolda** yuzaga kelishi **mumkin bo‘lgan** asosiy **xavf-xatar** va **tahdidlar tahlili asosida** quyidagi **xulosaga kelishimiz mumkin:**

yaqin istiqbolda:

Birinchidan, ilmiy o‘rganishlarga ko‘ra, **so‘nggi to‘rt yilda** (2021–2024 y.) O‘zbekistonda oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlarning (33 foizga) **kamayish tendensiyasi** kuzatilgan bo‘lsa-da, **ayrim turdagi** jinoyatlar hamda **ayrim toifadagi shaxslar** jinoyatchiligining **salmog‘i yuqoriligicha qolgan, jumladan 2024 yilda[7]:**

a) jami **132 298 ta** jinoyatning **80 foizini – 44,4 %** (58 800 tasi) **kiberjinoyatlar**, **9,3%** (12 278 tasi) **giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi, 9%** (11 931 tasi) **o‘g‘rilik, 7,1 %** (9 365 tasi) **yo‘l-transport hodisalari, 6,2%** (8 216 tasi) **firibgarlik, 4,8%** (6 322 tasi) **qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlari tashkil etgan;**

b) jinoyat sodir qilgan shaxslar **(59 951 nafar)** soni **2,5 foizga** yoki **1 461 nafarga ortgan,** jinoyat sodir etgan shaxslarning **88 foizini** erkaklar, **12 foizini ayollar** tashkil etib, shundan **37,7 foizi yoshlar, 5,6 foizi voyaga yetmaganlar** bo‘lsa, jinoyatlar **10,9 foiz** holatda **ishsizlar** hamda **10,8 foiz** holatda **muqaddam sudlanganlar tomonidan sodir etilgan;**

v) oila-turmush doirasida 2 764 ta jinoyat sodir etilgan sodir etilgan, shundan **1 077 tasi oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik, 1 074 tasi badanga shikast yetkazish** va **155 tasi qotillik** jinoyatlari hisoblanadi, **eng achinarlisi,** qayd etilgan, **426 ta qotillikning 42,6 foizi** va **1 074 ta badanga shikast yetkazishning 17 foizi oila-turmush doirasida sodir etilgan;**

g) sodir etilgan jinoyatlarning **63 foizi iqtisodiy sohaga** to‘g‘ri kelib, korrupsiya sohasida **6 898 nafar shaxs** tomonidan **5 716 ta jinoyat sodir qilingan** va buning oqibatida davlat manfaatlariga **12,4 trln so‘m miqdorida zarar yetkazilgan. E’tiborli jihati, 506 nafar** muqaddam **korrupsiyaga oid jinoyatlari** uchun **javobgarlikka tortilgan** qayta **korrupsiyaga oid** jinoyat sodir etilib davlat manfaatlariga **2 trln 43 mlrd so‘m zarar yetkazilgan.**

d) 2024 yilda respublikada yo‘l-transport hodisasi bilan bog‘liq **9 365 ta jinoyat** sodir etilgan, buning **2 203 nafar** inson **halok bo‘lgan** va **8901 nafar** kishi tan jarohati olgan, bundan tashqari **yo‘l-transport hodisalari** natijasida **har kuni** o‘rtacha **6 ta inson vafot etmoqda.**

Ikkinchidan, tahlillarga ko‘ra, 2024 yilda kiberjinoyatlar dunyo iqtisodiyotiga, **9,5 trln AQSH** dollari (2022 yilda **26 mlrd.** AQSH dollari) miqdorida zarar keltirgan (2025 yil yakuni bo‘yicha **10 trln AQSH** dollariga yetishi prognoz qilinmoqda), O‘zbekistonda kiberjinoyatlar **603 mlrd so‘m zarar keltirib**, 2019 yilda **863 ta kiberjinoyat** sodir etilgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib **58 800taga** yetib umumiy jinoyatchilikning **44,4%ni** tashkil qilgan. 2025 yilning 9 oyi davomida **46 642 ta kiberjinoyat sodir etilib**, umumiy jinoyatlarning **47%ni tashkil qilgan** (2025 yilda yana **10-15 %ga o‘sishi prognoz qilingan**)[8].

O‘zbekistonda **2025 yilning 9 oyi** davomida axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan **jinoyatlarning 191 nafari (yoki 11 foizi)** voyaga yetmaganlar va **1 194 nafari (yoki 66 foizi)** yoshlar tomonidan sodir etilganligi, **yosh avlodning** axborot texnologiyalari bo‘yicha **bilimlari jinoyat quroliga aylanganligidan** hamda bu **tendensiya yanada o‘sib borishidan dalolat bermoqda[9].**

Uchinchidan, o‘tkazilgan ilmiy o‘rganishlarga ko‘ra **jamoat xavfsizligiga** quyidagi **ehtimoliy xavf-xatarlar aniqlangan, jumladan[10]:**

a) aholining **ijtimoiy-iqtisodiy** (elektr energiyasi, gaz, suv ta’minoti, ishchi o‘rinlari va bosh.) **ehtiyojlarining yetarli darajada qondirilmasligi;**

b) quyi (mahalla va tuman) **darajada** aholining **murojaatlari** bilan ishlash **tizimidagi muammolar**, muammolarning o‘z vaqtida **hal etilmasligi** va murojaatchilarga **yetarli darajada tushuntirish berilmasligi**;

v) aholi turmush tarzida **diniy muhit va radikallashuvning** ortib borayotganligi;

g) aholining demografiyasiga nisbatan **ijtimoiy infratuzilmaning nomutanosib rivojlanganligi** (maktab, bog‘cha, shifoxona, avtoturargoh va boshqa obyektlarning yetishmasligi);

d) poytaxt va **yirik shaharlardagi ichki**

migratsiya jarayonlarining **tartibga solinmasligi** natijasida **ijtimoiy yuklamaning ortishi**, shu jumladan, **yo'llardagi yuqori darajadagi tirbandliklarning ortishi;**

ye) aholining ayniqsa, **voyaga yetmaganlar** va **yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatining yetarli emasligi;**

yo) tabiiy va **texnogen** xavfli **obyektlarda**, shuningdek **bozorlar** va **savdo komplekslarida texnika** hamda **yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilmasligi;**

j) hududlardagi **sanitariya-epidemiologiya** nazorati va **profilaktikasi** tizimidagi **muammolar.**

o'rta istiqbolda:

birinchidan, globallashuv va axborot-kommunikatsion texnologiyalarning jadal rivoji jamiyatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini yemiruvchi **ijtimoiy-madaniy harakatlar (submadaniyatlar)**, diniy-ekstremistik oqimlar, axborot-psixologik ta'sir vositalari va ijtimoiy degradasiyani targ'ib etuvchi layfstayllarning keng tarqalishiga olib kelmoqda, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda **"vloger"** va **"inflyuenser"** ko'rinishidagi shaxslar orqali axloqsizlikni **«imidj»** sifatida ko'rsatish tobora **avj olmoqda[11].**

Ikkinchidan, dunyoning ayrim mamlakatlarida **aholining ijtimoiy-iqtisodiy muammolari** o'z vaqtida hal etilmaganligi, birlamchi **ehtiyojlari qondirilmaganligi**, shuningdek **zamonaviy yoshlarni "Avlodlar nazariyasi"** asosida chuqur o'rganib, yoshlar bilan ishlash bo'yicha **zamonaviy yondashuv** va **strategiya ishlab chiqilmaganligi** natijasida ayrim mamlakatlardagi **ijtimoiy-iqtisodiy muammolar** zamirida ommaviy tartibsizliklar **yuzaga kelgan[12].**

uzoq istiqbolda:

Birinchidan, BMTning ekologik xavfsizlik bo'yicha hisobotida, insoniyat uchun kelgusi **o'n yillikda** quyidagi global ekologik tahdidlar keltirib o'tilgan[13]:

– global iqlim o'zgarishi;

– havoning ifloslanishi;

– ozon qatlamining yemirilishi;

– muzlarning erishi, chuchuk suv zaxiralarining kamayishi va suvning ifloslanishi;

– atrof-muhitni chiqindilar bilan ifloslanishi va boshqalar.

Ekologik o'zgarishlar va ularning oqibatlari turli **surunkali kasalliklarning** kelib chiqishiga, **tabiiy resurslarning kamayishiga**, shuningdek turli **ijtimoiy va harbiy nizolarni** kelib chiqishiga olib kelishi mumkin.

Global ekologik muammolar O'zbekistonni ham chetlab o'tgani yo'q, **masalan:**

a) Toshkent shahri havo sifati indeksi (AQI+) va atmosfera ifloslanishi darajasi bo'yicha Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan o'rnatilgan me'yordan bir necha barobar xavfli bo'lib dunyo mamlakatlari orasida **birinchi o'nlikdan o'rin olgan;**

b) so'nggi 15 yilda aholi jon boshiga yillik suv xajmi **3048 m^3 dan 1589 m^3 gacha kamaygan,** jahon banki ma'lumotiga ko'ra, **2050 yilga** borib O'zbekistonda joriy **suv tanqisligi besh barobarga** (2 km^3 dan 11-12 km^3 gacha), suvga bo'lgan talab esa **59 km^3 kmdan 62-63 km^3gacha oshadi** va mavjud suv resurslari **57 km^3dan 52-53 km^3gacha** kamayadi. Bundan tashqari chuchuk suv taqchilligi **yalpi ichki mahsulotning 11%ga pasayishiga** olib kelishi **prognoz qilinmoqda[14];**

v) BMTning prognoziga ko'ra, **2050 yilga kelib** ekologik muammolar natijasida yer sayyorasida ekologik migrantlar soni **216,0 mlndan 1,2 mlrdga** yetadi, bu ko'rsatkich Markaziy Osiyoda **2,4 mlnga yetishi kutilmoqda**, bu esa o'z navbatida bir qator **ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga olib kelishi mumkin[15].**

Ikkinchidan, 2024-yilda Global Ochlik Indeksi (Global Hunger Index, GHI) bo'yicha, O'zbekiston 2021 – 2023 yillarda **21 ball** bilan **eng yuqori natijalarni qayd etib**, Markaziy Osiyoda **oziq-ovqat xavfsizligi** borasida **yetakchilik qilmoqda**. Bu ko'rsatkich O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi siyosiy va institutsional **yondashuvlarining samaradorligini ko'rsatadi[16].**

Shu bilan birga oziq-ovqat xavfsizligi sohasida **bir qator xavf-xatar va tahdidlar saqlanib qolmoqda**, **jumladan:**

a) iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, yer sho'rlanishi (yoki eroziyasi) va boshqa omillar ta'sirida **hosildorlikning tushib ketishi;**

b) oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarishda **pestisidlar (2025 yilga kelib 85 foizga ortgan)**, **gen-modifikatsiyalangan hosilalardan**, boshqa turli kimyoviy va biologik **birikmalarni qo'llashning ortishi;**

v) dunyoda ortiqcha vazn olish (semirish) holatlarining ortishi **(Butun jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, dunyo aholisining 20 foizi ortiqcha vaznga ega bo'lsa, 2050 yilga kelib bu ko'rsatkich 60 foizdan ortadi)** inson salomatligi **uchun jiddiy xavf solmoqda.**

Yuqorida sanab o'tilgan xavf-xatar va tahdidlar kelgusida:

ISSN 3030-3230

i. Suv va oziq-ovqat tanqisligiga;
ii. Ekologiya va atrof-muhit ifloslanishining qaytarib bo‘lmas nuqtasiga yetishiga;
i. Yuqumli, surunkali va pandemik kasalliklarning tarqalishiga;
i. Aholining sog‘lig‘i va genofondining buzilishiga;
ii. Aholi noroziligining o‘sishi va ommaviy tartibsizliklarga;
iii. Ijtimoiy, madaniy va ma’naviy qadriyatlarning yemirilishi va jamiyatning degradatsiyasiga;
iv. Energetika, oziq-ovqat va boshqa sohalarda o‘zga davlatlarga bog‘liqlikning ortishi orqali suverenitetni yo‘qotishiga;
ii. Iqtidorli yoshlar, ziyolilar va olimlarning mamlakatdan chiqib ketishiga;
v. Jinoyatchilikning, xususan kiberjinoyatchilikning keskin o‘sishiga;
vi. Pul qadrsizlanishi, iqtisodiy zanjirlarning uzilishiga, qashshoqlik darajasining ortishiga va boshqa **og‘ir oqibatlarga olib kelishi ehtimoli mavjud.**

III. Konsepsiyaning maqsadi va vazifalari

O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash Konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya)ning **asosiy maqsadi,** milliy xavfsizlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi **davlat siyosatini**, jamoat xavfsizligiga **asosiy tahdidlarni** va ularga **qarshi kurashish mexanizmlarini belgilash** hamda ijtimoiy **munosabatlarni tartibga solish** hisoblanadi.

Konsepsiya quyidagi **chora-tadbirlarni** amalga oshirish orqali **ro‘yobga chiqariladi:**

1) jamoat xavfsizligiga asosiy **tahdidlar belgilab olinadi;**

2) tahdidlarga qarshi kurashish bo‘yicha **davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari belgilanadi** va amalga oshiriladi;

3) jamoat xavfsizligini ta’minlash **subyektlari tasniflanadi** va vazifalari belgilanadi;

4) jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha manzilli **Strategiyalar va yo‘l xaritalari ishlab chiqiladi**;

5) mavjud xavf-xatar va tahdidlar asosida Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida **maqsadli fundamental va innovatsion ilmiy-amaliy tadqiqotlar** chuqurlashtiriladi;

6) Jamoat xavfsizligiga xavflarning holati va darajalarini belgilovchi **mezonlarni va asosiy ko‘rsatkichlar (indikatorlarni)** ishlab chiqiladi;

7) jamoat xavfsizligining ta’minlanganligi holatini tizimli ravishda **monitoring qilish** va **baholab borish** uchun jamoat xavfsizligi bo‘yicha **Muvofiqlashtiruvchi Kengash tuziladi** va faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan, agarda qonunchilik hujjatlarida o‘zgacha qoidalar nazarda tutilgan bo‘lsa mazkur **Konsepsiyaga muvofiqlashtirilishi lozim.**

Konsepsiyada jamoat xavfsizligi sohasidagi bir qator tushunchalarga huquqiy ta’rif berilgan, **jumladan:**

jamoat xavfsizligi – milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi bo‘lib, jamiyatning hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi xavf-xatarlar, tahdidlar va tajovuzlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi;

jamoat xavfsizligiga xavf-xatarlar – jamiyatning hayotiy muhim manfaatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatish ehtimoli bo‘lgan holat, hodisa yoki tahlikali vaziyat va jarayonlar;

jamoat xavfsizligiga tahdidlar – bu jamiyatning hayotiy muhim manfaatlariga xavf tug‘diruvchi sabablar, shart-sharoitlar, voqea, hodisa, jarayon va holatlar;

jamoat xavfsizligiga tajovuzlar – bu jamiyatning hayotiy muhim manfaatlariga real xavf soluvchi, ijtimoiy munosabatlarni izdan chiqaruvchi hamda ziyon yetkazuvchi voqea, hodisa va jarayonlar.

jamiyatning hayotiy muhim manfaatlari – bu qanoatlantirilishi jamiyatning izchil rivojlanishi, uning xavfdan holi holatda mavjud bo‘lishi va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishini, ishonchli kafolatlaydigan ehtiyojlar majmuidir;

jamoat xavfsizligini ta’minlash – jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan tashkiliy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborot, huquqiy va boshqa chora-tadbirlar majmui;

jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlari – jamoat xavfsizligini ta’minlashda bevosita (yoki bilvosita) ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalar, jamoat birlashmalari va tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, boshqa organlar va tashkilotlar, shuningdek jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etuvchi jismoniy va yuridik shaxslar;

jamoat xavfsizligini ta’minlash

sohasida rahbarlikni amalga oshiruvchi subyektlar – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan tartibda xavfsizlikni ta'minlashga bevosita mas'ul bo'lgan hamda xavfsizlik sohasida rahbarlikni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxslar va davlat organlari;

jamoat xavfsizligini ta'minlashga bevosita mas'ul bo'lgan subyektlar - o'z vakolatlari doirasida jamoat xavfsizligini ta'minlashda bevosita ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalar;

jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini ilmiy-metodik, axborot-tahliliy yo'nalishda ta'minlovchi subyektlar – jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida ilmiy-tadqiqot, axborot-tahliliy faoliyatni amalga oshiruvchi ilmiy (amaliy) va axborot-tahlil markazlari, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati muammolarini o'rganuvchi institutlar;

jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini moddiy-texnik ta'minlashda ishtirok etuvchi subyektlar – jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlarini zaruriy tibbiy, texnik jihozlar, qurol-aslaha va maxsus texnikalar, maxsus vositalar va boshqa vositalar bilan ta'minlovchi davlat organlari va nodavlat ishlab chiqarish tashkilotlari;

jamoat xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashuvchi subyektlar – jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat organlariga ko'maklashuvchi jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, jismoniy va yuridik shaxslar, volontyorlik harakatlari, "Fidokor yoshlar" patrullik jamoatchilik guruhlari va boshqalar;

Jamoat xavfsizligi bo'yicha Respublika ekspert kengashi – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida doimiy asosda tashkil etiladigan, jamoat xavfsizligining ta'minlanganligi holatini tizimli ravishda monitoring qilish va baholab borish, Konsepsiya, Strategiya va Yo'l xaritalari ijrosini va boshqa tashkiliy ishlarni muhokama qiluvchi kollegial-maslahat organi.

jamoat tartibi – axloq, ma'naviyat, urf-odat va an'analar normalariga asoslangan jamoat hayotining ma'lum bir tartibini belgilaydigan, fuqarolarning jamoat joylarida birga bo'lganda yurish-turish huquqiy norma va xulq-atvor qoidalari majmui;

jamoat joyi – to'siqlarsiz kirish (bo'lish) uchun ruxsat etilgan yoki fuqarolarning turli ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan ommaviy yig'ilishi mumkin bo'lgan joylarning hududi, binolar, inshootlar va ularning qismlari, shuningdek transport kommunikatsiyalari.

Konsepsiyada jamoat xavfsizligi asosiy ikki turga bo'linadi, bular **tabiiy** va **antropogen xavfsizlik.**

Tabiiy xavfsizlik – bu yerda jamoat xavfsizligiga tahdidlarning manbai turli xil tabiiy hodisalar va jarayonlardir. Tabiatdagi xavfning asosiy manbai hali ham inson tomonidan boshqarila olmaydigan tabiat hodisalari (bo'ronlar, zilzilalar, vulqon otilishi va boshqalar) hisoblanadi**. Tabiiy xavfsizlikni ta'minlash** biroz mushkul hisoblanadi, sababi ilm-fan qanchalik rivojlanmasin haligacha tabiat hodisalarini oldindan prognoz qilish yoki oldini olish usullari yaratilmagan.

Antropogen xavfsizlik – to'liq inson omili bog'liq bo'lib, bunda inson bevosita (yoki bilvosita), harakat (yoki harakatsizligi) bilan turli xil tahdidlar keltirib chiqaradi. Tabiiy xavfsizlikdan farqli o'laroq antropogen xavfsizlikka tegishli tahdidlarni oldini olish va bartaraf etish imkoni mavjud.

IV. Jamoat xavfsizligiga tajovuz qiluvchi asosiy tahdidlar klassifikatsiyasi

Xorijiy tajriba va ilmiy adabiyotlarda jamoat xavfsizligiga tajovuz qiluvchi asosiy xavf-xatar va tahdidlar sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

a) Tabiiy xavfsizlik sohasida:

1) yer silkinishi;
2) qor, sel ko'chishi;
3) suv toshqini;
4) yer o'pirilishi va boshqa tabiiy ofatlar.

Tabiiy ofatlar davrida aholini **tezkor xabardor qilish**, **evakuasiya** ishlarini samarali tashkillashtirish, atrof-muhitni loyihalashtirishda mazkur **omillarni inobatga olish** orqali talafotlarni **minimallashtirish va oqibatlarini yumshatish** tizimi samaradorligini **oshirish talab etiladi.**

b) Antropogen xavfsizlik sohasida:

1) siyosiy sohadagi jamoat xavfsizligiga tahdidlar:

– davlat hokimiyati organlaridagi **byurokratik to'siqlar**, qaror qabul qilishdagi **kamchiliklar**, **shaffoflikning pastligi** va **mansabdor shaxslar** uchun **siyosiy javobgarlikning yo'qligi**;

– Korrupsiya va mansabdor shaxslar o'rtasidagi **manfaatlar to'qnashuvining avj olishi;**

– huquqni muhofaza qiluvchi organlarda **mansab vakolatini suiiste'mol qilish**, fuqarolarning huquqlarini **qonunga xilof ravishda cheklash holatlarining ortishi;**

– odil sudlov tizimidagi **kamchiliklar**,

ISSN 3030-3230

sudlarning insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini **to‘liq ta’minlay olmasligi;**

– qonun ijodkorligi, yangi normalarni qabul qilish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda **jamoatchilikning fikrini yetarli darajada inobatga olmaslik;**

– fuqarolarning jamiyat va davlatning **hayotiga befarqligi** va **siyosiy faolligining pastligi;**

– umumiy **jinoyatchilikning** yoki ayrim turdagi **jinoyatlarning keskin o‘sishi;**

– davlat hokimiyati organlariga va uning **institutlariga nisbatan ishonchsizlik** va **norozilik kayfiyatining ortishi**, **davlat xizmatchisi imijini tushib ketishi;**

– noqonuniy tashkilotlarning (shu jumladan diniy, ekstremistik va boshqa tashkilotlarning) faoliyati va boshqalar.

2) iqtisodiy sohadagi jamoat xavfsizligiga tahdidlar:

– muvozanatsiz **iqtisodiy siyosat** va buning oqibatida **aholining ijtimoiy turmush darajasining pasayishi;**

– pul muomalasi, moliyaviy, bank, kredit va valyuta tizimlarining **beqarorlashuvi**, milliy valyutaning **sezilarli darajada qadrsizlanishi;**

– davlat budjeti daromadlarining, oltin-valyuta **zaxiralarining qisqarishi**, tashqi **qarzlarning o‘sishi**, inflatsiyaning prognoz ko‘rsatkichlaridan **yuqori bo‘lishi**, **kapitalning chiqib ketishi;**

– aholining aksariyat qismi turmush darajasining **keskin pasayishi**, **mulkiy farqlanishining kuchayishi**, turmush darajasi va jamiyatning **ijtimoiy parchalanishi** ortidan **sezilarli qutblanish;**

– xufyona iqtisodiyotning **yuqori darajasi** va uning **ijtimoiy-iqtisodiy** rivojlanish uchun **salbiy oqibatlarini saqlanib qolishi**;

– yer resurslarining **meliorativ holatining** yomonlashishi, **yer, suv va mineral** resurslarning ayrim turlarining **kamayishi,** qishloq xo‘jaligining texnologik jihatdan **ortda qolishi**, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatidagi asosiy vositalarning **yomonlashuvi,** oziq-ovqat xavfsizligi **tamoyillarining buzilishi;**

– qishloq xo‘jaligi sohalari uchun **iqlim o‘zgarishining salbiy ta’siri;**

– aholini **eng zarur tovarlar** bilan ta’minlash, uning **sifati ustidan nazoratni** amalga oshirish **sohasida monopoliyaga** qarshi **siyosatning samarasizligi va boshqalar.**

3) ijtimoiy sohadagi jamoat xavfsizligiga tahdidlar:

– iqtisodiy va ijtimoiy muvozanatning buzilishi;

(i) iqtisodiy rivojlanish **sur’atining demografik jarayonlar** va **ijtimoiy infratuzilma** rivojlanishi bilan **nomutanosibligi;**

(i) ishsizlikning o‘sishi va **nazoratsiz mehnat migratsiyasi;**

(i) aholi uchun **sifatli ta’lim**, **tibbiy xizmat** va boshqa **birlamchi xizmatlardan** foydalanish **imkoniyatlarining cheklanishi;**

– inson huquqlari va ijtimoiy adolatning ta’minlanmasligi;

(i) shaxsning qonuniy huquq va **manfaatlarining buzilishi**, **huquq ustuvorligi qonun ustuvorligidan ortda qolishi;**

(ii) davlat organlari va institutlarining inson huquq va erkinliklarini ishonchli ta’minlashdagi **harakatsizligi** yoki **yetarli emasligi;**

(iii) aholining ijtimoiy **zaif qatlamlariga** (kam ta’minlanganlar, ayollar, bolalar, nogironlar) nisbatan **adolatsizlik** va **zo‘ravonlik holatlarining ortishi;**

– sog‘liqni saqlash va aholi salomatligi bilan bog‘liq muammolarning ortishi;

(i) aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish **sifati** va **qamrovining pastligi;**

(ii) sog‘liqni saqlash va sanitariya-epidemiologiya tizimi **samaradorligining pastligi**, zamonaviy **xalqaro standartlarga javob bermasligi;**

(iii) OIV, sil, epidemiyalar va boshqa epidemiologik kasalliklarning **keng tarqalishi;**

(iv) giyohvandlik, alkogolizm, lugomaniya, jamiyatda nosog‘lom turmush tarzining **keng yoyilishi** va ular bilan bog‘liq **ijtimoiy muammolar;**

(v) o‘lim, kasallanish va nogironlik **darajasining ortishi;**

– ta’lim va tarbiya sohasidagi kamchiliklar;

(i) ta’lim sifati va aholi **savodxonligining pasayishi;**

(ii) iqtidorli yoshlar, ziyolilar va olimlarning **xorijga chiqib ketishi;**

(iii) jamiyatning ma’naviy **tanazzuli** va axloqiy **qadriyatlarning yo‘qolishi;**

(iv) ta’lim sohasidagi korrupsiyaning **kuchayishi**, ta’lim dasturlari **zamon talablariga javob bermasligi**;

– ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning tanazzulga uchrashi;

(i) aholining, ayniqsa yoshlarning **radikal diniy** va boshqa **buzg‘unchi** mafkuralar **ta’siriga berilishi;**

(ii) ekstremizm, terrorizm, separatizmga **moyillikning ortishi;**

(iii) axloqiy va ma’naviy asoslar va madaniy qadriyatlarga putur yetkazish, **axloqsizlik, zo‘ravonlik** va **shafqatsizlikni** targ‘ib qilish, jamiyat a’zolarida **agressiyaning ortishi;**

(iv) boshqa din vakillariga nisbatan murosasizlik g‘oyalarini tarqatish, **ksenofobiya** va **irqiy murosasizlik;**

(v) jamiyatning tashqi mafkuraviy ta’sirlarga tushib qolishi, fuqarolarning o‘z vatanidan faxrlanish tuyg‘usi, uning ko‘p asrlik tarixi, boy **ma’naviy-madaniy, intellektual merosi** va kelajagiga bo‘lgan **ishonchining pasayishi.**

4) axborot va axborot-mafkuraviy sohasidagi jamoat xavfsizligiga tahdidlar:

siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni, fuqarolar tinchligini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni **buzishga qaratilgan** turli **axborotlarni keng tarqatilishi;**

mamlakatda bo‘layotgan voqea-hodisalar haqida xorijiy ommaviy- axborot vositalari va butunjahon internet tarmog‘i orqali jamoatchilik ongida salbiy fikr uyg‘otish maqsadida to‘g‘risida **noxolis ma’lumotlarni tarqatish;**

milliy axborot makonida xorijiy ommaviy-axborot vositalari hamda turli xil kontent va media xizmatlari **mahsulotlarining ustunlik qilishi;**

ekstremistik va terroristik faoliyatni amalga oshirish, shuningdek transmilliy jinoyatlarning sodir etilishida **axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;**

milliy va qadriyatlarni yemirishga, axloqsizlik, bir jinslilik va boshqa yod (buzg‘unchi) g‘oyalarni targ‘ib qilishga qaratilgan axborotlarni tarqatishda **ommaviy axborot vositalari** va **axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;**

bolalarning sog‘lig‘i va hayotiga tahdid soluvchi, ularning ruhiyatini shikastlovchi va hayoti uchun xavf tug‘diruvchi harakatlarga majbur qiluvchi **vayronkor axborotlarni tarqatish.**

4) texnogen sohadagi jamoat xavfsizligiga tahdidlar:

ko‘p sonli texnogen favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi;

texnologik xavfli jarayonlarda **eskirgan** va **nosoz uskunalardan foydalanish;**

ishlab chiqarish jarayonida **texnologik standartlar** va **me’yorlarga rioya qilmaslik** va texnologik standartlarning **ma’nan eskirganligi;**

xavfli yuklarni **saqlash va tashish qoidalarini buzish**;

tabiiy va texnogen xavfli obyektlarda, shuningdek bozorlar va savdo komplekslarida **texnika** hamda **yong‘in xavfsizligi talablariga rioya etilmasligi;**

ishlab chiqarish va turar-joy binolarini qurishda loyiha hujjatlarini va qo‘yilgan qurilish **standarti talablarini buzish** va **boshqalar.**

5) ekologik (atrof-muhit) sohasidagi jamoat xavfsizligiga tahdidlar:

Orol **dengizining qurishi**, **suv tanqisligi**, suv havzalarining ekologik **holatining yomonlashishi**, transchegaraviy **ifloslanish** muammosining **kuchayishi** va **ichimlik suvi sifatining pasayishi**;

sanoat va texnogen **ifloslanish,** shuningdek maishiy va sanoat **chiqindilari muammosi;**

qishloq xo‘jaligidagi **ekologik muammolar** va **biologik xavflar;**

ekologik jihatdan xavfli texnologiyalar, moddalar, materiallar va transgen o‘simliklar, odamlar, hayvonlar, o‘simliklar va organizmlar uchun **xavfli patogenlarni** nazoratsiz olib kirilishi, **genetik modifikatsiyalangan o‘simliklar**, organizmlar, moddalar va olingan mahsulotlardan **asossiz foydalanish;**

zaharli va ekologik xavfli **chiqindilarni utilizatsiya** qilish bo‘yicha **komplekslarning eskirganligi va boshqalar.**

IV. Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat siyosati

Konsepsiyada jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi **milliy manfaatlar** quyidagilardan iborat ekanligi belgilangan:

jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash;

fuqarolarning huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, aholining munosib turmush kechirishlari va kamol topishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berish;

milliy-ma’naviy qadriyatlar, urf-odatlarni va milliy tariximizni saqlab qolish, jamiyatda yod g‘oyalar ta’siriga qarshi immunitet hosil qilish;

atrof-muhitni asrash, suv tanqisligi va boshqa ekologik muammolarni hal qilish;

aholining huquqiy ongi va siyosiy-huquqiy madaniyatini, siyosiy hamda ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas’uliyatini oshirish asosida mamlakatda huquqiy jamiyatni barpo etish va mustahkamlash;

jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, ijtimoiy profilaktika samaradorligini oshirish orqali O‘zbekistonda har 100 ming aholiga jinoyatlar soni MDHga a’zo mamlakatlarning o‘rtacha ko‘rsatkichidan past holda saqlab turish;

jamiyatda millatlararo va dinlararo munosabatlarni, diniy bag‘rikenglik madaniyatini, do‘stlik, o‘zaro hamkorlik va gumanizmni har tomonlama mustahkamlash;

ISSN 3030-3230

dunyoda doimiy ravishda kechayotgan o‘zgarishlar va ular bilan bog‘liq real hamda ehtimoliy tahdidlar sharoitida jamiyatning o‘zligini (tili, madaniyati, ijtimoiy tuzilishi, milliy o‘ziga xosligi va dinini), ya’ni o‘zini o‘zi saqlab qolish qobiliyati va salohiyatini mustahkamlash;

aholini sog‘lom turmush tarziga keng jalb qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, genofondni saqlash, irsiy, yuqumli va pandemik kasalliklarni oldini olish.

Bundan tashqari, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida **davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari** quyidagilardan iborat:

jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, axborot va axborot-mafkuraviy, texnogen va ekologik xavfsizlik sohasidagi manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlash;

jamoat xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan keng qamrovli maqsadli dasturlarni qabul qilish va ularning ijrosini ta’minlash;

jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi huquqiy bo‘shliqlarni to‘ldirib borish, qonunchilik bazasini mustahkamlash, qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarida xalq manfaatini e’tiborga olish;

jamoat xavfsizligini ta’minlashda barcha davlat organlari, jamoatchilik birlashmalari va fuqarolik jamiyati institutlarining roli va mas’uliyatini oshirish;

jamoat xavfsizligini ta’minlash jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish samaradorligini oshirishda ilg‘or xorijiy davlatlarning **CPTED, Profayling, ODARA, B-SAFER, CRAF, MARAC** kabi ilg‘or g‘oyalar asosida zamonaviy yondashuvlarni joriy etib borish, shuningdek sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt, uchuvchisiz uchadigan apparatlar va robototexnika tizimlarini keng joriy etish;

har qanday ko‘rinishdagi terroristik va ekstremistik faoliyatni aniqlash va unga chek qo‘yish, korrupsiya, giyohvand va psixotrop moddalar, qurol, o‘q-dori, portlovchi moddalar, noqonuniy migratsiya va odam savdosi hamda inson huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyat va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish;

mahallalarda, bozorlar, savdo komplekslari, ommaviy tadbir o‘tkazish joylari, turizm obyektlarida va boshqa jamoat joylarida xavfsiz muhitni yaratish choralarini ko‘rish;

transport infratuzilmasini, transport vositalarining xavfsizlik standartlarini va yo‘l harakati qoidalarini takomillashtirish orqali yo‘l-transport hodisalari oqibatida yetkaziladigan zarar va o‘lim bilan bog‘liq holatlarning oldini olish;

ijtimoiy profilaktika obyektlarining ijtimoiylashuvini ta’minlash, shu jumladan ularni kasb-hunarga o‘qitish va tadbirkorlikka keng jalb qilish orqali ushbu toifadagi fuqarolar tomonidan jinoyat sodir etilishini oldini olish;

aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatlik favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, fuqaro muhofazasi, yong‘in xavfsizligini ta’minlashda aholining ko‘nikmalarini shakllantirish va doimiy takomillashtirib borish;

voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, terrorizm, ekstremizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoyalashga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshirish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish;

aholining energiya resurslari, oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar va tibbiy xizmatga bo‘lgan birlamchi ijtimoiy ehtiyojlarini qondirib borish va daromadlarini birlamchi ehtiyojlardan kam bo‘lmasligini ta’minlash;

jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb qilinadigan vakolatli davlat organlari kuch va vositalarining doimiy tayyorligini ta’minlash, tezkorligini oshirish, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash, shuningdek, ularning shaxsiy tarkibini huquqiy va ijtimoiy himoyalash darajasini oshirish.

Jamoat xavfsizligi subyektlarini quyidagi guruhlarga bo‘lish tavsiya etilmoqda:

a) jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida rahbarlikni amalga oshiruvchi subyektlar:

1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti;

2) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi;

3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Jamoat xavfsizligi va qonun ustuvorligi departamenti.

4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoat xavfsizligi faoliyatini muvofiqlashtirish agentligi.

b) jamoat xavfsizligini ta’minlashga bevosita mas’ul bo‘lgan subyektlar:

1) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat xavfsizlik xizmati;

3) O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

4) O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi;

5) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

6) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi;

7) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

8) O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi;

9) O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

10) O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi;

11) O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi;

12) O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi;

13) O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi;

14) O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi;

15) O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi;

16) O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi;

17) O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi;

18) O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi;

19) O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi;

20) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi;

21) O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi;

22) O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi;

23) O‘zbekiston mahallalari uyushmasi;

24) O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi;

25) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;

26) O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi;

27) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahri, viloyat hamda tuman hokimliklar;

28) boshqa davlat organlari.

v) jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasini ilmiy-metodik, axborot-tahliliy yo‘nalishda ta’minlovchi subyektlar:

1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik rejalashtirish va rivojlanish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash;

2) O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi;

3) Ta’lim muassasalari;

4) Ilmiy-tadqiqot muassasalari;

5) Axborot-tahliliy markazlar;

6) Virtual va Xalq qabulxonalari;

g) jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasini moddiy-texnik ta’minlashda ishtirok etuvchi subyektlar:

1) Mudofaa sanoati agentligi va uning tarkibidagi korxonalar;

2) Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi va uning huzuridagi “O‘ztextreyd” DUK;

3) Harbiy va ikki maqsadli mahsulotlarni ishlab chiqarish (olib kirish)ga mo‘ljallangan korxonalar;

d) jamoat xavfsizligini ta’minlashga ko‘maklashuvchi subyektlar:

1) jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari;

2) jismoniy va yuridik shaxslar;

3) volontyorlik harakatlari, “Fidokor yoshlar” patrullik jamoatchilik guruhlari va boshqalar.

13. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda:

a) **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** – O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining kafili hisoblanadi, jamoat xavfsizligi sohasidagi ustuvor vazifalarni belgilaydi, jamoat xavfsizligini ta’minlashda davlat hokimiyati organlarining muvofiqligini ta’minlaydi.

b) **O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi** – qonun hujjatlarini qabul qilishda jamiyat manfaatlarini himoya qilinishini ta’minlaydi va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida ta’sirchan Parlament nazoratini o‘rnatadi;

v) **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Jamoat xavfsizligi va qonun ustuvorligi departamenti**– jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatni umumiy muvofiqlashtiradi, nazorat qiladi va boshqaradi;

g) **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoat xavfsizligi faoliyatini muvofiqlashtirish agentligi** – jamoat xavfsizligi sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi, jamoat xavfsizligi subyektlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, Konsepsiya, Strategiya va yo‘l xaritalari ijrosini nazorat qiluvchi, Jamoat xavfsizligi bo‘yicha Respublika ekspert kengashi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Jamoat xavfsizligi va qonun ustuvorligi departamentining ishchi organi hisoblanadi.

d) Jamoat xavfsizligini sohasidagi vazirlik va idoralar, shuningdek boshqa subyektlar jamoat xavfsizligini ta’minlashda o‘z vakolatlari va

ISSN 3030-3230

qonunchilikda yuklangan vazifalari doirasida ishtirok etadilar.

V. Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoat xavfsizligi faoliyatini muvofiqlashtirish agentligi tomonidan mazkur konsepsiyani ro‘yobga chiqarish maqsadida Konsepsiyani amalga oshirish bo‘yicha **manzilli Strategiyalar** hamda **dasturlar ishlab chiqiladi**. Strategiya va dasturlarda **aniq muammo**, uni **hal qilish** uchun chora-tadbirlar, **ijro muddati, moliyalashtirish manbasi** va **mas’ul ijrochilar aniq belgilanadi.**

Bunda, **Strategiya va dasturlarda** Konsepsiyani amalga oshirish bo‘yicha **huquqiy, tashkiliy-amaliy, ilmiy-uslubiy, raqamlashtirish va boshqa** chora-tadbirlar kiritiladi.

Bunda:

jamoat xavfsizligining **huquqiy asoslarini takomillashtirish yo‘nalishida**, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi qayta ko‘rib chiqiladi va takomillashtiriladi, ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi asosida “Miting, yig‘ilish va namoyishlar to‘g‘risida”gi, “Ommaviy tadbirlar to‘g‘risida”gi qonun, “Jamoat xavfsizligiga tahdidlarni baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror loyihalari va boshqa qonunchilik hujjatlari loyihalari ishlab chiqiladi, CPTED konsepsiyasi shaharsozlik kodeksiga va shaharsozlik normalariga singdiriladi, shuningdek qonunchilik bazasi jamoat xavfsizligiga xavf-xatar va tahdidlarga mutanosib takomillashtirib boriladi;

jamoat xavfsizligini **tashkiliy-amaliy ta’minlash yo‘nalishida** jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlari faoliyatini zamon talabalariga moslashtirishga qaratilgan, tashkiliy o‘zgarishlar, jumladan “Police” institutini joriy etish, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar va boshqa subyektlarning voqea va hodisalarga tezkor javob berish imkoniyatlarini oshirish, vakolatlarini takomillashtirish, kuch-vositalar taqsimoti va joylashuvini qayta ko‘rib chiqishga qaratilgan tashkiliy-amaliy tadbirlar amalga oshiriladi;

jamoat xavfsizligini **ilmiy-uslubiy ta’minlash yo‘nalishida** jamoat xavfsizligini ta’minlash jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida xorijiy davlatlarning **CPTED, ODARA**, **B-SAFER**, **CRAF**, **MARAC**, **Profayling** kabi ilg‘or tajribalari, shuningdek, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, axborot xavfsizligi muammolari bo‘yicha maqsadli ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshiriladi va joriy etiladi;

jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasini **raqamlashtirish yo‘nalishida** ishlar **samaradorligi oshiriladi**, jumladan “**Xavfsiz shahar”** konsepsiyasi to‘liq joriy etiladi va takomillashtirib boriladi, barcha mahallalarning kirib chiqish joylari, shahar (tuman) markazlari, jamoat va ommaviy tadbir joylari “Face-ID” kameralar bilan qamrab olinadi shuningdek **Profayling va “VLM” texnologiyalari** orqali jinoyatlarni barvaqt aniqlash va tezkor javob berish tizimi yo‘lga qo‘yiladi, Respublikadagi **jamoat xavfsizligi holatini monitoring qilish** imkonini beruvchi **geoinformatsion xaritasi** yaratiladi va ishga tushiriladi, barcha ma’lumotlar bazalari integratsiya qilinadi va **24/7** sun’iy intellekt tizimi tahlili yo‘lga qo‘yiladi, barcha davlat organlariga sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish orqali korrupsiyaviy omillar keskin kamaytiriladi.

Strategiyalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, **dasturlar** Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. **Strategiya** va **dasturlar**da belgilangan vazifalarni to‘laqonli amalga oshirish bo‘yicha barcha davlat organlarining birinchi rahbarlariga shaxsiy mas’uliyat yuklanadi.

VI. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natija

Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirish orqali:

O‘zbekistonning **xavfsiz davlat** sifatidagi **reyting** va **indekslardagi o‘rni yanada yaxshilanadi;**

Ekologik, suv, energiya resurslari, oziq-ovqat xavfsizligi muammolari **hal etiladi;**

jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, ijtimoiy profilaktika samaradorligini oshirish orqali O‘zbekistonda har 100 ming aholiga jinoyatlar soni MDHga a’zo mamlakatlarning o‘rtacha ko‘rsatkichidan **past holda saqlab qolinadi;**

“Xavfsiz shahar” konsepsiyasi to‘liq tatbiq etiladi, **“Face-ID”** bilan **Profayling va “VLM” texnologiyalari** orqali jinoyatlarni barvaqt **aniqlash va tezkor javob berish tizimi yo‘lga qo‘yiladi**, Respublikadagi **jamoat xavfsizligi holatini monitoring qilish** imkonini beruvchi **geoinformatsion xaritasi** ishga tushiriladi, **CPTED** konsepsiyasini to‘liq joriy etish orqali **mahallalarda xavfsiz muhit yaratiladi;**

aholining huquqiy ongi va madaniyati yuksaltiriladi, sog‘lom turmush tarzi singdiriladi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar **yanada mustahkamlanadi;**

jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasi xavf-xatar va tahdidlarga **mutanosib ravishda**

takomillashtirib boriladi;

pirovardida fuqarolarning tinch-osuda hayotini ta’minlash orqali mamlakatimizning **investitsiyaviy** va **turistik jozibadorligi yanada oshiriladi.**

VII. Monitoring va tizimli nazorat qoidalari;

Konsepsiya, manzilli **Strategiyalar** va **dasturlar**ning ijrosi Adliya vazirligi va Hisob palatasi tomonidan ijro intizomi nazoratini ta’minlovchi elektron hujjat aylanish tizimi orqali **qat’iy nazoratga olinadi.**

Konsepsiya, manzilli **Strategiyalar** va **dasturlar** ijrosi **Muvofiqlashtiruvchi kengash yig‘ilishlari**da **muhokama qilinadi** va belgilab olingan chora-tadbirlar ijrosini ta’minlash uchun mas’ul davlat idoralariga yuboriladi.

Konsepsiya, manzilli **Strategiyalar** va **dasturlar** ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlar **har chorak yakuni bo‘yicha** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoat xavfsizligi faoliyatini muvofiqlashtirish agentligi tomonidan **umulashtiriladi** va qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha tegishli mas’ul vazirlik (idora)lar va ta’lim (ilmiy-tadqiqot va tahliliy) muassasalariga **maqsadli topshiriqlar beriladi**.

Konsepsiya, manzilli **Strategiyalar** va **dasturlar** ijrosi, jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlari **faoliyati har yil yakuni bo‘yicha** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan **tanqidiy baholanadi**.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasining ahvoli, amalga oshirilgan ishlarning **natijadorligi**, jamoat xavfsizligiga yuzaga kelayotgan tahdidlar va amalga oshirilishi lozim **bo‘lgan ustuvor vazifalar** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishlarida **ko‘rib chiqiladi.**

Jamoat xavfsizligi holati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan **mezonlar va asosiy ko‘rsatkichlar (indikatorlar)** asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoat xavfsizligi faoliyatini muvofiqlashtirish agentligi tomonidan baholab boriladi.

VIII. Yakunlovchi qoidalar

Konsepsiyada belgilangan vazifalar va chora-tadbirlar davlat organlari, hokimliklarning davlat budjeti mablag‘lari, budjetdan tashqari mablag‘lari, homiylik mablag‘lari, milliy va xorijiy grantlar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Konsepsiyada belgilangan chora-tadbirlar uchun moliyaviy manbalarning aniq **belgilanishi** va **ajratilishi uchun javob beradi**

Konsepsiya qoidalari va normalari O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha davlat hokimiyati organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi.

Fikrimizcha, taklif etilayotgan yangi tahrirdagi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi, O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlashning yangi tizimini joriy etishga va bu orqali jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini **oshirishga xizmat qiladi.**

Аннотация. В данной статье раскрывается сущность и содержание новой редакции концепции общественной безопасности, разработанной Университетом общественной безопасности совместно с институтом Криминологических исследований на основе анализа современных рисков и угроз, которые могут возникнуть для общественной безопасности в ближайшей, среднесрочной и долгосрочной перспективе. В статье также классифицированы субъекты и определен механизм реализации концепции.

Ключевые слова: концепция общественной безопасности, общественная безопасность, общественный порядок, общественное место, риск, угроза и посягательство на общественную безопасность.

Annotation. This article reveals the essence and content of the new edition of the public safety concept, developed by the University of Public Safety together with the Institute of Criminological Research based on an analysis of modern risks and threats that may arise to public safety in the near, medium, and long term. The article also classifies the subjects and defines the mechanism for implementing the concept.

Key words: public safety concept, public safety, public order, public place, risk, threat, and infringement on public safety.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.Qodirov, “Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo’yicha tadbirlarni “inson manfaatlariga xizmat qilish” tamoyilidan kelib chiqib tashkil etish samaradorligi”, https://uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/6805-jamoat-xavfsizligini-ta-minlash-bo-yicha-tadbirlarni-%E2%80%9Cinson-manfaatlariga-xizmat-qilish%E2%80%9D-tamoyilidan-kelib-chiqib-tashkil-etish-samaradorligi.html

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son farmoni//https://lex.uz/docs/5749291// (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son; 16.01.2024 y., 06/24/10/0031-son)

3. https://worldjusticeproject.org/chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclc

4. https://anticorruption.uz/oz/article/transparency-international-2022-yilgi-korrupsiyani-qabul-qilish-indeksini-elon-qildi

5. https://rost24.uz/oz/news/2012

6. https://stat.uz/uz/// O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi va Ichki ishlar vaziriligi ma’lumotlari asosida

7. https://csec.uz/uz/news/axborot-xavfsizligi-yangiliklari/2024-yilga-kelib-kiber-jinoyatchiliklardan-moliyaviy-zarar//“Kiberxavfsizlik markazi” DUK

9. https://stat.uz/uz/// O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi va Ichki ishlar vaziriligi ma’lumotlari asosida

10. “Toshkent shahri va Toshkent viloyatida jamoat xavfsizligiga mavjud xavf-xatar va tahdidlarga oid ma’lumotnoma”, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, T.-2024-yil.

11. B.I.Matchanova, “Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning jamiyat ijtimoiy barqarorligidagi roli»// https://cyberleninka.ru/article/

12. “Ayrim davlatlarda sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar oid ma’lumotnoma”, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, T.-2025-yil.

13. https://uzbekistan.un.org/uz/178016-bmt-inson-xavfsizligi-bo%CA%BCyicha-ko%CA%BCp-tomonlama-sheriklik-trast-jamgarmasining-yillik-hisobot//Birlashgan Millatlar Tashkiloti rasmiy saxifasi

14. A.G.Gulamov, N.N.Shamsiyev, «O‘zbekiston Respublikasida suv xavfsizligini ta’minlashning bugungi holati»// “Tizimli tadqiqotlar” ilmiy-tahliliy jurnali, Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi, Toshkent, 2024 yil, B-36.

15. https://gov.uz/oz/news/view/4035 //

16. https://gov.uz/oz/agro/news/view/48883

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA MAHALLA VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI SIFATIDA AKS ETISHI

Axmedova Muqaddasxon Tursunovna,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati,
yuridik fanlar doktori, dotsent

Annotatsiya. Maqolada mahalla va ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari sifatidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan bo‘lib, o‘tgan yillar mobaynida fuqarolik jamiyati institutlari borasida to‘plangan tajriba, aholi ijtimoiy-siyosiy faolligining tobora yuksalib borayotganligi, shuningdek, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan yangilanish va o‘zgarishlar jarayonining hozirgi bosqichi davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda ularning rolini kuchaytirishga alohida urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar. Fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, Konstitutsiya, ijtimoiy faollik, mahalla, mahalla instituti, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, oila, oila va mahalla, inson huquqlari.

O‘zbekiston Respublikasi huquq tizimining negizida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yotadi. Mamlakatimizning asosiy qonuni davlat, jamiyat, ijtimoiy va siyosiy hayot, iqtisodiy tizim, barcha jabhalarni tartibga solishga qaratilgan barcha normalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Konstitutsiya bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishda mustahkam poydevor bo‘lib kelmoqda. Konstitutsiyamiz tufayli mamlakatimizda barcha sohalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Konstitutsiya xalqimizning manfaatlariga, davlatimizning strategik maqsadlariga to‘la javob beradigan, har tomonlama puxta ishlangan muhim siyosiy hujjat hisoblanadi.

Mamlakatimizda demokratik qadriyatlarni ro‘yobga chiqarishda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan olib borilayotgan izchil islohotlar muhim rol o‘ynamoqda. Shuningdek, ular inson huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ijtimoiy faolligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, davlat va hokimiyat tuzilmalari ustidan haqiqiy jamoatchilik nazoratini o‘rnatishdagi mavqeini tobora mustahkamlab bormoqda.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining maqomini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi Fuqarolik jamiyati institutlarining konstitutsiyaviy asoslari alohida bob sifatida kiritilgani ahamiyatlidir. Jumladan, Konstitutsiyamizning 69-moddasida “Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining mushtarak maqsadi – fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilishga, ijtimoiy hamda madaniy maqsadlarga erishish uchun ko‘maklashishga, jamiyatning ma’naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Davlatning fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash sohasidagi vazifalarini Asosiy Qonunimizda belgilovchi normalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning dolzarb muammolarini hal qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati va rolini oshirishga, ularning faoliyatini subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shaklida qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Bugungi kunga kelib, fuqarolik jamiyati institutlari aholining siyosiy-huquqiy madaniyatini va faolligini oshirish, ularning davlat siyosatini tashkil etish va boshqarishdagi ishtiroklarini ta’minlash orqali davlat va jamiyat o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘taydi, - desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ayni paytda o‘tgan yillar mobaynida fuqarolik jamiyati institutlari borasida to‘plangan tajriba, aholi ijtimoiy-siyosiy faolligining tobora yuksalib borayotganligi, shuningdek, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan yangilanish va o‘zgarishlar jarayonining hozirgi bosqichi davlat boshqaruvini yangilash va yanada

 ISSN 3030-3230

demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda ularning rolini kuchaytirishni taqozo etmoqda. Qonunchiligimizda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirishga oid ro‘y bergan yangiliklar jamiyatimizda siyosiy hamjihatlik va siyosiy barqarorlikning huquqiy negizi sifatida siyosiy qarashlarni erkin holda rivojlantirishga, ijobiy siyosiy raqobat muhitini qaror toptirishga eng muhimi, aholining xohish-irodasini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ham bu borada bir qator vazifalar belgilangani soha bo‘yicha keng islohotlar o‘tkazilishi dolzarbligini anglatadi.

Xususan, Taraqqiyot strategiyasining I Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish yo‘nalishida qator vazifalar belgilangan bo‘lib, uning birinchi maqsadida: **“Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish” [1],** - ko‘rsatib o‘tilgan.

Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “...millati, tili va dinidan qat’iy nazar, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning, butun xalqimizning farovonligini ta’minlashga xizmat qiladigan “Yangi O‘zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat” g‘oyasini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratamiz. Shu asosda mahalliy boshqaruv organlarining joylarda muammolarni hal etishdagi roli va mas’uliyatini yanada kuchaytiramiz. Buning uchun kelgusida davlat funksiyalarining katta qismi markazdan hududlarga o‘tkaziladi” [2].

Ana shunday jamoatchilik tuzilmalaridan biri – mahalla ajdodlarimizdan bizga meros jamoaviy turmush shakli sifatida asrlar osha yashab kelayotgan bo‘lsa-da, mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyati poydevori sifatida yanada sayqal topdi. Mahalla noyob, betakror ijtimoiy boshqaruv idorasi bo‘lgani sababli uning roli va ta’sirchanligini oshirish saylov jarayonlari bilan hamohangdir.

Mahalla yuksak ma’naviyat beshigidir. Chunki yuksak ma’naviyat, avvalo, inson tug‘ilib o‘sgan makon - oila va mahallada shakllanadi. Bu muhitda toblangan va ota-bobolarimiz qadriyatlari ruhida tarbiya topgan farzandlarning istiqlol g‘oyalariga sodiq ruhda ulg‘ayishi millat ravnaqining asosiy shartidir.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 127-moddasida o‘zini-o‘zi boshqarish organlar, jumladan mahallalarning ham huquqiy asosi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular raisni saylaydi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o‘ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli.

Davlat fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishida ko‘maklashadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari saylovi tartibi, ularning faoliyatini tashkil etish va vakolatlari qonun bilan belgilanadi” [3].

Fikrimizni tasdig‘i O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunda belgilangan quyidagi normada o‘z ifodasini topgan, ya’ni “Fuqarolar shaharchalarda, qishloqlarda, ovullarda, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi va ovullardagi mahallalarda o‘zini o‘zi boshqarishga doir o‘z konstitutsiyaviy huquqini fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlariga muvofiq fuqarolar yig‘inlari (fuqarolar vakillarining yig‘ilishlari) orqali amalga oshiradi”.

Shu o‘rinda mahallalarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o‘z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatini amalga oshirishi qayd etish lozim.

“Rahbarlar faqat davlatga emas, avvalo, inson va oilaga, ularning qonuniy manfaatlarini ta’minlashga xizmat qilishi kerak”. Shuning uchun har bir mutasaddi mahalla va tuman hayotini ipidan ignasigacha bilishi shart [4]. Ulug‘ ajdodlarimiz aytganidek, rahbar xalqqa yuk bo‘lmasligi, aksincha, xalqning yukini yelkasiga olishi kerak. Agar qaysiki rahbar davrning bu o‘tkir talabini tushunmasa, ularni endi xalqimiz ham, hayotning o‘zi ham qabul qilmaydi.

O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj insonlar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to‘y-tomosha, hashar va ma’rakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish kabi ezgu amallar mahalla hayotida yorqin namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, bulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, Internet jahon axborot tarmog‘idagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan, qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir.

Ommaviy axborot vositalari bugun xalq ovozi, tom ma’noda “to‘rtinchi hokimiyat”ga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham nodavlat ommaviy axborot vositalarini fuqarolik jamiyati instituti ekanligini konstitutsiyaviy darajada e’tirof etilishi jamiyatimizda so‘z erkinligini inson taraqqiyotining ajralmas va muhim omiliga aylanishiga xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XV bobi “Ommaviy axborot vositalari”ga bag‘ishlangan bo‘lib, uning 81-moddasida, “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar.

Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir”, - deb belgilab qo‘yilgan [5].

Shuningdek, 82-moddasida esa, “Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi”, - deyilgan.

Birinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining maqomi konstitutsiyaviy darajaga ko‘tarilishi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, butun davlat boshqaruv tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga – “Yangi shaxs”, “Yangi fuqarolik jamiyati”, “Yangi demokratik boshqaruv” tizimiga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining barcha tizimlarini rivojlantirish va mustahkamlash, ularning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi bilan bog‘liq ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, aholi turli qatlamlari vakillarining ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish, eng asosiysi, fuqarolarning joylarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonlariga shaxsiy daxldorlik tuyg‘usini yanada kuchaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish, aholining huquqiy va inson huquqlari borasidagi madaniyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Shunday ekan, fuqarolik jamiyatiga eng muhim konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida qarashimiz lozim. Yangi bosqichda fuqarolik jamiyatining o‘rni tobora ortib borayotganini hisobga olgan holda, mamlakatimiz Asosiy qonuniga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, so‘zsiz konstitutsiyaviy islohotlarimizning asosiy maqsadini tashkil qiladi.

Muxtasar qilib aytganda, fuqarolik jamiyati institutlari inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish, aholining huquqiy va inson huquqlari borasidagi madaniyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, fuqarolik jamiyatiga eng muhim konstitusiyaviy-huquqiy institut sifatida qarashimiz lozim. Yangi bosqichda fuqarolik jamiyatining o‘rni tobora ortib borayotganini hisobga olgan holda, mamlakatimiz Asosiy qonuniga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, so‘zsiz konstitutsiyaviy islohotlarimizning asosiy maqsadini tashkil qiladi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan strategiyasini ishlab chiqishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz:

Birinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini takomillashtirishga;

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirokini oshirishga;

Uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va ularning targ‘ibotlarini kuchaytirish maqsadida xayriya va volontyorlik faoliyatini rivojlantirishga;

To‘rtinchidan, ushbu sohadagi xalqaro indekslarga qo‘shilish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish muhimdir.

ISSN 3030-3230

Аннотация. В статье освещены роль и значение соседства и средств массовой информации как институтов гражданского общества, накопленный за последние годы опыт работы с институтами гражданского общества, возрастающая общественно-политическая активность населения, а также На современном этапе процесса обновления и перемен в нашем обществе происходит обновление органов государственного управления и особый акцент делается на усилении их роли в дальнейшей демократизации и модернизации страны.

Ключевые слова: Гражданское общество, институты гражданского общества, средства массовой информации, Конституция, социальная активность, соседство, институт соседства, органы самоуправления, семья, семья и соседство, права человека.

Annotation. The article highlights the role and importance of the neighborhood and the media as institutions of civil society, the experience gained in recent years in working with civil society institutions, the increasing socio-political activity of the population, as well as At the present stage of the process of renewal and change in our society, government bodies are being renewed management and special emphasis is placed on strengthening their role in the further democratization and modernization of the country.

Key words: Civil society, civil society institutions, media, Constitution, social activity, neighborhood, institution of neighborhood, self-government, family, family and neighborhood, human rights.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022—2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон фармони // (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон; 10.02.2023 й., 06/23/21/0085-сон)
2. Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 6 ноябрь куни иннаугурация маросимида сўзлаган нутқи. Халқ сўзи, 2021 йил 7 ноябрь.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – Б. 95-96.
4. Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 6 ноябрь куни иннаугурация маросимида сўзлаган нутқи. Халқ сўзи, 2021 йил 7 ноябрь.
5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – Б. 46.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIGA O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISHNING ILMIY – AMALIY JIHATLARI

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
boshlig‘i o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya. **Mazkur maqolada konstitutsiyaviy rivojlanish, konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishning ilmiy jihatlari, xorijiy davlatlar tajribalari, O‘zbekistonda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar, ularning mazmun-mohiyati, konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizdagi yangi o‘zgarishlar kabi masalalar o‘z ifodasini topgan.**

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, jamiyat, davlat, huquq va majburiyat, o‘zgartirish kiritish, parlament, modda, norma, sud, hukumat, kengash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 30 yilligi munosabati bilan xalqimizga yo‘llagan tabrigida, “Bosh qonunimizni chuqur o‘rganish, anglash, hayotga joriy etish va unga so‘zsiz amal qilish – barchamizning sharafli burchimizdir”, degan hayotmona fikrlarini albatta mag‘zini chaqishimiz lozim va kerak deb o‘ylayman[1]. Negaki, Konstitutsiyani bilmaslik, uning mazmun-mohiyatini teran anglamaslik, undan o‘z faoliyatida samarali foydalanmaslik mantiqan tushunish doiramizdan tashqarida deb o‘ylashimizga asos bo‘ladi, desak xato qilmagan bo‘lamiz.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, Davlat rahbarining joriy yilning 21-noyabr sanasi-da qabul qilgan 60-sonli Farmoyishida, “Konstitutsiya — inson qadri, erkinlik, tenglik va adolat garovi!” degan Bosh g‘oya o‘zining mazmun-mohiyatida ham fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini, hayot farovonligini ta’minlash davlat organlarining oldida turgan eng muhim vazifalardan ekanligi ham anglashinib turibdi. O‘zbekiston fuqarolari hamisha o‘z davlati va Konstitutsiyasi himoyasida bo‘lishi eng muhim konseptual g‘oyalardan biri desak yangilishmagan bo‘lamiz. Negaki, Konstitutsiya inson-jamiyat- davlat o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi Asosiy qonundir. Konstitutsiya orqali davlat o‘z boshqaruvini yengillashtiradi, ya’niki inson, jamiyat, davlat o‘rtasidagi o‘zaro huquq va majburiyatlar umumlashadi hamda huquqiy tartibga solinadi.

Nazarimizda, Konstitutsiya doimiy o‘zgarishda, yangilanishda bo‘lishi lozim. Agarda u hayotiy munosabatlardan ortda qoladigan bo‘lsa, o‘zining yuridik kuchi va ta’sirini ham yo‘qotadi. Darhaqiqat, har bir fuqaromiz bilishi lozimki konstitutsiya uning hayotida to‘siq bo‘ladigan muammolarni to‘g‘ridan - to‘g‘ri hal qiladigan, uning huquq va erkinliklarini ta’minlab beradigan, uning haqiqiy ma’noda huquqiy himoyachisi bo‘ladigan Asosiy qonun ekanligini anglashlari lozim. Konstitutsiyadan eng avvalo, har bir fuqaroning o‘zi bevosita manfaatdor ekanligi, uning har bir qoidasini bilishi va tushunishi kelajakda har qanday yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni yengib chiqishida asosiy ko‘makchi bo‘lishini his qilishlari lozim.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, dunyo Konstitutsiyalari doimiy yangilanishlar mavjida rivojlanib boradi, muhim hayotiy munosabatlarni, insonlarning yangi huquq va majburiyatlar tizginini tartib solib boradi. Shu o‘rinda, AQSH Mustaqillik deklaratsiyasi asoschilaridan biri Tomas Djeffersonning qiziq bir mulohazasi diqqatimizni e’tiborga tortadi, ya’ni uning taxminicha har 19 yilda konstitutsiyalar o‘zgarishi kerak, negaki shu vaqt orasida qariyb aholining yarim qismi yangilanadi va amaldagi konstitutsiya uning qiziqishlarini to‘liq qamrab ololmaydi. Nima deya baholaysiz, xulosa chiqarish o‘zingizdan!

Tahlillar shuni ko‘rsatyaptiki 10 dan ortiq davlatlarda doimiy tarzda konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib borilmoqda. Bularga: Meksika, Braziliya, Shveysariya, Avstriya, Chili, Kolumbiya, Gruziya, Hindiston kabi davlatlarni misol keltirib o‘tishimiz mumkin. Deyarli, hozirgi kunda konstitutsiyasi o‘zgarmay qolgan davlatlar deyarli uchramaydi. E’tiborlisi, yigirma birinchi asrning o‘zida 50 dan ortiq davlatlarda yangi konstitutsiyalar qabul qilingan.

Ta’kidlash joizki, Konstitutsiya 1992-yilda qabul qilinganidan buyon unga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarning qariyb barchasi asosan **davlat va jamiyat qurilishi,** jumladan Parlament, Prezident, Hukumat faoliyati, saylov tizimi, mahalliy boshqaruv, sud va boshqa organlar

 ISSN 3030-3230

faoliyatiga taalluqli bo‘lgan. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, 1992-yildan to o‘tgan yili 30-aprelda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz qabul qilingunga qadar, hozirgi kunga qadar Asosiy qomusimizga 16 marta o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan. Tarixiy voqelik sifatida o‘tgan yili xalqimizning bevosita bergan ovozlari natijasida, Yangilangan konstitutsiyamizni qabul qilib oldik.

Darhaqiqat, Konstitutsiya o‘zgarmas, qotib qolgan hujjat emas, aksincha, jamiyat va davlatda turli ijtimoiy munosabatlar o‘zgarishi bilan, insonlarning zaruriy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ham konstitutsiya zamon bilan hamnafas tarzda takomillashib boraveradi.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 154-moddasida shunday norma mustahkamlab qo‘yilgan, ya’ni “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchiligi tomonidan qabul qilingan konstitutsiyaviy qonun yoki O‘zbekiston Respublikasining referendumi bilan kiritiladi. Ushbu Konstitutsiya 1-moddasining va ushbu modda ikkinchi qismining qoidalari qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas[2].

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qonunda uning normalarini, shuningdek Konstitutsiyaning normalarini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari nazarda tutilishi mumkin”.

Shuningdek, konstitutsiyamizning 155-moddasida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli taklif kiritilgandan keyin olti oy mobaynida Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida keng va har taraflama muhokamani hisobga olgan holda konstitutsiyaviy qonun qabul qilishi mumkin. Agar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Konstitutsiyani o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifni rad etsa, taklif bir yil o‘tgandan keyingina qayta kiritilishi mumkinligi qat’iy belgilab qo‘yilgan.

Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish parlament tomonidan, referendum yo‘li bilan, ayrim mamlakatlarda davlat boshlig‘i tomonidan kiritilish mumkin. Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritishning alohida murakkab tartibi uni barqarorligini ta’minlashga qaratilgandir.

O‘zbekiston tarixida bir nechta konstitutsiyalar qabul qilingan bo‘lib, ularning mazmun va mohiyati o‘sha davr shart-sharoitlari bilan o‘lchanadi. Jahon konstitutsiyaviy amaliyotida Konstitutsiyalar o‘zgartirish kiritish tartibining murakkabligiga qarab “yumshoq” va “qattiq” konstitutsiyalarga ajratiladi. “Yumshoq” Konstitutsiya deganda nisbatan oson o‘zgartiriladigan, o‘zgartirish kiritish tartibi sodda bo‘lgan konstitutsiyani tushunamiz. “Qattiq” Konstitutsiya esa, o‘zgartirish kiritish tartibi murakkab bo‘lgan, birmuncha muddat davom etadigan konstitutsiyani tushunamiz. “Yumshoq” konstitutsiyalar oddiy qonunlar uchun belgilangan tartib asosida o‘zgartiriladi yoki to‘ldiriladi. “Qattiq” konstitutsiyalar alohida o‘rnatilgan tartibga muvofiq (qo‘shimchalar taqdim etilgandan so‘ng ma’lum vaqt o‘tgach yoki malakali ovoz berish – parlament a’zolarining 2/3 qismi ovozi bilan o‘zgarishi mumkin.

Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, siyosiy kuchlar o‘zaro munosa-batlardagi o‘zgarishlar konstitutsiyalarga o‘zgartirishlar kiritilishiga sabab bo‘ladi. Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi ko‘pincha konstitutsiya moddalarida mustahkamlab qo‘yiladi.

Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish parlament tomonidan, referendum yo‘li bilan, ayrim mamlakatlarda davlat boshlig‘i tomonidan kiritilish mumkin. Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritishning alohida murakkab tartibi uni barqarorligini ta’min-lashga qaratilgandir. Shu bilan birga Konstitutsiyaning ayrim qismlari umuman o‘zgartirilishi mumkin emas. Masalan, Fransiyada respublika boshqaruv shakli, Germaniyada davlatning federativ tuzilishi, Braziliyada hokimiyat vakolatlarini taqsimlash prinsipi, Rossiya Konstitutsiyasining 1, 2 va 9 boblari o‘zgartirilishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan.

Ko‘pchilik davlatlarda Konstitutsiya moddalarini o‘zgartirish uchun malakaviy ko‘pchilik ovoz olish kerak (odatda 2/3). Federativ davlatlarda federatsiya subyektlarining ko‘pchiligi (Rossiyada 2/3 qismi, AQShda 3/4 qismi) roziligi talab etiladi. Hindiston, Kanada, Pokistonda esa federatsiya subyektlarining roziligi talab qilinmaydi. Ayrim hollarda (Skandinaviya mamlakatlarida) Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritish uchun albatta, referendum chaqirilishi kerak bo‘ladi. Unchalik muhim bo‘lmagan o‘zgartirishlar oddiy ko‘pchilik ovoz bilan kiritilishi mumkin (Hindiston). Konstitutsiyani bekor qilish tartibi har bir mamlakatda turlicha bo‘lishi mumkin. Konstitutsiyani bekor qilish davlat tuzumi-ning o‘zgarishi, obyektiv reallikda vujudga kelgan

hodisalar (davlat to‘ntarishi, siyosiy rejimning amaldagi konstitutsiyaviy tuzumning o‘zgarishi) sabab bo‘lishi mumkin. Mamlakatda Yangi Konstitutsiyani qabul qilinishi natijasida avvalgi Konstitutsiya o‘z kuchini yo‘qotadi. Odatda, Konstitutsiyani urush yoki favqulodda holat davrida qayta ko‘rish mumkin emas. Meksikada Konstitutsiya umuman o‘zgartirilmaydigan hujjat sifatida qaraladi.

Qozog‘iston konstitutsiyasining 91-moddasiga ko‘ra, Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish Respublika Prezidentining o‘z tashabbusi bilan qabul qilingan qaroriga binoan yoki parlament yoki hukumatning taklifiga binoan o‘tkaziladigan respublika referendumi orqali kiritilishi mumkin. Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar loyihasi, agar Prezident uni parlament ko‘rib chiqish uchun kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilsa, respublika referendumiga kiritilmaydi.

Rossiya Federatsiyasi konstitutsiyasining 135-moddasida, Konstitutsiyaning 1, 2 va 9-boblari qoidalari (1-bob. Konstitutsiyaviy tuzum asoslari; 2-bob. Inson va fuqaro huquq va erkinliklari; 9 – Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish tartibi) Federal Majlis tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas. Agar Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 1, 2 va 9-boblari qoidalarini qayta ko‘rib chiqish taklifi Federatsiya Kengashi a’zolari va Davlat Dumasi deputatlari umumiy sonining beshdan uch qismi tomonidan qo‘llab-quvvatlansa, u holda Konstitutsiyaviy Majlis Federal konstitutsiyaviy qonunga muvofiq chaqiriladi. Konstitutsiyaviy Majlis Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining o‘zgarmasligini tasdiqlaydi yoki Rossiya Federatsiyasining yangi Konstitutsiyasi loyihasini ishlab chiqadi, bu Konstitutsiyaviy Majlis tomonidan uning umumiy sonining uchdan ikki qismi ovozi bilan qabul qilinadi hamda umumxalq ovoziga qo‘yiladi.

Germaniya Federatsiyasi konstitutsiyasining 78-moddasida, Asosiy Qonun faqat Asosiy Qonun matnini maxsus o‘zgartiruvchi yoki to‘ldiruvchi qonun bilan o‘zgartirilishi mumkin. Bunday qonun hujjatlari Bundestag a’zolarining uchdan ikki qismi va Bundesratning uchdan ikki qismining ovozi bilan ma’qullanishi kerak. Ushbu Asosiy Qonunga Federatsiyaning hududiy yerlarga bo‘linishiga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin emas.

E’tiborli jihat sifatida, Yaponiya konstitutsiyasiga 1947-yilda hozirgi matn qabul qilinganidan beri unga hech qanday o‘zgartirish kiritilmagan. O‘zgartirishlarni kiritish tartibi odatiy holdir, ya’ni uni parlament palatalarining uchdan ikki qismi ma’qullaydi, shundan so‘ng umumxalq referendumida ko‘pchilikni va imperatorning imzosini olish kerak bo‘ladi.

Ta’kidlash lozimki, ***Xitoy Konstitutsiyasining amaldagi matni*** besh marta - 1988, 1993, 1999 2004, 2018 yillarda o‘zgartirilgan, preambula har safar o‘zgarib turadi. So‘nggi tahrirlarda eng muhim o‘zgarishlar kiritildi – matnda xususiy mulkni himoya qilish va inson huquqlarini hurmat qilish va kafolatlari to‘g‘risida eslatmalar paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, shuni ta’kidlash kerakki, Xitoyning asosiy Qonunida hali ham jahon Konstitutsiyalarining aksariyat qismida mavjud bo‘lgan asosiy norma yo‘q – bu insonning yashash huquqini belgilaydigan norma.

Konstitutsiyaviy davlat bo‘lishi uchun birinchi navbatda konstitutsiya qoidalari amalda bevosita ishlashi lozim. Bu nihoyatda muhim talab va zarurat hisoblanadi. Negaki, konstitutsiyaviy qoidalarning shaxs manfaatiga xizmat qilishiga qarab, jamiyat unga baho beradi. Konstitutsiyaviy davlatda umumiy tarzda 5 ta masala eng ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, konstitutsiyaviy jarayonlarning barqarorligi, shaxs manfaatlarining ustuvorligi, hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi, hokimiyatning hisobdorligi hamda hokimiyat faoliyatining ochiqligi va shaffofligi.

2017-yidan boshlangan yangi konstitutsiyaviy islohotlar natijasida, Konstitutsiyaga bir necha bor o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Negaki, Konstitutsiya yillar davomida o‘zgarmas holda qolishi mumkin emas. Boisi, hayot o‘zgarishda, jamiyat va inson manfaatlari takomillashuvda, yangi ijtimoiy munosabatlar yangilanishda ekan jiddiy o‘zgartirishlar amalga oshaveradi. Buni biz konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar bilan baholashimiz mumkin. Ta’kidlash lozimki, Harakatlar strategiyasi doirasida Konstitutsiyamizning 21 ta moddasiga 9 marotaba, 32 ta o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritilgan. Bevosita, mazkur Harakatlar strategiyasidan kelib chiqib 2017-yildan to hozirgi kunga qadar Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga to‘xtalib o‘tsak:

Yangi O‘zbekiston sharoitida Asosiy qomusimizga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, 2017-yilning o‘zida Konstitutsiyamizga uch marta o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.

Mazkur o‘zgartirish va qo‘shimchalar sirasiga, ***birinchidan,*** 2017-yil 6-apreldagi

ISSN 3030-3230

qonun bilan konstitutsiyaning sud hokimiyatiga taalluqli normalariga (80, 81, 83, 93, 107, 110, 111 moddalariga) jiddiy o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Mazkur o‘zgartirishlarda sud tizimining ixtisoslashuvi, ma’muriy va iqtisodiy sudlarning tashkil etilishi, Sudyalar oliy kengashining tashkil etilishi va unga konstitutsiyaviy organ maqomining berilishi kabi muhim o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘ldi.

ikkinchidan, 2017-yil 31-maydagi qonunga asosan konstitutsiyaning 80, 93, 108 hamda 109-moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Bu o‘zgartirishlar Oliy Majlis Senatining vakolatlari, Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish va vakolatlariga taalluqli bo‘ldi. Mazkur o‘zgartishlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanguniga qadar O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash, konstitutsiyaviy sudlov ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to‘g‘risida axborot taqdim etish kabi yangi qoidalar bilan takomillashtirildi.

uchinchidan, 2017-yil 29-avgust qonuni bilan Konstitutsiyaning 99, 102- moddalariga o‘zgartirish kiritilib, unga asosan Toshkent shahar tumanlarida ham xalq deputatlari Kengashlari tashkil qilinadigan bo‘ldi. Buning natijasida, Toshkent shahridagi tuman kengashlariga ham ilk bora saylovlar tashkil etildi. Bu albatta, tuman kengashining ijro hokimiyati faoliyati ustidan samarali vakillik nazoratini o‘rnatishga imkon tug‘diradi, deputatlarning xalq vakili sifatida faolligini oshiradi.

2018-yil 15-oktabrdagi “Fuqarolar yig‘ini raisi(oqsoqoli) saylovi takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 105-moddasining birinchi qismidagi “ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini” degan so‘zlar “raisni (oqsoqolni)” degan so‘zlar bilan almashtirildi. Endilikda, fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) 3 yil muddatga saylanadigan bo‘ldi. Negaki, amaldagi qonunlarga muvofiq fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli)ning 2,5 yillik vakolat muddati ularga o‘z bilim va boshqaruv qobiliyatlarini namoyon etishga yetarlicha imkoniyat yaratmaydi. Qolaversa, vakolat muddati masalasida yaxlit raqamning yo‘qligi xalqaro tajribaga mos kelmaydi hamda saylovlarni har doim aniq bir vaqtda o‘tkazish imkonini bermaydi.

2019-yil 18-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonun qabul qilinishi bilan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati nomlanishi, Davlat xavfsizlik xizmati nomlanishiga o‘zgartirildi. Bu esa, davlatning alohida maxsus organi orqali ichki va tashqi xavflardan samarali himoyalanish imkonini beradi.

2019-yil 5-martdagi o‘zgartirishlar, “Hukumatni shakllantirish tartibi demokratlashtirilishi va uning mas’uliyati kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi natijasida, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79, 93, 98 - moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Ya’ni, hukumat a’zolarini shakllantirishda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining, partiya fraksiyalarining ishtiroki masalalari huquqiy jihatdan tartibga solindi.

2019-yil 4-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 96, 117-moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Mazkur o‘zgartish va qo‘shimchalarga ko‘ra, “Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan, shuningdek og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganligi uchun sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etmaydi. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi”. Mazkur o‘zgartirishlarga muvofiq, endilikda ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir jinoyat sodir etmagan shaxslar saylovlarda ishtirok etib, o‘zining nomzodlariga ovoz berish huquqini amalga oshirishlari mumkin. Bu yangi qoida keng jamoatchilik tomonidan ayniqsa, xalqaro ekspertlar tomonidan yuqori darajada baholandi.

2021-yil 8-fevralda Konstitutsiyamizga 670, 671-sonli qonun bilan tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Xususan, Konstitutsiyamizning 117-moddasida belgilab qo‘yilgan saylov o‘tkazish muddati dekabr

oyidan, oktabr oyiga o‘tkazildi. Qolaversa, Asosiy Qomusimizning 107-moddasida sud tizimida muvofiqlashtirish, quyi sudlar tizimida tumanlararo ma’muriy sudlarni tashkil etish masalalari o‘zgartirish sifatida kiritildi. Ilgari, tumanlar ma’muriy sudlari sifatida tashkil etilgan edi.

Yakunda 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan referendum natijasida tarixiy sahifaga kirgan yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qildik [3]. Xabaringiz bor, dastlab umumxalq muhokamasiga qo‘yilganda, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘rida” gi konstitutsiyaviy qonun loyihasi edi, keyinchalik Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo‘yicha umumxalq muhokamalarida jami 222 715 ta takliflar kelib tushganligi, takliflarning har to‘rttasidan bittasi loyihadan joy olganligi, yangi boblar, yangi moddalarni ko‘payishligi natijasida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida” gi konstitutsiyaviy qonun loyihasi sifatida umumxalq ovoziga qo‘yildi.

Natijada Yangilangan konstitutsiya moddalari ilgarigi 128 tadan 155 taga, 26 bobdan, 27 bobga ko‘payib, normalari 275 tadan 434 taga oshgani, qolaversa, Asosiy qonunimizning 65 foiz matni xalqimiz takliflari asosida yangilangani, inson huquq va erkinliklariga doir qoidalarning uch yarim barobar ko‘payganligi, davlat oldida turgan majburiyatlar uch hissa ortganligining o‘ziyoq, konstitutsiyamizning xalqchilligi prinsipini amalda ifodasini namoyon etganligining yaqqol isbotidir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, bu konstitutsiyaviy o‘zgarishlar olib borilayotgan islohotlarning boshlanishi, eng muhimi bu yangi qoidalar inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solishda o‘z kuchi va salmog‘ini ko‘rsatishi lozim bo‘ladi. Qolaversa, xalqimizning konstitutsiyaviy islohotlarga bo‘lgan ishonchini yanada orttirib borish zarur. Demak, konstitutsiyamizning tegishli normalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi, bu konstitutsiyamizning majoziy ma’noda kuchsizlanishiga emas, aksincha, konstitutsiyamizning yanada takomillashuviga, xalq manfaatlarining kafolatlanishiga hamda insonlarning hayotiy zarurati aks etishiga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются такие вопросы, как конституционное развитие, научные аспекты внесения изменений и дополнений в конституцию, опыт зарубежных стран, конституционные реформы, проведенные в Узбекистане, их содержание и сущность, порядок внесения изменений и дополнений в конституцию, а также новые изменения в нашей новой редакции Конституции.

Ключевые слова: Конституция, общество, государство, права и обязанности, поправка, парламент, статья, норма, суд, правительство, совет.

Annotation. This article examines issues such as constitutional development, scientific aspects of amendments and additions to the constitution, the experience of foreign countries, constitutional reforms carried out in Uzbekistan, their content and essence, the procedure for making amendments and additions to the constitution, as well as new changes in our new version of the Constitution.

Key words: Constitution, society, state, rights and obligations, amendment, parliament, article, norm, court, government, council.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uza.uz/uz/posts/konstituciya-barqaror-taraqqiyotimiz-kafolati_324163
2. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.
3. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.

ПЕРСПЕКТИВЫ УГОЛОВНО-ПРАВОВОЙ РЕГЛАМЕНТАЦИИ ОГРАНИЧЕННОЙ (УМЕНЬШЕННОЙ) ВМЕНЯЕМОСТИ

Якубов Александр Санджарович,
Заслуженный юрист Республики Узбекистан,
профессор, доктор юридических наук

Азим Шухрат,
Заместитель начальника Исследовательского института криминологии
Республики Узбекистан, доктор философии по юридическим наукам

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-правовые и прикладные аспекты института ограниченной (уменьшенной) вменяемости в уголовном праве. Авторы анализируют эволюцию научных подходов к данному институту, оценивают современное состояние нормативного регулирования и правоприменительной практики в ряде зарубежных государств, включая страны СНГ и Европы. Особое внимание уделяется необходимости законодательного закрепления ограниченной вменяемости как самостоятельной уголовно-правовой категории в национальной системе уголовного права. Обосновывается, что признание ограниченной вменяемости может способствовать более справедливой индивидуализации уголовной ответственности и наказания, а также усилению превентивной функции права. В работе предложены конкретные направления реформирования уголовного законодательства, включая формулировку соответствующей нормы, механизмы её применения и соотношение с институтами невменяемости и смягчающих обстоятельств.

Ключевые слова: ограниченная вменяемость, уголовное право, уголовная ответственность, индивидуализация наказания, психическое расстройство, правовая реформа, вменяемость, судебно-психиатрическая экспертиза, справедливость, уголовно-правовая политика.

Уголовное законодательство Республики Узбекистан традиционно не знало понятия ограниченной (уменьшенной) вменяемости. Следуя его предписаниям, лицо, совершившие общественно опасное деяние признаётся или вменяемым, или невменяемым (ст.18 УК) и в зависимости от этого либо признаётся субъектом преступления, либо нет.

Важно отметить, что вопрос о необходимости введения в уголовный закон промежуточного между вменяемостью и невменяемостью состояния ограниченной (уменьшенной) вменяемости поднимался ещё в 1993–1994 годах при разработке проекта действующего Уголовного кодекса [1], но не был воспринят и снят в процессе обсуждения при предварительном рассмотрении в комитете Верховного Совета Республики Узбекистан непосредственно перед шестнадцатой сессией двенадцатого созыва. Редакция ч.3 ст. 18 проекта УК была следующей: «Лицо, которое во время совершения преступления не было способно в полной мере осознавать общественно опасный характер своих действий или руководить ими вследствие психических отклонений, не исключающих вменяемости, отставания в интеллектуальном развитии, не связанного с психическим расстройством или иных психофизиологических особенностей, признаётся ограниченной вменяемым». Часть пятая ст. 18 проекта предлагалась в следующей редакции: «Состояние ограниченной вменяемости не исключает ответственности, однако может являться основанием для смягчения наказания или применения принудительных мер медицинского характера».

В соответствии с Законом Республики Узбекистан от 12 сентября 2019 года № ЗРУ–567 «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с совершенствованием системы оказания психиатрической помощи» [2] Уголовный кодекс был дополнен статьей 18^1 УК, предусматривающей ответственность лица, страдающего психическим расстройством, не исключающим вменяемости. Статья сконструирована из двух частей, первая из которых сформулирована следующим образом: «Вменяемое лицо, которое во время совершения преступления в силу

психического расстройства не могло в полной мере осознавать значения своих действий (бездействий) либо руководить ими, подлежит ответственности». Часть вторая статьи 18[1] УК определяет, что «лицу, страдающему психическим расстройством, не исключающим вменяемости, судом наряду с наказанием могут быть назначены принудительные меры медицинского характера». Не вдаваясь в детальный анализ этой нормы, предварительно отметим и констатируем, что представленные выше положения собственно и характеризуют *ограниченную (уменьшенную) вменяемость.* Но, законодатель видимо «постеснялся» включить этот юридический термин в уголовный закон либо оказался под влиянием психиатров, которые закон инициировали, поскольку юридического наполнения в этой законодательной формулировке нет.

Обратимся к истории проблемы ограниченной (уменьшенной) вменяемости. Вопрос об ограниченной вменяемости, возникший на ранних этапах развития судебной психиатрии в конце XIX века поднимался представителями этой науки, и юристами, но он не был реализован в законодательстве, поскольку против этого выступали известные в тот период учёные.

В их числе следует назвать одного из основоположников судебной психиатрии профессора В.П. Сербского, который, в принципе, признавая отсутствие резкой границы между психическими заболеваниями и полным психическим здоровьем, вместе с тем полагал, что «введение в законодательство этого понятия при невозможности дать какую-либо правильную мерку для приложений её на практике вызвало бы значительные недоразумения и дало бы ложное направление разрешению вопроса о невменяемости, который допускает только два решения: или человек обладал свободой действий и тогда он вменяем, или же он не обладал ею – и тогда он невменяем» [3]. Аналогичной позиции придерживался и профессор Н.С. Таганцев. Не отрицая различные степени вменяемости, он выступал против введения понятия ограниченной вменяемости в закон, однако допускал возможность уменьшения ответственности и смягчения наказания уменьшено вменяемым [4].

В середине двадцатых годов XX века проблема введения понятия уменьшенной вменяемости в обиход уголовного закона вновь стала подниматься. Так, В.С. Трахтерев полагал, что «необходимо выделить уменьшенную вменяемость, дать ей в законе особую обрисовку. Сделать это возможно, ибо уменьшенная вменяемость уже не есть то «каучуковое», растяжимое понятие, каким оно так недавно ещё признавалось» [5]. Поддерживая эту позицию, профессор А.А. Жижиленко определял уменьшенную вменяемость, или, по его определению, «дефектность человека», как «происходящее от длительного болезненного состояния или умственного неразвития значительное ослабление способности осознавать совершаемое и оценивать его или способности мотивировать свои поступки» [6].

За введение уменьшенной вменяемости высказывались и другие учёные, однако ввиду того, что между юристами и психиатрами не было единства в этом вопросе и отсутствовали чёткие юридические критерии и методики определения пограничных состояний, значительное число лиц, проходивших экспертизу в Институте судебной психиатрии им. Сербского в период с 1921 по 1923 г. было признано невменяемыми, а большая часть других – ограниченно вменяемыми. В результате, например в 1921 г., ни одно лицо не было признано вменяемым, поскольку 77,7% испытуемых отнесены к категории невменяемых, а оставшаяся часть (22,3%) была признана ограниченно вменяемыми. Несомненно, такая практика не могла получить поддержки в те годы, и потому, начиная с 1928 г. признание ограниченно вменяемыми было прекращено [7]. Отношение к ограниченной вменяемости показано проф. А.Трайниным, который без всяких приукрас заявил в 1929 г., что «в настоящее время создавать между законом и судьёй ещё один связующий критерий – уменьшенную вменяемость – значило бы вступать в противоречие с общей тенденцией уголовной политики. С другой стороны, требование обязательного смягчения реакции при уменьшенной вменяемости может противоречить интересам социальной защиты, ибо порой лица с уменьшенной вменяемостью могут оказаться социально наиболее опасными» [8].

Сегодня нет необходимости раскрывать сущность тенденций уголовной политики, проводившейся в тот период, об этом достаточно много сказано, и она получила свою историческую и политическую оценку.

ISSN 3030-3230

Проводимая политика репрессий, когда допускалось привлечение к уголовной ответственности абсолютно невиновных лиц [9], не говоря уже о тех, кто совершил преступление при наличии у них различных форм психопатии, неврозов и других «пограничных» психических заболеваний, а нередко и в результате этого, положила конец всем дискуссиям по вопросу об уменьшенной (ограниченной) вменяемости.

Лишь в последнее десятилетие существования СССР этот вопрос стал постепенно подниматься и вновь дискутироваться в среде учёных. Появились отдельные работы юристов и психиатров, в которых начала затрагиваться проблема ограниченной вменяемости. Это было обусловлено целым рядом факторов.

Во–первых, социологические и криминологические исследования обнаружили тенденцию значительного увеличения среди совершивших преступления во вменяемом состоянии количества лиц с психическими аномалиями [10].

Во–вторых, концепция ограниченной вменяемости в той или иной форме была реализована во многих странах мира (Дания, Финляндия, ФРГ, Швейцария, Италия, Япония), в том числе и в государствах, составлявших «социалистический лагерь» (ГДР, ВНР, ПНР, ЧССР, СФРЮ). Так, в УК Германии 1871 г. в редакции от 1 января 1975 г. с изменениями на 1 января 1979 г. уменьшенной вменяемости посвящён § 21, который определяет: «Если – по одной из указанных в § 20 причин способность лица осознавать противоправность деяния или действовать, отдавая себе отчёт в содеянном, была существенно уменьшена при совершении деяния, то наказание, согласно § 49, абз.1 может быть смягчено» [11]. Заметим, что § 20 посвящён невменяемости. Уголовный кодекс Японии 1907 г. с изменениями на 1985 г. в ч.2 ст. 39 определяет, что, «наказание за действие, совершённое слабоумным, подлежит смягчению» [12].

В–третьих, достижения психиатрии в изучении и распознаваемости «пограничных» состояний и аномалий психического развития, не достигающих уровня психического заболевания, составляющего основу медицинского критерия невменяемости позволяют с достаточно высокой точностью определять степень вменяемости.

В–четвёртых, некоторые положения, содержавшиеся в уголовном законе «социалистического» периода и посвящённые возможности смягчения уголовной ответственности в случаях совершения преступлений в состоянии физиологического аффекта (сильного душевного волнения), в определённой степени отражали состояние уменьшенной (ограниченной) вменяемости без употребления этого термина.

Исследование проблем аффекта юристами (Ю.М.Антонян, С.В.Бородин, Г.Н. Борзенков, М.И. Дубинина. Н.И. Загородников. В.П. Емельянов, Р.П. Михеев, А.Б. Мельниченко, Э.Ф. Побегайло, И.П. Портнов, В.В. Сидоров, О.Д. Ситковская, В.И. Ткаченко, Т.Г. Шавгулидзе и др.), психиатрами и психологами (А.Г. Ковалёв, Н.Д. Левитов, А.Н. Леонтьев, Ю.П. Лисицын, Д.Р. Лунц, С.Л. Рубинштейн, Б.М. Теплов, А.А. Хомовский и др.) увеличило число сторонников концепции уменьшенной вменяемости, которые вполне справедливо отмечают, что «лица с неполноценной психикой не могут быть в области уголовной ответственности приравнены к психически здоровым, тем более что психические аномалии, не исключающие вменяемости, во многих случаях выступают в качестве условия, способствующего преступлению» [13].

Противники введения в обиход уголовного закона понятия уменьшенной (ограниченной) вменяемости приводят ряд аргументов, в числе которых наиболее типичными являются: 1) невозможность точного определения в законе критериев уменьшенной вменяемости; 2) возможность ошибок и злоупотреблений со стороны экспертов; 3) возможность необоснованного смягчения наказания лицам, совершившим тяжкие и особо тяжкие преступления и представляющим повышенную опасность для общества.

Представляется, что существенность отмеченных выше аргументов несколько преувеличена. Так, высказываемые опасения относительно невозможности предусмотреть для ограниченной вменяемости точной юридической формулы, поскольку отсутствуют чёткие клинические критерии, основаны на том, что состояние ограниченной вменяемости многие расценивают как некое «промежуточное» состояние психики между вменяемостью и невменяемостью [14]. Полагаем, что прав Р.И.Михеев, рассматривающий ограниченную вменяемость как разновидность вменяемости и потому

«обоснованно делающий вывод о достаточной определённости как её юридического, так и медицинского критериев» [15].

В поддержку его позиции вполне уместно использовать и опыт законотворчества в Узбекистане, где впервые на уровне УК была закреплена одна из разновидностей ограниченной вменяемости, определённая нами как «**возрастная ограниченная вменяемость**». Это положение нашло свою реализацию в ч. 3 ст. 87 УК, где установлено, что «при существенном отставании возрастного развития несовершеннолетнего, лишающим его способности в полной мере сознавать значение совершённого деяния, суд обязан обсудить вопрос о целесообразности вместо наказания применить принудительные меры». По существу данное положение характеризует возрастной инфантилизм (децелирация), представляющий собой отсталость развития, характеризующую сохранением в более взрослом состоянии физического строения или черт характера, свойственных детскому возрасту [16]. Возрастная ограниченная вменяемость может быть обусловлена не только психическими аномалиями (врождёнными или приобретёнными), но и другими факторами медико-биологического, социологического либо социально-психологического характера и свидетельствует о недоразвитии несовершеннолетнего, которое проявляется в несоответствии между календарным, с одной стороны, и биологическим либо, социально-правовым возрастом – с другой [17].

Исходя из определения, содержащегося в законе, возрастную ограниченную вменяемость можно констатировать при наличии совокупности двух критериев: социального и юридического.

Социальный критерий проявляется в существенном отставании возрастного развития несовершеннолетнего, что является результатом деформации процесса социализации личности, усвоения индивидом норм и ценностей окружающей его социальной среды, вхождения человека в социальную среду. Таким образом, социально-психологический критерий возрастной ограниченной вменяемости определятся уровнем социализации личности, характеризуемым в УК словосочетанием «существенное отставание возрастного развития».

Вторым критерием является ***критерий юридический***, который характеризуется неспособностью несовершеннолетнего в полной мере сознавать значение совершаемого им деяния, что обусловлено социально-психологическим критерием, т. е. уровнем социализации личности. Поэтому юридический критерий возрастной ограниченной вменяемости выражается в уменьшении способности осознания значения совершаемых несовершеннолетним деяний.

Сочетание юридического и социально-психологического критериев даёт основание для констатации возрастной ограниченной вменяемости и обязывает суд обсудить вопрос о целесообразности вместо наказания применить к лицу принудительные меры, в том, числе и медицинского характера.

Таким образом, одна из разновидностей ограниченной вменяемости нашла отражение в законе Узбекистана, правда только применительно к категории несовершеннолетних, и именно в силу возрастной ограниченной вменяемости суд обязан обсудить вопрос об их освобождении от наказания с применением принудительных мер, а при установлении целесообразности – может это осуществить. Поэтому аргумент относительно невозможности юридического определения границ ограниченной вменяемости несколько некорректен.

Юридический критерий ограниченной вменяемости характеризуется так же, как и юридический критерий вменяемости, хотя способность лица осознавать фактический характер осуществляемого им поведения и руководить им несколько ослаблена. Что же касается медицинского критерия, то им будет охватываться психическое состояние людей: а) имеющих, определённые психические отклонения, не исключающие вменяемости; б) обнаруживающих отставание в интеллектуальном развитии, не связанное с психическим расстройством; в) обусловленное иными психофизиологическими особенностями. Правда, более точным было бы определение второго критерия ограниченной вменяемости не только как медицинского, но и социально-психологического. Психические состояния названных категорий лиц в целом определяются как пограничные состояния, которые достаточно исследованы и в общей, и в судебной психиатрии. Однако несомненно, что введение в закон новой уголовно-правовой категории послужит не только побудительной причиной более детального научного

ISSN 3030-3230

исследования пограничных состояний, но и обяжет экспертов более точно диагностировать и оценивать такие состояния.

Опасения, высказываемые по поводу возможных злоупотреблений и ошибочных оценок состояний со стороны экспертов, вряд ли стоит связывать только с введением обязанности для них более тщательного проведения исследований психических аномалий, выявления их этиологии и психиатрической оценки, поскольку и сегодня при решении альтернативы «вменяем – невменяем» такая возможность существует. Этот аргумент не учитывает того факта, что решение о признании лица невменяемым или вменяемым, в том числе и ограниченно, принимает не эксперт, а суд, который исследует его заключение и подвергает судебной оценке наряду с другими собранными по делу доказательствами. Обоснованность решения суда зависит не только от заключения эксперта, к которому при введении категории ограниченной вменяемости, несомненно, будут предъявляться повышенные требования, но и от других материалов, характеризующих личность виновного и его поведение как непосредственно при совершении преступления, так и предделиктного.

Несостоятелен аргумент и по поводу того, что введение категории ограниченной вменяемости создаст законодательную возможность необоснованного смягчения наказания всем без исключения лицам, совершившим преступления и обнаруживающим какие-либо психические аномалии, независимо от категории совершённого преступления и их личности. В литературе правильно отмечается, что сторонники этой позиции ошибочно полагают наличие взаимосвязи вменяемости с виной и что вменяемость, являясь её предпосылкой, оказывает влияние на уменьшение степени вины и, следовательно, связана с уменьшенной ответственностью [18]. Этот тезис вновь основан на рассмотрении ограниченной вменяемости как самостоятельной, вне понятия вменяемости, категории, и позволяет смешивать вполне самостоятельные признаки разных элементов состава преступления. Однако степень вины не отражает психического отношения личности к осуществляемому им поведению, а есть психологическое содержание конкретного преступления. Кроме того, правоприменительная практика формируется на основании закона, предопределяется содержанием его положений и потому от законодателя зависит, будут ли подлежать психические аномалии обязательному учёту при назначении наказания по каждому такому случаю или нет. Ещё более пятидесяти лет назад в литературе высказано достаточно разумное предложение о дифференцированном учёте психических и физических аномалий личности при назначении наказания [19], основанном на том, что более мягкое наказание может быть назначено виновному, физическая или психическая аномалия которого возникла или развилась в результате не зависящих от него обстоятельств. Но мы не совсем согласны с другим выводом З.А. Вышинской, полагающей, что если подобные аномалии возникли или развивались вследствие отрицательного образа жизни виновного, например, в результате злоупотребления алкоголем, то наказание не может смягчаться [20]. Полагаем, что и в таких случаях вопрос следует решать дифференцированно и предоставить возможность суду самостоятельно разобраться в нём, исходя и из других обстоятельств дела.

Таким образом, осуществлённый выше анализ показывает, что каких- либо серьёзных препятствий для введения в уголовный закон категории ограниченной вменяемости нет. Более того, положительное решение этого вопроса целесообразно, поскольку явится реализацией принципов гуманизма (ст.7 УК) и справедливости (ст.8 УК), ибо обяжет более внимательно относиться к выяснению всех обстоятельств дела, в том числе не просто констатировать наличие той или иной психической аномалии в рамках проблемы «вменяем – невменяем», а осуществлять её психиатрическую оценку.

Введение в уголовный закон категории «ограниченная вменяемость» не означает отказ от применения каких-либо видов наказаний, предусмотренных в системе наказаний (ст. 43 УК). Поэтому в тех случаях, когда лицо будет осуждено к лишению свободы либо другим наказаниям, связанным с изоляцией от общества, при признании его ограниченно вменяемым соответствующие психотерапевтические и психокоррекционные меры должны проводиться наряду с исполнением этих видов наказаний. Меры медицинского характера могут включать как амбулаторное наблюдение врача-психиатра, так и лечение в психиатрическом стационаре.

Стационарное лечение должно осуществляться только по рекомендации врача-психиатра или по результатам консилиума врачей в случаях, когда состояние лица, признанного судом ограниченно вменяемым изменилось в неблагоприятную сторону. При осуждении лиц, признанных ограниченно вменяемыми, к мерам наказания, не связанным с изоляцией от общества, лечение должно проводиться на общих основаниях. Следует отметить, что применение лечения и принудительных мер медицинского характера преследует цель создания условий, способствующих лечению и достижению целей наказания, что и нашло свое отражение в ст. 91 УК.

Решение вопроса, в каких пределах подлежит смягчению наказание, назначаемое лицу, признанному ограниченно вменяемым, возможно в двух вариантах. Первый состоит в том, чтобы закрепить в законе общее положение, содержащее предписание о том, что состояние ограниченной вменяемости может являться основанием для смягчения наказания или применения принудительных мер медицинского характера, что в принципе в ограниченном виде сделано в ч.2 ст. 18^1 УК.

Второй вариант заключается в том, чтобы не ограничиваться этим общим указанием и наряду с ним в главе о назначении наказания предусмотреть норму, в которой закрепить специальные правила назначения наказания для случаев признания лица ограниченно вменяемым. Этот подход представляется предпочтительным и в качестве примера подобного законодательного решения можно сослаться на § 49 УК Германии 1975 г., где, в частности, определено: «Если смягчение согласно этому параграфу предписывается или допускается, то в отношении смягчения действует следующее: 1. Пожизненное лишение свободы заменяется лишением свободы на срок не ниже 3 лет ...» [21].

Предпочтительность второго варианта заключается в том, что он соответствует положениям законодательной техники о приоритетности принципа формальной определённости норм Общей и Особенной частей. Кроме того, если ограничиться только общим предписанием, то оно фактически останется лишь малореализуемой декларацией, ибо в соответствии со ст. 57 УК суд может назначить наказание ниже низшего предела, предусмотренного статьёй Особенной части УК, или другое, более мягкое, наказание, которое этой статьёй не предусмотрено, лишь в исключительных случаях при наличии обстоятельств, существенно смягчающих степень общественной опасности совершённого преступления. В то же время ч. 3 этой статьи определяет, что существенно снижающими степень общественной опасности могут быть признаны обстоятельства, в совокупности характеризующие ряд факторов, в числе которых и следует учесть состояние ограниченной вменяемости, но при обязательном наличии и других.

Поэтому мы полагаем приемлемым использовать опыт германского законодательства, не копировать его слепо, поскольку тот диапазон (от пожизненного лишения свободы до трёх лет), который допускает УК Германии вряд ли допустим и может действительно повлечь различные злоупотребления и субъективизм. Представляется, что коль скоро речь идёт о смягчении наказания, то следовало бы понизить для лиц, признанных ограниченно вменяемыми, допустимый законом максимум наказаний.

В заключение предлагаем возможные варианты текстов статей, регламентирующих положения об ограниченной вменяемости.

1. Ст. 18^1 изложить в следующей редакции:

«Статья 18^1. Ограниченная (уменьшенная) вменяемость

Лицо, которое во время совершения преступления не было способно в полной мере осознавать общественно опасный характер своего деяния или руководить им вследствие психических расстройств, не исключающих вменяемость, отставания в интеллектуальном развитии (децелирация), не связанного с психическим расстройством, или иных психофизиологических особенностей, признаётся ограниченно вменяемым.

Состояние ограниченной вменяемости не исключает уголовной ответственности, однако может являться основанием для смягчения наказания или применения наряду с наказанием принудительных мер медицинского характера».

2. Дополнить Кодекс статьёй 57^1 следующего содержания:

«Статья 57^1. Назначение наказания лицам, признанным ограниченно

вменяемыми

При назначении срочных наказаний лицу, признанному ограниченно вменяемым, назначенное наказание за совершенное преступление не должно превышать трёх четвертей от максимального срока (вариант – двух третей), предусмотренного санкцией статьи.

При назначении наказания в виде штрафа действует положение, предусмотренное частью первой настоящей статьи, применительно к максимальной сумме допустимого штрафа».

3. Часть 2 ст. 91 изложить в следующей редакции:

«Меры медицинского характера могут быть назначены судом наряду с наказанием лицам: а) признанным ограниченно вменяемым, – для создания условий, способствующих лечению и достижению целей наказания; б) страдающим алкоголизмом, наркоманией или токсикоманией, – для лечения и создания условий, способствующих достижению целей наказания».

4. Дополнить Кодекс статьей 95^1 следующего содержания:

«Статья 95^1. Применение мер медицинского характера к лицам, признанным ограниченно вменяемыми

Меры медицинского характера, применяемые к лицам, осужденным к мерам наказания, связанным с изоляцией от общества, и признанным ограниченно вменяемыми, включают амбулаторное наблюдение врача-психиатра, лечение в психиатрическом стационаре, а также создание условий, способствующих проведению психотерапевтических и психокоррекционных мер во время отбывания наказания. Стационарное лечение проводится по рекомендации врача-психиатра либо на основании решения консилиума врачей *(вариант: исключить – «по рекомендации врача–психиатра либо»)* в случае неблагоприятного изменения психического состояния лица, признанного ограниченно вменяемым.

При осуждении лиц, признанных ограниченно вменяемыми, к мерам наказания, не связанным с изоляцией от общества, лечение осуществляется на общих основаниях».

Annotatsiya. Maqolada jinoiy huquqda cheklangan (kamaytirilgan) aqliy layoqat institutining nazariy-huquqiy va amaliy jihatlari yoritiladi. Mualliflar ushbu institutga oid ilmiy yondashuvlarning evolyutsiyasini tahlil qiladi, MDH va Yevropa davlatlari qatorida mavjud normativ-huquqiy tartibga solish hamda huquqni qo‘llash amaliyotining hozirgi holatini baholaydi. Ayniqsa, cheklangan aqliy layoqatni milliy jinoiy-huquq tizimida mustaqil huquqiy kategoriya sifatida qonunchilik darajasida mustahkamlash zarurligiga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqotda cheklangan aqliy layoqatni tan olish jinoiy javobgarlik va jazoni individuallashtirishning adolatli bo‘lishiga, shuningdek, huquqning profilaktik funksiyasining kuchayishiga xizmat qilishi asoslab beriladi. Maqolada jinoiy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha aniq yo‘nalishlar, jumladan tegishli normani shakllantirish, uni qo‘llash mexanizmlari hamda aqli norasolik instituti va yengillashtiruvchi holatlar bilan o‘zaro munosabati bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: cheklangan aqliy layoqat, jinoiy huquq, jinoiy javobgarlik, jazo individuallashtirilishi, ruhiy buzilish, huquqiy islohot, aqliy layoqat, sud-psixiatriya ekspertizasi, adolat, jinoiy-huquqiy siyosat.

Annotation. The article examines the theoretical-legal and practical aspects of the institution of diminished responsibility in criminal law. The authors analyze the evolution of scholarly approaches to this institution and assess the current state of its regulatory framework and law enforcement practice in several foreign jurisdictions, including CIS and European countries. Special attention is devoted to the need for the legislative recognition of diminished responsibility as an independent criminal-law category within the national legal system. It is argued that the recognition of diminished responsibility can contribute to a more equitable individualization of criminal liability and punishment, as well as enhance the preventive function of criminal law. The study proposes specific directions for

reforming criminal legislation, including the formulation of an appropriate legal provision, mechanisms for its application, and its relationship with the institutions of insanity and mitigating circumstances.

Key words: diminished responsibility, criminal law, criminal liability, individualization of punishment, mental disorder, legal reform, sanity, forensic psychiatric examination, justice, criminal law policy.

Список литературы:

1. Джалилов И.Д., Рустамбаев М.Х., Якубов А.С. Концепция законодательства Республики Узбекистан о преступлениях и наказаниях. – Ташкент, 1994. – 21 с.; Ёкубов А.С., Жалилов М.Ж., Рустамбаев М.Х., Усмоналиев М. Узбекистон Республикаси жиноят ва жазо тугрисидаги конунининг мохияти (концепцияси). – Тошкент, 1994. – 32 с.; Якубов А.С. Теоретические проблемы формирования правовой основы учения о преступлении: предпосылки, реальность, перспективы. – Ташкент, 1996. – С. 206-218.
2. Национальная база данных законодательства, 13.09.2019 г., №03/19/567/3737; 12.05.2021 г., № 03/21/690/0452.
3. Сербский В.П. Судебная психопатология. Вып.1. – М., 1896. – С.44.
4. Таганцев Н.С. Лекции по русскому уголовному праву. Часть Общая. Вып. 2. – СПб., 1898. – С.135-136: Он же. Русское уголовное право. Т.1. – СПб., 1902. – С.412-413.
5. Трахтерев В.С. Уменьшенная вменяемость в советском уголовном праве // Право и жизнь. 1925., № 9-10. – С.74.
6. Жижиленко А.А. Спорные вопросы уменьшенной вменяемости и УК РСФСР //Право и жизнь. 1924., № 7-8. – С.40.
7. Уголовный закон. Опыт теоретического моделирования. – М., 1987. – С. 77.
8. Трайнин А. Уголовное право. Общая часть. – М. 1929. – С. 252.
9. Подробнее см.: Якубов А.С. Предпосылки уголовно–правовой реформы в Республике Узбекистан.– Ташкент. 1994.– С. 18–19.
10. Уголовный закон. Опыт теоретического моделирования. – М., 1987. – С.74.
11. Цит: по: Кузнецова Н.. Вельцель Л. Уголовное право ФРГ. – М., 1980. – С. 179.
12. Уголовное право буржуазных стран: Общая часть. Сборник законодательных актов. – М., 1990. – С. 303.
13. Уголовное право. Общая часть. // Под ред. Н.Ф.Кузнецовой. Ю.М.Ткачевского, Г.Н.Борзенкова. – М., 1993.– С.144.
14. Российское уголовное право. Общая часть. Под ред. проф. А.В. Наумова.– М., 1994. – С. 116.
15. Уголовный закон. Опыт теоретического моделирования. – М., 1987. – С. 78.
16. Словарь иностранных слов. – М.. 1985. – С.200.
17. Уголовный закон. Опыт теоретического моделирования. – М., 1987. – С. 67-68.
18. Уголовный закон. Опыт теоретического моделирования. – М., 1987. – С. 79.
19. Личностъ преступника. – М., 1975.– С. 256–261.
20. Там же. – С. 259.
21. Уголовное право буржуазных стран: Общая часть. Сборник законодательных актов. – М., 1990.– С. 237.

КОНСТИТУЦИОННАЯ ГАРАНТИЯ ПРЕЗУМПЦИИ НЕВИНОВНОСТИ И ЕЁ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ВОПЛОЩЕНИЕ В УПК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: АНАЛИЗ, ПРАКТИКА И МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ

Чиниев Д.А.,
доктор юридических наук

Аннотация. В статье рассматривается отражение нормы статьи 28 Конституции Республики Узбекистан, закрепляющей презумпцию невиновности, право хранить молчание и запрет самооговора, в статье 23 Уголовно-процессуального кодекса. Показано, что совпадение формулировок Конституции и УПК не является формальным дублированием, а представляет собой построение реального механизма защиты от необоснованного уголовного преследования. Анализируется судебная практика 2023–2025 годов, включая данные Верховного суда Республики Узбекистан об оправдательных приговорах и отменённых решениях. Приведена позиция Пленума Верховного суда, закрепляющая недопустимость признания вины как единственного доказательства. Сопоставляются национальные нормы с международными стандартами, включая ст. 14 Международного пакта о гражданских и политических правах. Обосновывается значимость укрепления презумпции невиновности в условиях модернизации судебно-правовой системы.

Ключевые слова: презумпция невиновности; право хранить молчание; запрет самооговора; допустимость доказательств; УПК; Конституция Республики Узбекистан; судебная практика; Пленум Верховного суда; международные стандарты.

Конституция Республики Узбекистан закрепила один из фундаментальных правовых принципов – презумпцию невиновности, сформулированную в статье 28 Основного Закона.

В ней чётко определено, что подозреваемый, обвиняемый или подсудимый **не обязан доказывать свою невиновность**, имеет право в любое время **хранить молчание**, а признание им своей вины **не может являться единственным доказательством** для обвинительного приговора.

Кроме того, Конституция устанавливает безусловный запрет на принуждение лица свидетельствовать против себя и своих близких родственников.

Эта норма отражает классические стандарты международного права, а именно положения Международного пакта о гражданских и политических правах (ст. 14), Всеобщей декларации прав человека (ст. 11), практику Комитета ООН по правам человека.

Принцип презумпции невиновности является ключевой гарантией против произвола, недобросовестного уголовного преследования и принудительных признаний, и служит основой доверия общества к институтам правосудия.

Отдельное значение приобретает то, что данная конституционная гарантия получила **прямое текстуальное закрепление** в статье 23 Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан.

Совпадение формулировок не является механическим дублированием – это результат продолжающегося реформирования уголовного процесса, направленного на создание реальных механизмов защиты, а не декларативных норм.

УПК предусматривает ту же логику: подозреваемый считается невиновным, пока виновность не доказана судом; не должен доказывать свою невиновность; сомнения всегда разрешаются в его пользу; признание вины является лишь одно из доказательств, но никогда не единственное.

Наличие такой согласованности между Конституцией и УПК имеет системное значение.

Во-первых, оно устраняет разрыв между теорией и практикой, обеспечивая суды и следственные органы чёткими процессуальными ориентирами.

Во-вторых, оно усиливает правовой иммунитет личности перед государственным обвинением, формируя высокие стандарты

доказывания.

В-третьих, оно создаёт правовую предсказуемость и снижает риск необоснованного привлечения к ответственности, что особенно важно в условиях интенсивного обновления судебно-правовой системы страны.

Закрепление презумпции невиновности в статье 23 Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан представляет собой не формальное воспроизведение конституционной нормы, а построение процессуального механизма, который обязателен для следствия, прокуратуры и суда.

УПК прямо повторяет ключевые конституционные элементы: обязанность государства доказывать обвинение, право лица хранить молчание, запрет использовать признание вины как единственное доказательство, а также императивное правило разрешения всех неустранимых сомнений в пользу обвиняемого.

Эти положения подкреплены процессуальными нормами: запретом принуждения к даче показаний (ст. 17, 23, 48 УПК), требованием допустимости доказательств (ст. 95 ч. 3 УПК), обязанностью органов предварительного расследования и суда объективно исследовать как уличающие, так и оправдывающие обвиняемого или подсудимого, а также смягчающие и отягчающие его ответственность. (ст. 22 ч.3 УПК), а также требованиями мотивированности судебного приговора (ст. 455 ч.6 УПК). Тем самым создаётся взаимосвязанная система гарантий, исключающая практику "обвинительного уклона" и перенесение бремени доказывания на обвиняемого.

Актуальность такой законодательной конструкции подтверждает и судебная практика. По данным Верховного суда *(через СМИ)* за 10 месяцев 2024 года: суды Узбекистана вынесли **603 оправдательных приговора;** ещё у **5,603 тыс. граждан** обвинения были сняты «в связи с недоказанностью» (то есть сомнения в виновности не были сняты)[1]. А за I квартал 2025 года: уголовные суды Узбекистана вынесли **108 оправдательных приговоров** при рассмотрении 15,6 тыс. уголовных дел[2].

В Постановлении Пленума Верховного суда Республики Узбекистан 23 мая 2014 г., № 07 «О судебном приговоре» особо подчёркнуто: «Статья 463 УПК устанавливает, что обвинительный приговор не может быть основан на предположениях и постановляется лишь при условии, что в ходе судебного разбирательства виновность подсудимого в совершении преступления доказана, в основу обвинительного приговора должны быть положены достоверные доказательства, полученные в результате проверки всех возможных по делу обстоятельств совершения преступления, восполнения всех обнаруженных в материалах дела пробелов, устранения всех возникших сомнений и противоречий.

Из этого следует, что сам **факт признания подсудимым своей вины на следствии или в суде может служить основанием для вынесения обвинительного приговора только при его объективном подтверждении собранными по делу и исследованными в суде другими доказательствами**» *(п. 16 Постановления)*.

Эта позиция полностью совпадает с формулировками статьи 28 Конституции и статьи 23 УПК, подтверждая, что признание – лишь один элемент доказательственной системы, а не её основное звено.

Таким образом, законодательное отражение нормы Конституции в УПК формирует процессуальный баланс, препятствующий практикам давления, принуждения, "признательных" уголовных дел и необоснованного обвинения. Это отвечает как международным стандартам, так и стратегическим задачам Республики Узбекистан по укреплению верховенства закона и судебной защиты прав граждан.

Конституционная гарантия, закреплённая в статье 28, имеет непосредственное значение для формирования современной модели уголовного процесса.

Презумпция невиновности, как правило, служит ключевым критерием законности уголовного преследования, поскольку направляет всю деятельность следствия и суда на необходимость доказывания виновности

[1] Суды Узбекистана за 10 месяцев 2024 года оправдали 603 лица. https://rapsinews.ru/international_news/20241206/310475091.html?utm_source=chatgpt.com.

[2] Сколько человек оправдали суды Узбекистана в I квартале 2025 года. https://uz.kursiv.media/2025-04-22/skolko-chelovek-opravdali-sudy-uzbekistana/?utm_source=chatgpt.com.

ISSN 3030-3230

исключительно органами уголовного преследования.

Практика последних лет показывает, что именно нарушение принципа презумпции невиновности чаще всего становилось причиной реабилитации уличенных в преступлениях лиц. И что конституционное требование «все сомнения трактовать в пользу обвиняемого» имело и имеет важнейшее системное воздействие на судебную практику.

Согласно статистическим данным Верховного суда Республики Узбекистан, только в 2023 году судами по уголовным делам рассмотрено 58 418 уголовных дел в отношении 73 797 лиц. Из них **1 244 лица оправданы (реабилитированы).** Также там указано, что в кассационном порядке отменено решений нижестоящих судов в отношении 1 143 лиц[3].

Существенная часть этих оправданий была вынесена именно по причине отсутствия достаточных доказательств или наличия неустранимых сомнений в виновности. Это показывает, что статья 23 УПК стала реально применяемой нормой, а не декларацией.

Особую значимость конституционной нормы презумпции невиновности подтверждает и её полное соответствие международным актам, обязательным для Республики Узбекистан. В частности, статья 14 Международного пакта о гражданских и политических правах прямо закрепляет право каждого лица считаться невиновным, пока его виновность не будет доказана в соответствии с законом.

Комитет ООН по правам человека неоднократно подчёркивал, что государство обязано обеспечивать не только формальное признание презумпции невиновности, но и её **фактическое соблюдение** в следственных и судебных процедурах.

Таким образом, статья 28 Конституции РУз полностью согласуется с универсальными международными стандартами, а её отражение в статье 23 УПК является логически необходимым элементом гармонизации национального законодательства.

Несмотря на значительные достижения, существуют и узловые проблемы, препятствующие полному соблюдению принципа презумпции невиновности.

Одной из ключевых проблем все еще остаётся **практика обвинительного уклона** со стороны следственных органов, когда признательные показания рассматриваются как «основное» доказательство, сохраняется проблема «формального присутствия адвоката», когда защитник не участвует активно в процессе фиксации показаний. Отдельного внимания заслуживает практика использования «объяснений», «обращений» и иных документов, где граждане подписывают признание вины вне протоколов следственных действий.

Вместе с тем, конституционная гарантия права не доказывать свою невиновность, право хранить молчание и запрет признания вины в качестве единственного доказательства – являются неотъемлемыми элементами современного уголовного судопроизводства, основанного на принципах законности, справедливости и гуманизма. Закрепление этих принципов в статье 23 УПК РУз отражает стремление государства обеспечить реальную защиту личности и предотвратить судебные ошибки.

Реформы последних лет, включая увеличение числа оправдательных приговоров, пересмотр ранее вынесенных решений и усиление судебного контроля, демонстрируют, что нормы Конституции перестали быть декларативными и стали реально действовать на практике.

Тем не менее, сохраняющиеся проблемы показывают необходимость дальнейшей системной работы – повышение квалификации следователей и прокуроров, внедрение механизмов недопущения давления на подозреваемых, усиление адвокатской защиты и обязательное соблюдение стандартов допустимости доказательств.

В условиях продолжающейся модернизации правовой системы Республики Узбекистан статья 28 Конституции и статья 23 УПК РУз остаются центральными гарантиями, защищающими граждан от произвола и обеспечивающими справедливость уголовного процесса.

[3] Информационное сообщение об уголовных делах, рассмотренных судами в 2023 году. https://sud.uz/ru/news-2024-01-09-1-2/?utm_source=chatgpt.com

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida mustahkamlangan aybsizlik prezumpsiyasi, sukut saqlash huquqi va o‘zini o‘zi ayblash taqiqlanishi normalarining Jinoyat-protsessual kodeksning 23-moddasida qanday aks etgani tahlil qilinadi. Konstitutsiya va JPKdagi normativ ifodalarning o‘xshashligi rasmiy takrorlash emasligi, balki shaxsni asossiz jinoiy ta’qibdan himoya qiluvchi real mexanizmni shakllantirishi ilmiy asoslab beriladi. 2023–2025-yillardagi sud amaliyoti, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining oqlov hukmlari va bekor qilingan sud qarorlari bo‘yicha ma’lumotlari o‘rganilgan. Oliy sud Plenumining aybni tan olishni yagona dalil sifatida qabul qilish mumkin emasligi haqidagi huquqiy pozitsiyasi bayon etiladi. Shuningdek, milliy qonunchilik normalari xalqaro standartlar, jumladan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 14-moddasi bilan taqqoslab tahlil qilinadi. Sud-huquq tizimi modernizatsiyasi sharoitida aybsizlik prezumpsiyasini yanada mustahkamlashning dolzarbligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: aybsizlik prezumpsiyasi; sukut saqlash huquqi; o‘zini o‘zi ayblash taqiqi; dalillarning yo‘l qo‘yilishi; JPK; O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; sud amaliyoti; Oliy sud Plenumi; xalqaro standartlar.

Annotation. The article examines how the norm of Article 28 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan—establishing the presumption of innocence, the right to remain silent, and the prohibition of self-incrimination—is reflected in Article 23 of the Criminal Procedure Code. It is demonstrated that the parallel wording of the Constitution and the CPC is not mere duplication but constitutes an effective mechanism protecting individuals from unfounded criminal prosecution. Judicial practice from 2023–2025 is analyzed, including data from the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan on acquittals and overturned decisions. The article cites the position of the Plenum of the Supreme Court, which affirms that a confession cannot serve as the sole evidence of guilt. National norms are compared with international standards, including Article 14 of the International Covenant on Civil and Political Rights. The study substantiates the importance of strengthening the presumption of innocence within the ongoing modernization of the judicial and legal system.

Key words: presumption of innocence; right to remain silent; prohibition of self-incrimination; admissibility of evidence; Criminal Procedure Code; Constitution of the Republic of Uzbekistan; judicial practice; Supreme Court Plenum; international standards.

Список литературы:

1. Конституция Республики Узбекистан, ст. 28.
2. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан, ст. 23, ст. 22, ст. 17, ст. 48, ст. 95, ст. 455.
3. Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 23 мая 2014 г. № 07 «О судебном приговоре», п. 16.
4. Верховный суд Республики Узбекистан. Информационное сообщение об уголовных делах за 2023 год — 1 244 оправданных лиц, 1 143 отменённых судебных решений. Официальный сайт ВС РУз: https://sud.uz/ru/news-2024-01-09-1-2/
5. Kursiv Uzbekistan. «Суды Узбекистана оправдали 603 человека, у 5,603 тысячи обвинения сняты по недоказанности» (10 мес. 2024 г.). URL: https://uz.kursiv.media/2024-12-06/sudy-v-uzbekistane-opravdali-bolee-600-chelovek/
6. Kursiv Media. «Сколько человек оправдали суды Узбекистана в I квартале 2025 года» — 108 оправданий. URL: https://uz.kursiv.media/2025-04-22/skolko-chelovek-opravdali-sudy-uzbekistana/
7. Международный пакт о гражданских и политических правах, ст. 14.
8. Human Rights Committee, General Comment No. 13 (Presumption of Innocence).
9. Верховный суд Республики Узбекистан. Судебная статистика 2017–2024 гг. (публичные отчёты и обзоры).
10. Уполномоченный Олий Мажлиса Республики Узбекистан по правам человека (омбудсман) — ежегодные отчёты за 2022 и 2023 гг. (официальный сайт: https://ombudsman.uz/).

FUQAROLARNING EKOLOGIK HUQUQINI TA’MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Usmonov Muhammadi Bahriddinovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yuridik fanlar doktori

Annotatsiya. Maqolada fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘rnatilgan ekologik huquqlarining mazmuni va uni ta’minlashga qaratilgan huquqiy kafolatlar, shuningdek fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqining dolzarb masalalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: fuqaro, ekologiya, atrof tabiiy muhit, ekologik huquq, yer, suv, havo, o‘simlik dunyosi, hayvonot dunyosi, tabiat obyekti, tabiiy resurslar, ekologik xavfsizlik, qonun, ekologik qonunchilik.

Fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi, atrof tabiiy muhitni muhofaza etish bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlari, davlat organlarining atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari bilan bog‘liq vazifalar Konstitutsiya asosida tartibga solinishi lozim bo‘lgan eng muhim ijtimoiy munosabatlar sirasiga kiradi. Demak, insonning ekologik huquqlarini atrof tabiiy muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishining salbiy ta’siri, suv tanqisligi, chiqindilar bilan to‘g‘ri muomalada bo‘lish, sanitariya-epidemiologik holatning barqarorligi, bioxilmaxillikni qisqarib ketishidan saqlash har bir davlatning asosiy qonuni hisoblangan Konstitutsiyasi bilan tartibga solinishi lozim.

Ajdodlarimiz ta’limotiga ko‘ra, tabiatni e’zozlash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, hayvonot va nabobot olamiga oqilona munosabatda bo‘lish har bir inson uchun muqaddas vazifa sanaladi. Mutafakkirlarimiz ta’kidlaganlaridek, tabiatga mehr ko‘rsatmagan, undan himmatini, mehr-muruvvatini darig‘ tutgan, yerni, suvni, havoni ilohiy ne’mat sifatida e’zozlamagan odamning, xalq va millatning istiqboli porloq bo‘lmaydi.

Tabiatga muhr-muhabbat, tevarak-atrofni, suvni, havoni, tuproqni, hayvonotu-nabobotni asrab-avaylash islom ta’limotining eng asosiy jihatlaridan biridir. Islomning muqaddas manbalarida ba’zi turdagi hayvonlarni ov qilish, daraxtlarni kesish, o‘simliklarni nobud qilish qat’iy man qilingan. Qur’oni Karimda suv ko‘p tilga olinadi. Suv inson jismining asosiy unsuri ekanligi ta’kidlanadi. Suvni isrof qilmaslik haqida uning suralari va oyatlarida qimmatli yo‘l-yo‘riqlar mavjud.

Tabiatga oqilona munosabatda bo‘lishning yuksak namunasini sohibqiron Amir Temur bobomizning ilmiy-amaliy faoliyatida aniq-ravshan ko‘rish mumkin. Bu masalani u davlat siyosati darajasiga ko‘targan. Yurtni obod qilishni, har bir shahar va qishloqni ko‘kalamzorlashtirishni Amir Temur o‘zi uchun asosiy maqsad deb bilgan. Amir Temur o‘zining peshona teri, qadoqli qo‘li, aql-idroki va tafakkuri bilan saxiy zamindan mo‘l-ko‘l hosil yetishtirib, mamlakatni arpa-bug‘doy, sabzavot, meva, go‘sht, yog‘, sut, jun bilan ta’minlovchi dehqonlarga, qishloq mehnatkashlariga, chorvadoru-bog‘bonlarga alohida e’tibor bilan qaragan, ularni moddiy-ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlab, ruhlantirib turgan, ma’lum vaqtgacha soliqlardan, boshqa majburiy to‘lovlardan ozod qilgan.

Fuqarolarning ekologik huquqini ta’minlash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning eng samarali vositalaridan biri ularning ekologik madaniyatini yuksaltirish, jamiyat taraqqiyotining ma’naviy omillarini kuchaytirishdir. Har bir ota-ona farzandlarini tabiatni sevish, ardoqlash, yerga, tuproqqa mehr qo‘yishga, o‘simligu-jonivorlarni ardoqlashga o‘rgatishni qonunlardan qo‘rqqanidan emas, balki yuksak ma’naviyat asosida yondoshish orqali hal etishlari kerak. Oila, bolalar bog‘chasi, maktabdan boshlab ekologik ta’lim-tarbiyaga alohida e’tibor berilishi lozim. Toki bolalar go‘daklikidanoq tabiatga nisbatan bemehrlik og‘ir oqibatlarga olib kelishini tushunishi zarur.

Tabiatga mehri kuchli bo‘lgan insonning o‘z xalqiga, Vataniga bo‘lgan mehr-muhabbati ham yuksak bo‘ladi. Qalbida mehr-shafqat, rahmdillik singari yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar ustuvorlik qiladigan insonlar tabiatdagi har bir mavjudot va hodisaga oqilona munosabatda bo‘lishga harakat qiladi. U daraxt shoxini sindirmaydi, axlat tashlab suvni iflos qilmaydi, havoning bulg‘anishiga yo‘l qo‘ymaydi, yam-yashil maysalarni payhon qilmaydi, aksincha bog‘lar yaratadi, obodonchilik ishlari bilan shug‘ullanadi, mehnati, aql-idroki va tafakkurini ona tabiatni muhofaza qilishga bag‘ishlaydi.

Fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va barqaror rivojlanishni amalga oshirishda O‘zbekiston davlatining ekologik siyosati, atrof tabiiy muhitni sog‘lomlashtirishga bag‘ishlangan ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi va ularning ijrosiga qaratilgan say-harakatlar ijobiy natijalarni bermoqda. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son farmoni asosida “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi” [1] tasdiqlanib va unda iqtisodiyotni ekologiyalashtirish, tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish, ekologik jihatdan eng kam xavf tug‘diruvchi materiallar, mahsulotlardan, ishlab chiqarish obyektlari va boshqa obyektlardan ustuvor darajada foydalanish, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida davlat nazoratini takomillashtirish, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirish, zaharli kimyoviy va radioaktiv moddalardan ekologik xavfsiz foydalanishni ta’minlash vazifalari belgilab berilgan.

Ushbu konsepsiyaning amalga oshirilishi natijasida 2030-yilda Orol dengizining qurigan tubining O‘zbekistondagi qismida o‘rmonzorlar maydoni uning jami hududiga nisbatan 60 foizgacha yetkaziladi, qishloq xo‘jaligida suv resurslarini yo‘qotish 10 foizga kamaytiriladi, qishloq xo‘jaligida suv iste’moli 15 foizga kamaytiriladi, oqava suvlarini tozalash samaradorligi 80 foizgacha oshiriladi, atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishi 10 foizga kamayadi, transport vositalarining 80 foizi gaz-ballon yoqilg‘isi va elektr energiyasida ishlashga o‘tkaziladi, o‘rmonzorlar bilan qoplangan o‘rmon fondi hududi 4,5 mln gektargacha kengaytiriladi, IV toifadagi qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar maydoni 12 foizgacha kengaytiriladi, Qizil kitobga kiritilgan va pitomniklarda parvarish qilingan chiroyli tuvaloqlarni tabiatga qo‘yib yuborish yiliga 4000 gacha ko‘paytiriladi, aholi qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib ketish xizmatlari bilan 100 foiz qamrab olinadi, hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash hajmi 65 foizgacha ko‘payadi; alohida xususiyatga ega chiqindilarni qayta ishlash hajmi 30 foizgacha o‘sadi.

Fuqarolarning ekologik huquqini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori [2] muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko‘ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni tejashni yanada kengaytirish maqsadida 2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o‘tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish, yiliga 200 million ko‘chat ekish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish, respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish, hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish vazifalari belgilab berildi.

Mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi “Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [3] PF–217-son Farmoni hamda 2025-yil 19-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi “Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [4] Qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu farmon va qarorga binoan, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Vazirlar Mahkamasi tizimidan chiqarilib O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasiga aylantirildi. Endi bu davlat boshqaruvi organi vazirlik yoki qo‘mita darajasidan ham yuqori huquqiy maqomga ega bo‘lib, unga Milliy qo‘mita darajasidagi maqom berildi va u to‘g‘ridan-to‘g‘ri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobdor ekanligi, Milliy qo‘mitaning raisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat maslahatchisi hisoblanishi belgilandi. Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasiga qulay ekologik holatni barqaror saqlash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish, o‘rmonlarni ko‘paytirish, global iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va cho‘llanishga qarshi kurashish sohalarida yagona davlat siyosati va nazoratini amalga oshirish vakolati berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi “Ekologiya va iqlim o‘zgarishi

ISSN 3030-3230

milliy qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga ko‘ra, Milliy qo‘mita tizimida Ekopolitsiya tashkil etiladi va u ekologik xavfsizlikni ta’minlash va bu boradagi huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan shug‘ullanadi. Ekopolitsiya xodimlariga jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va xizmat qurolini qo‘llash huquqi beriladi hamda ularning maxsus kiyimiga bodi kameralar o‘rnatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu farmon va qarori tarixiy ahamiyat kasb etib, ular bilan mamlakatimizda ekologiya sohasida to‘liq mustaqil va tezkor boshqaruv tizimi yaratildi, bu byurokratik to‘siqlarning keskin qisqarishi va ekologik muammolarga tezlikda chora ko‘ra oladigan yangi davlat tuzilmasi tashkil etildi, desak o‘rinlidir. Ushbu davlat organining faoliyati fuqarolarimizning ekologik huquqini har tomonlama va to‘la ta’minlashga xizmat qiladi.

Fuqarolarning huquqi tizimida ularning ekologik xavfsiz yashash huquqi alohida ahamiyat kasb etadi. Fuqarolar favqulodda yuz berishi mumkin bo‘lgan halokat va hodisalardan, tabiiy ofatlardan, sog‘lig‘ini va mulkini yo‘qotishdan va boshqa shunga o‘xshash xavf-xatarlardan himoyalangan bo‘lishi lozim. Fuqarolarning sog‘lig‘i, yashashi va moddiy-ma’naviy barkamolligi ekologik barqarorlikka bevosita bog‘liq bo‘ladi. Ekologik barqarorlikka tajovuz solayotgan manbalarning mavjudligi va ularning xavf-xatari ularning ekologik xavfsiz yashash huquqini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash atamasini tushunishda uni huquqiy kategoriya sifatida, shuningdek, davlat faoliyatining ma’lum bir yo‘nalishi (funksiyasi) va inson huquqlarining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan bir ko‘rinishidagi tushuncha sifatida qarash kerak. Fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash atamasi bir qator milliy qonun hujjatlarida uchraydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi [5] qonunida “ekologiya xavfsizligini ta’minlash” (3-modda), “ekologik jihatdan xavfsizligi” (4-modda), O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksida [6] “ekologik xavfsizlik talablari”, “atrof muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik talablariga rioya qilish” tahririda, Yer kodeksining 2-moddasida “atrof tabiiy muhitga zarar yetkazishning oldini olish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash” [7] tahririda bayon qilingan.

Aytilganlardan xulosa qilib, fuqarolarning ekologik huquqini ta’minlash deganda, favqulodda yuz beradigan tabiiy yoki texnogen ekologik xavf natijasida atrof tabiiy muhit obyektlari orqali inson sog‘lig‘i, hayoti va mulkiga, shuningdek jamiyat va davlat manfaatlariga talafot yetkazilishining oldini olish va kelib chiqqan oqibatlarni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar tizimi tushuniladi.

Fuqarolarning shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari tizimida ularning ekologik, ya’ni qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi muhim o‘rinni egallaydi. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish fuqarolarning sog‘lom va qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini ta’minlaydi. Bu huquqlar umumlashgan holda ekologik huquqlar sifatida qaralib, u tabiat boyliklariga nisbatan fuqarolarning yashashi uchun zarur bo‘lgan moddiy ne’matlar manbai va yashash muhiti sifatida e’tirof etiladi. Shunday ekan, fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi sanitariya-gigiyena va ekologik normativlarning sifat va miqdor ko‘rsatkichlariga aniq rioya qilinishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va ekologik qonunlarda mustahkamlangan huquqiy normalardan kelib chiqib, fuqarolar quyidagi ekologik huquqlarga ega ekanligini ta’kidlash mumkin: atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo‘yicha jamoat birlashmalari tuzish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga bag‘ishlangan majlislar, mitinglar va boshqa ommaviy ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etish, atrof tabiiy muhit masalalari bo‘yicha barcha davlat va jamoat tashkilotlariga ariza, shikoyat va takliflar bilan murojaat etish, tegishli davlat organlaridan atrof tabiiy muhitning holati va uni muhofaza qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar to‘g‘risida o‘z vaqtida, to‘liq va ishonchli axborot berishni talab qilish, atrof tabiiy muhitga va inson sog‘ligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan yoki ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ekologik qarorlarni ma’muriy yoki sud tartibida bekor qilishni talab qilish, ekologik huquqbuzarlikda aybdor bo‘lgan mansabdor shaxslarni va boshqa fuqarolarni javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi masalani qo‘yish, ekologik huquqbuzarlik sodir etish oqibatida fuqarolar sog‘lig‘i va mulkiga yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risida sudga da’vo arizasini kiritish va x.z.

Aytilganlardan kelib chiqib, fuqarolarning ekologik huquqi deganda, har bir individning yashashi hamda faoliyat ko‘rsatishi uchun sifatli va toza, qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish, davlatdan, yuridik va jismoniy shaxslardan

atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo‘yicha konstitutsiyaviy majburiyatlarni bajarishni talab qilish, huquqi buzilganda himoya qilishni so‘rab sudga murojaat etish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisi tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [8] fuqarolarning ekologik huquqlarini tartibga solishda muhim va asosiy huquqiy manba hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Asosiy qonuni normalarida atrof tabiiy muhitni asrab-avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, davlatning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, ekologik tizim barqarorligini va ularning muvozanatini ta’minlash funksiyasi, fuqarolarning ekologik huquqlarini himoya qilish, korxona, muassasa, tashkilotlar va fuqarolarning atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlari kabi huquqiy munosabatlar atroflicha tartibga solingan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining preambulasida dunyo konstitutsiyalari preambulasi amaliyotida uchramaydigan qoida, ya’ni “mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirish hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz” [9] tahriridagi norma o‘rnatilgan. Ushbu norma millatimizning ona tabiatga bo‘lgan e’tiborining yorqin ifodasi, unga Asosiy qonunning preambulasidanoq konstitutsiyaviy maqom berilishidir.

Ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi yangilangan konstitutsiyaviy qoidalarda tabiat obyektlariga nisbatan mulkchilik munosabatlarini aniq va mukammal, bugungi kun ijtimoiy-iqtisodiy tub islohotlar va bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib belgilashga alohida ahamiyat berilgan. Aholi farovonligini ta’minlash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, fuqarolarning iqtisodiy huquqlarini ro‘yobga chiqarishning eng muhim shartlaridan biri yer resurslariga nisbatan xususiy mulkchilikni o‘rnatish va huquqiy himoyasini ta’minlash hisoblanadi. Yer resurslariga nisbatan xususiy mulk huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi muhim omillardan sanaladi.

Shu sababdan, Konstitutsiyamizning 66-moddasida “Er, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Yer oqilona foydalanish va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida xususiy mulk bo‘lishi mumkin” [10], mazmunidagi qoida o‘rnatilgan.

Mamlakatimizda davlatning ekologik nazorat funksiyasini kuchaytirish, iqtisodiyotning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga ko‘rsatayotgan salbiy ta’sirini bartaraf etish kabi muammolarni hal etish inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida “davlat fuqarolarning ekologik huquqini ta’minlash va atrof muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratishi, shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilishi, davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi, davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘rishi” [11] tahriridagi qoidalar mustahkamlangan.

Bundan tashqari, Konstitutsiyamizning bir qator normalarida “har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega (49-modda), fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart, tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi (61-modda), fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar (61-modda), mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak (66-modda), davlat yoshlarning madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi” (79-modda) tahriridagi normalarning joy olganligi davlat tomonidan fuqarolarning yashash muhiti bo‘lmish biosfera va ekologiya tizimlari barqarorligini saqlab qolish, yoshlarning ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g‘amxo‘rlik qilishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, davlatimizning yangilangan Asosiy qonuniga ekologik munosabatlarni tartibga solishga bag‘ishlangan alohida bobning kiritilganligi, unda joy olgan atrof

ISSN 3030-3230

tabiiy muhitni muhofaza qilish, fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini kafolatlashga bag‘ishlangan normalar bizni o‘rab turgan ona tabiatni asrashga, aholi salomatligini muhofaza qilishga, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishga, uni kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazishga, pirovardida mamlakatimizda barqaror rivojlanish hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Аннотация. В статье исследуется содержание экологических прав граждан, закреплённых в Конституции Республики Узбекистан, а также правовые гарантии их обеспечения. Кроме того, анализируются актуальные вопросы реализации права граждан на благоприятную окружающую природную среду.

Ключевые слова: гражданин, экология, окружающая природная среда, экологическое право, земля, вода, воздух, растительный мир, животный мир, природный объект, природные ресурсы, экологическая безопасность, закон, экологическое законодательство.

Annotatsiya. The article examines the scope of citizens’ environmental rights established by the Constitution of the Republic of Uzbekistan, as well as the legal guarantees ensuring their protection. The study also explores current issues related to the citizens’ right to a favorable natural environment.

Key words: citizen, ecology, natural environment, environmental right, land, water, air, flora, fauna, natural object, natural resources, environmental safety, law, environmental legislation.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.10.2019 й., 06/19/5863/3979-сон; 13.11.2020 й., 06/20/6110/ 1512-сон; 17.03.2021 й., 06/21/6188/0216-сон;
2. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 03.12.2022 й., 07/22/436/1061-сон;
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 18 ноябрдаги “Экология ва туризм соҳаларида аҳоли талабларига тезкор жавоб бера оладиган бошқарув тизимини яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–217-сон Фармони;
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 19 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори;
5. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси, 1993, 1-сон, 38-модда;
6. Ўзбекистон Республикасининг Шаҳарсозлик кодекси //Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz);
7. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиснинг ахборотномаси, 1998, 5-6-сон, 82-модда;
8. Қонунчилик маълумотлар миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон;
9. Ўша жойда;
10. Ўша жойда;
11. Ўша жойда.

INSON QADRI VA HUQUQIY DAVLATNING MUSTAHKAM POYDEVORI

Shadmanov Erkin Sherkulovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Iqtisodiy fanlar kafedrasi professori

Irgashev Dilmurod Ikramovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Iqtisodiy fanlar kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. **Ushbu maqolada inson qadri va huquqiy davlat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilingan. Tadqiqotda inson huquqlari, konstitutsiyaviy qadriyatlar va adolat tamoyillari huquqiy davlat poydevorini mustahkamlovchi asosiy omillar sifatida yoritiladi. O‘zbekiston tajribasi xalqaro huquqiy me’yorlar bilan solishtirilib, inson qadri konsepsiyasining milliy siyosatda tutgan o‘rni aniqlangan.**

Kalit so‘zlar: inson qadri, huquqiy davlat, inson huquqlari, adolat, konstitutsiya, huquqiy tizim, demokratik jamiyat.

Inson qadri har qanday jamiyatning eng oliy qadriyati bo‘lib, huquqiy davlat barpo etishning asosiy mezoni sifatida namoyon bo‘ladi. Huquqiy davlatning poydevori inson huquq va erkinliklarini e’tirof etish, himoya qilish hamda ularni amalda ta’minlashdan iborat. Shu bois inson qadri tushunchasi nafaqat ma’naviy, balki siyosiy-huquqiy jihatdan ham jamiyat taraqqiyotining mezoniga aylanadi. Har bir fuqaroning shaxsiy daxlsizligi, adolatli sud himoyasiga ega bo‘lishi, fikr bildirish va erkin yashash huquqi demokratik boshqaruv tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida inson qadri va huquqlari masalasi Konstitutsiya va qonunlarda mustahkam o‘rin egallagan bo‘lib, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Xususan, “Inson qadri uchun” tamoyili mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning bosh g‘oyasiga aylangan. Mazkur yondashuv orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatining barcha bosqichida inson manfaatlari ustuvorligi ta’minlanmoqda.

Zamonaviy huquqiy davlat konsepsiyasiga ko‘ra, inson qadri nafaqat konstitutsiyaviy norma sifatida, balki ijtimoiy-siyosiy amaliyotda ham real tarzda aks etishi zarur. Shu jihatdan, inson huquqlarini kafolatlash mexanizmlarini takomillashtirish, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish va adolatli sud tizimini mustahkamlash huquqiy davlatning barqaror poydevorini yaratadi. Mazkur maqolada inson qadri va huquqiy davlat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda O‘zbekistonda ushbu sohada olib borilayotgan islohotlarning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Inson qadri tushunchasining nazariy asosi sifatida klassik va zamonaviy yondashuvlar o‘rganilgan. John Rawls adabiyotida adolatning cheklovchilik prinsiplari hamda fuqarolarning teng huquqliligi masalalari muhim o‘rin tutadi. Rawls 1971-yilgi asarlarida adolat paradigmasi orqali shaxsning qadrini himoya qilish mexanizmlarini tushuntiradi. Ronald Dworkinning yondashuvi esa huquqlarni himoya qilish va sud amaliyotidagi integritet masalalarini ko‘taradi. Dworkin 1977-yilda yozgan ishlari orqali huquq va axloq munosabatlarini tahlil etib, inson huquqlarining ustuvorligini ta’kidlaydi. James Griffin inson huquqlarining ma’nosini nazariy jihatdan ochib bergan bo‘lib, Griffin 2008-yilda huquqiy tizimlarda inson qadriga asoslangan huquqiy kafolatlar konsepsiyasini takomillashtiradi. Martha Nussbaumning imkoniyatlar (capabilities) yondashuvi inson qadri va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Nussbaum 2000-yilda jamiyat siyosatida shaxs imkoniyatlarini kengaytirish orqali inson qadrini real tarzda ta’minlashga urg‘u beradi.

Huquqiy davlat (rule of law) va uning tarkibiy elementlari bo‘yicha adabiyotlarda ikki asosiy oqim ajralib turadi. Birinchisi — protsedural huquqiylikka urg‘u beruvchi yondashuv, ikkinchisi esa mazmuniy huquqiylik va inson huquqlarining konkret himoyasiga e’tibor qaratadi. A. V. Dicey o‘zining klassik yondashuvida huquqiy davlatning protsedural elementlarini — xavfsizlik, qonun ustuvorligi va sud mustaqilligini belgilaydi. Dicey 1885-yilda ilgari surgan asosiy tamoyillar orqali qonun oldida tenglik va sud nazorati rolini ta’kidlaydi. Lon L. Fuller esa huquqning ichki

axloqiyligi haqida yozgan. Fuller 1969-yilda huquqiy me’yorlarning ma’lum bir ichki mantiqqa ega bo‘lishi zarurligini asoslaydi. Tom Binghamning amaliy yondashuvi huquqiy davlatning fuqarolar hayotiga bevosita ta’siri va sud-huquqiy himoya mezonlarini ochib beradi. Bingham 2010-yilda huquqiy davlat tamoyillarini amaliy auditoriya uchun yanada aniqlashtirgan.

Konstitutsiyaviy himoya, inson qadrining normativ o‘rni va sud amaliyoti masalalari bo‘yicha so‘nggi yillarda yozilgan asarlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Robert Alexy konstitutsiyaviy huquqlarni prinsip sifatida tahlil qiladi. Alexy 2002-yilda huquqiy prinsiplar va ularning murosaviy xususiyatlarini aniqlash orqali inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini nazariy jihatdan mustahkamlaydi. Aharon Barakning ishlarida inson qadrining konstitutsiyaviy qiymati va sud amaliyotida uning qanchalik markaziy element ekanligi ko‘rib chiqilgan. Barak 2006-yilda konstitutsiyaviy talqin va sud-huquqiy ijtimoiy-himoya funksiyalarini yoritadi. Ushbu nazariy asarlar sudlar va konstitutsiyaviy institutlar inson qadrini qanday amalga oshirishi mumkinligini tushuntiradi.

Xalqaro-huquqiy va institutsional hujjatlar ham mukammal tahlil obyektidir. Ular mamlakatlarning milliy huquqiy tizimlarida inson qadrini ta’minlash mexanizmlarini belgilaydi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasi inson qadri va asosiy huquqlar prinsiplarini universal hujjat sifatida belgilaydi. UDHR 1948-yilda davlatlararo majburiyatlar va ichki huquqiy himoya me’yorlarini shakllantirishda baza vazifasini o‘taydi. Shuningdek, Yevropa sudyasi va xalqaro organlar amaliyoti inson qadrini himoya qilish bo‘yicha pretsedentlarni yaratadi. Bu esa milliy sudlarga yo‘l-yo‘riq beradi.

O‘zbekistonga oid adabiyotlarda inson qadri va huquqiy davlat masalalarining milliy tafakkur va institutsional xususiyatlari o‘rganilgan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni davlatning ustuvor vazifasi sifatida belgilaydi. Konstitutsiya 1992-yilda qabul qilingan va keyingi islohotlar mamlakat huquqiy tizimida inson qadri tamoyilini mustahkamlash yo‘nalishlarini ko‘rsatadi. Milliy ilmiy adabiyotlarda konstitutsiyaviy islohotlar, sud tizimini modernizatsiyalash va fuqarolarning huquqiy ongini oshirish orqali huquqiy davlat poydevorini mustahkamlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Ushbu tadqiqotlar nazariy konsepsiyalarni milliy kontekstga moslashtirish hamda amaliy chora-tadbirlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhidan aniqlanishicha, inson qadri nazariy jihatdan huquqiy davlatning markaziy elementi sifatida shakllanib bormoqda. Nazariy ishlar shaxs qadrini huquqiy kafolatlar orqali amalga oshirishni talab etadi. Protsedural va mazmuniy yondashuvlar esa bu maqsadni ta’minlash uchun bir-birini to‘ldiruvchi instrumentlar sifatida qaraladi. Milliy kontekstda esa konstitutsiyaviy va institutsional islohotlar inson qadri prinsipini real himoya mexanizmlariga aylantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, adabiyotlar huquqiy davlat konsepsiyasini faqat formal tamoyillar darajasida qoldirmasdan, fuqaroning kundalik hayotidagi huquqiy kafolatlar va ijtimoiy imkoniyatlar bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

Konstitutsiya — har bir davlatning siyosiy mustaqilligi, huquqiy barqarorligi va jamiyat taraqqiyotining poydevori hisoblanadi. U davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy mezoni bo‘lib, inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning kafolati sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois Konstitutsiyani “davlatning bosh qonuni” deb atash bejiz emas. U xalq irodasini, milliy qadriyatlarni va umuminsoniy g‘oyalarni huquqiy ifodada mujassamlashtiradi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat mustaqilligining huquqiy asosini yaratib, demokratik jamiyat qurish dasturi sifatida xizmat qildi. Mazkur qonun xalq xohish-irodasini ifoda etib, mustaqil davlatchilikning huquqiy, siyosiy va iqtisodiy ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Keyingi yillardagi islohotlar jarayonida jamiyat rivojlanishi, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar Konstitutsiyaning ayrim normalarini zamon talablariga moslashtirishni taqozo etdi. Shu asosda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumi o‘tkazilib, xalq tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi. Bu voqea O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash yo‘lida yangi tarixiy bosqichni boshlab berdi.

Yangilangan Konstitutsiya mazmun va mohiyat jihatidan tubdan boyidi. Bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Shu bilan birga, hujjatning 65 foizdan ortig‘i yangidan tahrir qilindi. Yangi tahrir “Inson — jamiyat —

davlat” tamoyilini bosh g‘oya sifatida belgilab, inson manfaatlari va qadriyatlarini davlat siyosati markaziga qo‘ydi. Bu esa O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi mohiyatini yanada ochib berdi.

Aslida, 1992-yildan 2023-yilgacha Konstitutsiyaga jami 15 marta o‘zgartish kiritilgan bo‘lib, ular asosan davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan edi. Biroq 2023-yilgi islohotlar nafaqat qonunchilik tizimida, balki butun davlat boshqaruvi falsafasida yangi sahifa ochdi. Yangilangan Konstitutsiyada O‘zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida ta’riflandi. 1-moddadagi ushbu norma endilikda mamlakat taraqqiyotining qaysi yo‘nalishda borishini aniq belgilab berdi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 154-moddasida 1-moddadagi qoidalarni qayta ko‘rib chiqish mumkin emasligi qat’iy belgilandi. Bu esa O‘zbekistonning hech qachon demokratiya, huquqiy davlatchilik va dunyoviylik prinsiplaridan voz kechmasligini anglatadi. Ya’ni, mamlakat kelajakda monarxiya yoki diniy respublika shaklida emas, faqat demokratiya va huquq ustuvorligi tamoyillari asosida rivojlanishini kafolatlaydi.

Konstitutsiyaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi haqidagi yangi qoida ham katta ahamiyatga ega. 15-moddaga kiritilgan qo‘shimchaga ko‘ra, Konstitutsiya butun mamlakat hududida oliy yuridik kuchga ega va to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi. Bu fuqarolarga nafaqat qonunlarga, balki Konstitutsiyaning o‘ziga asoslangan holda sudlarga murojaat qilish imkonini beradi.

Yangi tahrirda fuqarolar tengligi va ijtimoiy adolat prinsiplari ham aniq ifoda etilgan. 19-moddaga muvofiq, imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat tamoyillariga mos bo‘lishi shart. Bu norma davlat qarorlari yoki farmonlari orqali turli preferensiyalar berish amaliyotiga chek qo‘ydi.

Konstitutsiyaning yana bir muhim yangiligi — “barcha noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi” degan qoidadir. Bu tamoyil davlat organlari faoliyatida inson huquq va manfaatini ustuvor qo‘yishni ta’minlaydi. Masalan, pensiya tayinlash yoki hujjatlarni rasmiylashtirishda davlat tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar fuqaro foydasiga hal etilishi lozim.

Inson huquqlari va erkinliklarini cheklash faqat Konstitutsiyada nazarda tutilgan hollarda, jamoat xavfsizligi yoki boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilish maqsadida amalga oshirilishi mumkin. Bu norma fuqarolarning axborot izlash, olish va tarqatish erkinligiga ham taalluqlidir.

Yangi tahrirda ta’lim sohasiga katta e’tibor berilgan. 52-moddada ilk bor o‘qituvchilarning jamiyatdagi o‘rni va roli konstitutsiyaviy darajada belgilab, ularning mehnati davlat tomonidan himoya qilinishi nazarda tutilgan. Bu modda bilan o‘qituvchilar davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchi sifatida tan olingan.

Shuningdek, yangi Konstitutsiyada yer xususiy mulk bo‘lishi mumkinligi qonuniy asosda mustahkamlandi. Bu norma iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va mulkdorlar qatlamini shakllantirish yo‘lida muhim huquqiy qadam bo‘ldi.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatiga oid moddalar ham alohida ahamiyatga ega. Yangi tahrirda OAV erkinligi kafolatlanib, ularning faoliyatiga to‘siq yaratish yoki senzura joriy etish qonun bilan taqiqlangan. Bu norma so‘z erkinligini ta’minlash, jamiyatda ochiqlik va shaffoflik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvida ham tuzilmaviy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Prezident vakolat muddati yetti yil etib belgilandi, Senat tarkibi qayta shakllantirildi va parlament palatalarining vakolatlari aniq taqsimlandi. Shu bilan birga, hokimlar bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari kengashiga rahbarlik qilish huquqidan mahrum etildi — bu boshqaruv tizimida vakolatlar taqsimotida shaffoflikni ta’minlaydi.

Yangi Konstitutsiyada “o‘lim jazosi taqiqlanadi” degan norma ham alohida ta’kidlandi. Shuningdek, shaxsning o‘z aybini tan olganligi uning aybdorligini isbotlash uchun yetarli asos bo‘lolmaydi, degan qoida qonun darajasiga ko‘tarildi. Sud-huquq sohasida qonunni buzgan holda olingan dalillardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi, deb belgilandi.

Inson huquqlariga oid moddalarning kengaytirilishi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘sini mustahkamladi. Yangilangan Konstitutsiyada BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Umumjahon deklaratsiyasining barcha asosiy prinsiplari o‘z aksini topgan.

Shu tariqa, 2023-yil 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendumda xalqimiz yangi O‘zbekistonning huquqiy asosini yaratdi. Yangi Konstitutsiya demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat qurish yo‘lidagi barqaror rivojlanish strategiyasini belgilab berdi. U nafaqat huquqshunoslar uchun, balki har bir fuqaro uchun hayotiy dastur, huquqiy madaniyat manbai va milliy g‘urur ramzi

ISSN 3030-3230

hisoblanadi.

Demak, yangi tahrirdagi Konstitutsiya — bu zamon talablariga javob beradigan, inson qadrini e’zozlovchi, xalq irodasini ifoda etuvchi, yangi O‘zbekistonning huquqiy, siyosiy va ma’naviy qiyofasini belgilab beruvchi tarixiy hujjatdir.

Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning siyosiy, huquqiy va ijtimoiy hayotida tub burilish yasagan tarixiy hujjat sifatida e’tirof etiladi. U inson qadrini oliy qadriyat darajasiga ko‘tardi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalda ta’minlashga xizmat qiluvchi aniq mexanizmlarni belgilab berdi hamda “Inson — jamiyat — davlat” tamoyilini davlat siyosatining bosh yo‘nalishiga aylantirdi. Shu orqali yangi Konstitutsiya mamlakatni demokratik islohotlarning yangi bosqichiga olib chiqdi va xalq manfaatlarini huquqiy jihatdan himoyalashni yanada mustahkamladi.

Umuman olganda, Konstitutsiyaning yangilanishi O‘zbekistonning suvereniteti, huquqiy davlat tamoyillari va ijtimoiy adolat g‘oyalarini yanada chuqurlashtirdi. Ushbu hujjat demokratik boshqaruv tizimini takomillashtirish, inson huquqlarini himoya qilish, shaffoflik va adolat mezonlarini kuchaytirish borasida ishonchli asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Yangi Konstitutsiya nafaqat davlat institutlari uchun yo‘l xaritasi, balki jamiyat taraqqiyoti va fuqarolik mas’uliyatining yangi bosqichini boshlab bergan umummilliy qadriyat sifatida tarixda o‘z o‘rnini egalladi.

Аннотация. В статье анализируется взаимосвязь между ценностью человека и правовым государством. Исследование раскрывает, что права человека, конституционные ценности и принципы справедливости служат основой укрепления правового государства. Опыт Узбекистана сопоставляется с международными нормами, что позволяет определить роль концепции человеческого достоинства в национальной политике.

Ключевые слова: человеческое достоинство, правовое государство, права человека, справедливость, конституция, правовая система, демократическое общество.

Annotatsiya. This article analyzes the interrelation between human dignity and the rule of law. The study highlights that human rights, constitutional values, and the principles of justice form the foundation of a strong legal state. Uzbekistan’s experience is compared with international legal standards to identify the significance of the concept of human dignity in national policy.

Key words: human dignity, rule of law, human rights, justice, constitution, legal system, democratic society.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023 – https://lex.uz/docs/-6445145
2. John Rawls. A Theory of Justice. – Cambridge: Harvard University Press, 1971. – 607 p.
3. Ronald Dworkin. Taking Rights Seriously. – Cambridge: Harvard University Press, 1977. – 293 p.
4. James Griffin. On Human Rights. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 376 p.
5. Martha C. Nussbaum. Women and Human Development: The Capabilities Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 312 p.
6. A.V. Dicey. Introduction to the Study of the Law of the Constitution. – London: Macmillan, 1885. – 413 p.
7. Lon L. Fuller. The Morality of Law. – New Haven: Yale University Press, 1969. – 262 p.
8. Robert Alexy. A Theory of Constitutional Rights. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – 518 p.
9. Aharon Barak. The Judge in a Democracy. – Princeton: Princeton University Press, 2006. – 352 p.
10. Tom Bingham. The Rule of Law. – London: Penguin Books, 2010. – 224 p.

KONSTITUTSIYADA XUSUSIY MULK DAXLSIZLIGINING E’TIROFI

Ruziyev Rustam Djabbarovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professor,

Karimov Alibek Valiyevich,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
Bakalavriat fakulteti prokurori

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xususiy mulk daxlsizligi prinsipi, uning mazmun-mohiyati va huquqiy asoslari keng tahlil qilingan. Mulkning xilma-xil shakllari, xususan xususiy mulk huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari, mulkdor huquqlarining daxlsizligi va ularni himoya qilish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, xususiy mulk daxlsizligini hayotga tatbiq etishda Fuqarolik kodeksi, tegishli qonunlar hamda Prezident farmonlarining o‘rni chuqur o‘rganilgan. Mulkdan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda mahrum etilishi mumkinligi, xususiy mulkning iqtisodiy taraqqiyot va fuqarolarning farovonligini ta’minlashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Maqola yangi Konstitutsiya normalaridagi mulk daxlsizligi tamoyillarini tahlil qilib, mulk huquqlarini himoya qilishdagi nazariy va amaliy jihatlarni yoritadi.

Kalit so‘zlar: xususiy mulk, mulk daxlsizligi, Konstitutsiya, mulkdor huquqlari, iqtisodiy erkinlik, huquqiy kafolatlar, davlat himoyasi, mulk shakllari, rekvizitsiya, musodara.

Iqtisodiyotning samarali amal qilishi va xalq farovonligi o‘sishida muhim omil bo‘lgan mulkning milliy qonunchiligimizda turli shakllariga ruxsat berilgan bo‘lib, buni Bosh Qomusimizning 65-moddasida “Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi” degan qoidaning belgilab qo‘yilganligida ko‘rishimiz mumkin.

E’tiborli jihati shundaki, davlat mulkning xilma-xil shakllari zamirida bozor munosabatlarini rivojlantirish, halol raqobat uchun shart-sharoit yaratish, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini ta’minlash, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlash orqali fuqarolar farovonligini oshirishni maqsad qilib qo‘ygan.

Ma’lumki, jamiyatning iqtisodiy negizi undagi mavjud mulkchilik munosabatlariga asoslanganligi nuqtai-nazaridan mulk iqtisodiy ma’noga ega. Ya’ni, kishilar mehnati bilan yaratilgan yoki tabiat tomonidan insonlarga berilgan boyliklar har doim mulk bo‘lib kelgan. Mulk, birinchidan, kishining ashyoga nisbatan egalik his-tuyg‘usi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, ushbu ashyo xususida kishilar o‘rtasida vujudga keladigan munosabat hamdir. O‘z navbatida, mulkiy munosabatlar qonunlar bilan tartibga solinadi va ularning ta’siri ostida mulkiy huquqiy munosabatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Huquqiy jihatdan qaraganda, moddiy va nomoddiy ko‘rinishdagi ne’matlardan iborat bo‘lgan mulkning muayyan subyektlarga tegishliligini mustahkamlovchi va uning yuridik holatini belgilovchi huquqiy me’yorlar yig‘indisini ifoda etadi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi 12-bobining (65-68-moddalari) qoidalari mol-mulkning miqdorini chegaralamaydi. Demoqchimizki, ushbu normalar halol raqobat sharoitida iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini ta’minlagan holda qonuniy tadbirkorlik va mehnat qilish natijasida orttirilgan mol-mulkning hajmi, soni, miqdori cheklanmasligini nazarda tutadi.

Yuridik ma’noda mulkning xususiy va ommaviy shakllari mavjud. Xususiy mulk yakka shaxsga tegishli mulk (fuqarolar mulki) va nodavlat yuridik shaxslar mulki ko‘rinishida bo‘lsa, ommaviy mulk tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi mulki va ma’muriy-hududiy tuzilmalar mulki (munitsipal mulk) kiradi. Mulk shakllarining bunday turkumlanishida mulk subyekti maqomi va mol-mulk rejimining uzviy birligi asosiy mezon bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Konstitutsiyasining 65-moddasida mulkning boshqa shakl va ko‘rinishlarda ham bo‘lishi mumkinligi e’tirof etiladi. Zero, ta’kidlash lozimki, har qanday hollarda ham davlat mulkning xilma-xil shakllarini rivojlantirish uchun ularning

ISSN 3030-3230

qonuniy tengligini ta’minlaydi va himoyasini kafolatlaydi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosini tashkil etuvchi mulk shakllari qatorida xususiy mulk qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo‘lga kiritilgan har qanday narsalar bo‘lishi mumkin. Aniqroq aytganda, xususiy mulk huquqining konstitutsiyaviy mazmun-mohiyati shaxsning qonunga muvofiq miqdori va qiymati cheklanmagan tarzda qo‘lga kiritgan mulkka erkin, halol va qonunga zid bo‘lmagan holda egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqlaridan iborat. Fuqarolar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari va davlatga qarashli bo‘lmagan boshqa yuridik shaxslar xususiy mulk huquqining subyektlari hisoblanadi. Qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida xususiy mulkning barcha mulk shakllari qatorida teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya etilganligi uning 65-moddasi 3-qismida “Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda mulkidan mahrum etilishi mumkin”, deb belgilab qo‘yilgan. Endilikda, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda sodir bo‘layotgan yangilanishlar talqinida xususiy mulk nafaqat O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari, balki boshqa davlatlarning fuqarolari, yuridik shaxslari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning ham boyligi hamda moddiy mustaqilligi, shuningdek ma’naviy erkinligi manbai sifatida baholandi va e’tirof etildi.

Konstitutsiyada, birinchidan, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlari uyg‘unligida iqtisodiy resurslarning adolatli taqsimoti hamda investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhiti yaratilganligi, ikkinchidan, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag‘larning erkin harakatlanishi ta’minlanganligi, uchinchidan, tadbirkorlikda halol raqobat kafolatlanganligi va monopol faoliyatga yo‘l qo‘yilmasligi kabi tamoyillari asosida xususiy mulk daxlsizligi va himoyasining mustahkam huquqiy tizimi yaratildi.

Xususiy mulkka nisbatan belgilangan ‘‘daxlsizlik’’ va ‘‘davlat himoyasida bo‘lishlik’’ konstitutsiyaviy qoida xususiy mulk huquqini himoya qilish choralari orasida o‘ziga xos o‘ringa ega. Birinchi navbatda, “daxlsizlik” deganda, shaxsning o‘zi ga yoki muayyan huquqlariga nisbatan qonunga zid bo‘lgan xatti-harakatlar bilan u yoki bu darajada ta’sir o‘tkazishni taqiqlovchi qonuniy choralar majmui nazarda tutiladi. Ikkinchidan, “daxlsizlik” – huquq subyektiga tegishli va uning vakolatlari ostida hamda xo‘jalik hukmronligidagi obyektning har qanday huquqbuzarliklardan holi bo‘lishini qonun bilan ta’minlanganligini ham anglatadi. Konstitutsiyaning 65-moddasida belgilangan xususiy mulkning daxlsizligi ham, mulkdorga tegishli bo‘lgan mol-mulkka nisbatan huquqlarning har qanday buzilishi va u bilan bog‘liq manfaatlarga har qanday putur yetkazilishining taqiqlanishini hamda xususiy mulk huquqi u kimga tegishli bo‘lishidan qat’iy nazar faqatgina qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagi bekor qilinishi mumkinligi qoidasi ham xususiy mulk daxlsizligining mazmunini ifoda etadi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning mazkur normasini hayotga bevosita joriy etishning moddiy va protsessual mexanizmlari sifatida O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik, Fuqarolik protsessual va Iqtisodiy protsessual kodekslarining tegishli qoidalari, mulk va mulkchilikka oid bir qator qonun hujjatlari, jumladan O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”[1]gi va boshqaruv tizimini takomillashtirish, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida 2021-yil 14-iyulda qabul qilingan O‘RQ-701 sonli “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-tamoyillari to‘g‘risida”[2]gi qonunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdagi PF-198-son “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘yilmaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[3] gi Farmoni muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Barcha mulk shakllarining teng huquqliligi hamda mulk daxlsizligi tamoyili oliy yuridik kuchga ega bo‘lib, yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasining 65-moddasi 2 va 3-qismlarida bu boradagi normalar mustahkamlab qo‘yilgan. Darhaqiqat, mazkur normalar asosiy maqsadi – mulk shakllarining tengligi, mulk daxlsizligini ta’minlashdir. Garchi, Konstitutsiyaning ayrim normalari maqsadi to‘g‘ridan-to‘g‘ri mulk huquqini himoya qilishga yoki mulk daxlsizligini ta’minlashga qaratilmagan bo‘lsada, ularning amalga oshirilishi natijasida shaxsning mulk huquqlari to‘la-to‘kis ta’minlanadi. Buning yaqqol misoli sifatida Konstitutsiya 20-moddasining 2-3-qismlarini (“inson huquqlari va erkinliklarining amal qilishi”, “boshqa shaxslar huquq va erkinliklariga putur yetkazmaslikning shartligi”), 41-moddasi 1-qismini (“har bir

shaxs mulkdor bo‘lish huquqiga egaligi”) va 47-moddasi 1-qismini (“har kim uy joyli bo‘lish huquqiga egaligi”) keltirib o‘tish o‘rinli. Zero, har uchta holatda ham mulk daxlsizligi elementlari ifoda etilgan. Demak, aytish mumkinki, yangi Konstitutsiyaning 65-68-moddalarigina emas, balki 20, 41, 47-moddalari normalarida ham mulk daxlsizligining mazmun-mohiyati aks ettirilgan.

Mulkning daxlsizligi mulkdorga qarshi turgan barcha subyektlarning mulk huquqini buzishdan o‘zlarini tiyishlari va saqlashlaridan iborat bo‘lib, mulk davlat himoyasidadir. Mulkdor o‘zining mulk huquqi kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzilishini bartaraf etishni, shuningdek buzilgan huquqlarini tiklashni talab qilish huquqiga ega. Mulk daxlsizligiga oid konstitutsiyaviy normalar joriy qonunchiligimizda, jumladan, fuqaroviy-huquqiy, ma’muriy-huquqiy, jinoiy-huquqiy normalarda o‘z aksini topgan bo‘lib, ushbu tamoyilning ijrosida amaliy ahamiyatga ega.

Mulkdor mulkidan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina, ya’ni mulkdorning ixtiyoriy suratda majburiyatni bajarishi, mulkdorning mol-mulk taqdirini hal qiladigan bir tomonlama qaror qabul qilishi, sud qarori yoki davlat hokimiyati organi qarori asosida mol-mulkni olib qo‘yish (sotib olish) yo‘li bilan (masalan, musodara, rekvizitsiya), shuningdek mulk huquqini bekor qiluvchi qonun hujjatlariga asosan (masalan, natsionalizatsiya) mahrum etilishi mumkin.

Xulosa o‘rnida aytganda, O‘zbekiston Konstitutsiyasi va u asosida qabul qilingan qonunlar yangilanish g‘oyasi bilan sug‘orilgan yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lining iqtisodiy negizlarini belgilab beradi, davlat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining asosini tashkil qiluvchi xilma-xil mulk shakllari, jumladan xususiy mulk daxlsizligini kafolatlaydi.

Аннотация. В данной статье подробно анализируется принцип неприкосновенности частной собственности, закреплённый в Конституции Республики Узбекистан, его правовая природа и конституционные гарантии. Рассматриваются различные формы собственности, особенности частной собственности, механизмы защиты прав собственника и случаи, в которых допущено лишение имущества только на основании закона. Особое внимание уделено роли Гражданского кодекса, соответствующих законов и указов Президента в обеспечении защиты собственности. Показано значение частной собственности в развитии рыночных отношений, обеспечении экономической свободы и благосостояния граждан. Статья раскрывает теоретические и практические аспекты реализации принципа неприкосновенности собственности в новом конституционном законодательстве.

Ключевые слова: частная собственность, неприкосновенность собственности, Конституция, права собственника, экономическая свобода, правовые гарантии, государственная защита, формы собственности, реквизиция, конфискация.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the principle of the inviolability of private property as enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, explaining its legal nature and constitutional guarantees. It examines the various forms of property, the constitutional protection of private ownership, mechanisms for safeguarding owners’ rights, and the legal grounds under which deprivation of property is permitted. The study also highlights the significance of the Civil Code, relevant laws, and Presidential decrees in ensuring strong protection of property rights. Furthermore, it emphasizes the role of private property in promoting economic development, fair competition, and citizens’ welfare. The article outlines both theoretical and practical aspects of property rights protection within the renewed constitutional framework.

Key words: private property, property inviolability, Constitution, property rights, economic freedom, legal guarantees, state protection, forms of property, requisition, confiscation.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ЎР ҚММБ, 30.06.2022й., 03/22/782/0576-сон.
2. ЎР ҚММБ, 25.05.2022й., 03/22/771/0448-сон.
3. ЎР ҚММБ, 25.08.2022й., 06/22/198/0770-сон.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGI KONSTITUTSIYASIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH JARAYONIDA INSON HUQUQ ERKINLIKLARINI CHEKLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

Alimov Gaybulla Alimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
professori yuridik fanlar doktori

Annotatsiya. **Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayonida fuqarolarning huquq erkinliklarini cheklashning ayrim jihatlari, cheklov qo‘llashning qonuniy asoslari, O‘zbekiston Respublikasining “Favqulodda holatlar to‘g‘risida”gi Konstitutsion qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-27-sonli “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni talablari, bir qator huquqshunos olimlarning jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayonida inson huquqlari va erkinliklarini cheklash masalalarida bildirgan fikr va mulohazalari o‘rin olgan.**

Kalit so‘zlar: yangi tahrirdagi Konstitutsiya, inson huquq va erkinliklarini cheklash, cheklashning qonuniyligi va asosliligi, jamoat xavfsizligi konsepsiyasi, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi, inson huquqlarini cheklashga bo‘lgan aralash yondashuv.

Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklash, ya’ni jamiyat va davlatda shaxs erkinligi chegaralarini belgilash inson va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning eng muhim tarkibiy qismidir. Ushbu munosabatlarning asosiy falsafiy muammosi inson erkinligi darajasi va me’yori, bu erkinlikning davlat va jamiyat tomonidan qamrab olinishining asoslari va chegaralaridir. Konstitutsiyaning asosiy vazifalaridan biri, bu birinchi navbatda konstitutsiyaviy, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni o‘rnatish va qonunlashtirishdir. Konstitutsiya va qonunlar bir qator huquq va erkinliklarning konstitutsiyaviy va sud kafolatlarini bekor qilish imkoniyatini ham nazarda tutadi. Huquq va erkinliklarga cheklovlar har doim urush yoki ommaviy tartibsizliklar holatlarida favqulodda holat e’lon qilinganda yuzaga keladi. «inson manfaatlarini himoya qilish uchun mo‘ljallangan konstitutsiyaviy huquqning o‘ziga xos xususiyatlari va maqsadi bilan bog‘liq bo‘lgan» shaxs erkinligining konstitutsiyaviy asoslarini davlat, uning organlari va mansabdor shaxslari tomonidan sodir etilishi ehtimoli bo‘lgan noqonuniy aralashishlardan himoya qilishdir « [1].

Jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash jarayonida inson huquqlari va erkinliklarini, ayniqsa shaxsiy huquq va erkinliklarni cheklash, shuningdek, bunday cheklovlarning chegaralari nafaqat O‘zbekiston Respublikasining, MDH mamlakatlari, balki butun dunyo hamjamiyati uchun yuridik fan va huquqiy tizimning murakkab va munozarali masalalaridan biridir.

Jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash (qo‘riqlash va himoya qilish) - bu davlat organlari tomonidan har doim huquq va erkinliklarning cheklanishini va insonning individual erkinligiga aralashishni, ko‘pincha hokimiyat organlari,o‘z vakolatlarini haddan tashqari, suiiste’mol qilish bilan keyin esa qonunlarning mazmunini noto‘g‘ri tasarruf etgan holda inson huquqlari va erkinliklarini cheklab qo‘yadi va ayrim hollarda hatto to‘liq inkor qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida «cheklash» atamasi inson va fuqarolik huquqlari va erkinliklariga nisbatan eng ko‘p qo‘llaniladi (21, 27, 28, 29,31,32, 33,37-moddalar).

O‘zbekiston Respublikasida shaxsiy huquq va erkinliklarni cheklashning konstitutsiyaviy modeli shaxsiy huquq va erkinliklarni cheklashga aralash yondashuvni nazarda tutadi. Bir tomondan, O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida birinchi marta shaxs huquqlari va erkinliklarini cheklash imkoniyatini nazarda tutuvchi umumiy qoida bilan to‘ldirildi (21-moddaning 3-qismi)[2], boshqa tomondan, Konstitutsiyamizning qoidalari muayyan cheklovlarning tegishli huquq va erkinliklar bilan o‘zaro bog‘liqligini hisobga oladi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 33-moddasi 3-qismiga binoan, “axborotni izlash, olish va

tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi”[3].

Bugungi kunda davlat jamoat xavfsizligini ta’minlashning yetakchi subyekti sifatida ma’lum darajada mavhum va aniq bo‘lmagan narsalarni himoya qiladi, degan tanqidlar uchrab turibdi. Biroq, ekspert va mutaxassislar buni ushbu masala bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning yetarli emasligi bilan bog‘lashadi. Tadqiqotlarning aksariyati ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha faoliyatining huquqiy va tashkiliy asoslarini tahlil qilish doirasida amalga oshirilgan bo‘lib, unda «jamoat xavfsizligi» tushunchasi keng xuquqiy normalar doirasida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni masalasi tadqiqotchilar tomonidan endi o‘rganilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi”da[4] “jamoat xavfsizligiga” quyidagi keng ma’nodagi tushuncha berilgan: jamoat xavfsizligi — jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi”.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi milliy xavfsizlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat siyosatini belgilovchi muhim hujjat hisoblanadi, shu bois, uni ilmiy asoslash va zamonaviy shakllantirish, shuningdek, boshqa shunga o‘xshash huquqiy xodisalar bilan chegaralanish va muayyan aloqalarni o‘rnatish tadqiqot faoliyati uchun xam, huquq uchun xam, ijro amaliyoti uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ta’kidlash joizki, mamlakatning umuman xavfsizlikning prinsipial yangi konsepsiyasiga o‘tishi sharoitida ushbu masalani nazariy tadqiq etish, yangi nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bu, birinchi navbatda, jamiyatimiz va butun davlat rivojlanishi uchun ichki va tashqi sharoitlarning sezilarli o‘zgarishi bilan bog‘liq.

Oddiy sharoitlarda xam, favqulodda vaziyatlarda xam jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi ilmiy va amaliy muammolarning dolzarbligi bir necha sabablarga ko‘ra yuzaga keladi, xususan:

- davlat boshqaruvi organlari jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vakolatli subyektlarning harakatlarini samarali amalga oshirish, muayyan hududda jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan cheklash choralarini qo‘llash imkonini beradigan jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha maxsus chora-tadbirlarga ‘‘muhtojlik’’ sezmoqda;

- faoliyati tegishli darajadagi xavfsizlikni, xususan, jamoat xavfsizligini ta’minlash zarurligini belgilaydigan obyektlar va hududlar tobora ko‘payib bormoqda. Aholi xavfsizligining tegishli darajasini ta’minlash ularning barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi;

- favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vakolatli organlar tomonidan qo‘llaniladigan chora-tadbirlar, bu davlat tomonidan qo‘llaniladigan tegishli ma’muriy-huquqiy chora-tadbirlar hisoblanadi. Favqulodda vaziyat doimo ijtimoiy hayotning beqarorlashishi, uning odatiy ritmining buzilishi bilan birga keladi, bu esa o‘z navbatida ushbu choralarni qo‘llashni taqozo etadi.

‘‘Jamoat xavfsizligi’’ tushunchasini tahlil qilishga to‘xtaladigan bo‘lsak, shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda ilmiy ishlarda ushbu huquqiy toifani belgilash bo‘yicha ko‘plab qarashlar shakllangan. ‘‘Jamoat xavfsizligi’’ atamasi ilmiy bilimlarning turli sohalarida va ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, shu jumladan Milliy gvardiya organlarining amaliy faoliyatida keng qo‘llaniladi. Biroq, uning keng qo‘llanilishiga qaramay, afsuski, bugungi kunda ‘‘jamoat xavfsizligi’’ ta’rifiga yagona yondashuv mavjud emas. Shu munosabat bilan «jamoat xavfsizligi» tushunchasining mazmunini aniqlash bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, amaldagi qonun hujjatlarini har tomonlama tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbek huquqshunoslik maktabi vakillari bugungi kunda ‘‘jamoat xavfsizligi’’ ta’rifiga o‘z munosabatlarini shakllantirish jarayoniga fikr va mulohazalarini qat’iy bildirishganicha yo‘q. Bunga sabab O‘zbekiston Respubikasining jamoat xavfsizligi konsepsiyasi endi e’lon qilinib, uni

ISSN 3030-3230

shakllantirish uchun ilk qadamlar tashlanmoqda. Shu munosabat bilan biz mazkur masala yuzasidan xorij huquqshunos olimlarini “jamoat xavfsizligi”, “fuqarolarning huquq erkinliklarini cheklash” kabi kategoriyalarni izohlashdagi qarashlariga tayanamiz.

Jamoat xavfsizligi masalasini dolzarbligini hisobga olgan holda tadqiqotchi L.Rogozin uni «tabiiy ofatlar yoki boshqa maxsus sharoitlar bilan bog‘liq xolda, alohida sharoitlar yuzaga kelganda jamiyat uchun ortib borayotgan xavf tug‘diruvchi obyektlardan foydalangan holda, huquqiy normalarga muvofiq shakllanadigan jamoat munosabatlari tizimi» deb ta’riflaydi[5].

Professor L.L.Popovning fikricha, jamoat xavfsizligi deganda odamlar va umuman jamiyat uchun ortib borayotgan xavf-xatarni keltirib chiqaradigan obyektlar va subyektlardan foydalanishda, alohida sharoitlar, tabiiy ofat yoki ijtimoiy yoki texnogen xususiyatdagi boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, huquqiy, texnik va boshqa turdagi normalarga muvofiq yuzaga keladigan jamoat munosabatlari tizimi tushuniladi[6].

B.T.Xamxoyevning fikricha esa, jamoat xavfsizligi odamlarning hayoti va sog‘ligiga, ularning mol-mulkiga tahdidlarning oldini olish yoki bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladigan ajralmas qismdir[7].

‘‘Jamoat xavfsizligi’’ tushunchasi mazmunida olimlarning alohida guruhi uni himoya qilishning barcha obyektlarini belgilaydi, ya’ni: jamoat xavfsizligi - bu odamlarning hayoti va sog‘ligiga, moddiy boyliklar va atrof-muhitga tahdidlarning oldini olish va bartaraf etishni ta’minlaydigan organlar va vositalar to‘plamidir, deb fikr bildirishadi[8].

Tadqiqotchi N.A.Bosxamdjiyeva fikricha, jamoat xavfsizligi quyidagi institutlarni o‘z ichiga oladi: terrorizmga qarshi kurash instituti; ekstremizmga qarshi kurash instituti; jinoiy va boshqa noqonuniy tajovuzlarga qarshi kurashish instituti; korrupsiyaga qarshi kurash instituti; aholini tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish instituti; noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish instituti; jamoat xavfsizligining ayrim turlarini (yong‘in, kimyoviy, biologik, yadroviy, radiatsiyaviy, gidrometeorologik, sanoat va transport xavfsizligini) ta’minlash institutlari; jamoat xavfsizligini ta’minlashda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish instituti; ekologik xavfsizlik instituti; yo‘l harakati xavfsizligi instituti; yong‘in xavfsizligi instituti; axborot xavfsizligi instituti; oziq-ovqat xavfsizligi instituti va h.k.[9].

Jamoat xavfsizligini ta’minlash, albatta, muayyan me’yorlar tizimi bilan tartibga solinadi. Bu belgi aholini noqonuniy tajovuzlardan, turli tahdidlardan himoya qilish qonun ustuvorligi asosida amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, qonun normalari favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi muhim miqdordagi jamoat munosabatlarini tartibga soladi, xususan: inson va fuqaroning huquq va erkinliklari, fuqarolarning jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi hatti-harakatlarining chegaralari, jismoniy va yuridik shaxslarning jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan muayyan harakatlarni amalga oshirish bo‘yicha cheklovchi vaqtinchalik majburiyatlarini belgilaydi, noqonuniy xatti-harakatlar turlarini belgilaydi, ya’ni faqat qonun normalari jamoat xavfsizligiga, xam oddiy hayot sharoitida, xam favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikka tajovuz qiluvchi hatti-harakatlarning to‘liq ro‘yxatini belgilaydi.

Va nihoyat, shaxsning, jamiyatning, davlatning hayotiy manfaatlarini amalga oshirishdan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarning mavjudligi, ular ijtimoiy imtiyozlar, konstitutsiyaviy tuzum, jamoat tartibi, shaxsiy daxlsizlik, mulk va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Jamoat tartibi deganda mohiyatan ma’lum bir jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy normalar bilan davlat tomonidan tartibga solinadigan, tashkil etilgan va qo‘llab-quvvatlanadigan butun tizim, ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi tushunilgan[10]. Keng ma’noda jamoat tartibi ma’lum bir tarzda tartiblangan ijtimoiy munosabatlar tizimini (majmuini) o‘z ichiga oladi: iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axloqiy va hokazolarni, shu munosabat bilan uni konstitutsiyaviy tuzum doirasidagi jamiyatdagi shaxslarning xulq-atvori qoidalari majmui sifatida belgilash mumkin[11]. V.V.Lazarev, L.L.Popov va L.M.Rozinlar “jamoat tartibi - ijtimoiy munosabatlar tizimining ma’lum bir sifati bo‘lib, u ijtimoiy munosabatlarning shunday tartibliligidan iborat bo‘lgan, jamiyat hayotining uyg‘unligi va ritmiga, jamoat munosabatlari ishtirokchilarining o‘z huquq va majburiyatlarini to‘sqinliksiz amalga oshirishiga va ularning manfaatlari, jamoat hamda shaxsiy tinchligining himoya qilinishiga olib keladi” deb ta’kidlashadi[12].

B.P.Kondrashovning aytishicha, jamoat

tartibini keng ma’noda ijtimoiy normalarga (huquq normalari, axloq, urf-odatlar, an’analar va boshqalar) rioya etish natijasida vujudga kelgan, daxlsizligi davlatning butun siyosiy tizimi tomonidan kafolatlangan ijtimoiy munosabatlar tizimi tushuniladi [13]. Shunday qilib, “jamoat tartibi” so‘zining keng ma’nosida jamiyatda mavjud bo‘lgan, ijtimoiy normalarga, shu jumladan huquq normalari va jamiyat qoidalariga muvofiq rivojlangan munosabatlarning butun tizimi tushuniladi.

Bu soha jamiyat hayotida osoyishtalik muhitini, mehnat va dam olish uchun normal sharoitlarni, davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar va ularning birlashmalari, muassasalar, jamoat birlashmalari faoliyatini ta’minlash maqsadida, odamlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida jamoat joylarida rivojlanadigan ijtimoiy normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlar tizimi bilan cheklanadi.

Shularni hisobga olib, nazarimizda jamoat tartibi tushunchasini quyidagi ta’rif kengroq qamrab oladi: Jamoat tartibi – bu jamoat joylarida odamlar o‘rtasida vujudga keladigan va rivojlanadigan, qonuniy amalga oshirilishi shaxsiy va jamoat xavfsizligiga rioya etilishini, odamlarning normal muloqotini, sha’ni, qadr-qimmati, hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilinishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, birinchi navbatda, ichki ishlar organlari, milliy gvardiya, prokuratura, davlat xavfsizlik xizmati, favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa fuqarolik tashkilotlari faoliyati bilan ta’minlangan davlat va jamiyatning muvofiqlashtirilgan ijtimoiy-huquqiy jamoat munosabatlari tizimidir.


O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasi 3-qismiga binoan, favqulodda holatda, huquq va erkinliklarni cheklash, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish bilan birga, fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashdan iborat. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 15-dekabrdagi O‘RQ-737-sonli «Favqulodda holat to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonuni [14] favqulodda holat joriy etish maqsadini (4-modda) va favqulodda rejimni joriy etish hollari va tartibini (5-modda) belgilaydi. Shu bilan birgalikda mazkur Qonunning 12-moddasida favqulodda holat joriy etilganda qo‘llaniladigan favqulodda choralar va vaqtinchalik cheklovlar qatoriga favqulodda holat joriy etilgan hududda davlat boshqaruvi organlarining (ular tarkibiy bo‘linmalarining), mahalliy davlat hokimiyati organlarining, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolatlarini to‘liq yoki qisman to‘xtatib turish; favqulodda holat joriy etilgan hudud bo‘ylab harakatlanish erkinligiga nisbatan cheklovlar, shuningdek mazkur hududga kirish va undan chiqishning alohida rejimi, shu jumladan mazkur hududga, zarur bo‘lganda esa O‘zbekiston Respublikasining butun hududiga chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning kirishi hamda ushbu hududlarda turishiga nisbatan cheklovlar; faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishga, shu jumladan tovarlarni realizatsiya qilishga, ishlarni bajarishga va xizmatlar ko‘rsatishga nisbatan cheklovlar; yig‘ilishlar, mitinglar, ko‘cha yurishlari yoki namoyishlar, shuningdek boshqa ommaviy tadbirlar o‘tkazilishini taqiqlash yoki cheklash; transport vositalarining harakatini cheklash va ularni ko‘zdan kechirishni amalga oshirish;xavfli ishlab chiqarishlar hamda portlovchi, radioaktiv, shuningdek xavfli kimyoviy va biologik moddalardan foydalanadigan tashkilotlar faoliyatini to‘xtatib turish va h.k. bir qator vaqtincha joriy etiladigan cheklovlarni ham joriy etishni nazarda tutadi.


Ushbu favqulodda holatni joriy etish maqsadlari uni joriy etish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan holatlarni bartaraf etishdan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini hamda O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi va hududiy yaxlitligi himoya qilinishini ta’minlashdan iborat (4-modda).

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida favqulodda holatlar sharoitida inson huquqlarini cheklash institutining o‘ziga xos qonuniyatlarini aniqlash imkonini berdi, Xususan, 2020-yilda COVID-19 infeksiyasining tez fursatda dunyo bo‘ylab tarqab ketishi natijasida O‘zbekiston Respublikasining butun hududida favqulodda vaziyat joriy etildi, shu favqulodda karantin choralari davrida jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlar va huquqbuzarliklar soni keskin kamayib ketganligi aniqlandi. 2022-yil Nukus shahrida yuz bergan ommaviy tartibsizliklar jarayonida esa sodir etilgan og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar ko‘lami oshib ketdi.

Quyida COVID-19 koronavirus infeksiyasi sabab respublikamizda joriy etilgan favqulodda vaziyat davrida jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlar to‘g‘risidagi diagrammalarni keltirib o‘tamiz:

ISSN 3030-3230





Ushbu diagrammadan natijalaridan ko‘rinib turibdiki favqulodda vaziyat rejimi amalda bo‘lgan 2020-yilda boshqa davrlarga nisbatan jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlar va huquqbuzarliklar soni keskin kamaygan. Bu ko‘rsatkichga ma’lum ma’noda inson huquqlarini cheklash bilan bog‘liq holatlar ta’sir ko‘rsatgan. Bir vaqtni o‘zida biz jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni sonini kamaytirish uchun inson huquqlarini cheklash lozim degan fikrdan yiroqdamiz[15].

Shunday qilib, insonning ayrim huquq va erkinliklarini cheklash orqali Davlat inson uchun eng muhimroq va qadirliroq bo‘lgan boshqa huquq va erkinliklarning saqlanishini ta’minlaydi.

Аннотация. В ностоящей научной статье приводится некоторые аспекты ограничение некоторых прав и свобод граждан в процессе обеспечение общественного порядка и общественной безопасности в Конституции Республики Узбекистан новой редакции, законые основание применение данных ограничений, требований Конституционного Закона Республики Узбекистан “О черезвычайных положений” и Указа Президента Республики Узбекистан УП №27 “О концепции общественной безопасности”, некоторые точки зрении ученных юристов по данному проблематики.

Ключевые слова: Конституция РУз. новой редакции, ограничение прав и свобод граждан, законности и обоснованности ограничений, концепция общественной безопасности, общественная порядка и общественная безопасность, смешенный подход по вопросам ограничений прав и свобод.

Annotation: The current scientific article presents some aspects of the restriction of certain rights and freedoms of citizens in the process of ensuring public order and public safety in the Constitution of the Republic of Uzbekistan of the new edition, the legal basis for the application of these restrictions, the requirements of the Constitutional Law of the Republic of Uzbekistan "On extraordinary provisions" and the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan UP No. 27 "On the concept of public security", some points of view of learned lawyers on this issue.

Key words: Constitution of the Republic of Uzbekistan. new edition, restriction of the rights and freedoms of citizens, legality and validity of restrictions, the concept of public safety, public order and public safety, a mixed approach to the issues of restrictions of rights and freedoms.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 М.В. Баглай. Глава 4. Основы правового положения личности. Конституционные права и свободы граждан Конституционное право зарубежных стран: Учеб. / Под общ. ред. М.В. Баглая. — М., издательства Норма.2004. С. 88.Источник: https://www.sovremennoepravo.ru/

2.Ўзбекистон Республикасининг янги тахрирдаги Конституцияси,Т.2023.Б.6.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги ПФ-27-сон Фармони. (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон; 16.01.2024 й., 06/24/10/0031-сон)

4. Л.Л.Попов,Д.М.Овсянко гл.№34, §1 Сущности содержание государственного управления в области внутренних дел. Административное право (вопросы административно-юрисдикционной деятельности органов внутренних дел). М.: Московская государственная юридическая академия. 2005г.. 3с.

5. Административное право/под ред.Л.Л.Попова. М.: Юрист, 2002. 699 с.

6. Хамхоев Б.Т. Проблемы определения общественной безопасности // Административное право и процесс. 2011. № 7. С. 40-42.

7.Туманов Г.А., Фризко В. И. Общественная безопасность и ее обеспечение в экстремальных условиях // Советское государство и право. 1989. № 8. С. 21-23.

8. Босхамджиева Н.А. Административно-правовые основы обеспечения общественной безопасности в Российской Федерации: дис. ... докт. юрид. наук. М., 2013. 369 с.

9. Яценко С.С. Уголовно-правовая охрана общественного порядка. Киев,1986. С. 10.

10. Административное право зарубежных стран: Учебник / Под ред. А.Н.Козырина и М.А.Штатиной. М.: Спарк, 2003. С. 307.

11. Лазарев В.В., Попов Л.Л., Розин Л.М. Правовые основы обеспечения общественного порядка. М., 1967.

12. Коржанский Н.И. Объект и предмет уголовно-правовой охраны. М., 1980. С.15.

13. Ўзбекистон Республикасининг "Фавқулодда ҳолат тўғрисида"ги қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 16.12.2021 й., 03/21/737/1163-сон

14. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Ҳуқуқий статистика ва ахборот Бош маркази маълумотлари.2024.

ЗНАЧЕНИЕ ИДЕИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДОСТОИНСТВА И РЕАЛИЗАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ В КОНСТИТУЦИИ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Дадашева Акида Абдужаббаровна,
Общественной безопасности Республики Узбекистан,
доктор юридических наук

Юсупов Жамолбек,
Независимый соискатель Ташкентского государственного транспортного университета Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматривается позиция гражданского общества в процессе широкомасштабных реформ, проводимых в Узбекистане в последние годы и их активное участие граждан в деятельности общественных советов, а также предложения и рекомендации, связанные с правовым разрешением проблем, поднимаемых в общественных советах.

Ключевые слова: Общественный контроль, негосударственные организации, гражданское общество, реформы, народные депутаты, народные советы, правовая база, права и свободы человека, средства массовой информации, Конституция Узбекистана.

Реформы проводимы в Узбекистане, накладывающие свой отпечаток на все сферы нашей жизни и влияющие на важные направления развития государства, проявляются в изменениях организационных структур органов власти. В условиях перехода к рыночной экономике полное реформирование представительных органов местного самоуправления, создание их организационно-правовых и финансовых основ стало одной из главных задач, стоящих перед обществом.

Законодательство должно отвечать требованиям сегодняшних времени, поэтому необходимо совершенствовать всегда нормативные документы. «Главное внимание в этом процессе уделяется созданию широких возможностей для реализации гражданами своих прав... Сегодня не граждане идут к чиновникам, а чиновники идут к народу. Это большая перемена». Наличие сильного общественного контроля за деятельностью органов государственной власти является одним из важнейших условий построения гражданского общества. Следовательно, активность граждан, неравнодушие к общественным событиям, глубокое ощущение каждым государственным служащим того, что его деятельность находится под контролем общества, имеют большое значение в процессе формирования гражданского общества. Общественный контроль – это деятельность, которая, как показывает мировой опыт, дала положительные результаты и продемонстрировала силу влияния на власть и общество.

Наличие общественного контроля является важным условием развития демократического правового государства и гражданского общества. Именно посредством деятельности общественного контроля гражданам и общественным структурам удаётся находить решения проблем в жизни общества. При этом важен результат контроля. Поэтому институт общественного контроля можно оценить как важный метод устранения недостатков в жизни гражданского общества, поиска решений существующих проблем, развития государства и общества, формирования солидарности гражданского общества.

Журналистское расследование, являющееся наиболее распространённой формой общественного контроля, способной продемонстрировать свою силу и позиции в рамках своей деятельности, призвано привлечь внимание общества, органов власти и должностных лиц к нарушениям прав и свобод человека, негативным явлениям в различных сферах. Статья 19 Всеобщей декларации прав человека гласит: «Каждый человек имеет право на свободу убеждений и на свободное выражение их. Это право включает свободу искать, получать и распространять информацию и идеи любыми средствами и независимо от государственных границ».

Опыт зарубежных стран показывает, что в соответствии с правилами, установленными

в статье 15 Закона Швейцарии «О публичной информации», журналистам и парламентским партиям должно оказываться максимальное содействие в проведении расследований и проведении информационных встреч. В США действует Ассоциация журналистов, которая проводит журналистские расследования. Ассоциация оказывает всестороннюю организационно-правовую поддержку деятельности журналистов и СМИ, осуществляющих общественный контроль за деятельностью органов государственной власти и управления. Изучение законодательства и опыта зарубежных стран показывает, что процедуры и принципы общественного контроля в этих странах не закреплены в едином законодательстве. Однако отдельные формы общественного контроля детально регламентированы специальными законами, для их обеспечения созданы специальные органы, и этот институт формировался на протяжении многих лет. В основном, комплексная и последовательная работа по формированию общественного контроля проводится в рамках советов. В современную эпоху одной из актуальных задач является обеспечение совместимости международного опыта, общепризнанных правил и национальных традиций при разработке и совершенствовании законодательства, связанного с осуществлением деятельности по общественному контролю, на основе реформ, направленных на либерализацию государственного и общественного строительства.

В данной статье рассматривается вопрос, волнующий граждан Узбекистана: «Какими должны быть участие, роль и место институтов гражданского общества в осуществлении общественного контроля?» Общественный контроль по своей природе является формой контроля, осуществляемого общественными объединениями, то есть органами самоуправления граждан, политическими партиями, общественными движениями, профсоюзами, общественными фондами, негосударственными организациями и другими институтами гражданского общества. Таким образом, основными субъектами этого демократического процесса являются негосударственные некоммерческие организации, институты гражданского общества. Из этого следует, что институты гражданского общества занимают важнейшее место в осуществлении общественного контроля. Ведущей силой в осуществлении общественного контроля являются институты гражданского общества. Статья 3 Закона «Об общественном контроле», принятого в 2018 году, гласит, что «субъектами общественного контроля являются граждане Республики Узбекистан, органы самоуправления граждан, а также негосударственные некоммерческие организации, зарегистрированные в установленном законом порядке, и средства массовой информации».

В Узбекистане понятие «демократическое общество», его основное содержание и суть доносятся и объясняются гражданам по-разному. Такие слова, как «демократия», «общество», «гражданин», «государство», «свобода», не теряют своей силы в узбекской филологии, независимо от падежа, в котором они употребляются. Однако, если границы и точное значение этих слов не будут разъяснены и не будут раскрыты людям, они вряд ли попадут в список негативных выражений. Каждая норма, установленная законом, не может быть выражена без этих слов.

Довольно заметно, что во многих странах границы этих свобод размыты, традиции преобладают над традициями, и наблюдается тенденция к поддержке борьбы за благоустройство. Жаль, что этот менталитет исчезает. Страны с богатой историей не являются исключением. Однако сравнивать и анализировать все зарубежные страны со странами Востока с точки зрения свободы довольно сложно, то есть главное отличие здесь — важность традиций.

Растущий интерес гражданского общества к проблемам, возникающим сегодня, не случаен. Он знаменует начало нового этапа в развитии человечества. Генезис и сущность гражданского общества – это расширение практики самоуправления во всех сферах общественной жизни, рост интереса к положению и роли личности в мировой политике.

Важно также, что в новой Конституции Республики Узбекистан 2023 года уделяется внимание деятельности общественного контроля, в статье 36 которой указано, что граждане Республики Узбекистан имеют право участвовать в управлении делами общества и государства непосредственно и через своих

представителей. Такое участие осуществляется через самоуправление, референдумы и демократическое формирование государственных органов, а также посредством общественного контроля за деятельностью государственных органов.

Порядок осуществления общественного контроля за деятельностью государственных органов определяется законом. Статья 49 устанавливает, что каждый имеет право на благоприятную окружающую среду и достоверную информацию о ней. Государство создает условия для осуществления общественного контроля за градостроительной деятельностью в целях обеспечения экологических прав граждан и предотвращения вредного воздействия на окружающую среду.

Проекты градостроительных документов подлежат общественному обсуждению в порядке, установленном законом.

Государство осуществляет меры по улучшению, восстановлению и охране окружающей среды, поддержанию экологического равновесия в соответствии с принципом устойчивого развития. ..... и статьей 148, ... граждане и институты гражданского общества осуществляют общественный контроль за формированием и исполнением Государственного бюджета Республики Узбекистан. Порядок и формы участия граждан и институтов гражданского общества в бюджетном процессе определяются законом. Активный характер общественного контроля, закрепление в данных нормах принципов открытости, гласности и публичности являются позитивным аспектом признания прав и свобод человека, принципа «человеческого достоинства». В частности, приняты и укреплены ряд новых законов: «Об общественных объединениях Республики Узбекистан», «О защите профессиональной деятельности журналистов», «О средствах массовой информации», «О гарантиях деятельности негосударственных некоммерческих организаций», «Об органах самоуправления граждан», «О защите прав потребителей», «О профессиональных союзах, гарантиях их прав и деятельности», «О Торгово-промышленной палате», «Об экологическом контроле», «О гласности деятельности органов государственной власти и управления», «О социальном партнерстве», «Об обращениях физических и юридических лиц», «Об общественном контроле» и более 100 других нормативно-правовых актов. Эти законы устанавливают несколько форм общественного контроля. Например, организации создают общественные советы, участвуют в открытых коллегиальных заседаниях органов государственной власти и управления, вносят на общественное обсуждение проекты нормативных актов и решений органов государственной власти и управления, изучают общественное мнение, заслушивают отчеты должностных лиц органов исполнительной власти органами самоуправления граждан и т. д.

Постановлением Президента Республики Узбекистан от 4 июля 2018 года № ПП-3837 утверждено Типовое положение «Об общественном совете при государственном органе». Данное положение обязывает совет служить народу и завоевывать доверие народа на протяжении всей своей деятельности. В настоящее время деятельность этих советов весьма слаба. Общественный контроль является неотъемлемой частью сильного гражданского общества и означает систематический контроль со стороны институтов гражданского общества и широкой общественности за деятельностью органов государственной власти и управления, их должностных лиц с точки зрения соблюдения ими законов. Такой контроль обычно проявляется через анализ деятельности органов государственной власти и управления, их должностных лиц, изучение, формирование и адекватное выражение общественного мнения по данному вопросу. Сегодня Узбекистан представляет собой важную и уникальную модель построения демократического общества, которую изучают и анализируют многие ведущие политологи мира.

Общественный контроль, осуществляемый институтами гражданского общества, не только обеспечивает гарантированность государством прав и свобод человека, но и обеспечивает определенный уровень контроля, их приоритетность в деятельности государственных органов.

Отличительными чертами общественного контроля за деятельностью органов государственной власти, осуществляемого средствами массовой информации, являются: главенство интересов общества и личности; всесторонность общественного контроля, то

есть его осуществление во всех аспектах и сферах общественной жизни; публичность, то есть возможность участия в таком контроле каждого без исключения гражданина и групп граждан; открытость, то есть контроль за ситуацией и его результатами открыт для всех, осуществляется под общественным контролем и наблюдением; осуществление контроля на добровольной и беспристрастной основе и т. д. Ведь защита интересов гражданского общества свидетельствует об усилении общественного контроля за органами государственной власти.

В Узбекистане в настоящее время крайне мало активных, «острое перо» представителей СМИ, и даже при подключении блогеров в качестве вспомогательного звена мы видим, что большая часть получаемых видеороликов и полной, достоверной информации искажается или вырезается. Это может привести к снижению доверия граждан к событиям и инцидентам. Причина, по которой обращается внимание на этот вопрос, заключается в том, что посредством данной системы осуществляется общественный контроль через СМИ по ключевым вопросам и информируется о достигаемых положительных результатах, что приводит к повышению доверия граждан к провидений политике правительства.

Было отмечено, что в настоящее время отсутствуют механизмы взаимодействия органов исполнительной власти в регионах, а чрезмерная централизация государственных полномочий ведёт к снижению роли местных органов исполнительной власти. Недостаточная открытость и прозрачность деятельности исполнительной власти, слабость общественного контроля, приводящая к излишней бюрократии и коррупции, – досадная и печальная ситуация. Одна из основных причин этих недостатков кроется в недостаточном влиянии народных избранников – депутатов в регионах. Оценивая деятельность депутатов, в большинстве случаев ограничиваются непродуманными выводами вроде «они, по сути, только и делают, что утверждают и голосуют поднятием руки». Ситуация дошла до того, что большинство избирателей даже не знают фамилий депутатов, и всё более очевидны процессы недоверия к депутатам. Мы видим, что именно на этих выборах, которые пройдут через пять лет, депутаты будут активны, а в остальное время они вообще не будут работать, не будут проводить встречи с гражданами и мероприятия, и на это во многих местах и рассчитывают. Потому что основное содержание предвыборной программы кандидатов в депутаты должно быть таким, чтобы в будущем она охватывала все аспекты гражданского общества и делала акцент на создании законов, способных решать эти проблемы, которые будут иметь свою силу на практике и служить общественным отношениям гражданского общества. После избрания субъекты общественного контроля, гарантирующие полную и точную реализацию всех перечисленных в предвыборной программе вопросов, должны уделять этому серьёзное внимание как к комплексному вопросу. Если прислушаться к отчётам, то, похоже, в деятельности местных Кенгашей происходят позитивные изменения, но они отражаются только в цифрах. Нам нужны конкретные результаты, а не цифры. Когда ситуация в регионах меняется к лучшему, бюджет полностью исполняется, преступность снижается, создаются новые рабочие места и, самое главное, повышается уровень жизни наших людей, мы можем дать положительную оценку деятельности местных Кенгашей. К сожалению, ни в одном районе деятельность Кенгашей народных депутатов не была организована на образцовом уровне.

Статья 122 Конституции Республики Узбекистан гласит, что к полномочиям Кенгашей народных депутатов относятся: 1) рассмотрение и принятие соответствующих местных бюджетов, контроль за их исполнением; 2) утверждение программ социально-экономического развития территорий и социальной защиты населения; 3) утверждение хокима в должности, заслушивание отчетов о его деятельности; 4) осуществление иных полномочий, предусмотренных настоящей Конституцией и законами. Глава XXI Конституции в полной мере отражает полномочия и обязанности представительных и исполнительных органов государственной власти на местах, роль органов самоуправления граждан. Данная норма предусматривает возможность письменного обращения к представителям народа и негосударственным некоммерческим организациям по проблемной ситуации на основе анкетирования.

В целом, в условиях демократии доверие выступает основным показателем, определяющим авторитет власти. Доверие, в

ISSN 3030-3230

свою очередь, является важным элементом общественного согласия, его формирование может быть достигнуто посредством следующих трёх основных факторов: во-первых, проявления публичной и транспарентной деятельности власти; во-вторых, организации общественного контроля за деятельностью органов государственной власти; в-третьих, вовлечения граждан в существующую в обществе институциональную систему контроля.

Подводя итог вышесказанному, важно считать признание национального менталитета и ценностей важнейшей задачей государственной деятельности. Хотя СМИ в зарубежных странах признаны четвёртой властью, именно эта власть гарантирует точность и правильность интерпретации всей предоставляемой гражданам информации. В эпоху развития инновационных технологий широко используется выражение «информационная атака», то есть политическое вмешательство в государственную жизнь – это именно распространение информации и данных, приводящее к нарушению внутреннего функционирования государства. (Например, «цветные восстания» на Украине, в Киргизии). Если национальный менталитет и ценности сильны, подобные идеи, приходящие из-за рубежа, будут запомнены и не окажут никакого влияния.

Граждане Узбекистана внимательно следят за современными тенденциями в информационном поле, мы видим, что вся информация, которая выкладывается в общественность, многими комментируется и обсуждается. И для того, чтобы общественный контроль, осуществляемый через все средства массовой информации, был более эффективным, необходимо уделять серьезное внимание нескольким аспектам: 1) руководители государственных органов и административных органов, а также руководители предприятий, учреждений и организаций должны четко ощущать, что они действуют под пристальным вниманием общественности. Это, в свою очередь, стимулирует руководителей к постоянной бдительности и соблюдению принципов законности и справедливости в своей работе. 2) Действующее законодательство о деятельности СМИ предусматривает, что при предоставлении материалов на темы, связанные с деятельностью государственных органов и действиями должностных лиц, важно, чтобы они полностью владели информацией по этой теме и, предоставляя комментарии, обязательно указывали ее правовую основу. 3) Повышение правосознания и культуры граждан во многом будет зависеть от влияния СМИ на общество и формирования общественного мнения посредством эффективных, качественных социальных видеороликов. 4) Необходимо активизировать деятельность пресс-служб политических партий и общественных организаций, действующих в политической системе нашего общества, повысить их влияние на общественно-политические события. 5) Необходимо сформировать финансовое положение институтов «журналистского расследования» и «журналистской проверки», которые считаются одним из методов общественного контроля над СМИ, важно заинтересовать в этой деятельности будущую молодёжь, выделять гранты и оказывать методическую помощь со стороны государства и т.д. К сожалению, у нас довольно низкий интерес к информации о государственных учреждениях.

С 2017 года будет внедрена система подотчётности губернаторов, прокуроров и органов внутренних дел всех уровней населению. Народ должен служить народу, а не государственным органам, и эту истину, прежде всего, должны хорошо понимать руководители всех уровней. С этой точки зрения, понятия «коммуникация с народом» и «интересы человека» настолько переплетены, что их невозможно отделить друг от друга. Исходя из этого, в обращениях подчеркивается необходимость чёткого определения норм о системе коммуникации с народом во всех законодательных актах, необходимость кардинального переосмысления подходов государственных органов к взаимоотношениям с гражданами, и в этой связи – внедрение новых механизмов и эффективных методов постоянного взаимодействия с населением, решения его проблем. Общественный контроль – это не только контроль за деятельностью государственных органов, но и способ самоуправления общества, иными словами, один из важных факторов развития гражданского общества.

Общественный контроль должен быть введен, прежде всего, в сферах правоохранительных и контролирующих

органов, финансов, банковского дела, образования, здравоохранения, коммунального хозяйства, энергетики и транспорта. Кроме того, такие вопросы, как качество товаров и услуг на рынках и в торговых центрах, должны постоянно находиться под общественным контролем. На сегодняшний день мы видим, что в некоторых государственных органах общественные советы до сих пор не созданы, и у нас нет информации о работе уже действующих советов.

Annotatsiya. Ushbu maqolada so‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida fuqarolik jamiyatining tutgan o‘rni va fuqarolarning jamoatchilik kengashlari faoliyatidagi faolligi, shuningdek jamoatchilik kengashlarida ko‘tarilayotgan muammolarni huquqiy hal etish bilan bog‘liq taklif va tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Jamoatchilik nazorati, nodavlat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati, islohotlar, xalq deputatlari, jamoatchilik kengashlari, huquqiy baza, inson huquqlari va erkinliklari, ommaviy axborot vositalari, O‘zbekiston Konstitutsiyasi.

Annotation. This article examines the position of civil society in the process of large-scale reforms carried out in Uzbekistan in recent years, the active participation of citizens in the activities of public councils, as well as proposals and recommendations related to the legal resolution of problems raised in public councils.

Key words: Public control, non-governmental organizations, civil society, reforms, people’s deputies, people’s councils, legal framework, human rights and freedoms, mass media, Constitution of Uzbekistan.

Список литературы:

1. Конституция Республики Узбекистан. -2023. Тошкент. -78 стр.
2. Дадашева. А.А. (2019). Ўзбекистонда маҳаллий ижро ҳокимияти органларининг давлат жамият бошқарув тизимидаги ўрни. Tadqiqot.Uz. https://doi.org/10.26739/2181-9130-2019-11-б.
3. A.A. Dadasheva. PUBLIC OPINION AND GOVERNMENT EVALUATION IN NEW UZBEKISTAN - The American Journal of Interdisciplinary Innovations …, 2022 18-21.
4. А.А. Дадашева - МАҲАЛЛИЙ ИЖРО ҲОКИМИЯТИ ФАОЛИЯТИ УСТИДАН ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИ НАТИЖАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЕЧИМЛАРИ. ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, 2020. 20-стр.
5. А.А. Дадашева. ДАВЛАТ ХИЗМАТИНИ ИСЛОҲ ҚИЛИШ ШАРОИТИДА ҲОКИМЛАР ФАОЛИЯТИ УСТИДАН ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ - Academic research in educational sciences, 2022. 21- стр. .
6. А.А.Дадашева. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ–КОНСТИТУЦИЯВИЙ ИСЛОҲОТЛАР ДАВР ТАЛАБИ - Academic research in educational sciences, 2022. 124 стр.
7. А. А. Дадашева. Маҳаллий ижроия органлари фаолияти устидан таъсирчан жамоатчилик назорати механизмларини шакллантириш. Монография. «Yangi kitob» нашриёти. Тошкент 2020 й. 314 стр.

INSONNING EKOLOGIK HUQUQINI HIMOYA QILISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Tursunov Oybek Botirovich,
yuridik fanlar doktori (DSc)

Annotatsiya. Maqolada ekologik xavfsizlikni ta’minlash muammolari, uning inson ekologik huquqlariga ta’siri, ekologik barqarorlikni ta’minlashda konstitutsiyaviy normalarning roli va insonning ekologik huquqlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: ekologiya, ekologik xavfsizlik, milliy xavfsizlik, ekologik barqarorlik, ekologiya huquqi, ekologiya qonunchiligi, atrof tabiiy muhit, tabiat obyektlari, barqaror rivojlanish.

Sivilizatsiya taraqqiyotining bugungi bosqichida insoniyat jamiyat taraqqiyotiga raxna solayotgan global ekologik inqirozlar – atrof tabiiy muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, bioxilmaxillikning qisqarishi, ozon qatlamining yemirilishi, atmosfera havosi o‘rtacha haroratining ko‘tarilishi kabi ulkan muammolar girdobida qolmoqda.

Ekologik muammolarning dolzarbligi xususida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev haqli ta’kidlaganidek, “... aholini, ayniqsa, qishloq joylarda toza ichimlik suvi bilan ta’minlash masalasi hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda. Maishiy chiqindilarni to‘plash, qayta ishlash va utilizatsiya qilish masalasi ham oldimizda turgan eng og‘ir muammodir” [1].

Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda dunyoda odamlarning ommaviy kasallanishi, o‘rtacha umr ko‘rish yoshining kamayishi, inson organizmida modda almashinuvining buzilishi bilan bog‘liq yangidan-yangi kasalliklar, yurak-qon, rak kabi kasalliklarning ko‘payishi kuzatilmoqda. Hozirda ekotizimdagi muvozanatning buzilishi shu darajada og‘ir ko‘rinish olganki, buning natijasida insonlarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqini amalda ta’minlash dolzarb muammoga aylanib bormoqda.

BMTning ma’lumotiga ko‘ra, so‘ngi 20 yil ichida sayyoramizda aholi jon boshiga chuchuk suv zaxiralari 20 foizdan ortiq qisqargan. Dunyo aholisining uchdan bir qismi, ya’ni 2,3 mlrd. kishi suv yetishmasligi kuzatilayotgan mamlakatlarda yashamoqda. BMTning FAO bashoratiga ko‘ra, XXI asrning uchinchi o‘n yilligi o‘rtalariga kelib suv tanqisligi sharoitida yashaydiganlar soni 4 mlrd. kishidan oshadi. Bu holat mislsiz inqirozlar va ijtimoiy halokatlarga sabab bo‘lishi tabiiydir.

Markaziy Osiyoda bu resurs tobora kamayib, mintaqada iqtisodiy muammolarni borgan sari chuqurlashtirmoqda. XX asr boshida 8 mln kishini tashkil etgan Markaziy Osiyo aholisi bugungi kunda 75 mln. dan oshdi, 2030 yilga borib esa 80 mln. ga yetishi taxmin qilinmoqda. Kelgusi o‘n yillikda iqlim o‘zgarishi va qo‘shni davlatlarda suv iste’molining oshishi O‘zbekistonning Amudaryo va Sirdaryodan suv olishini kamayishiga olib keladi va buning oqibatida qurg‘oqchilik va cho‘llanish jarayoni yanada kuchayib, aholining turmush darajasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Suv taqchilligining oldini olishning yo‘llaridan biri, bu suvni tejovchi texnologiyalarni keng qo‘llash hisoblanadi. Hozirda mamlakatimizda 4,3 million gektar sug‘oriladigan yerning 500 ming gektarida tomchilatib sug‘orish texnologiyalari joriy qilingan. 2026 yilga borib suv tejovchi texnologiyalar maydonini 2 mln gektarga yetkazish rejalashtirilgan.

Suvdan foydalanishdagi isrofgarchilikning yana bir sababi kanallarning foydali ish koeffitsentining pastligi va ichki tarmoqlarda suvning ko‘p yo‘qotilishidadir. Buning oqibatida qishloq xo‘jaligida har yili 4 mlrd 800 mln dollor kam daromad olinyapti. Shu sababdan, suvni tejashning yo‘llaridan biri kanallarni betonlashtirishdir. Shu maqsadda davlat budjetidan mlrdlab so‘m ajratilmoqda.

Suv isrofgarchiligidagi yana bir muhim muammo sel suvlaridan foydalanishdagi kamchiliklardir. Mamlakatimizda yiliga 1 mlrd kub metr sel suvlari behuda oqib ketmoqda. Shuning uchun mamlakatimizda sel suvlarini kichik havzalarda jamg‘arish masalasi bo‘yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda ekologik muammolarni ijobiy hal etish kishilik jamiyatini saqlab qolish, milliy xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shu sababdan, xalqaro hamjamiyat tomonidan Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqilib, unda ko‘rsatilishicha, inson tabiiy resurslarni o‘zlashtirganda biosferaning barqarorligi chegarasi saqlanishini shunday ta’minlashi

kerakki, bunda inson hayoti va yashashi uchun tabiiy asos buzilmasligi lozim. Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga ko‘ra, hayotning sifat ko‘rsatkichi (odamlar sog‘lig‘i, ularning umr ko‘rish yoshi, daromadi, xavfsizligi); ekologik qulay muhit ko‘rsatkichi (atrof muhit holati, tabiiy resurslarni iste’mol qilish va foydalanish darajasi, ekotizim holati, bioxilmaxillik holati va h.k.); iqtisodiy ko‘rsatkichlar [2] kabi indikatorlar yordamida aniqlanadi. Ushbu ko‘rsatkichlarning lozim darajada amalda bo‘lishi barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ma’lumki, insonning ekologik huquqlarini himoya qilish maqsadida bugungi kun yangi islohotlar bosqichida mamlakatimizda bir qator keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Yurtboshimizning “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” [3]gi farmonida “mamlakatimizda tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof muhitga ta’siri ustidan monitoringni amalga oshirish, ‘‘Yashil makon’’ umummilliy loyihasini amalga oshirish, Respublika hududlarida o‘rmonlar maydonini kengaytirish” kabi chora-tadbirlarning belgilanishi mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Bu kabi chora-tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida ham belgilanib, unga ko‘ra, 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, qayta tiklanuvchi energiya anbalarining ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foiziga yetkazish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish, yiliga 200 million ko‘chat ekish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqqa kengaytirish, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish vazifalari belgilab berildi.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston-2030” strategiyasida insonning ekologik huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarning belgilanishi diqqatga sazovordir. Unga ko‘ra, 2030-yilga qadar Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlarida “EVRO – 5” va undan yuqori standartlariga muvofiq bo‘lmagan avtomashinalar ekspluatatsiyasini bosqichma-bosqich cheklash, ekologiyaga avtomobillardan chiqindi gazlar ta’sirini kamaytirish maqsadida Toshkent shahrida oyning bir ish kuni davomida “Avtomobilsiz kun” jamoatchilik loyihasini amalga oshirish, Respublika bo‘ylab qo‘shimcha 1270 MVt quvvatli quyosh fotoelektr va 200 MVt quvvatli shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yili kamida 200 mln tup manzarali va mevali daraxt hamda butalar ko‘chatlarini, qalamchalarini ekish, 112 ta yirik sanoat korxonalarining hududida “yashil belbog‘”larni barpo etish, yangi ishga tushirilayotgan ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarida ifloslantiruvchi manbalarida samaradorligi 99,5 foizdan kam bo‘lmagan chang-gaz tozalash uskunalari o‘rnatishni tashkil qilish kabi vazifalarning belgilanishi insonning ekologik huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Insonning ekologik huquqlarini himoya qilish muammosiga yangilangan Konstitutsiyamizda ham jiddiy e’tibor berildi. Uning preambulasidayoq dunyo konstitutsiyalari preambulasi amaliyotida uchramaydigan qoida, ya’ni “mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirish, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilish” tahriridagi norma o‘rnatildi. Ushbu norma millatimizning ona tabiatga bo‘lgan e’tiborining yorqin ifodasi, unga Asosiy qonunning preambulasidanoq konstitutsiyaviy maqom berilishidir.

Bundan tashqari, Konstitutsiyaning bir qator normalarida “har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga egaligi (49-modda), fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburligi (61-modda), mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi kerakligi (66-modda), davlat yoshlarning ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlashi” (79-modda) tahriridagi normalar [4]ning joy olganligi davlat tomonidan aholining ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi haqida g‘amxo‘rlik qilishidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda davlatning ekologik nazorat funksiyasini kuchaytirish, iqtisodiyotning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga ko‘rsatayotgan

ISSN 3030-3230

salbiy ta’sirini bartaraf etish kabi muammolarni hal etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida “davlat fuqarolarning ekologik huquqini ta’minlash va atrof muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratishi, shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilishi, davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi” [6] tahriridagi qoidalar mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunining 12-moddasida fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi mustahkamlangan bo‘lib, uning kafolati sifatida atrof tabiiy muhitning ahvoli to‘g‘risida axborotni talab qilish va olish huquqi o‘rnatilgan. Ushbu qonunning 30-moddasida esa, atrof tabiiy muhitning holatiga jiddiy zarar yetkazadigan favqulodda hodisa va ofatlar yuz bergan taqdirda tegishli tashkilotlarning rahbarlari zudlik bilan aholini xabardor qilishi lozimligi belgilangan [7].

O‘zbekiston Resspublikasining “Radiatsiya xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunida fuqarolarning radiatsiyaviy holat va radiatsiya xavfsizligi ta’minlash to‘g‘risida axborot olish huquqi [8], “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlari aholining va hududlarning favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish holati hamda ularning xavfsizligini ta’minlash yuzasidan ko‘rilgan choralar haqida, oldindan bashorat qilinayotgan va ro‘y bergan favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida, ulardan aholini muhofaza qilishning usul va yo‘llari haqida ommaviy axborot vositalari hamda boshqa kanallar orqali aholini o‘z vaqtida va ishonchli tarzda xabardor etishlari shartligi [9] mustahkamlangan.

Insonning ekologik xavfsiz yashash huquqini davlat tomonidan himoya qilish ma’muriy va sud tartibida amalga oshiriladi. Qonunga ko‘ra, tegishli organlarning kollegial va yakka tartibda chiqargan qarorlari ustidan fuqarolar ma’muriy tartibda shikoyat berish huquqiga egadirlar. Qonun murojaatchiga shikoyatni yuboruvchi organni o‘zi tanlash huquqini beradi. U sudga yoki qaror qabul qilgan organning yuqori turuvchi organiga murojaat qilishi mumkin. Shuningdek, agar fuqaro davlat organining shikoyatni ko‘rib chiqishidan norozi bo‘lsa, bevosita sudga murojaat qilish huquqiga ham ega.

Ekologik nojo‘ya hatti-harakat tufayli fuqarolarning sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi qoida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talablariga asoslanadi. Unga binoan, ekologik huquqbuzarlik sodir etish oqibatida fuqarolarning sog‘lig‘i va mulkiga yetkazilgan zararni qoplashning umumiy tamoyillari sifatida zarar yetkazuvchiga yuridik javobgarlikni boshqa turlari qo‘llangan yoki qo‘llanmaganligidan qati nazar yetkazilgan zararni qoplash majburiyatining yuklatilishi, yetkazilgan zararning to‘liq qoplanishi, yuridik shaxslar va fuqarolarning xizmat faoliyatini amalga oshirishda atrof tabiiy muhitga va uning oqibati o‘laroq fuqarolarning sog‘lig‘i va mulkiga yetkazgan zarar uchun javobgarligi, hamkorlikda ekologik zarar yetkazgan shaxslarning solidar javobgarligi, ekogen zararni sud tartibida, nizosiz va ixtiyoriy ravishda qoplanishi belgilangan.

Insonning sog‘lig‘i va hayotiga texnogen ekologik favqulodda hodisa tufayli yetkazilgan zarar quyidagi usullar yordamida qoplanadi: a) xodim kasal bo‘lib vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotgan bo‘lsa, uning sog‘ayishi muddatiga kasallik varaqasiga ko‘ra ish haqini to‘lash; b) nogironlik maqomi berilib, ijtimoiy ta’minot mablag‘lari to‘lash; i) jabrlanganlarni ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilish, imtiyoz va to‘lov (kompensatsiya)lar berish; g) sud tartibida boshqa zararlarni undirib olish.

Insonning sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning qiymatiga kasallikni davolash va sog‘lig‘ini tiklash uchun qilingan sarf xarajatlar, kasalga qarash uchun ketgan xarajatlar, jabrlanuvchining kasb mahoratini yo‘qotganligi natijasida kelib chiqqan yo‘qotishlar, yashash joyi va hayot tarzini o‘zgartirganlik uchun qilingan xarajatlar, ma’naviy zarar kiradi. Insonga ekologik xavf-xatar natijasida yetkazilgan zararni moddiy qoplashdan tashqari tibbiy yordam ko‘rsatish, uy-joy olish, imtiyozli mehnat qilish, ijtimoiy-maishiy va transport xizmati bilan ta’minlash, sanatoriya-kurort muassasalarida davolash ham belgilanishi mumkin.

Aytilganlardan kelib chiqib, insonning ekologik huquqlarini himoya qilishni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni

bildirish o‘rinlidir: birinchidan, mamlakatimizda quyosh va shamol energiyasi ishlab chiqarishiga chet el investitsiyalarini yanada kengroq jalb qilish, fuqarolarning ulardan foydalanishga o‘tishini rag‘batlantiruvchi chora va imtiyozlarni yanada kengaytirish; ikkinchidan, davlat muassasasi, korxona va tashkilotlarida besh kunlik ish haftasiga o‘tib avtomobillardan foydalanishni oyiga bir kun emas, balki haftasiga bir kun (har shanba kuni) cheklash; uchinchidan, aholini elektromobillar bilan ta’minlash choralarini ko‘rish, buning uchun ularga imtiyozlar doirasini kengaytirish; to‘rtinchidan, atmosferaga o‘ta zararli ta’sir ko‘rsatuvchi yoqilg‘i turlaridan foydalanishdan butunlay voz kechish; beshinchidan, aholining iste’moliga yaroqli suv resurslarini tejashni ta’minlashga qaratilgan qonunchilik mexanizmini kuchaytirish; oltinchidan, atrof tabiiy muhitni kompleks muhofaza qilishni ta’minlashga xizmat qiladigan O‘zbekiston Respublikasining Ekologiya kodeksini qabul qilish.

Аннотация. В статье исследуются проблемы обеспечения экологической безопасности, их влияние на экологические права человека, роль конституционных норм в обеспечении экологической устойчивости, а также вопросы совершенствования механизмов защиты экологических прав личности.

Ключевые слова: экология, экологическая безопасность, национальная безопасность, экологическая устойчивость, экологическое право, экологическое законодательство, окружающая природная среда, природные объекты, устойчивое развитие.

Annotation. The article examines issues related to ensuring environmental security, the impact of these problems on human environmental rights, the role of constitutional norms in promoting ecological sustainability, and the improvement of mechanisms for protecting individual environmental rights.

Key words: ecology, environmental security, national security, ecological sustainability, environmental law, environmental legislation, natural environment, natural objects, sustainable development.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтариламиз. 1-том. -Т.: Ўзбекистон, 2017, 569-570-бетлар;
2. Наше общее будущее. -М.: Прогресс, 1989;
3. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/ 60/0082;
4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2023;
5. Ўша жойда;
6. Ўша жойда;
7. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси, 1993, 1-сон, 38-модда;
8. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 2000, 7-8-сон, 212-модда;
9. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.08.2022 й., 03/22/790/ 0751-сон.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ СПОРТИВНОЙ ОТРАСЛИ: ОПЫТ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Галатис Х.Г.,
Заместитель председателя Ассоциации спортивной борьбы Республики Узбекистан

Аннотация. В статье проведён научный анализ взаимосвязи спорта и экономики в Узбекистане. Исследование основано на официальных статистических данных и охватывает динамику бюджетного финансирования спорта, инвестиции в спортивную инфраструктуру и процессы коммерциализации. Показано, что за последние пять лет расходы на спорт в стране удвоились, активно строятся новые спортивные объекты, растёт рынок платных услуг и интерес населения к активному образу жизни. Автор подчёркивает, что спорт становится не только социальной сферой, но и значимым фактором экономического роста. На основе международного опыта предложены направления совершенствования механизмов финансирования, государственно-частного партнёрства, налоговых стимулов и прозрачности бюджетных расходов. Реализация предложенных мер позволит повысить вклад спортивной отрасли в ВВП и обеспечить устойчивое развитие физической культуры и спорта в Узбекистане..

Ключевые слова: экономика, спорт, финансирование, инвестиции, коммерциализация, государственно-частное партнёрство, спортивная инфраструктура, спортивная политика, фитнес-услуги, спортивный туризм, рынок спорта, государственный бюджет, налоговые льготы, социальная эффективность, стратегия Нового Узбекистана, спортивные школы, спортивные мероприятия, спонсорство, мерчандайзинг, экономический рост, здоровый образ жизни.

Спорт и экономика традиционно рассматривались как независимые сферы, однако современный опыт показывает их тесную взаимосвязь. Спортивная отрасль влияет на качество рабочей силы, здоровье населения и структуру спроса, а экономические инвестиции способствуют развитию спортивной инфраструктуры и спортивного туризма. В Узбекистане реформы последних лет подчёркивают рост внимания к спорту (стратегические цели Нового Узбекистана 2022–2026 гг. включают развитие физкультуры и спорта). С одной стороны, государственные бюджетные вложения в спорт резко выросли; с другой – развивается платный спорт и коммерческие проекты. Целью статьи является всесторонний анализ «совместимости» спорта и экономики Узбекистана, включая бюджетные расходы, инвестиции и коммерциализацию спорта, с учётом сравнительного опыта.

Методы

В исследовании использованы открытые статистические данные и официальные документы Узбекистана (государственные бюджеты, отчёты Минфина и Госкомстата, включая *«Бюджет гражданина – исполнение 2022»[1]*), а также публикации отечественных и зарубежных учёных. Проведен количественный анализ динамики бюджетных ассигнований на спорт, инвестиций в спортивную инфраструктуру и объёма платных спортивных услуг. Литературный обзор охватил отечественные статьи по экономике спорта и зарубежные обзоры (например, исследования по развитию спортивной индустрии в странах СНГ[2]). Для сравнения использованы примеры из стран с переходной экономикой, включая Республики Казахстан, где приватизируются спортивные клубы[3].

Результаты

Бюджетное финансирование спорта. По данным официальных источников, государственные ассигнования на физкультуру и спорт в Узбекистане неуклонно растут. Так, в 2021 году бюджет на спорт составлял порядка 1,5 трлн сумов, в 2022-м – около 2,03 трлн сумов[1]. В Законе о бюджете на 2023 год запланировано 2,3 трлн сумов на спортивную сферу[4]. Таким образом, за четыре года расходы более чем удвоились (с 1,5 до 3 трлн сумов). Рост расходов связан не только с общим увеличением финансирования

социальной сферы, но и с целенаправленным вложением средств в крупные проекты: строительство стадионов и спортивных комплексов, проведение республиканских и международных соревнований. Например, в 2022 г. дополнительно выделялись средства на Олимпийские игры и содержание спортивных школ[1].

Инвестиции в спорт. Государственные инвестиции в спорт дополнительно свидетельствуют о приоритетах развития отрасли. По данным Госкомстата, за январь–сентябрь 2025 года введено в эксплуатацию 29 новых спортивных объектов при освоении средств республиканского бюджета в размере 180,6 млрд сумов[5]. Примеры инвестиционных проектов включают возведение школ олимпийского резерва, спортивных арен и дворовых площадок (см. рисунок). Доля частных и иностранных инвестиций в спорт пока невелика, но растет: по аналогии с соседями (например, приватизация футбольных клубов в Казахстане общей стоимостью свыше 45 млрд тенге[3]), Узбекистан начинает привлекать бизнес к развитию профессионального спорта через государственно-частное партнёрство и дополнительные льготы.

Платные спортивные услуги и коммерциализация. Развитие частных спортивных клубов, фитнес-центров и платных секций становится заметной тенденцией. Так, объём оказанных услуг в области спорта, развлечений и отдыха в январе–августе 2025 года составил **2,9 трлн сумов**, что на 14,9% больше аналогичного периода 2024-го[6]. При этом почти половину рынка обеспечивает Ташкент (1,2 трлн сумов). Положительная динамика связана с увеличением числа коммерческих спортивных объектов и интересом населения к активному образу жизни. Специалисты также отмечают рост спонсорских вложений и мерчандайзинга, появление платного контента: по оценкам экспертов, ключевыми формами коммерциализации современного спорта являются трансляционные права, спонсорство, продажа атрибутики, платные билеты и абонементы[7]. В Узбекистане эти направления только формируются, но уже появляются примеры – например, введение VIP-лож на крупных аренах и развитие спортивного туризма.

Обсуждение

Проведённый анализ показывает, что спорт в Узбекистане всё активнее интегрируется в экономическую жизнь страны. Увеличение бюджетных расходов и инфраструктурных инвестиций свидетельствует о том, что государство рассматривает спорт как стратегическую отрасль развития. По мнению отечественных исследователей, физическая культура положительно влияет на экономику за счёт укрепления здоровья трудовых ресурсов, повышения производительности и роста продолжительности трудоспособного возраста. Кроме того, спортивная индустрия создаёт рабочие места и пополняет бюджеты за счёт налогов от спортивного бизнеса. В то же время модели финансирования спорта в Узбекистане сохраняют черты «приказной» экономики – значительную долю расходов формируют централизованные бюджетные субсидии. Международный опыт показывает эффективность смешанных моделей: например, в странах СНГ и Восточной Европы наблюдается бурный рост спортивной индустрии при условии активного участия частного капитала и применении корпоративного управления[2]. В Казахстане, к примеру, приватизация футбольных клубов и создание акционерных обществ позволили привлечь десятки миллиардов тенге инвестиций и снизить прямую зависимость от госбюджета[3]. В Узбекистане пока преобладают меры стимулирования за счёт бюджетных программ, однако публично-частное партнёрство и налоговые льготы для спортбизнеса уже объявлены приоритетом.

Для повышения экономической эффективности спорта в Узбекистане требуются следующие шаги:

- **Диверсификация финансирования.** Распределять средства более сбалансированно между уровнями – с учётом доли региональных программ – и стимулировать частные инвестиции (например, через налоговые послабления для спонсоров и инвесторов в спорт).
- **Усиление коммерческого компонента.** Создать правовые условия для спонсорства и продажи прав на спортивные мероприятия (включая телевизионные трансляции и цифровой контент), что соответствует мировым трендам коммерциализации[7]. Развивать мерчандайзинг национальных и клубных брендов.
- **Развитие платных услуг.** Поддерживать открытие фитнес-центров,

платных спортивных секций и школ на рыночных основаниях, одновременно контролируя доступность спорта для широкой аудитории. При этом важно стимулировать конкуренцию и качественный сервис, как этого требуют последние статистические тенденции рынка услуг (прирост на 15% год к году).

- **Эффективность бюджетных затрат.** Вводить критерии результативности для финансируемых организаций (спортивных школ, федераций), использовать практики оценки социальных эффектов (здоровье, занятость). Следует повысить прозрачность расходования средств (регулярная отчётность, аудиты) и вводить элементы софинансирования региональных проектов.
- **Стимулирование спортивного туризма и событий.** Инвестировать в инфраструктуру для массовых и международных мероприятий (чемпионаты, марафоны, спортивные форумы), что способствует экономическому росту (развитие гостиниц, транспорта, услуг).
- **Межотраслевая координация.** Активнее вовлекать бизнес-сообщество (через ассоциации и фонды), обмениваться опытом с ведущими спортивными федерациями мира для подготовки кадров и привлечения частных ресурсов.

В целом предлагаемые меры позволят усилить взаимодействие спорта и экономики: спорт будет не только потреблять бюджетные средства, но и генерировать дополнительные доходы и социальные блага. Это повысит эффективность вложений: здоровое, спортивное общество создаёт более продуктивную рабочую силу, а развитая спортивная индустрия – новые рынки товаров и услуг. Привлечение инвестиций и коммерциализация спортивной сферы при рациональном государственном регулировании укрепят экономический потенциал Узбекистана и повысят национальную конкурентоспособность.

Предложения по совершенствованию взаимодействия спорта и экономики:

1. Введение налоговых льгот и субсидий для частных инвесторов в спортивную инфраструктуру, по аналогии с мерами для ИТ-сектора, чтобы ускорить развитие профессиональных клубов и спортклубов.

2. Расширение программ государственно-частного партнёрства (ГЧП) при строительстве стадионов и спортивных комплексов: государство предоставляет землю и стартовое финансирование, а бизнес обеспечивает эксплуатацию и наполнение.

3. Создание целевой кредитной линии на льготных условиях для малого и среднего бизнеса в спортивной сфере (организация турниров, спортивный туризм, производство инвентаря).

4. Популяризация спорта через налоговые каникулы для предприятий, спонсирующих массовые и детские спортивные мероприятия.

5. Повышение роли региональных властей в финансировании спорта: закрепить за областными бюджетами процент на развитие массового спорта, что позволит учесть местные потребности и активнее использовать «внешние» эффекты спорта (здоровье, социальная сплочённость).

6. Создание единой электронной платформы учёта спортивных результатов и ресурсов (людей, объектов, финансирования), чтобы более точно оценивать вклад спорта в экономику и оптимизировать бюджетные траты.

Реализация этих предложений должна способствовать тому, чтобы спорт стал не только инструментом здоровья нации и международного престижа, но и заметным драйвером экономического роста и занятости в Узбекистане.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda sport sohasi va iqtisodiyot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Ilmiy tadqiqotda davlat byudjeti hisobidan sportni moliyalashtirish, sport infratuzilmasiga investitsiyalar va tijoratlashtirish jarayonlari dinamikasi o‘rganilgan. O‘tgan besh yilda sportga ajratilayotgan mablag‘lar ikki barobarga o‘sgani, yangi sport inshootlari qurilayotgani va aholining fitnes hamda sport xizmatlariga talabining ortib borayotgani qayd etilgan. Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, sport sohasi nafaqat ijtimoiy soha sifatida, balki iqtisodiy o‘sish drayveri sifatida ham faol rivojlanmoqda. Muallif tomonidan xorijiy tajribalar asosida sportni moliyalashtirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Shu bilan birga, sport biznesini qonunchilik va soliq sohalari orqali qo‘llab-quvvatlash, axborot tizimlarini joriy etish va sport turizmini rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan. Ushbu tadqiqot xulosalari mamlakatda “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi doirasida sportning iqtisodiy samaradorligini oshirish va sog‘lom jamiyat barpo etishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sport, iqtisodiyot, moliyalashtirish, investitsiya, tijoratlashtirish, davlat-xususiy sheriklik, sport infratuzilmasi, sport siyosati, fitnes xizmatlari, sport turizmi, sport bozori, davlat byudjeti, soliq imtiyozlari, ijtimoiy samaradorlik, yangi O‘zbekiston strategiyasi, sport maktablari, sport tadbirlari, sponsorlik, merchendayzing, iqtisodiy o‘sish, sog‘lom turmush tarzi.

Annotation. The article provides a comprehensive scientific analysis of the interrelation between sport and economy in Uzbekistan. The study examines the dynamics of state budget allocations, investments in sports infrastructure, and commercialization processes based on official statistics. It reveals that over the past five years, public spending on sport has doubled, with new facilities being built and the paid sports services market expanding rapidly. The author argues that sport is evolving from a purely social domain into a key driver of economic growth. Drawing on international experience, the paper proposes improvements in financing mechanisms, public-private partnerships, tax incentives, and transparency in budget expenditures. Implementing these recommendations will enhance the contribution of the sports sector to Uzbekistan’s GDP and support the country’s sustainable development and public health goals within the framework of the “New Uzbekistan” strategy.

Key words: sports, economy, financing, investment, commercialization, public-private partnership, sports infrastructure, sports policy, fitness services, sports tourism, sports market, state budget, tax incentives, social efficiency, New Uzbekistan strategy, sports schools, sports events, sponsorship, merchandising, economic growth, healthy lifestyle.

Список литературы:

1. Citizens’ budget: execution in 2022 // api.mf.uz
2. Lustov N.S. The Development of Physical Education in the CIS Countries // Journal of Tourism & Sports Management (JTSM). – 2020. – Vol. 2, № 3. – P. 153–158.
3. Богатые казахстанцы решили инвестировать в футбол десятки миллиардов // kz.kursiv.media
4. State budget of Uzbekistan for 2023 approved // uzdaily.uz
5. Инвестиции Узбекистана в спорт составили 180,6 млрд // everyday.uz
6. Жители каких регионов Узбекистана больше всего любят спорт и развлечения? // everyday.uz
7. Коммерциализация спорта как правовое явление // sv.zarnews.uz

O‘ZBEKISTONDA INTELLEKTUAL MULK QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Babakulov Zafar Kurbannazarovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
yuridik fanlar doktori, dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini, xususan shaxsiylashtirish vositalarining huquqiy maqomi va ularni muomalaga kiritishda yuzaga kelayotgan huquqiy muammolar tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida har bir shaxsning ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi hamda intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi kafolatlangani qayd etilgan holda, bu konstitutsiyaviy norma zamonaviy raqamli iqtisodiyot va axborot jamiyati sharoitida yangi mazmun kasb etayotgani ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada amaldagi Fuqarolik kodeksidagi intellektual mulkka oid normalarning zamonaviy texnologiyalar dasturiy ta’minot, mobil ilovalar, raqamli platformalar va sun’iy intellekt kabi nomoddiy obyektlar bilan bog‘liq munosabatlarni to‘liq qamrab olmasligi asosiy muammo sifatida ko‘rsatilgan. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi va rivojlangan davlatlar qonunchiligi misolida shaxsiylashtirish vositalari munosabatlarini xususiy va ommaviy huquq normalari asosida tartibga solishning huquqiy modellari tahlil qilingan. Maqolada «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi» doirasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan qonunchilik islohotlari bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar berilgan hamda intellektual mulkni milliy taraqqiyotning huquqiy asosi sifatida shakllantirish zaruriyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: intellektual mulk, shaxsiylashtirish vositalari, tovar belgisi, Fuqarolik kodeksi, Konstitutsiya, 53-modda, raqamli iqtisodiyot, domen nomi, internet huquqi, JST, BIMT, strategiya.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida har bir shaxsga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, shuningdek, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlangan. Shu bilan birga, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi ham alohida ta’kidlangan. Mazkur konstitutsion norma axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanayotgan bugungi davrda o‘z ahamiyatini yanada oshirmoqda. Zero, ilmiy-texnikaviy ijod faoliyati axborot jamiyatini shakllantirish va milliy innovatsion salohiyatni rivojlantirishda asosiy omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ayniqsa, intellektual faoliyat natijalarini tijoratlashtirishga qaratilgan iqtisodiy munosabatlar bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim o‘rin tuta boshladi. Yaratilgan dasturiy ta’minotlar, raqamli platformalar, mobil ilovalar, veb-saytlar va dizayn yechimlar kabi nomoddiy aktivlar orqali daromad topish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa, intellektual mulk huquqiy himoyasining nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy ahamiyatini ham oshirmoqda.

Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini huquqiy va institutsional jihatdan tubdan rivojlantirish, uni milliy innovatsion taraqqiyotning asosiy ustuniga aylantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 26 apreldagi PQ-221-son qarori bilan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi” [1] qabul qilindi. Ushbu Strategiya mamlakatda intellektual mulk obyektlarini yaratish, ro‘yxatga olish, himoya qilish va foydalanish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni tubdan isloh qilishga qaratilgan.

Dastlabki tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, Strategiya nafaqat normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, balki intellektual faoliyat natijalarini iqtisodiyot, ta’lim, ilm-fan va davlat boshqaruviga to‘liq joriy etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimini qamrab olgan. Uning asosiy maqsadi “Intellektual mulkning samarali huquqiy muhofazasidan kuchli huquqiy himoyasi sari” tamoyili asosida, intellektual mulkni milliy taraqqiyotning muhim drayveriga aylantirish, xalqaro standartlar darajasida himoya qilish va milliy brendlar orqali mamlakatning tashqi iqtisodiy raqobatbardoshligini ta’minlashdan iborat.

Strategiyada belgilangan ustuvor vazifalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

intellektual mulk sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikni

ilg‘or xalqaro tajriba asosida takomillashtirish, mavjud huquqiy bo‘shliq va normalardagi ziddiyatlarni bartaraf etish;

davlat boshqaruvi tizimidagi takrorlovchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, sohada idoralararo hamkorlikni mustahkamlash;

kontrafakt mahsulotlar va huquqbuzarliklarga qarshi samarali huquqiy mexanizmlarni shakllantirish;

jamiyatda intellektual mulkka bo‘lgan munosabatni qayta shakllantirish va huquqiy ongni yuksaltirish;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini to‘liq joriy etish orqali intellektual mulk sohasini raqamlashtirish;

“Made in Uzbekistan” brendini jahon bozorida mustahkamlash.

Shuningdek, ushbu strategiya doirasida davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, sudgacha hal etish mexanizmlarini kengaytirish, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni Internetda himoya qilish bo‘yicha “WIPO Alert” kabi xalqaro tizimlardan foydalanish, intellektual mulk obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarini soddalashtirish hamda ularni iqtisodiy muomalaga keng jalb etish nazarda tutilgan.

Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida ta’lim dasturlariga intellektual mulk sohasiga oid fanlarni kiritish, yangi avlod darsliklarini yaratish, o‘quv-amaliy kurslar tashkil etish va “IP Management” sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash rejalashtirilgan. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tomonidan boshqariladigan shartnomalarga qo‘shilish, “XXI asrda intellektual mulk” xalqaro forumini o‘tkazish kabi tashabbuslar mamlakatning xalqaro imidjini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu Strategiyaning amalga oshirilishi, bir tomondan, milliy qonunchilik tizimidagi zamonga nomos kelish holatlarni bartaraf etadi, ikkinchi tomondan esa, fuqarolik huquqi va intellektual mulk sohasini jahon standartlariga moslashtirishga yo‘naltiriladi. Shuning uchun, Strategiyaning mazmun-mohiyati intellektual mulk munosabatlari rivojining yangi bosqichga chiqishi, uning huquqiy va iqtisodiy salohiyatini to‘liq namoyon etishiga xizmat qiluvchi asosiy strategik hujjat sifatida baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida intellektual mulkka oid qator normalar (FKning 1-qismi 8-bobi, FKning 2-qismi IV bo‘limning 59–65-boblari) zamonaviy texnologik va raqamli realliklarga to‘liq mos kelmasligi sababli, ayniqsa, dasturiy ta’minot, raqamli kontent, internet-platformalar, sun’iy intellekt orqali yaratilgan mahsulotlar, mobil ilovalar va algoritmlar kabi ayrim nomoddiy obyektlar bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar aniq va mukammal tartibga solinmagan. Natijada, ushbu obyektlarga nisbatan huquq subyektlari o‘rtasidagi mualliflik shartnomalarini tuzish, ulardan foydalanish, litsenziyalash, nomoddiy mulkka egalik qilish va undan kelib chiqadigan huquq va majburiyat masalalarida huquqiy muammolar kelib chiqmoqda. Mazkur holatni bartaraf etish uchun, fuqarolik huquqi tizimidagi moddiy huquq normalarini axborot jamiyati sharoitiga mos ravishda isloh qilish, shuningdek, raqamli iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus huquqiy mexanizmlar va yangi qoidalarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mazkur dolzarb vazifalarning yechimini ta’minlash maqsadida, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. Ushbu Strategiyada intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilishning institutsional va normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarini huquqiy munosabatlar tizimiga jalb qilish, shuningdek, sun’iy intellekt va innovatsion ishlanmalarni huquqiy tartibga solish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, Strategiyada fuqarolik qonunchiligini zamonaviy raqamli muomala talablariga muvofiq ravishda yangilash, intellektual faoliyat natijalarining iqtisodiy muomaladagi faol ishtirokini ta’minlash va huquq subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarni mukammal tartibga solishga doir yo‘nalishlar asosiy ustuvor vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan.

Milliy iqtisodiy munosabatlarning rivojlanib borishi intellektual faoliyat natijalari va uning huquqiy asoslarini o‘zida mujassam etgan fuqarolik huquqiy shartnomalar konstruksiyasining qonunchilik asoslarini yanada takomillashtirishda shaxsning o‘ziga tegishli nomoddiy obyektga nisbatan egalik qilish va foydalanish huquqlarining kafolatini yanada kuchaytirish lozim. Chunki shaxsiylashtirish vositalari bilan bog‘liq amaldagi qonunchilik qoidalari umumiylikka asoslangan bo‘lib maxsus tartibga solish mazmuniga ega emas. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksidagi qoidalar o‘zaro bog‘liq bo‘lsa ham tarqoq holda bo‘lib bitta tizimga keltirilmagan.

Tadbirkorlik faoliyati sohalari bo‘lgan tovar ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish munosabatlari rivojlanayotgan ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik

ISSN 3030-3230

kodeksining shaxsiylashtirish vositalari toifasiga kiruvchi nomoddiy obyektlarning huquqiy maqomini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Xususan tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari, domen nomlari kabi shaxsiylashtirish vositalarining tijorat munosabatlarida qo‘llanilishi natijasida kelib chiqadigan o‘zaro huquqlar to‘qnashuvi masalalarida ustun taraf huquqlarini muhofaza qilish va uchinchi shaxslar tomonidan ushbu huquqlarni tan olish, uchinchi shaxslarning tovar belgisiga zarar yetkazuvchi har qanday hatti-harakatlariga nisbatan fuqarolik xususiyatdagi javobgarlik choralari bilan bog‘liq normativ qoidalarni Fuqarolik kodeksida ko‘rsatish lozim.

Dunyo qonunchiligi amaliyotida shaxsiylashtirish vositasi munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qoidalarning qo‘llanilish xususiyatiga ko‘ra quyidagi uchta turga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Fuqarolik kodeksida shaxsiylashtirish vositalari bilan bog‘liq munosabatlar xususiy huquq qoidalariga asosan tartibga solinsa, ommaviy huquqiy munosabatlar esa maxsus qonunlar asosida tartibga solinadi;

2. Fuqarolik kodeksida shaxsiylashtirish vositalari bilan bog‘liq munosabatlar ham ommaviy ham xususiy huquq normalari asosida tartibga solinadi;

3. Shaxsiylashtirish vositalari bilan bog‘liq ommaviy va xususiy munosabatlar maxsus qonunlar asosida tartibga solinadi.

Fuqarolik kodeksida shaxsiylashtirish vositalari bilan bog‘liq munosabatlar xususiy huquq qoidalariga asosan tartibga solinishiga O‘zbekiston fuqarolik qonunchiligini misol qilib keltirish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilangan shaxsiylashtirish vositalari munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qoidalar xususiy huquq normalariga asoslanib, Fuqarolik kodeksining 65-bobida shaxsning mutlaq huquqlarga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etishning moddiy-huquqiy qoidalari belgilangan.

Fuqarolik kodeksida shaxsiylashtirish vositalari bilan bog‘liq munosabatlar ham ommaviy ham xususiy huquq normalari asosida tartibga solinishi [2] ga Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining to‘rtinchi qismini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Mazkur davlat Fuqarolik kodeksining 76-bobi qoidalari yuridik shaxslarning tovarlar, ishlar va xizmatlarini shaxsiylashtirish vositalari xususiy bilan birga ommaviy huquqiy munosabatlarni ham tartibga solishdan iborat [3]. Xususan shunday ommaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 1480-moddasi (tovar belgilarini ro‘yxatga olish) 1492-modda (tovar belgisini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun ariza berish), 1483-modda (tovar belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish), 1497-1499-moddalar (tovar belgilarini ekspertizadan o‘tkazish), 1504-modda (tovar belgisiga guvohnoma berish), 1506-modda (tovar belgisini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni e’lon qilish), 1511-modda (jamoaviy tovar belgilarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish), 1518-modda (tovar kelib chiqqan joy nomlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish), 1522-modda (tovar kelib chiqqan joy nomiga ariza berish), 1523-1528-moddalar (tovar kelib chiqqan joy nomlarini ekspertizadan o‘tkazish) kabi shu va boshqa moddalarda o‘z aksini topgan. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksida tovar belgilarini ommaviy huquqiy tartibga munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qoidalar, shuningdek Rossiya Federatsiyasining 1992 yil 23 dekabrdagi “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi qonunida ham o‘z aksini topgan. Ya’ni tovar belgilari bilan bog‘liq ommaviy huquqiy qoidalar ham Fuqarolik kodeksida ham tovar belgilariga doi maxsus qonunchiligida aks etgan.

Uchinchi toifaga AQSh, Kanada, Germaniya, Shvetsiya kabi davlatlar qonunchiligini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu davlatlarda shaxsiylashtirish vositalari, xususan tovar belgilari munosabatlarini tartibga solish O‘zbekiston va Rossiya davlatlardan farqli o‘laroq, Fuqarolik kodeksi darajasida emas, balki yagona maxsus qonunchilikka ko‘ra amalga oshiriladi. AQShning har bir shtatida tovar belgilarini tartibga solishga qaratilgan maxsus qonunchiligi mavjud [4]. Lekin 1946 yilda qabul qilingan Lenxem qonuni va 1996 yilda qabul qilingan Tovar belgilarini ajratish to‘g‘risidagi Federal qonunlari tovar belgilarini ommaviy va xususiy munosabatlarda tartibga solish bilan bog‘liq qoidalarni o‘zida mujassam etadi [5].

Shaxsiylashtirish vositalari, xususan tovar belgilari muomalasini tartibga soluvchi ikkinchi toifaga kiruvchi Rossiya Federatsiyasining tovar belgilari qonunchiligida belgilangan ommaviy huquqiy tabiatdagi qoidalarning Fuqarolik kodeksida ham o‘z aksini topishi fuqarolik munosabatlari xususiylikdan ommaviylikka qarab borishining namunasidir.

Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining to‘rtinchi qismida (Intellektual faoliyat natijalari va shaxsiylashtirish vositalariga bo‘lgan huquq) shaxsiylashtirish vositalariga bo‘lgan mutlaq

huquqni tan olish va unga nisbatan hatti-harakat(harakatsizlik)larni amalga oshirish masalasi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 65-bobida ko‘rsatilgan qoidalardan farq qiladi. Ikkinchi va uchinchi toifadagi qoidalardan farqli o‘laroq, O‘zbekiston Fuqarolik kodeksida belgilangan tovar belgilari va boshqa shaxsiylashtirish vositalari munosabatlarini tartibga solish ommaviy-huquqiy qoidalarga asoslanmaydi. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1-moddasi 1-qismiga asosan fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining tengligini e’tirof etishga, fuqarolik huquqlari to‘sqinliksiz amalga oshirilishini ta’minlashga, shuningdek ushbu Kodeksning 2-moddasi 6-qismida bir tarafning ikkinchi tarafga ma’muriy bo‘ysunishiga asoslangan mulkiy munosabatlarga, shu jumladan soliq, moliyaviy va boshqa ma’muriy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonun hujjatlari qo‘llanilmasligi kabi qoidalarni o‘zida namoyon etadi. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksida esa ma’muriy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonun hujjatlari qo‘llash yoki qo‘llamaslik bilan bog‘liq asoslar belgilab berilmagan.

Yuqorida shaxsiylashtirish vositalari munosabatlarini tartibga solishda ommaviy va xususiy qoidalarning Fuqarolik kodeksida aks etishini ayrim davlatlar qonunchiligi xususiyatidan kelib chiqqan holda bir necha tasnifga bo‘lib o‘tgan edik. Xo‘sh O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida shaxsiylashtirish vositalari munosabatlariga, xususan tovar belgilariga nisbatan ommaviy-huquqiy qoidalarni qo‘llash fuqarolik huquqi prinsiplariga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlari mazmunini takrorlamaslik masalasiga qanchalik darajada mos keladi.

Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida intellektual mulk munosabatlarini tartibga soluvchi qoidalar rivojlangan bozor munosabatlari talablariga javob bermaydi. Ushbu masala xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5464-sonli farmoni [6] da alohida qayd etib o‘tildi. Mazkur farmonni qabul qilish zaruriyati, avvalo Fuqarolik qonunchiligini bozor iqtisodiyoti prinsiplari va xalqaro standartlarga muvofiq modernizatsiya qilish, mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun zamonaviy fuqarolik-huquqiy asoslarni yaratish, shuningdek 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarishdan iborat. Farmonda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini yanada takomillashtirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- fuqarolik qonunchiligi normalarini tizimlashtirish va unifikatsiya qilish, ularning eng namunali xorijiy amaliyotlar bilan uyg‘unligini ta’minlash, shuningdek, ushbu sohada ilg‘or xalqaro standartlarni implementatsiya qilish;

- xususiy mulkning daxlsizligi kafolatlarini ta’minlaydigan, jismoniy va yuridik shaxslarning, ayniqsa tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladigan samarali fuqarolik-huquqiy mexanizmlarni belgilash;

- ommaviy va fuqarolik huquq normalarini aniq chegaralash, iqtisodiyotni boshqarishda ma’muriy-buyruqbozlik tamoyillariga asoslangan, o‘z ahamiyatini yo‘qotgan va eskirib qolgan qoidalarni chiqarib tashlash;

- davlat-xususiy sherikligi, klasterlik ishlab chiqarishi, elektron tijorat, kripto-valuta aylanmasi, yer uchastkalarini xususiylashtirish, ulushli qurilish va boshqa zamonaviy fuqarolik-huquqiy institutlar va iqtisodiy munosabatlar shakllarini huquqiy tartibga solishni ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasida Fuqarolik kodeksining amaldagi tahriri mamlakatda tez rivojlanayotgan iqtisodiy munosabatlar talablariga va fuqarolik huquqi sohasidagi xalqaro standartlarga yetarli darajada javob bera olmasligi quyidagi holatlar asosida ko‘rsatib berildi:

- birinchidan, Fuqarolik kodeksida eskirgan huquqiy institutlar, shuningdek bozor iqtisodiyotiga asoslangan rivojlangan davlatlar huquqiy tizimida mavjud bo‘lmagan yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shakli saqlanib qolgan;

- ikkinchidan, «tijorat tavakkalchiligi», «xo‘jalik yurituvchi subyektlar tengligi», «adolatli kompensatsiya», «shartnomaviy majburiyatlarni bajarishdan bosh tortish» kabi an’anaviy fuqarolik-huquqiy institutlar mavjud emas;

- uchinchidan, zamonaviy bozor sharoitlarida talab etiladigan fuqarolik-huquqiy shartnomalar va munosabatlarning alohida shakllari, shu jumladan, davlat-xususiy sherikligi, dilerlik shartnomasi, ulushli quruvchilik, klaster ishlab chiqarish, elektron tijorat, kripto-valuta aylanmasi, yer uchastkasini xususiylashtirish va boshqalarni tartibga solish nazarda tutilmagan;

- to‘rtinchidan, Fuqarolik kodeksida ko‘p miqdordagi havolaki normalarning (80 ga yaqin) mavjudligi kodeksning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi hujjatga aylanishiga to‘sqinlik qilmoqda va

ISSN 3030-3230

uning fuqarolik- huquqiy munosabatlarni tartibga solish borasidagi maqomini pasaytirmoqda;

- beshinchidan, bir-biriga o‘xshash va boshqa tashkiliy-huquqiy shakllardagi qoidalar aralashmasidan tashkil topgan yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllarining ko‘pligi (masalan, qonunchilikda xususiy korxona va unitar korxona tarkibiga boshqa ishtirokchilarning kirishi nazarda tutilmaganligi, ularning investitsiya jalb qila olmasliklariga sabab bo‘ladi);

- oltinchidan Fuqarolik kodeksida fuqarolik huquqi institutlariga taalluqli bo‘lmagan ommaviy huquq normalari, xususiy mulk va shartnomaviy munosabatlariga oid asoslanmagan miqdordagi cheklovlar mavjud;

- yettinchidan, Fuqarolik kodeksida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalarini tartibga soluvchi qoidalar deyarli mavjud emas. Ushbu masalalar fuqarolik qonunchiligini takomillashtirishning bosh ustuvor vazifalarni qamrab oladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasida belgilab berilgan vazifalarni shaxsiylashtirish vositalari huquqiy maqomini takomillashtirish nuqtai nazaridan quyidagilarga alohida e’tibor qaratish taklif qilinadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilangan intellektual mulk munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qoidalarni Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksi to‘rtinchi qismida belgilangani kabi ommaviy huquq qoidalaridan foydalanmaslik, balki xususiy huquq bilan bog‘liq qoidalarini yanada takomillashtirishga e’tibor qaratish lozim. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida shaxsiylashtirish vositalari bilan bog‘liq normalarni ma’muriy tartib-taomillar kiritish fuqarolik huquqi predmetini ma’muriy huquqi predmeti bilan chalkashtirib yuborilishiga olib keladi. Tovar belgilari bilan bog‘liq ommaviy qoidalarni tovar belgilari qonunchiligida belgilash maqsadga muvofiq;

- Fuqarolik huquqida mavjud moddiy-huquqiy normalar mazmuni ayrim holatlarda intellektual mulk munosabatlarini tartibga solish bilan bog‘liq munosabatlar mazmuniga mos kelmaydi. To‘g‘ri intellektual faoliyat natijalari yoki shaxsiylashtirish vositalari moddiy ashyolar bilan uzviy bog‘liq. Ularning o‘zaro munosabati moddiy va nomoddiy huquq qoidalar bilan tartibga solinadi. Lekin intellektual faoliyat natijalari va shaxsiylashtirish vositalariga qo‘llaniladigan mutlaq huquqlardan foydalanish, muhofaza qilish, unga bo‘lgan huquqni tasarruf etish maxsus qoidalar bilan belgilanadi. Masalan mutlaq huquqni meros qilib qoldirish, garovga qo‘yish, mutlaq huquqni tasarruf etish va h.k. Afsus ushbu holatlarni tartibga solish bilan bog‘liq qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida aks etmagan.

- hammaga ma’lum tovar belgilarining huquqiy maqomi va uni muhofaza qilish shartlarini aniqlashtirish, shuningdek Sanoat mulkini muhofaza qilish bo‘yicha Parij konvensiyasining 6-bis moddasida hammaga ma’lum tovar belgilari bilan bog‘liq qoidalarini Fuqarolik kodeksiga implementatsiya qilish;

- O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga qo‘shilish yo‘lida tashkilotning intellektual mulk sohasidagi talablarini bajarish maqsadida Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari bo‘yicha bitimi qoidalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, uning qoidalarini O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi shaxsiylashtirish vositalari maqomini takomillashtirishda foydalanish.

- taraflarining shartnoma shartlariga va shartnomada tashqari holatlarda uchinchi shaxslar tomonidan shaxsiylashtirish vositalaridan qonunga zid ravishda foydalanganlik natijasida kelib chiqqan zararni aniqlashning aniq mezonlarini ishlab chiqish. Bu borada shunday tartib o‘rnatilishi kerakka, unga ko‘ra uchinchi shaxslar mutlaq huquq egasiga tegishli tovar belgisi yoxud boshqa shaxsiylashtirish vositalaridan qonunga zid foydalanishi yoki shunga imkon yaratishi, uning tovar bozoridagi obro‘siga qasddan zarar yetkazishi kabi holatlarda zarar nafaqat ushbu nomoddiy obyektning qiymatini, balki uning egasiga yetkazilgan zararning aniq miqdori ham inobatga olinishi, shuningdek ushbu zararning ko‘rsatkichlari nimalarga asoslanishi lozimligi Fuqarolik kodeksida belgilanishi lozim;

- tovar belgisiga bo‘lgan huquqni merosxo‘r(lar)ga qoldirish, moddiy ashyoni meros qilib qoldirishdan farq qiladi. Ushbu farq avvalo huquqni qabul qilish, amalga oshirish va tasarruf etish bilan bog‘liq. Shunday ekan, tovar belgisini meros qilib qoldirish masalalarini alohida huquqiy tartibga solish me’yorlarini Fuqarolik kodeksiga kiritish;

- Fuqarolik kodeksining 1040-moddasida mutlaq huquqlarni himoya qilish usullarini yanada takomillashtirishga alohida e’tibor qaratish. Ya’ni Fuqarolik kodeksida mutlaq huquqlarni himoya qilishga qaratilgan har bir usulni amalga oshirishdagi o‘ziga xoslik aniq ko‘rsatib berilishi lozim.

- O‘zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mavjud muammolaridan biri ularga tegishli shaxsiylashtirish vositalari, xususan tovar belgilariga nisbatan huquqlari kafolatlarini yaratishdan iboratdir. Lekin bu masalada milliy qonunchilik tegishli xalqaro talablarga javob bermaydi. Xorijiy tijorat tashkilotlarining O‘zbekistonda o‘z filialini ochish va ishlab chiqarish faoliyatini yo‘lga qo‘yishda tovar belgisidan foydalanadi. Investor o‘z tovar belgisidan foydalanishi va huquqiy muhofaza qilinishi uchun davlat ro‘yxatidan o‘tkazishi lozim. Bordi-yu xorijiy korxonaga tegishli tovar belgisi milliy doirada avvalroq boshqa shaxs nomiga ro‘yxatga olingan tovar belgisi bilan bir xil yoki o‘xshash bo‘lsa, ushbu xorijiy korxonaga tegishli tovar belgisi huquqiy muhofaza ostiga olinmaydi. Bu esa xorijiy investorning O‘zbekistonda faoliyat olib borish imkonini cheklaydi. Shu kabi holatlarni oldini olish, investorning O‘zbekiston bozoriga kirib kelish sharoitlarini yanada yaxshilash maqsadida xorijda mashhur bo‘lgan tovar belgilari bilan bir xil yoki o‘xshash tovar belgilari muomalasini tartibga solishga qaratilgan xalqaro qoidalarni alohida ishlab chiqish lozim.

- Axborot kommunikatsiya texnologiyalari xayotimizga borgan sari chuqur kirib bormoqda. Moddiy va virtual olamning o‘zaro munosabati inson ongini tezlik bilan rivojlanishiga ta’sir qilib turli qarashlar va g‘oyalarning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Virtual olam munosabatlari moddiy manfaat ko‘rish yoki shunday maqsadda foydalanmaslik xususiyati bilan o‘ziga xoslikka ega. So‘ngi o‘n yillikda internet tarmog‘ining turli vositalari orqali savdo munosabatlari misli ko‘rilmagan darajada rivojlanib, har qanday turdagi tovar oldi-sotdi munosabatlari amalga oshirilmoqda. Elektron tijorat, elektron maydonchalar orqali haridlarni amalga oshirish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu degani, shunga muvofiq Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish lozimligini kelib chiqqan holda virtual olamda tovar belgilarini muhofazasini ta’minlashga qaratilgan qoidalarni ishlab chiqish va uni Fuqarolik kodeksida belgilash muhim ahamiyatga ega. Maxsus domen nomlari orqali amalga oshiriladigan savdolar ayrim holatlarda tovar belgisi nomi bilan xamohang bo‘ladi. Bugungi kunda brend-skvotting, kibersksotting yoki meta-teg kabi yo‘llar bilan tovar belgisidan foydalanish va uning yordamida internet manzili makonini ochish holatlari ko‘payib bormoqda. Tovar belgisidan uning egasini ruxsatisiz foydalanishning ushbu usullari insofsiz egallovchi shaxslarning bozorga tez kirib borish va iste’molchilarni oson jalb etish maqsadini qo‘zlaydi. Shu nuqtai nazardan Fuqarolik kodeksida tovar belgisidan internet maydonida turli usul va vositalarda foydalanishni cheklashda tovar belgisin internet manzilida foydalanishdan himoya qiluvchi “Net-propection trademarks” tizimini joriy etish taklif etiladi. Ushbu tizim ro‘yxatga olingan tovar belgilarini internet manzilida insofsiz raqobat nuqtai nazaridan kuzatib boradi, tovar belgisidan insofsiz foydalanish holatlari ma’lum bo‘lganda ushbu insofsiz foydalanayotgan tegishli internet manzili uni egasining ruxsatisiz o‘chirib qo‘yiladi. Bu bilan tovar belgisining shaxsiylashtirish boshqa vositalariga nisbatan ustunligi belgilanadi;

- shaxs nomlari, mualliflik huquqi obyektlarini tovar belgisi sifatida foydalanishdan muhofaza qilish mexanizmini takomillashtirish, bunda firma nomi, xizmat ko‘rsatish belgisi, domen nomi, mualliflik va boshqa tovar belgilari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan nomoddiy obyektlarning o‘zaro nisbatini ko‘rsatish va shunga muvofiq huquqiy himoya tizimini alohida ishlab chiqish lozim. Aytish mumkinki, ushbu masalalarning qonunchilik yechimi Fuqarolik kodeksida belgilanmagan.

Umuman olganda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida tovar belgilari va boshqa shaxsiylashtirish vositalari muomalasini tartibga solish qoidalari takomillashtirmasdan zamonaviy va ishonchga asoslangan erkin bozor munosabatlarini qura olmaymiz. Bu boradagi qonunchilikni qayta ko‘rib chiqishda undagi qoidalarni qo‘llash bilan bog‘liq boshqa qonunlarga havola qiluvchi normalarni qisqartirish, rivojlangan davlatlarning ushbu munosabat bilan bog‘liq qonun normalariga yaqinlashtirish lozim. Chunki tovar belgisi bir hudud doirasida muomalada bo‘lmaydi, balki o‘zi aks etgan moddiy ashyo orqali turli davlatlar bozorlarida oldi-sotdi muomalasida qo‘llaniladi. Bu esa O‘zbekistonning tovar belgilari qonunchiligini xalqaro talablar darajasida takomillashtirish lozimligini anglatadi.

Annotation. This article analyzes the legal status of intellectual property in the Republic of Uzbekistan, particularly regarding the legal regulation of means of individualization and the challenges arising in their circulation. It emphasizes Article 53 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, which guarantees every individual the freedom of scientific, technical, and artistic creativity, as well as the legal protection of intellectual property.

The study highlights how this constitutional norm has gained renewed significance in the context of the rapidly developing digital economy and information society. The article identifies the main issue that the current Civil Code provisions on intellectual property do not comprehensively cover legal relations concerning modern technological intangible assets such as software, mobile applications, digital platforms, and artificial intelligence products. Additionally, the legal models of regulating individualization tools based on public and private law in the legislation of the Russian Federation and other developed countries are analyzed. Within the framework of the «2022–2026 Strategy for the Development of the Intellectual Property Sphere,» the article proposes specific legal reforms and offers recommendations to establish intellectual property as a key foundation of national development.

Key words: intellectual property, means of individualization, trademark, Civil Code, Constitution, Article 53, digital economy, domain name, internet law, WTO, WIPO, strategy.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы правового статуса интеллектуальной собственности в Республике Узбекистан, в частности, правовое регулирование средств индивидуализации и проблемы, возникающие при их введении в гражданский оборот. Отмечается, что статья 53 Конституции Республики Узбекистан гарантирует каждому свободу научного, технического и художественного творчества, а также правовую охрану интеллектуальной собственности. Указывается, что данная конституционная норма приобретает новое содержание в условиях стремительного развития цифровой экономики и информационного общества. В статье подчёркивается, что действующие нормы Гражданского кодекса об интеллектуальной собственности не охватывают в полной мере правовые отношения, связанные с современными нематериальными объектами, такими как программное обеспечение, мобильные приложения, цифровые платформы и продукты искусственного интеллекта. Также проведён сравнительно-правовой анализ моделей регулирования отношений, связанных со средствами индивидуализации, на основе норм публичного и частного права на примере законодательства Российской Федерации и других развитых государств. В рамках «Стратегии развития сферы интеллектуальной собственности на 2022–2026 годы» даны конкретные предложения по совершенствованию законодательства и обоснована необходимость формирования интеллектуальной собственности в качестве правовой основы национального развития.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, средства индивидуализации, товарный знак, Гражданский кодекс, Конституция, статья 53, цифровая экономика, доменное имя, интернет-право, ВТО, ВОИС, стратегия.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 26.04.2022 й., 07/22/221/0357-сон, 23.08.2022 й., 06/22/194/0766-сон; 07.07.2023 й., 06/23/108/0460-сон; 25.05.2024 й., 06/24/80/0364-сон. http://lex.uz/docs/5987120
2. O’Connor T. S. Development of intellectual property laws for the Russian Federation //Journal of Business Research. – 2011. – T. 64. – №. 9. – C. 1011-1016.
3. Vasilyeva N. V., Praskova S. V., Pyatkovskaya Yu V. Constitutional status of federal territories in Russia: theoretical foundations of legislative regulation //Law enforcement. – 2021. – T. 5. – №. 1. – C. 124-140.
4. May R. J., Cooper S. The Constitutional Foundations of Intellectual Property //The Free State Foundation,’Perspectives from FSF Scholars. – 2013. – T. 8. – №. 13.
5. Walterscheid E. C. To promote the progress of science and useful arts: the background and origin of the intellectual property clause of the United States constitution //J. Intell. Prop. L. – 1994. – T. 2. – C. 1.
6. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.04.2019 й., 08/19/5464/2891-сон.

YANGI KONSTITUTSIYA ISLOHOTLARI DAVRIDA IQLIM XAVFLARINI BARTARAF ETISHNING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Nurmatov Mirg‘olib Mirzayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus huquqiy fanlar va harniy diplomatiya kafedrasi boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor

Elov Ashrafjon Asqarjon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
bosh ilmiy xodimi, harbiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Phd)

Annotatsiya. **Maqolada iqlim o‘zgarishi xavfini bartaraf etishning huquqiy asoslarini takomillashtirish va “Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida”gi Qonun loyihasini ishlab chiqishda foydalanish uchun ilmiy taklif sifatida iqlim o‘zgarishini yumshatish va uning oqibatlariga moslashishga oid normalar bayon etildi.**

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, iqlim o‘zgarishi, xavf, norma, moslashish, yumshatish, majburiyat.

Mintaqada iqlim o‘zgarishi xavfi ko‘lamining kengligi, kelgusida iqlim ta’sirlarining faqat oshib borishi prognoz qilinayotgan bir sharoitda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar barqarorligi va natijadorligini ta’minlash, ushbu xavflarni bartaraf etishning tashkiliy asoslari bilan birgalikda huquqiy asoslarini ham rivojlantirishni talab qilmoqda.

Akademik A.Saidov qayd etganidek, Yangi O‘zbekiston hayotining turli sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli, qamrovdor va shiddatli islohotlar natijalarini mustahkamlashda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida boshlab yuborilgan qonun ijodkorligi faoliyati so‘nggi yillarda bu borada olib borilayotgan tizimli islohotlar siyosatining mantiqiy va izchil davomidir [1].

Darhaqiqat, 2025-yil Davlat dasturida “Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida”gi Qonun loyihasini ishlab chiqish belgilangan bo‘lib, unda iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish choralari, shuningdek, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarni iqlim o‘zgarishiga moslashtirish tadbirlarining qonuniy mexanizmlarini mustahkamlash vazifasi qo‘yilgan [2]. Fikrimizcha, iqlim xavfini bartaraf etish zarurati kontekstida “Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida”gi Qonun orqali tartibga solinishi lozim bo‘lgan munosabatlar kengroqdir. Yuqorida qayd etganimizdek, iqlim xavfining keng va chuqurligi, O‘zbekiston sharoitida iqlimga zaif sohalarning ko‘pligi, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar, subyektlarning vazifalari va majburiyatlari, yumshatish va moslashish chora-tadbirlariga oid munosabatlarni to‘liq qamrab olishni talab qiladi.

Shu nuqtai nazaridan, ushbu Qonunning maqsadi iqlim o‘zgarishini yumshatish va uning oqibatlariga moslashish sohasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligini belgilagan holda unda quyidagilarni inobatga olish lozim.

Jumladan, Qonunning **asosiy prinsiplari sifatida** iqlim o‘zgarishini yumshatishda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning ustuvorligi va xalqaro majburiyatlarni bajarish zaruriyati, iqlim o‘zgarishini yumshatish va unga moslashishga oid ma’lumotlarni taqdim etish majburiyligi, shaffofligi va ochiqligi, ushbu sohada yondashuvlarning ilmiy asoslanganligi, tizimliligi va to‘liqligi, jamoatchilik ishtiroki va hamkorligi kabi prinsiplarni belgilash maqsadga muvofiq.

Qonunda iqlim o‘zgarishi sohasida **davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari** sifatida esa 1) iqlim o‘zgarishini doimiy monitoringini tashkil qilish va iqlim o‘zgarishidan erta ogohlantirish tizimini rivojlantirish; 2) iqlim o‘zgarishini yumshatish uchun atmosferaga chiqariladigan issiqxona gazlarini oldini olish, cheklash va yutilishni ta’minlash; 3) iqlim o‘zgarishini yumshatishning moliyaviy mexanizmlarini joriy qilish; 4) iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va mumkin bo‘lgan zararlarni kamaytirish; 5) aholi salomatligi, ekotizim yaxlitligi, biologik xilma-xillik va iqtisodiyot tarmoqlarini iqlim o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan tahdidlardan himoya qilish; 6) iqtisodiyot tarmoqlari va jamiyatning

 ISSN 3030-3230

iqlim o‘zgarishiga moslashuvchanlik qobiliyatini oshirish hamda zaifligini kamaytirish; 7) iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq yuzaga keladigan imkoniyatlardan samarali foydalanish; 8) iqlim bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish; 9) iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlari to‘g‘risida aholi bilim va ko‘nikmalarini oshirish; 10) iqlim o‘zgarishi sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish; 11) iqlim o‘zgarishi sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalarini belgilash lozim.

Iqlim xavflarini bartaraf etishda, xususan iqlim o‘zgarishini yumshatish va uning oqibatlariga moslashishda Vazirlar Mahkamasi, ekologiya, iqtisodiyot va moliya, sog‘liqni saqlash, suv xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi, qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi hamda boshqa vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakolatlari, fuqarolarning huquq va majburiyatlarini belgilash lozim. Masalan, Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasiga iqlim o‘zgarishini yumshatish va uning oqibatlariga moslashish bo‘yicha quyidagilarni yuklash:

– iqlim o‘zgarishi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

– iqlim o‘zgarishini yumshatish va uning oqibatlariga moslashish sohasidagi davlat dasturlarining, hududiy va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish hamda ularning amalga oshirilishini monitoringini yuritish;

– iqlim o‘zgarishini yumshatish va uning oqibatlariga moslashishning Milliy iqlim strategiyasini ishlab chiqish, uning amalga oshirilishi monitoringini yuritish;

– iqlim o‘zgarishi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish va ularni qabul qilish;

– normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining iqlim o‘zgarishiga ta’sirini tahlil qilish va baholash;

– iqlim o‘zgarishining ta’sirlari va xavflarini hamda iqlim o‘zgarishiga zaifliklarni baholashi hamda bu bo‘yicha maxsus ma’ruza tayyorlashi;

– BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasiga muvofiq kengaytirilgan shaffoflik tizimi doirasida milliy miqyosda belgilanadigan hissalar, issiqxona gazlari xatlovi bo‘yicha milliy hisobot, ikki yillik shaffoflik hisoboti, iqlim o‘zgarishi bo‘yicha milliy ma’ruzani ishlab chiqish hamda ularni o‘zaro integratsiya qilgan holda yangilab borish, shuningdek, BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasining vakolatli organi sifatida mazkur hujjatlarni ushbu Konvensiya kotibiyatiga taqdim etish;

– muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish, muhofaza etish, o‘rmon fondini kengaytirish, daraxtzorlarni barpo etish va qayta tiklash chora-tadbirlariga ko‘ra issiqxona gazlari yutilishiga oid ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash;

– iqlim o‘zgarishi ta’sirini yumshatish uchun tabiatga asoslangan yechimlarni amalga oshirish orqali uglerod birliklari savdosidan olingan mablag‘larning milliy benefitsiari hisoblanishi;

– iqlim o‘zgarishi sohasida iqlim xizmatlari va boshqa konsalting xizmatlari ko‘rsatilishini ta’minlash;

– iqlim o‘zgarishiga muvofiqlikni baholash ishlarini tashkil qilish;

– iqlim o‘zgarishini yumshatish va uning oqibatlariga moslashish bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish;

– iqlim o‘zgarishidan kelib chiqadigan imkoniyatlardan samarali foydalanish choralarini ko‘rish;

– iqlim o‘zgarishini yumshatish va uning oqibatlariga moslashish sohasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, ushbu yo‘nalishda chet el investitsiyalarini, shuningdek, xalqaro moliya institutlarining hamda boshqa tashkilotlarning kreditlari va grantlarini jalb etish;

– iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlari to‘g‘risida keng jamoatchilikni xabardor qilish uchun ilmiy-ommabop, tahliliy materiallar tayyorlash, iqlim sohasidagi tadqiqotlar natijalarini keng ommalashtirish” kabi normalarni kiritish maqsadga muvofiq. Shu kabi, iqlimga zaif soha, tarmoq va hududlarga mas’ul vazirlik va idoralarning majburiyatlarini aniqlashtirish lozim.

Ta’kidlash lozimki, Qonunda iqlim o‘zgarishini yumshatish va uning oqibatlariga moslashishning ustuvor yo‘nalishlari hamda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni batafsil keltirib o‘tishni talab qiladi.

Shu sababli, iqlim o‘zgarishini **yumshatishning ustuvor yo‘nalishlari** sifatida 1) issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash; 2) iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish; 3) tabiiy muhitni, o‘rmonlarni va boshqa ekologik tizimlarni muhofaza qilish, ko‘paytirish va qayta tiklash; 4) iqlim o‘zgarishini yumshatishning iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish choralarini belgilash lozim.

Iqlim o‘zgarishi **oqibatlariga moslashishning ustuvor yo‘nalishlari** 1) iqlim o‘zgarishi holatini kuzatish va bashorat qilish; 2) iqlim o‘zgarishiga nisbatan zaiflikni baholash; 3) soha va hududlarning iqlim xavflariga nisbatan zaifligini kamaytirish; 4) moslashish choralarini rejalashtirish va boshqarishning barcha darajalariga integratsiyasini ta’minlash; 5) iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish choralari bajarilishini monitoring qilish va samaradorligini baholash; 6) ekstremal iqlim hodisalari uchun erta ogohlantirish va ularga javob berish tizimini ishlab chiqish; 7) iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavflar haqida jamoatchilik xabardorligini oshirish; 8) iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish choralari samaradorligini baholash asosida rejalarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni qamrab oladi. Ushbu tajriba Serbiyaning “Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida”gi Qonunida keltirilgan [4].

Shuningdek, Qonunda Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi iqlim o‘zgarishi va meteorologik hodisalarni kuzatish, bashorat qilish va undan foydalanish salohiyatini oshirish, issiqxona gazlarining atmosfera tarkibidagi o‘zgarishini doimiy ravishda o‘lchash va o‘rganish uchun meteorologik ma’lumotlarni boshqaruv tizimini joriy etish, iqlim o‘zgarishi ta’sirlarini va unga zaiflikni baholash, aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar kesimida har yili amalga oshirilishi, Ekologiya vazirligi zaiflik milliy hisobotini ishlab chiqishi hamda Iqlim kengashi va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etishiga oid normalarni kiritish lozim.

Iqlim o‘zgarishiga ta’sirlarni baholashda esa 1) alohida loyiha va investitsiya faoliyati doirasidagi iqlim xavfi va ta’sirlarni baholash uchun – iqlim ekspertizasi; 2) davlat siyosati, milliy dasturlar, strategiyalar, konsepsiyalar va hududiy rivojlanish dasturlarining iqlimga ta’sirini kompleks tahlil qilish uchun – strategik iqlimiy baholash; 3) normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarining iqlim o‘zgarishiga ta’sirini baholash uchun – tartibga solish ta’sirini baholash doirasida iqlim o‘zgarishiga ta’sirini baholash shakllarida amalga oshirilishiga oid normalar belgilanishi maqsadga muvofiq.

Bunda, iqlim o‘zgarishlari ta’sirlari va xavflarini hamda iqlim o‘zgarishiga zaifliklarni baholash metodologiyasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi bilan ishlab chiqiladi.

Fikrimizcha, iqlim o‘zgarishiga **zaiflikni baholash** choralari 1) kuzatilayotgan va prognoz qilinayotgan iqlim o‘zgarishi ta’sirini tahlil qilish; 2) iqlimga sezgir sohalarni (energetika, qishloq xo‘jaligi, suv resurslari, sog‘liqni saqlash, infratuzilma, ekotizimlar) aniqlash; 3) moslashuv imkoniyatlari va cheklovlarini tahlil qilish; 4) moslashuv choralari uchun ustuvor yo‘nalishlarni aniqlashni qamrab olishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, Qonunda iqlim o‘zgarishi sohasidagi **ilmiy tadqiqotlarning yo‘nalishlari sifatida** iqlim o‘zgarishi sohasida ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar o‘tkazish; iqlim modellari va prognozlash senariylarini yaratish; innovatsion moslashuv texnologiyalarini ishlab chiqish; xalqaro tadqiqot loyihalarida ishtirok etish orqali amalga oshirilishini qamrab olinishi lozim.

Ekologiya vazirligi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda iqlim o‘zgarishi bo‘yicha milliy bilim platformasini yaratishi va unda ilmiy ma’lumotlar, nashrlar va tadqiqot natijalari kiritilishini ta’minlashiga oid normalarni belgilash kerak. Ushbu tajriba Moldoviyaning “Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida”gi Qonunida keltirilgan [3].

Qonunda iqlim o‘zgarishini yumshatish va uning oqibatlariga moslashish bo‘yicha **hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishga** oid normalarni quyidagicha keltirib o‘tish:

– **Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha milliy ma’ruzada** milliy iqlim sharoitlari va institutsional tizimlar; issiqxona gazlari xatlovi bo‘yicha milliy hisobot; iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan siyosat va chora-tadbirlar; iqlim o‘zgarishining milliy iqtisodiyot, atrof-muhit va aholi hayotiga ta’siri; moliya, texnologiya va salohiyatni oshirish bo‘yicha qabul qilingan yordamlar va milliy ehtiyojlar; ilmiy tadqiqotlar, tizimli kuzatuv, ta’lim va jamoatchilikni xabardor qilishga doir tadbirlar;

– **Issiqxona gazlari xatlovi bo‘yicha milliy hisobotda** milliy sharoitlar, institutsional tizim va umumiy axborot; issiqxona gazlari tashlamalari va yutilishlar tendensiyasi, shu jumladan, energetika, sanoat jarayonlari va mahsulotlardan foydalanish, qishloq xo‘jaligi, yerdan foydalanish, uni o‘zgartirish va o‘rmon xo‘jaligi, chiqindilar va boshqa sohalar kesimida ko‘rsatkichlar; karbonat angidrid va azot oksidining bilvosita tashlamalari; qayta hisob-kitoblar va ijobiy o‘zgarish choralari;

– **Ikki yillik shaffoflik hisobotida** issiqxona gazlari xatlovi bo‘yicha milliy hisobot; milliy miqyosda belgilangan hissalar bajarilishi; iqlim o‘zgarishi sohasidagi davlat siyosati va ushbu

yo‘nalishda amalga oshirilgan chora-tadbirlar; iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari va unga moslashish bo‘yicha amalga oshirilgan choralar to‘g‘risidagi ma’lumotlar; moliyaviy, texnologik va salohiyatni oshirishga doir taqdim etilgan va olingan yordamlar; salohiyatni oshirish ehtiyojlari va takomillashtirish choralari; aholini xabardor qilish, ta’lim, ilmiy-tadqiqot faoliyatlari natijalarini kiritish lozim. Bundan tashqari, Qonunda mazkur sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun belgilangan maqsadlarga qaratilgan xalqaro va mintaqaviy dasturlar, loyihalar va tashabbuslarda ishtirok etadi: issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish; iqlim xavflariga chidamlilikni oshirish; iqlim fanlari va ekologiyasi sohasida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish; institutsional va texnik salohiyatni mustahkamlash; tajriba va ilg‘or texnologiyalarni almashish.

Xulosa qilish mumkinki, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishga oid belgilangan normalarning amalda ijrosini ta’minlashga qaratilgan, iqlim xavflarini bartaraf etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, “Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida”gi Qonun loyihasini ishlab chiqishda yuqorida keltirib o‘tilgan: iqlim o‘zgarishini yumshatish va uning oqibatlariga moslashishga oid munosabatlar, davlat siyosatining yo‘nalishlari, ushbu sohada davlat organlari va subyektlarning vakolat hamda majburiyatlari, yumshatish va moslashishning ustuvor yo‘nalishlari, hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish, xalqaro hamkorlikka oid normalarning belgilanishi iqlim xavflarini bartaraf etishning huquqiy asoslarining takomillashishiga imkoniyat yaratadi.

Аннотация: В статье представлены нормы по смягчению последствий изменения климата и адаптации к его последствиям как научное предложение по совершенствованию правовых основ противодействия рискам изменения климата и для использования при разработке проекта Закона «Об изменении климата».

Ключевые слова: Конституция, изменение климата, риск, норма, адаптация, смягчение последствий, обязательство.

Annotation: The article presents norms for mitigating the effects of climate change and adapting to its consequences as a scientific proposal for improving the legal framework for countering the risks of climate change and for use in the development of the draft Law «On Climate Change».

Key words: Constitution, climate change, environment, norm, adaptation, mitigation, ecology.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov A.X. Hozirgi zamon qonun ijodkorligi: holati va istiqbollari. 07.03.2025 // https://parliament.gov.uz/articles/2158;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi “O‘zbekiston — 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi PF-16-son Farmoni // https://lex.uz/docs/7369703

3. Закон Республики Молдова от 11 апреля 2024 года № 74
“О действиях в области климата” // https://online.zakon.kz/

4. Закон Республики Сербии от 18 марта 2021 года “О климатических изменениях” // https://vreme.com/ru/vreme/

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.11.2024 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 800-son qarori.

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA – PARLAMENTARIZMNI MUSTAHKAMLASH SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING YANGI BOSQICHI

Nuridullayev Asliddin Axrorovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Davlat-huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

Safarov J.I.,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
yuridik fanlar doktori, dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda Harakatlar strategiyasi, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, ularning ijrosi bo‘yicha qabul qilingan 9 ta davlat dasturi asosida yurtimizda parlamentarizmni mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilindi. Tahlillar asosida parlamentarizmni mustahkamlash, Oliy Majlisning davlat va jamiyat hayotidagi rolini oshirish bo‘yicha o‘nta asosiy tendensiya aniqlanib, ularning mazmun-mohiyati yoritib berilgan. Shu bilan birga Yangi O‘zbekiston parlamentining kelajak istiqbollari va parlamentarizmni mustahkamlash bo‘yicha bir qator takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar, parlament, Oliy Majlis, Qonunchilik palatasi, Senat, parlament nazorati, qonun ijodkorligi, parlamentarizm, hududiy vakillik, qonun ijodkorligi, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiluvchi qonun.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha boshlangan keng ko‘lamli islohotlar tizimida siyosiy islohotlar, avvalo, parlamentning davlat va jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash hamda vakolatlarini kengaytirish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan birini tashkil etdi.

Zamonaviy parlamentarizmni barpo etish Harakatlar strategiyasi (2017–2021), Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (2022–2023), “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi (2024–h.v.) kabi mamlakat taraqqiyot yo‘li va yo‘nalishlarini belgilab beruvchi fundamental hujjatlarda ustuvor yo‘nalish va maqsadlardan biri sifatida belgilanganligi ham bu fikrimizni tasdiqlaydi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan **2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi** 5 ta yo‘nalishdan iborat bo‘lib, uning “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan I-ustuvor yo‘nalishning 1-kichik bo‘limi “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish” deb nomlangan.

Unda “davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarini yanada kengaytirish” Harakatlar strategiyasidagi **eng birinchi vazifa** sifatida belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan **2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi** 100 ta maqsadni qamrab oluvchi **7 ta ustuvor yo‘nalishdan** iborat. Mazkur strategiyaning “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” deb nomlanuvchi 1-yo‘nalishining **7-maqsadi** “Mamlakatimizdagi islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish”ni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni bilan tasdiqlangan **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** esa, 100 ta maqsadni qamrab oluvchi 5 ta ustuvor yo‘nalishdan iborat bo‘lib, uning “Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” deb nomlanuvchi 4-yo‘nalishida “Xalq xizmatidagi

 ISSN 3030-3230

davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha islohotlar”ni nazarda tutuvchi 4.1.-kichik yo‘nalish belgilangan.

2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlar esa, parlamentarizmni mustahkamlash sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishda muhim rol o‘ynadi. Xususan, 2023-yil 30-aprelda referendumda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi natijasida siyosiy tizim modernizatsiya qilinib, asosiy davlatchilik institutlari – **Parlament, Prezident, Hukumatning o‘zaro munosabatlari hamda siyosiy hayotdagi o‘rni qaytadan ko‘rib chiqildi,** parlamentarizm kafolatlari sezilarli kuchaytirilib, parlamentning nazorat vakolatlari kengaytirildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, Harakatlar strategiyasi, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2017–2025 yillarda amalga oshirish bo‘yicha har yili qabul qilingan 9 ta davlat dasturlari doirasida parlamentning rolini yanada kuchaytirish bo‘yicha quyidagi asosiy tendensiyalarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

Birinchidan, parlament nazorati ta’sirchanligini oshirilib, uning bir qator yangi shakllari joriy etildi.

Ilk marotaba Hukumat a’zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish (**“Hukumat soati”**), Bosh vazir va hukumat a’zolarining **davlat dasturi** ijrosi bo‘yicha Oliy Majlis palatalari oldida **har chorakda hisobot berish, Hukumat a’zolarini** Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan **tasdiqlash** kabi yangi amaliyotlar joriy etildi.

Senat tomonidan O‘zbekiston Respublikasining **chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlarining** o‘z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitish tartibi joriy etildi. Unga ko‘ra, Senat o‘z majlisida O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlarining o‘z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan hisobotlarini mas’ul qo‘mitada dastlabki tarzda ko‘rib chiqqan holda, ham bevosita, ham videokonferensaloqa rejimida eshitadi. Eshituv yakunlari bo‘yicha qabul qilingan Senat qarori o‘z hisoboti eshitilgan shaxsga hamda Tashqi ishlar vazirligiga yuboriladi.

Ikkinchidan, Qonunchilik palatasi va Senatning, parlamentdagi muxolifatning huquq va vakolatlari kengaytirildi.

Konstitutsiyaviy islohotlar natijasida Qonunchilik palatasining **mutlaq vakolatlari 5 tadan 12 taga, Senatning vakolatlari esa, 14 tadan 18 taga** yetkazildi. Senatning **sud va nazorat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus xizmatlar faoliyati ustidan nazorat** funksiyalari, shu jumladan, Senatning mansabdor shaxslarni lavozimiga saylash jarayonidagi vakolatlari kengaytirildi. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi rahbarligiga nomzodlar avval Senatda ko‘rib chiqilib, keyin Prezident tomonidan tayinlanishi amaliyoti joriy etildi. Eski tartib bo‘yicha Bosh prokuror, Hisob palatasining raisini lavozimiga tayinlash va ozod etish masalasi Prezident farmoniga asosan amalga oshirilgan bo‘lsa, endilikda ular Prezident taqdimnomasiga asosan Senat tomonidan saylanadi.

Yangilangan Konstitutsiyaga muvofiq, maxsus xizmatlar faoliyati ustidan parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida Davlat xavfsizlik xizmati rahbarligiga nomzod **Senat bilan maslahatlashuvlardan** so‘ng Prezident tomonidan lavozimga tayinlanishi belgilandi. Eski tartib bo‘yicha Senat Davlat xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash bilan cheklanardi, ya’ni nomzodni tanlash masalasiga real ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega emas edi.

Shuningdek, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash maqsadida **Sudyalar oliy kengashining barcha a’zolarini Senat tomonidan saylash** tizimi kiritildi (ilgari faqatgina Sudyalar oliy kengashining raisi Senat tomonidan saylanardi).

Bundan tashqari **Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rahbarini** lavozimiga tayinlash to‘g‘risidagi Prezident farmonini tasdiqlash masalasi ham Senatning vakolatiga o‘tkazildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham Senat hududiy vakillik palatasi sifatida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatiga oid **konstitutsiyaviy vakolatlarga** ega bo‘ldi. Xususan, Senat mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga o‘z **faoliyatini amalga oshirishda ko‘maklashish** hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining **qarorlarini**, ular qonunchilik normalariga muvofiq bo‘lmagan taqdirda, **bekor qilish** vakolatlari konstitutsiyaviy darajaga ega bo‘ldi.

Yangilangan Konstitutsiya asosida

Qonunchilik palatasi va Senatga **o‘zini o‘zi tarqatib yuborish vakolati** berildi, ushbu tartibni amalga oshirish uchun tegishlicha deputatlar yoki senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan qaror qabul qilishi lozim bo‘ladi.

Shuningdek, **parlamentda muxolifatning kafolatlangan huquqlari yanada kengaytirilib,** ularning soni **uchtadan oltitaga oshirildi.** Xususan, parlamentdagi muxolifat vakillariga 1 nafar qo‘mita raisi va 2 nafar qo‘mita raisi o‘rinbosari lavozimlariga nomzodlar ko‘rsatish, qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqilguniga qadar o‘sha masalaga doir qonun loyihasining, shuningdek, Qonunchilik palatasi qarori loyihasining muqobil tahririni kiritish hamda har chorakda “Hukumat soati” va parlament so‘rovi doirasida muxolifat tomonidan kamida bittadan masala kiritish kabi qo‘shimcha vakolatlar berildi.

Uchinchidan, ikki palata ishidagi takrorlanishlarni bartaraf etish maqsadida har bir palataning mas’uliyat sohasi aniqlashtirildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan Hukumatni shakllantirish va uning faoliyatini nazorat qilish, Davlat budjeti ijrosiga oid masalalar **Qonunchilik palatasining vakolatiga,** hududlar manfaati va ularni rivojlantirish, yangi vazirliklar tashkil qilish to‘g‘risidagi farmonlarni tasdiqlash masalalari esa **Senat vakolatlari** doirasiga taalluqli ekanligi mustahkamlandi.

Shuningdek, Senat oldiga qo‘yilayotgan yangi vazifalardan kelib chiqib, uni **ixcham, xalqchil va hududlar manfaatini ifoda etadigan idoraga aylantirish** bo‘yicha normalar kiritildi. Xususan, senatorlar soni **100 nafardan 65 nafarga tushirildi,** bunda har bir hududdan teng ravishda 4 tadan senator saylanishi, Prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni esa 16 tadan 9 taga kamaytirildi.

Qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisi lavozimga **2 muddatdan ortiq saylanishi** bo‘yicha cheklov kiritildi.

To‘rtinchidan, Oliy Majlisi palatalarining okruglarda, joylarda ishlarning holatini o‘rganish, xalq bilan muloqot qilishga doir faoliyati takomillashtirildi.

Xususan, 2020-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati huzurida **Yoshlar parlamentlari** tashkil etildi, bu yoshlarning qonun ijodkorligi va parlament faoliyatidagi ishtirokini yanada kengaytirish imkonini berdi. Bunda Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti partiyaviy asoslar bo‘yicha shakllansa, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti mahalliy Kengashlarning saylangan yosh deputatlari orasidan shakllantiriladi.

Aholini tashvishga solayotgan muammolarni tezkorlik bilan hal qilish maqsadida o‘rganilgan masalalar bo‘yicha bevosita joylarga borib, vazirlik va idoralar rahbarlari ishtirokida kengash va qo‘mitalarning **sayyor majlislarini o‘tkazish** tizimi joriy etildi.

“Deputat yordamchisi” instituti joriy etilib, Qonunchilik palatasi deputatlarining **joylardagi jamoatchilik vakillari** sifatida tegishli siyosiy partiya hududiy bo‘limlarining vakillari biriktirib qo‘yildi. 2021 yil dekabr oyidan boshlab, Qonunchilik palatasi va Senat majlislarini **jonli efir** orqali namoyish qilish amaliyoti joriy etildi.

Qonunchilik palatasi deputatlariga o‘zlari saylangan hudud bo‘yicha kelgusi yil uchun mo‘ljallangan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlariga kiritiladigan **investitsiya loyihalarining shakllantirilishi** yuzasidan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari majlislaridagi muhokamalarda o‘z taklif va tavsiyalari bilan ishtirok etish imkoniyati berildi.

Beshinchidan, Oliy Majlis palatalarining mamlakatning ichki siyosatining turli yo‘nalishlari bo‘yicha muhim vazifalarni hal etishdagi vakolatlari kengaytirildi.

Xususan, Senat Raisi boshchiligida 4 ta respublika komissiyasi – Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashi, Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha milliy komissiya, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi, Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiya faoliyat ko‘rsatadi.

Qonunchilik palatasida esa, Qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg‘unlashtirish bo‘yicha komissiya, Iqlim o‘zgarishi oqibatlarini kamaytirish va “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish masalalari bo‘yicha komissiya, Fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasida belgilangan asosiy vazifalarning bajarilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha parlament komissiyasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Oliy Majlis palata huzurida Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘larini boshqarish bo‘yicha hamda O‘zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish

sohasidagi Milliy maqsadlar va vazifalarning 2030-yilgacha bo‘lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish bo‘yicha parlament komissiyalari ham faoliyat ko‘rsatadi. Bu ham ushbu yo‘nalishlarni rivojlantirish va isloh etishda parlament roli va ishtiroki kengayib borayotganidan dalolat beradi.

O‘tgan davrda amalga oshirilgan islohotlardan kelib chiqib, kelgusida parlamentning davlat va jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash bo‘yicha islohotlar izchil davom etishi haqida xulosaga kelish mumkin.

Ta’kidlash lozimki, parlamentning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatishi ham, nufuzi va obro‘si ham, avvalo, u qabul qiladigan qonunlarga bog‘liq. Ya’ni, **parlamentning asosiy quroli bu – qonun.** Shunga ko‘ra, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda qonunlarning ulushini oshirmay turib, parlamentning rolini oshirib bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, qonunlarning roli va parlament roli uzviy bog‘liqlikda rivojlanadi, biri ikkinchisisiz rivojlana olmaydi.

Shu bois, *birinchidan,* huquqiy tartibga solishda qonunlarning ulushini oshirib borishimiz lozim. Hozirgi kunda (2025 yil avgust) normativ-huquqiy hujjatlar fondi **26 mingdan ortiq** yaxlit hujjatni tashkil qilsa, ularning ichidan **1 487 tasi** qonun, ya’ni huquqiy tartibga solishda qonunlar ulushi **6 foizga** ham yetmayapti. Masalan, taqqoslash uchun idoraviy hujjatlar bilan tartibga solish ulushi **33 foizni**, qonunosti hujjat bilan tartibga solish ulushi esa, **43 foizni** tashkil etmoqda.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining **80-maqsadi** sifatida “To‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish, ularning ulushini kamida 60 foizga yetkazish” va “Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning aniq chegaralarini belgilash orqali ularning sonini keskin qisqartirish” kabilar belgilangan.

Shu bois ushbu strategik maqsadga erishish uchun yillar kesimida aniq maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilab olish maqsadida **har yili** soha va tarmoqlardagi qonun va qonunosti hujjatlarni tizimlashtirish orqali **to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlaydigan qonunlarni ishlab chiqish bo‘yicha reja** tasdiqlashni taklif etamiz.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yilning 19 fevraldagi “Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–75-son qarorida **qonun kuchga kirgan kundan boshlab besh yil o‘tib,** mas’ul davlat organi va Oliy Majlis palatalarining qo‘mitalari tomonidan qonunning samaradorligini, maqsadi va kutilgan natijalariga erishilganligini aniqlash uchun uning **tartibga solish ta’sirini baholash amaliyoti** joriy etilgan edi.

Lekin, o‘tgan davrda ushbu amaliyot ishlamadi, shu bois, mazkur tartibni **amalga oshirish mexanizmlarini nazarda tutgan holda qonuniy asoslarini** yaratishni taklif etamiz. Shu maqsadda, qonunlar amalda qay darajada qo‘llanilayotgani, qo‘yilgan maqsadga erishilgani, o‘zgartirishga zarurat mavjudligi nuqtayi nazaridan o‘rganish funksiyasini **parlament nazorati shakllaridan biri sifatida belgilash** taklif etiladi.

Bunda qonun kuchga kirgach 5 yil o‘tib, uning ta’sirini baholash haqida parlament palatalari yoki qo‘mitalari tomonidan qaror qabul qilinadi, qo‘mitada qonun ta’sir qilgan manfaatdor shaxslar (guruhlar, qatlamlar) ishtirokida ochiq muhokama va eshituvlar o‘tkaziladi hamda mas’ul vazirlikning hisoboti ko‘rib chiqiladi, qo‘mita tomonidan tahlillardan kelib chiqib, xulosa tayyorlanadi, zaruratga ko‘ra, qonun hujjatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida loyiha ishlab chiqiladi.

Masalan, **Buyuk Britaniyada** 2008-yildan buyon Parlamentning tegishli qo‘mitalari qonunlar ijrosini nazorat tartibida o‘rganadi (post legislative scrutiny). Mas’ul vazirlik qonun kuchga kirganidan 3-5 yil o‘tib, Parlamentga qonunning qo‘llanilishi bo‘yicha hisobot taqdim etadi.

Uchinchidan, parlament vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha **qonunosti hujjatlar qabul qilish amaliyotiga** barham berish zarur. Masalan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada qonun bilan belgilanishi lozim bo‘lgan **30 dan** ziyod masalalar belgilangan bo‘lib, ularning ayrimlari aniq masalalarga tegishli bo‘lsa, boshqalari keng doiradagi munosabatlarni qamrab oladi.

Masalan, davlat ramzlari, referendum o‘tkazish tartibi, fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari hamda tartibi, jazoga tortish, mol-mulkdan yoki biron-bir huquqdan mahrum etish asoslari, insonning huquq va erkinliklarini cheklash, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi, davlat xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar, bank operatsiyalari, omonatlar va hisobvaraqlarning sir tutilishi, meros huquqi,

aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta’minlash tartibi, intellektual mulk, soliqlar va yig‘imlar, monopol faoliyat, deputatlikka nomzodlarga talablar, davlat hokimiyati organlarining tizimi va vakolatlari, bojxona, valuta va kredit ishlari, ma’muriy-hududiy tuzilish, qonun loyihalarini, qonunchilik takliflarini kiritish va ko‘rib chiqish tartibi, Prezidentni saylash tartibi, Prezident shaxsi daxlsizligi, favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi, Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi, mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi, Kengashlar va hokimlarning faoliyatini tashkil etish tartibi, saylov o‘tkazish tartibi, sud tizimi va sudlar faoliyatining tartibi, Konstitutsiyaviy sudni, Sudyalar oliy kengashini, advokaturani, prokuraturani tashkil etish va ularning faoliyati tartibi, Markaziy bankning faoliyati tartibi, Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish, fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining budjet jarayonida ishtirok etishi tartibi va shakllari qonunlar bilan belgilanishi lozim.

Lekin, tahlillar Konstitutsiyaga muvofiq, qonun bilan tartibga solinishi lozim bo‘lgan ayrim masalalar hali ham qonunosti va idoraviy hujjatlar bilan tartibga solinayotganligini ko‘rsatmoqda. Xususan, yig‘imlarni joriy etish va inson huquqlarini cheklovchi qoidalar qonunosti va idoraviy hujjatlarda ko‘plab uchraydi. Masalan, qonunosti hujjatlarda belgilangan barcha **yig‘imlarni**, **imtiyoz, subsidiya, preferensiyalarni** yagona qonun hujjatiga birlashtirish zarurati mavjud.

Shu bois, parlament huzurida **maxsus komissiya** tashkil etib, qonunosti va idoraviy hujjatlarni to‘liq xatlovdan o‘tkazib, ulardagi **inson huquqlarini cheklovchi normalarni qonun darajasiga ko‘tarish yoki bekor qilish** bo‘yicha dastur ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, yangilangan Konstitutsiya mamlakatimiz taraqqiyotining, shu jumladan, parlamentarizm rivojida yangi sahifani ochib berdi va bu yaqin, o‘rta va uzoq istiqbolda mamlakatni va davlatchilikni barqaror rivojlantirish uchun muhim poydevor bo‘ldi. Shu ma’noda kelgusida yangilangan Konstitutsiyaning normalarini so‘zsiz amalga oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni uzluksiz davom ettirib borish lozim.

Аннотация. В данной статье проанализированы реформы, направленные на укрепление парламентаризма в Узбекистане на основе новой редакции Конституции Республики Узбекистан, а также стратегических документов – Стратегии действий, Стратегии развития «Новый Узбекистан» и Стратегии «Узбекистан – 2030», включая девять государственных программ, принятых для их реализации. На основе проведённого анализа определены десять ключевых тенденций укрепления парламентаризма и повышения роли Олий Мажлиса в государственно-общественной жизни, раскрыто их содержание и значимость. Кроме того, в статье представлены предложения по перспективному развитию парламента Нового Узбекистана и дальнейшему укреплению института парламентаризма.

Ключевые слова: конституционно-правовые реформы, парламент, Олий Мажлис, Законодательная палата, Сенат, парламентский контроль, законотворчество, парламентаризм, территориальное представительство, правотворчество, закон прямого действия.

Annotation. This article analyzes the reforms carried out to strengthen parliamentarism in Uzbekistan based on the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Strategy of Actions, the Development Strategy of New Uzbekistan, and the “Uzbekistan – 2030” Strategy, along with nine state programs adopted for their implementation. Based on the conducted research, ten major trends in the consolidation of parliamentarism and the enhancement of the role of the Oliy Majlis in state and public life have been identified and their essence has been revealed. The article also proposes forecasts regarding the future development of the Parliament of New Uzbekistan and presents a range of recommendations aimed at further strengthening parliamentarism.

Key words: constitutional-legal reforms, parliament, Oliy Majlis, Legislative Chamber, Senate, parliamentary oversight, lawmaking, parliamentarism, territorial representation, legislative drafting, direct-action law.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF–4947-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF–60-sonli Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF–158-sonli Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son
5. Norboboev B.J. Konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyati // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Vol. 3 (4). – B.862-863.
6. Ismoilov N.M. Milliy parlamentarizmning taraqqiyot sari odimlari // Strategy of Uzbekistan. – 2021. – №03. – B.6-15.
7. Safarov Dj.I. Reforma verxney palatы parlamenta Respubliki Uzbekistan v sovremennых konstitutsionno-pravovых usloviyax: komparativno-pravovoy analiz osnovnых tendensiy // Gosudarstvo i pravo. – Moskva, 2024. – №6. – S.137-144.
8. Saidov A.X. Yangi O‘zbekiston hamda konstitutsiyaviy islohotlar // The Constitution of the Republic of Uzbekistan is the Glorification of Human Dignity, the Guarantee of Our Free and Prosperous Life: Republican Scientific and Practical Conference. – Toshkent, 2022. – B.6.
9. Mamajonova D. Konstitutsiyaviy islohotlar – xalq manfaatining asosiy mezoni // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Vol. 2 (10). – B. 690.
10. Polvonov Sh. Konstitutsiyaviy islohotlar: Senat vakolatlari kengayadi // “Adolat” ijtimoiy-siyosiy gazetasi – https://adolat24.uz/?p=24843

KONSTITUTSIYA – INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFOLATI

Tursunov Burxon Saydaxmatovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
kafedra boshlig‘i, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Sog‘inov Nurmat Abdusamatovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda insonning huquq va erkinliklarini ta’minlashda Konstitutsiya asosiy qonun ekanligi, insonning huquq va erkinliklarini ta’minlashda Konstitutsiya muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan. Shu bilan birga yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari mazmunini bevosita ochib beruvchi 3 baravardan ortiqroq yangi normalar kiritilganligi, har qanday davlat organining, har qanday mansabdor shaxsning faoliyati inson manfaatlariga bo‘ysundirilganligi yoritilgan. Davlat bevosita inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlashi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi, Konstitutsiya, qonun, inson, huquq, davlat, mansabdor shaxs, faoliyat, inson manfaati, huquq, ijtimoiy himoya, xalqimiz, ijtimoiy ongi, madaniyat, pirovard maqsad, davlat siyosati, ustuvor yo‘nalish, inson manfaatlari, erkinliklari, ta’minlash.

Ma’lumki 2023-yilning 30-aprel kuni “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo‘yicha bo‘lib o‘tgan Referendum asosida yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasi jahondagi yirik siyosatshunoslar, ekspertlar tomonidan xalqaro me’yorlarga to‘la javob beradigan mukammal hujjat sifatida tan olindi.

Tarixan e’tibor qaratadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi MDH davlatlar orasidan birinchilardan bo‘lib qabul qilingan Konstitutsiya hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1990-yil 20-iyunda bo‘lgan ikkinchi sessiyasida mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilindi. Dekloratsiyada O‘zbekistonning davlat mustaqilligi e’lon qilindi. 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida Qonun qabul qilindi. Bunda Mustaqillik Deklaratsiyasi va Bayonot asos bo‘lib xizmat qildi. Mazkur hujjatda O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida qo‘ygan ilk qadamlarining huquqiy asosi yaratildi. Mazkur qonunning yutuqlaridan biri birinchi marta O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi joriy etildi. Ushbu qonunda O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millatidan qat’iy nazar bir hil fuqarolik huquqlariga egaligi hamda ularning Respublika Konstitutsiyasi va Qonunlari himoyasida bo‘lishi qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n ikkinchi chaqiriq, o‘n birinchi sessiyasida (1992-yil, 8-dekabr) huquqiy va ahamiyatga molik xujjat- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya inson huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, iqtisodiyotda, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda va ma’naviy hayotda chuqur islohotlar o‘tkazish uchun puxta huquqiy poydevor yaratildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari mazmunini bevosita ochib beruvchi 3 baravardan ortiqroq yangi normalar kiritildi. Uning muqaddimasidan tortib, yakunlovchi qoidalariga qadar inson to‘g‘risida, uning farovonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik g‘oyalari singdirilgan. Har qanday davlat organining, har qanday mansabdor shaxsning faoliyati inson manfaatlariga bo‘ysundiriladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida “O‘zbekiston — boshqaruvning Respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”, deb qayd etildi [1].

O‘zbekiston xalqining irodasini aks ettirgan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasidagi barcha oliy maqsadlarga erishish uchun bugun O‘zbekiston davlatchiligi oldiga ulkan va murakkab vazifalar qo‘yilgan. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi hamda davlat organlari va mansabdor

ISSN 3030-3230

shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’ulligi alohida belgilangan.

Avvalo, inson, uning haq-huquqlari va baxt saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadi bo‘lishi lozim. Jamiyat qurilishi va davlat siyosati ana shu g‘oyaga tayanishi hamda “Davlat - inson uchun” tamoyili asosida tashkil etilishi darkor. Mazkur tamoyilga amal qilish esa, insonni va uning manfaatlarini davlat siyosati va islohotlarining asosiy mezoniga aylantirish lozimligidan dalolat beradi. Bu nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda mazkur islohotlarning eng demokratik tamoyillarga mosligi, ularning pirovard maqsadi va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi inson manfaatlari, haq huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga qaratilganining e’tirof etilishiga sabab bo‘lmoqda [2].

1948-yil 10-dekabr kuni qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq, har bir inson jamiyat a’zosi sifatida milliy kuch harakatlar hamda xalqaro hamkorlik vositasida va har bir davlatning tuzilishi, shuningdek, resurslariga muvofiq ijtimoiy ta’minotga va o‘zining qadr-qimmatini saqlash, shaxsning erkin rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi huquqini amalga oshirishga haqlidir.[3]

Konstitutsiyaviy huquqning manbalari yuridik adabiyotda ikki ma’noda talqin qilinadi: birinchisi – Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni yuzaga keltiruvchi kuch, ya’ni muayyan siyosiy irodani o‘zida mujassam etgan davlat hokimiyati, ikkinchisi – mazkur normalarni ifodalovchi turli shakllardagi normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, fuqarolarga munosib turmush sharoitini yaratish, millatlararo totuvlikni ta’minlash va rivojlantirish, hokimiyat tizimini demokratlashtirish va fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga aylanib, “inson qadri uchun”[4] degan ulug‘ tushuncha markaziy o‘ringa qo‘yildi.

Har bir insonning huquq va erkinliklari davlat tomonidan ta’minlanadi. Inson huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, har qanday tashkilot va fuqarolarning qonun buzilish holatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqlari mavjud bo‘lib, ayrim holatlarda ularga nisbatan ko‘rilgan jazo choralari yuzasidan himoyalanishlari mumkin.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi raisi A.Saidov o‘zining nutqida “O‘zbekistonda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalari ustunligi konstitutsiyaviy asosda e’tirof etiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz inson huquqlari bo‘yicha 70 dan ziyod xalqaro hujjatlar, xususan, BMT tomonidan inson huquqlari bo‘yicha qabul qilingan 10 ta majburiy xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilib, o‘zining xalqaro majburiyatlarini muntazam ravishda bajarib kelmoqda” [5] – deb to‘xtalib o‘tdi.

Konstitutsiyada O‘zbekistonni huquqiy davlat ekanligini alohida belgilash – davlat o‘z faoliyatini, jamiyat va fuqarolar yashash tarzini faqat Konstitutsiya va qonun hujjatlari asosidagina amalga oshirilishini ta’minlaydi. Pirovardida, davlat organlari va mansabdor shaxslar qonun ustuvorligi asosida xalq manfaatlari uchun ishlaydi, unga xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasiga ko‘ra[1], Davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari har kimga o‘z huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta’minlashi shart. Bunday ma’lumotlarni taqdim etishdan bosh tortish jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi [6].

Fuqarolarning o‘z konstitutsiyaviy huquqidan foydalanishi uchun barcha axborot resurslarini ro‘yxatga olish va ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni e’lon qilish O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunida nazarda tutilgan[7]. Qonunda hujjatlashtirilgan ma’lumotlarning egasi u tegishli bo‘lgan shaxslarning iltimosiga binoan uni bepul taqdim etishi shart .

Aytish joizki, inson huquqlari oliy qadriyat deb belgilangan Konstitutsiyamizda davlat ham, jamiyat ham, avvalo inson manfaatlariga xizmat qilishi, uning haq-huquqlarini himoya etishi ustuvor tamoyil sifatida belgilandi. Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari Konstitutsiya himoyasida o‘zaro hamjihatlik va totuvlikda yashab mehnat qilmoqda. Ularning o‘z tili, milliy an’ana va urf-odatlarini davom ettirishlari, O‘zbekiston fuqarosi sifatida emin-erkin yashashlari Konstitutsiya bilan kafolatlandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada “davlat – jamiyat – inson” tamoyilini “inson – jamiyat – davlat” deb o‘zgartirilishi O‘zbekistonda inson manfaati har narsadan ustun ekanligini bildiradi.

Mamlakatimizda avvalo inson, keyin esa, jamiyat va davlat manfaati barcha harakatlarimizning negiziga qo‘yildi. Hayotimizda “Davlat – insonlar uchun” degan xalqchil g‘oya izchillik bilan qaror topib bormoqda. Jamiyatimizda demokratik tamoyillar, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda”.

Xulosa qilib aytganda, Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada “davlat – jamiyat – inson” tamoyilini “inson – jamiyat – davlat” deb o‘zgartirilishi fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini ta’minlash, fuqarolarga munosib turmush sharoitini yaratish, millatlararo totuvlikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga aylanib, “inson qadri uchun” degan ulug‘ tushuncha markaziy o‘ringa qo‘yildi. Amalga oshirilayotgan islohotlar O‘zbekistonda inson manfaati har narsadan ustun ekanligini bildiradi. Muxtasar aytganda, inson huquqlariga oid xalqaro prinsip va standartlarni o‘zida mujassam etgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari va prinsiplari milliy qonunchilik negizini tashkil etdi hamda yurtimizda inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilishning barqaror huquqiy asoslarini yaratishda mustahkam poydevor bo‘ldi.

Аннотация. В данной статье освещается, что Конституция является основным законом в Узбекистане в обеспечении прав и свобод человека, что Конституция играет важную роль в обеспечении прав и свобод человека. В то же время Конституция в новой редакции предусматривает введение более чем в 3 раза новых норм, непосредственно раскрывающих содержание прав и свобод человека и гражданина, что деятельность любого государственного органа, любого должностного лица подчиняется интересам человека. Государство непосредственно обеспечивает права и свободы человека и гражданина, закрепленные в Конституции и законах.

Ключевые слова: Республика Узбекистан, Конституция, закон, Человек, право, государство, должностное лицо, деятельность, интересы человека, право, Социальная защита, наш народ, общественное сознание, культура, конечная цель, государственная политика, приоритет, интересы человека, права, свободы, обеспечение.

Anotation. This article highlights the fact that the Constitution is the main law in ensuring human rights and freedoms in Uzbekistan, and that the Constitution plays an important role in ensuring human rights and freedoms. At the same time, the Kosntitutsion in the new edition covered the introduction of more than 3 times new norms that directly reveal the content of the rights and freedoms of Man and citizens, the activities of any state body, any official are subordinated to human interests. It is stated that the state directly provides for the rights and freedoms of a person and a citizen, enshrined in the Constitution and laws.

Key words: Republic of Uzbekistan, Constitution, Law, Human, law, state, official, activity, Human Interest, Law, Social Protection, our people, social consciousness, culture, ultimate goal, public policy, priority, human interests, rights, freedoms, provision.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T., “O‘zbekiston” NMIU. 2023 – B.1-2.
2. Ш.М.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент “O‘zbekiston”, 2021. – 464 бет.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948 yil 10 dekabr // https://constitution.uz/uz/pages/humanrights
4. Sh.M.Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz / Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi. 06.11.2021. // www.president.uz
5. Саидов А.Х. Инсон ҳуқуқларини таъминлаш — бош мақсадимиз // https://constitution.uz/uz/pages/maqola
6.Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. https://www.lex.uz/acts/111453.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonuni. https://lex.uz/docs/-1106870

GIYOHVANDLIK: MOHIYATI, TURLARI VA NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI GIYOHVANDLIKNI ANIQLASH UCHUN TASHXIS BELGILARI

Nizametdinxodjayev Ulugbek Ruslanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Payziyev Abbos Muxammadovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. **Ushbu maqolada giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar hamda kuchli ta’sir qiluvchi dorilarning mohiyati, turlari va namoyon bo‘lish xususiyatlari giyohvandlikni aniqlash uchun tashxis belgilari ko‘rib chiqilgan, shuningdek, giyohvandlik bilan bog‘liq kasallikni aniqlashda ota-onalar va maktab o‘qituvchilariga tavsiyalar to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.**

Kalit so‘zlar: Profilaktik, metamfetamin, preparat, ekspert, qaramlik, Gallyutsinogen, Afyun, o‘tish davri, psixopatologiya, Surunkali, eyforiya, Geroin.

Bugungi kunda jamiyat uchun jiddiy xavf solayotgan muammolardan biri — bu giyohvandlikdir. Giyohvand moddalardan foydalanish faqatgina shaxsiy sog‘liqqa zarar yetkazish bilan cheklanib qolmasdan, oila, jamiyat va butun mamlakat kelajagiga ham tahdid soladi. Bu illat har qanday yoshdagi insonlarni o‘z domiga torta olishi, uning turli shakl va ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi, ayniqsa, yoshlar orasida tarqalishi holatning yanada xavfliligini ko‘rsatadi. Giyohvandlik faqat biologik emas, balki ruhiy va ijtimoiy kasallik sifatida ham qaraladi. Uning mohiyatini tushunish, turlarini farqlash va qanday belgilar orqali erta aniqlash mumkinligini bilish nafaqat tibbiy, balki profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ushbu maqolada giyohvandlikning mohiyati, turlari, uning inson xulq-atvorida namoyon bo‘lish xususiyatlari hamda tashxis belgilarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratiladi.

Giyohvandlik - bu o‘simlik yoki sintetik kelib chiqishi bo‘lgan har qanday modda bo‘lib, u organizmga kiritilganda uning bir yoki bir nechta funksiyalarini o‘zgartirishi mumkin va takroriy ta’sir qilish natijasida aqliy yoki jismoniy bog‘liqliklar vujudga keladi.

Giyohvand moddalar deb, insonning ongini o‘zgartiruvchi, his-tuyg‘ularini sun’iy ravishda yangilaydigan va shu orqali vaqtinchalik “rohat” beruvchi kimyoviy moddalarga aytiladi. Ularga geroin, kokain, opiy, gashish, metamfetamin, ekstazi, LSD kabi moddalar kiradi.

Giyohvandlik inson organizmiga juda tez va chuqur ta’sir qilib, avval ruhiy qaramlik, so‘ng jismoniy qaramlikni keltirib chiqaradi. Bu holatda inson moddasiz yashay olmaydigan darajaga yetadi, uni doimiy ravishda iste’mol qilishga muhtoj bo‘ladi. Bir marta iste’mol qilinadigan giyohvand modda ham miyada qaytarib bo‘lmas o‘zgarishlarni boshlab yuborishi mumkin.

Giyohvandlikning kelib chiqishiga turli omillar sabab bo‘ladi: oilaviy muammolar, ruhiy tushkunlik, atrof-muhit ta’siri, do‘stlar bosimi, qiziquvchanlik, yoshlikdagi noo‘rin eksperimentlar va hokazo. Shuningdek, insonda ichki bo‘shliqni to‘ldirish ehtiyoji, o‘zini tasdiqlashga bo‘lgan urinish ham bunda muhim rol o‘ynaydi.

Giyohvandlik, bu faqat bir shaxsning emas, balki jamiyatning umumiy muammosidir. U nafaqat sog‘liqni, balki oilaviy munosabatlar, mehnat qobiliyati, ta’lim jarayoni va iqtisodiy barqarorlikka ham zarar yetkazadi. Shu bois, uning mohiyatini to‘liq anglash va uning oldini olish bo‘yicha aniq choralar ko‘rish jamiyatning har bir a’zosi uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Giyohvandlik muammosi juda ko‘p qirrali bo‘lib, inson salomatligi bilan bir qatorda ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy va madaniy sohalarni ham qamrab oladi. Zamonaviy ma’lumotlarga asoslanib, giyohvandlik yagona kasallik emas, balki so‘zning keng ma’nosida umumiy birlashtirilgan turli diagnostik holatlar to‘plamidir. Bu holatlar bir-biridan dori turi, etimologik omilning roli bilan ham, klinik ko‘rinishi, giyohvandlik turi va yakuniy natijasi bo‘yicha ham farqlanadi. JSST ekspertlar guruhi giyohvandlikni “preparatni takroran qo‘llash natijasida yuzaga keladigan

epizodik yoki surunkali zaharlanish holati” deb ta’riflagan. JSST ekspert qo‘mitasi kasallik sifatida giyohvandlikning ikki turini ajratadi: qaramlik va o‘rganib qolish. JSST ekspert qo‘mitasi kasallik sifatida giyohvandlikning ikki turini ajratadi: qaramlik va o‘rganib qolish.

Qaramlik quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- preparatni qabul qilishni davom ettirishga kuchli istak yoki chidab bo‘lmas

ehtiyoj (og‘riqli holat), shuningdek uni har qanday narxda olishga urinish;

- qaramlik rivojlanishi bilan dozani oshirish tendensiyasi;

- giyohvand moddalar ta’siriga aqliy (psixologik yoki hissiy) qaramlik;

- shaxs va jamiyat uchun halokatli oqibatlar.

O‘rganib qolish quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- kayfiyatni yaxshilash uchun preparatni qabul qilishni davom ettirish istagi

(lekin chidab bo‘lmas og‘riqli holat emas);

- dozani oshirish tendensiyasi kam yoki umuman yo‘q;

- dori ta’siriga ma’lum darajada psixologik bog‘liqlik, lekin jismoniy qaramlik yo‘q, qutilib ketish belgilarining yo‘qligini bildiradi;

- salbiy oqibatlar, agar ular yuzaga kelsa, faqat giyohvandning shaxsiyatiga ta’sir qiladi.

Ko‘rib turganimizdek, giyohvandlik hamma uchun qo‘llaniladigan umumiy atamadir. Biroq, professional tibbiy terminologiyada aniq farq bo‘lishi kerak; bu yerda qaramlikning bir necha turlari ajratiladi:

1. Spirtli ichimliklar turi: barcha spirtli ichimliklar;

2. Amfetamin turi: amfetamin, deksamfetamin, metamfetamin metilfenidan va fenmetrazin;

3. Barbituratlar turi: barbituratlar, asosan, qisqa ta’sirli va ba’zi sedativlar, masalan, xloralgidrat, diazepam, meprobamat, metakalon;

4. Kannabinol turi: hind kanopi preparatlari, marixuana (bhang, dagga, kif, makonga) va gashish (ganja, charas);

5. Kokain turi: kokain va koka barglari;

6. Gallyutsinogen tip-. LSD, DMT, meskalin, psilotsibin, STP;

7. Katu turi: o‘simlik preparatlari;

8. Afyun turi: afyun, morfin, geroin, kodein; morfinga o‘xshash xususiyatlarga ega sintetik preparatlar, masalan, metadon (geptadon) va pethidine;

9. Erituvchilarning turi: aseton, benzin, uglerod tetraklorid va ba’zi anestetiklar, masalan, efir, xloroform va azot oksidi (kulgan gaz).

Giyohvandlik diagnostikasi - giyohvandlikka tibbiy yondashuvda diagnostika juda muhim rol o‘ynaydi. Ko‘pincha davolanishning yakuniy natijasi va bemorning taqdiri uning to‘g‘riligiga bog‘liq. Keling, giyohvandlikning diagnostik mezonlariga to‘xtalib o‘tamiz. Giyohvandlik tashxisi quyidagilarga bog‘liq ko‘p omillar va uni qo‘yish har doim ham oson emas.

Asosiy mezonlar:

1. Xulq-atvorning buzilishi;

2. Giyohvandlikning ma’lum turlarining klinik ko‘rinishi;

3. Jismoniy holat;

4. O‘rnatishga qaratilgan klinik tadqiqotlar bog‘liqliklar;

5. Laboratoriya tekshiruvlari.

Giyohvandlik vositalariga ruju qo‘ygan o‘quvchilar darslarga uzrli sabablarsiz qatnashmaydi. Oxir-oqibat u maktabdan haydaladi yoki o‘zi maktabni tashlab ketishgacha boradi. Ota-onalarini tinchlantirish uchun maktabdagi ta’lim sifati va boshqa muammolarni vaj keltirib ularni aldab maktabga borishdan bosh tartishi mumkin.

Ota-onalar bilan nizolar. Ota-onalar bilan nizolar tez-tez sodir bo‘ladi. Avvaliga ular bir necha soat davom etadigan munozaralar ko‘rinishida bo‘lib, ularning asosiy mavzusi keksalar tomonidan yoshlarni va ularning ehtiyojlarini tushunmasliklari va boshqa shu kabi muammolar yuzaga keladi. O‘zining giyohvandligini yashirish uchun turli xil yolg‘onlarni ishlatadi.

Yolg‘on gapirish giyohvandning o‘ziga xos hayot tarziga aylanadi. U har qanday imkoniyatda yolg‘on gapiradi. Ota-onalarni, o‘qituvchilarni, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini, shifokorlarni aldaydi. Keyinchalik yolg‘on gapirishga bo‘lgan ehtiyoj funksional mustaqil motivga aylanadi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlar so‘zsiz ishonadigan, ezgu niyatlariga avval bir necha bor ishonch hosil qilgan insonlar oldidagina samimiy bo‘la oladi. Agar bu odam shifokor bo‘lsa, unda, shubhasiz, bu davolanish jarayonida juda yaxshi qo‘l keladi. Ba’zi ota-onalar farzandlarining xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni “o‘tish davri” deb tushuntirishga harakat qilishadi va passiv ravishda uning o‘tishini kutishadi. Afsuski, bunday o‘z-o‘zini aldash ko‘pincha qimmatga tushadi.

Maktab o‘quvchilari orasida iste’mol. Maktab o‘quvchilarining iste’molining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularning o‘quv faoliyati birdaniga pasayib ketadi. Yaqin vaqtgacha yaxshi bo‘lgan o‘quvchi to‘satdan qoniqarsiz baho ola boshlaydi, darslarni tez-tez tashlab ketadi, darsda o‘zini g‘ayritabiiy tuta boshlaydi, hech narsaga qiziqish bildirmaydi. Yomon baholar uni unchalik

ISSN 3030-3230

bezovta qilmaydi. Ba’zida o‘z sinfdoshlariga nisbatan ham salbiy munosabat shakllanishi, bunday vaziyatlar o‘z vaqtida aniqlash choralari ko‘rilmasa, sinfdagi boshqa boyroq o‘quvchilarni ham jalb qilishi mumkin.

Giyohvand moddalarga va boshqa turmush tarziga qaramlik jarayoni haftalar, oylar va hatto yillar davomida asta-sekin rivojlanadi, shuning uchun odamning giyohvandlikka chalinganligini aniqlash qiyin. Ammo giyohvandlik paydo bo‘lishi uchun vaqt kerak bo‘lishiga qaramay, giyohvandning hayoti bu sodir bo‘lganda keskin o‘zgaradi.

Giyohvand moddalar psixopatologiyasining turlari: Marixuana chekish: yoshlar orasida keng tarqalayotgani va mashhurligi tufayli, giyohvandlik mavzusini aynan shu moddadan boshlash maqsadga muvofiq. Marixuana iste’mol qiluvchilar orasida muayyan tipologik farqlar kuzatiladi.

1. Surunkali eyforiya izlovchi chekuvchi: Bu turdagi marixuana chekuvchi - yakka holda iste’mol qiladigan shaxs bo‘lib, u asosan shaxsiy tajriba va hissiy o‘zgarishlarni izlaydi. U marixuana orqali eyforiya (kayfiyatni yuqori darajada his qilish) holatiga erishishga intiladi va bu ehtiyoj uning shaxsiy ichki istaklari bilan bog‘liq bo‘ladi. U moddaning noxush ta’sirlarini inkor etmaydi, lekin bu holatlarni o‘z shaxsiy xususiyatlarining bir qismi sifatida qabul qiladi. Shu sababli, u yomon ta’sirlarni kamaytirish uchun modda qabul qilish usulini yoki doza orasidagi xulqini o‘zgartirishga harakat qiladi. Agar bundan foyda bo‘lmasa, marixuanani boshqacha usulda qabul qilishga o‘tadi. Shu bilan birga, u modda bilan uzviy bog‘lanib qolmagan - ya’ni, to‘liq qaramlikka tushmagan. Unga turli ijtimoiy yoki kasbiy sabablar, shaxsiy hayotdagi o‘zgarishlar ta’sir qilishi mumkin, natijada u yomon odatdan voz kechish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

2. Yosh chekuvchilar turi - bu turdagi marixuana iste’mol qiluvchilar - asosan yoshlar, va ularning psixologiyasiga xos bo‘lgan jihatlar bor. Ularda hali shaxsiylik to‘liq shakllanmagan bo‘ladi, shu sababli guruhga mansublik, yaqin do‘stona munosabatlar va birodarlik hissi ular uchun juda muhim. Yoshlikdagi emotsional beqarorlik, yolg‘izlik hissi, va ba’zan ichki tushkunlik ularni marixuana chekishadigan tengdoshlari bilan muloqot qilishga undaydi. Bunday guruhlardagi uchrashuvlar ularga muayyan emotsional yengillik olib keladi. Marixuananing eyforiya ta’siri, “guruhdan biri bo‘lish” istagi va muammolarni unutish xohishi - marixuana chekishni boshlashdagi asosiy omillardan biriga aylanadi. Ko‘p hollarda, ayniqsa yangi boshlagan yoshlar orasida psixopatik moyilliklar kam kuzatiladi. Ammo asosiy xavf shundaki, vaqt o‘tishi bilan ularda giyohvandlikka qaramlik yoki yaxshiroq, kuchliroq ta’sir qiluvchi moddalarga o‘tish istagi paydo bo‘lishi mumkin. Bunday yoshlar guruhlari jinoiy muhit va shaxslar ta’siriga tushib qolishlari uchun juda mos muhit yaratib beradi.

3. Marixuana chekuvchilarning uchinchi turi “qozon boshi” deb nomlanadi. Ushbu turga mansub odamlar doimiy ravishda giyohvand moddalarni iste’mol qiladilar, ularda sezilarli hissiy qaramlik paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, ular intellektual buzilish belgilarini ko‘rsatishi mumkin.

Bu turdagi shaxslardagi psixopatologik o‘zgarishlar va ularning moddaga bo‘lgan qat’iy moyilligi tufayli, ularni birinchi yoki ikkinchi guruhga mansub marixuana chekuvchilar singari oddiy klinik yo‘l bilan baholash mumkin emas. Ularga nisbatan maxsus, chuqur tibbiy va psixiatriyaviy yondashuv talab etiladi.

Giyohvandlik bugungi jamiyatimiz uchun eng xavfli, chuqur ildiz otgan va ko‘p qirrali muammolardan biridir. Bu faqat sog‘liqni saqlash tizimining emas, balki ta’lim, huquq, iqtisodiyot, axloq va madaniyat sohalarining ham dolzarb masalasidir. Mazkur maqolada giyohvandlikning mohiyati, turlari, namoyon bo‘lish xususiyatlari, tashxis mezonlari va yoshlar orasidagi tarqalish sabablari atroflicha tahlil qilindi.

Giyohvandlikning biologik, psixologik va ijtimoiy omillari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Inson modda ta’siriga bir necha marta duchor bo‘lishi bilan uning ruhiy holatida o‘zgarishlar yuz beradi, bu esa asta-sekin jismoniy qaramlikni shakllantiradi. Ayniqsa, yoshlar orasida bu illatning keng tarqalishi o‘ziga xos ijtimoiy xavfni keltirib chiqarmoqda. Ma’lum bo‘lishicha, o‘smirlar ko‘pincha qiziqish, bosim, yolg‘izlik yoki oilaviy muammolar sababli giyohvand moddalarga murojaat qilishadi.

Giyohvandlikka qarshi kurashish faqat jazolash yoki tibbiy davolanish bilangina cheklanmasligi kerak. Bu muammoni hal qilish uchun tizimli, izchil va ko‘p bosqichli yondashuv talab qilinadi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Ta’lim muassasalarida profilaktika ishlarini kuchaytirish, jumladan, maktab, kollej va oliy o‘quv yurtlarida muntazam ravishda giyohvandlikka qarshi targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borishni tizimli olib borish.

2. Oila institutining rolini kuchaytirish, jumladan, oilada farzandlar bilan do‘stona, ochiq

muloqot muhiti yaratilishi, ular bilan muntazam suhbat olib borilishi zarur. Ota-onalar uchun maxsus seminar-treninglar o‘tkazilib, giyohvandlikning dastlabki belgilarini tanib olish, muammoni inkor etmaslik va vaqtida chora ko‘rish bo‘yicha bilim berilishi kerak.

3. Davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish, jumladan, huquqni muhofaza qilish organlari, sog‘liqni saqlash muassasalari, jamoatchilik, NNTlar o‘rtasida doimiy axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yilishi lozim. Giyohvandlikka qarshi kurashda mahalla fuqarolar yig‘inlarining faol ishtiroki ta’minlanishi zarur.

4. Psixologik va tibbiy yordam tizimini takomillashtirish.

5. Ommaviy axborot vositalari va internet imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

6. Qonunchilik va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, jumladan, ta’qiqlangan moddalarni noqonuniy tarqatganlik, reklama qilganlik yoki yoshlarni jalb qilganlik uchun javobgarlik mexanizmlari yanada kuchaytirilishi lozim.

Yakunda shuni ta’kidlash lozimki, giyohvandlikka qarshi kurash — bu faqat muayyan soha yoki shaxsning vazifasi emas, balki har bir fuqaroning fuqarolik burchi va axloqiy mas’uliyatidir. Har bir oila, har bir ustoz, har bir mutasaddi va ayniqsa, yoshlar bu illatning asl tahdidini to‘g‘ri anglab, unga qarshi o‘z pozitsiyasini bildirsa, sog‘lom avlod va barqaror jamiyat barpo etilishi muqarrardir.

Аннатация: В статье рассматриваются сущность, виды и проявления наркотических средств и психотропных веществ, а также сильнодействующих наркотиков, диагностические признаки наркомании, а также даются рекомендации родителям и учителям школ по выявлению наркозависимости.

Ключавые слова: Профилактический, метамфетамин, наркотик, эксперт, зависимость, Галлюциноген, Опиум, переход, психопатология, Хронический, эйфория, Героин.

Annotation: This article examines the nature, types, and manifestations of narcotic drugs and psychotropic substances, as well as strong drugs, diagnostic signs for identifying addiction, and provides information on recommendations for parents and school teachers in identifying drug-related illnesses.

Key words: Prophylactic, methamphetamine, drug, expert, addiction, Hallucinogen, Opium, transition, psychopathology, Chronic, euphoria, Heroin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta’sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024 — 2028-yillarga mo‘ljallangan MILLIY STRATEGIYA.

2. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) hisobotlari. — World Health Organization. International Classification of Diseases, 11th Revision (ICD-11). Geneva: WHO, 2019.

3. G‘ofurov S.S. va boshqalar. Psixiatriya va narkologiya asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi nashriyoti, 2020.

4. Karimov A.A. Yoshlar orasida giyohvandlikka qarshi kurashda psixologik yondashuvlar // “Pedagogik mahorat” jurnali. — 2022, №3. — B. 41–45.

5. Tashpulatova M.T. Giyohvandlikning psixologik va ijtimoiy omillari // O‘zR Fanlar akademiyasi jurnali, 2021, №2. — B. 22–26.

6. Rasulov I.M. Narkologiya: O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: «Ilm Ziyo», 2019.

7. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. “Giyohvandlik va jinoyatchilik” statistik axboroti, 2023.

8. Ergashev Sh., Axmedov D. Giyohvandlik va uning yoshlar ruhiyatiga ta’siri // “Yoshlar siyosati va ijtimoiy psixologiya” jurnali. — 2023, №4. — B. 15–19.

9. Назаров Б.Ж. Психоактив моддалар ва ёшлар // “Ижтимоий фанлар” журнали. — 2022, №1. — Б. 38–42.

10. Mamatov A. O‘zbekistonda giyohvandlik muammosi va uning oldini olish yo‘llari. — Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2020.

KONSTITUTSIYA –MILLATLARARO MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASHNING HUQUQIY KAFOLATI

Mirzayev Gulom Rizoqulovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ijtimoiy gumanitaf fanlar kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari,
tarix fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda yangilangan Konstitutsiyaning millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning huquqiy kafolati ekanligi haqida so‘z yuritiladi. Davlatning barqarorligi ko‘p jihatdan millatlararo munosabatlardagi turli muammolarni hal etish qobiliyatiga bog‘liqligi tahlil etilgan. Asosiy qonunimiz va qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarni hayotga keng tatbiq etish, millatlararo munosabatlar sohasida Yangi O‘zbekiston davlat siyosatini ro‘yobga chiqarish maqsadida samarali tizim yo‘lga qo‘yilganligi izohlab berilgan. Yangilangan Konstitutsiyaning millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirishi va istiqboli masalalari qiyosiy-tarixiy jihatdan o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, yangilangan Konstitutsiya, millatlararo munosabatlar, huquqiy kafolat, davlatning barqarorligi, qonun hujjatlari, samarali tizim.

O‘zbekiston Respublikasining Yangilangan Konstitutsiyasi muqaddimasida keltirilishicha, O‘zbekistonning yagona xalqi inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligini tantanali ravishda e’lon qilib [1. 3-4.], ushbu Konstitutsiyani qabul qildi va e’lon qildi. Asosiy Qomusdan kelib chiqib bir qator hujjatlar qabul qilindi va hayotga tatbiq etila boshlandi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev fikricha, “bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi. ... Yurtimizda hukm surayotgan do‘stlik va birdamlik muhiti – tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir” [2. 295-296.].

Ta’kidlash joizki, global beqarorlik sharoitida Yangi O‘zbekistonda umummilliy totuvlik, bag‘rikenglik, millatlararo munosabatlarning o‘zaro uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda demokratlashtirish, inson huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasida islohotlar amalga oshirilishi natijasida jamiyatda barcha fuqarolarning umumiy, teng va yagona shaxs sifatida jamiyat va davlat bilan bog‘liqligini anglash va qabul qilishga erishildi. Fuqarolar o‘rtasida umumiy millat, din, irq, tilidan qati nazar, umumiy fuqarolikka taalluqlilik hissini mustahkamlashga qaratilgan harakat davlat siyosatining asosiy vazifasi sifatida qabul qilindi.

Yangilangan Konstitutsiyada qayd etilganidek, “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” [1. 6.].

“O‘zbekiston–2030” strategiyasining (2023-yil 11-sentabrdagi PF№158) beshta ustuvor yo‘nalishidan “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish” (5) yo‘nalishida belgilab berilgan Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish (95-maqsad), Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni yangi bosqichga sifati jihatidan olib chiqish (91-maqsad)da barcha qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini jadal rivojlantirish, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar yo‘nalishlardagi ikki va ko‘p tomonlama muzokaralarni muntazam va samarali olib borishga alohida e’tibor qaratadi [4.].

Ta’kidlash joizki, “fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlash” [1. 4] ni maqsad qilgan holda Yangi O‘zbekistonning Konstitutsiyasi hayotga tatbiq etildi. Bu esa, mamlakat barcha millat vakillarining o‘z milliy qadriyat va

an’analarini saqlab qolish hamda boyitib borish yo‘lidagi faoliyatining rivojlanishiga zamin hozirladi.

Mamlakatda umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish xususida Konstitutsiya, qonun ustuvorligi, demokratiya, inson huquqlari va erkinliklariga sodiqlik asosiy qadriyat sifatida belgilanadi. Fuqarolarda umumiy mas’uliyat va fidoyilik tuyg‘usini rivojlantirishi natijasida umumfuqarolik qadriyatlari shakllantirilishiga keng imkoniyat yaratildi. Kishilarning irqi, millati, tili, dini, jinsi yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qati nazar, hammaga teng munosabatda bo‘lishga e’tibor qaratilishi [1. 13], jamiyatda bag‘rikengliklik tuyg‘ularining kamol topishini ta’minladi.

Millatlararo va dinlararo totuvlikni saqlash natijasida ijtimoiy birlik va hamjihatlikni ta’minlash ya’ni, jamiyatda turli etnik, madaniy va diniy guruhlar o‘rtasida tinchlik va hamjihatlikni ta’minlash natijasida fuqarolarni jamiyatda faol ishtirok etishi (saylovlarda qatnashish, jamoatchilik nazorati, tashabbuslarni ilgari surish) ta’minlandi. Bu esa, o‘z navbatida fuqarolarning davlat va jamiyat oldida mas’uliyat hissini oshirib, turli millat vakillarining mamlakat siyosiy hayotida faol ishtiroki uchun siyosiy muloqot maydonida qatnashish imkoniyat yaratildi.

Chunki, “davlatning barqarorligi ko‘p jihatdan millatlararo munosabatlardagi turli muammolarni hal etish qobiliyatiga bog‘liqdir. Keyingi vaqtlarda, globallashib borayotgan dunyodagi mojarolar, shu jumladan millatlararo nizolar kuchayayotgan bir sharoitda, bu muammo ayniqsa muhim o‘ringa chiqib boryapti. Shu munosabat bilan mamlakatlararo totuvlik har qanday ko‘pmillatli davlat uchun hal qiluvchi omil sifatida ahamiyat kasb etmoqda” [5. 5].

Asosiy qonunimiz va qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarni hayotga keng tatbiq etish, millatlararo munosabatlar sohasida Yangi O‘zbekiston davlat siyosatini ro‘yobga chiqarish maqsadida samarali tizim yo‘lga qo‘yildi.

Jumladan, 2024-yilda o‘tgan saylovlar natijasida saylangan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar va tuman (shahar) lar Kengashlari deputatlarining 11,2 foizini mamlakatimizda yashayotgan boshqa millat vakillari tashkil qiladi. Ulardan 175 nafari tojik, 111 nafari qozoq, 33 nafari turkman, 29 nafari rus, 21 nafari qirg‘iz va boshqa millatga mansub [6.].

Mamlakatimiz tarixida ilk bor aralash saylov tizimi – majoritar va proporsional saylov tizimi asosida saylangan Qonunchilik palatasi deputatlarining 12,7 foizi - 5 nafari rus, 3 nafardan qozoq va tojik, 2 nafari koreys, 1 nafardan turkman va qirg‘iz millatiga mansubligi yurtimizda yashayotgan turli millat vakillari Yangi O‘zbekistonning bunyodkorlari ekanligidan dalolat beradi [6.].

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari sohasi institutsional jihatdan yildan-yilga tubdan takomillashtirilib, noyob tizim yaratilishi yo‘lida muhim qadamlar tashlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oidchora-tadbirlarto‘g‘risida”giPF-52sonFarmoni [9.] hamda mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-115-son Qarori [11.] chiqqanligi O‘zbekistonda umummilliy totuvlikni ta’minlash va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishda muhim hujjat sanaladi.

Darhaqiqat, sohani tubdan isloh qilish to‘g‘risidagi Farmon asosida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi negizida **O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi** tashkil etildi [9.]. Unga ko‘ra quyidagi tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirildi:

Birinchidan: Qo‘mita millatlararo munosabatlar hamda xorijdagi vatandoshlar masalalari sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi, davlat organlari va tashkilotlarning ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organiga aylandi;

ikkinchidan: Qo‘mita O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasiga bevosita hisobdor bo‘lganligi uning statusini oshirib, vakolat va imkoniyatlarini kengaytiradi;

uchinchidan: Qo‘mitaga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan

ISSN 3030-3230

rais rahbarlik qilmoqda;

to‘rtinchidan: Qo‘mita raisining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan ikki nafar o‘rinbosari mavjud;

beshinchidan: joylarda millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar bilan ishlash masalalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo‘yicha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklanadi va ular ushbu masalalar bo‘yicha Qo‘mita oldida hisobdordir;

oltinchidan: Qo‘mita O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining huquq va majburiyatlari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Bu esa, o‘z navbatida, Yangi O‘zbekistonda millatlararo totuvlikni ta’minlashning muhim omili sanalgan umummilliy birdamlik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, Xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha ham qator vazifalar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining “Xorijdagi vatandoshlar orqali bilimlarni transfer qilish” (TOKTEN) dasturi namunasida xorijdagi vatandoshlarning Yangi O‘zbekiston iqtisodiy qudratiga qo‘shayotgan hissasini yanada oshirish maqsadida innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladigan inson kapitali transferini amalga oshirish, bunda yuqori malakali mutaxassislarni barcha sohalarda sun’iy intellektni tatbiq etish uchun ta’lim, sog‘liqni saqlash tashkilotlariga, qishloq xo‘jaligi va xususiy sektor korxonalariga yo‘naltirishga qaratilgan aniq tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni belgilash, shubhasiz mazkur sohani yangi bosqichga olib chiqadi [8.].

Ta’kidlash joizki, Yangi O‘zbekistonda millatlararo totuvlikni ta’minlash mqsadida yagona fuqaroviy o‘zlikni shakllantirish yo‘lidagi samarali yutuqlar tufayli “dunyoda Yangi O‘zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mamlakatimiz bilan hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi. ... Azal-azaldan o‘zaro qardosh va birodar bo‘lgan mamlakatlarimiz ko‘pgina mintaqaviy va global masalalar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bo‘yicha yaqin hamkorlikda harakat qilishni boshladi. Jahon siyosatshunosligida “Markaziy Osiyo ruhi degan ibora paydo bo‘ldi” [7.].

Qayd etish joizki, “avvalo, mintaqamizdagi davlatlar bilan do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari yo‘lga qo‘yildi. Chegaralar ochildi, odamlar qavmu qarindoshlari bilan aloqalarini tiklab, bir mamlakatdan ikkinchi davlatga emin-erkin borib kela boshladi” [3.].

Asosiy Qomusda keltirilishicha, “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratdi [1. 6.].

Binobarin, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman xalqlari madaniy hamkorligi, qardoshligi va do‘stligining tarixiy ildizlarini ancha qadimiyligi, ushbu xalqlarning yashash sharoiti, urf-odatlari, turmush-tarzi bir-biriga nihoyatda yaqinligi mintaqa xalqlarining tarixiy hamkorligi va madaniy-gumanitar hamkorlikning qadim-qadimdan meros bo‘lib kelishi, Yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni ahil-inoq, do‘stona ruhda, o‘zaro manfaatli tarzda rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan yaqin do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratib, o‘tgan tarixan qisqa davrda yurtimizning Markaziy Osiyo mintaqasi va jahon miqyosidagi siyosiy o‘rni va nufuzi keskin oshdi. Dunyoda Yangi O‘zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mamlakatimiz bilan hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi [7.]. Bu haqda gapirganda, 2025-yil mart oyida O‘zbekiston – Qirg‘iziston – Tojikiston chegaralari o‘zaro tutashgan nuqtada “Do‘stlik” stelasi o‘rnatilgani mamlakatlar o‘rtasidagi yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yangi bosqichga ko‘targanligining yana bir yorqin dalilidir.

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari asosida mamlakatimizda millatlararo totuvlik siyosatini ta’minlanar ekan, shu o‘rinda men Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyovning 2025-yil 30-iyulda “Xalqlar do‘stligi” kuni bayram munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan bayram tabrigidan quyidagi jumlalarni alohida keltirishni joiz deb bildim.

“Dunyoning turli mintaqalarida milliy va diniy asosda turli nizolar davom etayotgan hozirgi o‘ta tahlikali sharoitda yagona

O‘zbekiston g‘oyasi asosida eng katta boyligimiz – yurtimizdagi osoyishtalik va barqarorlik, o‘zaro hurmat va totuvlik muhitini yanada mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, bilim-ma’rifat, kasb-hunarlar egasi etib tarbiyalash, inkluzivlik tamoyillarini chuqurlashtirish borasidagi ishlarimizni kelgusida ham izchil davom ettiramiz.

O‘zbekiston fuqarosi ekanidan faxrlanadigan barcha millat va konfessiyalar vakillari hamda xorijdagi vatandoshlarimizning huquq va manfaatlarini Konstitutsiya va qonunlarimiz talablari asosida hamma joyda qati himoya qilish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz [10.].

Shu tariqa, mamlakatimizda millatlararo totuvlik va o‘zaro hurmatga asoslangan muhitni mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida millatlararo munosabatlarning yangi modeli yaratildi. Ushbu model turli millat vakillari o‘rtasidagi millatlararo muloqot, konstruktiv yondashuv va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslanadi.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimizda millatlararo totuvlik siyosatini mustahkamlash maqsadi yo‘lida istiqomat qilayotgan millatlar uchun turli sohalarda faoliyat ko‘rsatishlari, teng huquqli erkin fuqaro sifatida bir butun holda yashashlari uchun davlatimiz tomonidan barcha sharoitlar yaratilganligi, mamlakatimizda turli millatga mansub yurtdoshlarimiz O‘zbekiston ularning Vatani ekanini tobora teranroq anglab yetmoqdalar, milliy madaniyatlarning gullab-yashnashini butun O‘zbekiston taraqqiyotining bir qismi sifatida qabul qilmoqdalar va islohotlarning amalga oshirilishiga o‘z hissalarini qo‘shishga intilmoqdalar. Shuning bilan birga, barcha millat vakillari fuqarolar teng huquqli deb tan olinib, ularda umummilliy iftixor sanalgan davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) va milliy qahramonlarga hurmat ruhi shakllandi. Barchani vatanparvarlik va tarixiy merosga bo‘lgan yuksak ehtiromda tarbiyalanmoqda. Ya’ni, turli millat va madaniyatlarni yo‘qotish emas, balki ularni saqlagan holda umumfuqarolik asosida birlashish, milliy-madaniy rang-baranglikka hurmat bilan yondashish orqali Yangi O‘zbekistonda millatlararo totuvlik siyosati natijasida umummilliy taraqqiyot va ijtimoiy hayot yutuqlariga erishilmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, Konstitutsiya millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning huquqiy kafolati bo‘lib, o‘zaro hamkorlik, totuvlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning poydevori sifatida xizmat qilar ekan, yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillari huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda yangicha mazmun bilan boyitishda muhim omil bo‘lmoqda.

Аннотация. В данной статье рассматриваются правовые гарантии укрепления межнациональных отношений в Узбекистане, анализируется тот факт, что стабильность государства во многом зависит от его способности разрешать различные проблемы в межнациональных отношениях. Было разъяснено, что создана эффективная система по широкому внедрению в жизнь правил, установленных в Основном Законе и законодательных актах, а также реализации государственной политики нового Узбекистана в сфере межнациональных отношений. В сравнительно-историческом аспекте исследованы вопросы укрепления, развития и дальнейших перспектив межнациональных отношений в обновленной Конституции.

Ключевые слова: Узбекистан, обновленная Конституция, межнациональные отношения, правовые гарантии, государственная стабильность, законодательство, эффективная система.

Annotation. This article discusses the legal guarantee of strengthening interethnic relations in Uzbekistan, and analyzes the fact that the stability of the state largely depends on its ability to resolve various problems in interethnic relations. It was explained that an effective system has been established to widely implement the rules established in our Basic Law and legislative acts, and to implement the state policy of New Uzbekistan in the field of interethnic relations. The issues of strengthening, developing and future prospects of interethnic relations of the updated Constitution were studied from a comparative and historical perspective.

Key words: Uzbekistan, updated Constitution, interethnic relations, legal guarantees, state stability, legislation, effective system.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, Тошкент, “Ўзбекистон”, 2023. –123 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 496.
3. Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз мустақиллиги – биз учун куч-қудрат ва илҳом манбаи, тараққиёт ва фаровонлик асоси. // Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг 30 йиллик байрамига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2021 йил 1 сентябрь сони.
4. “Ўзбекистон–2030” стратегияси (2023 йил 11 сентябрдаги ПФ№158). // Халқ сўзи, 2023 йил 12 сентябрь.
5. Муртазаева Р.Ҳ. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Олий ўқув юртларининг магистрлари учун ўқув қўлланма. Т.: Университет, 2007. – 126 б.
6. Ўзбекистон Республикаси Миллатлараро муносабатлар ва хориждаги ватандошлар масалалари бўйича Қўмитаси жорий архиви материаллари.
7. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. // Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёвнинг “Янги Ўзбекистон” газетаси бош муҳаррири Салим Дониёровнинг саволларига жавоблари. “Янги Ўзбекистон” газетаси 2021 йил 17 август.
8. Янги Ўзбекистон газетаси, 2025 йил 20 март.
9. Янги Ўзбекистон газетаси, 2025 йил 21 март.
10. https://yuz.uz/news/xalqlar-dostligi-kuni-munosabati-bilan-bayram-tabrigi (Мурожаат этилган сана: 05.08.2025.
11. https://lex.uz/uz/docs/-7438958 (Мурожаат этилган сана: 09.07.2025.).

HARBIY XIZMATCHILAR HUQUQ-MAJBURIYATI VA HARBIY INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHDA YANGI KONSTITUTSIYANING AHAMIYATI

Yunusov Ulug‘bek Abdullayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Magistratura boshlig‘i, dotsent

Annotatsiya. **Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida harbiy sohada olib borilgan islohotlar, yangi qabul qilingan harbiy nizomlarning harbiy xizmatchilar huquq va majburiyatini mukammallashtirishdagi o‘rni, harbiy intizomni mustahkamlashdagi ahamiyati keng yoritilgan.**

Kalit so‘zlar: Konstitutsiyasi, harbiy xizmatchi, huquq, majburiyat, harbiy intizom, rejalashtirish, tashkillashtirish, samaradorlik, nazorat, ibrat, tashabbus, axloqiy-ruhiy barqarorlik.

Konstitutsiya har bir davlat taraqqiyotining poydevori bo‘lgan huquqiy, siyosiy va mafkuraviy hujjat – mamlakatning asosiy qonuni hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining qaror topishi uchun demokratik huquqiy davlatni barpo etish asosiy vazifa etib belgilangan. Fuqarolar jamiyatini qurish uchun esa bir qancha ishlar amalga oshirilishi zarur. Shulardan biri fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining haqiqiy kafolatini ta’minlashdir.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari, mustaqil demokratik davlatimiz, erkin jamiyatimizning mustahkam huquqiy asosi bo‘lib xizmat qildi. Fuqarolarning eng muhim orzu-intilishlari va maqsadlari asosiy qonunimiz – Konstitutsiyada to‘liq ifoda etiladi. Mustaqillik yillarida Konstitutsiya asosida inson qadri ulug‘lanadigan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish maqsadida keng qamrovli yangilanishlar va islohotlar amalga oshirildi, bu borada boy tajriba to‘plandi. O‘zbekiston bugun o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan adolatli va xalqparvar davlat barpo etish yo‘lida dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalarni to‘laqonli amalga oshirish uning maqsadi, ko‘lamiga monand va munosib bo‘lgan yangi mustahkam konstitutsiyaviy makonni shakllantirishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, konstitutsiyaviy islohotlar tabiiy rivojlanish natijasi bo‘lib, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun o‘ta ahamiyatli hisoblanib, adolatli jamiyat qurish yo‘lida ulkan qadamdir. Shu ma’noda olib borilgan islohotlar samarasi O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilgan holda 2023-yil 1-may kuni Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonning sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etishini qat’iy qoidaga aylantirildi, bir so‘z bilan aytganda, “Inson qadri uchun” g‘oyasini hamda bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo‘lgan “Inson – jamiyat – davlat” degan yondashuvni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatida o‘z aksini topdi.

Konstitutsiyaning 64-moddasida – “O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar” deb belgilangan. Bu o‘z navbatida harbiy xizmatni o‘tashni rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat qilish, samaradorlikka erishish, istiqbolli rejalarni ishlab chiqish uchun sohaga katta mas’uliyat yuklaydi.

Shu ma’noda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning qabul qilinishi harbiy sohadagi boshqaruvning me’yoriy hujjatlarini o‘rganib chiqish, harbiy xizmatchilarning huquq-majburiyatlari, intizomini

 ISSN 3030-3230

mustahkamlash borasida islohotlar o‘tkazish uchun katta turtki bo‘ldi va dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari talablari o‘rganib chiqilib yangi tahrirdagi harbiy nizomlarni qabul qilish bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda takliflar ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevral PF-23-son Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlari 3 ta ilova bilan tasdiqlandi. Jumladan, 1-ilova bilan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining ichki xizmat nizomi”, 2-ilova bilan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom nizomi”, 3-ilova bilan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining garnizon va qorovullik xizmatlari nizomi” yangi tahrirda faoliyatga tatbiq etildi.

Bu qabul qilingan harbiy nizomlarda harbiy xizmatchilarning huquq majburiyatlari va intizomini mustahkamlashga katta ahamiyat qaratildi desak mubolag‘a bo‘lmasligini harbiy nizomlarga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarda ko‘rishimiz mumkin.

Shu ma’noda o‘zgartirish va qo‘shimchalarga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, “Umumharbiy” so‘zi – “Harbiy” so‘zi bilan o‘zgartirilib, to‘liq matnda “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlari” deb yuritilishi belgilandi.

“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining ichki xizmat nizomi” bo‘yicha amaldagi tahrirda 3 bo‘lim, 12 bob, 113 paragraf, 438 band, 17 ilovadan iborat bo‘lgan bo‘lsa, yangi tahrirda 3 bo‘lim, 10 bob, 58 paragraf, 318 band, 5 ilovada tasdiqlandi. Nizom 41% ga o‘zgartirildi. Ichki xizmatni tashkillashtirishga doir fundamental prinsiplar va yondashuvlar, yakkaboshchilik prinsiplari aniqlashtirildi va belgilandi, ortiqcha detallashtirish istisno qilindi. Nizom mazmunidan harbiy qismlarning Jangovar bayroqlari va ularni tutish tartibi, qo‘shinlar poligonlarda (lagerlarda) joylashgan paytda va qo‘shinlarni tashish paytida ichki xizmatning xususiyatlari, yakkaboshchilik prinsipiga zid sifatida “Harbiy unvonlarga ko‘ra boshliqlar” tushunchasi, trevoga bo‘yicha uyg‘otish, alohida mansabdor shaxslar va sutkalik naryad majburiyatlari chiqarib tashlandi, harbiy xizmatchilarni joylashtirish tartibi detallashtirildi. Nizomda “Harbiy xizmatchilarning huquqlari”dan tashqari “Harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi kafolatlari” deb yangi paragrafning kiritilishi orqali harbiy xizmatchilarning huquqlari yanada mustahkamlandi. Umumiy qoidalarning 4-bandida - nizomdagi asosiy tushunchalarni keng yoritib berilishi orqali nizomning mazmun-mohiyatini harbiy xizmatchilar yanada soddalashtirib berdi. Harbiy o‘rtoqlik tushunchasi kiritildi, ya’ni “Harbiy o‘rtoqlik - harbiy jamoadagi harbiy xizmatchilar o‘zaro munosabatlarining axloqiy-huquqiy me’yori hisoblanib, uning jipsligi va jangovar qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy jangovar an’analardan biri. Harbiy o‘rtoqlik namoyon bo‘lishini keng tarqalgan shakllari: jangda bir-birini qo‘llash, o‘qish va xizmatda bir-biriga yordam berish, halok bo‘lgan o‘rtoqlar xotirasini qadrlash” deb yoritilishi orqali jipslashgan harbiy jamoani shakllantirishga katta zamin yaratildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom nizomi” bo‘yicha amaldagi tahrirda 5 bo‘lim, 121 banddan iborat bo‘lgan bo‘lsa, yangi tahrirda 3 bo‘lim, 13 paragraf, 97 bandda tasdiqlandi. Nizom 24% ga o‘zgartirildi. Harbiy intizomning mohiyati, unga rioya qilish bo‘yicha majburiyatlari, rag‘batlantirish va intizomiy ta’zirlarning turlari, ularni qo‘llash va ular bo‘yicha shikoyat qilish, harbiy xizmatchilarning murojaatlarini ko‘rib chiqish tartibi belgilandi. Nizom mazmunidan muddatli harbiy xizmatchilar uchun – “navbatdan tashqari naryadga ishga tayinlash” , “qattiq hayfsan”, barcha toifadagi harbiy xizmatchilar uchun - “gauptvaxtada ushlab turish uchun bandi qilish”, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilar uchun – “xizmatga notamom noloyiqligi to‘g‘risida ogohlantirish” kabi intizomiy ta’zirlarni chiqarib tashlanishi, o‘z navbatida harbiy xizmatchilarning qadr-qimmati, sha’ni, obro‘si, bo‘linmalardagi ahloqiy-ruhiy holatni barqarorligi va harbiy intizomning mustahkam saqlanishi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Harbiy intizomni yanada mustahkamlash maqsadida nizomning 4-bandida asosiy tushunchalar berildi, unda intizomiy javobgarlik, intizomiy nojo‘ya xatti-harakat, intizomiy ta’zir, intizomiy ta’sir ko‘rsatish chorasi, rag‘batlantirish tushunchalari kiritildi, mazmun-mohiyati harbiy xizmatchilarga soddalashtirilgan holda yoritib berildi. Bundan asosiy ko‘zlangan maqsad harbiy xizmatchilar tomonidan nizom talablarini anglab yetib harbiy intizomni buzilishiga yo‘l qo‘ymasliklari hisoblanadi.

Nizomda oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlariga nisbatan kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilar kabi rag‘batlantirish va ta’zirlar joriy etilishi belgilandi. Ularni intizomsizligi tufayli oliy harbiy ta’lim muassasasidan bo‘shatish hamda qayta tiklash tartibga aniqlik kiritildi, ta’lim muassasasi boshliqlarining bo‘ysunuvchi shaxslarga nisbatan intizomiy vakolatlari

belgilandi. Bu o‘z navbatida ta’lim muassasasidagi kursant va tinglovchilar harbiy hamda ijrochilik intizomi talablariga rioya etishlarni tartibga solishda katta ahamiyat kasb etdi.

“O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining garnizon va qorovullik xizmatlari nizomi” bo‘yicha amaldagi tahrirda 3 bo‘lim, 12 bob, 64 paragraf, 358 band, 14 ilovadan iborat bo‘lgan bo‘lsa, yangi tahrirda 3 bo‘lim, 11 bob, 49 paragraf, 319 band, 16 ilovada tasdiqlandi. Nizom 16% ga o‘zgartirildi. Ortiqcha detallashtirish istisno qilindi, garnizon va qorovullik xizmatlarini tashkillashtirishga doir fundamental prinsiplar va yondashuvlar belgilandi. Nizom mazmunidan barcha intizomiy qamoq choralarini chiqarib tashlanishi orqali harbiy xizmatchilarning tarbiyasiga, odobiga, axloqiga, intizomiga salbiy ta’sir qiluvchi omillarni cheklash imkoni yaratildi. Bir so‘z bilan aytganda harbiy nizomlar talablari soddalashtirildi, sohaga oid dolzarb vazifalar yechimining samaradorligini oshirildi.

Xulosa o‘rnida, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya harbiy sohada ham islohotlar o‘tkazilishiga katta turtki bo‘ldi, o‘z navbatida harbiy xizmatchilar faoliyatini rejalashtirish, tashkillashtirish va nazorat samaradorligini oshirish, bugungi kun talabi asosida harbiy xizmatni tashkil etish, malakali, tajribali, tashabbuskor va ibratli harbiy xizmatchilarni shakllantirish, ularni huquq va majburiyatlarining mazmun-mohiyatini to‘laqonli anglab vazifalarini bajarishlari uchun katta zamin yaratadi. Harbiy nizomlarda harbiy xizmatchilarning huquqlari yanada mukammallashtirilishi bo‘linmalarda intizomni yanada mustahkamligiga, harbiy xizmatchilar axloqiy-ruhiy holatining barqarorligiga ta’minlashga xizmat qiladi.

Intizom nizomining 5-bandida, – “Harbiy intizom - bu barcha harbiy xizmatchilarning qonunchilik hujjatlari, harbiy nizomlar va komandirlarning (boshliqlarning) buyruqlari bilan belgilangan tartib va qoidalarga qat’iy hamda aniq rioya etishidir”, 7-bandida, - “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga qat’iy rioya qilish, Vatanga qasamyodiga sodiq bo‘lish” deb belgilanganligi har bir harbiy xizmatchining yodida doimo shiordek saqlanib turishi lozim. Bir so‘z bilan aytganda, o‘z Vatanimizni qadrlamasak, himoya qilmasak, hech kim boshqa yurtdan kelib uni himoya qilmasligi, kelajak avlodimiz uchun tinch va osuda hayotni ta’minlab bermasligi ochiq haqiqat ekanligini doimo yodda tutishimiz zarur.

Аннотация. В данной статье широко освещены реформы, проводимые в военной сфере на основе Конституции Республики Узбекистан, роль вновь принятых военных уставов в совершенствовании прав и обязанностей военнослужащих, а также их значение в укреплении воинской дисциплины.

Ключевые слова: Конституция, военнослужащий, право, обязанность, воинская дисциплина, планирование, организатsiя, эффективность, контроль, образец (или пример), инициатива, морально-психологическая устойчивость.

Annotation. This article provides a detailed overview of the reforms carried out in the military sphere based on the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the role of newly adopted military regulations in improving the rights and duties of servicemen, and their significance in strengthening military discipline.

Key words: Constitution, serviceman (military personnel), right, duty, military discipline, planning, organization, effectiveness, control, example, initiative, moral and psychological stability.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).

2. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining ichki xizmat nizomi. 2025-yil 14-fevral PF-23. 1-ilova.

3. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom nizomi. 2025-yil 14-fevral PF-23. 2-ilova.

4. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining garnizon va qorovumik xizmatlari nizomi. 2025-yil 14-fevral PF-23. 3-ilova.

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYA VA KONSTITUTSIYAVIY QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB AHAMIYATI

Azamov Jasurbek Murodovich,
O‘zbekiston Respublikasi Qo‘qon davlat universiteti prorektori,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Phd)

Annotatsiya. **Maqolada yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida konstitutsiyaviy qonunchilik tizimining shakllanishi va evolutsiyasi mohiyati, tushunchasi hamda xususiyatlari tahlil etiladi.**

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, qonuniylik, konstitutsiyaviy qonunchilik, konstitutsiyaviy tartibga solish.

Dunyoning ko‘pchilik demokratik hamda ma’rifiy rivoj topgan mamlakatlari Konstitutsiyalar qabul qilinib, ular asosida huquqiy va qonunchilik tizimlari shakllantirilgan. Hamma davlatlar va jamiyatlar uchun umumiy muammo, ya’ni doimiy dolzarb masala – Konstitutsiya va qonunchilikning samaradorligini ta’minlash maqsadida ularni muntazam tarzda isloh etish, modernizatsiya qilish talab qilinadi. Huquqshunoslik va konstitutsiyaviy huquq fani Konstitutsiyani yaratish, uning jamiyat va davlat taraqqiyotiga ta’sirini baholash, mamlakatning konstitutsiyaviy tuzumi, rivojlanish istiqbollarini belgilovchi ko‘plab ilmiy ta’limotlar hamda konsepsiyalarni ishlab chiqqan. Konstitutsiyani qabul qilish davlat va jamiyatni huquqiy normativ andozaga solish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning zamonaviy modellarini mustahkamlashni nazarda tutadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya – tub konstitutsiyaviy islohotlar mahsuli. Tub konstitutsiyaviy islohot deyishimizga sabab, uning natijasida Konstitutsiyadagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga ortdi, u xalqimiz takliflari asosida yangilandi.

Konstitutsiyaviy islohot – **Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi taqozosiga aylandi.** Binobarin, «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda Bosh qomusimiz – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini jamiyatdagi bugungi real voqelikka moslashtirish – mamlakatimizdagi shiddatli va izchil islohotlar talabi sifatida maydonga chiqdi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasidagi keng ko‘lamli vazifalar, xususan **adolatli** va **xalqparvar davlatni** barpo etish, inson huquq va manfaatlari, qadr-qimmatini yanada samarali ta’minlash kabi ulug‘vor maqsadlar bu borada zarur huquqiy asosni ta’minlovchi konstitutsiyaviy makonni yanada takomillashtirish ehtiyojini kun tartibiga qo‘ydi.

O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilingach, amaldagi barcha qonunchilik hujjatlari, butun konstitutsiyaviy qonunchilik tizimini Asosiy qonunimizga moslashtirish, uning yangi g‘oyalari, prinsiplari hmda talablariga mutanosib, mos holga keltirish vazifasi ko‘ndalang bo‘ldi. Albatta, vujudga kelgan yangi qonustitusyaviy-huquqiy makonda eski qonunlar bilan ish ko‘rib bo‘lmaydi. Demak, butun qonunchilik hujjatlari bazasi, shu jumladan, **konstitutsiyaviy qonunchilik tizimini** tegishli islohotlar mantig‘i va mazmuniga muvofiqlashtirish talab etilmoqda. Shu o‘rinda mamlakatimizning ***“konstitutsiyaviy qonunchiligi”,*** uning tizimi kabi muhim ilmiy kategoriyalarni tahlil etishimiz lozim bo‘lmoqda.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev Konstitutsiyaning jamiyatimiz va davlatimiz hayotidagi ahamiyatiga baho berib shunday dedi: “Bugun to‘la asos bilan e’tirof etish mumkinki, Konstitutsiyamiz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etish, O‘zbekistonning xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda [1]. Shuningdek, Asosiy qonunimiz va uning asosida qabul qilingan qonunlarimiz hayotimizning barcha tomonlarini demokratlashtirishning, jamiyatimizni yangilashning salmoqli huquqiy kafolati bo‘lib

maydonga chiqmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev bayon etgan muhim metodologik ahamiyatga molik xulosalaridan biri quyidagicha: “Konstitutsiyamizda muhrlab qo‘yilgan tamoyil va qoidalar negizida yurtimizda milliy qonunchilik tizimi barpo etildi [2].” Milliy qonunchiligimiz mamlakat huquq tizimi asosida, uning rasmiy, amaliy-shakliy ifodasi tarzida shakllandi. Huquq tizimi mazmunidan kelib chiqqan holda qonunchilik tizimining quyidagi asosiy tarmoqlari va yo‘nalishlarini, tasnifini ko‘rsatish mumkin: davlat qurilishi sohasidagi qonunchilik tarmog‘i; Konstitutsiya asosidagi konstitutsiyaviy qonunchilik; fuqaroviy va oilaviy munosabatlar sohasidagi qonunchilik; ma’muriy boshqaruvga oid qonunchilik; qishloq xo‘jaligiga, tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchiliklar; jinoyat-huquqiy munosabatlar sohasidagi qonunchilik; odil sudlovga oid qonunchilik; soliq va bojxona qonunchilik tarmoqlari va x.k [3].

Konstitutsiyaviy qonunchilik mamlakat milliy qonunchilik tizimining alohida mustaqil tarmog‘i bo‘lib, konstitutsiyaviy huquq tarmog‘ining normativ manbaini tashkil etadi. Jamiyat va davlat hayotidagi muhim ijtimoiy munosabatlarni konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish aynan konstitutsiyaviy qonunchilik yordamida, uning normalari vositasida amalga oshiriladi. Bizning tasavvurimizga ko‘ra, konstitutsiyaviy qonunchilik mamlakatimiz huquqiy va qonunchilik tizimining alohida mustaqil tarmog‘i bo‘lib, u o‘z mazmuniga konstitutsiyaviy huquq tarmog‘ining qonunchilik manbalarini ifodalovchi normativ hujjatlar – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasini, barcha konstitutsiyaviy qonunlarni hamda konstitutsiyaviy tartibga solish predmetini tashkil etuvchi masalalar bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni qamrab oladi.

Bizning fikrimizcha, konstitutsiyaviy qonunchilikning tizimi Konstitutsiyaning tizimidan ancha kengroq. Biroq, shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, konstitutsiyaning har bir normasi, prinsipi va g‘oyasi asosida qabul qilingan qonunlar va qonunchilik aktlari *konstitutsiyaviy qonunchilik* kategoriyasi tarkibiga kiradi.

Tabiiyki, Konstitutsiyaviy qonunchilikning tizimini shakllantirishga, albatta, Konstitutsiyaning va konstitutsiyaviy huquq tizimlari asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunchiligi tizimining o‘ziga xos jihatlari va xususiyatlari uni xorijiy davlatlar konstitutsiyaviy qonunchiligi tuzilishi (tizimi) bilan qiyosiy tahlil etilganida to‘laroq ochiladi. Shu sababli ba’zi xorijiy davlatlarning tajribasiga ham e’tibor qaratamiz. Masalan:

Huquqshunoslik nazariyasi, shu jumladan, konstitutsiyaviy huquq fani doirasida “**konstitutsiyaviy qonunchilik tizimi”** tushunchasini atroflicha ta’rif va tavsif qilish lozim.

Mutaxassis olimlarning umumiy e’tirofiga ko‘ra, ***qonunchilik tizimi*** – qonunchilikning strukturaviy tuzilishi bo‘lib, normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik qoidalarning qonunchilik sohalari va institutlariga differensiallashib uyushgan barqaror guruhlanishida o‘z aksini topadi hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarning o‘zaro ichki aloqadorligiga asoslangan mushtarak yig‘indisi sifatida maydonga chiqadi. Qonunchilik hujjatlarining yagona tizimga birikishida ularning yuridik kuchi, o‘zaro irarxik mutanosibligi asosiy mezon vazifasini o‘taydi [4].

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunning 9-moddasida “konstitutsiyaviy qonunlar” Konstitutsiyadan keyingi o‘rinda turadi, deb ta’kidlangan. Jumladan, 9-modda. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o‘tkazish yo‘li bilan qabul qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari konstitutsiyaviy qonunlar tarzida qabul qilinishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilishini nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari konstitutsiyaviy qonunlar tarzida qabul qilinadi.

O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasida konstitutsiyaviy qonunlar — qator mamlakatlarda konstitutsiyaviy huquqning bosh manbalaridan biri.

Tadqiqotchi olim yu.f.n. X.X.Odilqoriyev o‘zining O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimi nomli kitobida konstitutsiyaviy qonunlarga quyidagicha tavsif beradi:

Konstitutsiyaviy qonunlar amaldagi Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish uchun qabul qilinadi. Ayrim olimlar qabul qilinishi konstitutsiyada nazarda tutilgan qonunlarni konstitutsiyaviy qonunlar, deb hisoblashni ma’qullaydilar. Olimlar orasida Konstitutsiyaviy qonunlar masalasida yagona

ISSN 3030-3230

fikr mavjud bo‘lmaganligi sababli, hozirga qadar konstitutsiyaviy qonunlarga mukammal, yagona ta’rif shakllanmagan. Fikrimizcha, rasmiy tarzda Konstitutsiyaviy qonunlar maqomini olgan qonunlarni konstitutsiyaviy qonunlar deb atash maqsadga muvofiq [5].

Konstitutsiyaviy qonunchilik huquqiy hodisa (institut), ilmiy kategoriya sifatida huquqshunoslik fanimizda hali yetarlicha puxta va chuqur o‘rganilmagan masalalardan biridir. Shu sababli keyingi yillarda huquqiy va boshqa maxsus adabiyotlarda “konstitutsiyaviy qonunchilik” tushunchasini shakllantirish, uning mazmun-mohiyatini ochish, takomillashish bosqichlarini izohlash atrofida baxs-munozaralar faollashmoqda. Masalan, huquqshunos olim I.Tulteyev o‘zining “O‘zbekiston konstitutsiyaviy qonunchiligini modernizatsiyalash: ba’zi yakunlar va istiqbol” nomli maqolasida [6] “konstitutsiyaviy qonunchilikning bevosita tushunchasini ta’riflamasada, bu o‘rinda u konstitutsiyaviy huquq sohasining qonunchilik manbalarini, normativ-huquqiy bazasini nazarda tutadi.

Professor A.R.Rahmonov konstitutsiyaviy qonunchilik normalarini amalga oshirish huquqiy munosabat doirasida va undan tashqarida sodir bo‘lishi haqida tahlil yuritib, ushbu qonunchilik tarmog‘ining xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladi [7].

Professor Yu.Tixomirovning fikricha, konstitutsiyaviy qonunchilik mamlakat qonunchiligining davlat qurilishi va hokimiyat organlari faoliyatining prinsiplarini, inson va fuqaroning huquqiy maqomini belgilovchi, fuqarolik jamiyatining asosiy jabhalarini tartibga soluvchi va huquqiy tizimni yaratuvchi alohida tarmog‘idir. U yetakchi tarmoq sifatida barcha qonunchilik sohalari va tizimining yaxlitligini ta’minlaydi [8].

Konstitutsiyaviy qonunchilik mamlakat milliy qonunchilik tizimining alohida mustaqil tarmog‘i bo‘lib, konstitutsiyaviy huquq tarmog‘ining normativ manbalari majmuini tashkil etadi. Ijtimoiy munosabatlarni konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish aynan konstitutsiyaviy qonunchilik vositasida, uning aniq normalari asosida amalga oshiriladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, “konstitutsiyaviy qonunchilik”ka quyidagicha ta’rif berish mumkin: *konstitutsiyaviy qonunchilik* mamlakatimiz huquqiy va qonunchilik tizimining mustaqil tarmog‘i bo‘lib, u o‘z mazmuniga konstitutsiyaviy huquq tarmog‘ining qonunchilik manbalarini ifodalovchi normativ hujjatlar – Konstitutsiyani (shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi), barcha konstitutsiyaviy qonunlarni hamda konstitutsiyaviy tartibga solish predmetini tashkil etuvchi masalalar bo‘yicha qabul qilingan ba’zi qonunlarni qamrab oladi.

Konstitutsiyaviy qonunchilikning o‘ziga xos xususiyatlari borasida quyidagilarni ta’kidlash mumkin.

Konstitutsiyaviy islohotlar, avvalo, davlat hokimiyati tarmoqlari o‘rtasidagi vakolatlar taqsimotining oqilona mexanizmini topish va ularni huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga yo‘naltirilgandir.

Konstitutsiyaviy qonunchilik mazmuniga kiritilgan yangi normalar, *bir tomondan*, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini demokratlashtirishga, *ikkinchi tomondan*, fuqarolarning huquq va erkinliklari konstitutsiyaviy kafolatlarini yanada kuchaytirishga xizmat qildi. Shuningdek, ushbu o‘zgartishlar parlament mavqeini mustahkamlashga, siyosiy partiyalarning rolini oshirishga, fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini kuchaytirishga qaratilgan konstitutsiyaviy kafolatlarni yaratishga yo‘naltirilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida yaratilgan quyidagi konstitutsiyaviy qonunlari amal qiladi: “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi (1991 y.), “O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to‘g‘risida”gi (1994 y.), “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi (2002 y.), “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi (2002 y.). “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi (2007 y.), “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida”gi (2017 y.) “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun (2022 y.) kabilar. Yuqorida ta’kidlanganidek, mamlakatimiz Konstitutsiyasiga so‘nggi yillarda kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar qoida tariqasida, oddiy qonunlar vositasida kiritildi. Fikrimizcha, Konstitutsiyaga o‘zgartirish va to‘ldirish kirituvchi qonunlar “konstitutsiyaviy qonunlar”

bo‘lishi, ya’ni parlament a’zolarining malakali ko‘pchiligining ovozi bilan kiritilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida shakllangan va hozirda amal qilib kelayotgan konstitutsiyaviy qonunchilikning yuridik tabiati uning xususiyatlarida yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Konstitutsiyaviy qonunchilikning xususiyatlari qatorida – uning huquqiy tizimimizda yetakchi o‘rin egallash; o‘zining alohida huquqiy tartibga solish predmetiga egaligi; ichki mantiqiy tizimga egaligi; o‘ziga tegishli normativ-huquqiy manbalariga egaligi kabilarni kiritish lozim. Ushbu xususiyatlarga to‘liqroq to‘xtalamiz.

Konstitutsiyaviy qonunchilik o‘zining alohida huquqiy tartibga solish *predmetiga* ega. Bu davlat va jamiyat, shuningdek fuqarolarning manfaatlarini ifodalashdagi alohida ahamiyatli ijtimoiy munosabatlar tizimi mavjudligi bilan izohlanadi. Bular davlat va jamiyat boshqaruvining Konstitutsiya darajasida ifodalanadigan qator masalalari. Ayniqsa, inson va fuqarolarning muhim, asosiy huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda kafolatlash masalalaridir. So‘nggi yillarda fuqarolik jamiyatining muhim institutlari bo‘lgan siyosiy partiyalarning maqomini kuchaytirish masalalari ham konstitutsiyaviy tartibga solish predmetiga aylandi (2007-yil 11-apreldagi Konstitutsiyaviy qonun) [9].

Konstitutsiyaviy qonunchilikning muhim xususiyatlaridan yana biri uning *tizimliligidir*. Albatta, Konstitutsiya va uning asosida, uni rivojlantirish hamda aniqlashtirish maqsadida yaratiladigan konstitutsiyaviy qonunlar yagona izchil tizimni tashkil etishi tabiiy. *Birinchidan*, uning tizimliligi shu bilan ta’minlanadiki, mazkur qonunchilik sohasining asosini mustaqil konstitutsiyaviy huquq sohasi tashkil etadi; *ikkinchidan*, uning bosh normativ asosini Konstitutsiya tashkil etadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, Konstitutsiya “sistema”, “tizim” hosil qiluvchi qonundir; *uchinchidan*, konstitutsiyaviy tartibga solish predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar ham tur jihatdan o‘zaro bir-biriga yaqin munosabatlar bo‘lib, ijtimoiy hayotda bir tizimga birlashadi. Yuqoridagi omillar sababli konstitutsiyaviy qonunchilikning tarkibiga kiruvchi element-hujjatlar o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘ladi. Ularni umumiy maqsad va yagona tartibga solish prinsiplari birlashtiradi.

Konstitutsiyaviy normalarning *tabiati* ham konstitutsiyaviy qonunchilikning maxsus toifadagi qonunchilik ekanligini ifodalaydi. Konstitutsiyaviy normalar – konstitutsiyaviy huquq predmetini tashkil etuvchi munosabatlarni tartibga solganligi bois boshqa tarmoq huquqiy normalaridan farq qiladi. Birinchidan, konstitutsiyaviy normalar alohida turdagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida yaratiladi, masalan, konstitutsiyaviy normalar: prinsip-normalardan, maqsad-normalardan, ta’rif-normalardan, deklarativ-normalardan iborat bo‘lib, o‘zining asosan *dispozitivligi* bilan xarakterlanadi. Ikkinchidan, konstitutsiyaviy normalar yuqori umumlashuv xususiyatiga ega bo‘lib, boshqa huquqiy normalarga nisbatan ustuvor, yo‘naltiruvchi va ta’sis etuvchi normalardir, ularning yuridik kuchi ham yuqoriroq. Uchinchidan, konstitutsiyaviy normalar o‘zining huquqiy tartibga solish va amalga oshish mexanizmi xususiyatlari bilan ajralib turadi. To‘rtinchidan, konstitutsiyaviy qonunchilik normalari o‘z strukturasining alohidaligi bilan ham ajralib turadi. Masalan, ularda ko‘pincha gipoteza va dispozitsiya mavjud bo‘lib, sanksiyasi hamma vaqt ham aks ettirilavermaydi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning normalari bilan boshqa konstitutsiyaviy qonunchilik hujjatlari normalari o‘rtasida ham farq bor. Konstitutsiyaning normalari quyidagi jihatlari bilan ustuvorlik kasb etadi: a) eng yuqori yuridik kuchga egaligi; b) o‘ta yuqori ta’sis etuvchi imkoniyatga egaligi; v) nisbatan yuqori barqarorlikka egaligi; g) davlat tomonidan birinchi darajadagi muhofaza bilan ta’minlanadi (shuningdek, ular Konstitutsiyaviy sud vositasida ham muhofazalanadi); d) o‘z ko‘lami bo‘yicha universal va keng huquqiy tartibga solish imkoniyatiga egaligi; ye) huquqiy tartibga solish doirasiga boshqa tarmoq huquqiy normalarini ham jalb eta olganligi sababli konstitutsiyaviy qonunchilik normalari *integrativ (birlashtiruvchi),* safarbar etuvchi xususiyatlarga ham egadir [10].

Konstitutsiyaviy qonunchilikning xususiyatlaridan yana biri – ular manbalarining muhimligidir. Birinchidan, konstitutsiyaviy normalar barcha vakolatli davlat organlarining qonun chiqarish va huquq ijodkorlik vakolatlarini belgilab beradi. Ikkinchidan, ushbu qonunchilik normalarining mazmuni davlat hokimiyati faoliyatiga o‘ta yaqin bo‘lib, ularning “ommaviy”lik xususiyati yuqoriroqdir.

Xulosa sifatida aytish lozimki, mamlakatimizda milliy qonunchilikning alohida mustaqil tarmog‘i – ***konstitutsiyaviy qonunchilik*** qaror topdi va takomillashib bormoqda. U davlatimizning konstitutsiyaviy modelini ifoda etib, uning tobora demokratik va huquqiy mazmun kasb etishiga huquqiy zamin yaratmoqda.

ISSN 3030-3230

Konstitutsiyaviy qonunchilikning tizimi Konstitutsiyaning strukturasi, tizimidan ancha kengroq. Biroq, Konstitutsiyaning har bir normasi, prinsipi va g‘oyasi asosida qabul qilingan qonunlar hamda qonunchilik hujjatlari konstitutsiyaviy qonunchilik kategoriyasi tarkibiga kiradi.

Konstitutsiyaviy qonunchilikni tizimlashtirish, sistematizatsiya qilish bugungi kundagi dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Shu sababli mazkur qonunchilikni takomillashtirishning umumiy konsepsiyasini uni tizimlashtirishning ilmiy dasturini ishlab chiqish, shu bilan birga mamlakatning “Umumhuquqiy klassifikatorini” yangilash, modernizatsiya qilish lozim.

Аннотация. В статье на основе Конституции в новой редакции рассматриваются формирование и эволюция системы конституционного законодательства, а также анализируются ее понятие, сущность и особенности.

Ключевые слова: Конституция, законность, конституционное законодательство, конституционное регулирование.

Abstract. The article, based on the new edition of the Constitution, examines the formation and evolution of the system of constitutional legislation, and analyzes its concept, essence and features.

Key words: Constitution, legality, constitutional legislation, constitutional regulation.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. “Xalq so‘zi”, 2016-yil 8-dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘sha joyda. “Xalq so‘zi”, 2016-yil 8-dekabr.
3. Qarang: Odilqoriyev X.X. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimi. – T., 2008, 7-8-betlar; Rahmonqulov X.R. O‘zbekiston Respublikasining milliy huquq tizimi. – T., 2007, 10-11-betlar.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: 12.- T., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 206-b.
5. Odilqoriyev X.X. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimi. T., TDYUI, 2008. – 49-50-betlar
6. Qarang: Тультеев И. Модернизация конституцияонного законодательства Узбекистана: некоторые итоги и перспективы. / O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining Axborotnomasi. – 2013, №4, 16 – 19-betlar.
7. Раҳмонов А.Р. Конституционные правоотношения в звене механизма конституционного регулирования. / IIV Akademiyasining Axborotnomasi. – 2011, №4, 17-bet.
8. Qarang:Конституционное законодательства России / Под ред.Ю.А.Тихомирова. – М., 1999, с. 22.
9. Konstitutsiyaviy tartibga solish borasida batafsilroq qarang: Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T., 2002, 277-283-betlar; Морозова Л.А. Конституционное регулирование в СССР. – М., 1985; Лапаева В.В. Конституционное регулирование процессов создания и деятельности общественных объединений. – В кн.: Конституционное законодательство России. – М., 1999. – с.283-312.
10. Qarang: Аничкин Е.С. Конституционное законодательство Российской Федерации: понятие, признаки, источники // Правоведение, 2006, №4, с.95-96.

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA – HARBIY JINOYAT PROTSESSINING HUQUQIY ASOSI

Alimov Muhammadjon Islomiddin o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

Annotatsiya. **Mazkur maqolada yangi tahrirdagi Konstitutsiyada shaxs huquqlarini kafolatlari keltirilgan normalarning harbiy jinoyat protsessida jinoyat ishi doirasida dalillarni to‘plash va qayd etishdagi ahamiyati tahlil etilgan holda ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.**

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, harbiy xizmatchi, harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar, jinoyat protsessi, dastlabki tergov, tergov harakatlari.

Harbiy jinoyat protsessida harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarda dalillarni qayd etishda birinchi navbatda jinoyatchi shaxsining jinoyat protsessining maxsus subyekti ekanligi, jinoyatni sodir etish va uni yashirish usullari, jinoyat joyi va vaqti kabi omillar to‘g‘risida kriminalistik ahamiyatga ega ma’lumotlarni kirishi belgilangan[1].

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida “Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi[2]” belgilangan. Mazkur tartibni asosiy qonunda belgilanishi jinoyat ishlari yuzasidan sudga qadar ish yuritish va sud muhokamasi bosqichida barcha vakolatli organlarga qo‘shimcha mas’uliyat yuklaydi! Mazkur tartib birgalikda harbiy xizmat o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar yuzasidan ham tatbiq etiladi.

Mamlakatimiz olimlaridan M.Po‘latov va E.Xomidovlar komandirlar (boshliqlarning) qurol-yarog‘, harbiy texnika va boshqa moddiy vositalarning saqlanishi va holati uchun javobgar ekanligini va harbiy xizmatchilarning harbiy mulkni saqlash bo‘yicha yuklatilgan majburiyatlari, harbiy xizmatchining xizmat majburiyatlari hisoblagan holda ularni talon-toroj qilinishini oldini olish xizmat majburiyati ekanligini ta’kidlaganlar[3].

Mazkur fikrlarni qo‘llab-quvvatlagan holda harbiy qism hududida o‘tkazilgan bino va inshootlar bilan bog‘liq isbotlash tergov harakatlarida (Masalan: hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish JPKning 133-moddasi, eksperiment JPKning 155-moddasi[4]) harbiy qo‘mondonligi yoki moddiy javobgar shaxslarning ishtirok etishi shart.

Sababi, harbiy qismning kirish-chiqish rejimi uchun harbiy qism shtab boshlig‘i, harbiy moddiy buyumlar saqlanishi uchun mazkur buyumlarning saqlanishi va tasarruf etilishi uchun moddiy javobgar bo‘lgan harbiy xizmatchilarning bevosita xizmat majburiyatiga kiradi. Shu nuqtai nazardan mazkur mansabdor shaxslarning bevosita javobgarligiga kiruvchi vazifalar bilan bog‘liq tergov harakatlarida mazkur shaxslarning ishtirokini ta’minlash maqsadga muvofiq.

Masalan, harbiy qism hududida joylashgan omborxonadan talon-toroj qilingan moddiy tovar boyliklari yuzasidan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi yuzasidan o‘tkazilgan hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish tergov harakatlarida ombor boshlig‘ining, harbiy qism hududida o‘tkazilgan har qanday tergov harakatida harbiy qism shtab boshlig‘ining yoki qism qo‘mondonligining ishtirokini ta’minlash mazkur mansabdor shaxslarning bevosita xizmat majburiyatlari mazkur bino va inshootlarning xavfsizligini ta’minlash va moddiy buyumlarni saqlanishi uchun javobgar bo‘lganliklari sababli lozim va shart hisoblanadi.

Mazkur holat yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasiga ko‘ra, JPKning 139-moddasi (Tevarak-atrof va binolarni ko‘zdan kechirish)da harbiy qismda, shtabda va muassasada o‘tkazilsa – qo‘mondonlik vakilining, zarur hollarda esa, moddiy javobgar shaxsning qatnashishi shartligi belgilangan. Lekin, harbiy qism hududida ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish (JPKning 133-moddasi) va eksperiment (JPKning 155-moddasi) tergov harakatlari o‘tkazish tartibida qo‘mondonlik vakilining, zarur hollarda esa, moddiy javobgar shaxsning qatnashishi shartligi belgilanmagan.

Mazkur isbotlash tergov harakatlarini o‘tkazishda qo‘mondonlik vakili va agar tergov harakati moddiy buyumlar saqlash omborxonalarida o‘tkazilsa, moddiy javobgar shaxsning qatnashishi shartligini belgilash maqsadga muvofiq. Shu sababli, JPK 133, 155-moddalarining oxirgi bandi “Agar mazkur tergov harakati harbiy qismda, shtabda va muassasada o‘tkazilsa – qo‘mondonlik vakilining, zarur hollarda esa, moddiy javobgar

 ISSN 3030-3230

shaxsning qatnashishi shart[5]” jumlasi bilan to‘ldirilishi maqsadga muvofiq.

Shu bilan birgalikda, harbiy xizmatchilar ishtirokida sodir etilgan jinoyatlar, umuman barcha turdagi jinoyatlar yuzasidan tergov harakatlaridan yana biri pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish (JPKning 166-moddasi) hisoblanadi. Mazkur tergov harakati tahlil etilganida, qonunchilikda pochta-telegraf jo‘natmalariga barcha turdagi xatlar, telegrammalar, radiogrammalar, banderollar, posilkalar, pochta konteynerlari kirishi belgilanganligi ko‘rildi. Lekin, hozirgi kunda aksariyat jinoyatlarni sodir etishda jinoyatchilar xatlar, telegrammalar, radiogrammalardan foydalanmasligi, aksincha hozirda mazkur ro‘yxatda bo‘lmagan “SMS” xabarlar orqali, internet tarmog‘idagi “messenjer”lar orqali axborot almashinishi natijasida sodir etilishi aniqlandi. Lekin amaldagi qonunchiligimizda mazkur xabarlarni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan xatlash bo‘yicha huquqlar berilmagan.

Bizningcha, ijtimoiy tarmoqlardagi xat yozishmalarni xatlashning imkoni mavjud emas, sababi, mazkur “messenjer”lar yaratuvchilarining 100%ini O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan yuridik shaxslar tashkil etadi. Ular bilan bevosita hamkorlikni amalga oshiruvchi hozirgi kunda amaldagi shartnomalar mavjud emas. Lekin, mamlakatimiz hududida joylashgan uyali aloqa operatorlari abonentlari tomonidan jo‘natilgan “SMS” xabarlarni biror-bir baza yoki abonent raqamiga surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan aloqa xati orqali xatlashning imkoni mavjud.

Mazkur masalani yechimi sifatida pochta-telegraf jo‘natmalari ro‘yxatiga uyali aloqa vositalari orqali jo‘natilgan “SMS” xabarlarni ham kiritish maqsadga muvofiq. Shu sababli, JPKning 166-moddasi (Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish)ning ikkinchi qismga “pochta konteynerlari” jumlasidan so‘ng, “shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi uyali aloqa operatorlari abonentlari tomonidan yuborilgan SMS xabarlar” jumlasini kiritish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga harbiy xizmatchilar ishtirokida sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan o‘tkazilgan ekspertizalarning o‘tkazilishidagi tashkiliy muammolari o‘rganilganda, sud psixiatriya ekspertizasi Toshkent shahrida va viloyatlar markazlarida Sog‘liqni saqlash vazirligi psixiatrik dispanserlarida o‘tkazilayotganligi aniqlandi[6].

Agar jinoiy qilmish sodir etgan harbiy xizmatchining jinoyat sodir etish vaqtidagi ruhiy holati qoniqarli ekanligiga harbiy qism tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi shubhalansa, birinchi galda harbiy xizmatchi “Harbiy klinik gospitalning ruhiy kasalliklar bo‘limi”ga davolanishga yotqiziladi va parallel tarzda sud-psixiatrik ekspertizasi tayinlanadi. Mazkur holat viloyatlardagi harbiy qism tergovga qadar tekshiruv olib borayotgan mansabdor shaxs uchun harbiy xizmatchilarning ruhiy kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarni faqat Toshkent shahrida joylashgan “Markaziy harbiy klinik gospital”da davolanishini nazarda tutadigan bo‘lsak, sud-psixiatrik ekspertizani yoki “Respublika ruhiy kasalliklar dispanseri”ga yoki “Toshkent shahar ruhiy kasalliklar dispanseri” ekspertlariga tayinlashi ortiqcha ovoragarchiliklarni keltirib chiqaradi.

Kelajakda harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan isbotlash tergov harakati hisoblangan sud psixatriya ekspertizasi tayinlashdagi tergovchi (surishtiruvchi), tergovga qadar tekshiruv olib boruvchi mansabdor shaxslar, va harbiy sudlarning ortiqcha ovoragarchiligini oldini olish maqsadida joylardagi harbiy gospitallar qoshida ruhiy kasalliklarni davolash bo‘limlarida tayinlangan sud-psixiatrik ekspertizalar yuzasidan xulosalar berish amaliyotini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Harbiy xizmatchilar ishtirokida sodir etilgan jinoyatlarning boshqa turdagi jinoyatlardan yana bir farqi shundaki, harbiy xizmatchilar o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan holda, xizmat majburiyati sababli respublikaning turli joylari (viloyatlari) bilan bog‘liq holda faoliyatini olib boradi. Masalan, o‘zi Toshkent shahridan bo‘lsa, shartnoma asosidagi harbiy xizmatni Xorazm viloyatida o‘taydi, natijada, harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bir joyda boshlanib ikkinchi joyda tugallanishi, yoki jinoyatda ishtirokchilar Respublikaning turli joylaridan bo‘lishi mumkin. Shu sababli harbiy prokuratura tergovchilari tomonidan respublikaning turli viloyatlarida protsessual isbotlash tergov harakatlarini olib borishga majbur bo‘ladilar.

Yuqoridagi tergov harakatlarini harbiy prokuratura tergovchisi tomonidan qanday tartibda bajarish tartibi o‘rganilganida, amaldagi JPKning 347-moddasiga asosan dastlabki tergovni olib borayotgan tergovchi o‘z yurituvida bo‘lgan jinoyat ishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining hududida istalgan joyda biror tergov harakatini shaxsan o‘zi bajarishga yoxud uni o‘tkazishni boshqa tergovchiga yoki surishtiruvchiga topshirishga haqli ekanligi ko‘rsatilgan. Mazkur holat o‘z-o‘zidan tergovchining ortiqcha ovoragarchiligiga va ortiqcha protsessual muddatlarning sarflanishiga olib keladi. Natijada

ko‘p hollarda jinoyat ishi yuzasidan o‘tkazilayotgan dastlabki tergov muddatlari uzaytirilishiga olib keladi.

Mazkur holatlarni oldini olish maqsadida mamlakatimizda amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi №PQ-4447-sonli qarorining 7-bandida “Qurolli kuchlarni butlash territorial va eksterritorial tamoyillari asosida amalga oshirilishi” belgilangan. Hozirgi kunda amaliyotda aksariyat harbiy xizmatchilar eksterritorial tartibda xizmat o‘tashini inobatga olsak yuqoridagi muammoni kelib chiqishiga sabab bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin[7]. Shu sababli, mazkur Nizomning 7-bandidan “va eksterritorial” so‘zlarini chiqarib tashlash maqsadga muvofiq.

Mazkur yuqorida keltirilgan fikrlarga asosan harbiy jinoyatlar bo‘yicha harbiy prokuratura organlari tomonidan dastlabki tergov o‘tkazishda quyidagi protsessual harakatlar yuzasidan qonunchilikni takomillashtirish maqsadga muvofiq:

birinchidan, harbiy prokuratura tergovchilari tomonidan harbiy qism hududida hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish va eksperement o‘tkazishda moddiy javobgar shaxsni va harbiy qism qo‘mondonligini ishtirokini ta’minlash maqsadida amaldagi JPK 133, 155-moddalarining oxirgi bandi “Agar mazkur tergov harakati harbiy qismda, shtabda va muassasada o‘tkazilsa – qo‘mondonlik vakilining, zarur hollarda esa, moddiy javobgar shaxsning qatnashishi shart” jumlasi bilan to‘ldirilishi maqsadga muvofiq;

ikkinchidan, harbiy prokuraturada yuritilayotgan jinoyat ishlari yuzasidan haqiqatni aniqlash va ishga oid dalillarni to‘plash maqsadida pochta-telegraf jo‘natmalari ro‘yxatiga uyali aloqa vositalari orqali jo‘natilgan “SMS” xabarlarni ham kiritish maqsadga muvofiq. Shu sababli, JPKning 166-moddasi (Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish)ning ikkinchi qismga “pochta konteynerlari” jumlasidan so‘ng, “shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi uyali aloqa operatorlari abonentlari tomonidan yuborilgan SMS xabarlar” jumlasini kiritish maqsadga muvofiq.

Аннотация. В данной статье разработаны научно обоснованные предложения, анализирующие значение норм, гарантирующих права личности в новой редакции Конституции, в сборе и фиксации доказательств в рамках уголовного дела в военном уголовном процессе.

Ключевые слова: Конституция, военнослужащий, преступления против порядка прохождения военной службы, уголовный процесс, предварительное следствие, следственные действия.

Annotation. This article analyzes the significance of the norms guaranteeing individual rights in the new edition of the Constitution in gathering and recording evidence within the framework of criminal proceedings in military criminal proceedings.

Key words: Constitution, serviceman, crimes against the order of military service, criminal procedure, preliminary investigation, investigative actions.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.I.Alimov. Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning kriminalistik metodikasi / –Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. 95 б.
2. 30.04.2023. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - https://lex.uz/docs/6445145 - murojaat sanasi 10.10.2025 yil.
3. Пулатов, М., Хомидов, Э. (2022). Материальная ответственность военнослужащих основы и виды учреждения. Общество и инновации, 3(3/S), 89–97. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss3/S-pp89-97- murojaat sanasi 10.10.2025 yil.
4. 22.09.1994. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси - https://lex.uz/docs/111460 - murojaat sanasi 10.10.2025 yil.
5. 22.09.1994. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси - https://lex.uz/docs/111460 - murojaat sanasi 10.10.2025 yil.
6. Тадқиқотчи томонидан жойлардаги ҳарбий қисмларда терговга қадар текширув ўтказувчи мансабдор шахслар билан ўзаро оғзаки анкета сўров натижаларига ва Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий судида жиноят ишлари билан танишиш натижаларига асосланади.
7. PQ-4447-сон 12.09.2019. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida - https://lex.uz/ru/docs/-4513434 - murojaat sanasi 10.10.2025 yil.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI - HARBIY XIZMATCHILARNI HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFOLATI

Olimjonov Xushnudbek Maxamadsalim o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. **Ushbu maqolada bugungi globallashuv jarayonida yangi islohotlar bosqichida mamlakatimizda harbiy xizmatchilarning huquqlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining harbiylarning huquq va erkinliklari tizimini rivojlantirishdagi o‘rni va roli yoritilgan.**

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, harbiy xizmatchi, inson huquqlari, siyosiy huquq, ijtimoiy huquq, ijtimoiy munosabat, islohot, qonun, farmon, qaror, dunyoviy, istiqbol, jamiyat, mamlakat, huquq va erkinliklar.

Hozirgi davrda mamlakatimiz o‘zining dunyoda munosib o‘rnini egallagani avvalo, istiqlol sharofati bilan tanlangan yo‘l va qabul qilingan Konstitutsiyamizning hayotiy qoidalari samarasi orqali deyishimiz mumkin.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqida “Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz” – deb ta’kidlab o‘tgan.

Avvalo, inson, uning haq-huquqlari va baxt saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadi bo‘lishi lozim. Jamiyat qurilishi va davlat siyosati ana shu g‘oyaga tayanishi hamda “Davlat - inson uchun” tamoyili asosida tashkil etilishi darkor. Mazkur tamoyilga amal qilish esa, insonni va uning manfaatlarini davlat siyosati va islohotlarning asosiy mezoniga aylantirish lozimligidan dalolat beradi. Bu nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda mazkur islohotlarning eng demokratik tamoyillarga mosligi, ularning pirovard maqsadi va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi inson manfaatlari, haq-huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga qaratilganining e’tirof etilishiga sabab bo‘lmoqda. [3]

O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, fuqarolarga munosib turmush sharoitini yaratish, millatlararo totuvlikni ta’minlash va rivojlantirish, hokimiyat tizimini demokratlashtirish va fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga aylanib, “inson qadri uchun”[4] degan ulug‘ tushuncha markaziy o‘ringa qo‘yildi.

Darhaqiqat, hozirgi rivojlanish bosqichlari shiddat bilan avj olayotgan davrda inson qadrini ulug‘lash, huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning qobiliyatlari va iste’dodlarini qo‘llab-quvvatlash demokratik davlatlarning bosh mezoniga aylandi. Inson qadri uning tinch hayot kechirishi va osuda umr ko‘rishi, huquq va erkinliklarini davlat tomonidan himoyalanganligi, ijtimoiy-huquqiy jihatdan ta’minlanganligi kabi holatlar inson qadri ulug‘ ne’mat ekanligini anglatadi.

Mazkur yo‘nalishdagi islohotlarning tub mohiyatida erkin huquqiy sharoit, qonuniy kafolat yotadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning istiqlol va ozodlik uchun olib borgan mashaqqatli kurashi natijasi, milliy manfaatlarimiz va intilishlarimizga asoslangan, xalqaro huquq normalariga mos muhim manba bo‘lishi bilan bir qatorda, amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning bosh huquqiy kafolati hisoblanadi.

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ga muvofiq, har bir inson jamiyat a’zosi sifatida milliy kuch-harakatlar hamda xalqaro hamkorlik vositasida va har bir davlatning tuzilishi, shuningdek, resurslariga muvofiq ijtimoiy ta’minotga va o‘zining qadr-qimmatini saqlash, shaxsning erkin rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi huquqini amalga oshirishga haqli[1].

Konstitutsiya mamlakatning asosiy yuridik hujjati bo‘lib, uning ustuvor normalari davlat tuzumi va ijtimoiy hayot me’yorlarini belgilab beradi. Bosh qomusimiz umuminsoniy demokratik prinsiplarni o‘zida mujassam etuvchi, insonni, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat deb e’tirof qiluvchi davlat hamda jamiyat tuzumining huquqiy asoslarini mustahkamlovchi yuridik hujjatdir.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 152-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi...”[2] deb mustahkamlangan.

Ushbu norma mamlakat Qurolli Kuchlarini tashkil etilishi va harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini huquqiy ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois yuridik hujjatlarning negizi bo‘lgan mamlakat Konstitutsiyasi barcha sohalar kabi harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda insonning munosib hayoti va erkin rivojlanishini ta’minlaydigan shart-sharoit yaratish fuqaroning o‘zining sof shaxsiy ishi emas, balki milliy siyosat darajasiga ko‘tariladi. Shuningdek, armiyada amalga oshirilayotgan harbiy islohot tashqi siyosat va ichki ijtimoiy-iqtisodiy voqelik, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari chaqiriqlariga javob berishga mo‘ljallangan bo‘lib, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, harbiy ijtimoiy himoya tizimining huquqiy asoslarini zamon talabiga mos ravishda rivojlantirish, harbiy xizmatchilar turmushining farovonlik darajasini ko‘tarishda qonun ustuvorligini ta’minlash davlat tomondan olib boriladigan ijtimoiy siyosatga bevosita bog‘liq. Bunday siyosatning asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va “Harbiy xizmatchilarning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari jamiyat hayotining muhim bo‘lagi bo‘lib, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlovchi asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Mazkur faoliyatni amalga oshirish jarayoni huquq normalari bilan tartibga solinadi hamda Konstitutsiya, harbiy qonunchilik va harbiy nizomlarning talablariga asoslanadi [8].

Har bir davlatning Konstitutsiyasi o‘ziga xos jihatlariga ega bo‘lib, uning milliy xususiyatlari, an’analaridan kelib chiqadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatiga birinchi navbatda inson qadri eng oliy qadriyat ekanligi singdirilib, uning asosiy mantiqiy yo‘nalishi “inson-jamiyat-davlat” manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan.

Haqiqatdanham, Konstitutsiyada inson huquqlarining ustunligiga, fuqarolarning munosib hayot kechirishiga, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga, xalq tinchligi va milliy totuvlik g‘oyalariga alohida ahamiyat berilgan. Shuningdek, Konstitutsiyada barcha demokratik davlatlarda bo‘lgani kabi barchaning qonun oldida tengligi, shaxsning davlatga nisbatan ustuvorligi kabi insonparvarlik tamoyillariga katta ahamiyat berilgan.

Xususan, Konstitutsiyaning 54-moddasida “Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi”, deya belgilangan[2].

Ushbu normada mustahkamlangan qoidalarning hayotimizda to‘liq amaliy ifodasi topganligini bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari o‘zaro hamkorlikda, do‘stona va hamjihatlikda tinch va farovon yashab kelayotganliklaridan ham, shuningdek 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar[7] erkin faoliyat yuritayotganidan ham ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan asosiy maqsadlar, ya’ni, bozor iqtisodiyotiga asoslangan mustaqil demokratik davlat qurish, inson manfaatlari, qonun ustuvorligi va davlatda istiqomat qiluvchi turli millat va elat vakillari uchun ularning millati, tili, dini, irqi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar qonun oldida tenglik tamoyili ta’minlanadigan fuqarolik jamiyatini takomillashtirishni mustahkamlash hisoblanadi.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi raisi A.Saidov o‘zining nutqida “O‘zbekistonda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalari ustunligi konstitutsiyaviy asosda e’tirof etiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz inson huquqlari bo‘yicha 70 dan ziyod xalqaro hujjatlar, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan inson huquqlari bo‘yicha qabul qilingan 10 ta majburiy xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilib, o‘zining xalqaro majburiyatlarini muntazam ravishda bajarib kelmoqda”[5] – deb to‘xtalib o‘tdi.

Mustaqillik yillarida milliy qonunchiligimizda insonparvarlik tamoyillarining kuchaytirilganligi harbiy xizmatchilar huquq va erkinliklari muhofazasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, harbiy xizmatchilar manfaatlari ustuvorligi mustaqillik yillarida amalga oshirilgan barcha islohot va yangilanishlarning muhim mezoniga aylandi.

Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilganidek fuqaro va davlat munosabatlari alohida ahamiyat

ISSN 3030-3230

kasb etib, o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘lanishi belgilab berilgan bo‘lib, insonning Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquq va manfaatlari hamda erkinliklarini odil sud qarorisiz hech qaysi yo‘l bilan cheklash mumkin emas, ular daxlsizdir.

Harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklari davlat tomonidan ta’minlanadi. Huquq va erkinliklarni sud orqali himoya qilish, har qanday tashkilot va harbiy xizmatchilarning qonun buzilish holatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqlari mavjud bo‘lib, ayrim holatlarda ularga nisbatan ko‘rilgan jazo choralari yuzasidan himoyalanishlari mumkin.

Mamlakatimizda Konstitutsiyamiz qabul qilingan kun, ya’ni, 8-dekabr sanasi – har yili xalqimiz tomonidan keng bayramona nishonlanib kelinadi. Ayni shu kunda xalqimizning ezgu orzu va intilishlarini o‘zida ifoda etadigan, jamiyatimiz rivojiga xizmat qiladigan eng ustuvor yo‘nalishlar belgilab olinadi va bu yo‘nalishlar keng rivojlantiriladi.

Shu o‘rinda statistik ma’mulotlarga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, so‘ngi yillarda inson huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha muhim qadamlar tashlandi. Jumladan, mamlakat aholisi uchun uzoq yillardan buyon og‘riqli masala bo‘lib kelgan “propiska” tizimi tubdan isloh qilindi. Fuqarolik berish tartibining soddalashtirilishi natijasida so‘ngi yillarda 70 mingdan ortiq shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilindi [7].

Shuningdek, xorij olimlarining fikrlariga yuzlanadigan bo‘lsak, Й.П.Юрченко “Институционализация военно-социальной работы в Вооружённых Силах Российской Федерации” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida harbiylik kasbining o‘ziga xos tomonlarini, harbiy ijtimoiy sohasini institutlashtirishni tahlillar asosida yoritib bergan. Rus harbiy nazariyotchisi В.М.Корякин “Правовые основы военно-социальной работы в Вооружённых Силах Российской Федерации” nomli dissertatsiya ishida esa harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini, umuman, harbiy tashkilotning asosiy ijtimoiy muammolarini tahlil qiladi va harbiy jamiyatdagi ijtimoiy qarama-qarshiliklarni hal qilishning asosiy yondashuvlarini asoslaydi[8].

Mazkur tahlillar natijasidan mamlakatimizda inson huquqlari sohasida olib borilayotgan ishlar negizida inson qadri eng yuqori darajada turganligini, fuqarolarni huquq va erkinliklarining himoyasi davlat tomonidan ta’minlanayotganligini, shuningdek, shaxsiy huquq va erkinliklar instituti normalarida insonning yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi, aybsizlik huquqi, sha’n va obro‘ga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqi, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, fikr so‘z va e’tiqod erkinligi huquqi, o‘z huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish huquqi, vijdon erkinligi kabi konstitutsiyaviy tamoyillar o‘z ifodasini topgan bo‘lib, bugungi kunda ushbu tamoyillar asosida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan, xususan, sud-huquq tizimidagi islohotlarning bosh maqsadi inson huquqlari va ularning kafolatlariga qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xalqimiz istiqlol yillarida erishgan bunday yutuqlar, tinch-osoyishta, to‘kin va farovon hayotimiz – bularning barchasini negizida Konstitutsiyamiz turibdi. Zero, Asosiy qonunimiz demokratik huquqiy davlat barpo etish, inson huquqlari ustuvorligini, millat va elatlararo tinchlik-osoyishtalikni ta’minlashdek ulkan maqsadlarga erishishning muhim kafolatidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashni yanada takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar mavjud, birinchidan, sudlar faoliyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash, ikkinchidan, advokatlar faoliyati vakolatlarini kengaytirish, uchinchidan, harbiy xizmatchilarning huquqiy ximoyasini takomillashtirish lozim.

Shu bilan birga, inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadi. Inson huquqlari, ozodlik, barqarorlik va taraqqiyot majmuini ifodalaydigan demokratik huquqiy va adolatli davlatni mustahkamlashning yangi mexanizmlarini joriy etish, qonun ustuvorligi hamda qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirish, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga mas’ul bo‘lgan tashkilotlarning hamkorligini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Buning natijasida mamlakatimizda insonlar, qolaversa harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, yurtimizda demokratiya va umuminsoniy prinsiplarga to‘liq roiya etishga qaratilgan yuksak maqsadlar amaliyotini yaratishimi mumkin.

Аннотация. в данной статье рассматриваются реформы, реализуемые в нашей стране в области прав военнослужащих на этапе новых реформ в процессе современной глобализации, место и роль Конституции Республики Узбекистан в развитии системы прав и свобод военнослужащих.

Ключевые слова: Конституция, военнослужащий, права человека, политическое право, социальное право, общественные отношения, реформа, закон, указ, решение, светский, перспектива, общество, страна, права и свободы.

Annotation. This article discusses the reforms being implemented in our country in the field of military personnel’s rights at the stage of new reforms in the process of today’s globalization, the place and role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in developing the system of rights and freedoms of military personnel.

Key words: Constitution, military serviceman, human rights, political law, social law, social relations, reform, law, decree, decision, secular, perspective, society, country, rights and freedoms.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yil 10-dekabr // https://constitution.uz/uz/pages/human rights
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T., “O‘zbekiston” NMIU. 2023 – 128 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. // Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi. 06.11.2021. // www.president.uz
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent “O‘zbekiston”, 2021. – 464 bet.
5. Saidov A.X. Inson huquqlarini ta’minlash — bosh maqsadimiz // https://constitution.uz/uz/pages/maqola55
6. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi Axborot xizmati// https://strategy.uz/index.php?news=1014.
7. https://uza.uz/uz/posts/harakatlar-strategiyasi-bilan-besh-yil-islohotlar - sarhisobi_344372.
8. Hashimova G.I. Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-huquqiy himoya qilishning faol shakllari va ijtimoiy-huquqiy himoyasi tizimi // Markaziy osiyoda jamiyat, gender va oila xalqaro ilmiy jurnali. –T: 2024/4 (13) –B.51

HARBIY XIZMATCHILAR MODDIY JAVOBGARLIGINING VUJUDGA KELISH ASOSLARI VA TURLARI

Ikramov Alisher Aktamovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi professori,
harbiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada moddiy javobgarlik tushunchasi va xususiyati harbiy xizmatchilar tomonidan davlat mulkiga, harbiy mulkka yetkazilgan moddiy zarar o‘rnini qoplashning usuli sifatida yuridik javobgarlik tadqiq etilib, harbiy xizmatchilar moddiy javobgarligining yuzaga kelish asoslari, boshqa javobgarlik turlari bilan o‘zaro bog‘liqligi va farqi yoritilgan. Shuningdek, maqolada milliy qonunchiligimiz, sud amaliyoti o‘rganilib, mual- lif tomonidan qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: yuridik javobgarlik, moddiy javobgarlik, mehnat huquqi, fuqarolik huquqi, intizomiy javobgarlik, davlat mulki, harbiy mulk, soliq huquqi, ayb, sababiy bog‘lanish, zarar, qilmish, xizmat faoliyati.

Yangi O‘zbekiston sharoitida harbiy islohotlarning eng muhim jihatlaridan biri O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar salohiyatini yuqori darajada saqlash, jismoniy va ma’naviy jihatdan yuksaltirib borish hisoblanadi [1].

Joriy yilning yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Xavfsizlik kengashi a’zolari, Qurolli Kuchlarimizning qo‘mondonlik tarkibi, harbiy-ma’muriy sektorlar rahbarlari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi. Oxirgi yetti – sakkiz yil ichida harbiy qurilishning barcha yo‘nalishlarida amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida milliy armiyamizning qiyofasi ham, qo‘shinlarning tayyorgarlik darajasi ham o‘zgardi. Harbiy qism va poligonlardagi infratuzilma, askar va ofitserlarning sharoitlari yaxshilandi. Bu ishlar izchil davom ettirilib, jangovar bo‘linmalar imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Qurolli Kuchlarni zamonaviy qurol-yarog‘ hamda harbiy texnika bilan ta’minlash, mavjudlarini modernizatsiya qilish ham harbiy qurilish sohasidagi eng ustuvor vazifalardan bo‘lib qoladi. Ushbu maqsadlar va zamonaviy tahdidlar xususiyatidan kelib chiqib, 2022–2026 yillarda Qurolli Kuchlarni yanada rivojlantirish bo‘yicha konseptual dastur qabul qilish vazifasi qo‘yildi [2].

Ushbu konseptual dasturlardan biri sifatida quyidagilarni tushunishimiz mumkinki, harbiy xizmatchilar xizmat faoliyatlari davomida davlat mulkini asrash, harbiy mulkka yetkazilgan zarar o‘rnini qoplash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadida harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarlikning belgilanishi davlat mulkidan foydalanish va uni boshqarishni nazarda tutadigan yangicha qarashlarni hamda uning vujudga kelish asoslarini, tahliliy yechimlarini keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasining Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida qonunining VIIII – bobida[3] va 2006-yil 5-iyuldagi Davlatga yetkazilgan zarar uchun harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomda harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarlikka tortish tartibi va shartlari belgilab qo‘yilgan. Biroq ushbu qonun hujjatlarida harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligining aniq ta’rifi belgilanmagan. Ushbu vaqtinchalik nizomda harbiy nizom, buyruq va boshqa hujjatlarda ko‘zda tutilgan xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida davlatga zarar yetkazishda aybdor deb topilgan oddiy askar, serjant va ofitserlar tarkibi lavozimlarida chaqiruv yoki shartnoma bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi haqiqiy harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilar, shuningdek, harbiy yig‘inlarga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar moddiy javobgarlikka tortiladilar [4], deb belgilangan.

Yuqorida sanab o‘tilgan shartlar harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi to‘g‘risidagi tushunchalarni ochib bermaydi, shuningdek, yuridik javobgarlikning ushbu turini mohiyatini aniqlash uchun yetarli emas deb hisoblash mumkin. Sohaga oid ilmiy ishlarda, shuningdek, harbiy-huquqiy adabiyotlarda harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi

tushunchasiga bir necha ta’riflar berilgan. 1962–1970 yillardagi harbiy-boshqaruvga oid yuridik adabiyotlarda harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi tushunchasida aybdor harbiy xizmatchilarning qonunga zid ravishda davlatga yetkazilgan mulkiy zararni to‘liq yoki qisman pul shaklida qoplash majburiyati yoritilgan. Harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi, davlatga yetkazilgan zararni qoplash majburiyati sifatidagi bunday o‘xshash ta’rif 1978-yildagi sovet harbiy ensiklopediyasida va 1983-yildagi harbiy ensiklopediyasida ham mavjud. 1980 va 1990 yillardagi “Harbiy boshqaruv darsliklarida” harbiy xizmatchilar moddiy javobgarligining eng to‘liq ta’rifini o‘z ichiga olgan yuridik (huquqiy) javobgarlikning bir turi sifatidagi vakolatli organ tomonidan belgilangan davlatga yetkazilgan moddiy zarar uchun pul shaklida to‘lanadigan majburiyat tushuniladi. Biroq harbiy xizmatchilar moddiy javobgarligi tushunchasidagi yuqoridagi ta’riflardagi ayrim kamchiliklarga qaramay ushbu ta’riflarda quyidagilar ta’kidlangan:

1. Barcha turdagi huquqiy javobgarlik davlat tomonidan belgilanadi.

2. Bunday javobgarlik davlatga yetkazilgan moddiy zararni to‘liq yoki qisman qoplash bo‘yicha qonuniy majburiyatdan iborat.

3. Harbiy xizmatchilarni moddiy javobgarlikka tortish, qonun hujjat- larida belgilangan hamda yetkazilgan zarar miqdoriga ta’sir qiluvchi shartlar mavjud bo‘lganidagina mumkin.

4. Davlatga yetkazilgan zararni undirish pul shaklida amalga oshirilishi. Harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligini belgilashda mavjud bo‘lgan xususiyatlar bir vaqtning o‘zida yuridik javobgarlikning xususiyatlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, yuqoridagi ta’riflar harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi faqat davlatga yetkazilgan zararni qoplash tarzida ayni vaqtdagi davlat majburlov chorasi sifatida tavsiflanadi. Harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi shaxsga nisbatan, eng avvalo, sud qarorini qo‘llamasidan oldin unga shaxsiy tashabbusni ham yuklaydi. Jumladan, zarar yetkazgan shaxs harbiy mulkka yetkazilgan zararni o‘z tashabbusi bilan yuqori qo‘mondonlikka axborot bergan xolda ko‘ngilli tarzda zararni qoplash imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham shaxsiy mas’uliyat harbiy xizmatchilarning davlat mulkini, shu jumladan, harbiy mulkni saqlashga qaratilgan mustaqil va tashabbuskor faoliyatdir desa bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomining 2-bo‘limining 6-bandida Harbiy xizmatchilar va harbiy yig‘inlarga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar harbiy mulkni (qurol-aslaha, jangovar va boshqa texnika, o‘q-dorilar, yonilg‘i, oziq-ovqat, harbiy ashyo, muhandislik, kimyoviy, uy-joy mulki, harbiy qism va muassasalar, harbiy-ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlar tasarrufidagi boshqa moddiy vositalar va pul mablag‘lari) qasddan yo‘q qilish, zarar yetkazish, ishdan chiqarish, o‘g‘irlash, kamomad, noqonuniy sarflash oqibatida yoki qasddan qilingan boshqa xatti-harakatlar natijasida zarar yetkazgan taqdirda ular o‘zida jinoiy tartibda ta’qib qilinuvchi harakatlarni mujassamlashtirgan yoki mujassamlashtirmaganidan qat’iy nazar, ularning aybi bilan davlatga yetkazilgan zararning to‘liq qiymati miqdorida moddiy javobgarlikka tortilishi [5] belgilangan.

Bundan tashqari, harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi to‘g‘risida 2002-yil 12-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida” gi 436-II-son Qonunida [6], shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Ichki xizmat nizomining 27 bandida, ushbu nizomning 3-bobida komandirlar (boshliqlarning) qurol-yarog‘, harbiy texnika va boshqa moddiy vositalarning saqlanishi va holati uchun javobgarligi belgilangan [7]. Demak, harbiy xizmatchilarning harbiy mulkni saqlash bo‘yicha yuklatilgan majburiyatlari, harbiy xizmatchining xizmat majburiyatlari hisoblanib, ularga rioya qilmaganliklari uchun, ya’ni davlatga ular tomonidan zarar yetkazilgan taqdirda zararni qoplash tarzidagi majburlov chorasi sifatida ko‘riladi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi, yuridik javobgarlikning bir turi sifatida qonun hujjatlarida belgilangan va davlat mulkini saqlash bo‘yicha vakolatli davlat organlari tomonidan ularga yuklatilgan majburiyatlaridir. Fuqarolik huquqida yetkazilgan moddiy zararni qoplash natura shaklida yoki pul shaklida qoplanishi nazarda tutilgan bo‘lsa-da, harbiy xizmatchilarning davlatga yetkazgan moddiy zararini natura shaklida qoplashni iloji yo‘q.

Birinchidan, harbiy mulk davlat tomonidan harbiy qismlarga yetkazib berilsa, u alohida davlat xaridlari asosida amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, muomalada bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydigan fuqarolik huquqlari obyektlarining turlari (muomaladan chiqarilgan obyektlar)

sirasiga kirishi bilan xarakterlanadi. Hamda muayyan muomala ishtirokchilarigagina qarashli bo‘la oladigan yoki muomalada bo‘lishiga maxsus ruxsatnoma bilan yo‘l qo‘yiladigan fuqarolik huquqlari obyektlarining (muomalada bo‘lishi cheklangan obyektlarning) turlari qonunda ko‘rsatilgan tartibda belgilanadi. Shuning uchun ham harbiy xizmatchilarning davlatga yetkazgan moddiy zararni o‘rnini pul shaklida, belgilangan hollarda va miqdorda undirish, davlatning majburlov choralarining bir turi sifatida tushuniladi. Biroq harbiy xizmatchilar moddiy javobgarligining ma’lum bir yuridik institutga tegishli degan xulosaga kelishimiz unchalik ham to‘g‘ri emas. Buning uchun esa harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligini alohida yuridik institutga ham, huquqning muayyan sohasiga ham bog‘lash imkonini beradigan eng muhim belgilar mavjudligini aniqlash kerak. Boshqacha qilib aytganda, harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligining huquqiy mohiyatini ochib berishimiz kerak.

Yuqoridagi ijtimoiy munosabatlarning huquqiy tabiati ushbu munosabat- larning ahamiyatiga mos keladigan muhim huquqiy belgilar majmui bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlarning huquqiy tabiati nafaqat tabiiy, balki zaruriy belgilar bilan tavsiflanadi. Bundan kelib chiqadiki, barcha hollarda huquqiy tabiat masalasi qonun bilan tartibga solinadigan munosabat- larning xususiyatlarini ochib berish bilan chambarchas bog‘liq. Harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi instituti tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar shuni anglatadiki, muayyan huquq sohasi tomonidan tartibga solish ekanligini ko‘rsatib beradigan, aynan ushbu sohaga tegishli ekanligini ko‘rsatadigan belgilarini aniqlash zarurati bilan ifodalanadi. “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi [8] qonunda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining amalga oshiradigan vazifalari ularning ko‘lami hayot va faoliyatning barcha bo‘g‘inlari, shuningdek, harbiy xizmatchilarning xulq-atvori va yuridik javobgarlik xususiyatlarining batafsil tartibga solinishi belgilab berilgan. Qonunning 3 moddasida favqulodda vaziyatlarda yoki O‘zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz bo‘lgan taqdirda aholini muhofaza etish tadbir-choralarini qamrab oladi. Harbiy xizmatchilarning jamiyatdagi huquqiy maqomining o‘ziga xos xususiyatlari davlatni himoya qilish bo‘yicha ularga yuklangan vazifalar hamda har qanday sharoitda, shu jumladan, hayot uchun xavf ostida bo‘lgan vazifalarni bajarish zarurati bilan belgilanadi. Yuridik fanda harbiy xizmatchilar moddiy javobgarligining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha ajratiladi:

a) yuridik javobgarlikka sabab bo‘ladigan huquqbuzarlikning keng doirasi;

b) ayrim huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning yuqori darajasi;

s) harbiy xizmatchilarni huquqiy javobgarlikka tortish bo‘yicha komandir va (boshliqlar)ga berilgan maxsus vakolatlarning mavjudligi;

d) qo‘llaniladigan qonuniy javobgarlik choralari hamda shartlarini amalga oshirish uchun komandirlarda maxsus hokimiyat vakolatlarining mavjudligi;

ye) huquqbuzarliklar uchun qo‘llaniladigan javobgarlik choralarining o‘ziga xos xususiyati.

Yuqoridagi xususiyatlarni harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, harbiy xizmatchilarning qurol-yarog‘, harbiy texnika va boshqa mol-mulkka nisbatan majburiyatlarini qonunchilik harbiy xizmatdan kelib chiqadigan burchlar, ya’ni harbiy xizmat vazifalari deb hisoblaydi. O‘z navbatida, komandirlarning (boshliqlarning) harbiy mulkni saqlash, aybdorlarni moddiy javobgarlikka tortish bo‘yicha majburiyatlari ularning xizmat vazifalari ijro hamda boshqaruv faoliyatining elementlaridan biri hisoblanadi.Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Intizom nizomida komandir (boshliq)larning harbiy xizmatchining davlatga yetkazilgan moddiy zarari uchun u bilan birgalikda subsidiar javobgarlikka tortilmaslik shartlari keltirilgan. Masalan, harbiy qismda (bo‘linma)larda yuqori harbiy intizom joriy etish uchun xizmatni o‘tash qoidalarining buzilishi hollarini zudlik bilan bartaraf etishi, harbiy qism (bo‘linma) jangovarligiga raxna soluvchi har qanday xatti-harakatning qat’iyat bilan oldini olishi, huquqiy targ‘ibot ishlarini olib borishi, jinoyat va boshqa hatti-harakatlardan ogohlantirish bo‘yicha ish olib borgan bo‘lsa, komandir (boshliq) faoliyatining bevosita natijasi sifatida yuz bermagan jinoyat, hodisa va ularning oldini olish to‘g‘risidagi ogohlantirishidan so‘ng ham chora ko‘rilmagan hollarda u javobgar bo‘lmaydi [9].

Davlatga yetkazilgan zarar uchun harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomning 8-bandida komandirlar (boshliqlar) ularning bo‘ysunuvchilari tomonidan davlatga yetkazilgan zarar uchun yetkazilgan

zararga teng, biroq bir oylik oklad pul ta’minotidan ortiq bo‘lmagan miqdorda moddiy javobgarlikka tortilishi belgilangan [10]. Harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarlik masalalari, harbiy xizmat munosabatlarining nafaqat o‘ziga xos tomonlari, balki qo‘shinlarning moddiy-texnik ta’minotining alohida xususiyatlari bilan ham chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo‘shinlarini moddiy ta’minlash vazifasi uning jangovar qobiliyati, salohiyati va sifatini kuchaytiruvchi, yagona markazlashgan boshqaruvni amalga oshiruvchi hamda boshqa chora-tadbirlarni o‘tkazish bilan uzviy bog‘liqdir. Qo‘shinlarning moddiy- texnik ta’minoti, qurol-yarog‘ va boshqa resurslarni to‘g‘ri taqsimlash, harbiy mulkni xavfsizligini kafolatlaydigan tashkiliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish, amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy boshqaruv va nazorat organlari, harbiy qism komandirlari (boshliqlari) tomonidan amalga oshiriladi.

Harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligini vujudga keltiradigan huquqiy munosabatlar harbiy xizmatning xususiyatlari, ma’muriy huquqiy munosabatlar bilan tavsiflanadi. Biroq harbiy xizmatchilar moddiy javobgarligining huquqiy mohiyatini faqat bir tomondan Qurolli Kuchlardagi ma’muriy huquqiy munosabatlar tartibida o‘rganib chiqish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Birinchidan, harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi mulkiy xarakterdagi umumiy xususiyatlarga ega bo‘lgan yuridik (huquqiy) javobgarlikning turi sifatida ko‘rib chiqiladi. Uning kelib chiqish asoslari, shartlari, huquqbuzarlik tarkibi va bosqichlarida; ikkinchidan, Qurolli Kuchlarda mulkiy munosabatlarni tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zaro munosabatlar, shuningdek, harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligining alohida xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqligida; uchinchidan, harbiy xizmatchilarni moddiy javobgarlikka tortishning amaliyotini xolislik, real voqelik va huquqiy normalar zarurligi nuqtai nazaridan ma’muriy va sud protsessda jiddiy tahlil qilish kerak.

Yuqoridagi jihatlar bilan birgalikda harbiy xizmatchilar moddiy javobgarligining huquqiy mohiyatini aniqlash va uni ochib berish mumkin. Nazariya va amaliyotda yuridik javobgarlikka xos bo‘lgan to‘rtta asosiy xususiyat mavjud: birinchidan, yuridik javobgarlik qonun hujjatlarini buzgan shaxslarga nisbatan davlat tomonidan majburiy ta’sir ko‘rsatish shakllaridan biri hisoblanadi; ikkinchidan, javobgarlik huquqbuzarlarga nisbatan faqat vakolatli davlat organlari tomonidan qo‘llaniladi; uchinchidan huquqbuzarlarga nisbatan javobgarlik, qonuniy choralar bo‘lgan qonun hujjatlarda nazarda tutilgan jazo choralarini qo‘llashdan iborat. Darhaqiqat, Fuqarolik kodeksining 11-moddasida nazarda tutilgan usullardan faqat zararni qoplash usuli universallik mezoniga to‘liq javob beradi. Chunki kreditor (talab qilish huquqiga ega shaxs) mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlari buzilgan taqdirda yoki shartnomaviy (agar zarar shartnoma majburiyatini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik sababli kelib chiqsa) va shartnomasiz (zarar yetkazish, asossiz boylik orttirish) majburiyat sohasida ham zararni qoplash huquqidan foydalanishi mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Fuqarolik kodeksining 11-moddasida belgilangan “zararni qoplash” usuli o‘z xususiyati va qo‘llanish sohasiga ko‘ra fuqarolik huquqlarini himoya qilishning universal (umumiy) vositasi hisoblanadi [11].

Huquq nazariyasi va amaliyotda ijtimoiy qoralangan xulq-atvor natijasida yuzaga kelgan va qonun normalariga zid bo‘lgan huquqbuzarliklarni bartaraf etishga qaratilgan davlatning majburiy choralarigina yuridik choralar sifatida tan olinadi. Shu munosabat bilan huquqbuzarlik, odatda, yuridik javobgarlikning huquqiy asosi deb ataladi. Fan va amaliyotda turli huquqiy asoslarga ko‘ra yuridik javobgarlik, odatda, jinoiy, ma’muriy, fuqarolik, moddiy, intizomiy javobgarlikka bo‘linadi. Shuningdek, adabiyotlarda mulkiy javobgarlik alohida guruhga (turga), jumladan, fuqarolik huquqiga, mehnat qonunchiligining moddiy javobgarlik qoidalari (maxsus qoidalar va normalarga) atrof-muhitni muhofaza qilish tarmoqlariga, soliq qonunchiligidagi qonun hujjatlarining normalaridagi majburiyatlarga bo‘linadi. Mulkiy javobgarlik turlarini tahlil qilishdan oldin, fikrimizcha, unga ma’lum bir mustaqillik bermaydigan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan soliq majburiyati bilan bog‘liq javobgarlik masalalarini chiqarib tashlash kerak. Soliq javobgarligi atrof-muhit qonunchiligining maxsus normativ hujjatlari bilan belgilanib, tovar bo‘lmagan moddiy boyliklarni himoya qilish obyekti sifatida tovar bo‘lmagan narsalarga ega bo‘lgan tegishli pul mablag‘larida hisoblanadigan moddiy boyliklar qiymati bo‘lmagan tabiiy muhit obyektlari, ma’lum stavkalarda zararni undirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Maxsus qoidalar bo‘yicha javobgarlik bir

ISSN 3030-3230

qator xususiyatlarga ega. Harbiy xizmatchilar moddiy javobgarligini aniqlash uchun ushbu xususiyatlarni bilishimiz kerak, chunki ular oxir-oqibatda asosiy mezon bo‘lib yuridik (huquqiy) mulkiy javobgarlikning mustaqil turi bo‘lib xizmat qiladi. Moddiy javobgarlikning o‘ziga xosligi sanksiyalarining tabiati-moddiy zararni qoplash va jazoni belgilashning maxsus tamoyillari bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 352 moddasiga muvofiq agar ushbu kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, xodim o‘rtacha oylik ish haqi miqdorida javobgar bo‘ladi [12]. Ushbu kodeksning 314-315 moddalarida korxona, muassasa, tashkilotga yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash tartibi belgilangan [13]. 2006-yil 12-maydagi Davlatga yetkazilgan zarar uchun harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomda xizmat majburiyatlarini bajarishda taalluqli bo‘lmagan vaqtda yetkazilgan zarar uchun ushbu shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda moddiy javobgarlikka tortilishi, yetkazilgan zararning ular tomonidan qoplanishi to‘g‘risida qaror qabul qilingunga qadar harbiy xizmatchi zaxiraga bo‘shatilgan yoki iste’foga chiqarilgan yoxud harbiy xizmatga majbur harbiy yig‘inlar tugagandan so‘ng yashash joyiga ketgan hollarda komandir (boshliq) ushbu shaxslarga qarshi yetkazilgan zararning pul summasi miqdorida umumfuqaroviy tartibda da’vo arizasini taqdim etishi kerakligi belgilangan [14].

Bundan ko‘rinib turibdiki, moddiy zararni o‘rnini qoplash chorasi, muayyan hollarda ma’lum bir chegaralar bilan, ya’ni moddiy zararni qoplash-javobgarlikning asosiy maqsadi ekanligi sifatida fuqarolik huquqiga yaqinlashtiradi hamda intizomiy, ma’muriy va jinoiy javobgarlikdan farqlarini belgilaydi. Shu asosda, qonunchilikda intizomiy jazo choralari, jinoiy jazo va moddiy zarar uchun javobgarlik masalalari farqlanadi. Shuningdek, qonunchilik majburlov choralarini bir vaqtning o‘zida qo‘llashga ruxsat beradi. Boshqa tomondan intizomiy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari mulkiy xususiyatni tiklash choralarini o‘z ichiga olmaydi. Lekin harbiy qism mulkiga zarar yetkazgan harbiy xizmatchilarga nisbatan intizomiy jazolar bilan bir qatorda mulkiy xarakterdagi boshqa choralar ham qo‘llaniladi. Intizomiy jazolangan harbiy xizmatchilar ma’lum vaqt davomida pul mukofotini to‘lanishidan mahrum etilishi, toifa imtihonlarini topshirish va boshqalardan mahrum etilishi ma’muriy va jinoiy tartibda qo‘llaniladigan mulkiy jazo turlaridan farq qiladi. Shunday qilib, jarima solish bilan bog‘liq huquqiy hujjatlar javobgarlik normalari bo‘yicha moddiy zararni qoplash majburiyati bo‘lmaganda (yoki undan qat’iy nazar) ham qo‘llaniladi.

Jinoiy va ma’muriy javobgarlik choralarini tahlil qilishda ham ana shunday xulosaga kelish mumkin. Jinoyat huquqida jarima shaklidagi jazo chorasi , avvalambor, sodir etilgan jinoyatning xususiyati va og‘irligiga, uning oqibatlariga va aybdorning shaxsiga bog‘liq. Jarima belgilangan miqdorda emas, balki O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdori shaklida hisoblanadi[15]. Shuning uchun ham jinoyat qonunchiligida jarima miqdori har doim ham yetkazilgan zarar miqdoriga mos kelmaydi. Bundan tashqari, jinoyat qonunchiligida ayrim jinoyatlar uchun yuqoriroq jarima belgilanishi mumkin. Bunda yetkazilgan zararni qoplash jazo chorasiga aylanadi. Shubhasizki, javobgarlik intizomiy ta’sir ko‘rsatadi, lekin undagi asosiy maqsad-zararni qoplashdagi hosilaviy natijaga olib keladi. Demakki, mazkur masalalarning qonunchilikda nazariy jihatdan yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, ochiq qolishi, moddiy javobgarlikni bir turidan ikkinchisini farqlashda murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, zarar miqdorini belgilash, aniqlash bo‘yicha yuzaga keladigan turli xil amaliy yondashuvlar, xizmat faoliyatida esa noaniqliklar, turlicha baholanishlarga olib keladi.

Аннотация. В статье исследуются понятие и сущность материальной ответственности как способа возмещения военнослужащими материального ущерба государственному имуществу, военному имуществу. Описаны основания возникновения материальной ответственности военнослужащих, их соотношение и отличия от других видов ответственности. В статье также исследуется наше национальное законодательство и судебная практика, и автор вносит предложения по совершенствованию законодательства.

Ключевые слова: юридическая ответственность, материальная ответственность, трудовое право, гражданское право, дисциплинарная ответственность, государственное имущество, военное имущество, налоговое право, вина, причинно-следственная связь, ущерб, деяние, служебная деятельность.

Annotation. The article examines the concept and nature of material liability as a method of compensation for material damage to state property, military property by servicemen. The grounds for the emergence of material liability of servicemen, their relationship and differences with other types of liability are described. The article also examines our national legislation and case law, and the author makes suggestions for improving the legislation.

Key words: legal liability, material liability, labor law, civil law, disciplinary liability, state property, military property, tax law, guilt, causal link, damage, deed, service activity.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Янги Ўзбекистон стратегияси // Ш.М. Мирзиёев – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. – Б. 318.
2. Қуролли Кучларни ривожлантиришнинг навбатдаги муҳим босқичи вазифалари белгиланди // https://xs.uz/uzkr/post/qurolli-kuchlarni- rivozhlantirishning-navbatdagi-muhim-bosqichi-vazifalari-belgilandi. (31.03.2022 йил).
3. Ўзбекистон Республикасининг Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида қонуни// Тошкент ш.,2002 йил 12 декабрь, 436-II-сон https://lex.uz/docs/78717(31.03.2022 йил).
4. Давлатга етказилган зарар учун ҳарбий хизматчиларнинг моддий жавобгарлиги тўғрисидаги вақтинчалик низом// Тошкент ш., 2006 йил 5 июлъ, 1593-сон https://www.lex.uz/acts/1017768(31.03.2022 йил)
5. Давлатга етказилган зарар учун ҳарбий хизматчиларнинг моддий жавобгарлиги тўғрисидаги вақтинчалик низом//6-банд // Тошкент ш., 2006 йил 5 июлъ, 1593-сон https://www.lex.uz/acts/1017768 (31.03.2022 йил).
6. Ўзбекистон Республикасининг Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида қонуни // Тошкент ш.,2002 йил 12 декабрь, 436-II-сон https://lex.uz/docs/78717(31.03.2022 йил).
7. Ўзбекистон Республикаси Қуролли кучларининг ички хизмат низоми // 1996 йил 9 октябрдаги Ўзекистон Республикаси Президентининг фармони // 16–31 бет.
8. Ўзбекистон Республикасининг Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида қонуни // Тошкент ш., 2002 йил 12 декабрь, 436-II-сон https://lex.uz/docs/78717(31.03.2022 йил).
9. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Интизом низоми (6-8 модда).
10. Давлатга етказилган зарар учун ҳарбий хизматчиларнинг моддий жавобгарлиги тўғрисидаги вақтинчалик низом// 8-банд // Тошкент ш.,2006 йил 5 июлъ, 1593-сон https://www.lex.uz/acts/1017768(31.03.2022 йил).
11. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси https://lex.uz/docs/111189.
12. Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодекси ex.uz/docs/142859.
13. Давлатга етказилган зарар учун ҳарбий хизматчиларнинг моддий жавобгарлиги тўғрисидаги вақтинчалик низом // Тошкент ш., 2006 йил 5 июлъ, 1593-сон https://www.lex.uz/acts/1017768 (31.03.2022 йил).
14. Давлатга етказилган зарар учун ҳарбий хизматчиларнинг моддий жавобгарлиги тўғрисидаги вақтинчалик низом // Тошкент ш., 2006 йил 5 июлъ, 1593-сон https://www.lex.uz/acts/1017768(31.03.2022 йил).
15. Ўзбекистон Республикаси жиноят ҳуқуқи курси 7-22 бет. // https://adolatnashr.uz/uploads/7.Jinoyat%20huquqi%202%20tom.pdf.

KONSTITUTSIYAVIY NAZORAT VA MA’MURIY TA’SIR CHORALARI O‘RTASIDAGI HUQUQIY MUVOZANAT

G‘iyosov Bahriddin Xasan o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. **Ushbu maqolada konstitutsiyaviy nazorat instituti va ma’muriy ta’sir choralari tizimi o‘rtasidagi huquqiy muvozanatning nazariy-huquqiy asoslari, ularning o‘zaro nisbati, shuningdek bu boradagi milliy qonunchilik va xorijiy doktrinanal qarashlar qiyosiy tahlil qilingan.**

Kalit so‘zlar: Konstitutsiyaviy nazorat, ma’muriy ta’sir choralari, davlat majburlovi, huquqiy muvozanat, mutanosiblik prinsipi, konstitutsiyaviy huquqiy monitoring, ma’muriy protsedura, huquqiy davlat, profilaktik va majburlov maqsadi, nazorat va muvozanat tizimi.

Davlat boshqaruvi tizimida konstitutsiyaviy nazorat va ma’muriy ta’sir choralari o‘zaro bog‘liq, ammo huquqiy tabiati jihatidan farqli bo‘lgan institutlardir. Konstitutsiya – inson huquqlari va erkinliklarining oliy kafolati bo‘lsa, ma’muriy ta’sir choralarining asosiy vazifasi – jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarning oldini olishdan iborat. Ushbu ikki institutning uyg‘unligi davlatning demokratik rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy huquqiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ma’muriy choralar konstitutsiyaviy nazoratdan tashqarida faoliyat yuritishi inson huquqlarining buzilish xavfini oshiradi. Shu bois, mutanosiblik, legallik, adolat mezonlari asosida huquqiy muvozanatni saqlash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Konstitutsiyaviy nazorat – konstitutsiyaning oliy yuridik kuchini ta’minlovchi institut bo‘lib, davlat organlarining normativ hujjatlari va harakatlari Konstitutsiyaga mosligini tekshiradi. O‘zbekiston Respublikasida ushbu vazifa Konstitutsiyaviy sud zimmasiga yuklangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi davlat hokimiyati tizimidagi muhim institut bo‘lib, mamlakat Konstitutsiyaning ustuvorligi va qonunlar ustidan nazoratni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Konstitutsiyaviy sudning asosiy vazifasi – davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini ta’minlashdir. Bu nafaqat qonun ustuvorligi, balki jamiyatda adolatni ta’minlash, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish yo‘lida muhim kafolatdir.

Ba’zi hollarda Konstitutsiyaviy sud ishlarni ko‘rib chiqishi uchun uzoq muddat talab qilishi mumkin. Bu sud tizimining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, boshqa davlatlar tajribasida konstitutsiyaviy nazoratni tezlashtirish uchun maxsus “tezkor ko‘rib chiqish” mexanizmlari joriy qilingan. O‘zbekistonda bu masalani bartaraf etish uchun sud jarayonlarini raqamlashtirish va elektron murojaat platformalarini kengaytirish zarur.[1] Misol uchun, Fransiyada 2008-yilda joriy etilgan “Konstitutsiyaviy savol (Question Prioritaire de Constitutionnalité – QPC)” mexanizmi orqali fuqarolar va yuridik shaxslar sud jarayoni davomida muayyan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini savol ostiga qo‘yish imkoniyatiga ega. Bu savol avval umumiy yurisdiksiya sudlarida ko‘rib chiqilib, keyinchalik konstitutsiyaviy Kengashga yuboriladi.

Izlanishlarimizning ikkinchi bosqichida ma’muriy ta’sir choralari to‘g‘risida ham alohida fikr yuritish maqsadga muvofiq. Bu masalada xalqaro huquqiy-hujjatlarda bir qator nomalarni uchratish mumkin. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining muqaddimasida inson oxirgi chora sifatida zulm va istibdodga qarshi isyon ko‘tarishga majbur bo‘lishining oldini olish maqsadida inson huquqlari qonun kuchi bilan himoya etilishi zarur ekanligini[2] e’tiborga olib mazkur hujjat qabul qilinganligi bayon etilgan. Ushbu hujjatning 11-moddasida esa, ... jinoyat sodir etilgan vaqtda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan jazoga nisbatan og‘irroq jazo berilishi mumkin emasligi[3] belgilangan.

Xususan, mazkur masalada milliy qonunchiligimizda ham bir qancha normalarni uchratish mumkin. Bosh qomusimizning 20-moddasiga binoan, davlat organlari tomonidan

insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak.[4] Ammo, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi mazkur masalaga ikki xil yondashuv asosida qaraydi. Birinchisi, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta’minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirishda jazo tayinlash amaliyotini 30 foizdan 20 foizga tushirishni ifodalaydi.

Ikkinchisi esa, davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida tashkil etish bo‘lib, bunda davlat majburiy talablarga davlat xizmatlarini ko‘rsatish nuqtai nazaridan qaraladi. Ya’ni, respublikamizda yagona elektron reyestrga kiritilgan majburiy talablarni kamida 20 foizga kamaytirish ko‘zda tutiladi.

Biz, ushbu masalaga boshqa tuqtai nazardan yondashishni ma’qul ko‘ramiz. Bu huquqiy ta’sir choralarini davlat majburlovi o‘rnida qo‘llashni nazarda tutib, xalqaro jinoiy-huquqiy munosabatlarda kerakli kuchdan foydalanish va huquqbuzarlikning jiddiyligi va erishilgan qonuniy maqsadga mutanosib ravishda foydalanish va harakat qilishda cheklovni joriy etishdir.[5]

Jumladan, olimlarning bu boradagi ilmiy qarashlari ham turlichadir. B.G‘iyosov inson huquq va erkinliklariga rioya qilish va uni himoya qilishning uzluksizligini ta’minlash davlat organlari va mansabdor shaxslar zimmasidagi eng asosiy vazifa ekanligini, ayniqsa huquq-tartibot idoralari o‘ziga tegishli vakolat doirasida fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash va ularni ro‘yobga chiqarishni bevosita amalga oshirishga mas’ul ekanliklaridan kelib chiqqan holda mazkur amaliyotni bajaradilar, deya ta’kidlasa, boshqa o‘rinda demokratik huquqiy jamiyatda davlat majburlovi qonuniylik rejimi sharoitida o‘z-o‘zidan amalga kiritilmasdan, shunga o‘xshash huquqiy normani qo‘llash bo‘yicha maxsus faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj, asosan davlat majburlovidan foydalanish zarurati bilan belgilanishini bildirib o‘tgan.[7]

Ammo, ta’sir choralari turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Bu choralar ma’muriy protsessual qoidalar ko‘rinishidagi huquqiy choralar yoki ayni bir holat yuzasidan qo‘llanilishi lozim bo‘lgan tezkor choralarni o‘z ichiga oladi.[8] Bizningcha, inson, jamiyat va davlat huquqlarini himoya qilish sohalarida yoki ma’lum bir huquq sohalariga doir masalalarda ushbu choralarni amalga oshirish mumkin. Olimlar bu kabi jinoiy-huquqiy masalalar ko‘pgina hollarda guvohlarning xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab, jumladan O‘zbekiston Respublikasida ham huquqni muhofaza qilish organlari uchun eng dolzarb masalalardan biri ekanligini ta’kidlaganlar.[9]

Ilmiy hamjamiyat ma’muriy ta’sir choralarini yana turli talqinlarda ifodalaydi. Masalan, ma’muriy ta’sir choralari – jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va davlat intizomini mustahkamlashga xizmat qiluvchi asosiy vositadir. Mazkur choralar qonuniylik, adolat, mutanosiblik va maqsadga muvofiqlik tamoyillari asosida qo‘llanadi. Zero, bugungi kunda O‘zbekistonda ma’muriy islohotlarning izchil davom etayotgani ushbu institutning zamonaviy talablarga mos ravishda qayta ko‘rib chiqilishini taqozo etadi. Chunki, ular huquqbuzarlik sodir etilishini oldini olish, uni to‘xtatish, javobgarlikka tortish yoki jamoat xavfsizligini ta’minlash maqsadida davlat organlari tomonidan qo‘llaniladigan, qonun bilan belgilangan majburiy choralardir. Bu choralarning huquqiy tabiati ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

1. Profilaktik maqsad – huquqbuzarlik sodir bo‘lishining oldini olish.

2. Majburlov maqsadi – qonun talabini bajartirish, xavfsizligi va tartibini ta’minlash, huquqbuzarni javobgarlikka tortish.

Huquqshunos Alekseyevning fikricha, zamonaviy nazariy-huquqiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ma’muriy choralar konstitutsiyaviy kafolatlar va inson huquqlari bilan uyg‘unlashmagan taqdirda, davlatning huquqiy tabiati va demokratik institutlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, u ilmiy adabiyotlarda nafaqat jamoat tartibini umumiy tushunish, balki tartibga solinadigan ma’muriy huquqiy munosabatlar doirasi, ma’muriy javobgarlik chegaralari, ma’muriy yurisdiksiya vakolatlari va ko‘rib chiqilayotgan sohada ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining huquqiy texnikasi masalalari bo‘yicha ham munozaralar davom etayotganligini ta’kidlaydi.

O‘ylashimizcha, S.N.Alekseyevning mazkur pozitsiyasini to‘liq ilmiy

bahs-munozaraga aylantirish zarur emas,

ISSN 3030-3230

chunki ko‘rsatilgan yo‘nalishlarning asosiy ilmiy-huquqiy talqinlari allaqachon shakllangan. Tegishli doktrinalar va amaliyotda esa, ularning mazmuni bo‘yicha barqaror yondashuvlar mavjud. Misol uchun, O‘zbekiston qonunchiligi uchun ma’muriy ta’sir choralaridagi islohotlar amaliyot bilan bog‘liq normalarni takomillashtirish va ularni konstitutsiyaviy tamoyillarga moslashtirish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Demak, biz bu sohalarda ilmiy adabiyotlarda qarama-qarshi fikrlarni emas, balki mavjud tizimni zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga qaratilgan konstruktiv yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishimiz zarur.

Shunga ko‘ra, keltirib o‘tilgan fikr va mulohazalar bir qator ilmiy xulosalarni ilgari surish imkonini berdi:

Birinchidan, konstitutsiyaviy nazorat ma’muriy ta’sir choralarining legitimligini ta’minlovchi asosiy vositadir. Demak, ma’muriy choralar faqat Konstitutsiyada belgilangan huquqlar va erkinliklar doirasida qo‘llanilgandagina qonuniy va adolatli bo‘ladi. Konstitutsiyaviy nazorat esa, ushbu choralar davlat tomonidan keragidan ortiq darajada qo‘llanilishining oldini oladi, shuningdek ularning proporsionalligi, maqsadga muvofiqligi va qonuniyligini kafolatlaydi.

Ikkinchidan, ma’muriy amaliyotda konstitutsiyaviy nazoratni kuchaytirish inson huquqlarini ishonchli himoya qilishning eng muhim yo‘lidir. Agar ma’muriy choralarning qo‘llanishi ustidan samarali konstitutsiyaviy nazorat ta’minlanar ekan, davlat idoralari tomonidan noto‘g‘ri qarorlar qabul qilish holatlari kamayib, buning natijasida huquqiy davlat tamoyillari mustahkamlanadi.

Uchinchidan, jamiyatdagi huquqiy muvozanatni saqlashda ma’muriy organlar, sud tizimi va parlament nazoratining o‘zaro uyg‘unligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Masalan, ma’muriy organlar chorani qo‘llaydi, prokuratura uning qonuniyligini tekshiradi, sudlar esa ushbu ta’sir choralarining rentabelligini baholagan holda ularni huquq subyektlariga tatbiq qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, so‘nggi konstitutsiyaviy va ma’muriy-huquqiy islohotlar O‘zbekiston tajribasini yangicha sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Ma’muriy ta’sir choralarini qo‘llash jarayonida proporsionallik, qonuniylik, maqsadga muvofiqlik va adolat tamoyillariga qati rioya etilishi davlat organlarining javobgarligini oshirib, fuqarolar huquqlariga ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab etadi. Ayniqsa, mazkur ikki institut o‘rtasidagi muvozanat har qanday demokratik boshqaruv tizimining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadigan fundamental omil bo‘lib, bir tomondan, davlat hokimiyati organlariga huquqiy vositalar orqali jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, davlatning ushbu vakolatlarini cheklash, ularni konstitutsion tartibga solish va fuqarolar erkinliklarini kafolatlashga xizmat qiladi.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ теоретико-правовых основ правового баланса института конституционного контроля и системы административно-правовых мер воздействия, их соотношения, а также национального законодательства и зарубежных доктринальных воззрений по данному вопросу.

Ключевые слова: Конституционный контроль, административные меры воздействия, государственное принуждение, правовое равновесие, принцип пропорциональности, конституционно-правовой мониторинг, административная процедура, верховенство права, превентивные и принудительные цели, система сдержек и противовесов.

Annotation: The article provides a comparative analysis of the theoretical and legal foundations of the legal balance of the institute of constitutional control and the system of administrative and legal measures of influence, their relationship, as well as national legislation and foreign doctrinal views on this issue.

Key words: Constitutional control, administrative measures of influence, state coercion, legal balance, principle of proportionality, constitutional legal monitoring, administrative procedure, rule of law, preventive and coercive purposes, system of checks and balances.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuldashev, S. (2024). Konstitutsiyaviy sud - o‘zbekiston respublikasi konsitutsiyasiga amal qilishning nazorat mexanizmi sifatida. Modern Science and Research, 3(12), 86–92. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48840
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining
1948-yil 10-dekabrdagi 217 A (III) Rezolyusiyasi // https://constitution.uz/uz/pages/humanrights
3. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. 11-modda, 2-qism // https://constitution.uz/uz/pages/humanrights
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 20-modda, 4-qism // https://lex.uz/docs/6445145
5. BMTning Jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha sakkizinchi Konferensiyasi qoidalari. Gavana, Kuba, 27.08-07.09.1990-yil // https://www.unodc.org
6. Гиясов, Б. (2023). Важност вопросов безопасности в национальном законодательстве. Реформы в сфере подготовки юридических кадров в Узбекистане: анализ результатов и перспективные задачи, 1(1), 180–185. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/legal-personnel/article/view/22381
7. Гиёсов, Б. (2020). Анализ некоторых вопросов, исключающих преступност деяния при обеспечении общественной безопасности. Общество и инновации, 1(2/S), 124-130.
8. Гиясов, Б. (2024). Значение огнестрельного оружия в предотвращении криминогенного воздействия на общественную безопасность. Общество и инновации, 5(1), 33–40. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss1-pp33-40
9. Giyosov Bahriddin Hasan Ogli, & Kholmurodov Doniyor Bakhtiyor Ogli. (2020). Legal Support For The Protection Of The Rights Of Witnesses In The Fight Against Organized Crime. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 2(11), 57–60. https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume02Issue11-10
10. Алексеев, С.Н. (2015). Общественный порядок как стратегическая цель совершенствования законодательства об административных правонарушениях. Юридическая техника, (9), 94-95.

 ISSN 3030-3230

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNI TAKOMILLASHTIRISH — GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHISHNING ASOSIY YO‘NALISHI

Payziyev Abbos Muxammadovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Ravshanov Ulugbek Maxmurbekovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. **Ushbu maqolada giyohvandlikka qarshi kurashishning asosiy normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, giyohvandlik muammosining ijtimoiy va huquqiy jihatdan tahlil qilish, shuningdek, uning oldini olishda normativ-huquqiy hujjatlarning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilgan. Giyohvandlikka qarshi kurashda qonunchilikning zamonaviy tahdidlar va amaliyot talablariga muvofiq takomillashtirilishi zarurligi ko‘rsatilgan.**

Kalit so‘zlar: giyohvandlik, profilaktika, statistika, suiiste’mol, konvensiya, reabilitatsiya, narkolaboratoriya, narkojinoyat, narkojinoiy uyushma, profayling.

Bugungi kunda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi nafaqat alohida shaxslar salomatligiga, balki butun jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan eng dolzarb global muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur illatning kengayishi natijasida iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy muvozanat, milliy xavfsizlik va fuqarolarning farovon hayoti izdan chiqishi mumkin. Shuning uchun ham giyohvandlikka qarshi kurash har bir davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Giyohvandlik – jamiyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid soluvchi muammo bo‘lib, uning oldini olish va bartaraf etishda ijtimoiy-huquqiy choralar muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilikni takomillashtirish, profilaktika ishlarini kuchaytirish va reabilitatsiya tizimini yaratish kabi yo‘nalishlar bu kurashning asosini tashkil qiladi. Huquqni muhofaza qilish organlari giyohvandlikka qarshi kurashda faollik ko‘rsatishi, jinoyatlarni samarali aniqlash va jazoni adolatli qo‘llash muhimdir. Shu bilan birga, yoshlar o‘rtasidagi profilaktika tadbirlari va oilaviy tarbiyani kuchaytirish jamiyatdagi giyohvandlik tarqalishining oldini olishga yordam beradi.

Bu borada mamlakatimizda keng ko‘lamli ishlar olib borilishiga qaramay ushbu illatning ildizini quritishga, butunlay yo‘q qilishga erishib bo‘lmaydi. 2023-yilligi ma’lumotlarga ko‘ra, umumiy 8280 ta noqonuniy muomala bilan bog‘liq jinoyat aniqlangan. Ularning katta qismi — 6147 ta holat jinoiy javobgarlikka tortish bilan yakunlangan. Shuningdek, 1407 ta holatda ma’muriy javobgarlik belgilangan. Tezkor tadbirlar natijasida 2 tn 31 kg 886 gr giyohvandlik vositalar va psixotrop moddalar noqonuniy muomaladan olingan. Shundan, 2 tn 25 kg 13 gr giyohvandlik vositalar va 6 kg 127 gr psixotrop moddalar. Musodara qilingan giyohvandlik vositalarning 866 kg 253 gr kontrabanda bo‘lsa, 19 kg 687 gr o‘z hoxishi bilan topshirilgan va 31 kg 580 gr egasiz bo‘lgan. Shuningdek, 10486 m.kv maydonda tarkibida giyohvandlik vositalari mavjud o‘simliklar yo‘q qilingan .

Yuqoridagi statistik ma’lumotlarning o‘zi ham bu boradagi muammoni yaqqol ko‘rsatib turibdi, shunday eken giyohvandlik jinoyatchiligi ko‘p hollarda transmilliy xarakterga ega bo‘lib, u noqonuniy savdo, korrupsiya, moliyaviy jinoyatlar va terrorizm bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli, bunday murakkab jinoyatlarga qarshi kurashda nafaqat tezkor va amaliy choralar, balki puxta ishlab chiqilgan normativ-huquqiy baza ham muhim o‘rin tutadi. Aynan qonunchilikni takomillashtirish orqali jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash va fosh etish tizimini yanada samarali qilish imkoniyati yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni nazorat qilish to‘g‘risida”gi qonun,

Jinoyat kodeksi hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga kiritilgan o‘zgartishlar va qo‘shimchalar ushbu sohadagi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, 1961-yilda qabul qilingan Giyohvandlik vositalari to‘g‘risidagi Yagona konvensiyaning 1972-yildagi Protokolining 38-moddasi va 1971 yildagi Psixotrop moddalar to‘g‘risidagi konvensiyaning 20-moddasiga muvofiq, a’zo davlatlar giyohvandlik vositalarini suiiste’mol qilishni oldini olish bo‘yicha profilaktika ishlarini olib borish, giyohvandlik vositalarini davolash bo‘yicha barcha zarur choralarni ko‘rishlari shartligi belgilangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1988 yildagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish” konvensiyasining 14-moddasida “Har bir Tomon o‘z hududida noqonuniy ravishda yetishtiriladigan ko‘knori va nasha o‘simliklari kabi tarkibida giyohvandlik yoki psixotrop moddalar bo‘lgan o‘simliklarni noqonuniy yetishtirishning oldini olish va ularni yo‘q qilish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘radi” deb belgilangan.

Demak, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi samarali kurashning eng muhim omillaridan biri — bu normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish va amaliyotda to‘g‘ri qo‘llashdir.

Giyohvandlikka oid qonunchilik jamiyatda ushbu moddalarning tarqalishi va ular bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi samarali kurashishda asosiy huquqiy poydevor hisoblanadi. Shu bilan birga, qonunchilikda bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ularni umumiy xarakterda quyidagicha tasvirlash mumkin:

Birinchidan, javobgarlikni belgilashdagi normalarda noaniqliklar va amaliyotdagi tushunmovchiliklar huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun qiyinchilik tug‘dirmoqda;

Ikkinchidan, zamonaviy narkojinoyatchilik bilan bog‘liq yangi paydo bo‘layotgan narkolaboratoriya, narkojinoyat jinoyatlar uchun alohida javobgarlik masalalari belgilanmagan va bunday atamalarning huquqiy ma’nosi aniq ko‘rsatilmagan;

Uchinchidan, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglari yoxud kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning qonunga xilof muomalasiga homiylik qilish bilan bog‘liq jinoiy harakat uchun javobgarlik aniq belgilanmagan;

To‘rtinchidan, qonunchilik zamonaviy texnologiyalarni va raqamli makonni nazorat qilishda yetarli darajada moslashtirilmagan. Internet va telekommunikatsiyalar orqali narkotik savdosining o‘sishi qonunlarning samarali ishlashini cheklaydi va shubhali holatlarni aniqlashda qonuniy asoslarning yetishmasligi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi.

Beshinchidan, qonunchilik va huquqni muhofaza qilish organlari uchun mavjud huquqiy mexanizmlar zamonaviy profayling va nazorat tizimlarini to‘liq amalga oshirishga yetarli emas. Bu esa inson huquqlari va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish talablarini hisobga olgan holda samarali monitoring olib borishni qiyinlashtiradi.

Umuman olganda, qonunchilikdagi kamchiliklar narkotik moddalarga qarshi kurashish samaradorligini pasaytirib, profilaktika, tahlil va ilmiy asoslangan choralarni qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois, qonunlarni zamonaviy tahdidlar va xalqaro standartlarga moslashtirish, profilaktika va reabilitatsiya mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek huquqiy asoslarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Giyohvandlikka qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa, bu borada bir qator muammolarga to‘xtalib o‘tish lozim, jumladan:

Birinchidan, javobgarlikni belgilashdagi normalarni aniq va konkret qilib tizimli tahrirlash, giyohvandlikka oid jinoyatlar uchun insonparvarlik, kechirimlilik siyosatini minimallashtirish va keyinchalik butunlay to‘xtatish;

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining sakkizinchi bo‘lim atamalarning huquqiy ma’nolari keltirib o‘tilgan qismiga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq:

narkolaboratoriya – giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglarini shaxsiy foydalanish yoki sotish maqsadini ko‘zlab, noqonuniy tarzda ishlab chiqarish va qadoqlash uchun maxsus jihozlangan yashirin obyekt;

Narkojinoyat – giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglari hisoblanmaydigan kuchli ta’sir qiluvchi moddalar, shuningdek, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglarini notibbiy iste’moli va noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq jinoyatlar.

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga:

Yangi 2752-modda. “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglari yoxud

ISSN 3030-3230

kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning qonunga xilof muomalasiga homiylik qilish — Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglari yoxud kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni qonunga xilof muomalasini amalga oshirish bilan bog’liq faoliyatga hokimiyat yoki mansab vakolatlarini suiiste’mol qilgan holda homiylik qilish yoxud bunday faoliyat fosh bo‘lishining oldini olish maqsadida xizmat faoliyati yuzasidan o‘ziga ma’lum bo’lgan ma’lumotlar haqida xabar berish” degan ma’nodagi yangi modda kiritish;

Yangi 2421-modda. “Narkojinoiy uyushma tashkil etish — giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglari hamda kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni noqonuniy tarzda olib o‘tish, tarqatish yoki ishlab chiqarish maqsadida jinoiy uyushma yoki uning bo‘linmalarini tuzish, unga rahbarlik qilish va ularning faoliyatini ta’minlash”.

To‘rtinchidan, Qonunchilikni zamonaviy texnologiyalar va raqamli makonga moslashtirish, internet va telekommunikatsiyalar orqali narkotik savdosini aniqlash va oldini olish uchun aniq huquqiy asoslarni yaratish, shuningdek kadrlar tayyorlash va malaka oshirish - profayling bo‘yicha maxsus tayyorgarlik kurslari (psixologiya, yurisprudensiya), huquq-tartibot organlari uchun treninglar, axloqiy (etika) va inson huquqlari sohasida ma’lumot berish, narkojinoyatlarga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining bilimini xalqaro standartlarga mos ravishda oshirishni tizimli yo‘lga qo‘yish.

Beshinchidan, qonunchilikni zamonaviy profayling va nazorat tizimlarini integratsiya qilishga moslashtirish, inson huquqlari va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish normalarini aniq belgilovchi qonunchilik mexanizmlari orqali samarali monitoring va tahlilni amalga oshirish imkonini ta’minlash.

Hozirgi kunda giyohvandlik muammosi nafaqat sog‘liqni saqlash sohasi, balki ijtimoiy va huquqiy sohalar uchun ham jiddiy tahdid hisoblanadi. Maqolada ko‘rsatilganidek, giyohvandlikka qarshi samarali kurashishda asosiy rol normativ-huquqiy hujjatlarning takomillashtirilishiga to‘g‘ri keladi. Hozirgi qonunchilik bazasida ayrim bo‘shliqlar va ziddiyatlar mavjudligi, uning amaliy qo‘llanilishidagi kamchiliklar samarasizlikka olib kelmoqda. Masalan, jinoyat va ma’muriy javobgarlik mezonlari, profilaktika va davolashga oid huquqiy mexanizmlar hamisha uzluksiz rivojlanishni talab qiladi.

Tahlil natijalari ko‘rsatadiki, giyohvandlikka qarshi kurashda qonunchilikni takomillashtirishning bir necha asosiy yo‘nalishlari mavjud: birinchi navbatda, qonunlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlarning aniqligi va muvofiqligini ta’minlash; ikkinchidan, profilaktika, davolash va ijtimoiy reabilitatsiya choralarini integratsiyalashtirish; uchinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurash mexanizmlarini zamonaviy tahdidlarga muvofiqlashtirish; va nihoyat, aholi orasida huquqiy savodxonlik va giyohvandlikka qarshi madaniy targ‘ibotni kuchaytirish.

Shu bilan birga, giyohvandlikka qarshi samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishda qonunchilik faqat asos bo‘lib xizmat qiladi, uning ijrosi, nazorat va monitoring tizimlari ham muhim ahamiyatga ega. Maqolada ta’kidlanganidek, qonunchilikning doimiy takomillashtirilishi, uning amaliyotda to‘liq va muvofiq qo‘llanilishi, shuningdek, profilaktika va reabilitatsiya sohasida ilmiy asoslangan choralar bilan uyg‘unlashtirilishi giyohvandlikka qarshi samarali kurashishning asosiy omili hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish — giyohvandlikka qarshi kurashishning mustahkam huquqiy asosini yaratish va ijtimoiy muammoni kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qonunchilikni takomillashtirish orqali profilaktika va reabilitatsiya choralari hamda jinoyatchilikka qarshi mexanizmlarni samarali amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Bu esa nafaqat huquqni muhofaza qilish tizimini, balki jamiyatning barqaror rivojlanishini ham ta’minlaydi.

Аннотация. В данной статье особое внимание уделяется совершенствованию основных нормативно-правовых документов по борьбе с наркоманией, социально-правовому анализу проблемы наркомании, а также важности нормативно-правовых документов в ее предотвращении. Показана необходимость совершенствования законодательства в борьбе с наркоманией в соответствии с современными угрозами и требованиями практики.

Ключевые слова: наркомания, профилактика, статистика, злоупотребление, конвенция, реабилитация, нарколаборатория, наркопреступность, наркопреступная ассоциация, профайлинг.

Abstract. This article focuses on improving key regulatory legal documents for combating drug addiction, analyzing the social and legal aspects of the drug problem, and highlighting the importance of regulatory legal documents in its prevention. The need to improve legislation in the fight against drug addiction in accordance with modern threats and the requirements of practice is indicated.

Key words: drug addiction, prevention, statistics, abuse, convention, rehabilitation, drug laboratory, drug crime, drug association, profiling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. BMTning “Giyohvandlik vositalari to‘g‘risida”gi konvensiyasi. 2000-yil 15-noyabr, Nyu-York. https://lex.uz/docs/-1304566.
2. O‘zbekiston Respublikasining 813-I-son.19.08.1999 y. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lexuz.
3. “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024 — 2028-yillarga mo‘ljallangan Milliy strategiya”si 2024-yil 6-may, PF-73-son. https://lexuz.
4. Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazining 2023-2024-yillar uchun Informatsion byulleteni. https://www.unodc.org/centralasia.
5. “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”, https://lex.uz/ru/docs/-2655293.
6. Axmedov A.B. Jinoyatchilikka qarshi kurashda psixologik profaylingning o‘rni. – Toshkent: Yuridik fanlar jurnali, №2, 2022. – B. 45–52.
7. Ivanov P.N. Biometric Profiling in Criminal Investigations. – Moscow: Russian Academy of Internal Affairs, 2020. – 185 p.
8. Norqobilov F. Narkojinoyatlar: kriminologik tahlil va ularning profilaktikasi. – Toshkent: IIV Akademiyasi nashriyoti, 2021. – 210 b.
9. Turabekov S. Use of Psychological Profiling in Detecting Drug Crimes in Uzbekistan // Journal of Criminology and Legal Studies, Vol. 5(1), 2023. – P. 31–38.

 ISSN 3030-3230

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA INSON EKOLOGIK HUQUQLARI IFODASI

Xodjayev Azim Abrorovich,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
tadqiqotchi

Annotatsiya. **Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida insonning ekologik huquqlari ifodasi, ularning huquqiy tabiati va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Ekologik huquqlarning konstitutsion mazmuni, davlatning ekologik xavfsizlik borasidagi majburiyatlari, fuqarolarning ekologik axborotga ega bo‘lish va ekologik qarorlarda ishtirok etish huquqlari huquqshunoslik nuqtai nazaridan yoritilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning inson ekologik huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilgan.**

Kalit so‘zlar: ekologik huquq, Konstitutsiya, ekologik xavfsizlik, ekologik axborot, ekologik boshqaruv, davlat majburiyatlari.

Dunyoda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish asosiy global muammolardan biri sifatida milliy va mintaqaviy chegaradan chetga chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylanib borayotgan hozirgi sharoitda inson ekologik huquqlarini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Xususan, bugungi kunda har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqini to‘laqonli ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona va tejamkor foydalanish, hozirgi va kelajak avlod salomatligi uchun atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, shu bilan birga iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ijtimoiy ehtiyojlar va xavfsiz atrof tabiiy muhit o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Global ekologik inqiroz sharoitida ekologik xavfsizlikni ta’minlash va insonning tabiiy muhitga oid huquqlarini kafolatlash har bir davlatning ustuvor vazifasiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasida keyingi yillarda ekologik siyosatni kuchaytirish, tabiatni muhofaza qilish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va ekologik huquqlarni qonuniy asosda mustahkamlash bo‘yicha jiddiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson ekologik huquqlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri 1992-yilda belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, eski tahrirning 50-moddasidagi “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar” mazmundagi norma orqali inson ekologik huquqlarini konstitutsion ta’minlanganligi e’tirof etilib kelindi. Ammo 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirda mazkur huquqlar yanada mukammal, aniq va zamonaviy talablarga mos shaklda bayon etildi.

Darhaqiqat, jahon miqyosida ekologik muammolarning keskinlashishi, iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslar tanqisligi va atrof-muhitning ifloslanishi inson hayoti va sog‘ligini ta’minlovchi asosiy shartlarga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Shu munosabat bilan ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va fuqarolarning ekologik huquqlarini kafolatlash har bir demokratik davlatning asosiy ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. O‘zbekiston ham mazkur sohada muhim islohotlar amalga oshirib, o‘z Konstitutsiyasida ekologik huquqlarga alohida o‘rin bergan.

Yangilangan O‘zbekiston Konstitutsiyasida insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilandi. Darhaqiqat, ekologik huquqlar umumiy huquqlar tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ularning mohiyati inson hayoti va sog‘ligi bilan bevosita bog‘liqligi ya’ni toza atrof-muhit inson salomatligining asosiy omili ekanligi, kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilishda tabiatni muhofaza qilishning ustuvorligini ta’minlashda, ekologik huquqlar odatda butun jamiyat manfaatini ifoda etishi kabi jihatlarda namoyon bo‘ladi. Shu jihatlar tufayli ekologik huquqlar insonning konstitutsion huquqlari qatorida muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Yangilangan Konstitutsiya inson ekologik huquqlari masalasini yanada aniq va mukammal ko‘rinishda ifoda qildi. Asosiy qonunning bir qator moddalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekologik masalalarga bag‘ishlangan. Jumladan, Bosh qomusimizning IX-bobi “Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar” deb nomlanib, uning 49-moddasida “Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega.

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida

shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi.

Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi”[1] degan mazmundagi muhim qoidalar mustahkamlandi.

Ushbu Konstitutsion normaga ko‘ra, har bir shaxs yaxshi yashash uchun qulay atrof-muhitga, ekologik xavfsizlikka, ekologik ma’lumot olish huquqiga ega bo‘lgan bo‘lsa, davlat ushbu huquqlarni ta’minlash bo‘yicha o‘z zimmasiga tegishli majburiyatlar oldi. O‘z navbatida, bu norma insonning ekologik manfaatlarini asosiy konstitutsion kafolat sifatida belgiladi.

Davlatning ekologik muvozanatni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik halokatlarni oldini olish, fuqarolarni ekologik xavfdan himoya qilish kabi muhim ekologik vazifalari esa aniq belgilab qo‘yilib, davlatning nafaqat huquqlari, balki majburiyatlarining amal qilishini nazarda tutdi.

ekologik huquqlar insonning yashash sifati va sog‘lom muhitda hayot kechirish imkonini kafolatlovchi kompleks huquqiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ular faqat shaxsiy huquq sifatida emas, balki umumiy jamoat manfaatini ham ifodalaydi.

Ta’kidlash joizki, ekolog-huquqshunos olimlar, xususan professor M.B.Usmonov “Inson va fuqarolarning shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqlari tizimida ularning ekologik, ya’ni qulay atrof tabiiy muhitga ega bo‘lish huquqi muhim o‘rinni egallaydi. ... “Qulay atrof tabiiy muhit” atamasi o‘zida “sog‘lom atrof muhit” “xavfsiz atrof muhit” so‘zlarining ma’nosini to‘liq va aniq aks ettiradi. Shuning uchun insonning ekologik huquqi xususida so‘z yuritilganda ekologik qonun hujjatlarida to‘g‘ri va ko‘p qo‘llaniladigan “qulay atrof tabiiy muhit” atamasini ishlatish maqsadga muvofiqdir”[2] deb ta’kidlab o‘tgan.

Ta’kidlash joizki, rivojlangan davlatlar konstitutsiyalarida mustahkamlangan ekologik qoidalar ularning tabiatga bo‘lgan munosabati nuqtai nazardan qiziqarli va muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy Qonuni 20-a-modda(20) sida “Davlat kelajak avlodlar oldidagi o‘z mas’uliyatini anglagan holda, atrof-muhitni yer yuzidagi hayotning asosi sifatida, konstitutsiyaviy tuzum doirasida va qonun hamda huquqqa muvofiq ijro etuvchi hokimiyat va odil sudlov yordamida muhofaza qiladi”[3] deb belgilab, atrof-muhitni yer yuzidagi hayotning asosi sifatidagi g‘oyani ilgari surgan.

Shveysariya (Shveysariya Konfederatsiyasi) Konstitutsiyasi “Atrof-muhit va hududiy rejalashtirish” deb nomlanadigan alohida bo‘lim (4-bo‘lim) ajratilib, uning 73-moddasida “Barqarorlik” ya’ni “Ittifoq va kantonlar uzoq muddat davomida tabiat va uning tiklanish qobiliyati hamda insonning unga ko‘rsatadigan ta’siri o‘rtasidagi muvozanatli munosabatga erishishga intiladi”, 74-moddasida “Atrof-muhitni muhofaza qilish” ya’ni:

1. Ittifoq insonni va uni o‘rab turgan tabiiy muhitni zararli yoki og‘ir ta’sirlardan himoya qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar chiqaradi.

2. U bunday ta’sirlarning oldini olishga g‘amxo‘rlik qiladi. Ularning oldini olish va bartaraf etish xarajatlari aybdorlar zimmasiga yuklanadi.

3. Ushbu ko‘rsatmalarni bajarish, qonun Ittifoq ixtiyorida saqlab qolmagan holda, kantonlar vakolatiga kiradi”[4]. Shveysariya (Shveysariya Konfederatsiyasi) Konstitutsiyasining o‘ziga xos yana bir xususiyati, atrof-muhimni muhofaza qilishda “Hududiy rejalashtirish” (75-modda), suv resurslaridan tejamli foydalanish va ularni muhofaza qilish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishga oid alohida moddani “Suvlar” (76-modda) deb nomlab, suv resurslari bilan bog‘liq muhim qoidalarni belgilangan bo‘lsa, 77-moddasida “O‘rmonlar” deb nomlangan norma orqali Ittifoq o‘rmonlarning o‘zining himoya, iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini bajarilishini ta’minlashi va o‘rmonlarni himoya qilish tamoyillarini belgilashga oid muhim qoidalarni, 78-moddasida “Tabiatni va jonajon o‘lkani muhofaza qilish”ga oid qoidalarni, 79-moddasida “Baliq ovlash va ov qilish” qoidalarini hamda 80-moddasini “Hayvonlarni muhofaza qilish” deb nomlab, hayvonot dunyosini muhofaza qilish bilan bog‘liq muhim qoidalarni belgilangan.

Albatta, ushbu Konstitutsiya darajasidagi eng muhim qoidalarning belgilanganligi har bir davlatning ekologik siyosat olib borishini huquqiy jihatdan majbur qiladi, davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlariga aylanadi, uzoq muddatli ekologik xavfsizlik, resurslarni tejash va avlodlar o‘rtasida adolatni ta’minlaydi.

ISSN 3030-3230

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida insonning ekologik huquqlari zamonaviy demokratik davlat talablariga mos ravishda mustahkamlangan. Konstitutsiyada qulay atrof-muhitda yashash huquqi, ekologik axborotga ega bo‘lish va ekologik faoliyatda ishtirok etish huquqlari aniq ifodalangan. Davlatning tabiatni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga oid konstitutsion majburiyatlari ushbu huquqlarning amaliy kafolatidir. Shu bilan birga, ekologik huquqlarni to‘liq ta’minlash uchun huquqiy madaniyatni oshirish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va ekologik nazoratni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Аннотация. В данной статье анализируется выражение экологических прав человека в Конституции Республики Узбекистан, их правовая природа и практическое значение. С юридической точки зрения освещаются конституционное содержание экологических прав, обязательства государства в сфере экологической безопасности, права граждан на доступ к экологической информации и участие в принятии экологических решений. Особое внимание уделено механизмам новой редакции Конституции, направленным на укрепление экологических прав человека.

Ключевые слова: экологическое право, Конституция, экологическая безопасность, экологическая информация, экологическое управление, обязательства государства.

Annotation. This article analyzes the expression of human environmental rights in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, their legal nature, and practical significance. From a legal point of view, the constitutional content of environmental rights, the obligations of the state in the field of environmental safety, the rights of citizens to have environmental information and to participate in environmental decisions are highlighted. Special attention is paid to the mechanisms of the Constitution in the new edition aimed at strengthening human environmental rights.

Key words: environmental law, Constitution, environmental safety, environmental information, environmental management, state obligations.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. «Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси» https://lex.uz/docs/6445145.
2. Усмонов М.Б. Экология ҳуқуқи. Дарслик. – Т.: Ҳарбий-техник институти, 2018. – 117 б.
3. Германия Федератив Республикасининг Асосий Қонуни. https://legalns.com/download/books/cons/germany.pdf.
4. Швейцария (Швейцария Конфедерацияси) Конституцияси. https://legalns.com/download/books/cons/switzerland.pdf.

JINOYAT SUBYEKTI TUSHUNCHASI VA UNING JINOYAT-HUQUQIY AHAMIYATI

Karaketova Dilnoza Yuldashevna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat subyekti tushunchasi va uning jinoyat-huquqiy ahamiyati tizimli ravishda tahlil etilgan. Jinoyat subyektining asosiy belgilari – jismoniy shaxs bo‘lishi, javobgarlik yoshiga yetganligi va aqli rasoligi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va ilmiy qarashlar asosida ochib berilgan. Jinoiy javobgarlikning falsafiy va metodologik asoslari Kant, Gegel, Fixte kabi mutafakkirlar ta’limotlari orqali tahlil qilingan. Shuningdek, klassik, antropologik va sotsiologik jinoyat huquqi maktablari qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi haqidagi bahslar ham ko‘rib chiqilib, mazkur masala yuzasidan turli olimlarning fikrlari o‘rganilgan va muallifning shaxsiy pozitsiyasi asoslangan holda bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyat subyekti, aqli rasolik, javobgarlik yoshi, ruhiy holat, iroda erkinligi, jinoyat tarkibi, jinoiy javobgarlik, maxsus subyekt, jinoyat huquqi, sud-psixologik ekspertiza.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi”[1] mamlakatimiz jinoyat qonunini takomillashtirishda muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ushbu konsepsiyada qonun normalarini turli tarzda sharhlashga yoki korrupsiya holatlarini sodir etishga yo‘l qo‘yadigan yoki ijtimoiy xafvi darajasi va xususiyati jinoyat qonuni prinsiplariga mos kelmaydigan qilmishlar uchun javobgarlik belgilashga yo‘l qo‘yadigan normalarni chiqarib tashlash, jinoiy qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi va xarakterini belgilovchi muqobil ko‘rsatkichlarni joriy etish orqali jinoyatlarni tasniflash tizimi va mezonlarini qaytadan ko‘rib chiqish, jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlik muqarrarligining ishonchli kafolatini ta’minlash, jazolar tizimi va ularni tayinlash mexanizmlarini qaytadan ko‘rib chiqish, eskirgan hamda zamonaviy talablarga javob bermaydigan jazolar shakli va turlarini chiqarib tashlash, jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarni tarbiyalash, shuningdek, sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan jazo turlari va boshqa huquqiy ta’sir choralarini joriy etish kabi vazifalar belgilangan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda jinoyat tarkibi muhim elementi bo‘lgan jinoyat subyekti masalasini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyatni muayyan shaxsning xulq-atvori natijasi sifatida ko‘rib chiqar ekanmiz, avvalo uni sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxs tavsif berish lozim. Jinoyat huquqi fanida jinoyat sodir etgan shaxs jinoyat subyekti deb ataladi, ammo qonun chiqaruvchi esa, ushbu atamani qo‘llamasdan, “jinoyat sodir etgan shaxs”, “jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxs”, “aybdor” kabi tushunchalarni qo‘llaydi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi tahlili, ushbu kodeksda “jinoyat sodir etgan shaxs” birikmasi 39 marta, “jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxs” birikmasi 3 marta, “aybdor” so‘zi 44 marta ishlatilganligini ko‘rsatadi.

Jinoyat kodeksining 16-moddasiga muvofiq, jinoyat uchun javobgarlik – **jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga** nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir.

Ushbu kodeksning 17-moddasida esa, jinoyat sodir etgunga qadar o‘n olti yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortilishi belgilangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, jismoniy shaxs bo‘lgan, jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan va aqli raso bo‘lgan shaxslar jinoyat subyekti bo‘lishlari mumkin.

M.X.Rustambayev ta’kidlashicha, “Jinoyat huquqi nazariyasiga ko‘ra har qanday ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan, qonunda belgilangan yoshga yetgan va aqli raso jismoniy shaxslar jinoyatning subyekti bo‘ladi”[2].

Yuridik, falsafiy, tibbiy va psixologik

 ISSN 3030-3230

adabiyotlar tahlili jinoyat huquqi fanida jinoyat subyekti to‘g‘risidagi ta’limotning nazariy va metodologik muammolari mavjudligini ko‘rsatadi. Metodologiya jinoyat subyekti to‘g‘risidagi ta’limot muammosini tarixiy-falsafiy, huquqiy va nazariy nuqtai nazardan aniqroq belgilash imkonini beradi, ushbu ta’limotning eng istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlashga yordam beradi, muammoning mantig‘i va mohiyatini chuqurroq anglashga, uni tadqiq etishda muhim ustuvorliklarni aniqlash va mustahkamlashga imkon yaratadi.

Jinoyat subyekti to‘g‘risidagi ta’limotlarning metodologik asoslari shakllanishiga I.Kant, G.V.F.Gegel, P.A.Feyyerbax, I.Fixte va boshqa bir qancha olimlarning nazariyalari va huquqiy qarashlariga muhim hissa qo‘shgan. Xususan, I.Kant falsafasida jinoiy xulq-atvorning o‘zi va uni sodir etgan shaxsni tushunish alohida qiziqish uyg‘otadi. Uning qarashlariga ko‘ra hissiy dunyo ta’riflaridan mustaqil bo‘lgan erk erkinligi to‘g‘risidagi tasavvur jinoyat-huquqiy qurilmalarining asosi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, inson irodasi qarori bilan sodir etilgan harakat uchun jinoiy javobgarlik tushunchasi kelib chiqdi. Kantning jinoyat-huquqiy qarashlari idealistik edi, shundan kelib chiqib, u yangi metodologik pozitsiyalardan erk erkinligining subyektiv-idealistik tushunchasini tasdiqlagandek bo‘ldi. Kant bo‘yicha, har qanday qasddan qilingan huquqbuzarlik uning jinoyat deb topilishining asosi hisoblanadi. Bunda jinoyat subyekti jismoniy shaxs sifatida u istak sifatida ko‘rib chiqadigan erkin irodaga ega bo‘ladi. Aybdorlikning huquqiy oqibati esa jazo hisoblanadi[3].

Gegelning qarashlariga ko‘ra, jinoyat bu muayyan shaxsning o‘z irodasini namoyon qilishidir. Jinoyatchi esa, nafaqat davlatning jazolovchi hokimiyati obyekti, balki jinoyat sodir etganligi uchun jazolanadigan huquq subyektidir[4]. Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jinoiy javobgarlik masalasi Gegel tomonidan mavhum (abstrakt) huquq sohasida mohiyatan ko‘rib chiqiladi. Gegel fikricha, iroda va tafakkur bir butun narsani tashkil etadi, chunki iroda - bu o‘zini mavjud borliqqa aylantirayotgan tafakkurdan boshqa narsa emas. Shu bilan birga, uning ta’kidlashicha, aql va irodaning mavjudligi ayblashning umumiy sharti hisoblanadi. Jinoiy qilmish sodir etgan shaxsning aybdorligi esa subyektning fikrlovchi mavjudot sifatida o‘z qilmishining oqibatini bilganligi va uni xohlaganligini tasdiqlashdan iborat. U ta’kidlaganidek, subyektning muomalaga layoqatsizligi shaxsning tasavvuri real voqelik bilan ziddiyatda bo‘lishi, ya’ni sodir etilgan harakatning mohiyati u tomonidan anglanmasligi bilan belgilanadi[5].

Fixte ham o‘zining jinoyat-huquqiy qarashlarini subyektiv idealizm falsafasidan kelib chiqqan holda ishlab chiqqan. Uning ta’kidlashicha, jinoiy javobgarlik nafaqat qasddan qilingan jinoyatlarda, balki ehtiyotsizlikdan kelib chiqqan jinoyatlarda ham yuzaga keladi. Uning fikricha jinoyat shaxsning iroda erkinligidan, ya’ni jinoyatchining o‘z xulqining maqsadlari tanlovidan kelib chiqadi[6].

Aynan Kant, Gegel va Fixtelarning iroda erkinligi, jinoiy javobgarlik va jazo, aqli rasolik haqidagi qarashlar jinoyat huquqida subyekt masalasini ishlab chiqishning asoslaridan bo‘lgan deyish mumkin.

Klassik jinoyat huquqi maktabi vakillari bo‘lgan Feyyerbax, K.Binding (Germaniya), N.Rossi, O.Garro (Fransiya), A.F. Kistyakovskiy, V.D. Spasovskiy, N.S.Tagansev (Rossiya)lar jinoyatlarni indeterminizm konsepsiyasi[7] asosida tushuntirishgan. Bu maktab vakillari jinoyatni shaxsning iroda erkinligini namoyon etish natijasi deb hisoblaydilar. Shu bilan birgalikda, iroda erkinligini o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra namoyon etilishi haqidagi qarashdan kelib chiqib, aqli norasolik holatida sodir etilgan qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqmasligini yoqlaganlar. Bu maktab vakillari shaxslar qasddan va ehtiyotsizlikdan qilingan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilishlari kerakligini ta’kidlashgan.

Klassik jinoyat huquqi maktabiga qarshi bo‘lgan antropologik maktab vakillari esa iroda erkinligi, jinoiy qilmish va jinoyatchi shaxsi masalasida boshqa qarashlarni ilgari surishgan. Ushbu maktab asoschilari bo‘lgan Ch.Lombrazo, R.Garofalo, E.Ferrilar vulgar materializm va pozitivlik konsepsiyalariga asoslangan holda shaxsning iroda erkinligini rad qilish asosida jinoyatchi shaxsi haqidagi qarashlarni ilgari surishgan. Bu qarashga ko‘ra, jinoyat biror bir ijtimoiy sharoitlarga bog‘liq bo‘lmaydi, jinoyat tug‘ma jinoyatchilar tomonidan sodir etiladi. Ularga ko‘ra, tug‘ma jinoyatchi jinoyat qilishga mahkum bo‘lib, bunday shaxslar jismoniy va axloqiy xususiyatlariga ko‘ra boshqa kishilardan ajralib turadi.

Albatta antropologik maktab vakillari qarashlarini tanqid qilgan holda, aynan bunday qarashlar jinoyatchi shaxsini o‘rganish lozimligini,

uni fan obyektiga olib kirganligini ham tan olish lozim.

Hozirgi vaqtda jinoyat huquqi va kriminologiya sohasidagi ko‘pchilik olimlar tomonidan klassik jinoyat huquqi maktabi qarashlari tan olinishi, jinoiy javobgarlik masalasida davlatning shaxsdan ustunligi haqidagi qarashga asoslanishini ta’kidlab o‘tish lozim[8].

Jinoyat huquqining sotsiologik maktab vakillari F.List (Germaniya) va A.Prins, I.Ya. Foynitskiylar (Rossiya)lar esa jinoyat sodir qilayotgan shaxs iroda erkinligiga ega bo‘ladi, degan qarashga qarshi chiqishadi. Ularning fikricha, jinoyat sodir qilish vaqtida shaxsning harakatlari jinoyatchilikning ijtimoiy faktorlaridan kelib chiqadi.

Sotsiologik maktab vakillari jinoyat huquqi institutlari, jinoyat tarkibi haqidagi qarashlarni, aqli rasolik va aqli norasolik o‘rtasida farqlarni e’tiborga olishmaydi. Jinoiy qilmish faqat aqlli (aqli raso) shaxs tomonidan sodir etiladi, jinoiy jazo esa jinoyatning og‘irligi emas balki, shaxsning xavflilik xususiyatidan kelib chiqishi kerak, deb hisoblashadi. Aynan ushbu masalada sotsiologik maktab vakillari antrpologik maktab vakillariga qarashlariga yaqin kelishadi.

Jinoyat subyekti haqidagi qarashlarni falsafiy jinoyat-huquqiy qarashlar nuqtai nazaridan tahlil qilgan holda, jinoiy qilmish jismoniy shaxs tomonidan sodir qilinadi, degan xulosaga kelamiz. Ammo shu bilan birgalikda jinoiy javobgarlik prinsipi ba’zan jonsiz predmetlarga (masalan odamlarni qo‘zg‘olonga chorlagan cherkov qo‘ng‘irog‘iga) yoki hayvonlarga nisbatan ham qo‘llanilganligi, hozirgi vaqtda mamlakatimizda yuridik shaxslarning javobgarligi masalasi ham muhokama qilinayotganligi (yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi haqidagi qoidalar bir qancha mamlakatlarda amal qiladi)ni ham ta’kidlab aytish joiz.

Jinoyat huquqiga oid konseptual qarashlar tahlili mamlakatimiz olimlari tomonidan jinoyat qilmish subyekti faqat jismoniy shaxs bo‘ladi, yuridik shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi yoqlanganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, M.X.Rustambayev[9], A.S.Yakubov, R.Kabulov[10], M.Usmonaliyev[11], Q.R.Abdurasulova[12], B.Axrarov[13], U.Sh. Xoliqulov[14], R.Kabulov[15], A.Toshpulatov[16], N.Salayev[17], A.Otajonov[18], M. Urazaliyev[19] va boshqa olimlar jinoyatning subyekti faqat jismoniy shaxslar bo‘lishi mumkinligi bildirishgan.

Shu bilan birgalikda, mamlakatimizda yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini ham qonunchilikka kiritish bo‘yicha olimlar tomonidan fikrlar bildirilayotganligini ta’kidlash o‘rinli bo‘lar edi. Jumladan, G‘.Alimov, D.M.Kushbakov[20] yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini qonunga kiritishni taklif qilishadi. Bunda ular korrupsion va ekologik huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik o‘rnatilishini bunday huquqbuzarliklar sodir etilgan yuridik shaxslar faoliyatini to‘xtatib turish, yetkazilgan zararlarni undirish imkoni kengayishi kabi holatlar bilan asoslashga harakat qilishgan.

B.Axrarov, M.Baratovlar esa yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini o‘rnatish haqidagi qarashlarni tanqid qilgan holda “yuridik shaxslarda his qilish va fikrlash xususiyati yo‘qligi, shuningdek ularni qonun hujjatlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashning imkoni bo‘lmaganligi, jamoani subyekt sifatida javobgar qilib bo‘lmasligi, korporatsiyada jazoni his etadigan vijdon, qalb va vujud yo‘qligi, bundan tashqari, korporatsiya yuridik fiksiya (haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan biror maqsad yo‘lida atayin o‘ylab topilgan yuridik holat) hisoblanib, ularni jinoiy javobgarlikka tortib bo‘lmasligini ta’kidlaydilar[21].

Biz ham yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligini qonunga kiritilishiga qarshi bo‘lganlarning fikrini qo‘llab-quvvatlaymiz, chunki yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, ayb ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilgan shaxsning o‘z qilmish va uning oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabatidir. Yuridik shaxsning qilmishga nisbatan ruhiy munosabati bo‘lishi mumkin emasligi sababli, o‘z-o‘zidan jinoyat tarkibi ham bo‘lmaydi.

Jinoyat subyektiga oid ko‘p bahs munozaralarga sabab bo‘ladigan masalalardan biri, aqli rasolik masalasi hisoblanadi. Ushbu masala bo‘yicha adabiyotlarda turlicha qarashlarni uchratish mumkin.

Q.R.Abdurasulova to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Jinoyat huquqi nazariyasida faqat aqli raso shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi va faqat ularga nisbatan jazo qo‘llash mumkinligi asoslab berilgan. Bu tushunarli, albatta. Zotan, aqli rasolik shaxsni aybdor deb topish va uni javobgarlikka tortishning zaruriy sharti hisoblanadi. Aqli noraso shaxslar, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganliklariga qaramay, aybdor hisoblanmaydilar va javobgarlikka tortilishlari ham mumkin emas. Jazo aybdorga nisbatan ularni qayta tarbiyalash, beqaror shaxslarga ta’sir ko‘rsatish va yangi

jinoyatlar sodir etilishining oldini olish uchun qo‘llaniladi”[22].

Odatda jinoyat huquqiga oid adabiyotlarda shaxsning ruhiy holati buzilishi uning aqli rasoligini istisno qiladi, degan qarashlar ko‘p bo‘lib, agar shaxsning ruhiy holati buzilishi uning aqli rasoligini istisno qilmasa, u jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinmi, degan masala bahslarga sabab bo‘lib kelgan. Ushbu masalaga O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga 2019 yil 12 sentabrda kiritilgan o‘zgartirish, ya’ni kodeksni aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxsning javobgarligi deb nomlangan 18^1-modda bilan to‘ldirilishi orqali yechim berildi, deyish mumkin. Ushbu modda mazmuniga ko‘ra, jinoyat sodir etish vaqtida ruhiy holati buzilganligi tufayli o‘z harakatlarining (harakatsizligining) ahamiyatini to‘liq darajada anglay olmagan yoki ularni boshqara olmagan aqli raso shaxs javobgarlikka tortiladi. Aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxsga nisbatan sud tomonidan jazo bilan birga tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari tayinlanishi mumkin.

A.Mamajonov aqli rasolikni istisno yetmaydigan tarzda ruhiy holat buzilishi deganda aqli raso shaxsning jinoyat sodir yetish vaqtida ruhiy holati buzilganligi tufayli o‘z harakatlarining (harakatsizligining) ahamiyatini to‘liq darajada anglay olmaslik yoki ularni boshqara olmaslik holati tushunilishini qayd etadi. Uning ta’kidlashicha, “cheklangan aqli rasolikning muhim belgilaridan biri, bu uni shaxsni ongli o‘zini o‘zi boshqaruvini to‘la amalga oshirishiga imkoniyat bermasligidir. Bu “subyektning shaxsiy qobiliyati (quvvati)” tushunchasi bilan izohlanadigan hodisa bilan bir vaqtda yuz beradi. Bu tushuncha sud-psixologik ekspertizasida “yuridik ahamiyat kasb etuvchi subyektning shaxsiy ijtimoiy qobiliyati (quvvati)” sifatida izohlanadi”[23].

Fikrimizcha, “iroda erkinligi” haqidagi falsafiy qarashlardan kelib chiqqan holda, shaxsning ruhiy holati buzilishi uning jinoiy qilmishni sodir etishiga nisbatan qaror qabul qilishga qanchalik ta’sirini hisobga olgan holda baholanishi lozim.

Jinoyat subyekti masalasidagi yana bir muhim jihat, bu jinoiy qilmish sodir etgan shaxsning yoshi masalasidir. Ushbu masalada kriminalistlar va kriminologlar tomonidan qilmishning va jinoyat sodir qilgan shaxsning ijtimoiy xavfliligi masalasidan kelib chiqib turlicha qarashlar mavjud.

Subyekt yoshi masalasi keyingi boblarda batafsil tahlil qilinishidan kelib chiqqan holda, bu yerda ushbu masalaga chuqur kirmagan holda, jinoyat subyekti yoshi hamma uchun bir xil bo‘lishini istisno qilgan holda, jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligiga qarab, jinoiy javobgarlik yoshi ham turlicha bo‘lishi kerakligini qayd etamiz.

Jinoyat subyekti tushunchasini tahlil qilishda, albatta hozirgi jinoyat huquqi nazariyamiz shakllanishida muhim asos bo‘lgan, sobiq sovet davri olimlari qarashlarini ham turli ko‘rib chiqish zarur deb hisoblaymiz. Albatta ushbu davrda jinoyat huquqiga oid nazariyalar mafkuraviy qarashlar doirasida shakllanganligini ham hisobga olamiz. Ya.M.Braynin, V.S.Orlov, A.A.Piontkovskiy, A.N.Traynin, I.I.Karpets, V.N.Kudryavsev, N.F.Kuznetsova, N.S.Leykina, R.I.Mixeyev kabi olimlar jinoyat subyektiga oid qarashlarni shakllantirishda muhim tadqiqotlar o‘tkazishgan. Ularning ishlarida subyekt masalasi odatda jinoyat tarkibi elementi sifatida tadqiq qilingan.

A.A.Piontkovskiy dialektik materializm falsafasidan kelib chiqqan holda iroda erkinligi qasddan va ehtiyotsizlikdan qilingan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikning asosi bo‘lishini ta’kidlagan[24].

I.S.Samoщenko esa, aksincha shaxsning jinoiy javobgarligini asoslashda erkinlikning falsafiy tushunchasidan kelib chiqmaslikni yoqlagan, uning fikricha qaror qabul qilishdagi erkinlik boshqa erkinlikni nazarda tutadi[25].

Fikrimizcha, I.S.Samoщenko erkinlikni turlicha turlarga bo‘linishini asoslab bera olmaganligi sababli, A.A.Piontkovskiyning fikri to‘g‘ri hisoblanadi, chunki shaxsning jinoyat sodir etishda qaror qabul qilish erkinligi uning qilmish mohiyatini anglashi va uning oqibatlarini tushunishini bildirib, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning muhim asosi hisoblanadi.

A.A.Traynin esa, jinoyat subyekti jinoyat tarkibi elementi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin emasligini ta’kidlaydi, chunki shaxs o‘zi sodir etgan jinoiy qilmishning elementi hisoblanmaydi. Uning fikricha, jinoyat sodir qilgan shaxsning yo‘qligi jinoyat yoki jinoyat tarkibi haqida so‘z yuritishni istisno qiladi, bundan tashqari qonundan belgilangan yoshga yetgan aqli raso shaxsning yo‘qligi jinoiy javobgarlikning va jinoyat tarkibining borligi masalasini savol ostiga qo‘yadi[26]. Ya’ni A.A.Traynin jinoyat subyektini jinoyat tarkibi elementi sifatida emas, balki alohida institut sifatida ko‘rib chiqishni taklif qilgan. Shuningdek, uning qarashlarini qo‘llagan B.S.Nikiforov ham jinoyat subyekti yoshi va aqli

rasoligi masalasini jinoyat tarkibi sifatida ko‘rib chiqib bo‘lmasligini ta’kidlagan.

N.S.Leykina esa, jinoyat subyekti yoshi va aqli rasoligini jinoyat subyektining asosiy elementlari qatoriga kiritish jinoyatni sodir qilgan shaxsning o‘zini o‘zi sodir qilgan jinoyatning elementiga aylantirib qo‘ymasligini ta’kidlagan holda, yosh va aqli rasolikni subyekt tarkibi sifatida ko‘rib chiqish har bir jinoyat tarkibini har tomonlama va to‘liq baholash imkonini berishini ta’kidlagan[27].

Albatta jinoyat tarkibi va unga nimalar kirishi haqida turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, bir qancha xorijiy davlatlarda qilmishlarni tarkibi masalasi emas, balki har bir jinoyatni sodir qilgan shaxsning aybi masalasiga ko‘proq e’tibor berilishi kuzatish mumkin.

Xorijiy davlatlar qonunchiligida jinoyat tarkibi sifatida ayb tushunchasi va aybdorlik masalasi kengroq talqin qilinganligini kuzatish mumkin. A.Jalinskiy va A. Ryorixtlar Germaniya jinoyat huquqini tahlil qilish orqali jinoyat tushunchasi uchta belgidan – jinoyat tarkibining mavjudligi (obyektiv va subyektiv belgilarning mavjudligi), qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarning mavjud emasligi va jinoyatning mustaqil belgisi sifatida aybdan iboratligini ko‘rsatishgan. Ularning fikricha, Germaniya jinoyat huquqida aybdorlik va huquqqa xiloflik o‘rtasida jiddiy farq mavjud bo‘lib, qilmish huquqqa xilof, ammo aybli emas, deb topilishiga asos bo‘ladi, bundan tashqari ularda ayb va ehtiyotsizlikka ikki xil tushuncha sifatida qaraladi[28].

Jinoyat qonunida aybdorlik prinsipi («nulla poena sine culpa») huquqiy davlat prinsipining elementlaridan bo‘lib, Germaniyada konstitutsiyaviy mavqega ega. Germaniya JKning 46§ ga muvofiq, jinoyat sodir qilgan shaxsning aybi, jazo tayinlashning asosi hisoblanadi[29]. Jazoning aybdorning kelgusida ijtimoiy hayotdagi o‘rniga ta’siri hisobga olinadi.

Biz mamlakatimizda shakllangan jinoyat huquqi nazariyasida, jinoyat subyekti masalasi jinoyat tarkibining bir elementi sifatida tadqiq qilib kelinganligi, uning jinoyat tarkibi elementi sifatida yoki alohida institut sifatida ko‘rib chiqilishi muhim emasligi, asosiy e’tibor jinoyatni sodir qilishda subyektning aybini aniqlash ekanligiga qaratilishi zarur deb hisoblaymiz. Shundan kelib chiqqan holda jinoyat subyekti jinoyat tarkibi elementi sifatida o‘rganilishini yoqlaymiz.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan olimlar qarashlari hamda mamlakatimiz qonunchiligi tahlili asosida jinoyat subyekti deganda qonunda belgilangan jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan, aqli raso, jismoniy shaxslar tushuniladi, degan xulosaga kelindi.

N.F. Kuznetsova va I. Tyajkovalar to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “jinoyatchi shaxsining ko‘plab xususiyatlari orasidan qonun uning jinoiy javobgarlikni o‘tash qobiliyatini ko‘rsatadigan xususiyatlarni ajratib ko‘rsatadi. Aynan shu belgilar jinoyat subyektini tavsiflaydi”[30].

Qonun chiqaruvchi jinoiy javobgarlikning umumiy shartlari orasida jinoyat subyektining belgilarini nazarda tutishi, jinoyat subyekti va jinoiy javobgarlik institutlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini bildiradi. N.S. Leykina ta’kidlaydiki, “jinoyat subyekti tushunchasi, eng avvalo, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan jismoniy shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi uchun asos bo‘ladigan belgilar majmuini anglatadi. Doimiy va umumiy belgilar esa - bu aqli rasolik va shaxsning muayyan yoshga yetganligidir”[31].

Umuman olganda, har bir inson ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishi, ya’ni qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar, manfaatlar, huquq va erkinliklarga zarar yetkazishi yoki bunday zarar yetkazish xafvini yuzaga keltirishi mumkin. Shu bilan birga, qonun chiqaruvchi jinoyat subyekti belgilariga jinoiy javobgarlik shartlari ahamiyatini berganligini hisobga olgan holda, faqat ushbu belgilarga javob beradigan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligini anglash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 17-moddasida nazarda tutilgan belgilarning mavjud emasligi, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishni istisno qiladi. Bu birinchi navbatda, jinoyatning iroda erkinligi akti sifatidagi tabiati bilan, uning mavjud muqobil xulq-atvor variantlari, shu jumladan qonuniy xususiyatga ega bo‘lgan variantlari orasidan ongli ravishda tanlash natijasi ekanligi bilan tushuntiriladi.

Ikkinchidan, jinoyat subyekti belgilariga javob bermaydigan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish jinoiy javobgarlik maqsadlariga erishish imkonsizligini anglatadi. Jinoiy javobgarlik jamiyat va davlat tomonidan qasos yoki o‘ch olish sifatida qaralmaganligi sababli, jazo aybdor shaxsga tuzatish-ogohlantirish ta’sirini ko‘rsatishni nazarda tutadi, uning samaradorligining sharti aynan aybdor shaxsning normal psixofiziologik holati va ijtimoiy yetukligining yetarli darajasidir.

Jinoyat subyekti jinoiy javobgarlikni belgilashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanar

ISSN 3030-3230

ekan, “jinoyat subyekti” va “jinoiy javobgarlik subyekti” tushunchalarining o‘zaro nisbati qanday bo‘ladi, degan savol kelib chiqadi. Jinoyat kodeksing 16-moddasida jinoyat uchun javobgarlik - **jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga** nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir, deb belgilanganligidan kelib chiqqan holda, ushbu ikkala tushuncha bir ma’noni anglatadi, deb tushunish ham mumkin. Ammo, “jinoyat subyekti” va “jinoiy javobgarlik subyekti” tushunchalarining aralashib ketishi, shuningdek, jinoiy javobgarlik subyektining xususiyatlarini jinoyat subyekti tushunchasining mazmuniga keltirish to‘g‘ri emas. Chunki, jinoyat va jinoyat-huquqiy javobgarlik determinlovchi omillar bo‘lib, ular har doim ham o‘zaro obyektiv bog‘liqlikda bo‘lmaydi. Jinoyat sodir etgan inson har doim sudlanmaydi, xuddi shuningdek sud ham haqiqatan aybdor shaxslarga nisbatan har doim ayblov hukmlarini chiqarmaydi (yarashuv, amnistiya, afv, jinoyat ishini tugatish, dalillar maqbul emasligi va h.k.).

“Jinoyat subyekti” tushunchasining jinoyat-huquqiy ahamiyati, birinchidan, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning jinoiy xususiyatini aniqlash zaruriyati bilan bog‘liq. Jinoyat sodir etishda aybdor shaxs qonunda belgilangan fiziologik xususiyat, yosh va aqli rasolik shartlariga mos kelmagan taqdirda, sodir etilgan qilmish jinoyat deb tan olinishi mumkin emas. Bu holda jinoiy javobgarlikka tortish uchun asoslar yo‘qligi haqida gapiriladi.

Subyektning xususiyatlari jinoyat qonunining Maxsus qismining muayyan normasi bo‘yicha qilmishni malakalash uchun ham ahamiyatga ega. Masalan, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining birinchi bo‘limi (Shaxsga qarshi jinoyatlar 97-149-moddalar)da 75 ta jinoyat subyektiga bog‘liq jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, ba’zi hollarda subyektning belgilari qonun chiqaruvchi tomonidan modda dispozitsiyasida maxsus ko‘rsatiladi, ularni aniqlash bir qator jinoiy qilmishlarni kvalifikatsiya majburiy sharti hisoblanadi. Masalan, Jinoyat kodeksi 205-moddasi dispozitsiyasida davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi **mansabdor shaxsining** o‘z mansab vakolatlaridan qasddan foydalanishi fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo‘lishi hokimiyatni yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish hisoblanadi. Agar shaxs ushbu modda nazarda tutilgan subyektga xos belgilarga ega bo‘lmasa, ushbu jinoyat tarkibi ham bo‘lmaydi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, quyidagi xulosalarga kelindi:

Jinoyat subyekti bu jinoyat tarkibining bir elementi bo‘lib, majburiy belgilar yig‘indisi bilan, shuningdek ma’lum hollarda – muayyan jinoyat-huquqiy norma tarkibi bilan belgilangan fakultativ belgilar (maxsus subyekt) bilan tavsiflanadi.

Jinoyat subyekti deganda inson yoki shaxs emas, balki jinoyat sodir etganlik uchun mas’ul bo‘lgan shaxsning huquqiy, yosh va ruhiy maqomini belgilovchi belgilar yig‘indisi – yuridik mezonlar tushuniladi. Jinoyat subyekti – aynan jinoiy javobgarlikning vujudga kelishi uchun zarur bo‘lgan bir necha yuridik ahamiyatga ega tarkibiy qismlarga ega bo‘lgan jinoyat-huquqiy maqomdir.

Аннотация. В данной статье системно проанализированы понятие субъекта преступления и его уголовно-правовое значение. Основные признаки субъекта преступления – физическое лицо, достижение возраста уголовной ответственности и вменяемость – раскрыты на основе Уголовного кодекса Республики Узбекистан и научных взглядов. Философские и методологические основы уголовной ответственности рассмотрены через призму учений таких мыслителей, как Кант, Гегель и Фихте. Также проведен сравнительный анализ позиций классической, антропологической и социологической школ уголовного права. В статье затронуты научные дискуссии по вопросу уголовной ответственности юридических лиц, представлены мнения различных учёных и аргументирована авторская позиция по данной проблематике.

Ключевые слова: субъект преступления, вменяемость, возраст ответственности, психическое состояние, свобода воли, состав преступления, уголовная ответственность, специальный субъект, уголовное право, судебно-психологическая экспертиза.

Abstract. This article provides a systematic analysis of the concept of the subject of a crime and its significance in criminal law. The essential characteristics of the subject of a crime – being a natural person, reaching the age of criminal responsibility, and having mental competence – are examined based on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan and various scholarly views. The philosophical and methodological foundations of criminal responsibility are explored through the teachings of philosophers such as Kant, Hegel, and Fichte. In addition, the article presents a comparative analysis of classical, anthropological, and sociological schools of criminal law. The ongoing academic debates concerning the criminal liability of legal entities are also addressed, incorporating the opinions of different scholars, and the author presents a reasoned personal position on the issue.

Key words: subject of a crime, mental competence, age of responsibility, mental state, free will, elements of crime, criminal liability, special subject, criminal law, forensic psychological examination.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 майдаги ПҚ–3723-сонли қарори билан тасдиқланган "Ўзбекистон Республикасининг Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилигини такомиллаштириш концепцияси". Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 15.05.2018 й., 07/18/3723/1225-сон, 01.10.2018 й., 06/18/5547/1975-сон

2. Рустамбоев М.Ҳ. Жиноят ҳуқуқи (Умумий қисм). Олий ўқув юртлари учун дарслик. Т.: "ILM ZIYO", 2005-480 б. 176 б.

3. Кант И. Сочинения. В 8-ми т. Т.6. Религия в пределах только разума. Метафизика нравов. Под общей редакцией проф. А.В.Гулыги. М.: Чоро, 1994. -613 с. 75-78 с.

4. Пионтковский А.А. Учение Гегеля о праве и государстве и его уголовно-правовая теория. М,, 1993. С.164,171.

5. Гегель Г.В.Ф. Философия права. М.Издательство "Мысль". 1990. С. 89. https://www.marxists.org/russkij/hegel/phil-prava.pdf (мурожаат санаси 08.11.2024 й.)

6. Пионтковский А. А. Ученые труды. Уголовно-правовые воззрения Канта, Л. Фейербаха и Фихте / А. А. Пионтковский. - Москва: Юридическое изд-во, 1940. https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_003051761/ (мурожаат санаси 08.11.2024 й.)

7. Индетерминизм (лотинча сўз бўлиб, детерминизмни рад қилишни англатади) фалсафада сабабий боғлиқликнинг объективлигини (онтологик индетерминизм) ёки фанда сабабий тушунтиришда билиш қийматини рад қиладиган (методологик детерминизм) ни ёқлайдиган қараш. Бундай қарашга қадимги грек файласуфи Суқрот асос солган бўлиб, бу қараш шахснинг ўзи содир этган қилмишига нисбатан ирода эркинлиги ва ўз ҳаракатлари учун жавоб бериши ҳақидаги қарашларга қарама-қарши қўйилади. Яъни бунда ирода автоном куч бўлиб, сабабий боғлиқлик инсон иродаси билан боғлиқ эмаслиги таъкидланади.

8. Красиков Ю.А. Доктрина русского уголовного права: истоки и тенденции развития / / Современные тенденции развития уголовной политики и уголовного законодательства: Те¬зисы докладов конференции, 27-28 января 1994 г. / Под ред. С.В. Бородина и др. М., 1994. С.35.

9. Ўзбекистон Республикаси Жиноят ҳуқуқи курси. 1-том. Рустамбаев М. Ҳ. 2011. 215 б.

10. Якубов А.С. Правовая основа учения о преступлении: предпосылки, реальность, перспективы. Дисс. ... д.ю.н. Т. 1996; 124.; Якубов А.С., Кабулов Р. ва бошқалар. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. – Тошкент: ИИВ Академияси. 2005. 330-б.

11. Жиноят ҳуқуқи. Усмоналиев М., Бакунов П. 2010.

12. Абдурасулова Қ.Р. Жиноятнинг махсус субъекти. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2022. 6-б.

13. Рустамбоев М., Ахраров Б. Жиноят ҳуқуқи. Дарслик. – Т., 2006. – Б.254.

14. Холиқулов У.Ш. Совершенствование уголовного законодательства Республики Узбекистан в условиях углубления демократических реформ. Диссертация на соискании доктора юридических наук. (DSc).Т. 2019.

15. Кабулов Р., Нарбутаев Э. Уголовная политика и ее реализация в деятельности органов внутренних дел: Учебное пособие – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2006.

16. Тошпулатов А.И..Жиноят-ҳуқуқий принциплар: Назария ва амалиёт. Монография. Т. ТДЮУ. 2023.

17. Салаев Н.С. Differentiation, individualization, execution of criminal punishments and its goals: way to success. Вестник юридических наук. № 1 2017. С. 157-159.

18. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik (To’ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri) / R. Kabulov, A. A. Otajonov va boshq. – T.: O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 452 b.

19. Ўразалиев М. Жисмоний ёки руҳий мажбурлаш ёхуд қўрқитиш, қилмишнинг жиноийлигини истисно қиладиган ҳолат сифатида. Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили ♦ Uzbek law review ♦ Обзор законодательства Узбекистана. 72-74 б.

20. Алимов. Ғ.А. Юридик шахсларнинг коррупцион ҳуқуқбузарликлар учун жавобгарлигини тартибга солувчи халқаро стандартлар тизими// монография. -Т. ЮМОМ, 2019; Кушбаков Д.М. Юридик шахслар жиноий жавобгарлигининг хусусиятлари. https://cyberleninka.ru/article/n/yuridik-shahslar-zhinoiy-zhavobgarligining-hususiyatlari

21. Ахраров Б., Баратов М. Ўзбекистон Республикасида юридик шахслар жавобгарлигининг айрим жиҳатлари // Одил судлов. – 2020. – № 5. 35–41 б.

22. Абдурасулова Қ.Р. Жиноятнинг махсус субъекти. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2022. 6-б.

23. Мамажонов А. Ақли расоликни истисно этмайдиган тарзда руҳий ҳолати бузилган шахсларнинг жиноий жавобгарлиги. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т. 2024 й. 20

24. Пионтковский А.А. Учение о преступлении. М., 1961. С.271-272.

25. Самощенко И.С. Свобода воли и ее значение для правильного регулирования общественных отношений // Советское государство и право. 1963. №12. С.37-40.

26. Трайнин А.Н. Общее учение о составе преступления. М., 1957. С. 191.

27. Лейкина Н.С. Личность преступника и уголовная ответственность. Дисс... докт. юр. н Л., 1969. С. 290.

28. Жалинский А., Рёрихт А. Введение в немецкое право. М., 2001. С. 594.

29. Уголовный кодекс Федеративной Республики Германии. http://rawunsch.de/ images/Ugolovnyiyi_Kodeks.pdf

30. Курс уголовного права. Общая часть. Том 1: Учение о преступлении. Учебник для вузов. Под ред. Н.Ф. Кузнецовой и И.М. Тяжковой. М. 2011. 114 с.

31. Лейкина Н.С. Личность преступника и уголовная ответственность. Дисс... докт. юр. н Л., 1969. С. 43.

MUDOFAA VA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIK (AYRIM TASHKILIY-HUQUQIY MASALALAR)

Xoliqov Sarvar Mingishovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada mudofaa va jamoat xavfsizligini ta’minlashda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik masalalari tahlil qilingan. Muallif mahallalarning mudofaa va xavfsizlik sohasidagi ishtirokini, jamoatchilik nazorati va jamoat kengashlarining roli, ularning huquqiy maqomi hamda amaliyotdagi muammolarni yoritib bergan. Shuningdek, mavjud huquqiy bazani takomillashtirish va hamkorlikni institutsionallashtirish zarurati ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: mudofaa, jamoat xavfsizligi, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlar, hamkorlik, jamoatchilik nazorati, qonunchilik, davlat organlari.

Mudofaa va xavfsizlikni ta’minlash har bir davlatning oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Albatta, ushbu vazifani amalga oshirish davlatning tegishli Qurolli Kuchlari va huquqni muhofaza qilish organlari zimmasiga yuklatiladi. Binobarin, mudofaani ta’minlash imkoniyatlari va xavfsizlikni ta’minlovchi subyektlarning mavjud kuch va shart-sharoitlari mamlakatning butun hududida ular tomonidan xavfsizlikni to‘liq ta’minlash borasidagi ishlarni amalga oshirilishida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, bu borada davlat va jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etuvchi subyektlarning yordamidan ham foydalanish zarurati mavjud bo‘ladi [1].

S.Agzamxodjayeva qayd etganidek, huquqiy davlatda demokratik institutlar — siyosiy partiyalar, nodavlat jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mahallalar va ixtiyoriy havaskorlik uyushmalari, klublari keng tarqalgan bo‘lib, ijtimoiy hayotning demokratik prinsiplarga va talablarga muvofiq ravishda rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi [2].

Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2016-yilda Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqida quyidagilarni ta’kidlab o‘tdi: “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda biz, ilgarigidek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari – mahallalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o‘rin egallaydi, deb ishonamiz. “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” degan muhim tamoyilni amalga oshirishda biz avvalo ana shu ijtimoiy institutlarning kuch va imkoniyatlariga tayanamiz [3].

O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiyasiga muvofiq, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek, fuqarolar O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligini ta’minlash tizimini tashkil etishi belgilangan [4]. Shuningdek, Mudofaa doktrinasining 24-bandida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda fuqarolari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarida belgilangan doirada mudofaa vazifalarini hal qilishda ishtirok etishlari qayd etilgan [5].

Binobarin, yangi Konstitutsiyamiz 64-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchi O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishdir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majbur hisoblanadilar [6]. Fuqarolarning ushbu majburiyati “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunga binoan tashkil etiladigan harbiy xizmatning muddatli harbiy xizmat, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmat va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmat turlarini tashkil qilish orqali amalga oshiriladi [7].

Fuqarolarni mazkur harbiy xizmat o‘tashga jalb qilish bilan bog‘liq ishlarini tashkillashtirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining roli katta. Umuman olganda Fuqarolar yig‘ini kengashi o‘z hududida mudofaa va xavfsizlik yo‘nalishida muayyan vazifalarni amalga

 ISSN 3030-3230

oshirishga haqli. Jumladan, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonun 13-moddasiga binoan aholini fuqaro muhofazasiga doir tadbirlarga jalb qilish, harbiy xizmatga majburlarni xabardor qilish va ularni mudofaa bo‘limlariga chaqirishni tashkillashtirishda ko‘maklashadi, fuqarolar yig‘inlarida harbiy xizmatga majbur bo‘lgan fuqarolarning birlamchi shaxsiy hisobini yuritadi [8]. Ya’ni mahallalar mudofaa bo‘limlari faoliyatiga ko‘maklashishda katta imkoniyatlarga ega.

Professor R.Jumayev qayd etganidek, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy keskinliklar zo‘raygan vaqtda mahalla qo‘mitalari hududda tartib–intizom o‘rnatish, xo‘jalik va maishiy sohalardagi ixtiloflar, muammolarni bartaraf etish kabi masalalarda o‘zining davlatchilik mohiyatini namoyon qilgan. Bugungi kunda davlatning ma’muriy–huquqiy rejadagi vazifalarini bajarish borasida ularning allaqachon pishib yetilganligini tajriba ko‘rsatmoqda [9].

M.Qirg‘izboyev fikriga ko‘ra, “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilidan kelib chiqib, shuningdek jamiyatning siyosiy sohasini erkinlashtirish maqsadlarida mahalla fuqarolar yig‘inlariga boshqaruvning turli yo‘nalishlarida yetakchilik qilishlariga doir vakolatlar berildi [10].

Huquqshunos olim A.To‘laganov o‘rinli ta’kidlaganidek, asosiy vazifa ana shu o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ilg‘or ish tajribasini keng yoyishdir. O‘zini o‘zi boshqarish organlarini amalda haqiqiy vakolatlar bilan ta’minlash fuqarolar manfaatlarini ham amalda haqiqiy ta’minlaydigan boshqarishga erishish imkonini beradi [11].

Professor Z.Islomov fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga davlat organlarining muayyan vakolatlari allaqachon o‘tkazilganligini qayd etib, masalaning muhim tomoni – ushbu vakolatlarni ro‘yobga chiqarishning ta’sirchan mexanizmini yaratish ekanligini ta’kidlaydi [12].

Bizning fikrimizcha, milliy xavfsizlik sohasining eng katta yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan - jamoat xavfsizligini ta’minlash ayniqsa bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etib, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari ham o‘z mikrohududlarida ushbu jarayonda faol ishtirok etmoqda.

Jamoat xavfsizligi — jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi.

Huquqshunos olim M.Ziyodullayev o‘z nomzodlik dissertatsiyasining “Militsiya tayanch punktlari negizida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ichki ishlar idoralarining jamoatchilik bilan hamkorligi” nomli paragrafida profilaktika inspektorilarining fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorligini o‘rgangan. Muallif dissertatsiyada ko‘rsatilganidek, militsiya tayanch punktlarining jamoatchilik bilan doimiy hamkorligini yo‘lga qo‘yish maqsadida militsiya tayanch punktlarini fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan bir binoda joylashtirishga yo‘ldan yilga ko‘p e’tibor berilgan [13]. Huquqshunos olim barcha ichki ishlar idoralarida ham jamoat tuzilmalari bilan samarali hamkorlikni tashkil etishda mazkur huquq tartibot maskanlari imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotganligini tanqid qilgan.

Asosiy muammolar qatorida R.Babadjanov fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining kadrlarni tayyorlash masalalarini dolzarb muammolardan ekanligini ko‘targan. Muallif buni hanuzgacha hal etilmagan qolgan masala ekanligini va Respublika Hukumati darajasida o‘z yechimini topmog‘ini ta’kidlaydi. Muallif fikricha, Respublikaning deyarli barcha mahallalarida vazifalarning asosiy qiyinchiliklari mahalla oqsoqoli va uning kotibi zimmasiga tushib qolgan. Fuqarolar yig‘ini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha komissiyalarning roli sezilmayapti [14].

Darhaqiqat biz ham olimlarning fikrlariga qo‘shilamiz. Chunki masalan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatidagi mudofaa masalalariga doir ishlar bilan shug‘ullanish uchun fuqarolar yig‘ini kengashlari mudofaa ishlari bo‘limlari bilan kelishilgan holda harbiy hisobni yuritish bo‘yicha xodimni tasdiqlashi lozim. Biroq amalda mahalla yettiligining shtat bo‘yicha egallagan lavozimlarida bu kabi funksional vazifalar ko‘rsatilmagan. Ya’ni, deyarli aksariyat mahallalarda bu masala diqqat-e’tibordan chetda qolgan. Jamoat xavfsizligi va huquqbuzarliklar profilaktikasi yo‘nalishidagi vazifalar esa asosan mahalla profilaktika inspektorlari zimmasiga tushib qolgan.

Fuqarolar yig‘ini huzuridagi komissiyalar yoki boshqa jamoatchilik tuzilmalarining o‘rni bilinmaydi. Natijada esa mudofaa va xavfsizlik sohasidagi muammolar faqat davlat organlarining vazifasi degan tushuncha shakllanib qolgan bo‘lib, jamoat tashkilotlari yoki ixtisoslashgan nodavlat notijorat tashkilotlari ta’siri yetarlicha sezilmaydi.

Masalan, harbiy qism va muassasalarda, maktab, akademik litsey va mahallalar hamda

boshqa tashkilotlarda, shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish va ijtimoiy himoyasini ta’minlash, moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida ishlarni jamoatchilik yordamida tashkil qilish va muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 24-oktabrda «O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzurida Jamoatchilik kengashini tuzish to‘g‘risida»gi PQ-1839-son Qarori qabul qilingan.

Qarorga asosan Jamoatchilik kengashi tashkil etilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 25 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali yig‘ilishda Mudofaa vazirligi huzurida tuzilgan Jamoatchilik kengashining xalq va armiya birdamligiga erishish yo‘lidagi sa’y-harakatlarini yuqori baholab, ushbu kengashning hududiy bo‘linmalarini tuzish orqali uning imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini aytib o‘tdilar.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3234-son qarori bilan Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining nomma-nom tarkibi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi va viloyatlarda Jamoatchilik kengashi hududiy bo‘linmalarining Namunaviy tarkibi tasdiqlandi. Tarkibga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimlarining o‘rinbosari - Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshliqlari hududiy bo‘linma raisi etib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi 18 ta davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari hududiy bo‘linmalar a’zolari etib tayinlandi.

Jamoatchilik kengashi va uning hududiy bo‘linmalariga belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda manfaatdor vazirlik va idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tuman va shahar hokimliklari hamda tegishli davlat organlari va tashkilotlari, harbiy okruglar va harbiy qism (muassasa)lar qo‘mondonliklari o‘rtasida yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2023-yil 27-apreldagi 355-sonli buyrug‘i imzolandi va ijroga qaratildi. Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a’zolari asosiy lavozimlaridan kelib chiqqan holda 4 ta komissiya tarkibida faoliyat yuritmoqdalar. Bular:

- mudofaa va harbiy qurilish sohasida meyoriy-huquqiy va boshqa rasmiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, jamoatchilik fikrini o‘rganib borish, jamoatchilik birlashmalari va Mudofaa vazirligi o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlash Komissiyasi;

- harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoyasi hamda rezervga bo‘shatilgan fuqarolarning ish bilan bandligini ta’minlash, ularni ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturlarining ijrosini tahlil qilish va bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatish Komissiyasi;

- fuqarolarni harbiy xizmatga chaqirish tizimi hamda chaqiruvga qadar yoshlar va harbiy xizmatchilarning harbiy-vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish Komissiyasi;

- ommaviy axborot vositalari orqali mamlakatimizda olib borilayotgan harbiy qurilish hamda Qurolli Kuchlarda amalga oshirilayotgan islohotlar masalalariga doir tushuntirish ishlarini olib borish Komissiyasi.

Bugungi kunda Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi

va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan “Xalq va armiya – bir tanu bir jon” degan ezgu g‘oyani amalda ro‘yobga chiqarish borasida muayyan ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Agarda bugunga kunda 9500 dan ziyod jamoat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko‘rsatayotganligini inobatga olsak, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi bajarayotgan ishlar ko‘lamini butun mamlakat bo‘ylab targ‘ib etish mumkin, deb o‘ylaymiz.

Professor X.Odilqoriyev ta’kidlaganidek, tinchlik va barqarorlikni qaror toptirishda, ijtimoiy adolat va qonuniylikni, inson huquqlariga qat’iy rioya etilishini, qonunlar ijrosini samarali ta’minlashda huquqni muhofaza etuvchi davlat idoralari bilan fuqarolik jamiyati institutlarining izchil hamkorlik qilishiga erishish salmoqli natijalar berishi shubhasiz [15].

O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari Milliy Assotsiatsiyasi loyihasining vakili M.Aminovning qayd etishicha, fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘lab-quvvatlash sharoitida davlat tomonidan ularga ko‘mak berish talab etilmoqda [16].

Bizning fikrimizcha, avvalo, qonunchilik va tashkiliy-huquqiy ishlar borasida qonunchiligimizda nodavlat notijorat tashkilotlari va davlat organlarining ushbu yo‘nalishdagi o‘zaro hamkorligini belgilovchi bir qator normativ-huquqiy hujjatlarini yanada takomillashtirishni

davr taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF–27-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasining 5-bandida “jamoat xavfsizligini ta’minlash davlat idoralari va tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, fuqarolar hamda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi”, shuningdek, 18-bandida esa “fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar jamoat xavfsizligini bevosita ta’minlovchi subyektlarga ko‘maklashish hamda zarur yordamni ko‘rsatish yo‘li bilan jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etishi mumkin”ligi belgilandi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash borasidagi ishlarni amalga oshirishda jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlari va jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etuvchi subyektlarning o‘zaro hamkorligini tashkillashtirish, ta’minlash va bu munosabatlarni tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solish jamoat xavfsizligini ta’minlashning samaradorligiga katta hissa qo‘shadi.

Davlat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlik samaradorligi haqida ilmiy adabiyotlarda turli fikr va qarashlarni uchratamiz [17].

Masalan, XX asr boshlarida fuqarolarning mulkini qo‘riqlash va jamoat tartibini ta’minlashda deyarli barcha tumanlarda tashkil etilgan firqa drujinachilar faol ishtirok etganlar. Ular omborlar, muassasalarni qo‘riqlash, shaharlarda jamoat tartibini saqlash, asosiy ko‘chalar va chorrahalarda harakat xavfsizligini ta’minlash bilan shug‘ullanganlar. Umuman olganda, firqa drujinachilari vazifalarining ko‘lami ayni kundagi qo‘riqlash, patrul-post va jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda yo‘l-patrul xizmatlarining vazifalarini o‘z ichiga qamrab olgan.

J.J.Russoning tadqiqotlariga ko‘ra, “jamiyatda ijtimoiy birlikning shunday shaklini topish kerakki, u har bir a’zoning shaxsi hamda mulkini chegaralash va himoyalashga qodir, uning yordamida ommaga qo‘shilgan har bir kishi faqat o‘z-o‘ziga bo‘ysunishi va avvalgidek erkin bo‘lib qolishi kerak. Ijtimoiy kelishuv bajaradigan asosiy vazifa ana shundan iborat” [18].

Davlat va jamiyat oldidagi muhim va dolzarb masalalarni hal etishda davlat organlari va “uchinchi sektor” deb nom olgan nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasidagi samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xususan, jamoat xavfsizligi Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, “jamoat tartibini muhofaza qilish” tushunchasining mazmunini “davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamoatchilik bilan hamkorlikda amalga oshirishga qaratilgan har xil turdagi chora-tadbirlarni amalga oshirishi” degan xulosaga kelish mumkin.

Ta’kidlash lozimki, 2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida ushbu tizimga kiruvchi organlarning fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini tashkil etish mexanizmini ifodalovchi, ijtimoiy sheriklikni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiluvchi huquqiy normalar mavjud [19].

Xususan, ushbu Qonunning 11-moddasida quyidagilar belgilangan: “Ichki ishlar organlari o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida, qonunchilikda belgilangan tartibda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi hamda aniqlangan jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar to‘g‘risidagi axborotni almashishni, shu jumladan elektron shaklda almashishni, shuningdek boshqa axborotni almashishni amalga oshiradi. Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta’minlashda, jinoyatlar va ma’muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularni fosh etishda, jinoyat ishlarini tergov qilishda, jinoyatchilarni qidirishda, bedarak yo‘qolganlarning turgan joyini aniqlashda, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasida ichki ishlar organlariga o‘z vakolatlari doirasida ko‘maklashishi shart”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-maydagi “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–2940-son qaroriga muvofiq, “jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatining muvofiqlashtirilishi va tashkiliy-uslubiy ta’minlanishini kuchaytirish, mazkur sohaga yuklatilgan vazifalarni bajarishda ichki ishlar organlarining fuqarolik jamiyati institutlari va aholi bilan yaqindan hamkorlik qilish mexanizmlarini rivojlantirish” O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy

bo‘linmalarining eng muhim vazifalaridan biri sifatida belgilandi [20].

2018-yil 6-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 21-moddasiga ko‘ra, davlat xavfsizlik xizmati zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar bilan qonunchilikda belgilangan tartibda hamkorlik qiladi, davlat organlari va boshqa tashkilotlar Davlat xavfsizlik xizmatiga davlat xavfsizligini ta’minlashga doir vazifalarni bajarishda o‘z vakolatlari doirasida ko‘maklashishi shart [21].

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-yanvardagi 35-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlariga ko‘maklashuvchi “Chegara posbonlari” otryadlari to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlariga ko‘maklashuvchi “Chegara posbonlari” otryadlarini tashkil etish asoslari, ularning vazifalari, tarkibi, faoliyatini tashkil etish tartibi, ularning huquq va majburiyatlari, ko‘maklashuvchi otryad a’zolarini rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tartibini belgiladi [22].

2020-yil 18-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-moddasida ham hamkorlik munosabatlar aks ettirilgan bo‘lib, unga ko‘ra, Milliy gvardiya o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hamkorlik qiladi. Davlat organlari va boshqa tashkilotlar Milliy gvardiyaga uning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda o‘z vakolatlari doirasida ko‘maklashishi shart [23].

Ta’kidlash joizki, Jamoat xavfsizligi konsepsiyasining 5-bandida, jamoat xavfsizligini ta’minlash davlat idoralari va tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolar hamda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi belgilangan. Biroq, jamoat xavfsizligini ta’minlashda nodavlat notijorat tashkilotlari va davlat organlari o‘zaro hamkorligining tushunchasi, maqsad va vazifalari respublikamiz amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettirilmagan.

Xulosa qilib aytganda, mudofaa va xavfsizlik sohasida mahallalar, nodavlat notijorat tashkilotlari va davlat organlari o‘zaro hamkorligi munosabatlarini belgilovchi, ya’ni, hamkorlikning umumiy jihatlarini belgilovchi o‘ziga xos milliy qonunchilik tizimi shakllantirilgan. Biroq, mazkur sohadagi hamkorlik munosabatlarini tartibga soluvchi, hamkorlikning aniq vazifalari, yo‘nalishlari va shakllarini, huquq va majburiyatlar, mas’uliyat va javobgarlikni ifodalaydigan tor doiradagi masalalarni aniq belgilash vaqt-soati kelgan.

Аннотация. В статье анализируются вопросы взаимодействия государственных органов, органов самоуправления граждан и неправительственных некоммерческих организаций в обеспечении обороны и общественной безопасности. Особое внимание уделяется участию махаллей в данных процессах, роли общественных советов и институтов гражданского контроля, а также существующим правовым и организационным проблемам. Подчеркивается необходимость совершенствования нормативно-правовой базы и институционализации межсекторного сотрудничества.

Ключевые слова: оборона, общественная безопасность, махалля, ННО, сотрудничество, общественный контроль, законодательство, государственные органы.

Annotation. This article explores the collaboration between state institutions, citizens’ self-governing bodies (mahallas), and non-governmental non-profit organizations in ensuring national defense and public safety. The study emphasizes the role of mahallas, public councils, and civic oversight mechanisms while highlighting existing legal and practical challenges. The authors argue for the need to improve the legal framework and institutionalize effective intersectoral cooperation in the field of defense and security.

Key words: defense, public safety, mahalla, NGOs, cooperation, civic oversight, legislation, state authorities.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз: Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Т.: “Ўзбекистон”, 2016. – 11 б.
2. Агзамходжаева С. Демократик ҳуқуқий давлат асослари. // Ҳуқуқ ва бурч. – Тошкент, 2007. – № 10–11. – Б. 31. (30–32.)
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январь кунидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // https://uza.uz/
4. Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 августдаги 467-I-сон Қонуни билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Миллий хавфсизлик концепцияси // https://lex.uz
5. Ўзбекистон Республикасининг “Мудофаа доктринаси”. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 9 январдаги 458-сонли Қонуни билан тасдиқланган. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2018 йил, 2-сон, 23-модда.
6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2023 йил. – 120 б.
7. “Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида”ги қонун. “Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаш Ахборотномаси”, 1992 йил, 10-сон, 401-модда.
8. “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги қонун. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013, 17-сон, 219-модда.
9. Жумаев Р. Давлат ва жамият: демократлаштириш йўлида. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 25 б. (жами 142 б.)
10. Қирғизбоев М. Давлат органларининг айрим ваколатларини нодавлат нотижорат ташкилотларга ва ўзини ўзи бошқариш органларига ўтказишнинг долзарб масалалари. // Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг Ахборотномаси. – Тошкент, 2007. – № 15. – Б. 55.
11. Тўлаганов А. Давлат ҳокимиятининг вакиллик ва ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини ташкил этиш. Дарслик. – Т.: ТДЮИ, 2002. – 174 б.
12. Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва ва демократик тараққиёт сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – 102 б. (жами 262 б.)
13. Зиёдуллаев М. Милиция таянч пунктларининг жамоат тартиби ва ҳавфсизлигини таъминлаш фаолиятини бошқаришни такомиллаштириш: Юрид.фан.номз....дис.автореф. – Тошкент: ИИВ Академияси, 2008. – 17 б.
14. Бабаджанов Р. Махалля Узбекистана – базиз самоуправления граждан, олицетворение принципов восточной демократии. // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2003. – № 3. – Б. 114.
15. Одилқориев Х.Т. Конституция ва ижтимоий давлатчилик. – Т.: Юридик адабиётлар нашриёти, 2023 йил. 187-б (424).
16. Аминов М. Молодая семья в объективе общественного внимания. // Фуқаролик жамияти. – Тошкент, 2007. – № 2. – Б. 99.
17. Зиёдуллаев М.З.. Аҳоли турар жойларида жамоат тартибини сақлаш тизимлари: тарихи, бугуни ва хориж тажрибаси – ўқув қўлланма, ИИВ Академияси. – Т., 2015 й. – Б.9.
18. Руссо Ж. Об общественном договоре.Трак./Пер. с фр.-М.:«КАНОН-пресс», «Кучково поле», 1998.-С. 416.
19. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрда қабул қилинган “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги ЎРҚ–407-сонли Қонуни // https://lex.uz/docs/3027843
20. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 майдаги “Ички ишлар органларининг жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ–2940-сон қарори // https://lex.uz/docs/3202965
21. Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 5 апрелда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати тўғрисида”ги ЎРҚ–471-сонли Қонуни // https://lex.uz/docs/3610935
22. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 23 январдаги “Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати Чегара қўшинларига кўмаклашувчи “Чегара посбонлари” отрядлари фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 35-сон қарори // https://lex.uz/docs/5237649
23. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 18 ноябрда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида”ги ЎРҚ–647-сонли Қонуни // https://lex.uz/docs/5128310

FUQAROLAR SIYOSIY ONGI VA MADANIYATIGA MAFKURAVIY TAHDIDLAR TA’SIRINING AYRIM JIHATLARI

Nazaraliyev Baxrom Ilxom o‘g‘li,
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Siyosiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. **Mazkur maqolada siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy mafkuraning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, zamonaviy bosqichdagi mafkuraviy tahdidlar va bevosita axborot xurujlari bilan o‘zaro aloqalari tahlili amalga oshirilgan.**

Kalit so‘zlar: siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy mafkura, tahdid, destruktiv g‘oya, axborot, shaxs, jamiyat, davlat, globallashuv, xuruj, ijtimoiy hayot, davlat siyosati, OAV, dinamika, monitoring, immunitet, ma’naviyat, ziddiyat, keskinlashuv.

Jahonda yuz berayotgan globallashuv, uning o‘ziga xos oqibatlari, namoyon bo‘lishi va jamiyatga ta’siri, shuningdek, muayyan bir davlat yoki tuzilmaning boshqa bir davlat va jamiyatda o‘z manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan maqsadlari ijrosini ko‘zda tutuvchi jarayonlar, pirovardida inson, uning ongi va qalbini egallash, bu orqali mavjud dunyoqarash va qadriyatlar tizimini yemirish, parchalash yoki butunlay yo‘q qilish, shuningdek, o‘zlari uchun manfaatli bo‘lgan ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirish ko‘rinishida yuz bermoqda.

Bu borada, fransuz olimi G.Lebonning “Omma – bu doimo ongli shaxsning yo‘qolishi va tuyg‘u hamda fikrlarning biror yo‘nalishga qaratilishi demakdir. Demak, ommani boshqarish uchun, avvalo, uning tuyg‘ulariga va tasavvurlariga ta’sir ko‘rsatish kerak. Buning uchun esa g‘oyalarni obrazlarga aylantirish kerak. Ana shunda ular, ya’ni g‘oyalar ong ostiga kirib boradi va tuyg‘ularga aylanadi. Bunda, tuyg‘ular omma xulq-atvorining asosiy stimulyatoriga aylanadi” degan fikriga qo‘shilish mumkin. [1]

Masalaning alohida e’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihati shundaki, tashqi va ichki tahdidlar bevosita jamiyatda ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi jarayonga, uni yuzaga keltiruvchi komponentlarga qaratilgan. Bizningcha bular – fuqarolarning bilimi, tafakkuri, ongi, dunyoqarashi, qadriyatlari, madaniyati, bir so‘z bilan aytganda, insonning jamiyatning a’zosi sifatidagi, fuqaro sifatidagi qarashlarini namoyon etuvchi, muayyan qarorlarni qabul qilishining ratsional tizimi hamda bularning barchasini qamrab oluvchi axborot makonida aks etadi.

Shu ma’noda, zamonaviy dunyoning global ziddiyatlari va qarama-qarshiliklari fonida yuz berayotgan g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar, ularning fuqarolar siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va siyosiy mafkuraga ta’siri hamda o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligini tadqiq etish ushbu yo‘nalishda ko‘plab muammolarga yechim topishning ilmiy xulosalarini shakllantirish mumkinligi e’tiborga olindi. Dastavval, “siyosiy ong”, “siyosiy madaniyat”, “siyosiy mafkura”, “g‘oyaviy-mafkuraviy tahdid” kategoriyalariga to‘htalib o‘tishni lozim topdik.

Xususan, siyosiy ong deganda, siyosiy jarayonlar haqidagi siyosiy tasavvurlar, qarashlar, ko‘nikmalar va bilimlar majmui tushuniladi. Siyosiy jarayonlar birinchi navbatda, davlat hokimiyati, uning siyosiy boshqaruvdagi faoliyati va unda kechadigan siyosiy munosabatlar bo‘lib, u bir maromda rivojlanishi, turg‘un holatga tushishi yoki yuqori darajaga ko‘tarilishi mumkin. Ularning qanday yuz berishi davlat hokimiyatining siyosiy boshqaruvni qaysi darajada tashkil etishiga bog‘liq holda kechadi. [2] Bundan, siyosiy ong va uning shakllanishi jarayoni dinamik mazmun kasb etishi, shu o‘rinda, uning bevosita davlat siyosatining olib borilishi xususiyatiga bog‘liq ekanligini anglab yetish mumkin.

Boshqa bir adabiyotda keltirilishicha, siyosiy ong – jamiyatning siyosiy hayoti va uning barcha boshqa sohalariga katta ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan ijtimoiy hodisadir. Bundan tashqari, alohida olingan kishilarning ham, jamiyat ijtimoiy-siyosiy birlashmalarining ham xulq-atvori va faoliyatlarining xarakteri ko‘p jihatdan siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanish darajalariga bog‘liqdir. Shuning uchun ham ijtimoiy jarayonlarni siyosiy boshqarish amaliyotida, ham jamiyatning, ham uni tashkil etuvchi individlar, ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning siyosiy ongi

 ISSN 3030-3230

holatini hisobga olish o‘ta muhimdir. Bu o‘rinda hokimiyatlar, siyosiy partiyalar ijtimoiy-siyosiy muvozanatni saqlab turishga imkon beradigan, davlatning ijtimoiy taraqqiyoti ehtiyojlarini to‘la ifoda etadigan siyosiy ongni shakllantirish va rivojlantirishga intilishlari zarur bo‘ladi. [3]

O‘z o‘rnida, ushbu ta’rifdan, siyosiy ongning nafaqat yagona individ yoki fuqaroga tegishliligi orqali jamiyatga katta ta’sir kuchiga ega ekanligi, balki, jamiyatni tashkil etuvchi barcha ijtimoiy birliklarga tegishli siyosiy onglarning yig‘indisidan iborat yaxlit darajada ham e’tiborga olinishi kerakligi, shu bilan birga, jamiyatda siyosiy ong muvozanati bevosita barqarorlik bilan aloqadorligi to‘g‘risidagi xulosalar shakllanadi.

Ta’kidlash joizki, professor S.Otamuratov siyosiy ong masalasiga to‘xtalib, quyidagi fikrlarini bayon qilgan: siyosat muammolari bilan bog‘liq aksariyat adabiyotlarda siyosiy ongga qaraganda, siyosiy madaniyatni tahlil qilishga ko‘proq e’tibor berib kelinmoqda. Hatto, ular o‘rtasida kechadigan jarayonlarga bag‘ishlangan fundamental ilmiy adabiyotlar ham yetishmaydi. Buning asosiy sababi: a) siyosiy madaniyat keng ma’nodagi madaniyatning tarkibiy qismini tashkil etgani; b) siyosiy ongning siyosiy madaniyatga nisbatan kuchliroq rivojlanayotganligi, siyosiy madaniyatning esa undan orqada qolayotganligi va buning oqibatida bir qator mamlakatlarda siyosiy beqarorlikning vujudga kelayotganligi; v) sobiq SSSR barbod bo‘lgandan keyin, uning o‘rnida paydo bo‘lgan mustaqil davlatlarda bugungi kungacha kechayotgan siyosiy jarayonlarni obyektiv tahlil qilishga salohiyati yetadigan politologlarning yetishmaganligi bilan bog‘liq. [4]

Muallifning siyosiy ong va siyosiy madaniyat o‘rtasidagi tengsizlik tendensiyasi to‘g‘risidagi fikrlari haqiqatdan ham har qaysi davlat va siyosiy institutlar oldida turgan dolzarb masala sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, zaruriy darajada siyosiy madaniyatga ega bo‘lmagan jamiyatda yuqori siyosiy ongga ega bo‘lgan fuqarolar siyosiy faolligi amaldagi davlat hokimiyatining legitimligini tushishiga olib kelishi mumkin. Bu esa davlat siyosatini haddan ziyod tanqid qilish, salbiy ruhdagi fikr-mulohazalar va g‘oyalarni yuzaga keltirish va tarqatish, natijada fuqarolarda davlat siyosatiga, siyosiy elitaga va hokimiyatga nisbatan ishonchsizlikni yuzaga keltirish ko‘rinishida kechadi.

Shu o‘rinda, siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanishida quyidagi manbalar asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Birinchi manba – insonning oilaviy muhiti. Siyosiy g‘oyalar va hissiyotlar unga oiladagi tarbiya orqali beriladi. Bunga to‘g‘ri keluvchi ijtimoiy-ruhiy qarashlar – siyosiy ongning poydevorini barpo etadi. Uning negizida esa fuqaro shaxsi shakllanadi. Ikkinchi manba – bu keng ma’nodagi axborotdir. U inson ongiga ham muomala, ham ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, matbuot) orqali kirib boradi. Uchinchi manba – bu individning shaxsiy tajribasidir. Shaxsiy tajriba olingan bilimni rad qiladi yoki tasdiqlaydi. Biroq, u har qanday holatda ham siyosiy ongning shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga muhim ta’sir ko‘rsatadi. [3]

Mazkur manbalar insonga siyosat dunyosini tahlil etishga va unga nisbatan munosabatini belgilab olishga imkon beruvchi bilimlar yig‘indisini tashkil etadi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, bizningcha, siyosiy ong deb, fuqarolarning siyosat va u bilan bog‘liq jarayonlar to‘g‘risidagi bilimlari, davlat va hokimiyat organlari amalga oshirayotgan siyosatga nisbatan qarashlari, ular orqali shakllangan tasavvurlari, siyosiy voqeyliklarni tahlil qilish va istiqbolini belgilashga oid ko‘nikmalari, shaxsiy yondashuvlari va dunyoqarashiga aytiladi.

G.Almond “siyosiy madaniyat” g‘oyasining muallifi bo‘lib, bu g‘oya unda siyosiy tizimlar nazariyasini ishlab chiqish jarayonida paydo bo‘lgan. Unga ko‘ra olim o‘z tadqiqotlarida, siyosiy tizimlarning 2 ta muhim darajasini tahlil etgan. Xususan, birinchi daraja – an’anaviy institutsional daraja bo‘lib, uning doirasida davlat va uning siyosiy institutlariga xos bo‘lgan funksiyalar, me’yorlar va mexanizmlarga asosiy e’tibor qaratilgan. Ikkinchi daraja – oriyentatsiyaviy bo‘lib, shaxslarning siyosiy va boshqa institutlarga munosabatlarining maxsus shaklini tahlil etishga qaratilgan. [5] Natijada, G.Almond har bir siyosiy tizim siyosiy xatti-harakatga taalluqli bo‘lgan o‘ziga xos oriyentatsiyaviy tuzilishga asoslanadi, degan xulosaga kelgan.

Ilmiy adabiyotlarda “siyosiy madaniyat” tushunchasiga turlicha ta’riflar berilgan. Jumladan, siyosiy madaniyat – jahon madaniyatining tarkibiy qismi, siyosiy tajriba, siyosiy bilimlar va his-tuyg‘ular darajasi, siyosiy subyektlar xulq-atvori va faoliyati na’munalarining bosh ko‘rsatkichi, mamlakat, sinf, millat, ijtimoiy guruh siyosiy turmush tarzining umumiy ta’rifidir. [6] Ushbu ta’rif, o‘z mohiyatiga ko‘ra chuqur mazmunga ega

bo‘lib, unda umumiy yondashuv asosida xulosa taqdim etilgan.

Shuningdek, yana bir manbada, siyosiy madaniyat – siyosiy ong va siyosiy faoliyat birligini ifodalaydi va shaxs, ijtimoiy guruh yoki butun jamiyatning ijtimoiy tuzumga, hokimiyatga, davlat amalga oshirayotgan ichki va tashqi siyosatga munosabatini aks ettiradi deb ta’rif berilgan. [7] Bu ham nisbatan umumiy ta’rif, lekin, undagi “siyosiy ong va siyosiy faoliyat birligi” iborasi siyosiy madaniyatni amaliy jihatdan tushunarli va sodda tilda ifodalab bergan.

Politologiya o‘quv qo‘llanmasida esa unga quyidagicha ta’riflar berilgan: siyosiy madaniyat – bu o‘ziga siyosiy ma’rifatni, siyosiy onglilikni hamda ijtimoiy-siyosiy faoliyatni ham qamrab olgan shaxs va ijtimoiy birlikning madaniyatidir; Siyosiy madaniyat bu – o‘z ichiga ijtimoiy-siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlar bilan bevosita aloqador bo‘lgan elementlarni qamrab olgan, jamiyat ma’naviy madaniyatining bir qismidir; Siyosiy madaniyat – konkret ijtimoiy birlik yoki shaxsga tegishli bo‘lgan siyosiy ong va siyosiy xulq-atvor stereotiplari yig‘indisidir; Siyosiy madaniyat – siyosiy hokimiyat va siyosiy hayotga bo‘lgan munosabat, uni idrok etishdagi siyosiy tafakkur va siyosiy faoliyat madaniyatidir. [8]

E’tibor qaratiladigan bo‘lsa, siyosiy madaniyatga berilgan ko‘plab talqinlar orasidan “tarixan qaror topgan siyosiy munosabatlar tizimi” tushunchasi siyosiy madaniyat kategoriyasining real hayotdagi mohiyatini ifodalashda qo‘l keladi. Sababi, ayni vaqtda, turli hil jamiyatlarda qaror topgan siyosiy madaniyatning chuqur fundamental asoslari, bevosita ushbu makonda yuz bergan tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Pokistonlik siyosatchi, siyosatshunoslikka oid ilmiy kitoblar muallifi Majar ul Haqning fikriga ko‘ra, siyosiy madaniyat – aholining barcha qatlamlari uchun umumiy bo‘lsa-da, unda alohida sinflar, etnik guruhlar, hatto siyosatda aniq bir vazifani amalga oshirayotgan shaxslarga xos alohida tendensiyalar va moyilliklar ham kuzatiladi. [9] Shuningdek, AQShlik siyosatshunos S.Lipset siyosiy madaniyatni siyosiy faoliyatning qonuniyligini ta’minlash uchun xizmat qiladigan odatlar yig‘indisi deya ta’rif beradi. [5]

Mahalliy olim S.Otamuratov, siyosiy madaniyat – siyosiy ong, siyosiy tafakkur, siyosiy ogohlik, siyosiy vazminlikni o‘zida uyg‘unlashtirgan holda, shaxs, fuqaro, davlat hokimiyati, ijtimoiy guruhlar, siyosiy kuchlar umummanfaatlar va maqsadlar yo‘lida o‘z faoliyatlarida amal qilishining ko‘rsatkichini anglatadigan tushunchadir deya ta’rif berib o‘tgan. [4]

Unga ko‘ra, muallif hozirgi globallashuv avj olgan, dunyo miqyosida kechaytgan g‘oyaviy va mafkuraviy qarama-qarshiliklar bevosita axborot hurujlari orqali yuz berayotgan, bunda, tashqi kuchlarning kerakli hududlarda beqarorlikni yuzaga keltirish maqsadida, o‘sha jamiyat siyosiy madaniyatining yetishmasligi ortidan o‘zlari uchun maqbul bo‘lgan, biroq milliy manfaatlarga zid qarorlarni qabul qilishga undash, shuningdek, jamiyat siyosiy ongini siyosiy madaniyatga uyg‘un bo‘lmagan tarzda rivojlantirib borishlariga urg‘u bergan. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda yuz berishi mumkin bo‘lgan har qanday tarang holatlarda ham siyosiy vazmin tarzda ratsional siyosiy qarorlar qabul qilishni ko‘zda tutuvchi madaniyatga ega bo‘lish muhim me’zon ekanligi to‘g‘risidagi qarashlar ilgari suriladi.

Ta’kidlash lozimki, hozirgi davr siyosatshunoslik fanining ko‘pchilik nazariyotchilari siyosiy madaniyatning uchta darajasi borligi to‘g‘risidagi fikrni ilgari suradilar: Dunyoqarash darajasi. Shaxs tomonidan siyosat dunyosida o‘z o‘rnini aniqlab olish, u yoki bu yo‘nalishdagi siyosiy mo‘ljallarni va siyosiy xulq-atvor normalarini aniqlab olish holati yuz beradi; Fuqarolik darajasi. Inson siyosat dunyosi bilan duch kelib, muqarrar ravishda unga, jamiyat siyosiy tizimiga nisbatan, siyosiy hokimiyat imkoniyatlari va vakolatlariga nisbatan o‘z munosabatlarini shakllantiradi. Siyosiy hokimiyatning o‘rni, rolini anglash natijasida, o‘zining fuqarolik burchlari va majburiyatlarini ichki tuyg‘usi bilan xis qiladi; Siyosiy daraja. Insonning siyosat hodisasiga munosabatlari shakllanib, qadriyat darajasiga yeta boshlaydi. Inson o‘zini siyosatning subyekti sifatida qabul qila boshlaydi. [6]

Shu o‘rinda, siyosiy madaniyat siyosiy hayotda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- identifikatsiya, inson o‘zining qaysi guruhga munsub ekanligini anglashi va ushbu jamoa manfaatlarini ifodalash va himoya qilishda ishtirokning o‘zi uchun ma’qul usullarini aniqlashi bilan bog‘liq;

- oriyentatsiya, insonning siyosiy hodisalar mohiyatini bayon etishga intilishi, muayyan siyosiy tizimda huquq va erkinliklarni amalga oshishida o‘zining imkoniyatlarini tushunishga

ISSN 3030-3230

harakat qilishi bilan bog‘liq;

- moslashish, insonni o‘zgaruvchi siyosiy muhitga, huquqlari va hokimlik vakolatlarini amalga oshirish sharoitlariga moslashishishiga intilishi bilan bog‘liq;

- ijtimoiylashuv, inson hokimiyatning u yoki bu tizimida o‘z fuqarolik huquqlarini, siyosiy funksiyalar va manfaatlarini amalga oshirishiga imkon beruvchi muayyan ko‘nikma va xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan bog‘liq;

- integratsiya (aksi dezintegratsiya) turli guruhlarga muayyan siyosiy tizim doirasida birgalikda mavjud bo‘lishni ta’minlash, davlat va umuman uning jamiyat bilan o‘zaro munosabatlari butunligini saqlash bilan bog‘liq;

- kommunikatsiya, hokimiyatning barcha institutlari va subyektlarining o‘zaro ta’siri va aloqalarini umume’tirof etilgan atamalar, ramzlar, stereotiplar va axborotning boshqa vositalari hamda muloqot tili negizida ta’minlash bilan bog‘liq.[10]

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, bizningcha, siyosiy madaniyat – bu muayyan zamon, makon, millat va elatga xos bo‘lgan, tarixan shakllangan, tizimli ravishda yuz berayotgan siyosiy jarayonlarning fuqaro va boshqa ijtimoiy birliklarning siyosiy ongi va amaliy faoliyatida aks etuvchi, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga nisbatan mustaqil va jamoaviy yondashuvlarning umume’tirof etilgan jihatlari yig‘indisini ifodalovchi, o‘z navbatida shaxs, jamiyat va davlat muhim milliy manfaatlariga muvofiq ravishda siyosiy qarorlar qabul qilishga doir ko‘nikma va tajribalardir.

Ta’kidlash joizki, siyosatda madaniyatning bevosita namoyon bo‘lishi siyosiy mafkurada ifodalanadi, bu insondan aniq siyosiy mavqega, chuqur siyosiy va huquqiy bilimlarga, axloqiy e’tiqodlarga va mafkuraviy tamoyillarga ega bo‘lishni talab qiladi. Aynan mafkura ruhiy ta’sir usullaridan biri sifatida hokimiyat tuzilmalari va jamiyatning o‘zaro ta’sirini tashkil etishga yordam beradi.

Aslini olganda, siyosiy mafkuralar real hayotga katta ta’sir ko‘rsatadi. Mafkura tarixiy shart-sharoit hamda siyosiy intilishlar ta’siri ostida shakllanadi. Har bir inson va siyosatchi o‘z mafkurasini tanlaydi va shundan kelib chiqib o‘z siyosiy nuqtai nazariga ega bo‘ladi. [11]

Siyosiy mafkura siyosiy ongning hokimiyat munosabatlariga faol ta’sir ko‘rsatuvchi eng muhim shakllaridan biridir. Tegishli atama paydo bo‘lgan davrdan beri (uni fransuz olimi A de Tressi XIII asrda ilmiy muomalaga kiritgan) fanda bu ma’naviy hodisaga nisbatan har xil qarashlar vujudga keldi. K.Mankgeym uni soxta tasavvurlar majmui deb ta’rifladi. Ammo u siyosiy mafkuraning funksional xususiyatlariga shu shu jumladan uning odamlarni jipslashtirish, ularning siyosiy g‘ayratini birlashtirish imkoniyatiga katta e’tibor berdi. [6]

Shu o‘rinda, ko‘plab siyosatshunos olimlar siyosiy mafkuraga u yoki bu guruhning hokimiyatga nisbatan da’volarini oqlovchi va shu maqsadlaridan kelib chiqib, ijtimoiy fikrni o‘z g‘oyalariga bo‘ysunishiga erishishga xizmat qiluvchi muayyan ta’limot sifatida ta’rif beradilar.

Jumladan, siyosiy mafkura – bu muayyan ijtimoiy qatlamlarning muhim, ustuvor manfaatlarini aks ettiruvchi, ularni davlat hokimiyati yordamida amalga oshirishga intiladigan g‘oyalar, ideallar, qadriyatlar majmuasidir. Siyosiy mafkuralar mavjud ijtimoiy munosabatlarni saqlashga yoki ularni o‘zgartirishga qaratilgan bo‘ladi. Mafkura muayyan ijtimoiy manfaatlarni ifodalaydi va muayyan e’tiqodga ega “siyosiy odam”ni shakllantiradi. Siyosiy mafkura siyosatning mafkuraviy asosini tashkil qiladi. [2]

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, siyosiy mafkura ijtimoiy ongni egallash, unga o‘tmish, hozirgi kun va kelajakni baholashning o‘z me’zonlarini tadbiq etish, siyosiy rivojlanish maqsadlari va vazifalarining, u taklif etayotgan loyihaning jamoatchilik fikrida ijobiy qiyofasini yaratish kabi funksiyalarni bajaradi.

Shu bilan birga, uning mo‘ljallash, safarbar etish, birlashtirish, amortizatsiyalash, muayyan ijtimoiy guruh manfaatlarini ifoda etish va himoyalash kabi funksiyalarini ham alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. [3]

Qayd etish kerakki, insoniyat o‘z evolyutsiyasi davomida liberalizm, neoliberalizm, konservatizm, neokonservatizm, sotsializm, kommunizm va boshqa ko‘plab jahon siyosiy ta’limotida yetakchi bo‘lgan siyosiy mafkuralarni iste’molchisi bo‘lgan.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni tizimlashtirgan holda, bizningcha, siyosiy mafkura deb, muayyan davlat va jamiyat taraqqiyotini, uning barqarorligi va rivojlanishini ko‘zda tutuvchi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy va boshqa yo‘nalishlarda mavjud siyosiy elita taklif etgan hamda ilgari surayotgan siyosiy rejim asosida davlat siyosatini amalga oshirishning g‘oyaviy-

siyosiy dasturiga aytiladi.

Darhaqiqat, zamonaviy bosqichga kelib insoniyat katta hajmdagi axborot oqimi bilan o‘ralgan makonda hayot kechirmoqda va bunda har bir axborot nafaqat alohida olingan individga balki, butun boshli jamiyatga o‘ziga xos ravishda ta’sir etish imkoniyatiga ega ekanligi ma’lum bo‘lmoqda. Bunda, demokratik jarayonlar fonida uning lokomotiv me’zoni bo‘lgan plyuralizm jamiyatda rang-barang fikrlar va qarashlarga, umumiy qilib aytganda turli xil g‘oyalar va mafkuralarga yo‘l ochib beradi. Ushbu jarayonda bunyodkor g‘oyalar va mafkuralar bilan bir vaqtda vayronkor (buzg‘unchi) g‘oyalar va mafkuralar ham yuzaga kelishi mumkin.

Qayd etib o‘tilishicha, “tahdid” haqida so‘z ketganda, unga quyidagicha ta’rif berib o‘tiladi: Inson va jamiyat hayotiy faoliyatini qiyinlashtiradigan, uning barqarorligi, taraqqiyoti va xavfsizligini ta’minlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy-siyosiy tuzilmani zaiflashtirish, ya’ni davlatning konstitutsiyaviy asoslarini buzishga qaratilgan va salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy-siyosiy hodisa. [12]

Mazkur yo‘nalishda, “tahdid” nazariyasi bilan shug‘ullangan siyosatshunos olimlar, jumladan, professor Sh.Paxrutdinov “tahdid” kategoriyasini o‘ziga xos tuzilishga ega ekanini tasdiqlab, uni shartli ravishda ijtimoiy va geosiyosiy jihatlarga ajratadi. Xususan, olim tahdidning ijtimoiy jihatlari sifatida, siyosiy, iqtisodiy, sotsial, ma’naviy va mafkuraviy turlarini ko‘rsatadi.

Alohida ta’kidlab o‘tish joizki, mafkuraviy tahdid tushunchasini tahlil qilish va uning turlarini aniqlashda albatta “tahdid” nazariyasiga murojaat qilinadi va u orqali tavsiflanadi. Shu sababli, ushbu soha bo‘yicha yetuk olim Sh.Paxrutdinovning ilmiy ishlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, muallif tahdidlarning namoyon bo‘lishiga ko‘ra ikki turga ajratadi. Hozirgi vaqtda tahdidlarning, asosan, davlatlar hayotiy, muhim va o‘ta muhim manfaatlariga bevosita ta’sir etish mexanizmlari mavjud, bularni bartaraf etishga nisbatan qilinayotgan harakat “de yure” va “de fakto” sifatida e’tirof etiladi. Ehtimoliy tahdidlar, asosan, kelajakda yuzaga kelishi va jamiyat taraqqiyoti yo‘lida salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan mavhum, ya’ni jahon hamjamiyati yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan tan olinmagan ehtimoldagi tahdidlar. [12]

Mazkur sohaga bag‘ishlangan adabiyotlarda keltirilishicha, g‘oyaviy tahdid – bu insonlar ongini manipulyatsiya qilishga, ularning ezgu maqsad va manfaatlarini, ongi va dunyoqarashini o‘zgartirishga qarshi qaratilgan g‘oyaviy ta’sir va bosim o‘tkazishga urinishdir. G‘oyaviy tahdid – bu muayyan bir jamiyat yoki millat, ijtimoiy qatlam yoki guruh, ongi va ruhiyatiga tashqaridan o‘tkaziladigan mafkuraviy ta’sir, begona va yot maqsad-manfaatlarga xizmat qiladigan g‘oyaviy bosim o‘tkazishga urinish sifatida ham tavsiflanadi. [13]

E’tibor qaratish joizki, g‘oyaviy tahdidlar inson ma’naviy olamiga yot g‘oyalar, qarashlar va maqsad-muddaolarni shakllantirishga intilib, hozirgi vaqtda uning quyidagi asosiy ko‘rinishlari qayd etiladi: Axloqiy buzuqlik, zo‘ravonlik, egosentrizm, individualizm, ommaviy madaniyat, milliy davlat taraqqiyot modeliga ishonchsizlik uyg‘otish, milliy nizolarni keltirib chiqarishga intilish, qo‘shni davlatlarni bir-biriga gijgijlash, iqtisodiy tang holatni joriy qilish, yoshlar ongi va qalbini zaharlash, rivojlanayotgan davlatlarning moddiy va ma’naviy boyliklariga ega chiqish va h.k.

G‘oyaviy tahdidlar oxir-oqibatda davlatni inqirozga olib keladi, nega deganda, buning natijasida fuqarolarda xudbinlik, loqaydlik, manfaatparastlik, hasad, sotqinlik, irodasizlik, beparvolik kabi ijtimoiy-axloqiy illatlar tarkib topadi.[14]

Tahdidning keyingi turiga to‘htaladigan bo‘lsak, mafkuraviy tahdid deganda, ijtimoiy-siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch o‘z manfaatini ifodalovchi mafkurasini qo‘rqitish, zo‘rlash yo‘li bilan boshqalarga tadbiq etishi harakati. Jamiyat, davlat yoki xalq, millat yoki elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan mafkuraviy xavf-xatarlar majmuasi nazarda tutiladi. [15]

Olib borilgan tahlillar, mazkur kategoriyani kengqamrovlihamdauzoqniko‘zlovchixususiyatga ega ekanligini qayd etib, uning quyidagi turlari mavjudligini ko‘rsatmoqda: mo‘tadil qarashlarni inobatga olmaslik, ma’lum bir davlatlar irodasiga itoat qilish, milliy qadriyatlarni pisand qilmaslik, milliy axloq qoidalarini kamsitish, kosmopolit (bevatanlik), o‘zga jamiyatlar manfaatlariga mos dunyoqarashni mutlaq haqiqat sifatida targ‘ib etish, bo‘lib tashla va hukmronlik qil tamoyili asosida ijtimoiy ongda noto‘g‘ri qarashlarni shakllantirish, milliy taraqqiyot modeliga ishonchsizlikni uyg‘otish, islom xalifaligini qayta tiklab, musulmon imperiyasiga birlashtirish,

ISSN 3030-3230

Sobiq Ittifoqqa birlashish, dinning asl mohiyatini soxtalashtirish, axloqsizlik g‘oyalarini targ‘ib qilish.

G‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar transformatsiyasi sohasida ilmiy tadqiqot olib boruvchi olimning fikricha, mafkuraviy tahdidlar ikki turga ajratilgan. Bular, intensiv shakldagi mafkuraviy tahdidlar va ekstensiv shakldagi mafkuraviy tahdidlar Unga ko‘ra, intensiv shakldagi mafkuraviy tahdidlarga diniy-ekstremizm, missionerlik va prozelitizm kabilarni hamda ekstensiv shakldagi mafkuraviy tahdidlarga esa “madaniy daraja” va “inson huquqlari” ekspansiyasi, demokratiya eksporti, “Ommaviy madaniyat” kabilar kiritiladi. [16]

Tahlillar shuni ko‘satmoqdaki, global miqyosda kechayotgan g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar makonida quyidagi buzg‘unchi (destruktiv) g‘oya va mafkuralar yuzaga kelmoqda: ommaviy madaniyat, axborot xurujlari, missionerlik, prozelitizm, agressiv millatchilik, ksenofobiya, yangi irqchilik, shovinizm va kosmopolitizm, odam savdosi, islomofobiya ko‘rinishlari, radikalizm, ekstremizm va terrorizm, aqidaparastlik va boshqalar.

Qayd etish lozimki, bizningcha, global miqyosda kechayotgan zamonaviy qarama-qarshiliklarning kuch va vositalari nomoddiy ko‘rinishga kirib, asosan o‘zagi “axborot” va “ma’lumot”ni tashkil etuvchi, yirik aql markazlari va maxsus xizmatlarning ishlovidan o‘tuvchi, keyinchalik esa siyosiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy tus berilib, inson, uning huquq va erkinliklari, taraqqiyot yutuqlari, ommabop madaniyat hamda san’at kabi ijtimoiy-gumanitar sohalarga tegishli, pardalangan nomlar ostida iste’molga chiqariluvchi homashyoga, boshqacha qilib aytganda, g‘oyaviy- mafkuraviy tahdidga aylanmoqda.

Zamonaviy bosqichda ma’lum bir davlat hududida ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni izdan chiqarishni maqsad qilgan kuchlar tomonidan amalga oshirilayotgan g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlarning shunday ko‘rinishi mavjudki, bunda, ular qisqa vaqt ichida aholi siyosiy ongini ushbu mamlakatdagi siyosiy jarayonlar va siyosiy madaniyatga mutanosib bo‘lmagan tarzda, jadallik bilan oshirishni maqsad qilishadi.

Bu borada, siyosiy ongni sun’iy oshirish manbai sifatida quyidagilar alohida qayd etib o‘tiladi:

- maxsus tayyorlangan siyosatshunos-ekspertlar, ularning ideal demokratiya va davlat boshqaruvi, inson huquqlari, axborot va so‘z erkinligi, ochiqlik, shaffoflik va boshqa ommabop mavzular doirasida, “xorij tajribasi”, “qiyosiy tahlil”, “ekstropolyatsiya” kabi usullardan foydalangan holdagi manipulyativ va tendensioz chiqishlari aks etgan materiallar, ularning internet va OAVdagi resurslari;

- mamlakatdagi real obyektiv vaziyatdan keskin farq qiluvchi ideal davlat, jamiyat va siyosat to‘g‘risidagi, biroq destruktiv g‘oyalar bilan qisman yo‘g‘rilgan (ko‘z ilg‘amas, ong ostiga yo‘naltirilgan) nazariyalar, shuningdek, miting, namoyish va rangli inqiloblar mazmun-mohiyati (to‘laqonli qonuniy jarayon sifatidagi tasavvur shakllantiriladi) va ularni amalga oshirishga doir amaliy tavsiyalar aks etgan adabiyotlar, hujjatli va badiiy filmlar (klip), internet va boshqa resurslar;

- destruktiv muxolifat imkoniyatlari orqali davlat siyosati, undagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning borishi hamda siyosiy elita to‘g‘risida, asosan shaxslarga (guruh, klan) urg‘u beriladigan, biroq asoslantirilmagan ma’lumotlar (ijtimoiy mif, shov-shuv va boshq.) asosida siyosiy tahlillar va jurnalistik surishtiruvlarga oid materiallar.

Siyosiy ong va madaniyatning g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlar bilan o‘zaro aloqadorligi, bevosita ularning funksiyalari bilan chambarchas bog‘liq. Jumladan, siyosiy ongning bilish funksiyasi bevosita shaxslar, fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va boshqa siyosiy kuchlarga davlat hokimiyati, siyosiy jarayonlar va voqeyliklar, ularning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos jihatlarini tushunib olishga, anglashga yordam bergan holda, mamlakat hududida siyosiy beqarorlikni yuzaga keltirishni maqsad qilgan g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashadi.

Shuningdek, siyosiy ongning manfaatlarni muvozanatga keltirish funksiyasi jamiyat barqarorligi va xavfsizligi nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etib, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yuz berishida siyosiy kuchlar manfaatlarini obyektiv ravishda muvozanatda ushlab turgan holda, jamiyatda siyosiy nizolarni va manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqarishga qaratilgan g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlarni to‘liq yoki qisman bartaraf etadi.

Shu bilan birga, siyosiy ongning demokratik qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish funksiyasi, tashqi kuchlarning zamonaviy bosqichda jamiyat barqarorligiga putur yetkazishning “demokratiya niqobi” formatida, davlatning ichki ishlariga aralashuv, shuningdek,

go‘yoki xalqlarni o‘z taqdirini o‘zi belgilashi to‘g‘risidagi sohta shiorlar bilan gumanitar intervensiya va boshqa operatsiyalarni amalga oshirishni maqsad qilgan g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi fuqarolarda siyosiy hushyorlik va ogohlikni shakllantiradi.

Bundan tashqari, siyosiy ongning yo‘naltiruvchanlik funksiyasi, fuqarolarni davlat hokimiyatini bilish va unda ishtirok etish, shuningdek, ma’lum bir siyosiy jarayon doirasida faollik ko‘rsatishi, unda ishtirok etishga intilishi, harakat qilishi, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishini ta’minlab, bu orqali, jamiyat barqarorligini izdan chiqarishga yo‘naltirilgan g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlarning yuz berishi jarayonida, unga qarshi kurashadi.

O‘z navbatida, siyosiy madaniyatning tartibga solish funksiyasi jamiyatdagi siyosiy jarayonlarni milliy manfaatlarga muvofiq ravishda tartibga solishga oid ko‘plab vazifalarni bajarish barobarida, yuqorida to‘htalib o‘tilgan masala, ya’ni, siyosiy ongning jamiyat taraqqiyoti va siyosiy madaniyatga uyg‘un holda rivojlanishini amalga oshiradi.

Shuningdek, siyosiy madaniyatning milliy o‘ziga xoslikni aks ettirish funksiyasi muayyan davlat, millat va jamiyat, uning o‘ziga xos qadriyatlari, an’analari, urf-odatlari va mentaliteti, shuningdek, uzoq yillik davlatchilik tarixida shakllangan siyosiy faoliyati, qarashlari va odatlarini ifodalab, siyosiy beqarorlikni yuzaga keltiruvchi g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi, siyosiy vazminlik, bosiqlik, hamfikrlilik, maslahatlashuv, ahillik, ogohlik va hushyorlik bilan yondashuvni namoyon etadi.

Qayd etish kerakki, siyosiy madaniyatning mamlakat xavfsizligiga nisbatan yuzaga keladigan tahdidlarga qarshi fuqarolarda siyosiy immunitetni shakllantirish funksiyasi g‘oyaviy-mafkuraviy tahdid bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqador bo‘lib, bunda ushbu funksiya jamiyat a’zolari ongi va dunyoqarashida ichki va tashki tahdidlar, ularning mazmun-mohiyati va yuz berishi to‘g‘risidagi aniq tasavvurlarni shakllantiradi.

Bu borada, siyosiy madaniyatning yana bir davlatlararo va mintaqalararo siyosiy munosabatlar hamda hamkorliklarning rivojlanishi va takomillashuvi funksiyasi tinchlik va barqarorlikni ta’minlashda davlatning tashqi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda katta rol o‘ynaydi. Bunda, geosiyosiy manfaatlarni amalga oshirish borasida tashqi dunyoga ochilish, ahil qo‘shnichilik, strategik sheriklik, tinchlik bloklarini tuzish, chegaralar delimitatsiyasi va demarkatsiyasi va boshqa vositalar ehtimoliy g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlarni oldini olishga zamin yaratadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, siyosiy ong, madaniyat va mafkura o‘z mohiyatiga, shuningdek, siyosiy funksiyalari va jamiyatda amalga oshiruvchi vazifalariga ko‘ra g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlar bilan o‘zaro bog‘liq va aloqador. Bunda, davlat xavfsizligini, jamiyat barqarorligini va taraqqiyotini yo‘q qilish yoki kuchsizlantirishni maqsad qilgan ichki va tashqi kuchlar asosan, g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlarning “axborot xurujlari”dan foydalangan holda, siyosiy ong va madaniyat shakllanishining obyektiv qonuniyatlarini o‘z manfaatlariga moslashga uringan holda madaniy ko‘rinishdagi (bir qarashda payqash qiyin bo‘lgan, zamonaviy tizimli operatsiya) tajovuzni amalga oshirishmoqda.

Аннотация. В данной статье проведён анализ сущности и специфических особенностей политического сознания, политической культуры и политической идеологии, а также их взаимосвязи с современными идеологическими угрозами и прямыми информационными атаками.

Ключевые слова: политическое сознание, политическая культура, политическая идеология, угроза, деструктивная идея, информация, личность, общество, государство, глобализация, нападение, социальная жизнь, государственная политика, средства массовой информации, динамика, мониторинг, иммунитет, духовность, конфликт, обострение.

Abstract. In this article, an analysis is carried out of the essence and specific features of political consciousness, political culture, and political ideology, as well as their interrelations with contemporary ideological threats and direct information attacks.

Key words: political consciousness, political culture, political ideology, threat, destructive idea, information, individual, society, state, globalization, attack, social life, state policy, mass media, dynamics, monitoring, immunity, spirituality, conflict, escalation.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лебон Г. Психология народов и масс / пер. А. Фридмана и Э. Пименовой. СПБ.: Издание Ф. Павленкова, 1896. – ст.159.
2. Bo‘tayev U.X. va boshq. Siyosatshunoslik:darslik, Toshkent-2024, – 301-b, -318-b.
3. Алиев Б. ва бошқ. Политология-Т.:ТДИУ, 2005, – 151-б., - 173-б.
4. Отамуратов С. Ёшлар сиёсий маданиятини ривожлантириш омиллари. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015. – 32-33-б, - 44-б.
5. Ланцов С.А. Политология: Учебное пособие. –СПб.: Питер, 2011. –С. 130.
6. Одилқориев Х.Т., Ғойибназаров Ш.Ғ. Сиёсий маданият. –Т.:Ў.Рес. ИИВ Академияси, 2004.-6 б, -128 б.
7. Фалсафа. Қомусий луғат.-Т.: Шарқ, 2004. – 365-б.
8. Политология. Ўқув қўлланма. – Т.: Абдулла Қодирий, 2002. – 178-б.
9. Political Science Theory and Practice, –Bookland, 2003, 2009. Pakistan Lahore. –P. 71.
10. Пугачев В., Соловьев А. Сиёсатшуносликка кириш, Янги аср авлоди, 2004. – 321б.
11. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик. –Т.: Янги аср авлоди, 2013. – 454-б.
12. Пахрутдинов Ш. Барқарор тараққиёт ва раҳбар масъулияти. –Тошкент: Академия, 2011. – 98-б., – 97-б.
13. Ergashev I. va boshq. Globallashuv va g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Universitet”, 2021. – 8-b.
14. Философия перед лицом мировая проблема.//Вопросы философии, 2004 №3. С. 5-11.
15. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент: 2000. – 26б.
16. Маматқулов Д.М. Мафкуравий жараёнлар трансформацияси. Монография / – Тошкент: “LESSON PRESS” нашриёти, 2023. – 130-б.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT CHEGARASI TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

Xolbo‘tayev A.A.,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi” atamasining tushunchasi va mohiyati ochib berilgan bo‘lib, mazkur tushuncha bo‘yicha olimlarning qarashlari va xalqaro qonunchilik hujjatlarining tahlili natijalariga muvofiq, “Davlat chegarasi” tushunchasiga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan va uni “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi qonunida aks ettirish bo‘yicha taklif bildirib o‘tilgan.

“Janubi-Sharqiy Osiyodan tortib Yaqin Sharqqacha bo‘lgan makonda qurolli to‘qnashuvlar kuchayib, o‘zaro ishonchsizlik va nizolar, millatlar va konfessiyalararo ixtiloflar chuqurlashib, barqaror taraqqiyotga qarshi boshqa global tahdid va xatarlar solmoqda” [1]. Mazkur omillarning hozirgi kunga qadar davom etayotganligi va bu o‘z navbatida BMTning Ustavida belgilangan mamlakatlarning chegaralari buzilmasligi va hududiy yaxlitligi prinsiplariga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining ilk yillaridanoq huquqiy demokratik davlat barpo etish yo‘lida tub demokratik islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu borada yangi O‘zbekistonda ham muhtaram Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son Farmoni bilan “2017-2021-yillarda “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” [2] va 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi “O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” sari ildam qadam tashlanib “Inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat” [3] degan muhim g‘oya asosida say-harakatlar davom ettirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 3-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi o‘zining milliy-davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi. O‘zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmasdir” [4] deb belgilanib qo‘yilgan.

Davlat suverenitetining muhim xususiyatlaridan biri mamlakat chegarasi va hududining daxlsizligidir. Haqiqatan ham, ma’lum hududning bo‘lishi davlatning ajralmas xususiyati, shartidir. Davlat aniq bir hududda faoliyat ko‘rsatadi. Hudud esa ma’lum chegaraga ega. Ana shu chegarani davlatning roziligisiz hech kim, hech qanday ichki va tashqi kuch o‘zgartira olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo‘li bilan tartibga solish, chegaralarini o‘zgartirish masalasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatiga kiradi (Konstitutsiyaning 93-moddasi) [5]. Boshqa hech kim, hech qanday organ yoki tuzilma chegarani o‘zgartirish vakolatiga ega emas.

O‘zbekiston Davlat chegarasi aniq belgilangan bo‘lishi bilan birga

u daxlsizdir. Bu degani uni hech qanday yo‘l bilan, hatto zo‘rlik ishlatib ham o‘zgartirish mumkin emas. O‘z navbatida, O‘zbekiston ham o‘z Davlat chegarasini boshqa davlatlar hududi, chegarasi hisobiga kengaytirishga urinmaydi. Chunki, Konstitutsiyaning 17-moddasida boshqa davlatlar chegaralarining buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi prinsipi belgilab o‘tilgan [6].

Mazkur moddada prinsip sifatida qo‘llanilgan “davlatlarning hududiy yaxlitligi” tushunchasi davlat va uning suverenitetining muhim sharti hisoblanib, xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan biridir. Kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish natijasida biror-bir davlat hududi yoki uning bir qismi egallab olinishi xalqaro maydonda tan olinmaydi. Mazkur prinsip dastlab 1945-yilda qabul qilingan BMT Ustavida [7] ko‘rsatib o‘tilgan, keyinchalik BMT, YEXHT [8], SHHT [9] va boshqa xalqaro tashkilotlarning hujjatlarida, xususan BMT Ustaviga muvofiq davlatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar va hamkorlikka oid xalqaro huquq tamoyillariga asoslangan boshqa hujjatlarida takomillashtirilgan.

Mazkur prinsipga ko‘ra, har qanday davlat boshqa davlatning hududiy yaxlitligini hurmat qilish, uning suvereniteti va hududiy yaxlitligini qisman yoki to‘liq buzishga qaratilgan har qanday harakatlardan o‘zini tiyishi lozim.

L.L.Kruglikov qayd etib o‘tganidek, chegaraning mavjudligi davlatning muhim belgilaridan biri hisoblanadi va davlat hududga ega ekanligidan,

ISSN 3030-3230

u mazkur hudud ustidan o‘z suverenitetini amalga oshirishidan dalolat beradi, chegaraning daxlsizligi esa mamlakat hududiy yaxlitligi va tashqi xavfsizligining shartlaridan biri hisoblanadi. Chegara daxlsizligining buzilishi aksariyat hollarda josuslik, terrorizm, qurol-yarog‘ va giyohvandlik vositalari kontrabandasi singari boshqa xavfli jinoyatlarning sodir etilishi bilan bog‘liq bo‘ladi [10].

O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilish davlatning asosiy funksiyalaridan biri sifatida umume’tirof etilgan. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi qonunga [11] muvofiq, mazkur vazifani amalga oshiruvchi organ sifatida DXX belgilangan. Ushbu funksiyani samarali bajarilishini ta’minlash maqsadida DXX tizimida turli tashkiliy va huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilmoqda hamda amaliyotga tatbiq etib borilmoqda.

DXX Chegara qo‘shinlari xizmat faoliyatida hamda Davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilish funksiyalarini amalga oshirish jarayonida “Davlat chegarasi” atamasi qo‘llaniladi.

Huquq nazariyasi va qonunchilikda “Davlat chegarasi” tushunchasiga har xil ta’riflar berilgan bo‘lib, o‘rganuvlar natijasi uning yagona yondashuvi mavjud emasligini ko‘rsatmoqda. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining [12] 3-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi – O‘zbekiston Respublikasining hududi doirasini (quruqlikni, suvni, yer qa’rini va samoviy hududni) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo‘ylab o‘tuvchi vertikal sathdan iborat.

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1960-yil 5-avgustdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi davlat chegaralarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq [13], SSSR davlat chegarasi deganda, SSR Ittifoqi hududining quruqlikdagi, suv va havo chegaralarini belgilab beruvchi chiziq tushuniladi.

Davlat chegarasi – bu davlatlar hududini bir-biridan ajratib turuvchi, yer va suv ustidan o‘tuvchi chiziqlardir [14]. M.H. Rustambayevning ta’biri bilan aytganda, «Davlat chegarasi davlat suvereniteti amal qiladigan hudud doirasini belgilaydi» [15].

Davlat chegaralari muayyan davlatning hududlari nihoyasini aniq belgilab beradi. Davlat chegaralari daxlsiz va ularning buzilishi davlat suverenitetining buzilishi hisoblanadi [16]. Har bir davlat o‘z chegaralari xavfsizligi va buzilmasligini ta’minlash bo‘yicha choralar ko‘rish huquqiga ega. Davlat chegarasida qonun orqali davlat tomonidan o‘rnatiluvchi yoki chegaradosh davlat bilan kelishgan holda o‘rnatiluvchi maxsus chegara tartibi mavjud. Qo‘shni davlatlar bilan chegaralar xalqaro shartnomalar va bitimlar asosida belgilanadi.

Shu jumladan, Davlat chegarasiga Davlat chegarasini qo‘riqlash

va himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga doir O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-noyabrdagi 912-son va 2021 yil 12 apreldagi 204-son [18] qarorlari bilan tasdiqlangan nizomlarda ham ta’riflar berib o‘tilgan.

Biroq, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlari to‘g‘risidagi nizom” [19] ning 2-bandida, O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi O‘zbekiston Respublikasi hududining (quruqlik, suv, yer osti, samoviy hudud) chegaralarini belgilovchi liniya va ushbu liniya bo‘ylab o‘tuvchi vertikal yuza sifatida ta’riflangan.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2016-yil 28-martda tasdiqlangan ushbu nizomda “Davlat chegarasi»ga berilgan ta’rif uning mazmunini to‘liq ochib bera olmaydi va ushbu tushunchani amaldagi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiqlashtirish lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasida keltirilishicha, Davlat chegarasi bu – davlatlar hududini bir-biridan ajratib turuvchi yer va suv ustidan o‘tuvchi chiziqlardir [20].

Mazkur ta’rifda Davlat chegarasi tushunchasi uning asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda shakllantirilgan bo‘lsa-da, unda mazkur tushunchani to‘liq yoritib beruvchi barcha holatlar inobatga olinmagan. Jumladan, ta’rifda Davlat chegarasi davlatlarning hududini bir-biridan ajratib turuvchi vosita sifatida keltirilsada, chegaraning yer ostida va havo bo‘shlig‘idan (samoviy hududdan) ham o‘tuvchi vertikal sathlardan iborat ekanligiga e’tibor qaratilmagan. Bu esa afsuski, Davlat chegarasiga berilgan ta’rifning barcha holatlarini to‘liq yoritish imkonini bermaydi.

Chegarani aniq belgilash va undan o‘tish qoidalariga rioya etish chegara normal faoliyat ko‘rsatishini, ya’ni uning rejimini belgilovchi omillar hisoblanadi. Davlat chegarasi quyidagicha belgilanadi: quruqlikda – o‘ziga xos nuqtalar, relyefning chiziqlari yoki aniq ko‘rinib turadigan joylar (oriyentirlar) bo‘yicha; kema qatnaydigan daryolarda – daryoning bosh farvateri o‘rtasi yoki talvegi bo‘ylab; kemalar qatnamaydigan daryolarda (jilg‘alarda) – ularning o‘rtasi yoki daryo (jilg‘a) asosiy o‘zanining o‘rtasi bo‘ylab, chegara daryolarida, ko‘llarida va boshqa suv

havzalarida – Davlat chegarasi ko‘l yoki boshqa suv havzasi qirg‘oqlariga chiqqan joylarni tutashtiruvchi to‘g‘ri chiziq bo‘yicha. Bunda daryo, jilg‘a, ko‘l yoki boshqa suv havzasi orqali o‘tadigan Davlat chegarasi ular qirg‘oqlarining ko‘rinishi yoki suv sathi o‘zgarganda ham, daryo, jilg‘a oqimi u yoki bu tomonga burilganda ham o‘zgarmaydi; suv omborlarida va boshqa sun’iy suv havzalarida – ular suv bilan to‘ldirilguniga qadar Davlat chegarasining mazkur joydan o‘tgan chizig‘iga muvofiq; chegara daryolari, ko‘llari yoki boshqa suv havzalari orqali o‘tuvchi ko‘priklarda, to‘g‘onlar va boshqa inshootlarda – Davlat chegarasi suvning qaysi joyidan o‘tishidan qati nazar, ushbu inshootlarning o‘rtasi yoki ularning texnologik o‘qi bo‘ylab.

O‘zbekiston Respublikasi Havo kodeksining 1-moddasiga ko‘ra, Respublikaning quruqlikdagi yerlari va suv havzalari ustidagi samoviy hududiga O‘zbekiston Respublikasi to‘la va tanho egalik qiladi. O‘zbekiston Respublikasining samoviy hududi O‘zbekiston davlati hududining ajralmas qismidir [21]. Buning e’tiborli jihati shundan iboratki, xalqaro qonunchilikka muvofiq, mazkur moddada “havo bo‘shlig‘i” atamasidan farqli ravishda “samoviy hudud” tushunchasidan foydalanilgan.

O‘zbekiston Respublikasining va boshqa davlatlarning samoviy hududidan foydalanishning o‘ziga xos jihati sifatida undan foydalanishning xalqaro huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishini keltirib o‘tish mumkin [22].

Xususan, “Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to‘g‘risidagi Konvensiya”ning [23]

1-moddasiga ko‘ra, davlatlarning suvereniteti tushunchasiga ta’rif berib o‘tilgan bo‘lib, davlatlar o‘zlari hududlarining ustidagi havo bo‘shlig‘idan to‘liq yoki qisman egalik qilish huquqi mavjudligi sifatida e’tirof etilgan.

Qayd etish joizki, O‘zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyani O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining 1992 yil 3 iyuldagi 666-XII-son qarori [24] bilan ratifikatsiya qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 18 oktabrdagi 349-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi samoviy hududda aviatsiya parvozlarining asosiy Qoidalari”ning 3-bandiga ko‘ra, chegara mintaqasining samoviy hududi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi tutash bo‘lgan quruqlikdagi yerlari va suv havzalari ustidagi 25 km (14 mil) kenglikdagi hudud tushunilishini ko‘rishimiz mumkin [25].

“Davlat chegarasi davlatning hududiy doirasinigina emas, balki bir-biri bilan tutash bo‘lgan va bir-biri bilan o‘zaro aloqaga kirishadigan ikki davlatni bir-biridan ajratuvchi joylarni, shuningdek davlat hududi va xalqaro dengizni bir-biridan ajratuvchi joylarni ham ifodalaydi” [26].

Davlat chegarasi chizig‘i bo‘ylab va unga bevosita tutashuvchi chegara oldi hududlarida qo‘shni davlatlar o‘zaro munosabatlarining murakkab tizimi yuzaga keladi. Bu munosabatlar doirasi juda keng bo‘lib, uning bir chekkasida do‘stona munosabatlar, ikkinchi chekkasida esa – dushmanlik tusidagi munosabatlar yotadi. V.I.Zemsovning fikriga ko‘ra, Davlat chegarasiga ta’rif berganda, uni “davlat suverenitetining amal qilish chegarasi” sifatida baholashi bir qancha muhokamali holatlarni keltirib chiqarishi mumkin [27].

Xususan, suverenitet har qanday mustaqil davlatning umumiy

va ajralmas belgisi bo‘lib, uning to‘la huquqliligini hamda ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatga qaram emasligini anglatishi hisobga olinganida “davlat suvereniteti amal qilish chegarasi” sifatida davlatning hududiylik prinsipi amal qilish doirasining tarkibi sifatida ko‘rsatib o‘tish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi hududi sifatida respublikaning chet davlatlardagi elchixonalari va diplomatik vakolatxonalari joylashgan hudud ham ko‘zda tutiladi.

Xalqaro huquqning umumiy qoidalariga muvofiq, bunday muassasalar eksterritorial maqomga ega bo‘ladi, ya’ni ular mahalliy qonunchilik ta’siridan ajratilgan holda qaysi mamlakatga qarashli bo‘lsa, o‘sha davlat qonunchiligi ta’siriga o‘tadi.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasining chet el davlatidagi elchixonalari va diplomatik vakolatxonalari hududi ham O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti amal qiladigan hudud sifatida e’tirof etish mumkin.

Xalqaro qonunchilikda vakolatxona hududi sifatida nafaqat vakolatxona binolari, shuningdek, bu bino joylashgan yer uchastkasi, ushbu davlat hududi yurisdiksiyasida immunitetga ega bo‘lgan vakolatxona boshliqlari, xizmatchilari tomonidan egallangan yashash joylari, ularning transport vositalari tan olinadi.

MDH davlatlari qonunchiligi tahlili ham ularda mazkur tushunchaning qo‘llanilishi yagona shaklda emasligini ko‘rsatadi. Xususan, “Rossiya Federatsiyasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi Rossiya Federatsiyasi Qonunining [28] 1-moddasida ushbu «Davlat chegarasi» atamasiga quyidagicha ta’rif berilgan: Rossiya Federatsiyasining Davlat chegarasi – Rossiya Federatsiyasining davlat hududi doirasini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo‘shlig‘ida) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo‘ylab o‘tuvchi vertikal sathdan iborat, ya’ni Rossiya Federatsiyasi

davlat suvereniteti harakatlari doirasidagi makon.

“Belarus Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi Belarus Respublikasi Qonunining [29] 1-moddasiga ko‘ra, Belarus Respublikasining Davlat chegarasi – Belarus Respublikasining hududi doirasini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo‘shlig‘ida) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo‘ylab o‘tuvchi vertikal sathdan iborat.

Bundan tashqari, “Qozog‘iston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi Qozog‘iston Respublikasi Qonunining [30] 1-moddasiga asosan, Qozog‘iston Respublikasining Davlat chegarasi – Qozog‘iston Respublikasining hududi doirasini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo‘shlig‘ida) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo‘ylab o‘tuvchi vertikal tekislik va Qozog‘iston Respublikasi davlat suvereniteti harakatlari doirasidagi makon sifatida ta’riflangan.

Umuman olganda, yuqorida tahlil etilgan ilmiy-nazariy qarashlarga tayangan holda “Davlat chegarasi” atamasiga quyidagicha ta’rif berishni lozim deb topdik:

O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi – O‘zbekiston Respublikasining hududi doirasini (quruqlikda, suvda, yer ostida, samoviy hududda) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo‘ylab o‘tuvchi vertikal sath hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat suvereniteti harakatlari doirasidagi makon.

Mazkur tushunchaning “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi qonunida aks ettirilishi va uning amaliyotda qo‘llanilishi DXX Chegara qo‘shinlarining jangovar (operativ) xizmat faoliyatini olib borishlarida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Аннотация. В статье раскрываются понятия и сущность термина «Государственной границы Республики Узбекистан», по результатам анализа международно-правовых документов и научных взглядов по данному термину, разработано понятие «Государственная граница» и представлено предложение внедрить данный термин в закон «О Государственной границе Республики Узбекистан».

Annotation. The article reveals the concepts and essence of the term “State Border of the Republic of Uzbekistan”, based on the results of an analysis of international legal documents and scientific views on this term, the concept of “State Border” was developed and a proposal was presented to introduce this term in the law “On the State Border of the Republic of Uzbekistan”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Бутунжаҳон инсон ҳуқуқлари декларацияси қабул қилинганининг 70 йиллиги якунлари: замонавий таҳдидлар ва реал воқеалик // Инсон ҳуқуқлари бўйича Осиё форумидаги нутқи, Самарқанд. 2018., 22 ноя// Халқ сўзи. – 2018. – 23 ноябрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz)
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ–60-сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz)
4. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси – Т., 2023.
5. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси – Т., 2023.
6. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik / Xusanov O.T.,. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent davlat yuridik universiteti, 2013. – 83-b.
7. Устав Организации Объединенных Наций, Сан-Франциско 26 июня 1945 г., вступил в силу 24 октября 1945 г. // Электрон манба: https://www.un.org/ru/about-us/un-charter/full-text.
8. Устав Организации безопасности и сотрудничества Европы // Электрон манба: https://www.osce.org/ru/text.
9. Хартия Шанхайской Организации Сотрудничества, 2002 года // Электрон манба: https://www.kremlin.ru
10. Уголовное право России. Част Особенная. Учебник. / Под ред. Кругликова Л.Л. - М., 2005. - с.779.
11. «Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати тўғрисида» 2018 йил 5 апрелдаги ЎРҚ–471-сон Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами», 2018 йил 9 апрель, 14-сон, 272-модда

12. «Ўзбекистон Республикасининг Давлат чегараси тўғрисида»ги 2023 йил 13 сентябрдаги ЎРҚ–868-сон Ўзбекистон Республикаси Қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2023 йил 13 сентябрь.
13. СССР Олий Советнинг Ведемостлари, 1960 йил, 34-сон, 324-модда.
14. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. / Нашр учун масъул: Р.А.Муҳитдинов ва бошқ. / Масъул муҳаррир: Н.Тойчиев. – Тошкент: Адолат, 2011. – Б. 114.
15. Rustambayev M.H., O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. T.4. Maxsus qism. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar: Darslik. - Toshkent: Ilm Ziyo, 2011. - B. 309.
16. Конституциявий ҳуқуқ. Энциклопедик луғат. / Б.Мустафоев, Э.Ҳалилов, У.Бозоров ва бошқ. / Масъул муҳаррир: Б.Мустафоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – Б. 136.
17. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 18 ноябрдаги «Ўзбекистон Республикасининг давлат чегараси орқали ўтказиш пунктларида чегара, божхона, санитария-карантин, фитосанитария ва ветеринария назоратини ташкил этиш тартибини янада такомиллаштириш тўғрисида» 912-сон қарори, Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2019 йил 18 ноябрь.
18. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 12 апрелдаги «Ўзбекистон Республикасининг давлат чегарасига белги қўйиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида» 204-сон қарори, Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2021 йил 13 апрель.
19. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 28 мартдаги «Ўзбекистон Республикасининг давлат чегараси орқали ўтказиш пунктлари тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида» 89-сон қарори, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 йил 4 апрель, 13-сон, 118-модда.
20. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas’ul: Muhitdinov R.A. va boshq. / Mas’ul muharrir: Toychiyev N.- Toshkent: Adolat, 2011. - B.114.
21. Ўзбекистон Республикасининг Ҳаво кодекси // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 йил, 6-сон, 247-модда
22. Қаранг: Соглашение «О гражданской авиации и об использовании воздушного пространства» (Минск, 30.12.1991 г.); Соглашение «О сотрудничестве по обеспечению защиты гражданской авиации от актов незаконного вмешательства» (Минск, 26.05.1995 г.); Соглашение «О сотрудничестве в области расследования авиационных происшествий с государственными воздушными судами государств - участников Содружества Независимых Государств» (Ялта, 20.11.2009 г.); Конвенция «Для унификации некоторых правил, касающихся международных воздушных перевозок» (Варшава, 12.10.1929 г.); Конвенция «О международной гражданской авиации»(Чикаго, 07.12.1944 г.) // электрон манба: http://www.norma.uz
23. Конвенция «О международной гражданской авиации» (Чикаго, 07.12.1944 г.) // электрон манба: http://www.norma.uz
24. Постановление Верховного Совета Республики Узбекистан от 03.07.1992 г. № 666-XII “О ратификации Конвенции о международной гражданской авиации” // Ведомости Верховного Совета Республики Узбекистан, 1992 г., № 9, ст. 365.
25. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18.10.2016 г. № 349 // “Собрание законодательства Республики Узбекистан”, 24 октября 2016 г., N 42, ст. 487
26. Шинкарецкая Г.Г. Принцип территориальной целостности и неприкосновенности в современном международном праве. – М., 1999. – С. 8.
27. Земцов В.И. Уголовная ответственность за незаконное пересечение и противоправное изменение Государственной границы Российской Федерации: Дисс. …канд. юрид. наук. – М., 2000. – С. 25.
28. Закон Российской Федерации от 1 апреля 1993 г. № 4730-I «О Государственной границе Российской Федерации» (с изменениями и дополнениями) // Электрон манба: http://pravo.gov.ru.
29. Закон Республики Беларусь от 21 июля 2008 г. № 419-З «О Государственной границе Республики Беларусь» // Электрон манба: https://online.zakon.kz/
30. Закон Республики Казахстан «О Государственной границе Республики Казахстан» (с изменениями и дополнениями по состоянию на 31.03.2021 г.) // Электрон манба: https://online.zakon.kz/

JAMOAT XAVFSIZLIGI VA JAMOAT TARTIBIGA TAHDID SOLADIGAN MATERIALLARNI TAYYORLASH, SAQLASH, TARQATISH YOKI NAMOYISH ETISHNING JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI

To‘xtayev F.M.,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. **Ushbu ilmiy maqolada, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish jinoyati haqida olimlar tomonidan bildirilgan ilmiy nazariy yondashuvlar, jinoyatning obyekti, obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoni, jinoyatni sodir etishda qo‘llaniladigan usullar tahlil qilingan. So‘nggi yillarda respublikada ushbu jinoyatni sodir etilishi bilan bog‘liq statistik ma’lumotlar o‘rganilgan hamda qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.**

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallar, ekstremizm, separatizm, aqidaparastlik g‘oyalari, axborotlashtirish, mafkura, zo‘ravonlik, jinoyatning obyekti, jinoyatning obyektiv tomoni, jinoyat sodir etish usuli, inson hayoti.

O‘zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunini 3-moddasida ekstremistik faoliyat shakllari bayon etilgan. Ushbu shakllar orasida jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etishga, shuningdek, ekstremistik tashkilotlarning atributlarini yoki ramziy belgilarini tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish harakatlari alohida ko‘rsatib o‘tilganligi ahamiyatga ega.

“Jamoat xavfsizligi” va “jamoat tartibi” tushunchalarini tahlil qilish uchun ularning lug‘aviy ma’nolariga e’tibor qaratish muhim hisoblanadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ushbu tushunchalar to‘g‘risida quyidagicha to‘xtalib o‘tilgan. “Jamoat” arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, birlashma, uyushma, guruh, ko‘pchilikka, ya’ni ommaga tegishli kabi ma’nolarni anglatadi. “Xavfsizlik” so‘zi xavf-xatarning yo‘qligi, xavf bo‘lmagan holat ma’nolarini, “tartib” so‘zi esa arabchadan tayyorlash, tashkil etish, intizom, moyillik, rag‘bat, reja, ish-harakat, chora-tadbir va shu kabilarga rioya qilinadigan ma’lum izchillik, reja, qonun-qoida va shu qonun- qoidalarga javob beradigan holat ma’nolarini anglatadi [1].

Bir so‘z bilan aytganda, jamoat xavfsizligi – jamoat xavfsizligi obyektlarining yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan va ularga zarar keltiradigan xavf va tahdidlardan himoyalanganlik holati, jamoat tartibi esa, axloq, ma’naviyat, urf-odat va an’analar normalariga asoslangan jamoat hayotining ma’lum bir tartibini belgilaydigan, fuqarolarning jamoat joylarida birga bo‘lganda yurish-turish huquqiy norma va xulq-atvor qoidalari majmui hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son farmonida jamoat xavfsizligi tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan. Jamoat xavfsizligi – bu jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan (keyingi o‘rinlarda - tahdidlar) himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi [2].

Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi kabi tushunchalar to‘g‘risida turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, M.X. Rustambayevning fikricha, jamoat xavfsizligi – bu jamiyat hayotining xavfsiz sharoitlaridir, ya’ni fuqarolarning daxlsizligi, hayoti va sog‘lig‘ini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlari, har qanday davlat yoki jamoat tuzilmalarining normal faoliyati va h.k.larni ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlardir [3].

P.G.Gorodetskiy jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini davlat va munitsipal organlarning, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, tashkilotlarning normal ishlashini, fuqarolik jamiyati, alohida fuqarolar va ularning birlashmalarini shakllantirishni ta’minlaydigan jamiyat hayotining qonun bilan belgilangan rejimi sifatida ta’riflaydi [4].

Jinoyat kodeksining 244^1-moddasi birinchi qismiga binoan, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soluvchi materiallar deganda, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rlik bilan ko‘chirib yuborishga da’vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining

atributlarini yoki ramziy belgilaridan iborat bo‘lgan materiallar tushuniladi.

Mazkur toifadagi materiallarni tarqatish yoxud namoyish etish maqsadida tayyorlash, saqlash natijasida yuqorida qayd etilayotgan moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi kelib chiqadi. Z.M.Beshukovaning fikricha ushbu jinoyatning obyektini davlat hokimiyatining normal va uzluksiz faoliyat olib borishi bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi [5].

Yuridik fanlar doktori M.X. Rustambayevning qayd etishicha, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar bu jinoyatning obyekti hisoblanadi [6].

V.A. Burkovskayaning fikriga ko‘ra, ushbu jinoyatning bevosita obyektini milliy xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar va konstitutsiyaviy tuzum asoslari tashkil etadi [7].

Yuqorida olimlar tomonidan bildirilgan fikrlarga e’tibor qaratilsa, Z.M.Beshukova bilan V.A.Burkovskaya tomonidan bildirilgan fikrlar bir-biriga juda o‘xshash bo‘lib, ular jinoyat obyektini to‘g‘ridan-to‘g‘ri konstitutsiyaviy tuzum bilan bevosita bog‘lashmoqda. Fikrimizcha, diniy ekstremizm, separatizm, qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rlik bilan ko‘chirib yuborishga da’vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarning tarqatilishi amaldagi mavjud tuzumni o‘zgartirishga intilish bo‘layotganligini anglatadi. Bunday qilmishlar dastlab jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladi.

A.N. Prikmeta mazkur jinoyatning obyektini jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi, shuningdek, jamoat tartibi bilan bog‘liq ma’lumotlardan qonuniy va xavfsiz foydalanishga oid munosabatlar tashkil etadi deb ta’kidlaydi [8].

Olimlar tomonidan bildirilgan fikrlarga qo‘shilgan holda, shuni qo‘shimcha sifatida qayd etish kerakki, ushbu jinoyat aholining axborot va mafkuraviy xavfsizligini o‘zining nishoniga aylantirmoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur jinoyatning obyekti sifatida jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini, aholining axborot hamda mafkuraviy xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni qayd etish mumkin.

Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish jinoyati **obyektiv tomondan** diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rlik bilan ko‘chirib yuborishga da’vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash, shuningdek, diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish maqsadida tayyorlash, saqlash bilan sodir etiladi.

P.V. Agapov tomonidan mazkur qilmishlar obyektiv tomondan ommaviy tartibsizliklar keltirib chiqarishga qaratilgan urinishlarga o‘xshatilgan [9].

Olim moddadagi “qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rlik bilan ko‘chirib yuborishga da’vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash” jumlasini nazarda tutmoqda. Fikrimizcha, “diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish maqsadida tayyorlash, saqlash” kabi harakatlar ommaviy tartibsizliklarga undash hisoblanmaydi.

Moddaning birinchi qismini obyektiv tomoniga e’tibor qaratilsa, “tarqatish maqsadida saqlash”, “namoyish etish maqsadida tayyorlash” yoki “namoyish etish maqsadida saqlash” kabi jumlalari qo‘llanilmoqda. Fikrimizcha, ushbu harakatlar jinoyatni sodir etishning passiv shakli hisoblanadi. Chunki, jinoyat sodir etayotgan shaxs o‘z hatti-xarakatini boshqalarga qaratishga ulgurmagan bo‘ladi. Bundan tashqari, yuqorida ta’kidlanayotgan materiallarni tayyorlashdan yoki saqlashdan maqsadining mavjudligi natijasida jinoyat tugallanadi.

Shu bilan birga, shaxsning haqiqatdan ham tarqatish maqsadida saqlaganligi, namoyish etish maqsadida tayyorlaganligi yoki saqlaganligi kabi harakatlarga huquqiy baho berish masalasi ham munozarali hisoblanadi. Bunday holatda shaxs harakatlariga to‘g‘ri huquqiy baho berish uchun birinchidan, shaxs o‘z qilmishini va maqsadini to‘liq tan olishi yoki saqlayotgan materiallaridan hech bo‘lmasa bittasini tarqatgan yoki namoyish etgan bo‘lishi zarur.

Jinoyat kodeksining 244^1-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishni ko‘zlagan shaxs yuqoridagi kabi materiallarni ko‘p miqdorda, bir xil mazmundagi va moddiy shaklda tayyorlangan yoki saqlangan bo‘lsa, unda uning harakatlarini jinoyatga suiqasd sifatida baholasa bo‘ladi. Chunki, shaxsning o‘z ehtiyoji uchun bir yoki ikki materialning o‘zi yetarli hisoblanadi.

Biroq, tayyorlangan yoki saqlangan materiallar elektron ko‘rinishda bo‘lsa hamda shaxs o‘zining ehtiyoji uchun bunday toifadagi materialni tayyorlaganligi kabi bahonani qayd etsa, unda shaxsni javobgarlik masalasi munozarali bo‘lib qoladi.

JKning 244^1-moddasi 2-qismi **obyektiv tomondan** diniy ekstremizm, separatizm va

ISSN 3030-3230

aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rlik bilan ko‘chirib yuborishga da’vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan ma’lumotlar va materiallarni har qanday shaklda *tarqatish,* xuddi shuningdek fuqarolar totuvligini buzish, tuhmatona, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalar *tarqatish* hamda jamiyatda qaror topgan xulq-atvor qoidalariga va jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan boshqa qilmishlarni sodir etish maqsadida *dindan foydalanish,* shuningdek diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini *tarqatish* yoxud *namoyish etish* orqali sodir etiladi.

E’tibor qaratilsa, moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan jinoyat faqatgina tarqatish yoki namoyish etish orqali sodir etiladi. Fikrimizcha, tarqatish deganda, jinoyat predmeti hisoblangan materiallar yoki ma’lumotlarni aholi orasida bir necha kishiga yetkazishga bo‘lgan harakatlar tushuniladi. Namoyish etish esa, aholi gavjum joylarda yuqorida ta’kidlangan jinoyat predmeti hisoblangan materiallarni reklama qilish, aholiga ko‘rsatish yoki Internet jahon axborot tarmog‘iga yuklash, ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish kabilarda namoyon bo‘ladi.

Buyuk Britaniyalik olimlar tomonidan mazkur jinoyatni ifodalovchi qilmishning obyektiv tomoni sifatida zo‘ravonlik, nafrat yoki murosasizlikka asoslangan mafkurani targ‘ib qilish, boshqalarning huquq va erkinliklarini inkor etish yoki yo‘q qilishga da’vat qilish kabilar ko‘rsatib o‘tilgan [10].

Jinoyat kodeksining 244^1-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatning obyektiv tomoni bilan Buyuk Britaniyada jinoyat deb topilayotgan qilmishning obyektiv tomoni bir biriga juda o‘xshashligi kuzatilmoqda.

Bunda, bizning qonunchiligimizda bayon etilayotgan “qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rlik bilan ko‘chirib yuborishga da’vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan ma’lumotlar va materiallarni har qanday shaklda tarqatish” jumlasi bilan Buyuk Britaniya qonunchiligida ko‘rsatilayotgan “zo‘ravonlik, nafrat yoki murosasizlikka asoslangan mafkurani targ‘ib qilish” kabi jumlasida mazmunan bir xillik kuzatiladi.

Biroq, Buyuk Britaniya olimlari tomonidan ko‘rsatib o‘tilayotgan “boshqalarning huquq va erkinliklarini inkor etish yoki yo‘q qilishga da’vat qilish” harakatlarini barcha jinoyatlarning umumiy obyektiv tomoni sifatida ifodalash mumkin. Chunki, har qanday jinoyat sodir etilishi natijasida boshqalarning huquqlari inkor etiladi yoki yo‘q qilinadi.

Olim A.Ter-Akopovaning fikriga ko‘ra, ushbu jinoyat obyektiv tomondan jismoniy, axborot texnologiyalari va dasturiy-ta’minotlar asosida sodir etiladi [11]. Ushbu fikrni bugungi kunda jamiyatda yuz berayotgan jarayonlar ham tasdiqlamoqda.

Shu sababli, mazkur moddaning jinoyatni og‘irlashtiruvchi holatlari ko‘rsatib o‘tilgan uchinchi qismiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi. Natijada, 2016 yil 25 apreldagi O‘RQ 405-sonli Qonuni bilan modda uchinchi qismi dispozitsiyasining “v” bandi “v” va “g” bandlari bilan almashtirilib, jinoyatni moliyalashtirish hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda sodir etilishiga nisbatan javobgarlik belgilandi [12].

Tadqiqot davomida, jinoyat ishi va sud hukmi materiallari tahlil qilinganda, ta’kidlanayotgan jinoyat aksariyat hollarda Internet tarmog‘i orqali sodir etilayotganligi aniqlandi. Jinoyat subyektlari dastlab quyidagi harakatlarni amalga oshirishmoqda:

- ekstremistik oqim va terrorchilik tashkilotlari foydalanuvidagi ijtimoiy tarmoq sahifalari va guruhlarida o‘zlarini yagona to‘g‘ri yo‘lda yuruvchilar deb hisoblab, ularga ergashmaganlarni kofir sanashadi;

- er yuzida adolat o‘rnatishning yagona yo‘li islom davlati qurish va shu maqsadda “hijrat” va “jihod” qilish kabi fikrlar bildirish;

- o‘zlariga “amir” deb bilgan shaxslardan boshqa din ulamolarini dushman deb bilish va ularni islom dinini noto‘g‘ri talqin etishda ayblash;

- davlatda olib borilayotgan siyosatni qoralash va mavjud kamchiliklarni bo‘rttirib ko‘rsatish hamda bunga davlatni kofirlar boshqarayotganligini sabab sifatida ko‘rsatish;

- xalq orasidagi norozi kayfiyatdagi shaxslarga o‘zini “sherik” sifatida ko‘rsatib, ularning diniy his-tuyg‘ulardan foydalanish;

- diniy ekstremistik oqim g‘oyalarini targ‘ib qilish, ya’ni ijtimoiy tarmoqqa ularning g‘oyalari aks etgan video, audio va fotosurat ko‘rinishidagi materiallarni joylashtirish;

- diniy ekstremistik oqim g‘oyalarini boshqa shaxslar bilan muhokamalar qilish orqali o‘zlarining g‘oyalari to‘g‘riligini isbotlashga urinish;

- rasmiy imomlar va dindorlar tomonidan bildirilgan fikrlarga nisbatan yolg‘on ishlatish yo‘li orqali har xil raddiyalar berish;

- muqaddas diniy kitoblarni buzib talqin etish, ulardagi jumlalarni o‘z manfaatlari yo‘lida sharhlash hamda kitobdagi sura va oyatlarni yarmini kesib aytish orqali davlat rahbarini obro‘sizlantirish.

Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash,

tarqatish yoki namoyish etish jinoyatining subyekti 16 yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin. A.G. Volevodz fikricha, ushbu jinoyatning subyekti ko‘proq voyaga yetgan, Internet va axborot texnologiyalaridan doimiy tarzda foydalanayotgan shaxslar bo‘lishi mumkin [13].

Jinoyat subyektiv tomondan to‘g‘ri qasddan sodir etiladi. Olim N.I.Korjanskiy ushbu jinoyat ko‘pincha beparvolik oqibatida sodir etiladi, deb hisoblaydi. A.Naumov, B.Zdravomыslov, I.Kozachenko, Z.Neznamov kabi olimlar ushbu jinoyatlarning subyektiv tomonini bevosita egri qasd bilan ta’riflaydi [14].

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur jinoyat bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlari tomonidan 2020 yilda 244 ta, 2021 yilda 496 ta, 2022 yilda 866 ta, 2023 yilda 775 ta, 2024 yilda 861 ta jinoyat ishlariga jazo tayinlangan [15].

Yuqoridagi raqamlar yillar davomida ushbu jinoyatning ortib borganligini ko‘rsatmoqda. Viloyatlar kesimida 2020-2023 yillarda Andijon viloyatida, 2024 yilda esa Toshkent shahrida mazkur jinoyatni sodir etilishi eng ko‘p qayd etilgan.

Olimlar tomonidan bildirilgan fikrlardan ushbu jinoyatga qarshi kurashish bo‘yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilganligini, biroq ayrim muammolar saqlanib qolayotganligini statistik ma’lumotlar ham tasdiqlamoqda.

Xususan, moddada ta’kidlanayotgan “aqidaparastlik g‘oyalari” kodeksning rus tilidagi variantida “fundamentalizm” jumlasi bilan ifodalangan.

“Aqidaparastlik” arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “aqida” – “ishonch”, “biror narsani ikkinchisiga bog‘lash” degan ma’nolarni anglatadi. Ya’ni, muayyan sharoitda, biron-bir g‘oyaga qat’iy ishonib, uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda ko‘r-ko‘rona qo‘llash yoki shunga urinish tushuniladi [16].

“Fundamentalizm” esa lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “asos” degan ma’noni anglatadi. Tushunchaning ma’nosi muayyan hodisaning ilk ko‘rinishini qabul qilishni, qaytishni da’vat etuvchi g‘oya sifatida ta’riflanadi [17].

Bu ikki tushuncha o‘zbek tilida talqin qilinishida ham bir-biridan jiddiy farq qilmoqda. Jinoyat kodeksining rus tilidagi variantidagi “soderjащix idei fundamentalizma” tushunchasi ham o‘zbek tiliga tarjima qilinganda “aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan” degan ma’noni anglatmaydi. Bu esa, Jinoyat kodeksining bir moddasini turli xilda talqin etilayotganligini ko‘rsatib, jinoyatni kvalifikatsiya qilishda muammolarni keltirib chiqaradi.

Mazkur moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida qo‘llanilgan “separatizm g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan” materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash, namoyish etish yoki tarqatish harakatlari jamoat xavfsizligiga tahdid solishi bilan birga mamlakatning konstitutsiyaga muvofiq, belgilangan hududiy daxlsizligiga tajovuz qiladi. Shuning uchun ushbu tushunchani JKning 244^1-moddasida aks ettirilishi 159-moddada bayon etilgan jinoyatning ayrim jihatlarini takrorlamaydimi degan savol tug‘iladi?

Shuningdek, modda dispozitsiyasidagi “Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan” matnidan o‘rin olgan “va” bog‘lovchisi o‘zidan oldingi hamda keyingi sifatdoshlarni, shu bilan birga verguldan oldingi sifatdoshni ham bir paytning o‘zida bir materialda jamlangan bo‘lish shartini ifodalamoqda. Amaliyotda huquqni qo‘llovchilar tomonidan uchala sifatdan istalgan birining mavjud bo‘lishi jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi, deb talqin qilib kelinmoqda. Bu esa, moddaning dispozitsiyasini o‘zgartirish zarurligini anglatadi.

Bunga misol sifatida Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti talabasi J.Ulug‘murodov 2020 yilda sinfdoshlarining “Telegram”dagi guruhiga bir dona “nashida” tarqatganligi aniqlangan. Bu nashida, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita ekspertlari tomonidan aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan deb topilgan. JKning 244^1-moddasi dispozitsiyasiga nisbatan o‘tkazilgan sudga oid lingvistik ekspertiza natijalari yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqladi [18]. Ya’ni, “Diniy ekstremistik, separatistik va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan” matnidan o‘rin olgan “va” bog‘lovchisi o‘zidan oldingi hamda keyingi sifatdoshlarni, shu bilan birga verguldan oldingi sifatdoshni ham bir paytning o‘zida bir materialda jamlangan bo‘lish shartini ifodalashi isbotlandi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu modda bilan faqatgina diniy ekstremizmga nisbatan javobgarlik belgilangan bo‘lib, uning boshqa ko‘rinishlariga javobgarlikni belgilash masalasi ochiq qolib ketgan. “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunda ekstremizmning diniy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy yoki ekologik kabi turlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilmagan.

Jinoyat ifodalangan ta’kidlanayotgan modda blanket norma hisoblanganligi uchun qilmishga huquqiy baho berishda O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi va “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlariga murojaat qilinadi. Bu holatda huquqiy normalar o‘rtasida tafovut yuzaga kelishi mumkin.

Bundan tashqari, moddada bayon etilayotgan

ISSN 3030-3230

“saqlash” harakatini isbotlashning imkoniyatlari hisobga olinmagan hamda Internet jahon axborot tarmog‘ida aylanayotgan kontentlar hajmining juda ko‘pligi natijasida har qanday shaxs foydalanuvidagi uyali aloqa vositalarida ekstremistik materiallar saqlanib qolishi mumkin. Shaxsning foydalanuvidagi uyali aloqa vositasida ekstremistik mazmundagi kontentlar saqlganlik holatiga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi natijasida mamlakatda jinoyatchilik soni ko‘payib ketishiga sabab bo‘ladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Jinoyat kodeksining 244^1-moddasiga quyidagi qo‘shimcha va o‘zgartirishlarni kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1. Moddaning nomi va birinchi qismidagi “saqlash” so‘zini chiqarib tashlash va “244^1-modda. *Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, tarqatish yoki namoyish etish”* deb qayta nomlash;

2. Moddaning birinchi va ikkinchi qismi dispozitsiyasida qo‘llanilgan “diniy” so‘zlarini chiqarib tashlash;

3. Moddaning ikkinchi qismida qayd etilgan “jamoat *xavfsizligiga qarshi qaratilgan boshqa qilmishlarni sodir etish maqsadida* **dindan** *foydalanish”* jumlasini “jamoat *xavfsizligiga qarshi qaratilgan boshqa qilmishlarni sodir etish maqsadida* **zo‘ravonlikdan** *foydalanish”* jumlasiga o‘zgartirish;

4. Moddaning birinchi va ikkinchi qismi dispozitsiyasidagi “Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan” matnida o‘rin olgan “va” bog‘lovchisi o‘zidan oldingi “diniy ekstremizm”, “separatizm” hamda undan keyin kelayotgan “aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan” degan tushunchalar bir-biridan yiroq tushunchalar ekanligini inobatga olib dispozitsiyadagi “va” bog‘lovchisini “yoki” so‘zlari bilan almashtirilishi huquqni qo‘llash amaliyotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishiga olib keladi;

Umuman olganda, moddaning birinchi va ikkinchi qismi dispozitsiyasini quyidagicha shakllantirish maqsadga muvofiq.

“244^1-modda. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, tarqatish yoki namoyish etish

Ekstremizm, separatizm **yoki** *aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rlik bilan ko‘chirib yuborishga da’vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash, shuningdek* **ekstremistik,** *terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish maqsadida tayyorlash —*

Ekstremizm, *separatizm* **yoki** *aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rlik bilan ko‘chirib yuborishga da’vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan ma’lumotlar va materiallarni har qanday shaklda tarqatish, xuddi shuningdek fuqarolar totuvligini buzish, tuhmatona, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalar tarqatish hamda jamiyatda qaror topgan xulq-atvor qoidalariga va jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan boshqa qilmishlarni sodir etish maqsadida* **zo‘ravonlikdan** *foydalanish, shuningdek* **ekstremistik,** *terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish —”*

Yuqorida qayd etib o‘tilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar to‘g‘risida fikrlar moddada o‘z aksini topishi normaning takomillashishiga hamda qilmishga huquqiy baho berishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной научной статье анализированы научно-теоритические подходы ученых к преступлению подготовки, хранения, распространения или демонстрация материалов, представляющих угрозу общественной безопасности и общественному порядку, объект, объективная сторона, субъект и субъективная сторона преступления, а также способы, используемые при совершении преступления. Были изучены статические данные последних лет, связанные с совершением данного преступления в республике, и разработаны предложения по совершенствованию законодательства.

Ключевые слова: общественная безопасность, материалы угрожающие общественному порядку, экстремизм, сепаратизм, идеи фундаментализма, информатизация, идеология, насилие, объект преступления, объективная сторона преступления, способы совершения преступления, человеческая жизнь.

Annotation. This scientific article analyzes the scientific theoretical approaches expressed by scientists regarding the crime of preparing, storing, distributing, or displaying materials that threaten public safety and public order, the object, objective side, subject, and subjective side of the crime, and the methods used to commit the crime. In recent years, statistical data on the commission of this crime in the republic have been studied and proposals have been developed to improve legislation.

Key words: public safety materials threatening public order, extremism, separatism, fanatical ideas, information, ideology, violence, object of crime, objective aspect of crime, method of crime, human life.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quvondiqov M.I. Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini huquqiy ta'minlashning nazariy jihatlari // WORLDLY KNOWLEDGE International journal of scientific Researchers ISSN: 3030-332 X IMPAKT FACTOR (Research bib) – 7,93. 548-552.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги ПФ-27 сон "Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора тадбирлари тўғрисида"ги Фармони lex.uz/uz/docs/5749291
3. Рустамбаев М.Х.Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарҳлар. Махсус қисм. 3-жилд.– Тошкент: 2021.-В.324
4. Аъзамов Б.Н. Жамоат хавфсизлигини таъминлаш тушунчасининг мазмун-моҳияти ва унинг илмий қарашлари // Сўнгги илмий тадқиқотлар назарияси республика илмий-услубий журнали. – Тошкент, 2024. – 3 (7). – Б. 98-103.
5. Бешукова З.М. Механизм уголовно-правового противодействия экстремистской деятельности: содержание, структура, основные направления оптимизации дис. док. юрид.. наук. – Калининград, 2020. – С.308;
6. Рустамбаев М.Х.Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарҳлар. Махсус қисм. 3-жилд.– Тошкент: 2021.-В.324
7. Бурковская В.А. Криминальный религиозный экстремизм в современной России. - Москва, 2005. – С. 77.
8. Прикмета А.Н. Киберпреступность в России. Юридическая ответственность за нарушения прав в сфере информационных технологий. – Донецк.: ДонНТУ. Информатика И Кибернетика. № 2 (12), 2018. – С 30.
9. Агапов П.В. Публичные призывы к осуществлению террористической деятельности или публичное оправдание терроризма: анализ законодательной новации // Уголовное право. 2007 (1). – С. 5.
10. https://www.gov.uk/government/publications/new-definition-of-extremism-2024/new-definition-of-extremism-2024#fn:4
11. Тер-Акопов А.А. Преступление и проблемы нефизической причинности в уголовном праве: монография [Текст] / А. А. Тер-Акопов. – М.: «Юркнига», 2003. – 480 с.
12. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 25 апрелдаги ЎРҚ 405-сонли "Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида"ги Қонуни — ЎР ҚҲТ, 2016 й., 17-сон, 173-модда.
13. Волеводз А.Г. Конвенция о киберпреступности: новации правового регулирования. –М.: Правовые вопросы связи. 2007. № 2. – 17-25 с. 6 Н.Лимож, М.Косович. Киберпреступления: особенности совершения и предупреждения. Манба: http://bii.by/tx.dll?d=301093.
14. Абдуллаев А.С. Уголовно-правовой и криминологический анализ надругательства над телами умерших и местами их захоронения тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 12.00.08, кандидат юридических наук. – Махачкала. 2002., – С. 168.
15. Ўзбекистон Республикаси Олий суди томонидан тақдим этилган маълумотлар (электрон нусхада).
16. Хасанов А., Юсупов О., Шермухаммедов К., Ғофуров У., Каримов Ж., Диний мутаассиблик: моҳият, мақсадлар ва олдини олиш йўллари, Қўлланма. – Тошкент: Тошкент Ислом университети, 2017 – Б.141
17. Шермухаммедов К., ва бошқалар Ислом ниқоби остидаги экстремистик ва террорчи уюшмалар, Маълумотлар тўплами. – Тошкент: Тошкент Ислом университети, 2017. – Б.150.
18. kun.uz/07792360

КОНСТИТУЦИОННАЯ ОХРАНА ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ СТАТЬИ 53 КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Муракаева Зухра Илгизаровна,
Самостоятельный соискатель
Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

Аннотация. Настоящая статья посвящена сравнительно-правовому анализу конституционной охраны интеллектуальной собственности в Республике Узбекистан. Исследуется содержание статьи 53 Конституции Республики Узбекистан в контексте аналогичных конституционных норм США, Российской Федерации, Франции и Германии. Проведен анализ процесса имплементации международных механизмов охраны интеллектуальной собственности в национальные правовые системы.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, конституционное право, Конституция Узбекистана, авторское право, патентное право, международные договоры, сравнительно-правовой анализ

В современном мире интеллектуальная собственность (ИС) приобрела статус ключевого фактора экономического развития и технологического прогресса. Конституционное закрепление охраны ИС отражает признание государством фундаментальной значимости результатов интеллектуальной деятельности для общественного развития.

Статья 53 Конституции Республики Узбекистан [1] устанавливает: «Каждому гарантируется свобода научного, технического и художественного творчества, право на пользование достижениями культуры. Интеллектуальная собственность охраняется законом. Государство заботится о культурном, научном и техническом развитии общества.»

Данная норма была усилена в ходе конституционной реформы 2023 года, что подчеркивает возрастающее значение ИС в стратегии национального развития Узбекистана.

Методология исследования

Исследование основано на системном применении сравнительно-правового метода, историко-правового и формально-юридического анализа. Использованы официальные источники законодательства, международные договоры и научная доктрина.

Развитие государства зависит от отношения общества к различным вопросам в том числе и через призму законодательных норм. Основным законодательным актом в нашей стране, регулирующем всю нашу повседневную жизнь, является Конституция нашей страны. Сфера интеллектуальной собственности одна из перспективных сфер развития нашего общества и отражение этих перспектив в Главном законе нашей страны тому подтверждение. Прежде чем перейти к рассмотрению непосредственно статьи 53 Основного закона Узбекистана рассмотрим отношения к данной сфере права в некоторых странах мира.

При проведении сравнительного анализа конституционных положений об охране интеллектуальной собственности отдельных стран было установлено, что наиболее глубокие корни данный вид собственности нашел в законодательстве США: п.8 раздела 8 статьи I предусматривает право Конгресса США на содействие развития прогресса в сфере интеллектуальной собственности путем закрепления их исключительных прав. Этот подход направлен на извлечение дохода из созданного произведения и изобретения и представляет собой **англо-американскую утилитарную модель**. Статья I, Раздел 8, Пункт 8 Конституции США [2] устанавливает прагматичный подход: предоставление временной монополии авторам и изобретателям рассматривается как инструмент стимулирования прогресса науки и полезных искусств. Ключевые особенности:

- Четкое указание на цель (прогресс)
- Ограничение во времени («limited times»)
- Перечисление объектов (writings and discoveries)

Также данная сфера регулируется Законом

1976 года об общем пересмотре авторского права [3], Законом 1999 года об авторском праве в цифровом тысячелетии (Digital Millenium Copyright Act) [4].

В Конституции Германии интеллектуальная собственность не выделена в отдельную норму, но подразумевается её защита на общих основаниях как к одному из видов собственности (ст.14 Конституции Германии). Данный подход относится к **имущественной модели.** Статья 14 Основного закона ФРГ [5] включает интеллектуальную собственность в общую категорию собственности, что обеспечивает ее защиту через развитую доктрину права собственности. Также на территории Германии действует Закон об авторском праве и смежных правах от 9 сентября 1965 года [6].

Особое внимание в данной сфере стоит уделить законодательству Франции. В ней нет прямой конституциональной нормы, однако, это не мешает считать законодательство по охране интеллектуальной собственности Франции одним из мировых лидеров в регулировании данной сферы. Франция в вопросах, связанных с интеллектуальной собственностью руководствуется Кодексом интеллектуальной собственности. Основные нормативно-правовые акты, регулирующие сферу авторских прав, во Франции это закон № 92-597 от 1 июля 1992 года (фр. *Loi n° 92-597 du 1 juillet 1992 relative au code de la propriété intellectuelle*) [7] и Кодекс интеллектуальной собственности (фр. *Code de la propriété intellectuelle* [8]), а также еще некоторые документы

Франция, Россия и Узбекистан демонстрируют континентальную модель естественных прав, которая основывается на концепции естественных прав автора, сформулированной во французских декретах 1791-1793 годов. Интеллектуальная собственность рассматривается как неотъемлемое право творца, в ней делается акцент на личности автора, широкое понимание объектов охраны, связь с общими правами человека. Статья 44 Конституции РФ [9] и статья 53 Конституции Узбекистана [1] следуют этой традиции, гарантируя свободу творчества и охрану ИС как конституционное право.




Рисунок 1. Сравнительная типология конституционных моделей охраны ИС

Отражение отношения к интеллектуальной собственности в Конституции Российской Федерации также очень оригинально. В норме, посвященной интеллектуальной собственности (ст.44 Конституции Российской Федерации) нашли отражение не только различные виды научной и творческой деятельности, но и преподавание, как один из видов отражения интеллектуальной собственности.

В Конституции Узбекистана четко обозначены сферы творчества: наука, техника и художественная сфера. Кроме того, в ней также, как и в Конституции Российской Федерации имеет место прямое указание на охрану интеллектуальной собственности непосредственно государством. Данный пункт появился после проведения всенародного референдума в Республике Узбекистан в апреле 2023 года после долгой работы, в ходе которой каждый сознательный гражданин старался внести свою лепту в развитие своего государства. И в Российской Федерации, и в Республике Узбекистан данные конституционные нормы нашли свое отражение в Гражданском кодексе [10, 11] и Законе «Об авторском праве и смежных правах» [12,13]

Таблица 1. Сравнительный анализ конституционных положений об охране интеллектуальной собственности

Государство	Статья Конституции	Содержание нормы	Год принятия/ изменения	Особенности регулирования
Узбекистан	Статья 53	Гарантируется свобода научного, технического и художественного творчества. Интеллектуальная собственность охраняется законом.	1992/2023	Комплексный подход: свобода творчества + охрана ИС + забота государства о развитии
США	Статья I, Раздел 8, Пункт 8	Конгресс имеет право содействовать прогрессу науки и полезных искусств, обеспечивая на ограниченное время авторам и изобретателям исключительные права на их произведения и открытия.	1787	Утилитарный подход: временная монополия как стимул инноваций
Россия	Статья 44	Каждому гарантируется свобода литературного, художественного, научного, технического и других видов творчества, преподавания. Интеллектуальная собственность охраняется законом.	1993/2020	Широкий перечень видов творчества, включая преподавание
Германия	Статья 14	Собственность и право наследования гарантируются. Их содержание и пределы определяются законами.	1949	Косвенная охрана ИС через институт собственности
Франция	-	Прямой конституционной нормы нет, регулируется Кодексом интеллектуальной собственности (1992)	1958/1992	Подзаконное регулирование на основе революционных декретов 1791-1793 гг.

При рассмотрении данных законодательных основ используются различные подходы для характеристики охраны интеллектуальной собственности в отдельных странах. Ниже представленная таблица отражает именно их.

Таблица 2. Типология конституционных подходов к охране интеллектуальной собственности

Тип подхода	Характеристика	Примеры стран	Преимущества	Недостатки
Прямой комплексный	Явное указание на охрану ИС и свободу творчества	Узбекистан, Россия	Высокий уровень конституционной гарантии, ясность правового статуса	Требует детальной законодательной конкретизации
Утилитарно-функциональный	Акцент на целях и средствах охраны	США	Четкое определение цели (прогресс) и механизма (временная монополия)	Ограничение сферы регулирования (только авторское и патентное право)
Косвенный (через собственность)	Охрана ИС как разновидности собственности	Германия	Использование развитой доктрины права собственности	Отсутствие специфики интеллектуальных прав
Подзаконный	Отсутствие прямой конституционной нормы	Франция	Гибкость правового регулирования	Меньший уровень конституционной защиты

Статья 53 Конституции Узбекистана содержит три взаимосвязанных компонента:

1. Свобода творчества – гарантируется свобода научного, технического и художественного творчества

2. Охрана результатов творчества – интеллектуальная собственность охраняется законом

3. Государственная поддержка – государство заботится о культурном, научном и техническом развитии общества

Взаимосвязь данных компонентов отражает сбалансированный подход, учитывающий, как частные интересы авторов, так и публичный интерес общества в доступе к достижениям культуры и науки.

В целях развития Узбекистан активно развивает национальное законодательство. В том числе и в сфере интеллектуальной собственности.

Согласно статье 15 Конституции Узбекистана, международные договоры являются составной частью правовой системы. Это означает прямое действие норм международных конвенций:

Бернская конвенция (1886) установила принципы: автоматической охраны (без формальностей), национального режима, независимости охраны, минимального срока охраны (жизнь автора + 50 лет)

Парижская конвенция (1883) заложила основы права конвенционного приоритета, принципа независимости патентов, охраны от недобросовестной конкуренции

Соглашение ТРИПС (1994) установило минимальные стандарты охраны, связь с торговыми санкциями, обязательства по обеспечению исполнения

В настоящее время Узбекистан участвует либо активно ведет работу по имплементации международных стандартов в национальное законодательство. Так, во исполнение поставленных целей приняты такие законы как Закон «Об изобретениях, полезных моделях и промышленных образцах» (2002) [14], Закон «Об авторском праве и смежных правах» (2006) [13], Закон «О товарных знаках» [14] (2008) и другие документы.

Таблица 3. Участие Республики Узбекистан в международных договорах по охране ИС

Международный договор	Дата присоединения	Статус	Механизм имплементации
Парижская конвенция (1883) [15]	25.12.1991	Действует	Закон «Об изобретениях, полезных моделях и промышленных образцах» (2002)
Бернская конвенция (1886) [16]	19.04.2005	Действует	Закон «Об авторском праве и смежных правах» (2006)
Договор о патентной кооперации (PCT) [17]	09.12.1991	Действует	Положение о международной заявке (1994)
Соглашение ТРИПС (ВТО) [18]	-	Не участник	Гармонизация через национальное законодательство
Мадридское соглашение о международной регистрации знаков [19]	27.12.1995	Действует	Закон «О товарных знаках» (2008)

В целом, Узбекистан выбрал поэтапный подход к имплементации международных стандартов:

Первый этап (1991-2000): Присоединение к базовым конвенциям (Парижской, PCT), принятие основополагающих законов

Второй этап (2001-2010): Совершенствование национального законодательства, присоединение к Бернской конвенции

Третий этап (2011-2023): Конституционная реформа 2023 года, усиление охраны ИС на конституционном уровне.

Статья 53 Конституции Узбекистана демонстрирует синтез различных подходов к охране интеллектуальной собственности:

1. От континентальной традиции: признание свободы творчества как фундаментального права

2. От утилитарной модели: указание на роль государства в содействии развитию

3. Национальная специфика: включение заботы государства о культурном, научном и техническом развитии

Данный подход отражает стремление Узбекистана к построению инновационной экономики при сохранении культурных

Рисунок 1. Этапы имплементации международных стандартов ИС в Узбекистане



Рисунок 1. Этапы имплементации международных стандартов ИС в Узбекистане

ценностей. В дальнейшем необходимо решение отдельных проблем в данной сфере жизни общества. Несмотря на конституционное закрепление, остаются проблемы с эффективным исполнением обязательств по исполнению прав на ИС, также имеет место **н**изкий уровень осведомленности о важности охраны ИС, сохраняется необходимость поиска оптимального баланса между правами правообладателей и интересами общества большую роль на сегодняшний день играют вопросы, которые необходимо урегулировать в связи с цифровизацией жизни всего мира.

В заключение можно сделать следующие выводы:

1. Статья 53 Конституции Республики Узбекистан представляет собой комплексную норму, обеспечивающую конституционно-правовую основу для охраны интеллектуальной собственности. Она сочетает три важнейших элемента: гарантию свободы творчества, охрану результатов интеллектуальной деятельности и обязанность государства содействовать культурному и научному развитию.

2. Узбекистан следует континентальной традиции конституционного регулирования охраны ИС, что сближает его с правовыми системами России и Франции. В отличие от утилитарного подхода США, узбекская модель основывается на концепции естественных прав автора.

3. Республика Узбекистан активно интегрирована в международную систему охраны интеллектуальной собственности через участие в ключевых конвенциях (Парижской, Бернской) и договорах (PCT, Мадридское соглашение). Конституционная реформа 2023 года усилила гарантии охраны ИС на высшем правовом уровне.

4. Международная система охраны ИС, сформировавшаяся с конца XIX века (Парижская конвенция 1883, Бернская конвенция 1886), продолжает эволюционировать в ответ на технологические вызовы. Узбекистан успешно имплементирует эти стандарты в национальное законодательство.

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulkni konstitutsiyaviy muhofaza qilishning qiyosiy-huquqiy tahlilga bag‘ishlangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasining mazmuni AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Fransiya va Germaniyaning o‘xshash konstitutsiyaviy normalari kontekstida tadqiq etilgan. Intellektual mulkni muhofaza qilishning xalqaro mexanizmlarini milliy huquqiy tizimlarga implementatsiya qilish jarayoni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: intellektual mulk, konstitutsiyaviy huquq, O‘zbekiston Konstitutsiyasi, mualliflik huquqi, patent huquqi, xalqaro shartnomalar, qiyosiy-huquqiy tahlil

Abstract. This article is devoted to a comparative legal analysis of the constitutional protection of intellectual property in the Republic of Uzbekistan. The content of Article 53 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan is examined in the context of similar constitutional provisions of the USA, the Russian Federation, France and Germany. An analysis of the process of implementation of international mechanisms for the protection of intellectual property into national legal systems is conducted.

Key words: intellectual property, constitutional law, Constitution of Uzbekistan, copyright, patent law, international treaties, comparative legal analysis.

Список литературы:

1. Конституция Республики Узбекистан (принята на всенародном референдуме 8 декабря 1992 года, с изменениями и дополнениями по состоянию на 30.04.2023). URL: https://constitution.uz/ru/clause/index (дата обращения: 12.11.2025)

2. The Constitution of the United States of America, Article I, Section 8, Clause 8 (1787). National Archives. URL: https://www.archives.gov/founding-docs/constitution-transcript (accessed: 12.11.2025)

3. Закон об авторском праве США 1976 года (Copyright Act of 1976) от 19 октября 1976 г., Public Law 94-553 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.copyright.gov/title17/

4. Закон об авторском праве в цифровом тысячелетии США 1998 года (Digital Millennium Copyright Act – DMCA) от 28 октября 1998 г., Public Law 105-304 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.copyright.gov/legislation/dmca.pdf; https://www.copyright.gov/dmca/

5. Basic Law for the Federal Republic of Germany (Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland) of May 23, 1949, Article 14. Official translation: Deutscher Bundestag, 2019.

6. Закон об авторском праве и смежных правах Федеративной Республики Германия от 9 сентября 1965 года (Urheberrechtsgesetz – UrhG) (с последними изменениями от 23 октября 2024 г.) [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_urhg/; https://www.wipo.int/wipolex/en/legislation/details/23030

7. Loi n° 92-597 du 1 juillet 1992 relative au code de la propriété intellectuelle (partie législative) - https://www.legifrance.gouv.fr/loda/id/LEGITEXT000006079371

8. Code de la propriété intellectuelle - https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006069414/

9. Конституция Российской Федерации (принята всенародным голосованием 12.12.1993 с изменениями, одобренными в ходе общероссийского голосования 01.07.2020), статья 44. Официальный интернет-портал правовой информации. URL: http://www.pravo.gov.ru (дата обращения: 12.11.2025)

10. Гражданский кодекс Российской Федерации от 30.11.1994 № 51-ФЗ (ред. от 16.12.2019, с изм. от 12.05.2020) [Электронный ресурс] // СПС «Консультант Плюс». – Режим доступа: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_5142/

11. Гражданский кодекс Республики Узбекистан (Особенная часть), утвержден Законом Республики Узбекистан от 29 августа 1996 года № 256-I. Собрание законодательства Республики Узбекистан, 1997, № 3, ст. 1031-1111.

12. Федеральный Закон Российской Федерации от 09.07.93 г. № 5351-1-ФЗ «Об авторском праве и смежных правах» (с изменениями от 19 июля 1995 г., 20 июля 2004 г.) [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.copyright.ru/ru/library/zakonodatelstvo/avtorskoe_pravo_i_smezhnye_prava/ob_avtorskom_prave_i_smezhnih_pravah/

13. Закон Республики Узбекистан «Об авторском праве и смежных правах» от 20 июля 2006 года № ЗРУ-42. Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2006, № 29, ст. 279.

14. Закон Республики Узбекистан «Об изобретениях, полезных моделях и промышленных образцах» от 30 августа 2001 года № 262-II. Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 2002, № 1-2, ст. 27.

15. Constitution de la République française du 4 octobre 1958. Légifrance. URL: https://www.legifrance.gouv.fr (date d’accès: 12.11.2025)

16. Berne Convention for the Protection of Literary and Artistic Works (Paris Act of July 24, 1971, as amended on September 28, 1979). WIPO Lex. Treaty No. WO001. URL: https://www.wipo.int/treaties/en/ip/berne/ (accessed: 12.11.2025)

17. Paris Convention for the Protection of Industrial Property (Stockholm Act of July 14, 1967, as amended on September 28, 1979). WIPO Lex. Treaty No. WO020. URL: https://www.wipo.int/treaties/en/ip/paris/ (accessed: 12.11.2025)

18. Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS Agreement), April 15, 1994. Marrakesh Agreement Establishing the World Trade Organization, Annex 1C. 1869 U.N.T.S. 299; 33 I.L.M. 1197 (1994).

19. Patent Cooperation Treaty (PCT), done at Washington on June 19, 1970, amended on September 28, 1979, modified on February 3, 1984, and on October 3, 2001. WIPO Lex. Treaty No. WO006. URL: https://www.wipo.int/pct/en/texts/articles/atoc.html (accessed: 12.11.2025).

HARBIY OILALAR BANDLIGINI TA’MINLASH VA XORIJIY TIL TA’LIMINI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY-INSTITUTSIONAL TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Baqoyev Shahzod Hasan o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim fakulteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqola zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda harbiy xizmatchilar oilalarini qo‘llab-quvvatlashning kompleks mexanizmlarini tahlil etadi. Xususan, xalq hunarmandchiligi va o‘zini-o‘zi band qilish imkoniyatlaridan foydalanish orqali harbiy oilalar bandligini oshirishning normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirishni taklif etadi. Harbiy xizmatchining xizmat doirasidagi cheklovlari oilaviy iqtisodiy faollikka to‘siq bo‘lmasligi, aksincha, uning turmush o‘rtog‘i va farzandlari uchun tadbirkorlik va masofaviy mehnat imkoniyatlarini kengaytirishi ilmiy asosda yoritiladi. Harbiy oilalarni ijtimoiy himoyaga muhtoj toifa sifatida e’tirof etish g‘oyasi huquqiy-institutsional dalillar bilan mustahkamlanadi. Mazkur chora-tadbirlar harbiy oilalarning iqtisodiy mustaqilligini, farzandlarning ilmiy-ta’limiy raqobatbardoshligini oshirishi, Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibining ma’naviy-ruhiy barqarorligini mustahkamlashi ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchilar oila a’zolari, ijtimoiy-huquqiy himoya, hunarmandchilik, o‘zini-o‘zi band qilish, masofaviy mehnat, davlat-xususiy sheriklik, bandlik siyosati, xorijiy til ta’limi, xalqaro hamkorlik, institutsional kafolatlar, harbiy ta’lim, ijtimoiy barqarorlik.

Zamonaviy globallashuv sharoitida milliy xavfsizlik konsepsiyasi faqat harbiy qudrat bilan emas, balki ijtimoiy barqarorlik, aholining iqtisodiy faolligi va inson kapitalining raqobatbardoshligi bilan belgilanadi. Xususan, harbiy xizmatchilar oilalarining farovonligi va ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlanishi mudofaa tizimi barqarorligining muhim tarkibiy qismidir. Chunki harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligi, xizmatga sadoqati va jangovar tayyorgarligi ko‘p jihatdan ularning oila a’zolari ijtimoiy himoyasining darajasiga bog‘liq.

Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, harbiy oilalar uchun bandlik imkoniyatlari to‘liq ishga solinmagan, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, professional qayta tayyorlash va moliyaviy instrumentlarga kirish imkoniyatlarini tizimli kengaytirish zarur. Shu bilan birga, zamonaviy mehnat bozori xorijiy til kompetensiyasini raqobatbardoshlikning asosiy omili sifatida ko‘rsatmoqda. Harbiy xizmatchilar farzandlarini xorijiy tillarga o‘qitish, xalqaro ta’lim dasturlariga jalb qilish va ta’lim diplomatiyasini rivojlantirish bo‘yicha institutsional mexanizmlar hali to‘liq shakllanmagan.

Bundan tashqari harbiy xizmatchilarning oila a’zolarini xalq hunarmandchiligiga jalb etish orqali ularning bandligini ta’minlash masalasi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilishi mumkin. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

2019-yil 28-noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4539-son qarori alohida ahamiyat kasb etadi[1].

Shu doirada harbiy xizmatchilarning turmush o‘rtoqlari va farzandlarini “Hunarmand” uyushmasiga a’zo etish, ularni “ustoz-shogird” an’anaviy tizimi asosida xalq hunarlariga – kashtachilik, kulolchilik, yog‘och o‘ymakorligi, gilamdo‘zlik va boshqa sohalarga jalb etish maqsadga muvofiq. Bunday tadbirlar nafaqat ish bilan ta’minlash va doimiy daromad manbaini shakllantirishga, balki milliy merosni saqlash va avloddan avlodga yetkazishga ham xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini-o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–4742-son qarori bilan o‘zini-o‘zi band qilish turlari kengaytirilgani mehnat bozorida yangi imkoniyatlar yaratdi, ayniqsa, harbiy xizmatchilar oilalari uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda mamlakatimizda o‘zini-o‘zi band qilgan shaxslar soni 5.5 million nafardan oshib ketgani qayd etilmoqda[2]. Harbiy xizmatchilar oilalari mazkur salohiyatdan to‘liq foydalana olishi mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish zarur. Mazkur

 ISSN 3030-3230

qarorning huquqiy-me’yoriy asoslari harbiy oila a’zolarini masofaviy mehnatga yoki shaxsiy tadbirkorlikka yo‘naltirish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu bilan birga, bu yo‘nalishdagi faoliyat ularning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlab, oila budjetiga barqaror qo‘shimcha daromad manbaini taqdim etadi.

Qurolli Kuchlar tizimida xizmat o‘tayotgan harbiylar ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to‘lanadigan boshqa faoliyat bilan, xususan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga cheklovlar mavjud[3].

Biroq ushbu cheklovlar faqat xizmat o‘tayotgan harbiy xizmatchilarning o‘ziga taalluqli bo‘lib, ularning oila a’zolariga nisbatan hech qanday to‘siq mavjud emas. Aksincha, turmush o‘rtoqlari va mehnatga layoqatli farzandlari tadbirkorlik, o‘zini-o‘zi band qilish yoki masofaviy mehnat bilan shug‘ullanish huquqidan to‘laqonli foydalanish imkoniyatiga ega. Bu holat ularning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash, oilaviy daromad manbaini kengaytirish hamda xizmatchi shaxsning ma’naviy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan hamkorlikda harbiy shaharchalar harbiy qism va muassasalarda o‘zini-o‘zi band qilishga ko‘maklashadigan komissiyalar maslahat kengashlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ular oila a’zolariga soliq imtiyozlari, ro‘yxatdan o‘tish jarayoni, huquqiy-me’yoriy asoslar va moliyaviy imkoniyatlar haqida batafsil ma’lumot berishi mumkin. Natijada qisqa muddat ichida ko‘plab harbiy oilalar o‘z bizneslarini yo‘lga qo‘yish yoki masofaviy mehnat bilan shug‘ullanish orqali qo‘shimcha daromad olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bizningcha, harbiy xizmatchilar oilalarini rasman ijtimoiy himoyaga muhtoj toifa sifatida tan olish masalasi huquqiy nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadda “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi[4] O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli qo‘shimchalar va o‘zgartishlar kiritish maqsadga muvofiqdir. Xususan, mazkur qonunning 38-moddasida aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari ro‘yxati kengaytirilib, unga muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan yoshlar, shuningdek, kontrakt asosida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar rotatsiya qilinganda ularning ishga muhtoj turmush o‘rtog‘i va mehnatga layoqatli farzandlari kiritilishi zarur. Bu orqali ularning ishga joylashishda birinchi navbatda ko‘mak olish huquqi qonuniy asosda kafolatlanadi.

Shuningdek, qonunda alohida 43[1]-moddani kiritish orqali harbiy xizmatchilar yangi xizmat joyiga o‘tkazilganda ularning oila a’zolarini mahalliy bandlik organlari tomonidan ishga joylashtirish, zarur hollarda esa ular uchun kasbga qayta tayyorlash yoki malaka oshirishning bepul dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunday huquqiy kafolatlar davlatning harbiy oilalar taqdiri uchun mas’uliyatini institusional asosda mustahkamlaydi.

Shu tariqa, O‘zbekistonda ham harbiy xizmatchilar oilalarini “ijtimoiy himoyaga muhtoj” toifa sifatida qonunchilik darajasida belgilash, ularning bandligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylanishi zarur. Bu nafaqat xizmat davomida, balki xizmat joyi almashganda ham oila daromadining uzluksizligini ta’minlaydi. Natijada, harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ruhiy barqarorligi mustahkamlanib, ularning xizmatga sadoqati va davlatga ishonchi yanada yuksaladi.

Globallashuv davrida xorijiy tillarni bilish – yosh avlodning raqobatbardoshligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy mehnat bozori va ilmiy-innovatsion jarayonlarda to‘laqonli ishtirok etish uchun til kompetensiyalariga ega bo‘lish zarur. Shu bois harbiy xizmatchilar farzandlari uchun xorijiy tillarni o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatida ustuvor vazifa sifatida qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir.

Bizningcha harbiy xizmatchilar farzandlari uchun xorijiy tillarni o‘rganish va chet elda ta’lim olishga ko‘maklashuvchi alohida institutsional mexanizmlarni joriy etish dolzarbdir.

Respublikamizdagi 8 ta oliy harbiy ta’lim muassasasi hamda 5 ta “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseylari huzurida harbiy xizmatchilar farzandlari uchun xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha maxsus bepul kurslar tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu chora, bir tomondan, harbiy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik imkoniyatlaridan samarali foydalanishga imkon yaratsa, ikkinchi tomondan, armiya va oila o‘rtasida ma’naviy hamkorlik va ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlaydi.

Oliy harbiy ta’lim muassasalarining British Council, Goethe-Institut, Russkiy sentr, Konfutsiy instituti, shuningdek, Partnership for Peace ta’lim dasturlari bilan ikki tomonlama memorandumlar imzolashi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday hamkorlik asosida harbiy xizmatchilar farzandlari zamonaviy til dasturlari va standartlaridan — Polyglot, Cambridge IELTS, CEFR, TRKI, HSK kabi nufuzli sertifikat dasturlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Mazkur tashabbusning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, xalqaro ta’lim markazlari bilan tuzilgan memorandumlar milliy ta’lim tizimida

qo‘llanilayotgan dasturlarni jahon standartlari bilan uyg‘unlashtirish imkonini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, harbiy xizmatchilar farzandlarining bilim va ko‘nikmalarini xalqaro andozalar asosida baholash, ularning akademik va kasbiy raqobatbardoshligini ta’minlash, shu bilan birga, mamlakat intellektual kapitalini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur hamkorlik oliy harbiy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va o‘quv-uslubiy imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishni ta’minlaydi, ta’lim jarayonida chet ellik mutaxassislarni jalb etishga, o‘quv jarayonlarini ikki tilli yoki ko‘p tilli muhitda tashkil etishga imkon beradi. Xalqaro sertifikat dasturlari orqali esa harbiy xizmatchilar farzandlari kelgusida nafaqat milliy, balki xorijiy ta’lim muassasalarida tahsil olish va mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida o‘z o‘rnini topish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xalqaro tajriba ham mazkur tashabbusning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Masalan, AQSH Mudofaa vazirligi o‘z harbiy xizmatchilari farzandlari uchun maxsus ta’lim tizimi – Department of Defense Education Activity (DoDEA) tarmog‘ini tashkil etgan. DoDEA hozirda 160 dan ortiq maktabni qamrab olgan bo‘lib, unda 67 mingdan ziyod harbiy farzandlar ta’lim oladi. Mazkur maktablar dasturida xorijiy tillarni o‘qitish alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan: o‘quvchilar arab, xitoy, koreys kabi tillarni chuqur o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lib, kamida ikki tilni tanlash imkoniyatiga ega.

Shu jihatdan qaraganda, O‘zbekistondagi harbiy akademik litsey va bilim yurtlari qoshida bepul til kurslarini yo‘lga qo‘yish milliy ta’lim tizimi imkoniyatlarini yanada samarali safarbar etadi. Bu tashabbus harbiy xizmatchilar farzandlariga sifatli til ta’limi olish imkoniyatini taqdim etish barobarida, ularning intellektual rivojlanishi, ijtimoiy integratsiyasi va mamlakatning global maydondagi inson kapitali salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, harbiy vazirlik va idoralar balansida mavjud bo‘sh binolardan samarali foydalanish orqali xorijiy tillar o‘qitishga ixtisoslashgan xususiy markazlarga ularni vaqtincha va tekin foydalanish huquqi asosida berish mumkin. Natijada, harbiy oilalar farzandlari uchun bepul yoki imtiyozli kurslar tashkil etilib, ularning xorijiy tillarni o‘rganish imkoniyatlari kengayadi. Bu yondashuv davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tamoyillariga mos keladi hamda moliyaviy jihatdan tejamkor yechim hisoblanadi, chunki davlat qo‘shimcha xarajat qilmasdan mavjud resurslarni samarali ishga soladi, xususiy sektor esa o‘z faoliyati doirasida qo‘shimcha ijtimoiy vazifani bajaradi.

K.A. Antonova DXShni – davlat va biznes o‘rtasida (davlat idoralari va xususiy tuzilmalar orasida) shartnoma asosida amalga oshiriluvchi institusional tashkiliy ittifoq deb ataydi[5].

Shuningdek, Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalarini “El-yurt umidi” jamg‘armasi bilan tizimli hamkorligini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Bu hamkorlik xorijiy til sertifikatiga ega bo‘lgan, xalqaro grant yoki stipendiya (Scholarship) yutgan harbiylar farzandlarini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Xususan, ularning hujjatlarini rasmiylashtirishda amaliy yordam ko‘rsatish, grant mablag‘larini o‘z vaqtida ajratish, xorijdagi ta’lim jarayonida ular bilan aloqani muvofiqlashtirish, xorijga yuborishda diplomatik va konsullik muassasalari orqali hujjatlarni rasmiylashtirishda ko‘maklashish kabi mexanizmlarni yaratish zarur. Bunday qo‘llab-quvvatlash tizimi harbiy oilalar farzandlari uchun xorijdagi nufuzli universitetlarda o‘qish imkoniyatlarini kengaytiradi, ularning ilmiy salohiyatini yuksaltiradi.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, harbiy xizmatchilar farzandlari xorijda ta’lim olishga intilar ekan, ular viza olish jarayonida jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida xorijiy davlatlarga yetarlicha ishonchli va to‘liq ma’lumot taqdim etilmasligi, shuningdek, ayrim hollarda axborotning to‘liq yetkazilmasligi oqibatida ularning rad javoblari olishi ko‘rsatilmoqda. Bu esa iqtidori yuqori bo‘lgan yoshlarning ta’lim imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda. Ayrim rivojlangan mamlakatlar xavfsizlik nuqtayi nazaridan harbiy oilalarning farzandlariga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashishi ham bu jarayonni murakkablashtirmoqda. Natijada, iste’dodli yoshlar xorijda o‘qish imkoniyatlaridan mahrum bo‘lishmoqda, bu esa ularning shaxsiy rivojlanishi va mamlakat kelajagiga ta’sir etmay qolmaydi.

Bunda, Qurolli Kuchlar tuzilmalari, “El-yurt umidi” jamg‘armasi va Tashqi ishlar vazirligi o‘zaro hamkorlik asosida xorijiy til sertifikatiga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilar oila a’zolarining chet elda ta’lim olishini amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi zarur. Mazkur qo‘llab-quvvatlash hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonini soddalashtirish, viza va migratsiya tartib-taomillarini tezlashtirish, xorijdagi ta’lim muassasalari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlikni kuchaytirish kabi mexanizmlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Masalan, memorandum tuzish orqali xorijda ta’lim olishni davom ettirayotgan yoki xalqaro grant (Scholarship) yutgan harbiy

xizmatchilar farzandlarini moddiy-ma’naviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha mexanizmni yaratish mumkin.

Yuqoridagi takliflar harbiy xizmatchilar oilalarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilishning yangi bosqichiga olib chiqishi mumkin. Bandlik sohasidagi qo‘shma qarorlar va qonunchilikka kiritiladigan o‘zgarishlar oila a’zolarining mehnat bozorida faol ishtirokini ta’minlaydi. Hunarmandchilik va o‘zini-o‘zi band qilish yo‘nalishlari orqali esa ularning iqtisodiy mustaqilligi kuchayadi. Shu bilan birga, xorijiy tillarni o‘qitishga qaratilgan tashabbuslar farzandlarning kelajakdagi raqobatbardoshligini ta’minlab, oilalarning ma’naviy qiymatini oshiradi.

Bu kabi kompleks chora-tadbirlar, milliy qonunchilik va xalqaro hamkorlik mexanizmlari asosida amalga oshirilsa, harbiy xizmatchilarning oila a’zolari nafaqat moddiy, balki ma’naviy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlanadi. Natijada, harbiy xizmatchilarning davlatga va jamiyatga bo‘lgan ishonchi, vatanparvarlik hissi va xizmatga sadoqati yanada mustahkamlanadi.

Аннотация. В статье проводится анализ комплексных механизмов поддержки семей военнослужащих в современных социально-экономических условиях. В частности, обосновывается необходимость совершенствования нормативно-правовой базы по расширению занятости семей военнослужащих через развитие народных ремёсел и самозанятости. Отмечается, что ограничения, связанные с прохождением военной службы, не должны препятствовать экономической активности членов семьи военнослужащего; напротив, супруг(а) и трудоспособные дети должны иметь возможность заниматься предпринимательством и дистанционной трудовой деятельностью. Нуждающейся в поддержке. Подчеркивается, что предлагаемые меры способствуют экономической независимости семей, повышению образовательной и конкурентной способности детей военнослужащих, а также укреплению морально-психологической устойчивости личного состава Вооружённых Сил.

Ключевые слова: семьи военнослужащих, социально-правовая защита, народные ремёсла, самозанятость, дистанционный труд, государственно-частное партнёрство, политика занятости, обучение иностранным языкам, международное сотрудничество, институциональные гарантии, военное образование, социальная стабильность.

Abstract. This article examines comprehensive mechanisms for supporting military families within contemporary socio-economic conditions. It argues for improving the legal framework to increase employment opportunities for military family members through traditional crafts and self-employment. The study emphasizes that service-related restrictions imposed on military personnel should not hinder the economic activity of their spouses and adult children; rather, they should be provided with opportunities for entrepreneurship and remote work. The proposed measures are expected to strengthen the economic independence of military families, enhance the academic and professional competitiveness of their children, and reinforce the moral-psychological stability of the Armed Forces’ personnel.

Key words: military families, social and legal protection, traditional crafts, self-employment, remote work, public-private partnership, employment policy, foreign language education, international cooperation, institutional guarantees, military education, social stability.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4539-son qarori. https://lex.uz/docs/4622088;

2. https://www.uzdaily.uz/en/over-55-million-self-employed-citizens-registered-in-uzbekistan;

3. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1008-son Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/-7242584;

4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-son Qonuni. https://lex.uz/docs/5055690;

5. Антонова К.А. Государственно-частное партнерство в регионах Российской Федерации: учебное пособие / Антонова К.А. — М.: Дело, 2010. С.120.

KONSTITUTSIYAVIY TAMOYILLAR VA INSON QADRI USTUVORLIGI KONTEKSTIDA HARBIY TIBBIYOT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING HUQUQIY VA TASHKILIY ASOSLARI

Djaydakbayev F.T.,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. **Mazkur maqolada Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan “inson qadri” tamoyilining harbiy tibbiyot tizimini modernizatsiya qilish jarayonidagi o‘rni va ahamiyati har tomonlama tahlil qilinadi. Inson manfaatlari ustuvorligini ta’minlovchi ijtimoiy davlat konsepsiyasi asosida harbiy xizmatchilarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish, tibbiy xizmatlardan teng foydalanish imkoniyatlari hamda davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy himoya choralari institutsional va huquqiy nuqtai nazardan o‘rganilgan.**

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, inson qadri, ijtimoiy davlat, harbiy tibbiyot, tibbiy kafolatlar, harbiy xizmatchilar, sog‘liqni saqlash tizimi, raqamlashtirish, davlat-xususiy sheriklik, tibbiy xizmatlar, pediatriya, ijtimoiy adolat, harbiy ijtimoiy himoya, sanatoriy-kurort ta’minoti.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida mamlakatimiz “O‘zbekiston - boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” ekani qat’iy belgilab qo‘yilgan. Ushbu norma nafaqat davlat boshqaruvi va jamiyat hayotining asosiy yo‘nalishini belgilaydi, balki inson qadri, sha’ni va huquqlarini himoya qilishni davlat siyosatining markaziga qo‘yadi. Ijtimoiy davlat modelida inson manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etilib, davlat fuqarolarning munosib hayoti va farovonligini ta’minlash uchun mas’ul subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: **“**Xalqimizning sog‘lig‘i, onalar va bolalar, nuroniylarning salomatligi hech narsa bilan o‘lchanmaydigan eng bebaho boyligimizdir. Shuning uchun, islohotlarimizning bosh mezoni bo‘lgan “Inson qadri uchun” tamoyilining muhim bo‘g‘inlaridan biri ham – barcha uchun, sifatli tibbiy xizmatlar olishga imkoniyat va shart-sharoitlar yaratishdan iborat**” [1]**. Bu yondashuv mamlakatda inson salomatligini himoya qilish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish hamda har bir fuqaroning tibbiy xizmatlardan teng foydalanish huquqini kafolatlash yo‘lidagi sa’y-harakatlarning ideologik asosini tashkil etadi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham inson manfaatlari, ijtimoiy adolat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Mazkur strategik hujjatda “inson qadrini yuksaltirish” g‘oyasi barcha islohotlarning markaziga qo‘yilib, mamlakatda ijtimoiy soha, jumladan, sog‘liqni saqlash tizimini tubdan yangilash vazifasi ilgari surilgan.

Shuningdek, **“O‘zbekiston-2030” strategiyasi** doirasida sog‘liqni saqlash tizimini izchil rivojlantirish, uni raqamlashtirish, tibbiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, profilaktik xizmatlar qamrovini kengaytirish va ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish vazifalari belgilangan. Ushbu maqsadlar uchun 7 trillion so‘mdan ortiq mablag‘ ajratilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bu mamlakatda sog‘lom jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkamlangan “ijtimoiy davlat” tamoyilining amaliy ifodasidir. U inson sog‘lig‘ini muhofaza qilish, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda “inson qadri hamma uchun teng” g‘oyasini hayotga izchil tatbiq etishga yo‘naltirilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar avvalo inson salomatligi, uning farovonligi va oilasi uchun kafolatlangan imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi ham Yangi O‘zbekiston strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 5-yo‘nalishi (“Inson kapitalini rivojlantirish”) doirasida quyidagi vazifalar belgilangan:

- tibbiy xizmatlarni raqamlashtirish va sifatli tibbiy yordamni aholining barcha qatlamlariga yetkazish;
- tibbiy muassasalar infratuzilmasini

 ISSN 3030-3230

yangilash hamda qishloq vrachlik punktlari sonini ko‘paytirish;

- tibbiy xizmatlarning moliyalashtirish hajmini bosqichma-bosqich oshirish va har bir fuqaro uchun teng imkoniyat yaratish.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi uch yil ichida mamlakat bo‘ylab 1 200 dan ortiq qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalar qurilib yoki kapital ta’mirlandi. Tibbiyot sohasiga ajratilayotgan davlat mablag‘lari 2021-yilga nisbatan 2,8 barobarga oshdi, shoshilinch tibbiy yordam xizmati avtoparki esa 1500 dan ziyod yangi sanitar mashinalar bilan yangilandi.

Bundan tashqari, 231 ta tibbiyot obyektida qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi, davlat-xususiy sheriklik asosida 434 ta yangi xususiy klinika tashkil etildi, shulardan 18 tasi xorijiy sarmoya hissasi bilan faoliyat boshladi. Sohaga 12,1 trillion so‘m ajratilib, tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish hajmi yil sayin ortib bormoqda.

Sog‘liqni saqlash tizimida zamonaviy texnologiyalar va raqamli hisob tizimlari joriy etilishi natijasida axborot platformalari orqali aholining tibbiy yordamdan foydalanish ko‘rsatkichi 65 foizdan 87 foizga yetdi. Bu islohotlar aholining tibbiy xizmatdan qoniqish darajasini oshirish bilan birga, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun ham sog‘liqni saqlash imkoniyatlarini kengaytirishga zamin yaratdi [2].

Bu jarayonda harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari ham davlatning sog‘liqni saqlash siyosati doirasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan chetda qolmayotgani alohida ta’kidga loyiq. Xususan, harbiy tibbiyot tizimini zamon talablariga mos ravishda yangilash va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar tasarrufidagi harbiy gospitallar (poliklinika va tibbiyot punktlari) kapital rekonstruksiya qilindi va zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali (2023 yil), Samarqand, Farg‘ona va Termiz garnizon harbiy gospitallarida (2024-2025 y.y.) tub yangilanish ishlari amalga oshirildi: yangi laboratoriya uskunalari, diagnostika tomograflari va reabilitatsiya bloklari o‘rnatildi. Shu bilan birga, harbiy garnizonlarda sanitariya-gigiyena infratuzilmasi yangilanib, tibbiy yordam tizimi raqamli boshqaruv asosida qayta tashkil etilmoqda.

Bundan tashqari, harbiy xizmatchilarning sog‘lig‘ini tiklash va profilaktik choralarni kuchaytirish maqsadida sanatoriy-kurort muassasalarini texnik va moddiy jihatdan quvvatlash, davolash dasturlarini yangilash hamda davolanish yo‘llanmalarini raqamli tarzda taqsimlash tizimi joriy etilmoqda. Masalan, “Burchmulla”, “Oqtosh”, “Zomin”, “Xorazm” va “Qumqo‘rg‘on” harbiy sanatoriylari so‘nggi ikki yil ichida tub modernizatsiyadan o‘tkazildi. Bu ishlar harbiy tibbiyot tizimining institutsional salohiyatini oshirish bilan birga, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga ko‘rsatilayotgan tibbiy yordamni hududlar kesimida barqaror va adolatli ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari sog‘lig‘ini muhofaza qilish bo‘yicha davlat kafolatlarini aniq tartibda belgilab qo‘yildi. Xususan, **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-son qarori** bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizom” hamda **Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-iyundagi 352-son qaroriga** muvofiq, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari tibbiy va sanatoriy-kurort ta’minotidan belgilangan tartib, shart va me’yorlarga asosan **bepul yoki imtiyozli asosda** foydalanish huquqiga ega bo‘ldilar [3].

Nizomlarda aniq belgilab qo‘yilganidek, harbiy xizmatchilar va ularning tibbiy muassasalarda davolanish huquqiga ega oila a’zolari o‘z xizmat joyi bo‘yicha biriktirilgan harbiy-tibbiy muassasalarda davolanadilar. Shuningdek, harbiy pensionerlar va ularning oila a’zolari doimiy yashash hududidagi harbiy-tibbiy muassasalarda tegishli ma’lumotnoma asosida bepul yoki imtiyozli tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatiga ega.

Bundan tashqari, xizmat safari yoki ta’tilda bo‘lgan harbiy xizmatchilarga ular vaqtincha bo‘lib turgan hududdagi harbiy-tibbiy muassasalarda tibbiy yordam ko‘rsatish huquqi kafolatlangan. Shu bilan birga, **O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy-tibbiy muassasalari**da Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya va Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari hamda ularning katta ofitserlar tarkibiga mansub oila a’zolari statsionar va ambulator sharoitda belgilangan shartnomalar asosida tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

Bu normalarning joriy etilishi harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun tibbiy ta’minot sohasidagi davlat kafolatlarini huquqiy jihatdan mustahkamladi hamda ularning sog‘lig‘ini muhofaza qilishni milliy sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas qismi sifatida e’tirof etdi.

Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikda

katta ofitserlar tarkibi va ularning oila a’zolari uchun tibbiy xizmat ko‘rsatish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Ular davlatning maxsus ijtimoiy himoya toifasi sifatida belgilanib, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy-tibbiy muassasalarida, shuningdek, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya va Davlat xavfsizlik xizmati tizimidagi muassasalarda statsionar va ambulator sharoitda bepul yoki imtiyozli asosda tibbiy yordam olish huquqiga ega. Bu huquq ularning oila a’zolariga (turmush o‘rtoqlari, o‘n sakkiz yoshga to‘lmasidan nogiron bo‘lib qolgan farzandlari, shuningdek, kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan yigirma uch yoshgacha bo‘lgan farzandlariga) ham tatbiq etiladi. Bunday huquqiy norma katta ofitserlar xizmatining davlat xavfsizligi va mudofaa tizimidagi alohida ahamiyatini hisobga olgan holda, ular va oilalarining sog‘lig‘ini muhofaza qilishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilaydi.

Shu bilan birgalikda, amaldagi me’yoriy hujjatlar harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun tibbiy ta’minot va sanatoriy-kurort xizmatlaridan bepul yoki imtiyozli asosda foydalanish huquqini kafolatlagan bo‘lsa-da, amaliyotda ushbu normalarning to‘liq ijrosini ta’minlashda bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Birinchidan, harbiy gospitallarda katta ofitserlar va ularning oila a’zolari uchun mo‘ljallangan statsionar va ambulator xizmatlar doimiy faoliyat yuritayotgan bo‘lsa-da, ularning balog‘atga yetmagan farzandlariga tibbiy yordam ko‘rsatuvchi yuqori malakali mutaxassislar - pediatr, nevropatolog, immunolog va bolalar psixologlari yo‘qligi kuzatilmoqda. Bu holat harbiy xizmatchilar farzandlarining tibbiy xizmatdan to‘liq va uzluksiz foydalanish imkoniyatini cheklab, amalda “oila a’zolariga bepul tibbiy yordam ko‘rsatish” normasining to‘liq amalga oshmasligiga sabab bo‘lmoqda.

Bugungi kunda Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiy gospitallar, poliklinikalar va tibbiyot punktlarida bolalar bo‘limlari umuman mavjud emas, bu esa harbiy xizmatchilar oilalaridagi yosh bolalarni maxsus tibbiy kuzatuv va profilaktikadan chiqarib qo‘ygan. Bolalar uchun zarur dori vositalari, logoped yoki reabilitolog xizmatlari yo‘qligi sababli, harbiy oilalar farzandlarini davlat va xususiy tibbiyot muassasalarida muolaja ko‘rsatishga majbur bo‘lmoqda. Bu holat esa davlat tomonidan belgilangan “bepul tibbiy ta’minot” kafolatining amalda cheklanishiga olib kelmoqda.

Xususan, mazkur yo‘nalishda o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning 63,4 foizi harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimida bolalarga mo‘ljallangan ixtisoslashgan xizmatlar mavjud emasligini, 58,7 foiz ishtirokchilar farzandlarini davlat yoki xususiy shifoxonalarda davolatishga majbur ekanligini, 71,2 foizi harbiy tibbiy muassasalarda yosh bolalarni davolaydigan mutaxassislar yetishmasligini bildirishgan [4].

Ikkinchidan, amaldagi huquqiy normalarga muvofiq bepul tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq imtiyozlar asosan katta ofitserlar tarkibiga tatbiq etilayotgan bo‘lib, serjantlar va kichik ofitserlar tarkibi uchun bu kafolatlar amaliyotda chegaralangan yoki to‘liq ta’minlanmayotgani kuzatilmoqda. Bu holat amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi bo‘lgan tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillariga zid holatni yuzaga keltiradi.

Harbiy xizmatning mazmuni va mas’uliyati harbiy lavozim va harbiy unvon bilan belgilansada, uning mohiyati - vatan xavfsizligini ta’minlash, fuqarolar tinchligini saqlash va jamiyat barqarorligiga hissa qo‘shishda barcha toifadagi xizmatchilarning teng fidoyiligi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, tibbiy ta’minot va ijtimoiy kafolatlardagi farqlar harbiy xizmatning bir butun maqsadi va ruhiyatiga zid holatni yuzaga keltiradi.

Natijada, serjantlar va kichik ofitserlar tarkibida davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan ijtimoiy g‘amxo‘rlik va tibbiy kafolatlar sohasidagi **nomutanosiblik va adolat mezonlarining to‘liq ta’minlanmayotgani haqidagi ichki qarashlar** shakllanishi mumkin. Bu holat o‘z navbatida harbiy jamoalardagi **birdamlik muhiti, xizmat motivatsiyasi va umumiy intizom darajasiga** ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimolini oshiradi.

“Inson qadri uchun” tamoyili ustuvor bo‘lgan Konstitutsiya - har bir fuqaroning, jumladan harbiy xizmatchining huquq va erkinliklarini ta’minlovchi oliy huquqiy poydevordir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning asosiy g‘oyasi - insonning qadri, sha’ni va huquqlarini davlat siyosati markaziga qo‘yishdir. Unda “insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir” degan qoida mustahkam o‘rin olgan bo‘lib, bu yangi O‘zbekistonning barcha sohalarda, jumladan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi va sog‘lig‘ini muhofaza qilishda ham asosiy mezon bo‘lib xizmat qilmoqda. Konstitutsiyada belgilangan “insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsiz”, “hech narsa insonning qadr-qimmatini kamsitish uchun asos bo‘la olmaydi” hamda “har bir inson o‘z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega” degan normalar davlatning inson manfaatlariga yo‘naltirilgan siyosiy va huquqiy yo‘lini aniq belgilab beradi

ISSN 3030-3230

[5]. Bu normalar harbiy xizmatchilarga ham to‘liq taalluqli bo‘lib, ularning sog‘lig‘ini muhofaza qilish, tibbiy ta’minot va ijtimoiy kafolatlar sohasida adolat, tenglik va insoniy munosabat tamoyillarini ta’minlashni davlatning ustuvor vazifasi sifatida belgilaydi. Shu ma’noda, “inson qadri hamma uchun teng” degan tamoyil nafaqat fuqarolik jamiyatining asosi, balki harbiy xizmat tizimida ham ijtimoiy barqarorlik, ishonch va fidoyilik muhitini yaratishga qaratilgan konstitutsion kafolat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, “inson qadri hamma uchun teng” tamoyili asosida harbiy xizmatchilarning barcha toifalari uchun tibbiy ta’minot va ijtimoiy kafolatlarning bir xil darajada amal qilishi - davlat ijtimoiy siyosatining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga tibbiy yordam ko‘rsatish tizimida qator ijtimoiy-tashkiliy va huquqiy muammolar saqlanib qolmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish davlatning “inson qadri hamma uchun teng” tamoyilini amalda ta’minlash, harbiy xizmatchilarning sog‘lig‘ini muhofaza qilishda institutsional mexanizmlarni mustahkamlashni taqozo etadi. Shu asosda quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar tasarrufidagi harbiy tibbiy muassasalar tarkibida **bolalar uchun alohida pediatriya bo‘limlari, reabilitatsiya va psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish** zarur. Bu orqali harbiy xizmatchilarning yosh farzandlari **davlat va xususiy tibbiy muassasalarga pulli xizmat uchun murojaat qilishga majbur bo‘lmasdan**, o‘z xizmat tizimi doirasida **bepul va sifatli tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi**. Bu chora harbiy oilalarning ijtimoiy barqarorligini ta’minlash hamda davlat tomonidan berilgan tibbiy kafolatlarni amalda to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

2. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun **yagona elektron tibbiy reestr va raqamli monitoring tizimini joriy etish** zarur. Bu tizim orqali har bir xizmatchi va uning oila a’zolarining tibbiy ma’lumotlari, kasallik tarixi, profilaktik ko‘rik natijalari hamda sanatoriy-kurort yo‘llanmalari yagona ma’lumotlar bazasida yuritiladi. Mazkur reestr harbiy tibbiy muassasalarda ko‘rsatilayotgan xizmatlarning **shaffofligini ta’minlab**, davlat va xususiy tibbiy muassasalar bilan ma’lumot almashinuvini **raqamli asosda muvofiqlashtirish imkonini yaratadi**. Natijada, tibbiy yordamning uzluksizligi, hisobdorlik va xizmat ko‘rsatishning adolatli tizimi ta’minlanadi.

3. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun **davlat va xususiy tibbiy muassasalar bilan hamkorlikda davolanish tizimini huquqiy jihatdan takomillashtirish** lozim. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-iyundagi **352-son qarori** (11-12-bandlar) da belgilangan normalardan kelib chiqib, harbiy tibbiy muassasalar bilan davlat va xususiy tibbiyot tashkilotlari o‘rtasida **yo‘llanma va shartnoma asosida integratsiyalashgan hamkorlik mexanizmlarini** yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Bu mexanizm harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga zarur mutaxassis yoki tibbiy uskuna mavjud bo‘lmagan holatlarda **davlat va xususiy klinikalarda bepul yoki imtiyozli asosda davolanish imkoniyatini** yaratadi. Sarf-xarajatlar esa belgilangan tartibda harbiy-tibbiy muassasalar budjeti orqali qoplanib, sog‘liqni saqlash tizimidagi davlat-xususiy hamkorlikning samaradorligi va qamrovi yanada kengayadi.

4. Harbiy xizmatchilarning barcha toifalari - **yuqori rahbariyatdan tortib serjant va kichik ofitserlargacha** - nisbatan **teng tibbiy kafolat va imtiyozlar tizimini huquqiy jihatdan mustahkamlash** zarur. Buning uchun amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarga, jumladan, **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-son qarori** (“O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizom”) va **Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-iyundagi 352-son qarori** (“Qurolli Kuchlarda tibbiy va sanatoriy-kurort ta’minotini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom”)ga **harbiy xizmatning barcha darajalariga teng tibbiy xizmat ko‘rsatish va kafolatlar normalarini kiritish** maqsadga muvofiq.

Bu chora faqat katta ofitserlar tarkibiga emas, balki **25 yil va undan ortiq xizmat stajiga ega bo‘lgan kichik ofitserlar hamda serjantlar tarkibiga ham mos ravishda**, ularning xizmat tavakkalchiligi va mas’uliyati darajasidan kelib chiqib, **davlat tibbiy kafolatlaridan to‘liq va adolatli foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi**.

Ushbu choralar nafaqat harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarining sog‘lig‘ini muhofaza qilishda sifat o‘zgarishlarini ta’minlaydi, balki harbiy xizmatning nufuzi va jozibadorligini oshirish, shaxsiy tarkibdagi ishonch, sadoqat va mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada, harbiy jamoalarda ijtimoiy adolat va barqarorlik muhiti shakllanib, xizmat intizomi, ichki birdamlik va fidoyilik darajasi yangi bosqichga ko‘tariladi.

Harbiy tibbiyot tizimining samarali faoliyati nafaqat sog‘liqni saqlash sohasi, balki davlat xavfsizligi, milliy barqarorlik va jamoat ishonchining muhim ustuni hisoblanadi.

Zero, inson salomatligi - mamlakat mudofaa salohiyatining asosiy kafolatidir. Shu nuqtai nazardan, harbiy xizmatchilar uchun to‘liq, teng va zamonaviy tibbiy ta’minotni ta’minlash - faqat ijtimoiy islohot emas, balki strategik milliy vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, harbiy tibbiyot tizimini inson qadrini ustuvor qiymat sifatida e’tirof etuvchi, raqamli texnologiyalar, shaffof boshqaruv, adolat va tenglik tamoyillariga asoslangan integratsiyalashgan model asosida rivojlantirish - Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy siyosatini amaliy mazmun bilan to‘ldiruvchi, harbiy xizmatchilarning hayoti va sog‘lig‘ini ishonchli muhofaza qiluvchi, davlat xavfsizligini ta’minlashda inson kapitali omillarini kuchaytiruvchi asosiy yo‘nalishdir.

Bunday tizimning shakllanishi harbiy xizmatchining nafaqat davlat himoyasidagi fidoyi shaxs, balki inson sifatida ham e’tirof etilishiga zamin yaratadi. Bu, o‘z navbatida, Yangi O‘zbekistonning “inson qadri uchun” tamoyilining amaliy ifodasiga aylanib, harbiy xizmat tizimida adolat, tenglik va insonparvarlik g‘oyalarining ustuvorligini mustahkamlaydi.

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируется роль и значение принципа «ценность человека», закреплённого в новой редакции Конституции Республики Узбекистан, в процессе модернизации системы военной медицины. На основе концепции социального государства, обеспечивающего приоритет интересов человека, изучены вопросы охраны здоровья военнослужащих, равного доступа к медицинским услугам, а также институциональные и правовые аспекты государственных гарантий социальной защиты.

Ключевые слова: Конституция, ценность человека, социальное государство, военная медицина, медицинские гарантии, военнослужащие, система здравоохранения, цифровизация, государственно-частное партнёрство, медицинские услуги, педиатрия, социальная справедливость, военная социальная защита, санаторно-курортное обеспечение.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the role and significance of the principle of “human dignity,” enshrined in the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, in the modernization of the military healthcare system. Within the framework of the concept of a social state that prioritizes human interests, the issues of protecting the health of military personnel, ensuring equal access to medical services, and the institutional and legal aspects of state-guaranteed social protection measures are examined.

Key words: Constitution, human dignity, social state, military medicine, medical guarantees, military personnel, healthcare system, digitalization, public–private partnership, medical services, pediatrics, social justice, military social protection, sanatorium-resort provision.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Sh.Mirziyoyevнинг raisligida tibbiyot sohasidagi dolzarb masalalar bo‘yicha ўтказилган videoselektor yig‘ilishidаги нутқидан, https://old.gov.uz
2. Sog‘liqni saqlash vazirligi ma’lumoti “Sog‘liqni saqlash sohasida qanday o‘zgarishlar yuz berdi”, Xalq so‘zi gazetasi, 2023 yil
3. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.06.2024 y., 09/24/352/0444-son, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019 y., 07/19/4447/3747-son; 07.03.2020 y., 07/20/4630/0266-son; 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son; 24.03.2021 y., 07/21/5035/0228-son; 20.05.2021 y., 06/21/6230/0473-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.08.2021 y., 06/21/6274/0766-son, 08.10.2021 y., 06/21/6320/0940-son, 09.11.2021 y., 06/21/3/1037-son, 30.11.2021 y., 06/21/26/1111-son, 20.04.2022 y., 06/22/112/0326-son, 25.08.2022 y., 07/22/362/0779-son; 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son; 05.08.2023 y., 07/23/259/0563-son; 22.08.2024 y., 07/24/296/0640-son; 24.01.2025 y., 07/25/21/0070-son; 25.02.2025 y., 07/25/71/0178-son, https://lex.uz
4. Ijtimoiy so‘rovnomada 986 nafar respondent ishtirok etgan.
5. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son, https://lex.uz

KONSTITUTSIYA VA QONUNLAR USTUVORLIGI, JAMIYAT XAVFSIZLIGINI BARQAROR TA’MINLASHNING HUQUQIY ASOSIDIR

Haydarov Alisher Usmon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Konstitutsiyasining fuqarolar huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi o‘rni, mamlakatimiz qonunchiligini tashkil etishdagi ahamiyati keltirilgan. Shuningdek, jamiyat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolarning qonuniylikni ta’minlashi Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi ilmiy ravishda tadqiq qilinib, uning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, xavfsizlik, jamiyat xavfsizligi, qonunlarning ustunligi, ijtimoiy munosabatlar, huquq ustuvorligi, huquqiy normalar, jonli huquq nazariyasi.

Mamlakatimizda 2023-yil Yangilangan Konstitutsiya xalqimiz muhokamasidan o‘tib tasdiqlandi. 2023-yil 9-iyul kuni Prezidentlik saylovlari barcha saylov qonunchiligi talablari asosida o‘tib, xalqimizning yana bir karra demokratik, huquqiy islohotlarga xayrixohligini tasdiqladi.

2023-yil 11-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №158-son Farmoni [1] bilan xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi tasdiqlandi.

Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni huquq normalari bilan tartibga soluvchi bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud bo‘lib, ular mazmun-mohiyatiga, sohalariga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Ana shunday huquq sohalari orasida konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning o‘rni beqiyos. Zero, konstitutsiyaviy-huquqiy normalar jamiyatdagi eng muhim bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Mamlakatimizda barcha qonunlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid bo‘lishi mumkin emas. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga egaligi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishi Asosiy qonunda mustahkamlab qo‘yilgan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, konstitutsiyaviy-huquqiy normalar boshqa huquq tizimlarining doimiy ravishda rivojlanib borishini, takomillashuvini ta’minlaydi. Pirovardida konstitutsiyaviy-huquqiy normalar jamiyatda qonuniylik, adolat, tenglik, demokratik tamoyillarning samarali amalga oshirilishiga, jamiyatning umumiy farovonligi va taraqqiyotiga hissa qo‘shadi.

Ma’lumki, Asosiy qonunimizda qayd etilganidek O‘zbekiston huquqiy davlat hisoblanib, fuqarolarning huquqlari, qonuniy manfaatlari huquq normalari bilan kafolatlanadi hamda ijtimoiy munosabatlar qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi. Demokratik huquqiy davlatni barpo etishning eng muhim omili bu qonun ustuvorligini ta’minlashdir. Zero, qonun ustuvor bo‘lgan davlatda fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat manfaatlari ta’minlanadi. Bu orqali esa farovon jamiyat va davlatni qurish mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida “Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – farovon hayot garovi” degan fikrlari ham bugungi kunda qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha muhim amaliy ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Ta’kidlash joizki, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun ham hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida mehnat qilayotgan insonlar, birinchi navbatda, mansabdor shaxslar Konstitutsiya va qonunlarni puxta bilishi, ularning ijrosini to‘g‘ri

tashkil etishi, bu qoidalarga butun jamiyat a’zolari qat’iy amal qilishi shart bo‘lgan muhitni yaratish g‘oyat muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi. Buning huquqiy asosini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 3-bobida belgilangan normalarda ham ko‘rish mumkin. Ushbu bob Konstitutsiya va qonunning ustunligiga bag‘ishlangan bo‘lib, unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. Ya’ni O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid bo‘lishi mumkin emas. F.Raximov ta’kidlab o‘tganidek, “Konstitutsiyaviy normalar, unda belgilangan qoidalar, prinsiplar mamlakat huquqiy bazasini tashkil etadi” [2]. Darhaqiqat, yuridik adabiyotlarda qayd etib o‘tilganidek, “Konstitutsiya, avvalo, yuridik mazmun va mohiyatga ega bo‘lgan hujjatdir. U davlatning Asosiy qonuni sifatida butun huquqiy va qonunchilik tizimlarining o‘zagini tashkil etadi, huquqiy tizim harakatlanishining ustuvor prinsiplarini belgilaydi. Shu sababli barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiyaga muvofiq chiqarilishi lozim bo‘ladi” [3]. Yuridik adabiyotlarda huquqshunos olimlarning ilmiy qarashlarida huquq ustuvorligi **(ingliztilida“ruleoflaw”)** hamda qonun ustuvorligi kabi tushunchalar ilgari suriladi. Darhaqiqat, huquq ustuvorligi hamda qonun ustuvorligi bir-biridan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Jumladan, huquq ustuvorligi qonun ustuvorligiga qaraganda kengroq tushuncha bo‘lib, huquq ustuvorligini ta’minlash maqsadida me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinadi. Jumladan, huquq ustuvorligi o‘zida bir qator xususiyatlarni mujassam etib, ular qonun hujjatlariga rioya qilinishi, fuqarolar huquq va erkinliklarining ta’minlanishi, odil sudlov va sud qarorlarining ijro etilishi, huquq-tartibot o‘rnatilganligi va xavfsizlikning ta’minlanganligi, mahalliy ijro organlari faoliyatining samarali nazorat qilinishi, korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligi, hokimiyat institutlarining shaffofligi va boshqa shu kabilarni qamrab oladi.

Qayd etish lozimki, barcha ijtimoiy munosabatlar qonunchilik normalari bilan tartibga solinmasligi mumkin. Shu bois huquq ustuvorligining ta’minlanishi har bir demokratik jamiyatning eng asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham huquq ustuvorligini ta’minlash borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Mamlakatimizda inson huquqlarini ishonchli himoya qilish, huquq ustuvorligi va qonuniylikni ta’minlash, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining ijrosini tashkil etish holatini o‘rganish, baholash va aniqlangan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, hududlarning huquq ustuvorligi indeksini aniqlash bo‘yicha **“Huquq ustuvorligi”** avtomatlashtirilgan axborot tizimi yaratildi. Jahonda Huquq ustuvorligi indeksi (Rule of law, World Justice Project) ham yuritiladi.

Umumiy qilib aytganda, qonun ustuvorligi mamlakatimiz qonunchiligida belgilangan normalarga og‘ishmay amal qilish, uning ijrosini so‘zsiz ta’minlash bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni anglatadi. Huquq ustuvorligi esa inson huquqlarini ta’minlash faqatgina yozilgan qonunlar bilan emas, balki davlat tomonidan amalga oshiriladigan boshqa chora-tadbirlar asosida ta’minlanadi.

Shuningdek, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash bir nechta usullar orqali amalga oshirilishi mumkin. Xususan, huquqiy ong va huquqiy madaniyat rivojlangan jamiyatda qonun ustuvorligi mukammal ta’minlanadi. Bundan tashqari, Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga erishishda davlat idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish, mustaqil va xolis ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash, fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish, shuningdek, davlat idoralari faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va hisobdorlik tamoyillarini kuchaytirish kabilar ham jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashning asosiy usullaridan hisoblanadi.

Shu bilan birga, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta’minlashda bevosita vakolatli dav-lat organlarining o‘rni muhimdir. Bu borada prokuratura organlariga eng muhim va mas’uliyatli vazifalar topshirilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta’minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iboratdir. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning prokuratura organlari xodimlari kuni munosabati bilan prokuratura organlari

ISSN 3030-3230

xodimlari va faxriylariga yo‘llagan murojaatida “Mamlakatimizda **“Qonun – ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar”** degan ezgu tamoyil asosida qonuniylikni ta’minlash borasidagi ishlarimiz hal qiluvchi bosqichga kirayotgan hozirgi vaqtda har bir prokuratura xodimi bir haqiqatni chuqur anglab etishi zarur. Qonun hukmron bo‘lgan jamiyatda albatta adolat, siyosiy-ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish va yuksalish bo‘ladi, inson qadri, huquq va manfaatlari ta’minlanadi” [4] deb bildirgan fikrlari ham nafaqat prokuratura organlarining, balki boshqa vakolatli davlat idoralarining ham qonun ustuvorligini ta’minlash sohasidagi mas’uliyati yuqori ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan bir qatorda, me’yoriy-huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topayotgan normalar qachonki amalda ham to‘laligicha o‘z aksini topsa, ijrosi ta’minlansa, shundagina jamiyatimizda qonun ustuvorligi yuqori darajada ta’minlanishi mumkin.

Bu borada mashhur sotsiologik huquq maktabi vakili Erlix Oygenning [5] amalda o‘z ifodasini topuvchi qonunlarning jamiyatda tutuvchi o‘rnini bayon qiluvchi **“jonli huquq” (“living law”)** nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko‘ra, huquqning haqiqiy manbasi bu qonunlar emas, balki jamiyatdagi mavjud barcha ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. E.Oygen tomonidan yaratilgan “jonli huquq” nazariyasiga asosan jamiyat hayotida haqiqiy hukmronlik qiladigan hamda jamiyat tomonidan tan olingan qonunlar jonli qonunlar sifatida baholanadi. Ushbu nazariyalardan kelib chiqqan holda aytish joizki, jamiyat hayotida o‘z ifodasini topuvchi, jamiyat irodasini aks ettiruvchi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qonunlar yaratilishi, bu orqali ularning ijrosini ta’minlash bilan qonun ustuvorligini ta’minlash zarur.

Bundan tashqari, jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi shunday qonunlar, normalar borki, ular haqiqatdan ham o‘z funksiyasini bajaradi. Ya’ni o‘z sohasidagi mavjud munosabatlarni tartibga soladi. Yana shunday qonunchilik normalari borki, ular faqatgina me’yoriy-huquqiy hujjatlarda bayon etilgan bo‘lib, amalda o‘z ifodasini, ijrosini to‘laqonli namoyon etmaydi. Xususan, Rosko Paundning 1910-yilda chop etilgan **“Kitoblardagi qonunlar va harakatdagi qonunlar”** maqolasida qonunlarning matnda qanday ko‘rinishi va ularning real hayotda qanday qo‘llanishi o‘rtasidagi farqni ko‘rsatib berilgan.

Fikrimizcha, qonun chiqaruvchi tomonidan ma’lum sohani, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilishda, albatta, amalda ishlovchi normalarni yaratish maqsadga muvofiq. Bu qoidalarni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Qachon odamlarimiz hayotida xotirjamlik, ro‘zg‘orida farovonlik va halovat bo‘ladi, qachon ularda ertangi kunga ishonch ortadi? Qachonki, yurtimizda qonunlar qog‘ozda emas, balki amalda qat’iy bajarilgan, islohotlar har bir xonadon, har bir mahallaga kirib, yurtdoshlarimiz ularning amaliy samarasini o‘z kundalik hayotida his etgan taqdirda bu maqsadga to‘la erishish mumkin” degan fikrlaridan ham bilish mumkin [6]. Qayd etish lozimki, u yoki bu ijtimoiy munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari tomonidan tartibga solingan bo‘lib, hozirda ularning soni beqiyos. Bunda esa O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muhim ahamiyat kasb etib, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar uchun birlamchi asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois yangi tahrirda qabul qilingan mamlakatimiz Konstitutsiyasining jamiyat hayotidagi o‘rni muhimdir. Shu jihatdan olib qaraganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. Masalan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emasligi, uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo‘yishni va ko‘zdan kechirishni o‘tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo‘l qo‘yilishi, shuningdek uy-joyda tintuv o‘tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yilishi belgilangan. Amaldagi O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida esa olib qo‘yish yoki tintuv surishtiruvchi yoki tergovchining qarori yoxud sudning ajrimiga ko‘ra o‘tkazilishi belgilangan. Shunday bo‘lsa-da, hozirda yuqorida qayd etib o‘tilgan Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega ekanligini, uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi kabi qoidalarni asos qilgan holda tintuv tergov harakatlarini amalga oshirishda Asosiy qonunimiz normalari amal qiladi.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimiz huquqiy tizimining bir qismi sifatida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini ham qayd etish mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning to‘laqonli subyekti hisoblanib, mamlakatimiz taraqqiyoti, fuqarolarimizning eng ustun manfaatlarini ta’minlash maqsadida bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qilib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi milliy huquqiy tizimimizning bir qismi ekan, agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining

xalqaro shartnomasi qoidalari qo‘llaniladi.

Shuningdek, davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar. Bu davlat idoralarini tashkil etish, ularning faoliyatini amalga oshirishda qonuniylik prinsipining amalda o‘z ifodasini topishini anglatadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunida, bundan tashqari, boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ham qonuniylik prinsipi o‘z aksini topganligini ko‘rish mumkin. E’tirof etish lozimki, yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Shuningdek, inson huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishda Konstitutsiyaning o‘rni beqiyos.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo‘lishi mumkin emas. Darhaqiqat, Konstitutsiyamizda mustahkamlangan asosiy prinsiplar mamlakatimiz qonunchiligining mazmun-mohiyatini belgilab beradi.

Aytish joizki, Konstitutsiyaga zid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning normalari bekor qilinishi yoki belgilangan tartibda unga moslashtirilishi kerak.

Milliy qonunchiligimizga ko‘ra, Konstitutsiyaga muvofiqligi xususida shubha tug‘dirgan aniq normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan qarorlar qabul qilish Konstitutsiyaviy sudning vakolatiga tegishlidir. Agarda qonunlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha Konstitutsiyaviy sud qonunni yoki uning bir qismini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq deb topib, ularda mazkur qonunning yoki uning bir qismining amaliyotda noto‘g‘ri yoxud ziddiyatli tarzda qo‘llanilishiga olib kelgan noaniqliklar topilgan taqdirda, ushbu qonun normasiga rasmiy sharh berishga haqli.

Аннотация. В статье рассматривается роль Конституции в защите прав и свобод граждан, законных интересов, значение организации законодательства нашей страны. Научно исследуется и раскрывается сущность принципа верховенства Конституции и законов, обеспечивающего правомерность действий граждан в обеспечении безопасности общества.

Ключевые слова: Конституция, безопасность, общественная безопасность, верховенство права, общественные отношения, верховенство права, правовые нормы, теория живого права.

Abstract. This article presents the role of the Constitution in protecting the rights and freedoms of citizens, legal interests, and the importance of the organization of the legislation of our country. Also, the principle of the supremacy of the Constitution and laws, which ensures the legitimacy of citizens in ensuring the security of the society, has been scientifically researched and its essence revealed.

Key words: Constitution, security, public safety, rule of law, social relations, rule of law, legal norms, theory of living law.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 11-сентябрдаги “Ўзбекистон-2030” стратегиясини тасдиқлаш тўғрисидаги фармони. №-158-сон. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-togrisida_519158

2. Рахимов Ф. Асосий қонунимиз – инсон ҳуқуқ ларининг кафолатлари // Ўзбекистон Республикаси Бош прок урат урасининг Олий ўқув курслари Ахборотномасининг 2012 йил №4 (32)-сони 46-бет.

3. 2Конст итуциявий ҳуқуқ: Дарслик // Х.Т.Маматов.; Масъул му ҳаррир А.Х.Саидов. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси А длия вазир -лиги, 2018 й. 52-б.

4. “ Халқ сўзи” газетасининг 2024 йил 9 январдаги 5 (8628)- сони

5. Ehrlich E., 1912. Das lebende Recht der Völker der Bukowina. In: M. Rehbinder, ed. Eugen Ehrlich, Recht und Leben. Berlin: Duncker & Humblot, 43–60.

6. “ Халқ сўзи” газетасининг 2024 йил 9 январдаги 5 (8628)- сони

SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA JINOYAT HUQUQIY DOKTRINASINING TRANSFORMATSIYASI

Abbosov Mirsulton,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Sun’iy intellekt bilan bog‘liq texnologiyalarning rivojlanishi inson faoliyatining tobora keng qamrovli sohalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish birinchi navbatda bank, moliya, soliq, bojxona, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi, transport, energetika sohalarida faol rivojlanmoqda. Sun’iy intellekt tizimlarining yanada takomillashtirilayotgani inson hayotiga nafaqat ijobiy balki salbiy ta’sir ham ko‘rsatadi. Shunga qaramay, hozirning o‘zidayoq Sun’iy intellekt bilan jihozlangan texnologiyalardan foydalanib, og‘ir oqibatlarga olib kelgan ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik haqida fikr yuritish mumkin. Bunday sharoitda mazkur tizimlardan foydalanish tartibini huquqiy jihatdan tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada Sun’iy intellektni tushunishga oid qarashlar tahlil qilingan, uning jinoyat-huquqiy fanlarida qo‘llash, ta’rifini ishlab chiqish haqida mulohaza yuritilgan. Sun’iy intellektli tizimlar faoliyatini jinoyat-huquqiy baholash bilan bog‘liq nazariy va amaliy masalalar ko‘rib chiqilgan. .

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, kiberjinoyat, jinoyat subyekti, jinoiy javobgarlik, majburiy choralar.

Jinoyat huquqi barcha huquq tarmoqlari kabi o‘zining qonunchiligiga ega hisoblanadi. Jinoyat qonunchiligi ham o‘zida bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq yuridik normalar tizimi sifatida huquqiy institutlardan tashkil topadi. Yuridik fanlar doktori, professor M.X. Rustambayev jinoyat huquqi institutini, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muayyan texnik qoidalarga binoan tartibga solingan turdosh yuridik normalar majmui sifatida ta’riflaydi[1]. Mazkur ta’rifdan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, Jinoyat kodeksi ikki katta qism Umumiy va maxsus qismdan iborat. Mazkur ikki qismlar o‘z tizimiga ega hisoblanadi. Tizimlar o‘z navbatida institutlardan iborat bo‘ladi. Jinoyat kodeksining normalari qonun chiqaruvchi tomonidan moddalar shaklida ishlab chiqilgan va kodifikatsiya qilingan. Yuridik fanlar nomzodi, dotsent M. Usmonaliyev ta’kidlaganidek, har bir modda mustaqil, biroq shunga qaramay yagona Jinoyat kodeksining ajralmas qismi hisoblanadi[2]. Qonun chiqaruvchi Jinoyat kodeksining umumiy qismida jinoyat qonunchiligining umumiy qoidalari, qonunning maqsadi, vazifalari, ta’sir doirasi kabi va maxsus qoidalari javobgarlik asoslari, jazo tizimi, javobgarlikni istisno qiluvchi holatlar kabi qoidalarni belgilab beradi. Jinoyat kodeksining umumiy qismi bizga Jinoyat kodeksi maxsus qismida keltirilgan jinoyatlarga mazkur qonunni qo‘llash tartib-taomilini belgilab beradi. Ya’ni maxsus qism normalarini qo‘llash umumiy qism normalariga muvofiq amalga oshadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi umumiy qismi 7 bo‘lim, 17 bob, 1 – 96-moddalarni o‘z ichiga qamrab oladi[3].

Bugungi kundagi texnikaviy inqiroz barcha ijtimoiy munosabatlarga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymayapti. Bu esa o‘z navbatida, bizga qonunchilikni umume’tirof etilgan obyektlarni muhofaza qilish uchun zamon talabini inobatga olib qonunchiligimizni takomillashtirish kerakligini anglatadi. Sababi hayotimizdagi yangi ixtirolar, huquqqa xilof yangi ko‘rinishdagi xavf-xatarlarni namoyon qilmoqda. Ulardan biri shubhasiz SI hisoblanadi. SI tushunchasi nafaqat huquq sohasi, balki boshqa fanlar uchun ham nisbatan yangi va to‘liq tahlil qilinmagan hisoblanadi. Shu sababli bu tushuncha yetarlicha yagona yondashuv asosida talqin qilinmaydi, bu esa o‘z navbatida hodisaning yangiligi bilan birga o‘z-o‘zini o‘rgatuvchi, mustaqil qarorlar qabul qiloladigan, insonga taqlid qiluvchi tizimlarning huquqiy tabiatini aniqlashga qaratilgan urinishlarni bahs va munozaralarga to‘la qiladi. SIni huquqiy tartibga solish muammosi, shuningdek, bevosita unga aloqador bo‘lgan hodisalar uchun aniq ta’rif va tahlillarning mavjud emasligi bilan murakkablashadi. Shunday hodisalardan biri SI tashuvchisi tushunchasidir. Bu tushuncha boshqaruvi to‘liq yoki qisman o‘z-o‘zini o‘rganuvchi dasturiy ta’minotga bog‘liq bo‘lgan qandaydir obyekt nazarda tutiladi[4]. Shuningdek, SI tizimidagi intellektual agent (josus) tushunchasi ham shunga o‘xshash bo‘lib, ayrim mualliflar uni atrof-muhitni sensorlar orqali qabul qiluvchi va unga ijro mexanizmlari orqali ta’sir ko‘rsatuvchi jism deya ta’rif berishadi[5]. Albatta, SIning xususiyatlaridan biri atrof-muhitni sensorlar orqali

qabul qilishi, ya’ni vizual, audio, hissiyot, harorat va shu kabi sensorlar orqali kognitiv jarayonlarni bajarishi mumkin. Bundan tashqari, SI yana bir xususiyati “mashinaviy o‘rganish” (machine learning) hisoblanib, mazkur tushunchaga ham aniq ta’rif ishlab chiqilmagan. Mazkur xususiyatsiz SI o‘z faoliyatini amalga oshira olmaydi, ya’ni “mashinaviy o‘rganish”siz SI faoliyati inkor etiladi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, “mashinaviy o‘rganish” SIning o‘zida mavjud tajriba asosida ma’lumot olish va undan keyingi faoliyatda foydalanish jarayoni uchun javobgar xususiyatidir[6]. Bundan tashqari ayrim adabiyotlarda, ayrim olimlarning qarashlarida, SI va robot tushunchalari o‘zaro bog‘liq, biroq mazkur qarash bahslidir. Bu qarash, qachonki robot (jism)ga SI (idrok) joylashtirilganda muvofiq bo‘lishi mumkin. Chunki robot bu texnikaviy qurilma ko‘rinishidagi jism hisoblanadi, huquqda bu ta’rif predmetga mos keladi. Mazkur predmet SIning bir yoki bir qancha xususiyatlariga ega bo‘lishi mumkin. Albatta hozirgi kunda SIga nisbatan ham predmet sifatida qaralmoqda, biroq u subyekt o‘zida mujassamlashtirgan xususiyatlarni namoyon etmoqda.

Jinoyat huquqida, umuman olganda, huquqda SI tushunchasiga ta’rif berish, uning o‘rnini belgilash, tartibga solishda, nafaqat milliy va xorijiy huquqshunoslarni, balki aniq, texnika fanlari olimlarining tadqiqotlarini ham o‘rganishni talab etadi.

P.M. Morxat SIni tushunchasini aniqlashda uning avtonomligi, tashuvchilik xususiyatlari va imkoniyatlarini inobatga olib, SI to‘liq yoki qisman avtonom tarzda o‘z-o‘zini tashkil qiluvchi kompyuter-apparat-dasturiy, virtual yoki kiber-fizik, shu jumladan, biokibernetik tizim (yoki blok) bo‘lib, u muallif tomonidan belgilangan ma’lum imkoniyatlar va qobiliyatlar majmuasiga ega hisoblanadi deya ta’riflaydi[7]. V.N. Sinelkova va O.V. Revinskiylarning tadqiqotlarida, SI bu inson tomonidan yaratilgan, yangi axborot va o‘z faoliyatining obyektiv ifodalangan natijalarini yaratish qobiliyatiga ega kompyuter dasturi degan fikrga kelganlar[8].

N. Nilson SIga faoliyat nuqtayi nazaridan ta’rif berib, mashinalarning aql-idrokli qilishga qaratilgan faoliyatdir, intellekt esa subyektlarning atrof muhitni inobatga olgan holda to‘g‘ri faoliyat yuritishiga imkon beruvchi sifatdir[9] deydi. L. Kamener fikricha, SI deganda faqat ko‘rsatma, topshiriqlarga rioya qilish bilan cheklanib qolmay, ilgari inson tafakkuri talab etilgan vazifalarni ham bajara olish xususiyatiga ega mashinalar hisoblanadi. Yuqoridagi ta’riflarga tayanib SI tizimlariga olimlar shartli ravishda quyidagi xususiyatlarni beradi: inson kabi tafakkur qilish qobiliyatiga ega; inson kabi harakat qilishga qodir; ratsional tarzda tafakkur qiluvchi; ratsional tarzda harakat qiluvchi[10].

Ilmiy ta’riflar, tadqiqotlardan ko‘rinib turibdiki, SI mohiyati bo‘yicha yagona tushuncha mavjud emas. Olimlar tomonidan taklif etilgan ta’riflar o‘rtasida jiddiy qarama-qarshilik va farqlar bor. Bu holat normaldir. Sababi SI va uning kundan kunga rivojlanib borishi natijasida xususiyatlarining ko‘payishi, insonga taqlid qilishi yangi hodisa hisoblanadi. Mazkur taqlid turli xil shaklda namoyon bo‘lmoqda.

SI jinoyat-huquqiy jihatdan tartibga solish uchun biz dastlab u tomonidan xavf-xatarlarni ko‘z oldimizga keltirishimiz joiz. Xususan:

a) axloqiy va huquqiy mas’uliyatning noaniqligi;

b) manipulatsiya va yolg‘on axborot (“deepfake”, “fake news”);

c) shaxsiy hayot, shaxsga doir yoki boshqa maxfiy ma’lumotlar xavfsizligi;

d) avtomatlashtirish jarayonida ish o‘rinlarining keskin yo‘qolishi;

e) tabiiy prinsiplar, ya’ni insoniylik, adolatlilik, tenglik kabi bir qator prinsiplarga putur yetishi;

f) huquqbuzarlik quroli sifatida ishlatilishi.

Yuqorida keltirilgan holatlar shartli ro‘yxat hisoblanib, SI va uning funksiyalariga aniq ta’rif ishlab chiqilgandan keyin kengayishi yoki qisqarishi mumkin.

SI va u orqali vujudga keladigan munosabatlarni ba’zi olimlar kazuistik xarakterga ega deb hisoblaydi. Biroq bu huquqiy madaniyat va qonunchilikdagi bo‘shliq bo‘ladi. Olim M.I. Kovalyov bu borada, dispozitsiyalarni kazuistik tarzda ifoda etish – bu, avvalo, huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligidan dalolat beradi deya ta’riflaydi. Albatta, mamlakat qonunchiligi doimo abstrakt ifoda etish usulidan foydalangan va foydalanishda davom etmoqda, chunki abstrakt ta’riflash usuli – shubhasiz ustunliklarga ega bo‘lgan usul hisoblanadi[11]. Bu borada S.S. Tixonova ham to‘g‘ri va o‘rinli mulohaza yuritgan. Uning fikriga ko‘ra, definitsiya (ta’rif)lashda asosiy kamchiliklardan biri – bu zarur bo‘lmaganda, ortiqcha konkretlashtirish va hajm jihatidan keragidan ziyod murakkablashtirishdan iborat[12]. Kazuistik ta’riflash – har bir holatni alohida misol sifatida yoritadi, natijada ta’rifga kiritilmagan, yangi holatlarga nisbatan huquqiy noaniqlik yuzaga keladi. Abstrakt ta’riflashda,

umumiy prinsiplar va tushunchalarga tayaniladi, shu bois qonunlar keng qamrovli, turli vaziyatlarga tatbiq etilishi oson bo‘ladi. Mazkur qoidalardan kelib chiqib, SI kabi yangi va jadal rivojlanib borayotgan sohani huquqiy tartibga solishda abstrakt ta’riflash usulidan foydalanish lozim. Sababi SI o‘z xususiyatlariga ko‘ra, tez o‘zgaruvchan, o‘zini o‘zi o‘rgatuvchi, avtonom hisoblanib, har bir holatni alohida tarzda huquqiy jihatdan yoritib chiqish imkonsiz va samarasizdir. I.N. Mosechkin yuqoridagi fikrlarga asoslanib, SIni qonunchilikka kiritishda quyidagi ta’rifni ishlab chiqqan, uning fikricha “SI – bu elektron ma’lumotlar va buyruqlar tizimi bo‘lib, u fikriy faoliyatni amalga oshiradi”[13]. Biroq mazkur ta’rifni qonunchilikka kiritadigan bo‘lsak, bir qancha noaniqliklar vujudga keladi, hamda ta’rif SI xususiyatlarini to‘liq qamrab olmaydi. Birinchidan, ta’rifdagi fikriy faoliyat tushunchasi o‘z ichiga nimalarni oladi? SIning muhim xususiyatlari mashinaviy o‘rganish, avtonomlik yoki maqsadga yo‘naltirilganlik kabi muhim jihatlar qamrab olinmagan. Ta’rif aniq fanlar, ya’ni matematika, informatika, kibernetika va gumanitar fanlar, falsafa, huquq, mantiq nuqtayi nazarlaridan turlicha talqinlarga uchrashi, hamda talablarga javob bermasligi mumkin. Bizning fikrimizcha, jinoyat qonunchiligiga SI tushunchasiga ta’rif kiritishimiz, agar uni jinoyat subyekti sifatida ko‘rmasak kerak emas. U shunchaki blanket norma sifatida jinoyat qonunida aks etaveradi.

Kiberhujum, kiberjinoyatlar soni bo‘yicha davlatlar rasmiy statistikaga oid saytlarida, rasmiy statistik ko‘rsatkichlari ochiqlanmagan. Biroq yuqoridagi statistika OAV vakillari davlat organlaridan so‘rab olgan ma’lumotlaridir. Agar mazkur statistik ko‘rsatkichlarga tayanilsa, SI har tomonlama tartibga solish dolzarbligi ortadi.

SIga berilgan ta’riflardan kelib chiqib, uni tartibga solishga ehtiyoj, uning o‘zi va u tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy xavfli qilmishga baho berish, bizning fikrimizcha, SIni nafaqat jinoyat sodir etish predmeti sifatida balki, jinoyat subyekti sifatida ham tahlil qilishni taqozo etadi.

Yuridik fanlar doktori, professor M.X. Rustambayev “Jinoyat subyekti jinoyat tarkibining ajralmas elementi hisoblanadi”[1] deydi va bu fikr umum qabul qilingan hisoblanadi. Shuningdek, olim “Jinoyat subyekti – jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan va ushbu qonunda belgilangan yoshga yetgan aqli raso jismoniy shaxsdir”[1] deya ta’rif beradi. Yuridik fanlar nomzodi, dotsent M. Usmonaliyevning fikricha, “jinoyatning subyekti — ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan, qonunga muvofiq ravishda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan shaxsdir”[2]. Mazkur ta’riflar fundamental hamda jinoyat qonunchiligida aks ettirilgan norma va qarashlarga muvofiq berilgan hisoblanadi. Yangi ijtimoiy munosabatlar, ochiq keyslar bizga mazkur ta’rif va qonunchilik normalariga o‘zgartirish kiritishni taqozo etadi. Buni biz yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent D.M. Kushbakovning “Jinoyat subyektining jinoyat-huquqiy tavsifi va uning xususiyatlari” nomli ilmiy izlanishida guvoh bo‘lamiz. Olim jinoyat subyekti institutini takomillashtirish kerakligi hamda yuridik shaxslarni jinoyat subyekti sifatida e’tirof etishni, ularga nisbatan jinoyat-huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash orqali tartibga solish masalalarini ilgari suradi[14].

Qilmishni jinoyat deb e’tirof etish uchun u o‘zida jinoyat belgilari va jinoyat tarkibi elementlariga ega bo‘lishi kerak. Umum qabul qilingan qoidaga asosan jinoyat belgilari deganda qilmishning ijtimoiy xavfliligi, huquqqa xilofliligi, qilmishda aybning mavjudligi va jazoga sazovorlik tushuniladi. Bu to‘rt belgidan tashqari, jinoyat huquqida jinoyat tarkibi ham mavjud. Yuridik fanlar doktori M.X. Rustambayev, X. Ochilov, Sh. Xaydarov, F. Xudaykulov va boshqa olimlar jinoyat tarkibiga ta’rif berar ekan, jinoyat huquqida sodir etilgan aniq bir ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb baholash uchun zarur bo‘lgan obyektiv va subyektiv belgilarning minimal yig‘indisi sifatida ta’riflaydilar[15].

Jinoyat subyekti jinoyat huquqining muhim institutlaridan hisoblanib, Jinoyat qonunchiligi vazifasiga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyat subyektiga berilgan yuqoridagi ta’riflar, O‘zbekiston Jinoyat kodeksining Javobgarlikka tortilishi lozim bo‘lgan shaxslarga doir 4-bobidan kelib chiqib ta’riflangan hisoblanadi.

SIning javobgarlikka tortilishi yo‘l qo‘yilgan qoidabuzarliklarni bartaraf etish va zararning o‘rnini qoplash majburiyatidan, shuningdek aybdor shaxslarni intizomiy, ma’muriy, fuqaroviy-huquqiy va jinoiy javobgarlikka tortishdan ozod etmaydi. Shunday ekan, jinoyat qonunida yuridik shaxsning javobgarligi masalasini ko‘rib chiqish qonunchilikni yanada liberallashtirishga va jinoyatlarga qarshi kurashda uning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Qonunchiligimizda jinoyat subyekti jismoniy shaxs bo‘lishidan tashqari qo‘yilgan talablar mavjud. Bular aqli rasolik va jinoiy javobgarlik yoshiga yetganlik. N. Andryuxin, V. Agildin va A.Sherbakovlarning fikrlarini umumlashtirganimizda, jinoyat sodir etgan

shaxsni javobgarlikka tortish yoshi ham qonunda tan olingan shaxsning jamiyatdagi huquqiy munosabatlarning faol ishtirokchisi hisoblanish qobiliyatini ifodalovchi o‘ziga xos ijtimoiy maqom sanaladi. Jinoiy javobgarlikning eng kichik yoshini kamaytirish, o‘z navbatida, jinoyat subyektining yosh kontingenti va ularga nisbatan javobgarlik hamda jazo belgilashning o‘ziga xos chegarasini ajratish orqali jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning eng maqbul yo‘nalishi hisoblanib, jinoyat-huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash uchun keng imkoniyat va sharoit yaratadi[16,17,18]. V.V. Agildin, qonunda belgilangan chegaradan kichik yoshdagilarning jinoiy faol emasligi hamda ularning rivojlanish darajasi javobgarlikka tortishning eng kichik yosh chegarasini kamaytirish maqsadga muvofiq emas[19] degan fikrni ilgari suradi. Mazkur fikrga qo‘shilgan holda D. Kushbakov “amaldagi jinoyat qonunida faqat aqli raso shaxslarning javobgarlikka tortilishlari va sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchun sudlanishlari mumkinligi qayd etilgan. Demak, aqli rasolik, shaxsni belgilangan yoshga yetishi bilan birga, jinoiy javobgarlik vujudga kelishining zaruriy sharti hisoblanadi[14]. Shu nuqtayi nazardan, yuridik adabiyotlarda jamiyatda shakllanayotgan ijtimoiy va madaniy omillarni inobatga olgan holda jinoiy javobgarlikning eng kichik yoshini belgilash va ko‘rib chiqish masalasida turli fikrlar bildirilgan.

Aqli rasolik Jinoyat kodeksining 18-moddasi 1-qismida keltirilgan bo‘lib, “Jinoyat sodir etish vaqtida o‘z harakatlarining (harakatsizligining) ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va ularni boshqara olgan shaxs aqli raso shaxsdir”[3]. Aqli rasolik tushunchasi o‘zining yuridik tasnifiga ko‘ra, aqliy (intellektual) va irodaviy belgilardan tashkil topadi. Bu ikki belgi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, birining mavjud emasligi ikkinchisini istisno qilib qo‘yadi va jinoiy javobgarlik vujudga kelmasligiga ta’sir ko‘rsatadi. Intellektual belgi shaxs tomonidan sodir etilgan harakat yoki harakatsizlikning anglab yetish, oqibatlari haqida qisman ko‘ra bilishdan iborat. Anglash deganda ruhiyatning intellektual va o‘z xulq-atvorini boshqara olishi tushuniladi. Irodaviylik belgisi shaxsning o‘z xatti-harakatlarini aqlan boshqara olish qobiliyatidan iborat bo‘ladi.

D. Kushbakov “yuridik jihatdan jinoyat subyekti deganda, sodir etilgan jinoyat uchun javobgar bo‘ladigan shaxsning yoshi, uning ruhiy hamda huquqiy holatini ifodalovchi belgilar majmui”[14] tushunilishi kerakligi haqida fikr bildiradi.

Jinoyat subyektiga jismoniy shaxsdan boshqalar kiritilmasligi haqida olimlar turli xil fikrlarni bildiradilar. Xususan, B. Axrarov, M. Baratov va boshqalar psixologik (his qilish) va intellektual (fikr yuritish) xususiyati yo‘qligi, shuningdek qonun hujjatlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashning imkoni yo‘qligi sababli yuridik shaxslarni jinoyat subyekti bo‘lishini istisno etgan[20]. Sh.Berdiyev, A.V. Shesler, I.V. Sitkovskiy, S.B. Aysin, D.M. Kushbakov kabi bir qancha olimlar[14] jinoyat subyekti sifatida yuridik shaxs ham e’tirof etilishi kerakligi haqida tadqiqotlar o‘tkazib, o‘z xulosalarini ilgari surganlar.

Professor G. Xallevi tomonidan SI orqali sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlik belgilashning uchta modeli ishlab chiqilgan. Mazkur modellar D. Gunkel, M. Sherer, M. Melman, D.V. Berg kabi axborot texnologiyalari, kiberxavfsizlik va kiber huquq sohasida tadqiqot olib boruvchi g‘arb davlatlari olimlari tomonidan tan olingan. Mazkur modellar quyidagilardan iborat:

1) “The Perpetration-by-Another” (boshqa shaxs orqali sodir etish) bu modelda jinoyatni boshqa shaxs tomonidan sodir etilishini tashkil etish yoki boshqarish vositasida ishtirok etishni anglatadigan huquqiy holatdir. Ya’ni jinoyatni o‘zi amalga oshirmagan, balki uni boshqa shaxs yordamida, shaxsni jinoyatni sodir etishga boshqargan yoki unga biror ta’sir o‘tkazgan holat tushuniladi. Mazkur model SIni jinoyat subyekti sifatida tan olmaydi va undan qilmishni sodir etish uchun bir vaqtning o‘zida “mens rea” va “actus reus” mavjudligini talab qilmaydi. Bunda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar bevosita SI yordamida amalga oshiriladi deya qaraladi.

2) “The Natural-Probable-Consequence Liability” (Tabiiy-ehtimoliy oqibatlar uchun javobgarlik) bu modelda shaxsning harakat yoki harakatsizligi natijasida sodir bo‘lgan jinoyat yoki ijtimoiy xavfli qilmish uchun javobgarlik ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish (jinoyat) sodir etish vaqtida jinoiy oqibatni yuzaga kelishini oldindan bilishi yoki bilishi kerak bo‘lganda yuklanadi. Bu model dasturchi (foydalanuvchi) ning qilmishida “mens rea” ham, “actus reus” ham, talab etmaydi. Bunday vaziyat SI tizimining odatiy harakatlaridan jinoiy qilmish sodir etish uchun noto‘g‘ri foydalanish mumkin bo‘lganda yuzaga keladi. Agar robot ma’lum bir jinoyatni sodir etish uchun dasturlashtirilgan bo‘lsa, lekin uni sodir etish jarayonida va, ehtimol, uni oxiriga yetkazishda belgilangan rejadan chetga chiqib, boshqa jinoyatni sodir etsa, unda dasturchi qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ham (dastlab rejalashtirilgan), u rejalashtirmagan, lekin robot

ISSN 3030-3230

tomonidan sodir etilgan jinoyat uchun ham javobgar bo‘ladi[21].

3) “The Direct Liability” (bevosita javobgarlik) modeli yuqoridagi ikki modeldan tubdan farq qiladi. Model SIni keyinchalik jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan mustaqil jinoyat subyekti sifatida ko‘rib chiqadi. Modelning nomlanishidan ko‘rinib turibdiki, u SIning bevosita javobgarligini, SIning xatti-harakatlariga dasturchi (foydalanuvchi)ning oqibatlarni keltirib chiqarish niyati (xohishi) bilan bog‘lamaydi. Ammo bunday modelni hayotga tatbiq etish uchun SIga sun’iy huquq subyekti maqomini berish to‘g‘risida qonuniy qaror qabul qilish, shuningdek, SI harakatlarining “mens rea” va “actus reus” talablariga aniq muvofiqligini aniqlash talab etiladi[22].

O‘z navbatida, mazkur olimlarning jinoyat subyekti sifatida e’tirof etishga qaratilgan qarashlarida keltirilgan argumentlarning barchasi SIda mujassamlashtirilgan.

Jumladan, SI quyidagi xususiyatlari uni jinoyat subyekti sifatida e’tirof etilishi mumkinligiga sabab bo‘ladi:

1) mustaqil qarorlar qabul qilish xususiyati;

2) insonning bilim va ko‘nikmalariga taqlid qilish imkoniyati mavjudligi;

3) real hayotga ta’sir o‘tkazish;

4) mustaqil ravishda o‘rganish va yechimlar izlash, aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalar olish.

Mazkur sifatlar SIni jinoyat subyekti sifatida e’tirof etish imkonini beradi. Sababi unda mustaqillik va o‘z xatti-harakatini intellektual jihatdan mustaqil sodir etish xususiyatlari mavjud. SI bilan sodir bo‘lgan bir qancha ochiq keyslar mavjud bo‘lib, ijtimoiy xavfli qilmishda jinoyat subyekti mavjud emasligi, yoki SIni javobgarlikka tortish masalasi ochiqligi uchun boshqa shaxslar javobgar qilingan. Misol tariqasida, AQShda SI tomonidan sodir etilgan jiddiy xato insonning o‘limiga sababchi bo‘lgan. Tibbiyotda foydalanishga mo‘ljallangan SI o‘rnatilgan texnologiya bolaga noto‘g‘ri tashxis qo‘yishi uning o‘limiga sabab bo‘lgan[23]. Yana bir misol AQShda 2018-yilda Uber kompaniyasining SIga asoslangan haydovchisiz avtomobili ishtirokida yo‘l-transport hodisasi natijasida odam o‘lishi. Vaziyatda SI orqali boshqarilib kelinayotgan 63 km/soat tezlikda harakatlanayotgan avtotransport vositasi yo‘ldan o‘tayotgan shaxsni identifikatsiya qilishda yanglishib urib yuborgan va shaxsning o‘limiga sababchi bo‘lgan. Mazkur holatda javobgarlik masalasi ochiq qolgan, dastlab mashina ichida o‘tirgan Uber kompaniyasi xodimini nazoratni to‘g‘ri o‘rnatmaganligi uchun javobgarlik masalasini unga nisbatan ko‘rishgan, biroq keyingi instansiya sudlari tomonidan, kompaniya xodimi oqlangan, marhumning yaqinlariga kompensatsiya to‘lab berilgan, biroq javobgar noma’lumligicha qolgan. Bunday misollar yaqin o‘tmishda ko‘paygani va yaqin kelajakda yanada ko‘payishi aniq. Biz mazkur salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi harakatlarni (harakatsizlik) avvaldan bashorat qilish yo‘li bilan umume’tirof etilgan obyektlarni muhofaza qilish choralarini ko‘rishimiz kerak. Fuqarolik huquqiy munosabatlar SIni yetarli darajada tartibga sola olmayapti.

Yuridik fanlar doktori, akademik A.X. Saidov va yuridik fanlar doktori, professor O. Oqyulovlar mazkur masalaga to‘xtalib, hozirgi kunda SI tomonidan sodir etilgan jinoyatlar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 999-moddasi, ya’ni tevarak-atrofdagilarga oshiqcha xavf tug‘diradigan faoliyat tufayli yetkazilgan zarar sifatida baholanadi. SI faoliyati ustidan inson nazorati to‘laqonli va xavfsiz bo‘lishiga hech kim kafolat bermaydi. Bunday obyektlarga nisbatan oshirilgan xavf manbai rejimi belgilangan. Oshirilgan xavf manbasi egasi, mulkdori oshirilgan xavf uchun o‘z aybidan qat’i nazar, javob beradi. SI bilan ishlaganda xavf-xatar bo‘yicha tavakkalchilik darajasi nihoyatda yuqori bo‘lishi va SI ba’zi holatlarda yengib bo‘lmas kuchga aylanishi mumkin[24] deydilar. Shuningdek, olimlar SIga “to‘kis donish” ta’rifini berishgan. Bunday ta’rif o‘z navbatida, SIning yuqorida aytilgan xususiyatlaridan kelib chiqqan deya olamiz.

Yuqoridagilarni inobatga olib, bugungi globallashuv va texnologik inqiroz davrida SIni normativ-huquqiy jihatdan tartibga solish kerakligini ko‘rsatadi. Jumladan, SIni har tomonlama tahlil qilish orqali uning jinoiy-huquqiy munosabatlardagi o‘rni va rolini belgilashni anglatadi. Biz bugungi kunda, SIni jinoyat subyekti sifatida e’tirof etish, jinoyat qonunchiligiga kiritish biroz erta deb hisoblaymiz. Ammo mazkur masalaning dolzarbligi SIning ko‘p sohalarga kirib kelishi, mustaqil qarorlar qabul qilishi SIni jinoyat subyekti sifatida e’tirof etilishiga olib keladi degan taxminlarimiz bor.

Yuqoridagi asoslardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga quyidagi o‘zgartishlar va qo‘shimcha kiritish tavsiya qilinadi:

1. **Jinoyat kodeksi 56-moddasi birinchi qismini quyidagi mazmundagi “i[1]” band** bilan

to‘ldirish:

i[1]) sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib jinoyat sodir etish;

2. Jinoyat kodeksini quyidagi mazmundagi 96[1]-moddasi bilan to‘ldirish:

96[1]-modda. Zararli va ijtimoiy xavfli sun’iy intellekt texnologiyalarini zararsizlantirishga qaratilgan majburiy choralar

Ushbu Kodeks bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazgan sun’iy intellekt va u orqali ishlovchi texnologiyalarga nisbatan quyidagi majburiy choralar qo‘llaniladi:

a) funksional cheklash;

b) texnik jihatdan yo‘q qilish.

Funksional cheklash bu sun’iy intellekt va u orqali ishlovchi texnologiyalarda jismoniy va yuridik shaxslar yoki tizim subyektlarining ma’lum dasturiy ta’minot, axborot resurslari yoki texnik vositalar orqali amalga oshirishi mumkin bo‘lgan funksiyalari, harakatlari, huquqlari va imkoniyatlariga nisbatan ma’lum cheklovchi maxsus to‘siq qo‘yishdir.

Texnik jihatdan yo‘q qilish sun’iy intellekt va u orqali ishlovchi texnologiyalarni maxsus texnik vositalar, algoritmlar yoki dasturlar orqali, qayta tiklanmas darajada ishdan chiqarish yoki ularni butunlay o‘chirishdir.

Shuningdek, xavfsizlikni ta’minlash maqsadida SI tizimlarini majburiy ro‘yxatdan o‘tkazish va favqulodda vaziyatlarda barcha jarayonlarni darhol to‘xtatish uchun maxsus dasturiy ta’minot (kill switch) integratsiyasini huquqiy norma sifatida belgilash lozim. Jamiyat hozirdan SI ishlab chiqarish va undan foydalanishda javobgarlik konsepsiyasini ishlab chiqishga e’tibor qaratishi lozim.

Аннотация. Развитие технологий, связанных с искусственным интеллектом, оказывает всё более масштабное влияние на различные сферы деятельности человека. Использование возможностей искусственного интеллекта активно развивается прежде всего в банковской, финансовой, налоговой, таможенной, здравоохранительной, сельскохозяйственной, транспортной и энергетической отраслях. Дальнейшее совершенствование систем искусственного интеллекта оказывает на жизнь человека не только положительное, но и отрицательное воздействие. Несмотря на это, уже сегодня можно рассуждать о наступлении уголовной ответственности за общественно опасные деяния, совершённые с применением технологий, оснащённых искусственным интеллектом и повлекшие тяжкие последствия. В таких условиях особую важность приобретает правовое регулирование порядка использования подобных систем. В статье проанализированы подходы к пониманию искусственного интеллекта, рассмотрены вопросы его применения в уголовно-правовых науках и обсуждены предложения по разработке его определения. Также изучены теоретические и практические проблемы уголовно-правовой оценки деятельности систем с искусственным интеллектом.

Ключевые слова: искусственный интеллект, киберпреступление, субъект преступления, уголовная ответственность, обязательные меры.

Annotation. The development of artificial intelligence technologies is increasingly influencing a wide range of human activities. The use of artificial intelligence capabilities is rapidly expanding, particularly in the banking, finance, taxation, customs, healthcare, agriculture, transport, and energy sectors. The further improvement of AI systems has both positive and negative impacts on human life. Nevertheless, even today it is possible to discuss criminal liability for socially dangerous acts committed through the use of AI-equipped technologies that result in serious consequences. Under such circumstances, the legal regulation of the use of these systems becomes especially important. The article analyzes approaches to understanding artificial intelligence, examines its application within criminal law sciences, and discusses considerations for developing its definition. Theoretical and practical issues related to the criminal-law assessment of activities carried out by artificial intelligence systems are also explored.

Key words: artificial intelligence, cybercrime, subject of crime, criminal liability, compulsory measures.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – B. 55.

2. Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т., “Янги аср авлоди”, 2005. – Б. 32.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. https://lex.uz/docs/111453#4519444
4. Камышанский В.П., Корецкий А.В. Понятие и правовой статус носителя искусственного интеллекта // Власть закона. 2019. – № 1 (37). – С. 42–50.
5. Понятие агента в системах искусственного интеллекта / Мелихова О. А., Вепринцева О. В., Чумичев В. С. и др. // Технические науки – от теории к практике. 2015. – № 53. – С. 44–51.
6. Bini S. A. Artificial intelligence, machine learning, deep learning, and cognitive computing: what do these terms mean and how will they impact health care? // USA.: The Journal of arthroplasty. 2018. Vol. 33. I. 8. – P. 58–61.
7. Морхат П. М. Искусственный интеллект: правовой взгляд: Научная монография / РОО “Институт государственно-конфессиональных отношений и права”. – М.: Буки Веди, 2017. – С. 257.
8. Синельникова В. Н., Ревинский О. В. Права на результаты искусственного интеллекта // Копирайт. Вестник Российской академии интеллектуальной собственности. 2017. – № 4. – С. 17–27.
9. Nilsson N. J. Principles of Artificial Intelligence. Palo Alto, Calif.: Tioga Pub. Co., 1980. – P. 476.
10. Furmankiewicz M., Sołtysik-Piorunkiewicz A., Ziuziański P. Artificial intelligence systems for knowledge management in e-health: the study of intelligent software agents // Latest Trends on Systems: The Pro ceedings of 18th International Conference on Systems, Santorini Island, Greece. 2014. – P. 551–556.
11. Ковалев М.И. О технике уголовного законодательства // Правоведение. 1962. № 3. – С. 142–146.
12. Тихонова С.С. Легальное дефинирование как способ конкре тизации уголовно-правовых предписаний в особенной части современного кодифицированного уголовного закона // Известия Юго-Западного государственного университета. Серия: История и право. 2019. Т. 9. № 1 (30). – С. 63–70.
13. Мосечкин И.Н. Искусственный интеллект в уголовном праве: перспективы совершенствования охраны и регулирования: [монография]. – Киров: Вятский государственный университет, 2020. – С. 14.
14. Кушбаков Д.М. Жиноят субъектининг жиноят-ҳуқуқий тавсифи ва унинг хусусиятлари. Ю.ф.д. (PhD) дис. … – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси, 2021. – Б. 191.
15. Очилов Х.Р., Хайдаров Ш.Д., Шамсидинов З.З. Жиноят ҳуқуқи (Умумий қисм). Ўқув қўлланма – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2021. – Б. 33.
16. Андрюхин Н.Г. Минимальный возрастной признак субъекта преступления нуждается в уточнении // Вопросы ювенальной юстиции. – 2001. – №2. – С. 20–22;
17. Агильдин В.В. Возраст как признак субъекта преступления // Сибирский юридический вестник. – 2015. – № 3 (70). – С. 49–54;
18. Щербаков А.В. Проблемы определения субъекта преступления в современном уголовном праве // Пробелы в российском законодательстве. – 2013. – № 2. – С. 100−106.
19. Агильдин В.В. Возраст как признак субъекта преступления // Сибирский юридический вестник. – 2015. – № 3 (70). – С. 51.
20. Ахраров Б., Баратов М. Ўзбекистон Республикасида юридик шахслар жавобгарлигининг айрим жиҳатлари // Одил судлов. – 2020. – № 5. – Б. 35–41.
21. Solaiman S. Legal personality of robots, corporations, idols and chimpanzees: a quest for legitimacy // Artificial Intelligence and Law. – 2017. – Vol. 25. – № 2. – P. 155–179.
22. Levy D. T The Ethical Treatment of Artificially Conscious Robots. Internatioan Journal of Social Robotics. Volume 1, P 209–216. Hallevy G. Liability for Crimes Involving Artificial Intelligence Systems. – Dordrecht: Springer, 2015. – P. 262.
23. Кашкин С.Ю., Тищенко С.А., Алтухов А.В. Правовое регулирование применения искусственного интеллекта для борьбы с распространением COVID-19: проблемы и перспективы с учетом мирового опыта // Lex Russica. – 2020. – № 7. – С. 105–114.
24. Саидов А., Оқюлов О. Сунъий интеллектнинг ижтимоий мақоми ва ҳуқуқий режими шаклланишининг истиқболлари. Т.: Demokratlashtirish va inson huquqlari ilmiy-ma’rifiy jurnali. 1(105). – 2025. – Б. 20–27.

O‘ZBEKISTONDA SIYOSIY-STRATEGIK REJALASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK XUSUSIYATLARI

Artikov Rahmatilla Sunatovich,
Toshkent davlat transport universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada siyosiy-strategik rejalashtirishning nazariy-metodologik asoslari, tamoyillari va O‘zbekistonda rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining so‘nggi yillarda olib borilgan strategik rejalashtirish siyosati, uning konseptual asoslari va milliy xavfsizlikni ta’minlashdagi roli o‘rganilb, strategik rejalashtirishning tizimli xarakteri, qadriyatli jihatlari va davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, O‘zbekistonda siyosiy-strategik rejalashtirish amaliyoti, uning takomillashtirish istiqbollari va globallashuv sharoitida yangilanish tendensiyalari haqida ilmiy asoslangan xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: siyosiy-strategik rejalashtirish, davlat boshqaruvi, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, milliy xavfsizlik, strategik rejalashtirish tamoyillari, tizimli yondashuv, makro tizimli omillar.

Kirish. Zamonaviy dunyoda davlat va jamiyat taraqqiyotini ta’minlashning eng muhim shartlaridan biri – bu ilmiy asoslangan strategik rejalashtirish tizimining mavjudligidir. Globallashuv, raqamlashtirish va geosiyosiy raqobat sharoitida davlatlar o‘z taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilab olish, milliy manfaatlarni himoya qilish va xavfsizlikni ta’minlash maqsadida uzoq muddatli strategik rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevta’kidlaganidek:“Jamiyatimizda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy institutlar, mafkuraviy qarashlar va ta’sirlarning xilma-xilligi siyosiy hayotimizning asosiy prinsiplaridan biriga aylanib bormoqda”[1]. Bu esa o‘z navbatida mamlakat taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishning nazariy-metodologik asoslarini chuqur o‘rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

Siyosiy-strategik rejalashtirish – bu mamlakat taraqqiyotining uzoq muddatli maqsad va vazifalarini belgilab beruvchi, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlovchi va ularga erishish mexanizmlarini ishlab chiquvchi jarayondir. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida siyosiy-strategik rejalashtirish tizimi shakllandi va rivojlanib bordi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda bu sohada muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi.

2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi va 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi kabi muhim strategik hujjatlarning qabul qilinishi mamlakat siyosiy-strategik rejalashtirish tizimida yangi bosqich boshlanganini ko‘rsatadi. Shuningdek, 2019-yilda e’lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi” ham mamlakatni uzoq muddatli rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini belgilab beruvchi muhim hujjat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi innovatsion rivojlanishga asoslangan raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish, aholi farovonligini yuqori darajaga ko‘tarish va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan. Shu bois, O‘zbekistonda siyosiy-strategik rejalashtirish tizimining nazariy-metodologik xususiyatlarini tadqiq etish ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Siyosiy-strategik rejalashtirish siyosiy fanning muhim tadqiqot obyekti sifatida turli metodologik yondashuvlar asosida o‘rganiladi. Ayniqsa, tizimli, tarkibiy-funksional, tarixiy-tizimli, neoinstitutsional va boshqa yondashuvlar siyosiy-strategik rejalashtirishni har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi.

Nazariy jihatdan siyosiy-strategik rejalashtirishni o‘rganishda ikki asosiy konseptual yo‘nalishni ajratish mumkin. Birinchi yo‘nalish siyosiy-strategik rejalashtirishni davlatning boshqaruv funksiyasi sifatida talqin qiladi. Bunda strategik rejalashtirish – davlat siyosatini amalga oshirish, qarorlar qabul qilish va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishning vosita va

ISSN 3030-3230

mexanizmi hisoblanadi. Ikkinchi yo‘nalish esa siyosiy-strategik rejalashtirishni siyosiy tizimning funksional tarkibiy qismi sifatida qaraydi, ya’ni siyosiy tizimning barqarorligi va rivojlanishini ta’minlaydigan mexanizm sifatida talqin qiladi.

Rus tadqiqotchisi V.N. Rastorguyev siyosiy rejalashtirishga quyidagicha ta’rif beradi: “Siyosiy rejalashtirish, bu, birinchi navbatda, siyosiy institutlarni, davlat apparati va yirik biznesni davrning qiyinchiliklari va mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlariga, uning resurslari va iqtisodiy salohiyatiga ega mintaqalarning o‘ziga xos jihatlariga, tabiiy va etnik-madaniy xususiyatlar, asosiy ijtimoiy guruhlarning hayotiy manfaatlari va mentalitetiga, shuningdek global siyosiy tizimning shakllanish sharoitlariga va faoliyatiga moslashtirish uchun zarur vositadir”[2].

Metodologik jihatdan siyosiy-strategik rejalashtirish quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O‘zbekistonda siyosiy-strategik rejalashtirish tizimining rivojlanishini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

Birinchi bosqich (1991-2000 yillar) – mustaqillik yillaridagi ilk strategik rejalashtirish tajribasi. Bu davrda “O‘zbek modeli” yoki “O‘zbekiston taraqqiyot modeli” shakllandi. Islohotlarning besh prinsipi – davlat bosh islohotchi, qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish va “shok terapiyasi”dan voz kechish konsepsiyasi siyosiy-strategik rejalashtirishning asosi sifatida xizmat qildi.

Ikkinchi bosqich (2001-2016 yillar) – ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda strategik rejalashtirishning rivojlanishi. Bu davrda asosan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar doirasida strategik rejalashtirish amalga oshirildi.

Uchinchi bosqich (2017 yildan hozirgi kungacha) – zamonaviy siyosiy-strategik rejalashtirish tizimining shakllanishi. Bu bosqich 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi” va 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi”ning qabul qilinishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda O‘zbekistonda siyosiy-strategik rejalashtirish tizimi yanada takomillashib, institutsionallashdi.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi mamlakatimiz tarixidagi eng muhim strategik hujjatlardan biri hisoblanadi. Strategiyaning beshta ustuvor yo‘nalishi – davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlikni ta’minlash, diniy bag‘rikenglikni ta’minlash – siyosiy-strategik rejalashtirishning yangi modeli sifatida e’tirof etildi.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi esa avvalgi strategiyaning mantiqiy davomi sifatida qabul qilinib, unda inson qadri, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini ta’minlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilandi. Strategiyada 7 ta ustuvor yo‘nalish va 100 ta maqsad ko‘zda tutilgan bo‘lib, ular mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichiga xizmat qilmoqda.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Siyosiy-strategik rejalashtirish va milliy xavfsizlik o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Strategik rejalashtirish milliy xavfsizlikni ta’minlashning muhim sharti bo‘lsa, milliy xavfsizlik esa strategik rejalashtirishning ustuvor maqsadlaridan biridir.

O‘zbekistonda milliy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan siyosiy-strategik rejalashtirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- **tashqi siyosiy xavfsizlik** - Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini rivojlantirish, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash;
- **iqtisodiy xavfsizlik** - iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, strategik resurslarni samarali boshqarish, importga qaramlikni kamaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash;
- **axborot xavfsizligi** - axborot makonida milliy manfaatlarni himoya qilish, kiber xavfsizlikni ta’minlash, axborot texnologiyalari sohasida mustaqillikka erishish;
- **ekologik xavfsizlik** - atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik inqirozlarning oldini olish;
- **ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlik** - milliy qadriyatlarni asrash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yot g‘oyalarning salbiy ta’siridan himoyalash.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida milliy xavfsizlik masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, Strategiyaning 7-ustuvor yo‘nalishi «mamlakat xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish»ga bag‘ishlangan. Bu yo’nalish doirasida O‘zbekistonning xalqaro

munosabatlardagi mavqeini mustahkamlash, mintaqaviy va global xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan 20 dan ortiq aniq maqsadlar belgilangan. Mazkur maqsadlar qatoriga milliy armiyaning jangovar salohiyatini oshirish, chegaralarni mustahkamlash, xalqaro terrorizm, ekstremizm va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish kabi vazifalar kiritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ochiq tashqi siyosat olib borishi, qo‘shni davlatlar bilan strategik hamkorlikni kuchaytirish va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni yanada rivojlantirish masalalari ham strategiyada o’z aksini topgan.

Taraqqiyot strategiyasida milliy xavfsizlikni ta’minlashning yangicha yondashuvlari ham nazarda tutilgan. Jumladan, harbiy xavfsizlik bilan bir qatorda iqtisodiy, ekologik, oziq-ovqat va axborot xavfsizligi masalalariga ham katta e’tibor qaratilgan. Strategiyada kiberxavfsizlikni ta’minlash, axborot texnologiyalari sohasidagi xavf-xatarlarni bartaraf etish, muayyan infratuzilmalarni himoya qilish va strategik kommunikatsiyalarning xavfsizligini ta’minlash masalalari ham muhim o‘rin egallagan. Shuningdek, strategiyada milliy xavfsizlikni ta’minlash sohasida innovatsion yechimlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlilidan foydalanish, xavfsizlik organlari faoliyatini zamonaviylashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. Strategiyani amalga oshirish jarayonida milliy xavfsizlikka tegishli masalalarni hal etishda fuqarolik jamiyati institutlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish nazarda tutilgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). Siyosiy-strategik rejalashtirish zamonaviy davlat boshqaruvining muhim funksiyasi sifatida O‘zbekiston taraqqiyotini ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekistonda shakllangan siyosiy-strategik rejalashtirish tizimi o‘ziga xos nazariy-metodologik xususiyatlarga ega bo‘lib, u globallashuv, raqamlashtirish va geosiyosiy o‘zgarishlar sharoitida doimiy ravishda takomillashib bormoqda.

O‘zbekistonning siyosiy-strategik rejalashtirish sohasidagi tajribasi 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasining samarali amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi. Bu strategik hujjatlar mamlakatning barqaror rivojlanishi, milliy xavfsizlikni ta’minlash va xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda siyosiy-strategik rejalashtirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, strategik rejalashtirishning huquqiy-institutsional mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy-metodologik bazasini rivojlantirish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va kadrlar tayyorlash tizimini yaxshilash borasida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda siyosiy-strategik rejalashtirishning nazariy-metodologik xususiyatlarini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki samarali siyosiy-strategik rejalashtirish tizimi mamlakatning barqaror rivojlanishi, milliy xavfsizlikni ta’minlash va fuqarolar farovonligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретико-методологические основы, принципы политико-стратегического планирования и особенности его развития в Узбекистане. Исследована политика стратегического планирования, проводимая в Республике Узбекистан за последние годы, ее концептуалные основы и рол в обеспечении натсионалной безопасности. Раскрыт системный характер стратегического планирования, его ценностные аспекты и значение в повышении эффективности государственного управления. Также приведены научно обоснованные выводы и предложения о практике политико-стратегического планирования в Узбекистане, перспективах его совершенствования и тенденциях обновления в условиях глобализации.

Ключевые слова: политико-стратегическое планирование, государственное управление, Стратегия действий, Стратегия развития, национальная безопасность, принципы стратегического планирования, системный подход, макросистемные факторы.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations, principles of political-strategic planning and features of its development in Uzbekistan. The strategic planning policy implemented in the Republic of Uzbekistan in recent ears, its conceptual foundations and role in ensuring national security are studied. The systemic nature of strategic planning, its value aspects and importance in improving the efficiency of public administration are revealed. Also, scientifically based conclusions and proposals on the practice of political-strategic planning in Uzbekistan, prospects for its improvement and trends of renewal in the context of globalization are presented.

Key words: political-strategic planning, public administration, Action Strategy, Development Strategy, national security, principles of strategic planning, systems approach, macro-system factors.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 591 b.
2. Rastorguev V. N. Filosofiya i metodologiya politicheskogo planirovaniya. – Moskva, 2009. – S. 13.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5185-sonli Farmoni // http://www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni // http://www.lex.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni // http://www.lex.uz

GIBRID URUSHLARGA QARSHI KURASHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Zamonov Azizbek Avazbek o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi

Annotatsiya. **Mazkur maqolada zamonaviy xavfsizlik muammolari doirasida gibrid urushlarning mazmun-mohiyati, ularning milliy xavfsizlik tizimiga ta’siri hamda ularga qarshi kurashishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Gibrid tahdidlarning siyosiy, iqtisodiy, informatsion va harbiy jihatlari yoritilib, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan davlat suvereniteti, hududiy yaxlitlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan normalar o‘rganiladi. Shuningdek, davlat organlari va fuqarolarning gibrid urushlarga qarshi immunitetini mustahkamlash, konstitutsiyaviy qadriyatlarga sodiqlikni kuchaytirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.**

Kalit so‘zlar: gibrid urush, milliy xavfsizlik, konstitutsiyaviy asoslar, davlat suvereniteti, hududiy yaxlitlik, axborot xavfsizligi, huquqiy mexanizmlar, barqarorlik, konstitutsiyaviy himoya, davlat mustaqilligi.

XXI asrning global xavfsizlik maydonida urush va tinchlik holatlari an’anaviy chegaralarni yo‘qotmoqda. Masalan, gibrid urush tushunchasi oddiy harbiy to‘qnashuvlardan farq qiladi. U harbiy, kiber, axborot va iqtisodiy bosim sohalarini birlashtiradi [1]. Bunday urushlarga qarshi kurashning davlat konstitutsiyasida belgilangan mehnatlari — suverenitet, hududiy yaxlitlik, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish muhim o‘rin egallaydi. Maqolada gibrid urush tushunchasi qisqacha tahlil qilinib, uni oldini olish va unga qarshi choratadbirlarning konstitutsiyaviy jihatlari yoritiladi. So‘ngra, huquqiy mezonlar asosida davlatning konstitutsional pozitsiyasi ko‘rib chiqiladi va nihoyat, O‘zbekistondagi (va umuman) konstitutsiyaviy mexanizmlar fikrga olinadi.

1. Gibrid urush tushunchasi va zamonaviy xususiyatlari.

“Gibrid urush” atamasi bir necha mualliflarga ko‘ra, oddiy jamoātalari (konvension) harbiy amaliyotlar bilan birga axborot bosimi, kiberhujumlar, terroristik va paraharbiy elementlar orqali olib boriladigan to‘qnashuv shaklini anglatadi. Masalan, “harbiy to‘qnashuv bo‘lmasligi mumkin, biroq bu holatda davlatga qarshi bosim mazmunan urushga teng bo‘ladi”.

Gibrid urushning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

- yuqori darajada integratsiyalashgan vositalar – harbiy, axborot, kiber, iqtisodiy;
- aniqlanmagan harbiy holat — “urush emas, tinchlik emas” deb ataladigan “qorong‘i zona”;
- mamlakat suvereniteti, hududiy yaxlitligi va konstitutsion tartibiga tahdid.

Shuning uchun, gibrid urushga qarshi kurashda davlatning konstitutsiyaviy instrumentlari — konstitutsiya, favqulodda holat rejimlari, davlat funksiyalarining himoyasi — muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Konstitutsiyaviy asoslar: umumiy prinsiplar.

Gibrid urushlarga qarshi kurashda konstitutsiyaviy bazis quyidagi printsiplarga tayansa bo‘ladi:

2.1. Suverenitet va hududiy yaxlitlik.

Konstitutsiyalar odatda davlat suvereniteti va uning hududiy yaxlitligini himoya qilishni o‘z ichiga oladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “davlat mustaqil, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat” degan tamoyil mustahkamlangan. Bu tamoyil gibrid tahdidlarga qarshi kurashda poydevor bo‘ladi.

2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish.

Gibrid urush paytida axborot, kiber va siyosiy bosimlar orqali fuqarolarning huquq va erkinliklariga tahdid bo‘lishi mumkin [2]. Konstitutsiyalarda huquq va erkinliklar kafolatlanadi va ularni cheklash holatlari qonun bilan belgilanishi kerak. Masalan, O‘zbekistonda: “Huquq va erkinliklar faqat qonun bilan belgilanadi va faqat konstitutsiyaviy tartibni, jamiyat xavfsizligini, boshqa shaxslar huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida bo‘lishi mumkin”.

2.3. Maxsus holatlar uchun konstitutsiyaviy rejimlar.

Gibrid urushda foydalaniladigan vositalar “odatdagidan tashqari” bo‘lishi mumkin — misol

ISSN 3030-3230

uchun kiberhujum, axborot sabotaji, qo‘shni davlat tomonidan turli bosimlar. Shu sababli, konstitutsiyada favqulodda holat, harbiy holat va boshqa maxsus rejimlar belgilanishi muhim. Masalan, O‘zbekistonda “Konstitutsion qonun “Favqulodda holat to‘g‘risida”” orqali favqulodda holat kiritilishi va uning maqsadi — “fuqarolarning xavfsizligi, davlat konstitutsiyaviy tartibini va hududiy yaxlitlikni himoya qilish” ekanligi belgilangan.

2.4. Davlat organlarining xavfsizlik funksiyalarini belgilash.

Gibrid urushga qarshi kurashda davlat mudofaa, xavfsizlik va maxsus xizmat organlari faollashadi. Konstitutsiyada yoki qonunlarda bu organlarning huquqiy holati, vakolatlari aniq belgilanishi kerak. Shuningdek, axborot va kiber xavfsizlik kabi yangi yo‘nalishlar ham qamrab olinishi maqsadga muvofiq [3].

3. Gibrid urushlarga qarshi kurashdagi konstitutsiyaviy mexanizmlar.

3.1. Favqulodda holat va harbiy holat rejimlari.

Gibrid urush tahdidlari doimiy emas, lekin yuqori darajada xavfli. Shu sababli konstitutsiyalarda favqulodda holat, harbiy holat kabi maxsus rejimlar belgilangan. Misol uchun, O‘zbekistonda favqulodda holat kiritilishi shartlari va cheklovlari qonunda aniq belgilangan: «haqiqiy tashqi tahdid, konstitutsiyaviy tartibni zo‘rlik bilan o‘zgartirish urinishlari, hududiy yaxlitlikka tahdid va h.k.»

Bunday rejimlar gibrid urush boshlangan holatdagidek holatlarda qo‘llanilishi mumkin — axborot operatsiyalari, kiberhujumlar, ijtimoiy tarmoqlarda tartibsizlik uyg‘otish va h.k.

3.2. Axborot va kiber xavfsizlik choralari.

Gibrid urushda axborot va kiber komponentlar katta ahamiyatga ega. Davlat organlari, xususan, konstitutsiyada belgilangan xavfsizlik va mudofaa organlari bu sohada huquqiy me’yorlar orqali faoliyat yuritishi zarur. Shu bilan birga, fuqarolarning huquqlari (masalan, so‘z erkinligi, axborot olishi) bilan mos ravishda balans saqlanishi muhim [4].

3.3. Sud nazorati va huquqiy himoya.

Konstitutsional huquq nuqtai nazaridan, favqulodda holatda ham sud himoyasi, konstitutsion nazorat, huquqiy erkinliklarning bekor qilinmasligi tamoyillari saqlanishi muhim. Masalan, O‘zbekistonda favqulodda holat rejimi joriy qilinganda cheklanishi mumkin bo‘lgan huquqlar ro‘yxati qonunda aniq belgilangan va kengaytirib talqin qilinmasligi nazarda tutilgan.

3.4. Milliy xavfsizlik strategiyasi va konstitutsiyaviy davlat.

Gibrid urushga qarshi kurash faqat favqulodda rejimdan iborat emas; davlat doimiy ravishda milliy xavfsizlik strategiyasini, huquqiy-moral tayyorgarlikni, ham jamiyatni psixologik himoya qilishni tashkil etishi lozim. Konstitutsiyaviy me’zonlar davlatning barqarorligi va suverenitetini ta’minlashda poydevor bo‘ladi.

4. O‘zbekistan kontekstida gibrid urushga qarshi kurashning konstitutsiyaviy aspektlari.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunchiligi favqulodda holat, davlat xavfsizligi, fuqarolarning huquq va erkinliklari masalalarini tartibga solgan.

Misollar:

Konstitutsiyada fuqarolarning huquq va erkinliklari ‘‘fuqarolik jamiyatining asosi’’ deb belgilanib, cheklanishi qonunda belgilangan hollarda va faqat zarurat darajasida bo‘lishi lozim [5].

“Favqulodda holat to‘g‘risida” gi Konstitutsiyaviy qonunida favqulodda holat maqsadi – ‘‘fuqarolarning xavfsizligini, davlatning konstitutsiyaviy tartibini, hududiy yaxlitligini himoya qilish’’ deb ko‘rsatilgan.

Shu nuqtai nazardan, gibrid urush tahdidlari paytida O‘zbekistonda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi mumkin:

- Axborot va kiber hujumlar oldini olish uchun cheklov va huquqiy asoslar tayyorlash;
- Favqulodda holat rejimida fuqarolarning huquqlarini himoyalash mexanizmini faollashtirish;
- Milliy xavfsizlik strategiyasiga gibrid tahdidlar doirasini qo‘shish va huquqiy jihatdan mustahkamlash;
- Sud va konstitutsiyaviy nazorat vositalarini favqulodda holatda ham to‘liq faoliyat yuritishini ta’minlash.

Xulosa. Hozirgi sharoitda gibrid urush tahdidlari davlat faoliyatining yangi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, u bilan kurash konstitutsiyaviy huquqiy asoslardan-suverenitetni himoya qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini saqlash, favqulodda holat rejimlari, sud nazorati-foydalanishni talab etadi. O‘zbekiston tajribasida ham ushbu yo‘nalishlar huquqiy jihatdan tartibga solingan va bu kelajakda integratsiyalashgan xavfsizlik strategiyasini shakllantirish uchun asos bo‘la oladi.

Аннотация. В данной статье рассматривается сущность и особенности гибридных войн в контексте современных вызовов безопасности, а также конституционно-правовые основы противодействия таким угрозам. Анализируется влияние гибридных угроз на национальную безопасность и суверенитет, раскрываются конституционные положения Республики Узбекистан, обеспечивающие государственный суверенитет, территориальную целостность и стабильность. Кроме того, исследуется роль государственных органов и граждан в укреплении устойчивости к гибридным войнам и предлагаются меры по усилению конституционной защиты и противодействию сложным гибридным угрозам.

Ключевые слова: гибридная война, национальная безопасность, конституционные основы, государственный суверенитет, территориальная целостность, информационная безопасность, правовые механизмы, стабильность, конституционная защита, независимость.

Annotation. This article examines the essence and characteristics of hybrid warfare within the context of modern security challenges, focusing on the constitutional and legal foundations for combating such threats. It analyzes the impact of hybrid threats on national security and sovereignty, highlighting the constitutional provisions of the Republic of Uzbekistan that ensure state sovereignty, territorial integrity, and stability. The study also explores the role of state institutions and citizens in strengthening resistance to hybrid warfare and proposes measures to enhance constitutional protection and resilience against complex hybrid threats.

Key words: hybrid warfare, national security, constitutional foundations, state sovereignty, territorial integrity, information security, legal mechanisms, stability, constitutional protection, independence.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Панарин И.Н. Основы теории “гибридной войны”. — Москва, 2019. – С. 79.
2. Гибридные войны: современные вызовы и перспективы. — Журнал «Управление…», РУДН., 2021. – С. 159.
3. Сагандыков М.С. Конституционные основы защиты прав граждан в условиях чрезвычайных ситуаций. — Вестник ЮУрГУ. Серия «Право», 2017. – С. 113.
4. Шевцов Л.П. Вопросы теории гибридной войны. — Санкт-Петербург, 2022. – С. 216.
5. Конституция Республики Узбекистан. — Тошкент, 2023. https://constitution.uz.

KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA’MINLOVCHI MUHIM MANBA SIFATIDA

Ahmedova Hulkar Shermuhammad qizi,
O‘zbekiston Respublikasi strategik tahlil
va istiqbolni belgilash oliy maktabi tinglovchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Konstitutsiyaning huquqiy tabiati, uning ustuvorligi, belgilari, qonunlarning qabul qilinishida Konstitutsiyaga rioya etish ahamiyati, Konstitutsiya va qonunlarning nisbati, huquqiy bilim, konstitutsiyaviy islohotlar, Konstitutsiyaga oid olimlarning nazariy-siyosiy qarashlari Konstitutsiya bilan bog‘liq huquqiy asos yaratilganligi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, inson huquqlari, qonun ustuvorligi, qonun, huquq, huquqiy madaniyat, ijtimoiy munosabat, qonun loyihasi, demokratik qadriyat, xalqaro-huquqiy majburiyat.

Mamlakatimizda 2017-2021 yillar davomida “O‘zbekistonni rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishlariga asoslangan Harakatlar strategiyasi” [1] asosida islohotlarning barcha yo‘nalishlarida keng ko‘lamli amaliy ishlar amalga oshirildi. Ushbu yillar davomida barcha sohalardagi qonunchilik asoslari takomillashtirildi. Turli sohalarga doir to‘rt yuzga yaqin qonun va uch mingdan ortiq qonun osti hujjatlari qabul qilindi. 2022-yil 28-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni bilan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” [2] qabul qilinib, islohotlarning yettita yo‘nalishiga qaratilgan 100 ta maqsad belgilandi. Mamlakatimizda 2023-yil Yangilangan Konstitutsiya xalqimiz muhokamasidan o‘tib tasdiqlandi. 2023-yil 9-iyul kuni Prezidentlik saylovlari barcha saylov qonunchiligi talablari asosida o‘tib, xalqimizning yana bir karra demokratik, huquqiy islohotlarga xayrixohligini tasdiqladi.

2023-yil 11-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №158-son Farmoni [3] bilan xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi tasdiqlandi.

Konstitutsiya fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlangan, mamlakatni dunyoga tanitadigan siyosiy xarita, mustaqillikni ta’minlab bergan davlatning pasporti sifatida tan olinar ekan, u doim o‘zligimizni ko‘rsatib turadigan oliy qonundir. Bu qonun davlat va jamiyat uchun har doim ustuvor hisoblanadi. Konstitutsiya o‘z mazmuni va ijtimoiy vazifasiga ko‘ra davlatning mohiyatini ta’riflovchi, uning tashkiliy tuzilishini ifodalovchi, davlat siyosatining asoslarini belgilovchi hujjat sifatida gavdalanadi [4]. Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash biz bunyod etayotgan demokratik huquqiy davlatning bosh mezoni ekanligi alohida ta’kidlanishida katta ma’no bor. Haqiqatan ham qonun ustuvorligi ta’minlangan davlatda demokratik qadriyatlar qaror topadi va mustahkam boshqaruv amalda bo‘ladi. Prezidentimiz ushbu tushunchalarga chuqur ta’rif berar ekan, **“Qonun ustuvorligi – bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xati-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo‘lishi shart, deganidir”,** deb to‘g‘ri ta’kidlagan edi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda **O‘zbekistonning besh ustuni, ya’ni suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat** ekani qat’iy belgilab qo‘yildi, uning mazmuni tubdan takomillashtirilib, yangi bob va moddalar bilan boyitildi” [5].

Davlatimiz rahbari ushbu g‘oyalarni hayotga tatbiq

etish, davlat va jamiyat o‘rtasida muvozanatni ta’minlash, buncha qonunchilikni yanada mustahkamlash muhim ahamiyatga ega ekanligini barcha chiqishlarida alohida qayd etib o‘tmoqda. Prezidentimiz yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz [6] qabul qilinganligi munosabati bilan o‘tzkazilayotgan tadbirlarda so‘zlagan nutqida ham, Murojaatnomalarda ham Konstitutsiya

normalari ustuvorligini ta’minlashga erishish davlatimiz kelajagi va xalqimizning kelgusi istiqbolini belgilab berishini aytib o‘tdi.

Bizningcha, Konstitutsiya ustuvorligini ta’minlashga bir qator muhim tadbirlarni amalga oshirish orqali erishish mumkin.

Birinchidan, har qanday qonun hujjati yaratilishidan oldin uning g‘oyasi va konsepsiyasi Konstitutsiyaga moslanishi, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari chuqur anglab olinishi, davlat va jamiyat taraqqiyoti rivojlanishi yo‘lida qo‘yilgan vazifalar idrok qilinishi va maqsadlar aniqlab olinishi lozim.

Ikkinchidan, Konstitutsiyada mavjud, lekin jamiyatda tartibga solinmagan ijtimoiy munosabatlar aniqlanishi, fuqarolar va jamiyatning muammolari o‘rganilishi, muhokama va munozaralarga sabab bo‘layotgan turli qarashlar inobatga olinishi hamda ilmiy asoslanishi kerak.

Uchinchidan, qonun hujjatlari faqat Konstitutsiyada belgilangan normalar, qoidalar, prinsiplar doirasida ishlab chiqilishi va qabul qilinishi, imkon qadar idoraviy xarakterdagi, ichki me’yoriy hujjatlar qabul qilishni keskin kamaytirish, qonun hujjatlarida inson huquq va erkinliklarini turlicha talqin qilishga olib keladigan xavolaki normalar kirib qolishining oldini olish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanadigan qoidalarning yaratilishi muhim omillardan sanaladi.

To‘rtinchidan, yaratilgan qonun hujjatlari loyihalari keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilishi, fuqarolik jamiyati institutlari, ilmiy doiralar va mutaxassislarning ekspertlik ko‘rigidan o‘tkazilishi, ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishi lozim.

Beshinchidan, har qanday davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining maqomini yanada oydinlashtirish, ularning faqat qonunchilikda belgilangan vakolatlari doirasiga kiradigan masalalar bo‘yicha qonun hujjatlarini qabul qilishga erishish maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, odamlarda norma ijodkorligi qobiliyatini rivojlantirish, fikrlarni erkin bayon qilish muhitini shakllantirish, har qanday g‘oya va qarashlarni hurmat qilish, uni rag‘batlantirish, ilm-fan natijalari, olimlarning ilmiy xulosa va takliflaridan o‘rinli foydalanish, qonun hujjatlarini yaratishning institutsional tizimini yo‘lga qo‘yish lozim.

Yettinchidan, qonunchilik jarayonini takomillashtirish, amaldagi qonunchilikni xatlovdan o‘tkazish, umumlashtirish, kodekslashtirishga keng yo‘l berish, qonun hujjatlarini ijro qilishning yangicha mexanizmlarini joriy qilish, mansabdor shaxslarning qonun hujjatlarini sharhlash va talqin qilish qobiliyati va ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish samara berishi mumkin.

Jamiyatda Konstitutsiya normalarining ustuvorligini ta’minlashning eng asosiy shartlaridan biri – bu mansabdor shaxslarning huquqiy bilimli bo‘lishidir. Ularning huquqiy bilimi darajasi bir tomondan qabul qilinadigan qonun hujjatlarining sifatiga ta’sir ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan qonun hujjatlarining o‘z vaqtida va ishonchli ijrosini ta’minlashga olib keladi. Zamonaviy demokratik yondashuvlarga ko‘ra, Konstitutsiya – bu ijtimoiy shartnoma, ya’ni xalq va davlatning huquq va majburiyatlari aks etgan ahdnoma hisoblanadi [7].

Davlat organlarida qonun hujjatlari loyihalarini Konstitutsiyaga mos ravishda ishlab chiqish bilan bog‘liq jarayonlarda ochiqlikni ta’minlash, loyihalarni keng muhokama qilish, uning tegishli huquqiy ekspertizalarini tashkil etish muhim omillardan sanaladi. B.Qayumov haqli ravishda ekspertiza orqali qonun

hujjati loyihalarining O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlariga, shuningdek qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligi tekshirilishini ta’kidlaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan so‘nggi paytlarda qabul qilingan qator farmon va qarorlarda qonun ustuvorligiga erishishda mansabdor shaxslarning boshqaruv qobiliyatini rivojlantirish, qo‘l ostida ishlayotgan xodimlarning mehnat huquqlariga so‘zsiz rioya etishlari, ularning sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazmaslik, xodimlarning ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish va har tomonlama rag‘batlantirish haqida rahbarlarning ogohlantirilayotgani katta samara berishi mumkin. Qonunchilikda va milliy amaliyotimizda qaror topgan ushbu holatlar, o‘z navbatida, tegishli qonunlarni korrupsiyaning kelib chiqishiga nisbatan ekspertiza qilishda va ushbu jarayonda lobbizm yuzaga kelishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda “davlat organlari va mansabdor shaxslar xalqqa xizmat qilishi” asosiy boshqaruv prinsipiga aylantirilayotgan ekan, qonun ustuvorligini ta’minlashning asosiy shartlaridan biri – bu fuqarolar murojaatlarini o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqish bo‘lsa, ikkinchi tomonidan mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish va ularni ko‘rib chiqish tartiblarini takomillashtirishga ham bog‘liq. Mansabdor shaxslarning o‘z xizmat

vazifalarini noto‘g‘ri bajarishi, vakolatidan chetga chiqishi, mas’uliyatsizligi, byurokratiyaga asoslanish, qog‘ozbozlik, majlisbozlik kabi zamondan orqada qolgan boshqaruv prinsiplari qonun ustuvorligini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan jihatlar hisoblanadi. R.Hakimov ta’kidlaganidek, bunda ana shunday salbiy holatlar ustidan jamoat nazoratini o‘rnatish ijobiy natijalar berishi mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek, “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash” g‘oyasi nafaqat davlat boshqaruvini to‘g‘ri tashkil etishga xizmat qiladi, balki inson huquq va erkinliklarini amalda ta’minlash, odamlarda kelajakka ishonch hissini kuchaytiradi. Demokratik qadriyatlarni keng joriy etish, davlat va jamiyat boshqaruvida har bir kishining ishtirokini ta’minlash, muammolar yechimini ko‘rsatib beradigan qonun hujjatlarini qabul qilish, mamlakatimiz zimmasiga olgan xalqaro-huquqiy majburiyatlarini vijdonan bajarish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi. Inson baxtli bo‘lishi, o‘zini erkin va ozod his qilishi, hayotidan rozi bo‘lishi, o‘zi va farzandlarining xavfsiz jamiyatda yashashi kafolati aynan Konstitutsiya normalari ustuvor bo‘lgan joydagina ta’minlanadi.

Аннотация. В статье рассматриваются правовая природа Конституции, ее приоритет, особенности, значение соблюдения Конституции при принятии законов, соотношение Конституции и законов, правовые знания, конституционные реформы, теоретические и политические взгляды ученых на Конституцию, а также создание правовой базы, связанной с Конституцией.

Ключевые слова: Конституция, права человека, верховенство права, закон, право, правовая культура, социальное отношение, законопроект, демократические ценности, международно-правовое обязательство.

Abstract. This article describes the legal nature of the Constitution, its priority, features, the importance of adhering to the Constitution in the adoption of laws, the relationship between the Constitution and laws, legal knowledge, constitutional reforms, theoretical and political views of scholars on the Constitution, and the creation of a legal basis related to the Constitution.

Key words: Constitution, human rights, rule of law, law, law, legal culture, social attitude, draft law, democratic value, international legal obligation.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. // Халқ сўзи 2017-йил 8-февраль. № 28 (6722)-сон.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли., // Янги Ўзбекистон газетаси. 2022-йил 1-февраль. №-544. – Б. 1-3.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 11-сентябрдаги “Ўзбекистон-2030” стратегиясини тасдиқлаш тўғрисидаги фармони. №-158-сон. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-togrisida_519158

4. Отахонов Ф. https://xs.uz/uzkr/post/konstitutsiya-tushunchasi-funk tsiyalari-va-asosij-printsiplari.

5. Shavkat Mirziyoyev: Konstitutsiyani to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llash amaliyotiga o‘ tishimiz zarur // https://kun.uz/news/2023/12 /07/shavkat- mirziyoyevkonstitutsiya-kuni-munosabati-bilan-ozbekiston-xalqiga-bayram-tabrigi-yolladi.

6. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241- сон https://lex.uz/docs/64 45147

7. Мирак улов М. Констит уциявий қонуннинг моҳияти ва аҳамияти // https://gk-usbekistan.de/uz/ 2023/04/03/ o‘zbekcha

TURONDA SAKKIZ MING YIL OLDIN MULKIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLUVCHI RAMZIY MEZON – O‘LCHOV TIZIMIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI

Xojamberdiyev Elyor Shakirovich,
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi,
Tarix instituti, Harbiy tarixni o‘rganish markazi
kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya. **Maqolada qadimgi ota-bobolarimiz mulkiy munosabatlarga (egalik huquqi, meros, savdo-ayirboshlash) kirishganda huquqiy mezon ramzi hisoblangan belgi va vositalarga ega bo‘lgani masalasi o‘rganildi. Ilk dehqonchilik markazi – Joytun madaniyatidan topilgan turli handasaviy (geometrik) shakllardagi kichik loy bo‘laklarining sanoq va o‘lchov birliklari sifatida birlamchi hamda o‘yin donalari va diniy marosim vositalari o‘laroq ikkilamchi vazifalariga oid yondashuvlarga ilmiy-qiyosiy baho berildi. Jumladan, Eron olimi Sayid Sajjodiyning yangi tosh chog‘ida Turon aholisi mukammal hisob-kitob tizimiga ega bo‘lgani haqidagi qarashi chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, mazkur masalada sovet, milliy va G‘arb arxeologiya maktablari vakillarining turli talqinlari hamda ulardagi bahsli jihatlar ochib berildi.**

Mavjud tahlil natijasida, qariyb sakkiz ming yil oldin Turon aholisi o‘ziga xos sanoq va o‘lchov tizimini yaratganliklari va bu tizim jamiyatda mulkiy munosabatlarni tartibga solish, savdo-ayirboshlashda adolat mezoni hamda huquqiy asos ramzi bo‘lganligi aniqlandi. Shu o‘rinda ushbu loy bo‘laklari Turonda belgili yozuv shakllanishidan oldingi bosqich o‘laroq xizmat qilganligi dalillandi.

Kalit so‘zlar: Joytun, Passajiqtepa, Monjuqlitepa, Sopolli, Jarqo‘ton, Bo‘ston, Mesopotamiya, Zagros, Ganjdara, Jarmo, Chatal Huyuuk, Xajilar Huyuk, kichik loy bo‘laklar, tokenlar, belgili yozuv, shahmat donalari.

Ajdodlarimiz miloddan oldingi 6-ming yillikdayoq ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka asoslangan hayot tarziga o‘tganlar. Buning ortidan ortiqcha mahsulot paydo bo‘ldi. Natijada jamiyat hayotida milkiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquiy asosga zarurat tug‘ildi. Turon yeridagi Joytun madaniyati ana shunday eng qadimgi dehqonchilik, me’morchilik, kulolchilik va ilm-fan o‘choqlaridan biri maqomida dunyoning madaniy evrilishida beqiyos o‘rin tutgan. Hozirgi Turkmanistonning Kopetdog‘ tizmasi yonbag‘rida o‘troq jamoalarning bu makoni nomi Ashxoboddan 30 km shimolda joylashgan qadimgi qishloq nomidan olingan. Yodgorlikda 1952 yildan B. A. Kuftin boshchiligidagi guruh qazish ishlarini boshlagan. Natijada, 10 dan ortiq yodgorliklar (Chag‘illitepa, Pessejiktepa, Cho‘pontepa, Nayzatepa, Joytun va h.) ochib o‘rganildi. Bu manzilgohlarining har biri 0,5 – 2 ga maydonni egallaydi. Undagi somonli guvaladan qurilgan bir xonali uylar (25—45 m²) sahni oq ganchli, loy bilan suvalgan, ayrimlari qizil va qora rangga bo‘yalgan. Har bir xonada o‘choq, g‘alla ombori va supalar aniqlangan. Aholi asosan, dehqonchilik, uy chorvachiligi bilan mashg‘ul edi. Tadqiqotlarda Joytunliklar qo‘shni mintaqa elatlari bilan faol madaniy va savdo aloqalari olib borganliklari qayd etiladi. Shu sababli mazkur madaniyat ichidagi manzilgohlar 20-yuzyillikning birinchi yarmidan boshlab xorijlik olimlar tomonidan ham katta qiziqish bilan o‘rganib kelinmoqda.

Jumladan, Sayid Sajjodiy, Malik Shohmirzodiy, Parviz Varjovand, Rajabali Xonikiy kabi Eron qadimshunoslari tomonidan yodgorliklar yoshi, ularning tub va tashqi madaniy xususiyatlariga oid bajarilgan maxsus tadqiqotlar o‘ziga xos ahamiyatga ega[1, 204; 2, 145; 3, 127]. Masala bilan eng ko‘p shug‘ullangan Eron olimlaridan biri – Sayid Sajjodiy Turon arxeologiyasiga oid maxsus ikki jildlik o‘zasarini (monografiya) nashr qildirgan. Ushbu tadqiqotda Turonning qadimgi tosh chog‘idan temir chog‘igacha bo‘lgan tarixi batafsil yoritiladi. Tadqiqotchi mazkur o‘zasarida Turondagi deyarli barcha manzilgohlarning tavsifi, tub va tashqi madaniy xususiyatlariga tegishli bir qator ilmiy qarashlarini qayd etib o‘tgan.

Umumiy ma’noda Eron olimlari o‘rgangan masalalarning har biri alohida tadqiqot doirasini talab qiladi. Shuning uchun maqola mavzusidan kelib chiqqan holda, Sayid Sajjodiyning Joytun madaniyatiga tegishli turli shakldagi (asosan konus va silindr) kichik loy bo‘laklariga oid qarashi qiyosiy tahlil qilindi. Mavzuga tegishli maxsus tadqiqotlarda ushbu mitti loy bo‘laklari “tokenlar”

 ISSN 3030-3230

(belgi, nishon, ramz) deb ta’riflanadi[5, 69]. Shu jihatdan, keyingi o‘rinlarda ularga nisbatan ayni atamani shartli ravishda qo‘llash lozim topildi.

Sayid Sajjodiy Joytun tokenlariga alohida urg‘u berib, ular Turondagi boshqa topilmalar qatorida Yaqin Sharqning Ganjdara, Jarmo, Chatal-Huyuk, Hajilar-Huyuk kabi bir necha makonlardagi muqobil namunalariga juda o‘xshashligini tasdiqlaydi[2, 145].

Malik Shohmirzodiy, Parviz Varjovand, Rajabali Xonikiylar aynan tokenlar xususida to‘xtalmagan bo‘lsalar-da, Turonda yangi tosh chog‘i loydan ishlangan aksar buyumlar qo‘shni mintaqalar kulolchiligi bilan umumiy xususiyatlarga egaligini aytib o‘tganlar[1,380; 3, 127; 4, 742].

Mazkur o‘xshashlik sovet, milliy va G‘arb tadqiqotchilari tomonidan ham umum qabul qilingan fikr hisoblanadi[6, 7, 8, 9, 10]. Biroq, masala tarixshunosligidagi asosiy muammo – tokenlarning vazifalariga oid talqinlarning farqli ekanida. Mavjud farqlarni quyidagi arxeologiya maktablari kesimida ko‘rib chiqish o‘rinli.

Eron olimi Sayid Sajjodiy Joytun tokenlarini Yaqin Sharqdagi namunalarga o‘xshashligi ortidan turonliklarning qadimgi sanoq va o‘lchov tizimiga oid buyumlar sifatida baholaydilar[2, 145].

Sovet arxeologiya maktabi vakillari asosan Joytundagi sopol idishlar, xo‘jalik buyumlari va loy haykalchalarga ko‘proq e’tibor qaratib, tokenlarga ilmiy jihatdan jiddiy yondashmaganlar. Buning ortidan ushbu o‘lchov birliklari maxsus o‘rganilmagan. Joytunni bevosita tadqiq qilgan V.M. Masson bu kichik loy bo‘laklarni “noma’lum o‘yin donalari (fishkalar)” deya qisqacha ta’riflab o‘tadi[6, 39]. Misrdan ham xuddi shunday kichik konus shakldagi loy bo‘laklari yuzasi to‘rtburchakli katakchalardan iborat maxsus peshtaxtaga terilgan holda topilganini misol qiladi. Joytun uylarida bunday peshtaxtaning yo‘qligini mazkur donalar shunchaki yerda chizilib o‘ynalgan bo‘lishi mumkin deb izohlaydi[6, 39]. Uning taxminicha, o‘troq qishloq xo‘jaligining nisbatan barqaror kechmishi tufayli Joytun aholisi bo‘sh vaqtlarini ayniqsa, qishda, turli xil o‘yinlar bilan o‘tkazganlar.

V. M. Masson zamonaviy chog‘da ham turkiy xalqlar orasida shunga o‘xshash milliy o‘yinlar keng tarqalganini misol qilib o‘tadi. Faqat, ushbu o‘yinlarda maxsus tayyorlangan loy bo‘laklari o‘rnida mayda toshlar va suyaklar qo‘llanishini ta’kidlaydi. V. M. Massonning ushbu qarashlari keyinchalik G. Korobkova, O. Lollekova, O. Berdiyevlar tomonidan ayni ko‘rinishda talqin etilgan[7, 130; 12, 46; 12, 74]. Jumladan, O. Lollekova Passajiqtepa tokenlarini ham shu mazmunda tavsiflab o‘tadi[12, 46]. Shuningdek, S. N. Bibikov Luka-Vrublevetskaya (Ukraina) manzilgohidagi shunga o‘xshash loy bo‘laklarini o‘rganib chiqib, ular o‘yin donalari ekanini taxmin qilgan[13, 201]. A. Semenov va G. F. Korobkovalar ham Joytun tokenlarini Sankt-Peterburgdagi (o‘sha chog‘da Leningrad) arxeologiya tajribaxonasida (laboratoriya) tegishli uskunalar yordamida tahlil qilishib, ularni o‘yin unsurlari sifatida xizmat qilganligini tasdiqlaganlar[7, 130].

Umumiy ma’noda sovet tadqiqotchilari Joytun tokenlariga nisbatan ko‘p qirrali, mintaqalararo sanoq va o‘lchov ramzlari ya’ni mulkiy munosabat mezoni emas, balki, ma’naviy hordiq vositasi – o‘yin unsurlari o‘laroq qaraganlar.


Milliy tarixshunoslikda ham bu masala alohida tadqiq etilmagan. Ularda asosan sovet olimlarining qarashlariga iqtibos berib o‘tiladi. Jumladan, J. Kabirov va A. Sagdullayevlar ushbu kichik loy buyumlarni V. M. Massonga nisbatan aniqroq shaklda, ya’ni, shahmatga o‘xshash o‘yin donalari sifatida tavsiflaganlar[8, 81].

Mazkur qarash sovet ilmiy doirasida bir ovozdan umum qabul qilingan. Bu fikr arxeologiya tajriba usullari yordamida Misr, Ukraina kabi boshqa mintaqalardagi o‘yin donalari bilan qiyoslanib, ilmiy jihatdan asoslangan. Shu sababli Joytun tokenlari o‘yin unsurlari vazifasini bajargan, degan taxminlarga qo‘shilish mumkin. Biroq, tokenlarning o‘yin unsurlari sifatida qo‘llanilishi ularning qo‘shimcha vazifasi ekani G‘arb olimlarining qarashlarida ko‘zga tashlanadi.

G‘arb maktabi vakillarining bu boradagi qarashlari sovet va milliy olimlar talqinidan keskin farqlidir. Ular tomonidan tokenlar o‘yin donalari sifatida inkor etilmasa-da, bu qo‘shimcha vazifalardan biri o‘laroq baholanadi. Masalan, arxeolog Lyusi Bennison-Chapman tokenlar o‘yin donalari bo‘lganini tan oladi. Olimning bu qarashi sovet tadqiqotchilarining taxminlarini mustahkamlaydi. Ammo, muallif buni tokenlarning ikkilamchi vazifasi sifatida ko‘radi[14, 651]. Lyusi Bennison-Chapmanga ko‘ra, “o‘yin donasi” farazini qo‘llab-quvvatlovchi eng muhim dalillardan biri Yaqin Sharqning bir necha neolit chog‘i yodgorliklaridan topilgan o‘ziga xos tosh va gips taxtalardir. Unga ko‘ra, miloddan oldingi 7-mingyillikka oid ushbu o‘yin taxtalar yuzasida qator qilib o‘yilgan chuqurchalar mavjud. Bu chuqurchalarning o‘lchami va joylashuvi ularning o‘yin uchun mo‘ljallanganligini ko‘rsatadi[14,

651]. Lyusi Bennison-Chapman ta'kidicha, ushbu chuqurchalarning kichik va sayozligi ularning mayda o'yin donalari uchun moslashganidan dalolat beradi.

yumaloq, yassi, tuxumsimon, silindrsimon) muayyan bir mahsulot yoki hayvon turi hamda uning miqdorini ifodalagan. Masalan, konussimon token – kichik miqdordagi donni, yumaloq



Turon tokenlari [15, 413].

Neolit chog'i yodgorliklaridan topilgan ko'plab tokenlar aynan shu o'yin taxtalaridagi chuqurchalarga bemalol sig'adi. Bu esa tokenlar va taxtalarning bir-biriga bog'liq o'yin jamlanmasi sifatida ishlatilganligi haqidagi farazni tasdiqlaydi. O'yin taxtalarining barcha yodgorliklarda uchramasligini esa ularning aksariyati yog'och kabi chiriydigan narsalardan yasalgani yoki shunchaki yerga chizib o'ynalgani bilan izohlash mumkin[14, 651]. Bu sovet olimlari, xususan, V. M. Massonning "Joytunda o'yin taxtasining aniqlanmagani tokenlar maxsus chizilgan yerda o'ynalgan bo'lishi mumkin", degan yuqoridagi fikrini tasdiqlaydi.

Bundan ko'rinadiki, Ovro'po arxeologlari tokenlar ko'p vazifali bo'lganini tasdiqlaydilar. Biroq, ularning asosiy vazifasi mulkiy munosabatlarni belgilovchi sanoq va o'lchov tizimi bilan bog'liq, deb hisoblaydilar. Jumladan, 20-yuzyillikning 90-yillarida Deniz Shmandt-Besserat ilk bor ushbu masalada yangi nazariyani ilgari surdi. U "Sanoqdan mixxat yozuviga qadar" nomli o'zasarida ushbu loy bo'laklarini tokenlar (tokens) nomi bilan ilmiy muomalaga kiritdi. Ularning Yaqin Sharq va boshqa mintaqalardagi o'zaro o'xshash namunalarini chuqur o'rganib, murakkab hisob-kitob va o'lchov birliklari sifatida tavsifladi[5, 90]. Deniz Shmandt-Besserat Joytun tokenlariga ham alohida to'xtalib, ular barcha mintaqalardagi kabi asosan sanoq va o'lchov vazifasini bajarganini ilmiy asoslab berdi[5, 91]. Unga ko'ra, har bir tokenning shakli (konussimon, token – kattaroq o'lchovdagi donni, tuxumsimon token – bir ko'za yog'ni, silindrsimon token esa honakilashgan hayvonlar miqdorini ifodalagan[5, 72].

Shuningdek, tokenlar yozuvsiz chog'larda odamlarga mulkiy munsabatlarni belgilash, xo'jalik mahsulotlarini sanash, baholash, saqlash va ayirboshlash imkonini bergan. Bu, ma'lumotlarni qayta ishlashning eng qadimgi shakli bo'lib, axborotlar ("farzandimga 15 ta echkini meros qoldirdim", "ibodatxonaga bir dona otni ehson qildim", "o'nta qo'yim bor", "beshta ko'za yog'ni bir bosh echkiga ayirboshladim" v.h.) ma'lum bir mahsulotdan jismonan ajratilib, mulkiy ramziy ko'chma shaklda saqlangan. Ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda (2010 – 2014) bir qator G'arb olimlari Joytun madaniyatiga tegishli Monjuqlitepa (Turkmaniston) manzilgohida navbatdagi qazishma ishlarini o'tkazdilar. Natijada, ushbu manzilgohda ham 400 dona turli shakldagi tokenlar aniqlandi[15, 496].

Ushbu tokenlar ham boshqa yerdagilar kabi shaklan besh guruhga bo'linadi: yassi, yumaloq, konussimon, silindrsimon va tojsimon. Monjuqlitepa tokenlarining o'lchamlari turiga qarab farqlanadi. Jumladan, kichiklarining balandligi 1 sm dan 3 sm gacha, eni taxminan, 1 sm va 3 sm ni tashkil etadi. Eng yiriklarining bo'yi 6 sm, eni esa 4 smdan iborat.

Deniz Shmandt-Besserat nazariyasining yaxlit mohiyati quyidagi omillar kesimida ochib

ISSN 3030-3230

berilgan: murakkab hisob-kitob tizimi, ramziy o‘lchov, iqtisodiy zarurat. Ya’ni, tokenlarning paydo bo‘lishi ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tish bilan bog‘liq bo‘lib, ilk bosqichda iqtisodiy ehtiyojlar – hosilni hisoblash, ombordagi zaxiralarni qayd etish, mintaqalararo savdo va soliq munosabatlarini tartibga solish uchun xizmat qilgan. Bu tizim keyinchalik takomillashib, tangalar, muhrlar, yozuv va raqamlarning shakllanishida asosiy omil bo‘ldi[5, 73]. Olimning ushub qarashlari S. Pollok, R. Bernbek, B. O‘gut, L. Bennison-Chapman singari bir qator arxeologlar tomonidan ham asosli deb topilgan[15, 493].

Ayrim G‘arb tadqiqotchilari tokenlar diniy tasavvur va marosim unsurlari sifatida yana bir ikkilamchi vazifani ham bajargani haqida to‘xtalib o‘tadilar. Jumladan, L. Bennison-Chapman tokenlarning asosiy iqtisodiy vosita bo‘lishidan tashqari, ularning ijtimoiy-diniy ahamiyatini ham ochib bergan. Tadqiqotchi o‘z qarashlarini Bo‘njukli Huyuk, Chatal Huyuk (Turkiya), Tell Sabi Abyod (Suriya) manzilgohlarida tokenlarning marosim joylaridan ham topilgani bilan asoslaydi[14, 651]. Uning fikricha, Bo‘njukli Huyuk yodgorligidagi ibodatxonada hamda Tell Sabi Abyoddagi yoqib yuborilgan binolarda tokenlarning boshqa diniy buyumlar bilan birga topilishi ularning marosimlarda ishlatilganidan dalolat beradi[14, 651]. Tokenlar marosim qatnashchilarini hisoblash, qurbonliklarni belgilash yoki ramziy hadya sifatida xizmat qilgan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ilk dehqonchilik jamiyatlari uchun mahsulotlarni (yer, go‘sht, g‘alla) adolatli taqsimlash, ov yoki boshqa jamoaviy ishlar uchun odamlarni tanlash hayotiy zarurat edi. Shu bilan birga tokenlar qur’a tashlash vositasi sifatida ham ishlatilib, o‘zaro nizolarning oldini olishga va jamoada qarorlarning “ilohiy iroda” bilan qabul qilinganini ko‘rsatishga xizmat qilgani ehtimoldan yiroq emas. Ularning turli shakl va ranglarda bo‘lishi bunday amaliyotlar uchun qo‘shimcha ramziy ma’nolar bag‘ishlagan[14, 653].

O‘tkazilgan tahlillar, Eron arxeologi Sayid Sajjodiyning yangi tosh chog‘i Turonda mulkiy munosabatlarning huquqiy asosi va mezoni vazifasini o‘tagan ukammal sanoq va o‘lchov tizimi mavjud bo‘lganiga oid qarashi asosli ekanini tasdiqlaydi[2,171]. Shuningdek, sovet davri va milliy olimlarning talqinlariga ko‘ra, tokenlar shahmatga o‘xshash o‘yin donalari va diniy tasavvur vositalari o‘laroq ikkilamchi vazifalarni ham bajarganini ko‘rsatadi.

Joytun tokenlari va belgili yozuv masalasi. Yuqorida ta’kidlanganidek, Deniz Shmandt-Besserat tokenlar insoniyatning belgili (piktografik) yozuvga o‘tish bosqichidagi tizimning asosiy unsurlari ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bugungi kunga qadar hech bir tadqiqotchi ushbu nazariyani inkor etmagani e’tirofga loyiq. Deniz Shmandt-Besserat fikricha, yozuv to‘satdan paydo bo‘lgan ixtiro emas, balki, ramzlarni boshqarish jarayonida shakllangan bir necha ming yillik tajribaning mantiqiy davomidir[5, 68]. Agar mazkur fikrga tayanilsa, Turonda ham shunday tokenlarning mavjudligi mintaqaning Yaqin Sharq kabi sanoq tizimidan yozuvga qadar bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tganini anglatadi. Bu omil bronza chog‘iga kelib, Turonda ham belgili yozuv paydo bo‘lganligi haqidagi taxminlarni mustahkamlaydi.

Biroq, G. Bonora, G. Guida, M. Vidale kabi tadqiqotchilar Joytunda Ikki daryo oralig‘i (Mesopotamiya) kabi yozuvning uzluksiz rivojlanish zanjirini tasdiqlovchi “bullalar” (ma’lumot-tokenlarni tashuvchi yumaloq



Monjuqlitepa. Mahsulot haqida axborot bitilgan belgili yozuv [15, 321]

loy qutilar - ushbu qutilarda mulk huquqini tasdiqlovchi ma’lumotlar aks etgan) yoki sanoq belgilari topilmagani vajidan bu fikrga shubha bilan qaraydilar[16, 55-71]. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, mazkur olimlar keltirgan ilmiy dalillar asossizdir.

Chunki, tokenlar ko‘rinishidagi huquqiy ma’lumotlarni tashish uslubi har bir mintaqa xususiyatlaridan kelib chiqib turlicha bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Ya’ni, Joytunda yumaloq loy qutilar – bullalarning yo‘qligi Turonda yozuvga qadar bo‘lgan uzviy evrilish bo‘lmaganini anglatmaydi. Shuningdek, Monjuqlitepada olib borilgan qazishmalar natijasida topilgan belgili loy bo‘laklari ham ashyoli yozuvga oid dalillarni kuchaytiradi.


Shaydullayev, B. Shaydullayev, Z. Choriyev T. Annayev kabi milliy olimlarning tadqiqotlarida ham batafsil keltirilgan[17, 96; 18, 71; 19, 27]. Jumladan, Sh. Shaydullayev Jarqo‘ton yodgorligi sopollariga bitilgan 47 xildagi belgilarni tahlil qilib, ular bir-birini takrorlamasligi va Turondagi belgili yozuv namunalari ekanini asoslab bergan[19, 27].

Olim shuningdek, Turonning qadimgi ashyoviy yozuvlari masalasida ham yangi ilmiy dalillarni muomalaga kiritdi. O‘zining Turonning eng qadimgi yozuv tizimiga oid hammualliflikda yozilgan risolasida Sopolli madaniyatiga oid Bo‘ston yodgorligidan topilgan mitti loy buyumlar ashyoviy yozuv namunalari ekanini keltirib o‘tadi[19, 11].

Ushbu ashyolar orasida neolit chog‘iga oid



Sopolli madaniyati belgili yozuvlari[19, 27]



O‘zbekistonda joylashgan Bo‘ston yodgorligidan topilgan ashyoviy yozuv namunalari[19, 27].

Turonliklar bronza chog‘ida o‘zlarining belgili yozuvlarini yaratganliklariga oid asosli fikrlar Sh. Joytun tokenlari shakliga (konus va silindr) aynan xos bo‘lgan loy bo‘laklarini uchratish mumkin.

ISSN 3030-3230

Bu omil Turonda ashyoviy yozuv shakllanishi jarayonidagi uzviylikni tasdiqlaydi.

Bundan ko‘rinadiki, Turonda Mesopotamiya, Eron, Misr, Yunoniston va Xitoydan qolishmaydigan mukammal yozuv madaniyati shakllangan. Joytun tokenlari esa mazkur yozuv o‘zining barcha evrilish bosqichlarini bosib o‘tganligiga inkor etib bo‘lmas dalildir.

Yakuniy to‘xtam o‘rnida shularni aytish mumkinki, yangi tosh chog‘ida Turon aholisi o‘zining mintaqalararo ahamiyatga mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy mezon ramzi bo‘lgan sanoq va o‘lchov va ashyoviy yozuv tizimini tokenlar vositasida yaratgan. Ushbu tokenlar o‘yin donalari va diniy tasavvur unsurlari kabi ikkilamchi vazifalarni ham bajargan.

Tarixshunoslik tahlili jihatidan shuni alohida ta’kidlash lozimki, Turon tokenlari sovet davridan to bugunga qadar mutaxassislar e’tiboridan chetda qolib kelayotgani ma’lum bo‘ldi. Xorij tarixchiligida esa aksincha, mavzuga oid maxsus tadqiqotlar hajmi va salmog‘i kundan-kun ortib bormoqda. Mazkur omillar ushbu moddiy madaniyat namunalarini chuqur o‘rganish milliy tarixchilikdagi dolzarb vazifalardan biri ekanini ko‘rsatdi.

Turon tokenlarini jiddiy tadqiq etish ortidan milliy davlatchilik boshqaruvi asoslariga oid ko‘plab ochiq qolgan masalalar o‘z yechimini topishi mumkin.

Аннотация. В статье исследуется вопрос о том, что у древних предков существовали особые знаки и предметы, служившие правовыми символами при вступлении в имущественные отношения (право собственности, наследование, торгово-обменные операции). Научно-сравнительно проанализированы подходы к определению первичных и вторичных функций небольших глиняных изделий геометрических форм, обнаруженных в древнейшем земледельческом центре — культуре Джойтун. Эти изделия рассматривались как единицы счёта и меры (первичная функция), а также как игровые элементы и атрибуты религиозных обрядов (вторичная функция). Особое внимание уделено мнению иранского исследователя Саида Саджадия о том, что население Турана в эпоху неолита обладало развитой системой расчётов. Также раскрыты различные трактовки и дискуссионные положения представителей советской, национальной и западной археологических школ по данной проблематике. Проведённый анализ позволяет сделать вывод, что около восьми тысяч лет назад население Турана создало оригинальную систему счёта и мер, которая служила основой для регулирования имущественных отношений, обеспечивала справедливость в торгово-обменных процессах и выполняла функцию правового символа. Кроме того, обосновано, что данные глиняные изделия представляли собой предшествующий этап формирования знаковой письменности в Туране.

Ключевые слова: Джойтун, Пассаджиктепа, Монджукилтепа, Сополли, Джаркутан, Бостан, Месопотамия, Загрос, Ганджара, Джармо, Чатал-Хююк, Хаджилар-Хююк, глиняные токены, знаковая письменность, шахматные фигуры.

Abstract. This article examines the historical phenomenon of symbolic objects and markers used by ancient communities of Turan when entering property relations, including ownership, inheritance, and trade exchange. A comparative scientific analysis is conducted on the primary and secondary functions of small geometric clay pieces found at the earliest agricultural center — the Jeitun culture. These clay items are interpreted as early units of counting and measurement (primary function) as well as gaming pieces and ritual objects (secondary function). The article also provides a detailed examination of the view of Iranian scholar Seyyed Sajjadi, who proposed that the inhabitants of Turan in the Neolithic period possessed a highly developed system of calculation. Furthermore, the study highlights differing interpretations and controversial points presented by Soviet, national, and Western archaeological schools on the subject. The findings demonstrate that nearly eight thousand years ago the population of Turan developed a distinctive system of counting and measurement, which served as a regulatory tool in property relations, ensured fairness in trade-exchange processes, and functioned as a symbolic legal standard. The research also substantiates that these clay tokens represent a transitional stage preceding the emergence of symbolic writing in Turan.

Key words: Jeitun, Passajiktepa, Monjuqlitepa, Sopolli, Jarkutan, Bustan, Mesopotamia, Zagros, Ganjdara, Jarmo, Çatalhöyük, Hacılar Höyük, clay tokens, symbolic writing, chess pieces.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sodiq Malik Shohmirzodiy. Bostonshunosi-e Iron: az og‘oz to sepide dam shahrnishini. – Tehron. 2004. – S. 380.
2. Sayid Mansur Sayid Sajjodiy. Bostonshunosi-e Osiyoyi Markaziy. Jilde avval. – Tehron. 2015. – S. 145.
3. Parviz Varjovand. Negohi be pishineyi chigunagi va arzeshi barrasiho va kovoshhoyi bostonshunosi dar Osiyoyi Miyona // Farhang va zindagi. – Tehron. 1978. – S. 127.
4. Rajabali Lebof Xonikiy. Sofol – namodi farhangi mushtaraki Eron va Osiyoyi Miyona // Bostonshunosi va torix. – sho‘more-i 4, 2008. – S. 741–763.
5. Schmandt-Besserat D. Before Writing: From Counting to Cuneiform. Volume I. Texas. 1992. pp. 67-92.
6. Массон В. М. Поселение Джейтун. – Ленинград: Наука, 1971. – С. 39.
7. Коробкова Г. Ф. Определение функций каменных и костяных орудий с поселения Джейтун по следам работы // ТЮТАКЭ. – Том. 10. – С. 130.
8. Кабиров Ж. Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Тошкент. 1990. Б. 81.
9. Mellaart J. Çatal Hüyük: A Neolithic Town in Anatolia. – Thames and Hudson. 1967 – P. 69.
10. Hiebert F. T. A Central Asian Village at the Dawn of Civilization: Excavations at Anau, Turkmenistan. – Philadelphia. 2003. – P. 16.
11. Лоллекова О. Локальная Варриабильност в культуре и хозяйстве Джейтунских племён. Ашхабад. 1988. С. 46;
12. Бердыев О. К. Древнейшие земледельцы Южного Туркменистана. Ашхабад. 1969. С. 74.
13. Бибиков С.Н. Раннетрипольское поселение Лука-Врублевецкая на Днестре. Москва. 1953. С. 201.
14. Benission-Chapman L. E. The role and function of tokens and sealing practices in the neolitik of the Near East. London. P. 651.
15. Excavations at Monjukli Depe, Turkmenistan in 2010 – 2014. Edited by S. Pollock, R. Bernbeck and B. Öğüt. Volume 1. 2019. P. 496.
16. Bonora G. L., Vidale M., Mariottini M., Guida G. On the use of tokens and seals along the Kopet Dagh piedmont, Turkmenistan (ca 6000–3000 BCE) // Paleorient. 2014. Vol. 40. Num. 1. pp. 55–71.
17. Чориев З., Шайдуллаев Ш. Некоторые размышления о возникновении письменности на территории Узбекистана // Jayhun. Termiz davlat universiteti xabarnomasi. – Termiz. 2005. – B. 96.
18. Чориев З., Шайдуллаев Ш., Аннаев Т. Ўзбекистон худудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – B. 71.
19. Шайдуллаев Ш.Б., Шайдуллаев А.Ш. Туроннинг энг қадимги ёзув тизими. – Тошкент: Фан, 2024. – Б. 84.

 ISSN 3030-3230

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT XARIDLARI QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Usmonov Shavkatjon Shukurovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Iqtisodiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ismoilov Muhammadqodir Ulug‘bek o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi

Annotatsiya. Maqolada davlat xaridlari tizimini, qonun va qonun osti hujjatlar bilan mustahkamlab borilishi masalalari yoritilgan, huquqiy-normativ asoslari rivojlanish davrlari va istiqbollari qiyoslangan. «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining davlat xaridlarini amalga oshirishdagi asosiy yangiliklar ochib berilgan. Davlat buyurtmachilariga xarid qilish tartib-taomillarini takomillashtirish tartibi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: davlat xaridlari, huquqiy-normativ asoslari, davlat xaridlari mexanizmi, “budjet” va “korporativ” buyurtmachilar, elektron tizimlar, elektron savdolar bo‘yicha maxsus komissiya.

Mamlakat miqyosidagi har qanday jarayon shu davlat iqtisodiy-ijtimoiy hayoti uchun juda muhim, uning natijasi, salbiy yoki ijobiy bo‘lishiga qarab, mamlakat aholisiga, davlatning iqtisodiy mexanizmi va uning tarkibiy qismlariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Davlat xaridlari jarayoni ham ulkan hamda murakkab mexanizm bo‘lib, uning to‘g‘ri tashkil etilganligi va mamlakat iqtisodiyotiga zarar emas, balki yuqori samara keltirishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham makro darajadagi qanday jarayon yuz bermasin, shu jumladan, davlat xaridlari ham, qonun va qonun osti hujjatlar bilan mustahkamlab borilishi zarur. Aynan qonunchilik davlat xaridlari mexanizmini takomillashtirish va uning nazoratini tashkil etishga ko‘maklashadi hamda davlat xaridlari subyektlarining manfaatlari nohaq buzilishi, qabul qilingan qonun-qoidalardan chetlanishlarni oldini oladi.

Davlat xaridlarining asosiy tartibga soluvchi eng yuqori hujjati «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni davlat xaridlari ochiqligini va shaffofligini hamda bu sohada tadbirkorlarning raqobat kurashuvini ta’minlash bilan birga, davlat budjeti va davlat ulushiga ega bo‘lgan korxonalar mablag‘laridan foydalanishni, korrupsiyani profilaktika qilishda tartiblovchi mexanizmni ishlashini mustahqamlamoqda[1].

Ushbu qonun davlat xaridlarini amalga oshirishning amaldagi tajribasini hamda xalqaro tajribani, jumladan, BMTning Xalqaro savdo huquqi bo‘yicha Komissiyasining (UNCITRAL) model qonunchiligining asosiy qoidalarini, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya, Belarus va boshqa davlatlarning davlat xaridlari bo‘yicha qonunchiligini hisobga olgan.

Qonundagi asosiy yangiliklar[2]:

- Davlat buyurtmachisining ikkita yangi kategoriyalari kiritilgan – «budjet» va «korporativ» buyurtmachilar;

- vakolatli organ sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi belgilandi. Ilgari davlat xaridlari sohasida vakolatli organ mavjud emas edi;

- davlat xaridlarining barcha turlari uchun maxsus axborot portali joriy etilmoqda. Elektron do‘kon va auksionda g‘olibni aniqlash avtomatik tarzda elektron tizim orqali amalga oshiriladi;

- maxsus talablar tatbiq etilmaydigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) elektron do‘kon orqali xarid etiladi. Budjet buyurtmachilari uchun -25 BHM, yiliga 2500 BHMdan ortiq bo‘lmagan holda, korporativ buyurtmachilar uchun – 250 BHMdan ortiq bo‘lmagan limitlar o‘rnatildi;

- tender tanlovlari uchun so‘m limitlar o‘rnatilgan: budjet buyurtmachilari uchun – 6000 BHM dan yuqori, korporativ buyurtmachilar uchun- 25000 BHM dan yuqori. Ilgari tender savdolari 100 ming AQSh dollaridan yuqori bo‘lgan summaga o‘tkazilgan;

- xarid qilish tartib-taomillari ustidan monitoring va nazorat tartibga solinmoqda.


Davlat xaridlari qonunchiligidagi o‘zgarishlarni, uning rivojlanishi tendensiyasiyalari tadqiqotlari natijasida, biz uni amalda bajarilishidagi keskin o‘zgarishlarga qarab uch davrga bo‘lishni lozim topdik. Ya’ni:

- **birinchisi** 1991 yildan 2000 yilgacha bo‘lgan davr – davlat xaridlarini shakllantirish

davri;

- **ikkinchisi** 2000 yildan 2018 yilgacha bo‘lgan davr – davlat xaridlarini takomillashtirish davri;

- **uchinchisi** 2018 yildan hozirgi kunga qadar bo‘lgan davr - davlat xaridlarini to‘liq elektronlashtirish davri (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini amalda bajarilishidagi keskin o‘zgarishlarga qarab rivojlanishining uch davri

Birinchi davrni - “o‘tish davri” deyilsa to‘g‘ri bo‘ladi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin mamlakatimizda katta iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tishda hukumatimiz tomonidan Davlat ta’minoti muassasalari, maxsus iste’molchilar va davlat zaxirasi uchun tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish tizimini yanada takomillashtirish, shu maqsadlarga yo‘naltiriladigan budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga hisoblab aniqlangan ehtiyojdan kelib chiqqan holda kelgusi yilga davlat ehtiyojlari uchun xarid qilishni moliyalashning chegaralab qo‘yilgan limitlarini belgilash huquqini berdi.

Davlat ehtiyojlari uchun davlat ta’minoti muassasalari, maxsus iste’molchilar va davlat zaxirasi uchun xarid qilishni, qoida tariqasida, tanlov asosida amalga oshirish belgilandi. Mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarning resurslar bilan ta’minlanmagan qismigina tender asosida amalga oshirishga ruxsat berildi.

Davlat xaridlari tushunchasidan ham qonunchilikda foydalanish boshlandi. Dastlabki ibora “ Davlat xaridlari - tovarlarni to‘liq yoki qisman davlat mablag‘lari hisobiga xarid qilish” deb qo‘llanildi[3]. Shartnomaviy (erkin) xarid narxlari tushunchasidan keng foydalanish boshlandi[4].

Davlat ehtiyojlari uchun tovar yetkazib beruvchilarni tanlash, to‘g‘ridan- to‘g‘ri shartnomalar tuzish birja savdolarida, ochiq va yopiq tender xarid qilish shakllari orqali davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi o‘rnatildi.

Ikkinchi davr - davlat xaridlariga kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilishni tashkil etish, tender va tanlov savdolarini amalga oshirish hamda takomillashtirish davri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil

3-sentabrdagi “Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 414-sonli qaroriga muvofiq, budjet mablag‘laridan samarali va aniq foydalanish maqsadida 2000-yil 1-yanvardan budjet mablag‘laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda budjet va smeta-shtat intizomini mustahkamlash uchun budjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas’uliyatini oshirish belgilandi.

Mamlakatimizdagi va chet ellik mahsulot yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi raqobatni rivojlantirish, mahsulot yetkazib berishga kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish, xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalarni xarid qilish yuzasidan tender savdolari tashkil etish va o‘tkazish tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-noyabrdagi 456-sonli “Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi hamda Vazirliklar va idoralarga (budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilar) tovarlar, ishlar, xizmatlarning barcha turlarini xarid qilishda ushbu Nizomga amal qilish belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrdagi PQ-1024-son qarori bilan 456-sonli qarorga o‘zgartirishlar kiritilib, unga ko‘ra:

- tender (tanlov) o‘tkazmasdan tovar yetkazib beruvchilar (bajaruvchilar, pudratchilar) bilan kontraktlar tuzish ro‘yxati shakllantirildi;

- Yagona yetkazib beruvchi bilan kontrakt tuzilishi muddatlari va shartlari belgilandi.

Qarorga 2011-yil 1-apreldagi “Davlat xaridlarini tashkil etishga doir normativ-

huquqiy bazani takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

100-son qarori bilan o‘zgartirishlar kiritilib yangi tizimga zamin yaratildi:

- tender o‘tkazmasdan tovar yetkazib beruvchilar bilan to‘g‘ridan- to‘g‘ri kontraktlar tuzish ro‘yxati tasdiqlandi, ulardan, shartnoma tuzish vaqtida 300 AQSh dollaridan oshmagan summada tovar(ish, xizmat)lar sotib olinganda, tovarlar yetkazib berish, tovarlar birja orqali xarid qilinganda, tovarlarni sotishga alohida huquqi bo‘lgan faqat bitta yetkazib beruvchidan tovarlar xarid qilish mumkin bo‘lganda, tuzilgan kontraktning shartlari dastlabki kontrakt umumiy summasining 20 foizidan oshmaydigan summaga teng qo‘shimcha ishlarni bajarish maqsadida o‘zgarganda va h.k.;

- 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha teng summadagi bitta kontrakt bo‘yicha yetkazib berishlarni amalga oshirishda xaridlar buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan maxsus komissiya qaroriga ko‘ra eng yaxshi takliflarni tanlab olish asosida tender savdolari o‘tkazmasdan amalga oshirish tartibi kiritildi;

- 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha summaga bitta kontrakt bo‘yicha ro‘yxati Davlat xaridlari bo‘yicha Hukumat komissiyasi tomonidan belgilanadigan tovarlar, ishlar va xizmatlarning ayrim turlari davlat xaridlari O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi tomonidan tashkil etiladigan elektron auksion savdolar orqali amalga oshirilishi belgilandi.

Vazirlar mahkamasining qaroriga so‘nggi o‘zgarishi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-dekabrdagi 992-son qarori bilan:

- bir ming AQSh dollaridan kam summasidagi bir kontrakt bo‘yicha yetkazib berishda xarid tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning narxi, sifati va yetkazib berish muddatlari bo‘yicha eng maqbul shartlarni taklif etgan yetkazib beruvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish tartibi joriy etildi;

- bir ming AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha summaga bitta kontrakt bo‘yicha yetkazib berishda xarid xarid qilinadigan tovarlar, ishlar va xizmatlarning yetkazib beruvchilar yoki pudratchilar e’lon qilgan narxlar va tavsifnomalarni taqqoslash yo‘li bilan buyurtmachilar tomonidan tashkil etiladigan idoraviy tanlov komissiyalari tomonidan baholanadigan eng yaxshi takliflarni tanlab olish yo‘li bilan amalga oshirish tartibi yo‘lga qo‘yildi.

Elektron auksion savdolarning samaradorligidan kelib chiqib, mazkur savdolarga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini yanada kengroq jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish, xarid tizimida raqobatni rivojlantirish va oshkoralikni ta’minlash, hamda mablag‘lardan maqsadli va oqilona foydalanish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektron xaridlar tizimini maqbullashtirish va ulardan tadbirkorlik subyektlarining foydalanishini kengaytirish to‘g‘risida” Qarori qabul qilindi[5]. Tuzilgan kontraktlar reyestri birja tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi va birjaning ma’lumotlar bazalari elektron o‘zaro hamkorligi yo‘li bilan avtomatik rejimda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligiga yuborish boshlandi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlari tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida 2017 yil 23 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3237-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, 2017 yilning 23 avgustidan bitta kontrakt bo‘yicha 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha ekvivalentdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi tomonidan tashkillashtiriladigan elektron savdolar orqali amalga oshirishga oid talab bekor qilindi.

Uchinchi davr bu to‘liq elektronlashtirish (raqamlashtirish) davri hisoblanadi. 2018 yil 9 aprelda “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining yangi qonuni qabul qilindi. 12 bob, 79 moddadan iborat Qonun davlat xaridlari ochiqligi va shaffofligini hamda bu sohada tadbirkorlarning raqobat kurashuvini ta’minlaydigan, davlat budjeti, markazlashtirilgan manbalar va davlat ulushiga ega bo‘lgan korxonalar mablag‘laridan samarali foydalanishga imkon yaratdi[6].

“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun bilan amaliyotga kiritilgan asosiy yangiliklar:

- qonun davlat xaridlarining besh tartib-taomili(turi)ni belgilandi. Bulardan Davlat xaridlari bo‘yicha qaror qabul qilishda inson omilini butkul inkor etadi. Qolgan xarid tartib-taomillari shaffofligi maxsus axborot portalida zarur axborot chop etish yo‘li bilan ta’minlandi;

- xarid tizimida davlat buyurtmachisining ikkita kategoriyalari birlashtirildi. Bular -

budjet buyurtmachilari (davlat organlari; budjet tashkilotlari; davlat maqsadli jamg‘armalari) hamda korporativ buyurtmachilar (ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar);

- davlat xaridlari jarayoni barcha bosqichlarining yaxlitligi va o‘zaro aloqadorligini ta’minlash maqsadida davlat xaridlari tizimida ilk bora davlat xaridlarining prinsiplari kiritildi;

- xarid qilish tartib-taomillari ustidan doimiy monitoring va qati nazorat yo‘lga qo‘yildi, xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati amalga oshirish yo‘lga qo‘yildi. Xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati ochiqlik va shaffoflik prinsiplarini ro‘yobga chiqarish vositasida amalga oshirilishi belgilandi;

- davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha maxsus komissiya shakllantirildi. Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha tuzilgan Komissiyaning faoliyati xaridlarning barcha turlariga tadbiq etildi. Shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha maxsus komissiyaga shikoyatni qisqa davr mobaynida davlat buyurtmachisi va ishtirokchining ishtirokida ko‘rib chiqish, hamda shikoyat olinganidan keyin yetti ish kuni ichida qaror chiqarishi va axborotni maxsus axborot portaliga joylashtirish amaliyoti kiritildi.

Bu albatta yakuniy qadam bo‘lmadi, qonunchilikdagi xarid tizimini rivojlanish tendensiyalari, mamlakatimizdagi birja savdolari va elektron tijorat sohalarida sotiladigan tovar (ish, xizmat)larning ro‘yxati kengayishi, barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarning elektron savdodan foydalanish imkoniyatlarining oshganligi “Davlat xaridlari to‘grisida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilinishiga sabab bo‘ldi. Uning ta’sirida davlat xaridlari tizimida sog‘lom raqobatni kuchayishiga va real bozor sharoitlarini hisobga olgan holda, narx belgilashning zamonaviy mexanizmi takomillashtirildi.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq 2022 yil 1 yanvardan boshlab eng yaxshi takliflarni tanlash va tender xarid qilish tartib-taomillari majburiy tartibda to‘liq elektron shaklda o‘tkazish amaliyoti joriy etildi.

Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari qayta ko‘rib chiqildi. Eng yaxshi takliflarni tanlash (ilgari – tanlov) hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari (ilgari – yagona yetkazib beruvchida davlat xaridi) joriy etildi. Shuningdek Prezidentning farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlariga kiritilishi belgilandi hamda davlat buyurtmachilari va tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida xarid qilish tartib-taomillari soddalashtirildi.

Davlat xaridlarini amalga oshirishga qaratilgan qonunchilik yanada takomillashtirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatning

2024-yil 21-sentabr kunidagi ellik yettinchi yalpi majlisida “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi Qonun qabul qilindi[7].

Qonunda ikki bosqichli davlat xaridlari, kichik qiymatdagi xarid uchun soddalashtirilgan tartib, markazlashgan davlat xaridlari va hadli kelishuv kabi yangi mexanizmlar joriy qilindi. Davlat buyurtmachisi, shu jumladan byudjet buyurtmachisi, zaruratga ko‘ra, eng yaxshi takliflarni tanlash yoki tender natijalari bo‘yicha 1 yildan 4 yilgacha bo‘lgan muddatga hadli kelishuv tuzish mumkinligi belgilandi (1-jadval).

Davlat xaridlari sohasida foydalaniladigan tovar (ish, xizmat)lar klassifikatori ishga tushirildi.

Davlat xaridlarida qatnashayotgan ishtirokchilarining o‘z roziligiga ko‘ra taqdim etgan takliflari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni davlat xaridlari elektron tizimida barcha uchun ochiqlash imkoniyati yaratildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, davlat xaridlarining huquqiy asoslari mamlakatimizda tartibga solindi, jahon andozalariga moslandi, korrupsiyadan yiroq bo‘lgan elektron xarid tizimi yaratildi.

Davlat xaridlari tizimini yanada rivojlantirish uchun xorijiy tajribadan foydalanib yangicha uslublarini tatbiq etishimiz lozim. Xarid tizimidagi quyi qatlamda mavjud muammolar doimiy tarzda onlayn tartibda o‘rganib borishimiz lozim.

Shuningdek davlat xaridlarini yanada takomillashtirish, uning imkoniyatlarini kengaytirish, ochiqlik va oshkoralikni ta’minlash, tadbirkorlarga keng imkoniyat berish borasida:

- xaridlar bozorida tadbirkorlik subyektlarining ishtirokini oshirish;

- raqamlashtirishda sun’iy intellektdan foydalangan holda xaridlar sohasining barcha jarayonlarida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash hamda korrupsiyaviy xatarlarni aniqlash va ularning

ISSN 3030-3230

1-jadval

Davlat xaridlari tartib-taomillari va mezonlari

Xarid turi		Budjet buyurtmachilari uchun	Korporativ buyurtmachilar uchun	Muddati	Amalga oshirish tartibi	Agar xarid oshmasa	Ijrochini aniqlash
Kichik qiymatli xarid	tovar ish, xizmat	BHMning 25 gacha	BHMning 50 gacha	-	qog‘oz va elektron	-	buyurtmachi tomonidan eng arzon narx taqdim etgan
	bir moliya yilida	BHMning 500 gacha	BHMning 1000 gacha				
To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar	tovar, ish, xizmat	-	-	-	elektron	hadli kelishuvdan yoki kichik qiymatli xarid	tasdiqlangan ro‘yxatga muvofiq
Elektron do‘kon	tovar	BHMning 2 500 gacha *(bir moliya yilida ayni bir turdagi tovar 10 000 baravargacha)*	BHMning 25 000 gacha	48 soat	elektron	1. kichik qiymatli xarid 2. auksion 3. eng yaxshi takliflarni tanlash	operator tomonidan eng arzon narx taqdim etgan
	ish, xizmat	BHMning 50 gacha *(bir moliya yilida ayni bir turdagi ish, xizmatlar 500 baravargacha)*	BHMning 100 gacha *(bir moliya yilida ayni bir turdagi ish, xizmatlar 1000 baravargacha)*				
Auksion (faqat tovar)	tovar	BHMning 6 000 gacha	BHMning 25 000 gacha	5 ish kuni	elektron	1. 3 kun uzaytiriladi 2. elektron do‘kon 3. kichik qiymatli xarid 4. eng yaxshi takliflarni tanlash	operator tomonidan eng arzon narx taqdim etgan
Eng yaxshi takliflarni tanlash	tovar ish, xizmat	BHMning 6 000 gacha	BHMning 25 000 gacha	5 ish kuni (2 ish kuni muhokama)	qog‘oz va elektron	1. eng yaxshi takliflarni tanlash 2. elektron do‘kon 3. kichik qiymatli xarid 4. auksion	xarid komissiyasi aniqlaydi (5nafardan kamida 2/3 qismi)
Tender	tovar, ish, xizmat	BHMning 6 000 dan yuqori	BHMning 25 000 dan yuqori	12-30 ish kuni	qog‘oz va elektron	qayta tender	xarid komissiyasi aniqlaydi (7 nafar)
Ikki bosqichli davlat xaridlari	tovar, ish, xizmat	BHMning 6 000 baravaridan yuqori	BHMning 25 000 baravaridan yuqori	20 ish kuni	elektron	tender	xarid komissiyasi aniqlaydi (7 nafar)

oldini olishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish;

- ishtirokchilarning narx takliflarini baholashda QQS summasini inobatga olmasdan davlat xaridlarining elektron tizimi orqali avtomatik taqqoslash amaliyoti joriy qilish;

- rivojlangan davlatlar tajribasida foydalanadigan yangi xarid turlarini joriy qilish;

- mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirish;

Аннотация. В статье освещаются вопросы совершенствования системы государственных закупок, законодательных и подзаконных актов, сравниваются периоды развития нормативно-правовых основ и перспективы. Раскрыты основные нововведения закона Республики Узбекистан «О государственных закупках» в осуществлении государственных закупок. Изучен порядок совершенствования закупочных процедур для государственных заказчиков.

Ключевые слова: государственные закупки, нормативно-правовые основы, механизм государственных закупок, “бюджетные” и «корпоративные» заказчики, электронные системы, специальная комиссия по электронным продажам.

Annotation

The article covers issues of strengthening the system of Public Procurement, Law and Under-Law documents, comparing periods of development and prospects of legal-regulatory framework. The law of the Republic of Uzbekistan»on public procurement» reveals the main innovations in the implementation of Public Procurement. The procedure for improving procurement procedures for state customers has been studied.

Keywords: Public Procurement, Legal and regulatory framework, mechanism of public procurement, «budget» and «corporate» customers, special commission on electronic sales.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘roqov U.Yu., Shadmanov E.Sh., Bababekova D.Sh. Davlat xaridarini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. – T.: JXU, 2022. – 47-50 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 14-avgustdagi 397-sonli “Davlat ehtiyojlari uchun asosiy oziq-ovqat turlarini xarid qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 16-iyuldagi “1993 yilning 20 iyulidan boshlab qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat tovarlari ayrim turlarining shartnomaviy (erkin) xarid va chakana narxlariga o‘tish to‘g‘risida”gi 360-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yilning 5 apreldagi PQ-1948-sonli “Elektron xaridlar tizimini maqbullashtirish va ulardan tadbirkorlik sub’ektlarining foydalanishini kengaytirish to‘g‘risida” Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-472 Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 27 noyabrdagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi O‘RQ-1005-sonli Qonuni.

KURSANTLARNING AXLOQIY-RUHIY MUNOSABATLARNI YO‘LGA QO‘YISHDAGI MOSLASHUVI HAMDA HARBIY AN’ANALARNING AHAMIYATI

Tursunov Qamar Gulomovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
batalyon komandiri

Annotatsiya. **Mazkur maqolada kursantlarning axloqiy-ruhiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yishdagi moslashuvi hamda harbiy an’analarning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. O‘zini o‘zi nazorat qilish fenomenining o‘ziga xos jihatlari xorijiy mualliflar ilmiy tadqiqotlari asosida atroflicha o‘rganilgan. Shuningdek, har bir bo‘lajak ofitserning axloqiy-ruhiy holati jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida va fuqarolarni xavfsizligini ta’minlash jarayonida muvaffaqiyatga erishishda hamda o‘z xizmat faoliyatini namunali tarzda davom ettirishi qiyosiy tahlil etilgan.**

Kalit so‘zlar: kursantlar, axloqiy-ruhiy munosabat, harbiy muhit, moslashuvchanlik, harbiy an’analar, o‘zini o‘zi nazorat qilish, fenomen, ofitser, jamoat xavfsizligi, fuqarolarni xavfsizligi, xizmat faoliyati.

Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy ahvol barqarorligi bilan insonning e’tiborini tortmoqda. Bu jarayon milliy armiyamizni, xususan, harbiy sohadagi barcha tarmoqlarda rivojlanishni, yetuk ofitser shakllantirishni talab etadi. Barkamol, yetuk ofitser asosan, o‘ta o‘qimishli, yangicha fikrlaydigan, madaniyatli, axloq-odobli, mehnatsevar, uquvli, jismonan va ruhan sog‘lom, o‘z haq-huquqini biladigan, vatanini sevadigan, faol, fidoyi va ma’naviy boy singari insoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi lozim.

Barchamizga ma’lumki, ofitserlik darajasiga yetishish uchun kursant harbiy unvonida harbiy oliy ta’lim massasida ta’lim olishi kerak. Kursant hayoti harbiy muhitning ta’sirida tarbiyalanadi hamda ushbu davr ofitserlikka tayyorlov davri deb ham ataladi. Harbiy an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar kursantlarni kamolotga va yetuklikka yetkazishda asosiy o‘rin tutadi. Eng muhimi kursantlar harbiy hayot maktabi orqali jamiyat va harbiy talablarini his etadi, anglaydi va nihoyat harbiy jamoaga va jamiyatga nafi tegadigan yetuk ofitser bo‘lib shakllanadi deyishimiz mumkin. Shuningdek, ushbu davrda shaxsning o‘z-o‘zini nazorat qilish jarayoni ham shakllanadi. Shaxsda o‘zini o‘zi nazorat qilishning shakllanishi muammosi psixologiya fanining dolzarb masalalaridan hisoblanadi. . O‘zini o‘zi nazorat qilish muammosi doirasida xorij psixologlari tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, xorij psixologlari o‘tkazgan tadqiqotlarda o‘zini o‘zi nazorat qilishning tarkibiy qismlari, ya’ni o‘zini o‘zi nazorat qilishning tuzilishi, rivojlanish darajasi, shaxs xususiyatlari va psixik jarayonlar bilan o‘zaro bog‘liqligi, xulq-atvor va faoliyat jarayonida o‘zini o‘zi nazorat qilishning o‘rni va funksiyalari hamda o‘zini o‘zi nazorat qilishning yosh va individual xususiyatlarga aloqadorligi masalalari atroflicha o‘rganilib, bu borada katta hajmdagi ilmiy ma’lumotlar to‘plangan. O‘zini o‘zi nazorat qilish muammosi borasida M.I.Borishevskiy, V.V.Davidov, L.B.Itelson, A.N.Leontev, T.I.Gavakova, Yu.Kul, Ye.P.Ilin, V.Preyer, S.L.Rubinshteyn, G.Spenser, Ye.I.Boyko, Dj.Syolli, Ya.I.Surkovskiy, G.A.Sobieva, N.I.Kuvshinov, A.S.Linda, A.Ya. Aret, T.Shibutani, P.P.Blonskiy, L.V.Domenskaya va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

O‘zini o‘zi nazorat qilish haqidagi dastlabki fikrlar Aristotel asarlarida uchraydi. Biroq, bu tushunchani o‘rganishga qaratilgan maxsus ilmiy tadqiqotlar XIX-XX asrlardan boshlangan. Bu boradagi dastlabki izlanishlardan biri sifatida U.Bellning proprioretsepsiya - harakatlarni nazorat qilishning teskari aloqasini o‘rganishga doir tadqiqotini keltirib o‘tish joiz. U.Bell tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar keyinchalik I.M.Sechenov tomonidan rivojlantirildi. Ammo ularning qarashlari harakatlarni nazorat qilish va boshqarish bilan bog‘liq muammolarning tor doirasini qamrab oladi va o‘zini o‘zi nazorat qilishni ixtiyoriy boshqaruv tamoyili sifatida tavsiflash bilan cheklanadi. O‘zini o‘zi nazorat qilishning mazmun – mohiyati va funksiyasini o‘rganish iroda psixologiyasidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zini o‘zi nazorat qilishni ta’lim-tarbiya bilan bog‘lagan holda ishlab chiqarish va sport sohasida maqsadga yo‘naltirilgan va tizimli

holda o‘rganish XX asrning 50-60 yillaridan boshlandi. Biroq bu holat o‘zini o‘zi nazorat qilish fenomeni uzoq vaqt davomida psixologlar nazaridan chetda qolganligini anglatmaydi. Dastlabki psixologik tadqiqotlarda inson psixik hayoti uchun muhim bo‘lgan o‘zini o‘zi nazorat qilishning ayrim xususiyatlari o‘rganilganini kuzatish mumkin. T.I.Gavakova tomonidan amalga oshirilgan adabiyotlar tahlilida o‘zini o‘zi nazorat qilish fenomenining o‘rganilish tarixi haqida batafsil fikr yuritilgan. O‘zini o‘zi nazorat qilish muammosini psixologik jihatdan o‘rgangan olimlardan biri Z.Freyd bo‘lib, u shaxsning o‘z xulq-atvorini boshqarish qobiliyatini tushuntirish uchun qaror qabul qilish, xulq-atvorni nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha ichki psixik agentlarni sanab o‘tadi. Z.Freyd o‘zini o‘zi nazorat qilishni “Men”ning o‘zini o‘zi himoyalash instinkti sifatida tahlil qiladi. Uning nazarida “Men”ning rivojlanishi avtomatik tarzda o‘zini o‘zi nazorat qilish kuchayishiga olib keladi. Keyinchalik xorij psixologlari o‘zini o‘zi nazorat qilish o‘zlashtirilgan strategiya ekanligini uqtira boshladilar (A.Bandura, B.Mishel, G.Devirson, F.Logan, D.Premark, B.Englin, Ye.Torenson, M.Maxoni va boshqalar). Natijada o‘zini o‘zi nazorat qilish o‘zini o‘zi idora qilish bilan turlicha tushuncha ekanligi amalda isbotini topgan.

Ingliz eksperimental psixologiyasi asoschisi Dj.Syolli birinchilardan bo‘lib, o‘zini o‘zi nazorat qilish fenomenining o‘ziga xos jihatlarini ko‘ra bilgan. Dj.Syolli o‘zini o‘zi nazorat qilishning diqqat, xotira, xayol, tafakkur kabi psixik jarayonlarda o‘ziga xos ishtiroki borligini isbotlab bergan. Dj.Syolli bo‘yicha o‘zini o‘zi nazorat qilishning ontogenezda rivojlanishi hissiyot va fikrlarni nazorat qilishning shakllanishini o‘zida mujassamlashtirgan qator bosqichlarni qamrab oladi. Axloqiylik odatga aylanib qolgan o‘zini o‘zi nazorat qilishning turli shakllari natijasidir. Dj.Syolli fikricha, “...o‘zini o‘zi nazorat qilish deganda vazminlik va qo‘zg‘aluvchanlikni boshqarib, ularni maqsadga yo‘naltirishga intilish qobiliyati tushuniladi”. Demak, shuni ta’kidlash mumkinki, Dj.Syolli o‘zini o‘zi nazorat qilishni o‘zini o‘zi boshqarish tushunchasi bilan bir xil deb tushuntirishga harakat qilgan. Uning quyidagi fikrida ham bunday yondashuv yaqqol seziladi: “Ehtiyojlar va xatti-harakatlar nazoratida o‘zini o‘zi nazorat qilish boshqa ruhiy kuchlarni boshqarish mexanizmidan ham foydalanadi”. Mazkur fikrlardan ko‘rinadiki, o‘zini o‘zi nazorat qilish shaxsning emotsional irodaviy sohalari bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, shaxsning o‘z oldiga maqsadni qo‘yishi, unga nisbatan intilishi hamda o‘zini o‘zi boshqarish malakalari o‘rtasida uzviy aloqadorlik kuzatiladi.

O‘zini o‘zi nazorat qilish tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlashga qaratilgan bir qator ta’riflar mavjud. Jumladan, katta rus ensiklopediyasida o‘zini o‘zi nazorat qilish deganda shaxsning o‘z xulq-atvori, fikrlari va hissiyotlarini ongli nazorat qilishi, boshqarishi va o‘z faoliyatini rejalashtirishi tushuniladi. O‘zini o‘zi nazorat qilish o‘z fikrlarini ongli ravishda o‘zgartirish, salbiy xatti-harakatlarning oldini olish imkonini beradi. Keltirilgan ta’rifdan ko‘rishimiz mumkinki, o‘zini o‘zi nazorat qilishda onglilik, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati va rejalashtira olish funksiyalariga alohida e’tibor berilgan. Shuningdek, shaxsning xulq-atvori, qarashlari, hissiyotlari hamda faoliyat jarayonida o‘zini o‘zi nazorat qilishning mavjud bo‘lishi e’tirof etiladi.

Ya.I.Surkovskiy birinchilardan bo‘lib, sport sohasida o‘zini o‘zi nazorat qilish muammosini tadqiq etgan va nazorat qiluvchi psixik jarayonlar nazariyasini yaratishga harakat qilgan. Tadqiqotchi nazorat jarayonlarining to‘rtta fazasini ajratib ko‘rsatadi:

1. Ma’lumotli – undovchi.
2. Dastlabki – yaratuvchi.
3. Markaziy – rad etuvchi.
4. Yakunlovchi – qayta quruvchi

Ya.I.Surkovskiyning fikricha, shaxsni nazorat qiluvchi harakatlarga psixik faoliyatning amaldagi adekvatlilik bilan bo‘lgan munosabat undaydi. Demak, birinchi faza o‘zini o‘zi nazorat qilishga bo‘lgan dastlabki bosqichdir. Xatti-harakatni nazorat qilishning dastlabki yaratuvchi fazasi aks ettirilgan va amaldagi holatning o‘zaro muvofiqligida namoyon bo‘ladi. Uchinchisi, markaziy – rad etuvchi faza bo‘lib, unda obyektiv konstatatsiya tugallanadi, qolaversa, nazorat qilinayotgan xatti-harakatlarning o‘zaro muvofiqligi tasdiqlanadi yoki amaliyot bilan aks ettirilgan vaziyat orasidagi farqning mavjudligi yoki ular orasidagi adekvatlilikning yo‘qligi kuzatiladi. Yakunlovchi fazada korreksiyalash, “noto‘g‘ri aks ettirilgan” voqelikni to‘g‘rilash ishlari amalga oshiriladi. Ya.I.Surkovskiyning fikricha, har qanday xatti-harakatni nazorat qilish korreksiyalash bilan tugamasligi mumkin. Shu bilan birga “Nazorat qiluvchi jarayonlarni inkor etuvchi psixik jarayonlar sifatida ko‘rib chiqish lozim, chunki mana shu jarayonlar vositasida shaxs psixik faoliyatidagi noadekvat xatti-harakatlar ta’sirini bekor qiladi”. Boshqa tomondan esa “... nazorat inson psixik faoliyatining yakuniy qismi

ISSN 3030-3230

bo‘lib, doimo barcha psixik jarayonlar shu bilan birga obyektiv reallikka mos kelmaydigan tafakkur jarayonlarining inkor etilishi, bekor qilinishi va to‘g‘rilanishida ishtirok etadi”. Keltirilgan fikrlardan ko‘rishimiz mumkinki, Ya.I.Surkovskiy o‘zini o‘zi nazorat qilishning imperativ funksiyasi mohiyatini ochib berdi. Ayniqsa, o‘zini o‘zi nazorat qilishni fazalarga ajratib ko‘rsatish orqali ularning mazmun-mohiyatini hamda amalga oshirish mexanizmlarini asoslab berishga harakat qildi. Shuningdek, xatti- harakatlar va psixik jarayonlardagi o‘zini o‘zi nazorat qilishning o‘ziga xosliklarini ochib berishga muvaffaq bo‘ldi. Mazkur yondashuvdan ko‘rinadiki, shaxsning xulq-atvori, xatti-harakati va faoliyat jarayonidagi o‘zini o‘zi nazorat qilish o‘zini o‘zi anglash mexanizmi bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki shaxs qachonki, o‘zidagi ijobiy va salbiy sifatlarni anglay olsa, mavjud qobiliyat va imkoniyatlarini baholay olsagina, o‘zini o‘zi nazorat qilish tarkib topadi. Shuningdek, shaxs xulq-atvori va faoliyati jarayonidagi nuqsonlarni bartaraf etishda o‘zini o‘zi nazorat qilish mexanizmi asosiy o‘rin egallaydi. Mazkur tadqiqot va ta’riflarga ko‘ra, o‘zini o‘zi nazorat qilish rejalashtirish, boshqarish, idora etish va korreksiyalash kabi jarayonlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bu bilan har bir bo‘lajak ofitser jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida, fuqarolarni xavfsizligini ta’minlash jarayonida muvaffaqiyatga erishishi hamda o‘z xizmat faoliyatini namunali tarzda davom ettirishi mumkin.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы адаптации курсантов в налаживании нравственно-психологических отношений, а также значение воинских традиций. Особенности феномена самоконтроля всесторонне изучены на основе научных исследований зарубежных авторов. Кроме того, проведён сравнительный анализ морально-психологического состояния каждого будущего офицера в контексте обеспечения общественной безопасности, защиты граждан и успешного, образцового выполнения ими служебной деятельности.

Ключевые слова: курсанты, нравственно-психологические отношения, военная среда, адаптивность, воинские традиции, самоконтроль, феномен, офицер, общественная безопасность, безопасность граждан, служебная деятельность.

Annotation. This article examines cadets’ adaptation in establishing moral-psychological relations and the importance of military traditions. The specific aspects of the phenomenon of self-control are comprehensively analyzed based on scientific studies conducted by foreign authors. Furthermore, the moral-psychological condition of each future officer in the context of ensuring public security, protecting civilians, and successfully performing their service duties in an exemplary manner is comparatively assessed.

Key words: cadets, moral-psychological relations, military environment, adaptability, military traditions, self-control, phenomenon, officer, public security, civilian safety, service activity.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аликулов Ҳ., Омонбоева Р. Жомий ва Давоний таълим-тарбия ҳақида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981. – 60 б.
2. Афанасьев В.Г. Человек в управлении обществом. – М.: Педагогика 1977. – 434 с.
3. Бекниязова Л.Б. Психологические особенности адаптации у младших подростков: Дис... канд. психол. наук. – Ташкент: НУУз, 2003. – 161 б.
4. Берк Л. Развитие ребенка. – 6-е изд. – СПб.: Питер, 2006. – 1056 с.
5. Богдалова Г.А. Эмоциональная устойчивость и ее формирование у учащихся раннего подросткового возраста: Автореф дис... канд. психол. наук. – Ташкент: НУУз, 2000. – 18 с.
6. Бодров В.А. Психология профессиональной пригодности. – М.: ПЕРСЭ, 2006. – 511 с.
7. Божович Л.И. Этапы формирования личности в онтогенезе // Воп.психол. – Москва, 1979. – №4. – С 23-26.
8. Большой толковый психологический словарь / Пер. с англ. – М.: Ребер Артур, АСТ, Вече, 2003. Т. 1 (А-О). – 592 с.
9. Бреслав И.С. Произвольное управление дыханием у человека. – Л.: ЛГУ 1975. – 184 с.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI: O‘ZBEKISTON VA XALQARO TAJRIBA QIYOSIY TAHLILI

Rahmanov Alimardon Abdulla o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Tahririyat-noshirlik bo‘limi katta ofitseri

Annotatsiya. **Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlashning konstitutsiyaviy asoslari hamda xalqaro huquqiy tajribalar tahlil qilindi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, fuqarolarning xavfsizligini kafolatlash, davlat organlarining bu boradagi vakolatlari hamda javobgarlik mexanizmlari yoritib berildi. Shuningdek, AQSh, Germaniya va Yaponiya konstitutsiyalaridagi jamoat xavfsizligi bilan bog‘liq normalar, BMT hamda YEXHTning tegishli rezolyutsiyalari asosida qiyosiy-huquqiy tahlil amalga oshirildi. Tadqiqot natijasida O‘zbekiston qonunchiligini xalqaro standartlarga yanada yaqinlashtirish, jamoat xavfsizligi sohasida davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.**

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, jamoat xavfsizligi, inson huquqlari, huquqiy kafolat, xalqaro tajriba, milliy xavfsizlik, fuqarolik jamiyati.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasi har qanday demokratik jamiyatda davlatning eng muhim konstitutsiyaviy vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida bu soha so‘nggi yillarda chuqur islohotlar jarayonida tubdan yangilandi. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamoat xavfsizligini inson huquqlari, qonun ustuvorligi va ijtimoiy barqarorlik tamoyillari bilan uzviy bog‘liq holda talqin etdi [1, b. 22]. Mazkur o‘zgarishlar jamoat xavfsizligini nafaqat davlatning majburiyati, balki har bir fuqaroning konstitutsiyaviy huquqi sifatida e’tirof etilishiga zamin yaratdi.

Yangi Konstitutsiyaning 24-moddasida “Har bir inson yashash huquqiga ega” ekani mustahkamlangan bo‘lib, bu norma jamoat xavfsizligini ta’minlashning eng oliy konstitutsiyaviy asosini tashkil etadi [2, b. 31]. Shu bilan birga, 33-moddada “Har bir shaxsning huquq va erkinliklari, qonun bilan himoya qilinadi” deb belgilanishi orqali xavfsizlik sohasidagi davlat siyosatining inson manfaatlariga qaratilganligi tasdiqlanadi.

Jamoat xavfsizligi masalalari O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida — “Yangi O‘zbekiston” strategiyasida ham markaziy o‘rin egallamoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 30-apreldagi chiqishida ta’kidlaganidek, “inson xavfsizligi, jamiyat barqarorligi va davlat manfaatlari bir-birini to‘ldiradigan yagona tizim sifatida rivojlanishi kerak” [3, b. 12]. Shu sababli, konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarni mustahkamlash orqali jamoat xavfsizligi tizimining barqarorligi va shaffofligi ta’minlanmoqda.

Bundan tashqari, jahon miqyosida ham jamoat xavfsizligi masalasi demokratik davlatlar konstitutsiyalarida alohida o‘rin egallaydi. Masalan, Germaniya Asosiy qonunining 1-moddasida inson sha’ni daxlsizligi, AQSh Konstitutsiyasining kirish qismida esa “umumiy farovonlik va ichki osoyishtalik”ni ta’minlash davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida qayd etilgan [4, b. 44]. Bu holat O‘zbekiston Konstitutsiyasidagi yangilangan normalarning xalqaro standartlarga yaqinlashganini ko‘rsatadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlatning xavfsizlik sohasidagi vakolatlari bilan bir qatorda, fuqarolarning ushbu jarayonda ishtirok etish huquqi ham mustahkamlab qo‘yildi. Jumladan, 125-moddada “Davlat jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning xavfsizligi va huquqlarini himoya qilishni ta’minlaydi” degan norma mavjud bo‘lib, bu davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida hamkorlik mexanizmini mustahkamlaydi [5, b. 19]. Mazkur konstitutsiyaviy asoslar, bir tomondan, huquqiy davlat tamoyillarini amaliyotga joriy etishning samarali vositasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, xalqaro huquq me’yorlari bilan uyg‘unlikda O‘zbekistonning xavfsizlik siyosatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu sababli, jamoat xavfsizligini ta’minlashning konstitutsiyaviy asoslarini xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega ilmiy vazifa hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashning

ISSN 3030-3230

konstitutsiyaviy asoslari masalasi xalqaro huquqshunoslikda ham, O‘zbekiston huquqiy tizimida ham uzoq yillardan beri tadqiq etilib kelayotgan, lekin doimiy yangilanishni talab qiladigan ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. So‘nggi yillarda global xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash, inson huquqlari va huquqiy davlat tamoyillarining uyg‘unligi kabi masalalar ushbu sohaga yangi ilmiy yondashuvlarni kiritdi [6, b. 10].

Xalqaro miqyosda jamoat xavfsizligini konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan tahlil etgan ilmiy maktablar bir necha yo‘nalishga bo‘linadi. Birinchi yo‘nalish — liberal-demokratik model bo‘lib, u jamoat xavfsizligini inson huquqlarini himoya qilish bilan bevosita bog‘laydi. Bu yo‘nalishning asoschilaridan biri J. Rawls bo‘lib, u “Adolat nazariyasi” asarida xavfsizlikni “fuqarolik erkinliklarini saqlab qolishning zaruriy sharti” deb baholaydi [7, b. 37]. Shuningdek, R. Dworkin va A. Sen asarlarida ham konstitutsiyaviy xavfsizlik tamoyili inson sha’nining daxlsizligi va ijtimoiy adolat bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etiladi [8, b. 25].

Ikkinchi yo‘nalish — xalqaro xavfsizlik huquqi maktabi bo‘lib, BMT, YEXHT va Yevropa Ittifoqi hujjatlarida jamoat xavfsizligini konstitutsiyaviy prinsiplarga asoslangan davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida talqin etadi. Masalan, BMT Bosh Assambleyasining “Inson xavfsizligi konsepsiyasi” (2003) rezolyutsiyasida jamoat xavfsizligi insonning huquqiy himoyasi, iqtisodiy barqarorligi va siyosiy ishtiroki bilan birgalikda tahlil qilinadi [9, b. 11–12].

Yevropa Inson huquqlari sudi (ECHR) esa o‘z amaliyotida “xavfsizlikni ta’minlash davlatning konstitutsiyaviy majburiyati” degan yondashuvni keng qo‘llaydi (masalan, Osman v. The United Kingdom, 1998-yilgi qaror) [10, b. 30].

Uchinchi yo‘nalish — integratsion xavfsizlik yondashuvi bo‘lib, u davlatning ichki xavfsizligi bilan xalqaro majburiyatlari o‘rtasidagi muvozanatni o‘rganadi. Bu borada A. Etzioni, D. Held, U. Beck kabi tadqiqotchilar global xavfsizlik tizimining konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlarini tahlil qilib, “xavfsizlikning ijtimoiy legitimligi” tushunchasini ilgari surishgan [11, b. 42].

O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini huquqiy asosda o‘rganish so‘nggi o‘n yillikda, ayniqsa 2017-yildan boshlab, davlat boshqaruvi islohotlari jarayonida faollashdi. Bu borada Q. Abdusalomov, S. Jo‘raev, D. Tursunov, G. Yuldasheva singari olimlarning tadqiqotlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashda davlat organlari vakolatlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni tahlil qilingan [12, b. 18]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi huzuridagi ilmiy-tadqiqot markazlarida olib borilgan ishlar bu yo‘nalishda muhim ilmiy bazani shakllantirdi. Xususan, D. Tursunov tomonidan 2022-yilda tayyorlangan “Jamoat xavfsizligini ta’minlashning huquqiy mexanizmlari” nomli monografiyada konstitutsiyaviy tamoyillarni amaliy mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar berilgan [13, b. 24].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi 2023-yilda qabul qilgan bir qator hujjatlarida jamoat xavfsizligi bilan bog‘liq masalalarni konstitutsiyaviy nazorat doirasida ko‘rib chiqish tartibi aniq belgilab qo‘yildi. Bu holat O‘zbekistonda konstitutsiyaviy nazorat tizimi orqali jamoat xavfsizligini ta’minlash mexanizmlari huquqiy jihatdan mustahkamlanganini ko‘rsatadi [14, b. 19–20].

Mahalliy tadqiqotlar orasida yangi Konstitutsiya tahliliga bag‘ishlangan ishlarda ham jamoat xavfsizligi bilan bog‘liq tamoyillar alohida yoritilgan. Masalan, Q. Abdusalomov “Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi – inson xavfsizligini kafolatlovchi huquqiy poydevor” maqolasida (2023) davlat siyosati markazida inson xavfsizligini ustuvor yo‘nalish sifatida baholaydi [15, b. 14].

Umuman olganda, xalqaro va milliy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jamoat xavfsizligini ta’minlashning konstitutsiyaviy asoslarini o‘rganish global tendensiyalarga mos ravishda rivojlanmoqda. Ammo O‘zbekiston sharoitida bu masala hali ham qiyosiy-huquqiy tahlil nuqtayi nazaridan yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur maqola ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish, milliy konstitutsiyaviy normalarni xalqaro tajriba bilan taqqoslab ilmiy asoslashga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya jamoat xavfsizligini faqatgina davlatning majburiyati emas, balki fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqi sifatida e’tirof etdi.

Konstitutsiyaning 24-moddasida: “Har bir

inson yashash huquqiga ega. Davlat har bir inson hayotini, sha’nini va erkinligini himoya qiladi”, – deb belgilangan [2, b. 31]. Bu norma O‘zbekiston huquqiy tizimida jamoat xavfsizligining asosiy konstitutsiyaviy tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur qoida orqali inson xavfsizligi davlat siyosatining markaziga qo‘yildi.

Shuningdek, 33-moddada “Davlat inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi, ularning buzilmasligini kafolatlaydi” deb belgilangan. Bu modda jamoat xavfsizligi tushunchasini huquqiy himoya tizimi bilan bevosita bog‘laydi. Demak, xavfsizlik faqat jismoniy himoya emas, balki konstitutsiyaviy huquqlarning amalga oshirilishini ta’minlash jarayonidir [6, b. 15].

125-moddada esa “Davlat jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning xavfsizligi, huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni ta’minlaydi” deb belgilangan bo‘lib, bu norma xavfsizlikni davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida e’tirof etadi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlari — masalan, nodavlat tashkilotlar, OAV, mahallalar — ham jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimining tarkibiy qismiga aylangan [5, b. 19].

O‘zbekiston Respublikasining yangi konstitutsiyaviy siyosatida “inson xavfsizligi” tushunchasi “davlat xavfsizligi”dan ustun qo‘yilmoqda. Prezident Sh. Mirziyoyev o‘z chiqishlarida “inson xavfsizligi — bu davlat barqarorligining asosi” ekanini alohida ta’kidlagan [3, b. 12]. Shu bois jamoat xavfsizligini ta’minlash siyosati konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlar, institutlar va tamoyillar majmuasida qaralmoqda.

Mazkur sohada faoliyat yurituvchi Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi kabi idoralar faoliyati Konstitutsiyaning 125-moddasidan kelib chiqadi. Ularning vakolatlari “Jamoat xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonun, “Milliy gvardiya to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa normativ hujjatlar bilan aniqlashtirilgan. Shu tariqa, konstitutsiyaviy me’yorlar institutsional darajada ham mustahkamlab borilmoqda [12, b. 18]. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada xavfsizlikka oid muhim tamoyil — ochiqlik va hisobdorlik prinsipi ham joriy etildi. Endilikda davlat organlarining fuqarolar xavfsizligini ta’minlashdagi harakati ochiq axborot siyosati orqali nazorat qilinadi. Bu xalqaro “accountability” tamoyiliga to‘liq mos keladi [9, b. 11]. Umuman, milliy konstitutsiyaviy tizimda jamoat xavfsizligini ta’minlash uch bosqichda ifodalanadi:

Huquqiy asos — Konstitutsiya va tegishli qonunlarda mustahkamlangan.

Tashkiliy asos — davlat organlari, mahalliy boshqaruv va fuqarolik jamiyati ishtiroki orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy asos — jamoat tartibi, tinchlik, ishonch muhitini yaratish orqali ifodalanadi.

Bu uchlik tizim O‘zbekiston konstitutsiyaviy siyosatining xavfsizlik sohasidagi yaxlit modelini belgilab bermoqda.

Xalqaro huquq tizimida jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasi davlatning asosiy konstitutsiyaviy vazifasi sifatida tan olingan.

AQSh Konstitutsiyasi kirish qismida (“Preamble”) davlatning maqsadi sifatida “domestic tranquility” — ya’ni ichki osoyishtalikni ta’minlash talabi aniq ko‘rsatilgan. Bu norma AQShda xavfsizlik siyosatining konstitutsiyaviy negizidir [7, b. 37]. Shu asosda “Homeland Security Act” (2002) qabul qilingan bo‘lib, u fuqarolarning hayotini va jamoat tartibini himoya qilishni federal siyosat darajasiga ko‘targan.

Germaniya Asosiy qonuni (Grundgesetz) esa jamoat xavfsizligini “inson sha’ni daxlsizligi” tamoyili bilan bog‘laydi. 1-moddada “Inson sha’ni daxlsiz va uni hurmat qilish davlatning burchidir” degan norma mavjud. Shu asosda Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi 1990-yillardan boshlab xavfsizlikni “demokratik erkinliklarning ajralmas elementi” sifatida talqin qilgan [10, b. 30].

Yaponiya Konstitutsiyasi (1947-yil) jamoat xavfsizligini “tinchlikparvar davlat” konsepsiyasi bilan birlashtiradi. 9-moddada “xalqaro mojarolarda kuch ishlatish taqiqlanadi” degan norma mavjud bo‘lib, u xavfsizlikni nafaqat ichki, balki global barqarorlik bilan bog‘laydi. Bu model O‘zbekistonning “tinchliksevar siyosat” tamoyiliga yaqin turadi [11, b. 42]. Xalqaro darajada esa BMT Nizomi (1945-yil) va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil) xavfsizlikni har bir insonning ajralmas huquqi sifatida belgilaydi. BMTning “Inson xavfsizligi konsepsiyasi” (2003) rezolyutsiyasida xavfsizlik “inson erkinliklari, iqtisodiy barqarorlik va siyosiy ishtirokning kafolati” sifatida talqin etiladi [9, b. 11]. YEXHT (OSCE) esa o‘zining 2010-yilgi “Astana deklaratsiyasi”da jamoat xavfsizligini “demokratik boshqaruvning ajralmas qismi” sifatida tan olgan. Ko‘rinib turibdiki, xalqaro huquq normalari jamoat xavfsizligini konstitutsiyaviy darajadagi inson huquqlari bilan bog‘laydi. Shu jihatdan O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasida aks etgan yondashuvlar (ayniqsa

ISSN 3030-3230

24, 33, 125-moddalar) xalqaro me’yorlarga mutanosibdir. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston va rivojlangan demokratik davlatlar konstitutsiyalarida jamoat xavfsizligi masalasiga yondashuvlar bir necha umumiy tamoyillarga tayanadi:

Inson sha’ni va huquqlarining ustuvorligi – O‘zbekiston (24-modda) va Germaniya (1-modda) konstitutsiyalarida xavfsizlikning markazida inson sha’ni turadi [2, b. 31; 10, b. 30].

Davlat majburiyati – AQSh va O‘zbekiston konstitutsiyalarida xavfsizlikni ta’minlash davlatning konstitutsiyaviy vazifasi sifatida belgilangan [7, b. 37; 5, b. 19].

Fuqarolik ishtiroki – Yaponiya va O‘zbekiston konstitutsiyalarida xavfsizlik jamiyat ishtirokiga asoslangan. O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasida bu fuqarolik jamiyati institutlari orqali ifodalanadi [11, b. 42; 14, b. 20].

Huquqiy kafolat va nazorat mexanizmlari – Germaniya va YEXHT amaliyotida xavfsizlik choralarining konstitutsiyaviy nazorat ostida bo‘lishi muhim sanaladi. O‘zbekiston ham Konstitutsiyaviy sud vakolatlarini kengaytirish orqali shu yo‘nalishda harakat qilmoqda [12, b. 18].

Farqli jihatlar esa quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

O‘zbekiston Konstitutsiyasida xavfsizlik masalasi ijtimoiy barqarorlik bilan uyg‘un talqin qilinsa, AQShda u milliy manfaatlar bilan chambarchas bog‘langan.

Germaniyada xavfsizlik siyosati sud nazorati ostida bo‘lsa, O‘zbekistonda bu jarayon endi institutsional mustahkamlash bosqichida.

Yaponiya tajribasida xavfsizlik tinchlik siyosati bilan uyg‘unlashgan bo‘lsa, O‘zbekistonda xavfsizlik ijtimoiy barqarorlik va jamiyat hamjihatligiga tayanadi.

Shunday qilib, O‘zbekistonning yangi konstitutsiyaviy modeli xalqaro tajribadan kelib chiqib, inson xavfsizligi – jamoat xavfsizligi – davlat xavfsizligi uchligini yagona tizim sifatida qarash bilan ajralib turadi. Bu esa milliy xavfsizlik siyosatini zamonaviy xalqaro huquq standartlariga moslashtirganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasini chuqur tahlil qilish hamda xalqaro tajribani qiyosiy o‘rganish natijasida jamoat xavfsizligini ta’minlashning konstitutsiyaviy asoslari borasida bir qator muhim amaliy xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlash borasidagi huquqiy me’yorlarning yangilanishi natijasida davlat siyosatida “inson xavfsizligi” konsepsiyasi markaziy o‘rinni egalladi. Bu o‘zgarish amalda ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik hamjihatligi va davlat institutlari faoliyatida inson manfaatlarini ustuvor qo‘yish orqali namoyon bo‘lmoqda [3, b. 12].

Masalan, Milliy gvardiya to‘g‘risida”gi Qonun (2021) jamoat tartibini saqlash, ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta’minlash va fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘ini himoya qilishga qaratilgan mexanizmlarni aniq belgilab berdi. Ushbu qonun yangi konstitutsiyaviy tamoyillar — oshkoralik, qonuniylik va inson sha’nini hurmat qilish prinsiplari asosida qayta ishlab chiqildi [12, b. 18].

Ikkinchidan, konstitutsiyaviy me’yorlar asosida fuqarolik jamiyati institutlarining jamoat xavfsizligidagi roli mustahkamlanmoqda. Jumladan, “Mahalla” instituti, OAV va nodavlat notijorat tashkilotlar jamoat xavfsizligining ijtimoiy-huquqiy mexanizmlariga faol jalb etilmoqda [5, b. 19].

Amaliy jihatdan bu “Xavfsiz hudud” va “Mahallada osoyishtalik” dasturlari orqali o‘z aksini topmoqda. 2024-yil holatiga ko‘ra, mamlakat bo‘ylab 12 mingdan ortiq mahalla jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha monitoring tizimiga ulanib, ularning faoliyati ichki ishlar organlari bilan uzviy hamkorlikda olib borilmoqda [13, b. 22].

Uchinchidan, konstitutsiyaviy asoslar asosida joriy etilgan raqamli xavfsizlik tizimlari — “Safe City”, “E-ID”, “E-mahalla” loyihalari — jamoat xavfsizligini boshqarishda zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish imkonini berdi. Bu tizimlar orqali jinoyatchilikni 15 foizga kamaytirish, fuqarolarning xavfsizligini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati paydo bo‘ldi [14, b. 20].

To‘rtinchidan, xalqaro hamkorlik sohasida BMT, YEXHT va YUNODC kabi tashkilotlar bilan qo‘shma dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu dasturlar doirasida O‘zbekiston jamoat xavfsizligi sohasida xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka moslashtirish yo‘lida sezilarli natijalarga erishmoqda [9, b. 11].

Beshinchidan, Konstitutsiyada nazarda tutilgan ochiqlik va hisobdorlik tamoyili asosida ijtimoiy nazorat mexanizmlari kuchaytirildi. 2023-yilda jamoat xavfsizligiga oid 120 mingdan ortiq murojaatlar “Virtual qabulxona” tizimi orqali ko‘rib chiqilgan va ularning 87 foizi ijobiy hal etilgan [15, b. 17].

Shunday qilib, tadqiqot natijalari

O‘zbekistonning yangi konstitutsiyaviy modelida jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha institutsional, texnologik va fuqarolik asoslari amaliy jihatdan mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi. Bu esa xalqaro standartlarga mos keluvchi milliy xavfsizlik arxitekturasini shakllantirish sari muhim qadamdir.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida tub o‘zgarishlarni belgilab bergan tarixiy-huquqiy hujjat sifatida mamlakatning konstitutsiyaviy rivojlanish bosqichida alohida ahamiyat kasb etadi. Yangi tahrirda jamoat xavfsizligi tushunchasi inson sha’ni, huquqi va erkinligini himoya qilish bilan uzviy bog‘landi, bu esa xavfsizlikni davlatning majburiyati emas, balki har bir fuqaroning konstitutsiyaviy huquqi sifatida talqin etish imkonini berdi. Konstitutsiyaning 24, 33 va 125-moddalarida jamoat xavfsizligining asosiy tamoyillari, ya’ni inson hayotining daxlsizligi, davlatning huquqlarni kafolatlash majburiyati va jamoat tartibini saqlash vazifalari aniq belgilab berilgan. Ushbu yondashuv O‘zbekistonning zamonaviy konstitutsiyaviy siyosatini xalqaro huquqiy standartlarga yaqinlashtirdi va inson xavfsizligini davlat siyosatining markaziga olib chiqdi [2, b. 31].

So‘nggi yillarda ushbu konstitutsiyaviy tamoyillar asosida davlat boshqaruvi tizimi va huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyati tubdan yangilanib, jamoat xavfsizligi sohasida aniq natijalar qo‘lga kiritildi. Xususan, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirildi, mahalla institutining xavfsizlikdagi o‘rni mustahkamlandi, fuqarolarning o‘z hududi va jamiyatdagi tinchlikni saqlashdagi mas’uliyati kuchaydi [5, b. 19]. “Safe City”, “E-ID”, “E-mahalla” kabi raqamli tizimlarning joriy etilishi xavfsizlikni ta’minlash jarayonlarini avtomatlashtirish, tezkorlik va shaffoflikni oshirish imkonini berdi. Bu esa davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlarini amaliy jihatdan ta’minlashda yangi bosqichni boshlab berdi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning konstitutsiyaviy yondashuvi AQSh, Germaniya va Yaponiya kabi rivojlangan demokratik davlatlar tajribasiga yaqin bo‘lib, xavfsizlikni inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida talqin etadi [7, b. 37; 10, b. 30; 11, b. 42]. Bu davlatlarda xavfsizlik siyosati nafaqat davlatning majburiyati, balki jamiyatning umumiy mas’uliyati sifatida qaraladi. O‘zbekiston ham bu yo‘nalishda bosqichma-bosqich harakat qilib, fuqarolik jamiyatini jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayoniga faol jalb etmoqda. Natijada, mamlakatda xavfsizlik siyosatining ijtimoiy, huquqiy va texnologik asoslari uyg‘unlashgan yangi model shakllandi.

Biroq, mavjud tizimni yanada takomillashtirish zarurati hamon dolzarbdir. Shu bois tadqiqot natijalari asosida bir qator amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, jamoat xavfsizligiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni yagona tizimda birlashtiruvchi “Jamoat xavfsizligi kodeksi”ni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu kodeks amaldagi qonunlarni tizimlashtirib, ularning o‘zaro uzviyligini ta’minlaydi. Shuningdek, fuqarolik jamiyatining xavfsizlikni nazorat qilishdagi ishtirokini kuchaytirish, jamoatchilik monitoringi uchun mustaqil tahliliy markazlar faoliyatini kengaytirish lozim. Raqamli xavfsizlik infratuzilmasini yanada rivojlantirish orqali jinoyatchilik profilaktikasini real vaqt rejimida nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar — BMT, YEXHT, YUNODC bilan hamkorlikni kengaytirish orqali huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va konstitutsiyaviy huquq bo‘yicha mutaxassislar uchun xalqaro standartlarga mos ta’lim dasturlarini joriy etish taklif etiladi. Shu bilan birga, mahalla, o‘quv maskanlari va jamoat tashkilotlarida “Konstitutsiyaviy xavfsizlik madaniyati”ni shakllantirish bo‘yicha tizimli ta’lim va targ‘ibot ishlari olib borilishi lozim. Bu nafaqat jamoat xavfsizligini mustahkamlaydi, balki fuqarolarning huquqiy ongi va mas’uliyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning yangi konstitutsiyaviy modeli jamoat xavfsizligini ta’minlashda inson huquqlarining ustuvorligi, davlat va jamiyat hamkorligi, hamda ochiqlik va hisobdorlik tamoyillariga asoslangan barqaror tizimni shakllantirdi. Ushbu tizim nafaqat milliy xavfsizlikni ta’minlash, balki ijtimoiy ishonchni kuchaytirish, demokratik boshqaruvni rivojlantirish va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning poydevorini yaratdi. Shu ma’noda, jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasi O‘zbekiston konstitutsiyaviy taraqqiyotining strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida mamlakatni barqaror, huquqiy va tinch jamiyat sari yetaklovchi muhim omil bo‘lib qoladi.

ISSN 3030-3230

Аннотация. В данной статье проанализированы конституционные основы обеспечения общественной безопасности в Республике Узбекистан, а также изучен международный опыт в данной сфере. В новой редакции Конституции подробно раскрыты гарантии прав и свобод человека, безопасность граждан, а также полномочия и ответственность государственных органов в этом направлении. Проведён сравнительно-правовой анализ конституций США, Германии и Японии, а также соответствующих резолюций ООН и ОБСЕ. В результате исследования предложены рекомендации по дальнейшему сближению законодательства Узбекистана с международными стандартами и укреплению сотрудничества между государством и институтами гражданского общества в сфере общественной безопасности.

Ключевые слова: Конституция, общественная безопасность, права человека, правовые гарантии, международный опыт, национальная безопасность, гражданское общество.

Annotation. This article analyzes the constitutional foundations of ensuring public safety in the Republic of Uzbekistan and examines relevant international legal experiences. The new edition of the Constitution highlights the protection of human rights and freedoms, the guarantees of citizens’ security, and the responsibilities and powers of state authorities in this sphere. Comparative legal analysis was carried out on the basis of the constitutions of the United States, Germany, and Japan, as well as UN and OSCE resolutions related to public safety. As a result, the study proposes recommendations for aligning Uzbekistan’s legislation with international standards and strengthening cooperation between the state and civil society institutions in the field of public safety.

Key words: Constitution, public safety, human rights, legal guarantees, international experience, national security, civil society.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). — Toshkent: Adolat, 2023.
3. Mirziyoyev Sh.M. Inson xavfsizligi — davlat siyosatining markazida. — Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
4. Bobojonov P. Konstitutsiyaviy huquq asoslari. — Toshkent: TMI, 2022.
5. To‘raqulov A. Jamoat xavfsizligi huquqiy asoslari. — Toshkent: IIV Akademiyasi nashriyoti, 2021.
6. Karimov A. Inson huquqlari va konstitutsiyaviy himoya tizimi. — Toshkent: TDYUI, 2020.
7. The Constitution of the United States of America. — Washington D.C., 1787.
8. Basic Law for the Federal Republic of Germany (Grundgesetz). — Berlin, 1949.
9. United Nations. Human Security Concept and Practice. — New York, 2003.
10. German Federal Constitutional Court Decisions on Security. — Berlin, 2015.
11. The Constitution of Japan. — Tokyo, 1947.
12. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “O‘zbekiston Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”. — 2021-yil 15-yanvar.
13. IIV ma’lumotlari asosida: Mahallalarda xavfsizlik tizimi samaradorligi. — Toshkent, 2024.
14. Axborot texnologiyalari vazirligi. Raqamli xavfsizlik hisobotlari. — Toshkent, 2024.
15. Prezident Administratsiyasi ma’lumotlari: Fuqarolar murojaatlari tahlili. — Toshkent, 2024.

MAHALLIY DAVLAT VAKILLARI ORGANLARI KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARINING IVOJLANISHI TAHLILI (Tarixiy-huquqiy tahlil)

Davletov R.,
Tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda mahalliy davlat vakillari organlarining konstitutsiyaviy-huquqiy rivojlanishi tarixiy tahlil asosida yoritilgan. 1927, 1937, 1978-yillar Konstitutsiyalari hamda 1992-yilgi Asosiy Qonunda mahalliy kengashlarning maqomi, vakolatlari va boshqaruv tizimidagi o‘rni solishtirilgan. Shuningdek, 2017–2025-yillardagi islohotlar hamda 2023-yilgi yangi Konstitutsiya doirasida Kengashlarning vakolatlari kengaytirilishi, nazorat mexanizmlarining kuchaytirilishi va mahalliy boshqaruvning demokratlashuvi tahlil qilingan. Tadqiqot mahalliy boshqaruv tizimining evolyutsiyasi va zamonaviy islohotlarning huquqiy mazmunini qisqa, izchil talqinda ochib beradi.

Kalit so‘zlar: mahalliy kengashlar, konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar, davlat hokimiyati, vakillik organi, nomarkazlashtirish, mahalliy boshqaruv, Konstitutsiya, deputatlik nazorati.

Mahalliy kengashlar fuqarolarga hududiy boshqaruvda, mahalliy qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish imkonini berib, xalq hokimiyatchiligining muhim instituti hisoblanadi.

Kengashlar mahalliy darajadagi muammolarni hal qilib, davlat siyosatini mahalliy ehtiyojlarga moslashtirib, markaziy hukumat va aholi o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi.

Mamlakatimizda mahalliy kengashlar tashkil topgan vaqtdan boshlab, uning yuz yillik konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tahlil qilish, ayniqsa mahalliy kengashlarning shakllanishi, saylovi, vakolatlari, markaziy va hududiy ijro hokimiyati organlari bilan o‘zaro munosabatlarini tadqiq etish uning o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganishga imkon beradi.

Shu ma’noda mamlakatimiz tarixida birinchi qabul qilingan Asosiy qonun – 1927-yilgi O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasining beshinchi bo‘limi sovet hokimiyatini joylarda tashkil qilish deb nomlanib, u 4 ta bob, 22 ta moddadan iborat bo‘lgan.

Dastlab ishchi-dehqon, askar va matroslar Soveti nomi bilan yuzaga kelgan bu organ, avval mehnatkashlar deputatlar Sovetlari, keyinchalik esa xalq deputatlari Sovetlari deb ataldi va ular hamma vaqt ham SSSRning siyosiy negizi deb e’tirof etib kelindi [1].

Kengashlar shaharlarda har 150-200 saylovchiga 1 nafar deputat, lekin umumiy hisobda 350 nafardan oshib ketmasligi, qishloq joylarida esa har 100 saylovchiga 1 nafar deputat, lekin umumiy hisobda 3 nafardan kam bo‘lmagan va 50 nafardan oshib ketmasligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zining joriy ishlarini hal qilish uchun Kengash oldida javobgar bo‘lgan Rayosat yoki ijroiya qo‘mita tuzishi mumkin bo‘lgan.

Kengash ijro qo‘mitasi tomonidan yoki ijro qo‘mitasi ixtiyori bilan Kengash raisi tomonidan, Kengash raisi yoki a’zolarning 1/3 qismi talabi bilan sessiyaga chaqirilgan.

Kengash o‘z vakolati doirasida va o‘zi faoliyat yuritayotgan hudud chegarasida oliy organ hisoblangan.

Mahalliy hokimiyat organlari vakolatli bo‘lgan masalalar ro‘yxati belgilab berilgan.

Kengashning barcha a’zolari davriy asosda o‘z saylovchilari oldida hisobot berishi mustahkamlab qo‘yilgan.

Yuqori turuvchi mahalliy kengash syezdlari va ularning ijroiya qo‘mitalariga quyi mahalliy kengashlar faoliyatini nazorat qilish vakolati berilgan. Yuqori turuvchi mahalliy kengash syezdlari va ularning ijroiya qo‘mitalari quyi turuvchi kengash syezdlari va ularning ijroiya qo‘mitalari qarorlarini bekor qilish vakolatiga ega bo‘lgan.

Foyda olishni ko‘zlab yollanma mehnatni jalb qilganlar, mehnatga asoslanmagan daromadga ega bo‘lgan shaxslar, xususiy savdogarlar, savdo va tijorat vositachilari, monaxlar va diniy xizmat xodimlari, sobiq Rossiya imperiyasi, Buxoro va Xiva xonligi rahbarlari, xon va uning yaqin qarindoshlari, politsiya, jandarmeriya va jazolovchi organlari rahbarlari va amaldorlari, muomalaga layoqatsiz shaxslar, vasiylik ostidagi shaxslar, sud hukmi yoki hokimiyatning oliy organlari qarorlari bilan aktiv va passiv saylov huquqidan mahrum qilingan shaxslar saylash va saylanish huquqiga ega bo‘lmaganlar.

Saylovlar kunlarini mahalliy kengashlar yoki ularning ijroiya organlari belgilaganlar. Saylovlarda kasaba uyushmalari va boshqa

ISSN 3030-3230

ishchilar tashkilotlari qatnashgan. Saylovchilar deputatlarini chaqirib olish huquqiga ega bo‘lganlar [2].

1937-yilgi O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasiga ko‘ra Hukumatga mahalliy kengashlarni qarorlarini bekor qilish vakolati berilgan. Mazkur Konstitutsiyada mahalliy davlat hokimiyatiga alohida bob bag‘ishlanib, u 24 ta moddadan iborat bo‘lgan.

Kengashlar 2 yil muddatga saylangan. Konstitutsiya mahalliy kengashlarning vakolat doirasini aniq belgilab bergan. Unga ko‘ra Kengashlar o‘z hududida madaniy-siyosiy, xo‘jalik qurilishiga rahbarlik qilish, mahalliy budjetni belgilash, o‘ziga bo‘ysunuvchi organlar faoliyatiga rahbarlik qilish, davlat tartibotini muhofazasini ta’minlash, mamlakatni mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga ko‘maklashish, qonunlarga va fuqarolar huquqlari muhofazasiga rioya qilishni ta’minlash vakolatiga ega bo‘lgan.

Ijroiya organlar mahalliy kengashning ijroiya organi hisoblanib, u tomonidan saylangan va rais, uning o‘rinbosarlari, kotibi, a’zolardan iborat bo‘lgan. Aholisi 2000 nafargacha bo‘lgan (keyinchalik bu 750 nafarga tushirilgan) shaharcha, qishloq, ovul hududlari ijroiya organi rais, uning o‘rinbosari va kotibdan iborat bo‘lgan.

Okrug Kengashlari sessiyalari ijroiya organlari tomonidan yiliga kamida 4 marta chaqirilgan. Tuman Kengashlari sessiyalari ularning ijroiya organlari tomonidan yiliga kamida 6 marta chaqirilgan. Shahar, qishloq va ovul Kengashlari sessiyalari ularning ijroiya organlari tomonidan 1 oyda kamida 1 marta chaqirilgan.

Okrug, tuman va shahar Kengashlari sessiya davriga majlisni olib borish uchun rais va kotibni saylashgan. Qishloq, ovul Kengashlarini sessiyaga qishloq, ovul raisi chaqirgan va raislik qilgan.

Yuqori turuvchi mahalliy kengash ijroiya organlari quyi turuvchi kengash qarorlarini to‘xtatib turish vakolatiga ega bo‘lgan. Yuqori turuvchi kengashlar quyi turuvchi kengash qarorlarini bekor qilish vakolati bilan ta’minlangan.

Okrug Kengashlari 10 ta ijroiya organi bo‘limlarini tashkil qilish (er-suv, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, moliya, kommunal xo‘jalik, ichki savdo, moliya, mahalliy sanoat, umumiy bo‘lim, rejalashtirish komissiyasi) vakolati mustahkamlangan. Keyinchalik bunga avtomobil transporti, san’at ishlari bo‘limlari qo‘shilgan. Umumittifoq xalq komissarliklari va Ichki ishlar xalq komissariati (keyinchalik bunga Adliya komissarligi, Davlat xavfsizligi ham qo‘shilgan)okrug Kengashlari huzurida o‘z boshqarmalari tuzishlari belgilab qo‘yilgan. Ular o‘z faoliyatida ham Kengashga, ham o‘zlarining yuqori turuvchi idoralariga bo‘ysunishgan.

Tuman Kengashlari 10 ta ijroiya organi bo‘limlarini tashkil qilish (er-suv, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, moliya, ichki savdo, moliya, yo‘l, umumiy bo‘lim, rejalashtirish komissiyasi, ijroiya qo‘mitasi raisi huzurida kadr bo‘yicha sektor) vakolati mustahkamlangan. Bundan tashqari tuman xo‘jaligining o‘ziga xosligini hisobga olib mahalliy sanoat va kommunal xo‘jalik bo‘limlari Oliy Kengash Rayosati tasdiqlovi bilan ochishlari mumkin.

Tumanni xususiyatlarini hisobga olib, Oliy Kengash Rayosati tasdiqlovi bilan Ichki ishlar xalq komissarligi tuman Kengashi huzurida o‘zining boshqarmasini ochishi mumkinligi qayd etilgan.

Tuman Kengashlari bo‘limlari o‘z faoliyatida ham Kengashga, ham o‘zlarining yuqori turuvchi idoralariga bo‘ysunishgan.

Bunda muhim jihati shundaki, biz hozirda ijro organlari deb hisoblaydigan tuzilmalar Kengashning organlari deb nomlanib, Kengashga va uning ijroiya qo‘mitasiga bo‘ysunishi belgilab qo‘yilgan.

Saylovlar umumiy, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, yashirin ovoz berish yo‘li bilan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan. Nomzod ko‘rsatish huquqiga jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari: kommunistik partiya, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari, kooperativ tashkilotlar, madaniy jamiyatlari ega bo‘lganlar.

Nomzod ko‘rsatish normasi tabaqalashtirilgan holda belgilab qo‘yilgan: okrug Kengashlariga – 5000 aholiga bir deputat; rayon Kengashlarida 30 minggacha aholi bo‘lgan joylarda har 500 aholi uchun – bir deputat; 30 mingdan – 40 minggacha aholiga – 650 aholidan bir deputat; 40 mingdan – 50 minggacha aholiga – 800 aholidan bir deputat; 50 mingdan – 60 minggacha aholiga – 900 aholidan bir deputat; 60 mingdan ortiq aholiga – 1000 aholidan bir deputat saylanishi mustahkamlab qo‘yilgan. Keyinchalik okrug Kengashi viloyat kengashiga o‘zgartirilib, bu raqamlar yana o‘zgartirilgan

Saylash va saylanish huquqiga muomalaga layoqatsizlar va sud hukmi bilan saylov huquqidan mahrum qilinganlar ega bo‘lmaganlar.

Shahar Kengashlarida va shahar tarkibiga kiruvchi tuman kengashlarida shahar hajmidan kelib chiqib, kamida 100 nafar aholidan va ko‘pi bilan 600 aholigacha – bir deputatdan, Toshkent shahar Kengashida esa 1000 aholiga – bir deputatdan to‘g‘ri kelishi belgilangan [3].

Agar 1953-yilgacha barcha Kengashlarga saylash va saylanish huquqi 18 yoshdan bo‘lgan bo‘lsa, 1953-yildan keyin Oliy Kengash va Qoraqalpoq Oliy Kengashiga 21 yoshdan etib belgilangan.

Harbiylar ham saylanish huquqiga ega bo‘lganligi o‘ziga xos belgi bo‘lgan.

1978-yilgi O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasida ham avvalgi Konstitutsiyalarda bo‘lganidek xalq o‘z hokimiyatchiligini Kengashlar orqali amalga oshirishi, mazkur kengashlar respublika siyosiy tizimining asosini tashkil qilishi, boshqa barcha davlat organlari Kengashlar oldida hisobdor va uning nazorati ostida ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan.

Mazkur Konstitutsiyada avvalgi konstitutsiyalardan farqli o‘laroq mahalliy vakillik hokimiyatiga bag‘ishlangan moddalar soni birmuncha kam bo‘lib, bitta bob, 9 ta moddadan tashkil topgan.

Agar avvalgi konstitutsiyalarda mahalliy kengashlarning vakolat muddati 2 yil bo‘lgan bo‘lsa, endi 2,5 yil etib belgilangan.

Mahalliy kengashlar xalq nazorati organlarini tashkil etish vakolatlari mustahkamlangan.

Mahalliy kengashlar bevosita va o‘zlari tashkil qiladigan organlar orqali davlat, xo‘jalik, ijtimoiy-madaniy qurilish tarmoqlariga rahbarlik qilishi, qarorlar qabul qilishi, ularni ijrosini ta’minlatishi, ularni hayotga tatbiq etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish vakolatlari qayd qilingan.

Mahalliy kengashlar faoliyati masalalarni jamoaviy, erkin ishchan muhokama qilish, masalalarni hal qilish, ijroiya organlar va boshqa u tomonidan tuzilgan organlarning Kengash va aholi oldida muntazam hisobdorligi, oshkoralik, fuqarolarni o‘z ishiga keng jalb qilish prinsiplariga asoslanishi mustahkamlangan.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari mahalliy ahamiyatga ega barcha masalalarni umumdavlat manfaatlariga va shu Kengash hududida yashovchi fuqarolarning manfaatlaridan kelib chiqib hal qilishi, yuqori davlat organlarining qarorlarini amalga oshirish, quyi xalq deputatlari kengashlari faoliyatini boshqarish, respublika va umumittifoq ahamiyatiga ega masalalarni muhokama qilishda ishtirok etishi va ular bo‘yicha o‘z takliflarini kiritishi belgilangan.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari o‘z hududlarida davlat, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlanishni boshqarish, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejalarini, mahalliy budjetlarni va ularning bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotlarni tasdiqlash, quyi davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni boshqarish, qonunlarga rioya qilinishini ta’minlash, davlat va jamoat tartibini hamda fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga hissa qo‘shishi mustahkamlab qo‘yilgan.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari o‘z vakolatlari doirasida o‘z hududlarida kompleks iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta’minlash, o‘z hududlarida joylashgan yuqori bo‘ysunuvdagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlariga rioya qilinishini nazorat qilish, yerlardan foydalanish, suv xo‘jaligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, qurilish, ishchi kuchidan foydalanish, iste’mol tovarlari ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy, maishiy va boshqa jamoat xizmatlari sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish vakolatlari qayd etilgan.

Xalq deputatlari mahalliy kengashlari qonunlar bilan berilgan vakolatlar doirasida qarorlar qabul qilishi, mahalliy kengashlarning qarorlari Kengash hududida joylashgan barcha korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, shuningdek, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiyligi belgilangan.

Mahalliy kengashlarining sessiyalari ularning ijroiya qo‘mitalari tomonidan yiliga kamida to‘rt marta chaqirilishi, sessiyalarda qonunlar bilan o‘z vakolatlariga kiradigan barcha masalalarni ko‘rib chiqish va hal qilish vakolatiga egaligi mustahkamlangan.

Faqat Kengash sessiyalarida ko‘rib chiqiladigan va hal qilinadigan masalalar ro‘yxati mahalliy xalq deputatlari Kengashlari to‘g‘risidagi qonunlar bilan belgilangan.

1978 yilgi Konstitutsiyaning yana bir o‘ziga xosligi mahalliy kengashlar doimiy qo‘mitalarni tashkil qilish, uning tavsiyalarini davlat va jamoat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan majburiy ko‘rib chiqishi lozimligi, qo‘mitalarga ko‘rib chiqish natijalari yoki ko‘rilgan choralar to‘g‘risida belgilangan muddatda xabar berilishi kerakligi belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek yuqori darajadagi mahalliy kengashlar quyi darajadagi xalq deputatlari kengashlari va ularning ijroiya qo‘mitalarining hujjatlarini, agar bu hujjatlar qonunga zid bo‘lsa, bekor qilish huquqiga ega – deb belgilangan [4].

Mahalliy Kengashlarning ijro va ma’muriy organlari - bu Kengash tomonidan deputatlar orasidan saylanadigan, rais, rais o‘rinbosarlari, kotib va a’zolardan iborat ijro qo‘mitalari bo‘lgan. Ijroiya qo‘mitalari yiliga kamida bir marta o‘zlarini saylagan Kengashlarga hisobot berishlari, ijro qo‘mitalari ularni saylagan Kengashga ham, yuqori lavozimdagi ijro va ma’muriy organga ham bevosita hisobot berishi belgilab qo‘yilgan.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining ijro qo‘mitalari faqat Kengash sessiyalarida hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalardan tashqari Kengashlar vakolatiga kiradigan barcha masalalarni hal qilish huquqiga ega bo‘lgan.

Ijroiya qo‘mitalari Kengash sessiyalarini

ISSN 3030-3230

chaqirish, Kengashlarning doimiy qo‘mitalari ishini muvofiqlashtirish, deputatlarga o‘z vakolatlarini amalga oshirishda yordam berish, Kengashlar va yuqori davlat organlari qarorlarining, shuningdek, saylovchilarning buyruqlarining (nakazlar) bajarilishini tashkil qilish, va ijroiya qo‘mitaga bo‘ysunadigan boshqaruv organlarini boshqarish vakolatiga ega bo‘lgan.

Konstitutsiyada ijroiya qo‘mitalarining bo‘limlari va boshqarmalari xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar va shahar-tuman kengashlari tomonidan tuzilishi va o‘z faoliyatida ham Kengashlarga, ham ularning ijroiya qo‘mitalariga, shuningdek, tegishli yuqori darajadagi davlat organlariga bo‘ysunishi belgilab qo‘yilgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning 1992-yilgi Konstitutsiyasi qabul qilingunga qadar mahalliy Sovetlar joylarda yagona davlat hokimiyati organi hisoblanib kelingan. Bu avvalgi konstitutsiyalarda ham, yuridik adabiyotlarda ham alohida qayd etilgan [5].

Professor A.Xusanov to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, bu davrda shunday hujjatlar bor ediki, ular har qanday farmon va qonunlardan ustun turar edi. Bu kommunistik partiya hujjatlari edi. Amaldagi partiya hukmronligi Sovetlarning qonunlarda ko‘rsatilgan darajada faoliyat ko‘rsatishiga to‘sqinlik qilar edi [6].

Qonunlar vakolat bergani bilan Sovetlar biror narsani mustaqil hal qila olmagan.

Partiyadan tashqari, mahalliy Sovetlar mavqeining pasayib ketishiga ular ishiga partiya organlarining aralashuvidan tashqari, ijro organlarining tutgan mavqei ham sabab bo‘ldi. Qonunga binoan, sovetlar tomonidan tuziladigan va Sovetlarga hisob beruvchi ijroiya komitetlari aslida Sovetlardan ustun turishga intildi. Ijrokomlar yillar davomida Sovetlarning o‘rnini egallab, ularga buyruq berib kelgan. Ijrokomlar orqali partiyaning rahbarlik monopoliyasi amalga oshirilar edi [7].

1992-yilgi mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan shaharlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo‘lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab o‘z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etishlari belgilab qo‘yilgan.

Konstitutsiyada mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga kiradigan masalalar sifatida:

qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash;

hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;

mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig‘imlarni belgilash, budjetdan tashqari jamg‘armalarni hosil qilish;

mahalliy kommunal xo‘jalikka rahbarlik qilish;

atrof-muhitni muhofaza qilish;

fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta’minlash;

normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish mustahkamlandi.

Mahalliy hokimiyat organlari O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshirishlari, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashishlari, yuqori organlarning o‘zlariga berilgan vakolat doirasida qabul qilgan qarorlari quyi organlar ijro etishi uchun majburiyligi, Kengash va hokimlarning vakolat muddati belgilab qo‘yildi.

2016-yildan so‘ng O‘zbekiston Respublkasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan mahalliy Kengashlar faoliyatida yangi davr boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “joylardagi davlat hokimiyati organlari – barcha darajadagi hokimliklar, xalq deputatlari kengashlari faoliyatini takomillashtirishni davom ettirishimiz zarur. Shuning uchun Oliy Majlis Senati tomonidan har bir viloyatda navbatma-navbat namunaviy xalq deputatlari kengashlari ishini tashkil etish tajribasi joriy etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ularning asosiy maqsadi va vazifasi – aholining barcha toifalari bilan doimiy muloqotda bo‘lish, fuqarolarning qonuniy talab va ehtiyojlarini nafaqat o‘rganish, balki ularni ta’minlashdan iborat [8] - deb ta’kidlagan edilar.

Davlatimiz rahbarining fikricha, parlament va jamoatchilik nazoratining ta’sirchan mexanizmlarini shakllantirish maqsadida shahar va tumanlarda haqiqiy ahvolni o‘rganib, tegishli rahbarlarning hisobotini xalq deputatlari kengashlari sessiyasi muhokamasiga kiritish tartibini joriy etishni hayotning o‘zi taqozo qildi [9].

Prezidentimiz partiyalarning mahalliy kengashlardagi guruhlari esa – vazirlik va qo‘mitalarning joylardagi boshqarma va bo‘limlari faoliyati ustidan samarali ... deputatlik nazoratini o‘rnatishi kerak [10] ligini qayd etgan edilar.

Davlatimiz rahbari “Ayni paytda mahalliy

kengashlardagi partiya guruhlariga tegishlicha tuman yoki shahar hokimlari, shuningdek, mahalliy ijro organlari rahbarlarining qoniqarsiz faoliyati haqida xulosalarni viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga taqdim etish huquqini ham berish kerak, deb hisoblayman. Bu borada har bir siyosiy partiya guruhi o‘z xulosasini berishi lozim [11] - deb qayd etgan edilar.

2023-yilgi Yangilangan Konstitutsiyamizda xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qilishi, viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ayni bir viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashining raisi etib saylanishi mumkin emasligi, yangidan tashkil etilgan ma’muriy-hududiy birliklarda xalq deputatlari Kengashlariga saylov xalq deputatlari Kengashlariga navbatdagi umumiy saylovlarga qadar qolgan davrdan oshmaydigan muddatga o‘tkazilishi kabilar belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari belgilab qo‘yildi.

Mahalliy davlat vakillari organlari konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarining rivojlanishi tahlili shuni ko‘rsatdiki, rivojlanishning umumiy qonuniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlari sifatida bosqichlarni aniqlashga imkon berdi:

1. Birinchi bosqich 1927-1992 yillar. Bu davr amalda bo‘lgan konstitutsiyalarda o‘sha vaqtda hukmron bo‘lgan siyosiy partiyaning hal qiluvchi ta’siri ostida mahalliy kengashlar shakllangan va faoliyat ko‘rsatganini ko‘rsatadi.

Bu davrning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida:

- mahalliy kengashlar faoliyatini batafsil konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solinganligi;
- xalq vakilligining kengligi va vakillik normasining tabaqalashtirilgan tizimi mustahkamlanganligi;
- barcha vakolatlar – Kengashlarga berilib, u siyosiy tizimning asosini tashkil qilganligi;
- ijro hokimiyati vakillik hokimiyatidan ajralmasdan Kengashning ijro organi sifatida tashkil qilinganligi va faoliyat ko‘rsatganligi;
- ijro organlarini tashkil qilishning majburiy sharti uning raisi, o‘rinbosari, kotibi va a’zolari deputatlari orasidan bo‘lishi belgilab qo‘yilganligi;
- mahalliy kengashlarga katta e’tibor qaratilgani holda uni majlisga chaqirish, kun tartibini belgilash ijro organi tomonidan amalga oshirilishi, sessiyalar oralig‘ida uning nomidan Rayosati yoki ijro organi ish borganligi, ijro qo‘mitalari faqat sessiyalarda hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalardan tashqari Kengashlar vakolatiga kiradigan barcha masalalarni hal qilish huquqiga ega bo‘lgani;
- Kengash o‘z vakolati doirasida va o‘zi faoliyat yuritayotgan hudud chegarasida oliy organ hisoblanganligi;
- demokratik markazlashuv belgisi sifatida yuqori turuvchi mahalliy kengash va uning ijroiya qo‘mitalariga quyi mahalliy kengashlar faoliyatini nazorat qilish vakolati berilgani, quyi turuvchi kengash va uning ijroiya qo‘mitalari qarorlarini bekor qilish vakolatiga ega bo‘lgani;
- saylash va saylanish yoshi 18 etib belgilanganligi, harbiylar ham saylanish huquqiga ega bo‘lganligi;
- *demokratik belgilar sifatida* mahalliy kengashlarning umumiy, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylovlarda yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanishi mustahkamlanganligi, ijroiya qo‘mitalari yiliga kamida bir marta o‘zlarini saylagan Kengashlarga hisobot berishlari, nomarkazlashtirishning dastlabki elementi sifatida mahalliy hokimiyat organlari vakolatli bo‘lgan masalalar ro‘yxati belgilab qo‘yilgani, mahalliy kengashlarning vakolat muddatlari belgilanib, ularning ikki yil faoliyat yuritishi, Kengashning barcha a’zolari davriy asosda o‘z saylovchilari oldida hisobot berishi;
- *siyosiy huquqlarning cheklanishi sifatida* ko‘ppartiyaviylik va fikrlar xilma- xilligiga yo‘l qo‘yilmaganligi, hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi belgilanmaganligi, dastlabki davrda saylov huquqlari cheklanib, ayrim toifadagi shaxslarning aktiv va passiv saylov huquqlari cheklanganligi, yuqori turuvchi Hukumat va ijro organlari quyi turuvchi mahalliy kengashlar qarorlarini bekor qilish, to‘xtatib turish vakolatiga ega bo‘lganligi;
- Kengashni doimiy asosdagi raisi bo‘lmay, sessiya davriga rais saylanishi, viloyat – tuman – shahar sessiyalari davriyligi tabaqalashtirilganligi;
- hozirda ijro organlari deb hisoblaydigan tuzilmalar Kengashning organlari deb nomlanib, Kengashga va uning ijroiya qo‘mitasiga bo‘ysunishi belgilab qo‘yilganligi;
- hududning organlari yuqoridan emas, balki Kengash tomonidan va uning organi sifatida tashkil qilinib, tashkil qilinishi kerak bo‘lgan organlarning nomi va ro‘yxati konstitutsiyaviy darajada belgilab qo‘yilganligi;
- Umumittifoq organlari viloyat darajasida o‘z boshqarmalarini tuzishi mumkin bo‘lib, ular Kengash huzurida degan maqomda tashkil qilinganligi;
- Ijro organlari ikki tomonlama bo‘ysunuvga ega bo‘lganligi (mahalliy Kengashga va o‘zining

ISSN 3030-3230

yuqori turuvchi idorasiga;

- barcha davlat organlari Kengashlar oldida hisobdor va uning nazorati ostida ekanligi mustahkamlab qo‘yilgani;

- saylovchilarning buyruqlari (nakazlar) institutining mavjudligi.

2. Ikkinchi bosqich – 1992-2016 yillar. Bu bosqichning o‘ziga xos xususiyatlari:

- hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi, 1992-2023 yilgacha Kengash raisi hokim bo‘lgan markazlashgan sharoitda faoliyat yuritdi;

- 2005-yildan ikki palatali parlament tashkil qilinib, yuqori palata Senat tuzilgani, unda Mahalliy vakillik organlari faoliyatiga ko‘maklashish komissiyasi shakllantirilganidan so‘ng mahalliy kengashlar faoliyatiga respublika darajasida tashkiliy-huquqiy, uslubiy ko‘maklashish funksiyasi vujudga keldi;

- 2007-yilda qonunchiligimizga hokimlar lavozimga qo‘yilishida mahalliy Kengashlardagi siyosiy partiya guruhlari bilan maslahatlashuv instituti kiritildi;

- 2007-yilda mamlakatimiz tarixida birinchi marta qonunchiligimizga viloyatlar va Toshkent shahri darajasida mahalliy Kengashlarni tarqatib yuborish instituti kirib keldi;

3. **Uchinchi bosqich – 2017-yildan hozirgi vaqtga qadar. Bu bosqichning o‘ziga xos xususiyatlari:**

- kengashlarning konstitutsiyaviy-huquqiy, tashkiliy-institutsional maqomi o‘zgarardi;

- 2020-yilda mahalliy kengashlarning o‘z kotibiyati shakllanganligi ularning ijro organlaridan tashkiliy-institutsional ajralib chiqishiga dastlabki qadamni boshlab berdi. Agar avvallari Kengashda bir nafar ham xodim bo‘lmagan bo‘lsa, hozirda respublika bo‘yicha 221 ta mahalliy Kengashda 700 ga yaqin xodim faoliyat yuritmoqda;

- Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari vakolatlari, mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratildi, hokimiyatlar bo‘linishiga oid konstitutsiyaviy tamoyilning mahalliy darajada ham belgilanishiga erishildi;

- Yangilangan Konstitutsiyada Senatga mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga o‘z faoliyatini amalga oshirishda ko‘maklashish, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining qarorlarini, ular qonunchilik normalariga muvofiq bo‘lmagan taqdirda bekor qilish vakolati berildi;

- Kengashlarning vakolatlari va mas’uliyati olti baravarga ko‘paydi;

- Senatda Hududiy vakillik organlariga ko‘maklashish markazi tuzildi;

- qonunchilikka yangi institutlar “Kengash so‘rovi”, “Kengash tekshiruvi” kirib keldi;

- 2021-yil 1-iyuldan mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini qabul qilish (chiqarish)ga ketadigan ortiqcha muddatlarni qisqartirish, ularni ishlab chiqishda inson omili va aralashuvini kamaytirish, shuningdek, qarorlar bilan aholini doimiy ravishda tanishtirib borish maqsadida Kengash qarorlari “E-qaror” elektron tizimi orqali amalga oshiriladigan bo‘ldi;

- 2024-yil 2-fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga asosan jamiyat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etish, xalqning bevosita ixtiyori asosida qaror qabul qilish talab etiladigan o‘ttizdan ortiq vakolatlar mahalliy Kengashlarga o‘tkazildi;

- vakillik organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, mahalliy Kengash deputatlari bilan fuqarolar o‘rtasida elektron muloqot maydonini yaratish maqsadida “kengash.gov.uz” platformasi ishlab chiqildi;

- 2024-yil kiritilgan o‘zgartishlarga ko‘ra mahalliy kengashlar faqat hokim va uning o‘rinbosarlarini lavozimga tasdiqlashi saqlanib qolib, boshqa mahalliy ijroiya hokimiyati struktura bo‘linmalarining rahbarlarining lavozimga xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanishi tartibi chiqarildi;

- 2025-yil 23-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-98 sonli Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

Qabul qilingan Farmon mahalliy darajada xalq hokimiyatchiligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, jumladan jamiyat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etishda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining rolini oshirish, fuqarolarning mahalliy boshqaruvda keng ishtirok etishiga oid demokratlashtirish jarayonlarini mustahkamlash, ijro hokimiyati organlarining mahalliy xalq vakillari oldidagi hisobdorligini oshirish, hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida nomarkazlashtirish maqsadlarini ko‘zlagan.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy kengashlarning yuz yillik konstitutsiyaviy-huquqiy rivojlanishi tahlili ularning dastlabki ikki bosqichda yagona hukmron siyosiy partiya, keyinchalik ijro hokimiyati boshchiligida faoliyat ko‘rsatgani, uchinchi bosqichdan esa ular faoliyatining demokratlashuvi, nomarkazlashuvi, hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi mahalliy darajada tatbiq etilishi, tashkiliy-institutsional mustaqil bo‘lib, faollashuvi, raqamlashayotganini ko‘rsatmoqda.

Аннотатция. В статье на основе историко-правового анализа рассматривается развитие конституционно-правовых основ местных представительных органов власти в Узбекистане. Сравниваются положения Конституций 1927, 1937, 1978 и 1992 годов о статусе и полномочиях местных Кенгашей. Также анализируются реформы 2017–2025 годов и изменения, закреплённые в новой Конституции 2023 года, связанные с расширением полномочий Кенгашей, усилением механизмов контроля и демократизацией местного управления. Исследование кратко и последовательно раскрывает эволюцию местной власти и содержание современных правовых преобразований.

Ключевые слова: местные Кенгаши, конституционно-правовые основы, государственная власть, представительный орган, децентрализация, местное управление, Конституция, депутатский контроль.

Annotation. This article examines the development of the constitutional and legal foundations of local representative bodies in Uzbekistan through a historical-legal analysis. The study compares the provisions of the 1927, 1937, 1978, and 1992 Constitutions regarding the status and powers of local Councils. It also analyzes the 2017–2025 reforms and the new 2023 Constitution, which expand the authority of Councils, strengthen oversight mechanisms, and promote the democratization of local governance. The research briefly and coherently outlines the evolution of local government and the essence of modern legal reforms.

Key words: local councils, constitutional-legal foundations, state authority, representative body, decentralization, local governance, Constitution, parliamentary oversight.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хусанов А.Т. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва маҳаллий давлат ҳокимияти асослари. Ҳуқуқий, ташкилий масалалар ва муаммолар. – юридик фанлар доктори илмий даражасини олиш диссертация. -Тошкент. – Б.22-23.
2. Конституция (Основной закон) Узбекской ССР. – Самарканд, 1927. – С.13-18.
3. Конституция (Основной закон) Узбекской ССР. – Ташкент, 1937. – С.20-24.
4. Конституция (Основной закон) Узбекской ССР. – Ташкент, 1978. – С.37-39.
5. Хусанов А.Т. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва маҳаллий давлат ҳокимияти асослари. Ҳуқуқий, ташкилий масалалар ва муаммолар. – юридик фанлар доктори илмий даражасини олиш диссертация. -Тошкент. – Б.22.
6. Хусанов А.Т. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва маҳаллий давлат ҳокимияти асослари. Ҳуқуқий, ташкилий масалалар ва муаммолар. – юридик фанлар доктори илмий даражасини олиш диссертация. -Тошкент. – Б.24.
7. Барабашев Г. Совет и мэр в “упряжке” самоуправления // Народный депутат, №11, 1991. – С.36.
8. Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи – https://president.uz/uz/lists/view/111
9. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови – https://president.uz/uz/lists/view/2
10. https://president.uz/uz/lists/view/781 // Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис палаталари, сиёсий партиялар ҳамда Ўзбекистон Экологик ҳаракати вакиллари билан видеоселектор йиғилишидаги маърузаси
11. https://president.uz/uz/lists/view/781 // Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис палаталари, сиёсий партиялар ҳамда Ўзбекистон Экологик ҳаракати вакиллари билан видеоселектор йиғилишидаги маърузаси

HARBIY XIZMATCHILAR MODDIY JAVOBGARLIGIGA OID QONUNCHILIK HOLATI

Po‘latov Munavvarxon Ma’rufjonovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. **Maqolada harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligiga oid me’yoriy huquqiy hujjatlarning asoslari tadqiq etilgan. Shuningdek, chet el qonunchiligi amaliyoti hamda milliy qonunchiligimizni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.**

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchi, yuridik javobgarlik, moddiy zarar, intizomiy javobgarlik budjet mablag‘i, mehnat huquqi, fuqarolik huquqi, jinoyat-protsessual qonunchilik.

Yurisprudensiyada moddiy javobgarlikning huquqiy oqibatlaridan biri, bu – yetkazilgan moddiy zararni qoplash hisoblanadi. Ilmiy nazariyada olimlar tomonidan davlatga yetkazilgan moddiy zarar albatta qoplanishi zarurligi xususida fikrlar e’tirof etilsada, biroq harbiy xizmatda yetkazilgan moddiy zarar miqdorini aniqlash, hisoblash, undirish bo‘yicha huquqiy mexanizmlar hanuzgacha o‘z takomiliga yetkazilmadi.

Harbiy xizmatchilar moddiy javobgarligiga oid normalar tahlili esa ularni 2 xil ekanligini, ya’ni: umumiy va maxsus, shuningdek moddiy va protsessual-huquqiy qoidalardan iboratligini ko‘rsatadi. Ya’ni, moddiy javobgarlik asoslari va protsessual mexanizmlari harbiy qonunchilikdan tashqari, mehnat, fuqarolik-protsessual, jinoyat-protsessual qonunchilik bilan ham tartibga solinadi.

Bu xususda boshqa olimlar ham o‘z fikrlarini ilgari surganlar.

D.Artamonov, K.Lixovidov, I.Mityashin, Yu.Migachyov, Ch.Belousova, V.Strekozovalar harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarli normalari kompleks xarakterda bo‘lib, uni amalga oshirishni belgilovchi normalar turli huquq tarmoqlariga oidligi haqida bildirgan fikrlari o‘rinli bo‘lib chiqadi [1].

Xususan, T.Sharifov moddiy zararni qoplashda fuqarolik, jinoyat va boshqa qonunchilik normalariga murojaat qilinishi bois, tarmoqlararo huquqiy institut ekanligini ta’kidlaydi [2].

N.A.Bloxina esa moddiy javobgarlikni yuridik javobgarlikning mustaqil turi sifatida baholab, mehnat huquqi tarkibida 1930-yillarda intizomiy javobgarlik masalalari bilan birgalikda yuzaga kelganligini qayd etadi [3].

1995-yildagi O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi bilan umumiy moddiy javobgarlik asoslari o‘rnatildi. Uning 185-moddasida mehnat shartnomasi bir tarafi mehnat sohasidagi vazifalarni bajarishi munosabati bilan boshqa tarafga yetkazgan zararini mehnat to‘g‘risidagi normativ hujjatlarda belgilangan qoidalarga muvofiq qoplashi qayd etildi. Shu bilan birga mehnat shartnomasi yoki unga qo‘shimcha ravishda tuzilgan yozma shakldagi kelishuvda taraflarning moddiy javobgarligi aniqlashtirib qo‘yilishi mumkinligi ta’kidlangan [4]. Biroq ta’kidlash joizki, harbiy xizmatni o‘tash to‘g‘risidagi namunaviy kontraktda moddiy javobgarlik asoslari qayd etilmagan, shuningdek harbiy xizmatchilar va qo‘mondonlik o‘rtasida qo‘shimcha moddiy javobgarlik to‘g‘risidagi yozma shakldagi kelishuvlar tuzilishi haqida maxsus qoidalar uchramaydi.

Harbiy xizmatchilar moddiy javobgarligining asosiy shartlaridan biri shundaki, javobgarlikka oid huquqiy munosabatlar asosan ichki xizmat o‘tash tartibida, ya’ni nizom, buyruq va lavozim yo‘riqnomalarida ko‘zda tutilgan xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida sodir etilishi lozim.

A.V.Kolosovskiy moddiy javobgarlikni, bu – taraflarning o‘z mehnat majburiyatlarini bajarishga rioya qilmasligi, uni bu buzishi oqibatida yuz beradigan hodisa sifatida ta’kidlaydi [5].

Masalan, 1996-yilda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Ichki xizmat nizomi 9-bandida quyidagilar, ya’ni: jangovar harakatlarda ishtirok etish, jangovar navbatchilikni (navbatchilik) o‘tash, kun tartibi va xizmat vaqti reglamenti yoki xizmat zaruratidan kelib chiqqan vaqt davomida harbiy qism hududida bo‘lish, xizmat safari yoki davolanishda bo‘lish, xizmat, davolanish joyi tomon yo‘lda borish va u yerdan ortga qaytish, harbiy yig‘inlarda bo‘lish, asirda bo‘lish, bedarak ketish, shaxsning hayoti, sog‘ligi va or-nomusini himoya qilish payti, qonuniylik va huquqiy tartibotni ta’minlashda huquqni muhofaza qilish organlariga yordam berish (shu jumladan harbiy qism qarorgohidan tashqarida dam olish, qisqa ta’til va ta’til davrida ham), favqulodda vaziyatni bartaraf qilish ishlarida qatnashish harbiy xizmatchining xizmat majburiyatlarini ijro etayotganliklarini anglatadi [6]. Ushbu davrlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 14-fevralda PF-23-son Farmoni bilan yangidan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi

Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlari”da ham takroran o‘z aksini topgan.

Ilmiy nazariyada olimlar qayd etganidek, moddiy javobgarlikni belgilashda quyidagi asosiy shartlar mavjudligini aniqlash zarur:

birinchidan, davlatga haqiqiy moddiy zarar yetkazilgani;

ikkinchidan, kelib chiqqan moddiy zarar va harbiy xizmatchining hatti-harakati (harakatsizligi) o‘rtasida sababiy bog‘liqlik mavjud bo‘lishi;

uchinchidan, harbiy xizmatchi hatti-harakatlarining noqonuniyligi va ayblilik masalasi;

to‘rtinchidan, zarar aynan xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida yetkazilgan bo‘lishi talab etiladi.

A.Kavbasyuk keltirishicha, komandir (boshliq)ning buyrug‘ini bajarmaslik alohida jinoyat tarkibini tashkil qiladi, jinoyat moddiy tarkibli oqibat bilan moddiy zarar keltirib chiqarishi mumkin [7].

Qonunchilikda komandirga nisbatan xizmat tekshiruvini tayinlash va uning moddiy javobgarligi doirasini aniqlash mexanizmlari yetarlicha aniq ishlab chiqilmaganligi masalani chigallashtiradi. Komandir (boshliq)ning noqonuniy buyrug‘ini bajarish ortidan yetkazilgan zarar muammosi asosan sudlarda harbiy xizmatchilarning jinoyatlari yoki davlat manfaatlariga oid ishlarni yuritish jarayonida aniqlanib qoladi.

Shu sabab komandirning noqonuniy hatti-harakati ustidan M.Palexin qayd etganidek, sudga murojaat tendensiyasi oshayotgan bo‘lsa [8], Ye.Nikolayev fuqarolik da’vosi sud ishlarini yuritishda shaxs huquqlarini tiklashning samarali usuli, deb hisoblaydi [9].

I.Simbarenko ham harbiy boshqaruv organi va mansabdor shaxsi ustidan shikoyat qilish harbiy xizmatchining huquqlarini amalda samarali ta’minlash vositalaridan biri deb hisoblaydi [10].

Olimlarning fikr-mulohazalari o‘rinli, chunki xizmat o‘tash davrida komandir ustidan sudga shikoyat qilish holatlari sud amaliyotida deyarli uchramaydi. Ular aksincha, harbiy xizmatdan bo‘shatilgach yoki oqlanganda asosan da’vo kiritishadi.

Moddiy zararni undirish haqidagi nizolar da’vo xususiyatiga ega bo‘lgani uchun sudlarda ishlarni yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi bo‘yicha belgilanadi. Fuqarolik protsessual kodeksning 34-moddasida “…yuridik shaxsning mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi da’volar zarar yetkazilgan joydagi sudga ham taqdim etilishi mumkin” deb belgilangan [11].

Davlatga zarar yetkazgan harbiy xizmatchi jinoiy javobgarlikka tortilgan hollarda harbiy qism yoki muassasa komandiri unga qarshi qoplanmagan zarar summasini fuqarolik da’vosini bildirish orqali to‘liq undirishi lozimligi boshliq majburiyati sifatida o‘rnatilgan. Shu boisdan odatda jinoyat ishlarini tergov qilish chog‘ida harbiy qism harbiy prokuratura tomonidan fuqaroviy da’vogar sifatida ishga jalb qilinadi.

Sud amaliyotiga ko‘ra, harbiy xizmatchilar tomonidan yetkazilgan moddiy zararni undirishga doir ishlar nafaqat fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda, shuningdek harbiy sudlar ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

“Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi nizom 8-moddasida “harbiy sudlar jinoyat ishlari bilan birga harbiy qismlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining va fuqarolarning jinoyatlar tufayli o‘zlariga yetkazilgan moddiy zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi fuqarolik da’volarini ham ko‘rib chiqadi” deb harbiy sudlar vakolatiga bergan [12].

Bizningcha harbiy xizmatchilar tomonidan davlatga yetkazilgan moddiy zararni undirish bo‘yicha ishlar barcha hollarda harbiy sudlarda ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiq. Biroq, sud statistikasiga ko‘ra 2021-2024 yillarda harbiy sudlarda harbiy xizmatchilarning davlatga ko‘plab moddiy zarar keltirib chiqargan jinoyatlariga oid ishlar ko‘rilgan bo‘lsada, zararni undirish bo‘yicha da’vo arizalari qanoatlantirilgan yoki rad qilinganligiga, alohida tartibda fuqarolik da’vosi kiritilganmi-yo‘qmi ma’lumotlar tizimli mavjud emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligiga oid qonunchilik tahlili yuzasidan xulosa qilish mumkinki, bu boradagi qonunchilik islohotlari hamon yakuniga to‘liq yetmagan, ishlab chiqilishi talab etiladigan normavtiv-hujjatlar, bartaraf etilishi lozim bo‘lgan bo‘shliqlar, shuningdek takomillashtirish ehtiyoji mavjud bo‘lgan ayrim jihatlari hanuz saqlanib kelinmoqda.

Xususan, davlatga yetkazilgan moddiy zararlarni harbiy xizmatchilardan jinoyat protsessual (jinoyat ishida fuqaroviy da’vo tartibida), fuqarolik-protsessual (alohida da’vo ishini yuritish), shuningdek harbiy qonunchilik asosida ma’muriy-huquqiy tartibda qoplash usullari ushbu masalada xilma-xil yondoshuvlarga, yagona tizim mavjud emasligiga olib kelmoqda. Davlatga yetkazilgan moddiy zararni undirishga oid ishlar harbiy sudlar, fuqarolik ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlari tomonidan ko‘rib chiqilayotgani natijasida qonunchilikda har bir vaziyatda qaysi bir sudga murojaat qilish lozimligini aniq chegaralanmaganini amaliyot ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosalarga kelamiz:

birinchidan, harbiy ilm-fanda va qonunchilikda harbiy xizmatchilar yuridik javobgarligining ma’muriy, intizomiy, mulkiy, moddiy va jinoiy javobgarlik turlari keltiriladi;

ikkinchidan, harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi – bu harbiy xizmatchi davlat oldida o‘z

ISSN 3030-3230

harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishi chog‘ida harbiy qism yoki muassasaga yetkazilgan moddiy zararni to‘liq va (yoki) qisman naqd qoplashni nazarda tutadigan yuridik javobgarlikning maxsus turidir.

uchinchidan, Mehnat kodeksida xodimlarning to‘liq moddiy javobgarlik asoslari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lsada, biroq Qurolli Kuchlarda to‘liq moddiy javobgarlik to‘g‘risida shartnomalar harbiy xizmatchilar bilan tuzilmaydi. To‘liq moddiy javobgarlik to‘g‘risida shartnomalar tuziladigan lavozimlar ro‘yxati ham ishlab chiqilmagan;

to‘rtinchidan, harbiy xizmatchilar, shuningdek sobiq harbiy xizmatchilar tomonidan davlatga yetkazilgan moddiy zararni undirishda harbiy qism yoki muassasalar tomonidan fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga da’vo arizasi kiritilmoqda. Ayrim hollarda bu mazmundagi arizalar bo‘yicha ish harbiy sudlarda yuritiladi. Yagona sud amaliyotini ta’minlash maqsadida Qurolli Kuchlar harbiy mol-mulkiga yetkazilgan moddiy zararni undirishga oid ishlarni hududiy harbiy sudlarda ko‘rib chiqish tartibini joriy qilish maqsadga muvofiq.

Аннотация. В статье рассмотрены основы нормативных правовых документов по вопросам материальной ответственности военнослужащих, а также выдвинуты предложения по совершенствованию практики зарубежного законодательства и нашего национального законодательства.

Ключевые слова: военнослужащий, юридическая ответственность, материальный ущерб, бюджет дисциплинарной ответственности, трудовое право, гражданское право, уголовно-процессуальное законодательство.

Annotation. The article examines the foundations of normative legal documents on the financial responsibility of military personnel. Also, proposals were put forward to improve the practice of foreign law enforcement and our national law enforcement.

Key words: military serviceman, legal liability, material damage, disciplinary liability budget, labor law, civil law, criminal-procedural legislation.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Артамонов, Д.Н. Материальная ответственность военнослужащих за ущерб, причиненный государству: дисс. канд. юрид. наук. – Москва, 1960 г.
2. Шарифов Т. Правовое регулирование иска в уголовном судопроизводстве по делам о преступлениях, совершенных военнослужащими: автореф…дисс. канд. юрид. наук. - Москва, 2005 г. – 12 с.
3. Блохина Н.А. Юридическая ответственность в РСФСР (1930-1940 гг.): автореф…дисс. канд. юрид. наук. – Казань, 2007 г. – С.17.
4. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 йил, 1-сонга илова.
5. Колосовский А.В. Эффективность правового регулирования дисциплинарной и материальной ответственности: автореф…дисс. канд. юрид. наук. – Екатеринбург, 2010 г. – С.10.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1996 йил 9 октябрдаги ПФ-1571-сон фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Ички хизмат низоми”.
7. Кавбасюк А.Н. Уголовно-правовое регулирование отношений подчиненности в Вооруженных силах современных государств: автореф… канд.дисс...юрид. наук. – Москва, 2006. – С.16.
8. Палехин М. Гражданско-правовая охрана прав военнослужащих: автореф…дисс.канд. юрид.наук. – Волгоград. 2006 г. - С.14.
9. Николаев Е.М. Востановление прав и законных интересов потерпевших в уголовном судопроизводстве: автореф...дисс. канд. юрид. наук. - Уфа, 2009 г. – С.9.
10. Цымбаренко И.Б. Рассмотрение судом жалоб военнослужащих на неправомерные действия и решения воинских должностных лиц и органов военного управления: автореф… дисс. канд. юрид. наук. – Москва, 1998 г. - С.4.
11. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодекси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 23.01.2018 йил, 02/18/0612-сон.
12. “Ҳарбий судлар фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги низом. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.07.2021 йил, 03/21/703/0723-сон.

AUTSORSING TIZIMINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Boboxonov Sindor Rahim o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Tahririyat-noshirlik bo‘limi katta ofitseri

Annotatsiya. Maqolada autsorsing tizimining davlat boshqaruvi amaliyotidagi o‘rni konstitutsiyaviy-huquqiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Bozor iqtisodiyotida boshqaruv samaradorligi, javobgarligi va oshkoraligi bo‘yicha kuchayib borayotgan talablar autsorsingni davlat xizmatlarini optimallashtirishning muhim mexanizmiga aylantirgan. Muallif autsorsingning davlatning yadro vakolatlariga ta’sir etmasligini, balki yordamchi funksiyalarni tashqi ixtisoslashgan subyektlar orqali bajarish orqali Konstitutsiyada mustahkamlangan xalq manfaatlari, qonuniylik, javobgarlik va shaffoflik tamoyillarini yangi tashkiliy shakllarda ro‘yobga chiqarishini asoslaydi..

Kalit so‘zlar: Autsorsing, konstitutsiyaviy tamoyillar, davlat boshqaruvi, huquqiylik, javobgarlik, oshkoralik, tranzaksion xarajatlar nazariyasi, davlat-xususiy sheriklik, boshqaruv samaradorligi, Konstitutsiya, yadro funksiyalar, institutsional mexanizmlar, xalqaro tajriba, LOGCAP, PPP, boshqaruv modernizatsiyasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat boshqaruvi tizimi tubdan yangilanib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi natijasida boshqaruvning samaradorligi, tejamkorligi va huquqiy javobgarligiga bo‘lgan talab ortib bormoqda. XXI asr boshqaruv paradigmasida davlat endi faqat buyruq va nazorat funksiyalarini bajaruvchi subyekt emas, balki iqtisodiy jarayonlarda strategik koordinatsiya, hamkorlik va resurslardan oqilona foydalanish tamoyillariga tayanadigan institutsional mexanizm sifatida talqin qilinmoqda.

Shu jarayonda autsorsing – ya’ni davlat organlari va tashkilotlarining ayrim yordamchi funksiyalarini tashqi, ixtisoslashgan subyektlar orqali amalga oshirish amaliyoti – boshqaruvni optimallashtirish, budjet xarajatlarini kamaytirish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy mexanizm sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Autsorsingning mohiyati shundaki, u davlatning konstitutsiyaviy vakolatlariga ta’sir etmagan holda, ma’muriy, texnik va servis yo‘nalishdagi ishlarni bozor mexanizmlari orqali tashkil etish imkonini beradi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, autsorsing tizimi faqat iqtisodiy vosita emas — balki, davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimining konstitutsiyaviy tuzilmasi bilan uzviy bog‘langan huquqiy-institutsional jarayondir. Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun tashqi resurslardan foydalanish jarayoni, aslida, Konstitutsiyada belgilangan asosiy tamoyillar – xalq manfaatlariga xizmat qilish, javobgarlik, qonuniylik va oshkoralik prinsiplari asosida shakllanishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasida “xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai” ekanligi belgilangan bo‘lib, bu norma davlat hokimiyati va iqtisodiy boshqaruv tizimining **legitimlik** manbaini aniq ko‘rsatadi. Demak, autsorsing orqali davlat xizmatlarining ayrim turlari xususiy subyektlarga topshirilsa ham, ularning yakuniy javobgarligi va natijasi baribir xalq manfaatlariga xizmat qilishi lozim. 10-moddada esa davlat organlari “xalq manfaatlariga xizmat qilish” majburiyatiga ega ekani ta’kidlangan[1]. Bu prinsip autsorsing amaliyotida asosiy konstitutsiyaviy o‘lchov vazifasini bajaradi: tashqi pudratchi xizmat ko‘rsatadi, ammo natijaning ijtimoiy foydasi va huquqiy javobgarligi davlat zimmasida qoladi.

Mazkur prinsiplar shuni anglatadiki, davlat boshqaruvi tizimi o‘z funksiyalarini tashqi resurslar bilan bajarishda ham davlat suverenitetining mazmunini yo‘qotmasligi, balki uni yanada samarali amalga oshirishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, autsorsing – bu davlat vakolatlarini qisqartirish yoki bozor ixtiyoriga topshirish jarayoni emas, balki Konstitutsiyada mustahkamlangan boshqaruv tamoyillarini iqtisodiy mexanizmlar bilan uyg‘unlashtiruvchi modeldir [2].

Boshqaruv amaliyotida autsorsingning o‘rni shundan iboratki, u davlat funksiyalarini amalga oshirishda **institutsional differensiyasi**ni ta’minlaydi: davlat yadro funksiyalarini o‘zida saqlab qoladi, yordamchi funksiyalarni esa tashqi, malakali subyektlar orqali bajaradi. Bu yondashuv boshqaruv tizimida **javobgarlikni aniq belgilash**,

ISSN 3030-3230

ma’lumotlar shaffofligini ta’minlash va **xizmatlar sifatini oshirish**ga xizmat qiladi.

Natijada, O‘zbekistonning konstitutsiyaviy tuzumi nuqtayi nazaridan autsorsingni huquqiy-institutsional mexanizm sifatida joriy etish — bu davlat boshqaruvi funksiyalarining qayta taqsimlanishi emas, balki **davlatning iqtisodiy javobgarligini samarali amalga oshirish va xalq manfaatlarini ta’minlash uchun tashkiliy innovatsiya**dir. Shunday qilib, autsorsingni konstitutsion nuqtayi nazardan tahlil qilish davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, shaffoflik va hisobdorlik tizimini huquqiy asosda mustahkamlash zaruratini ko‘rsatadi.

Autsorsing atamasi inglizcha “outsourcing” — “tashqi resurslardan foydalanish” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, iqtisodiy mazmuniga ko‘ra tashkilot yoki davlat tomonidan ayrim xizmatlar, jarayonlar yoki yordamchi funksiyalarni tashqi, ixtisoslashgan subyektlarga topshirishni anglatadi. Biroq bu hodisa faqat xo‘jalik amaliyoti emas — u o‘zining institutsional, iqtisodiy va huquqiy mohiyatiga ega ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmdir.

Autsorsingning ilmiy asoslari ilk bor R. Coase tomonidan 1937-yilda yaratilgan “The Nature of the Firm” asarida nazariy shaklga keltirilgan. U tashkilotlar faoliyatida ichki va tashqi tranzaksiya xarajatlari o‘rtasidagi nisbatni tahlil qilib, outsourcing — ya’ni tashqi resurslardan foydalanish — iqtisodiy tejamkorlik va tashkiliy moslashuvchanlikni ta’minlovchi mexanizm ekanini isbotladi. Keyinchalik O. Williamson bu g‘oyani rivojlantirib, tranzaksion xarajatlar nazariyasini institutsional iqtisodiyotning markaziga olib chiqdi. Uning fikricha, autsorsingning mohiyati shundaki, tashkilot o‘z ichki tuzilmasida mavjud byurokratik xarajatlarni kamaytiradi va bozor mexanizmlarining samaradorligini o‘z faoliyatiga integratsiya qiladi.

Davlat boshqaruvi nazariyasi nuqtayi nazaridan esa autsorsing transformatsion boshqaruv modelining tarkibiy elementi sifatida shakllanadi. D. Osborne va T. Gaebler o‘zlarining mashhur “Reinventing Government” asarida autsorsingni “boshqaruvchi, emas, yo‘naltiruvchi davlat” konsepsiyasi bilan bog‘lab tahlil qilgan[4]. Ularning fikricha, zamonaviy davlat barcha xizmatlarni mustaqil ravishda amalga oshirishga intilmasligi kerak; aksincha, u strategik yo‘nalishlarni belgilab beradi, ammo operatsion jarayonlarda xususiy sektor, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlaridan foydalanadi. Shu tarzda davlat o‘z konstitutsion funksiyalarini saqlagan holda boshqaruvda ko‘p subyektli ishtirok va institutsional diversifikatsiyani ta’minlaydi.

Autsorsing davlat boshqaruvida konstitutsiyaviy me’yorlar bilan cheklangan shartnomaviy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. U Konstitutsiyaning 10-moddasida ifoda etilgan “xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyilini iqtisodiy vositalar orqali amalga oshirish imkonini beradi. Davlat tomonidan autsorsing munosabatlariga kirishish — bu hokimiyat vakolatlarini bozorga berish emas, balki strategik mas’uliyatni saqlagan holda tashkiliy samaradorlikni oshirish demakdir.

Nazariy jihatdan autsorsingning rivojlanishi uch bosqichni o‘z ichiga oladi:

Iqtisodiy bosqich – xarajatlarni kamaytirish va tashkiliy soddalik asosida qo‘llanilishi.

Boshqaruv bosqichi – tashqi resurslardan foydalanish orqali xizmatlar sifatini yaxshilash.

Huquqiy-institutsional bosqich – autsorsingni konstitutsiyaviy tartibga solish, ya’ni javobgarlik, shaffoflik va davlat manfaatlari himoyasini ta’minlash.

Zamonaviy global amaliyotda autsorsing endi faqat iqtisodiy strategiya emas, balki davlatning boshqaruv madaniyati indikatoriga aylangan. U orqali davlat o‘z faoliyatida tashqi resurslarni jalb etish bilan birga, konstitutsiyaviy nazoratni saqlaydi, raqobatni kuchaytiradi va xizmatlar sifatini oshiradi.

Shunday qilib, autsorsing tushunchasining nazariy-huquqiy mohiyati quyidagicha ifodalanadi: u — iqtisodiy mexanizm shaklidagi konstitutsion boshqaruv vositasi bo‘lib, davlatning funksiyalariga daxl qilmagan holda, yordamchi faoliyatni tashqi resurslar orqali amalga oshirish imkonini beradi.

Autsorsing tizimini davlat boshqaruvi mexanizmlariga integratsiya qilish masalasi, avvalo, konstitutsiyaviy tamoyillarni chuqur anglashni talab etadi. Chunki bu tizimning joriy etilishi — iqtisodiy yoki tashkiliy islohot emas, balki Konstitutsiyada belgilangan davlat faoliyati mezonlariga asoslangan boshqaruv modeli sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi davlat hokimiyatining manbai sifatida xalq irodasini e’tirof etadi va barcha organlarning faoliyati xalq manfaatlariga xizmat qilishi kerakligini belgilaydi. Ushbu norma, autsorsingning mazmunini aniqlovchi eng muhim konstitutsion asos hisoblanadi, chunki u boshqaruvdagi har qanday tashkiliy mexanizm, xoh u davlat ichki resurslariga tayanadi, xoh tashqi subyektlar orqali amalga oshiriladi, baribir xalq manfaatlariga xizmat

qilish majburiyatidan og‘ishmasligi lozimligini bildiradi.

Autsorsingni joriy etishda konstitutsiyaviy tamoyillar — huquqiylik, javobgarlik, oshkoralik va samaradorlik — markaziy o‘rin tutadi. Huquqiylik tamoyili shuni anglatadiki, davlat tomonidan tashqi subyektlarga topshirilayotgan har bir xizmat yoki funksiyaning huquqiy asosi aniq belgilangan bo‘lishi kerak. Har qanday autsorsing shartnomasi qonuniy kuchga ega hujjatga asoslanadi va davlat organlari tomonidan nazorat qilinadi. Bu tamoyil davlat faoliyati ustidan fuqarolik ishonchini ta’minlaydi hamda boshqaruv tizimida beqarorlik yoki korrupsion xavflarni kamaytiradi.

Javobgarlik tamoyili esa, autsorsing mexanizmining konstitutsion barqarorligini kafolatlaydi. Davlat o‘zining ayrim xizmat turlarini tashqi tashkilotlarga topshirgan taqdirda ham, natijalar uchun siyosiy va huquqiy mas’uliyatni o‘z zimmasida saqlaydi. Bu tamoyil boshqaruv tizimida uzluksizlikni ta’minlaydi, chunki davlat har qanday shartnoma natijasida o‘z fuqarolari oldidagi mas’uliyatini yo‘qotmaydi. Autsorsingda xususiy kompaniya faqat ijrochi rolini bajaradi, biroq xizmat sifati va ijtimoiy natija uchun yakuniy javobgar — davlat organining o‘zidir.

Autsorsing tizimi, shuningdek, Konstitutsiyaning 53-moddasida belgilangan mulk shakllarining teng huquqliligi prinsipiga ham asoslanadi[1]. Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik aynan shu konstitutsion asosga tayanadi. Bunda davlat o‘z funksiyalarini xususiy subyektlar orqali bajarishga yo‘l qo‘yadi, lekin bu jarayonda har ikki tomon uchun teng huquqiy mas’uliyat, shartnoma majburiyatlari va nazorat mezonlari amal qiladi. Shunday mexanizm ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi, xizmatlar sifatini oshiradi va raqobat muhitini rivojlantiradi.

Konstitutsiyaning 15-moddasida “davlat organlari va mansabdor shaxslar Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar” degan qoida mustahkamlangan. Bu norma autsorsing tizimining huquqiy poydevoridir. Ya’ni, davlatning tashqi resurslardan foydalanish faoliyati hech qachon normativ-huquqiy asosdan chetga chiqmasligi kerak. Autsorsing mexanizmini qo‘llashda qonuniylik, hisobdorlik va tashkiliy aniqlikning mavjudligi – Konstitutsiyada ko‘rsatilgan qonun ustuvorligi tamoyilining bevosita ifodasidir.

Bundan tashqari, autsorsing amaliyoti davlatning xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni tezroq qondirish va boshqaruvda moslashuvchanlikni ta’minlashga yordam beradi. Bu jihatdan u Konstitutsiyaning ijtimoiy davlat konsepsiyasi bilan uyg‘unlashadi. Iqtisodiyotni liberallashtirish va davlat ishtirokini maqbullashtirish yo‘nalishidagi islohotlar aynan autsorsing kabi mexanizmlar orqali o‘z amaliy ifodasini topadi. Davlat bu yo‘lda o‘zining boshqaruv vazifalarini emas, balki ularni samarali amalga oshirish shakllarini takomillashtiradi.

Umuman olganda, autsorsing tizimi Konstitutsiyada belgilangan boshqaruv tamoyillarini amalda mustahkamlovchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. U davlat xizmatlarining sifatini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va boshqaruv jarayonida fuqarolik ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, autsorsingni joriy etish masalasi nafaqat iqtisodiy ehtiyoj, balki konstitutsion boshqaruv madaniyatining yangi bosqichi sifatida qaralishi lozim.

Autsorsing tizimini davlat boshqaruvi amaliyotiga joriy etish masalasi, avvalo, Konstitutsiyada belgilangan boshqaruv tamoyillarini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Chunki autsorsingning mohiyati iqtisodiy foyda bilan cheklanmay, u davlat faoliyatining konstitutsion asoslari bilan uzviy bog‘liqdir. Davlat boshqaruvi tizimida tashqi resurslardan foydalanish faqat qonuniylik, javobgarlik, oshkoralik va samaradorlik tamoyillari asosida tashkil etilgandagina ijobiy natija beradi.

Autsorsing tizimida eng muhim konstitutsion tamoyil — huquqiylik hisoblanadi. Har qanday tashkiliy yoki iqtisodiy qaror, shu jumladan autsorsingga oid shartnomalar, tanlov va tender jarayonlari, moliyaviy nazorat mexanizmlari amaldagi qonunlarga asoslanmog‘i lozim. Bu holat Konstitutsiyaning 15-moddasida ifodalangan “davlat organlari Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar” degan normaning amaliy ifodasidir. Huquqiylik tamoyilining qat’iy ta’minlanishi boshqaruv tizimida qonun ustuvorligi, byudjet intizomi va jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi.

Keyingi tamoyil — javobgarlik. Autsorsing mexanizmi davlat organlarining ayrim xizmat yoki texnik funksiyalarini tashqi tashkilotlar orqali amalga oshirish imkonini beradi, biroq bu holat javobgarlikni topshirish degani emas. Aksincha, davlat xizmatning yakuniy sifati, samarasi va natijasi uchun mas’ul bo‘lib qoladi. Shartnomaviy ijrochi xususiy subyekt faqat ijro funksiyasini bajaradi, lekin natijaviy javobgarlik davlat zimmasida saqlanadi. Shu tarzda autsorsing jarayonida siyosiy, ma’muriy va huquqiy javobgarlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik saqlanadi.

ISSN 3030-3230

Konstitutsiyaning 53-moddasida mulk shakllarining teng huquqliligi mustahkamlangan bo‘lib, bu tamoyil autsorsing tizimining iqtisodiy poydevorini tashkil etadi. Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik aynan shu konstitutsion tenglik asosida yo‘lga qo‘yiladi. Bunda xususiy subyektlar davlat topshiriqlarini bajarishda qonuniy teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi, lekin imtiyozlarga ega bo‘lmasligi kerak. Shu orqali raqobat muhitini mustahkamlash, xizmat sifati va samaradorligini oshirish mumkin bo‘ladi.

Autsorsing tizimi, shu bilan birga, Konstitutsiyaning ijtimoiy davlat tamoyili bilan ham uzviy bog‘liqdir. Chunki uning asosiy maqsadi — davlat xizmatlarini aholiga tez, sifatli va iqtisodiy jihatdan maqbul shaklda ko‘rsatishdir. Davlat boshqaruvi tizimida bunday yondashuv nafaqat resurslardan oqilona foydalanishni, balki ijtimoiy adolat, fuqarolarning davlat xizmatlariga teng kirish imkoniyatini ta’minlashni ham ko‘zda tutadi. Bu esa Konstitutsiyada belgilangan insonparvarlik va xalq manfaatlariga xizmat qilish tamoyillarining amaliy ifodasidir.

Autsorsing tizimi bugungi kunda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashning eng muhim mexanizmlaridan biri sifatida xalqaro miqyosda keng qo‘llanilmoqda. Har bir mamlakatda bu tizim o‘zining konstitutsiyaviy, iqtisodiy va institutsional sharoitiga mos shaklda rivojlangan. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, autsorsingning muvaffaqiyati, avvalo, davlat hokimiyati vakolatlarini saqlagan holda, ularning bajarilish shaklini liberallashtirish va hisobdorlikni kuchaytirish bilan bog‘liqdir.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida autsorsing modeli davlat boshqaruvida huquqiylik, hisobdorlik va shaffoflik tamoyillariga qat’iy tayanadi. AQSh Mudofaa vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan LOGCAP (Logistics Civil Augmentation Program) dasturi orqali logistika, ta’minot, infratuzilma va texnik xizmat ko‘rsatish kabi yo‘nalishlar xususiy sektor orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon Konstitutsiyaning “Checks and Balances” (vakolatlar muvozanati) prinsipiga muvofiq ravishda qat’iy nazorat ostida olib boriladi[5]. Har bir shartnoma Kongress, Federal audit idorasi hamda mustaqil fuqarolik nazorat organlari tomonidan baholanadi. Natijada, autsorsing tizimi davlat xizmatlarining sifatini oshirish bilan birga, javobgarlik va qonuniylikni ta’minlovchi boshqaruv modeli sifatida shakllangan.

Buyuk Britaniya tajribasi esa autsorsingni konstitutsiyaviy boshqaruv tizimiga eng chuqur integratsiyalagan modellaridan biridir. 1990-yillarda joriy etilgan Public Private Partnership (PPP) tizimi orqali davlat va xususiy sektor o‘rtasida uzoq muddatli hamkorlik mexanizmlari ishlab chiqilgan. Bu tizim “public accountability” – ya’ni jamoatchilik oldidagi hisobdorlik tamoyilining amaliy ifodasidir. Har bir shartnoma National Audit Office tomonidan baholanadi, jarayonlar esa parlament nazorati ostida yuritiladi. Natijada, davlat xizmatlarini xususiy sektor orqali bajarish jarayonida oshkoralik, raqobat va fuqarolik nazorati tizimi shakllangan[6].

Germaniya tajribasida autsorsing tizimi “Verwaltungsmodernisierungsgesetz” (Davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish to‘g‘risidagi qonun) bilan huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Bu modelning konstitutsion asosi – Grundgesetz (Asosiy qonun)ning 20-moddasida belgilangan huquqiy davlat va ijtimoiy adolat tamoyillaridir. Germaniyada autsorsing davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish vositasi sifatida qo‘llaniladi, biroq uning doirasi qat’iy belgilanadi: davlatning yadro funksiyalari (qonun chiqarish, adliya, xavfsizlik) xususiy sektorga topshirilmaydi, ammo yordamchi, texnik va ijtimoiy xizmatlar sohasida autsorsing keng joriy etilgan[7]. Bu yondashuv subsidiarlik tamoyiliga asoslanadi, ya’ni davlat faqat o‘zi bajara olmaydigan yoki iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lgan funksiyalarni autsorsing asosida amalga oshiradi.

Janubiy Koreya tajribasida autsorsing iqtisodiy islohotlarning tarkibiy qismi sifatida shakllangan. Mamlakat Konstitutsiyasi davlat faoliyatining oshkoraligi va fuqarolarning ma’lumot olish huquqini kafolatlaydi, shuning uchun autsorsing jarayonlari raqamli boshqaruv tizimlari bilan chambarchas bog‘langan. Har bir davlat xizmati uchun elektron platformalar yaratilgan bo‘lib, unda tenderlar, shartnomalar va hisobotlar real vaqt rejimida e’lon qilinadi. Natijada, boshqaruvda oshkoralik va raqobat muhitini mustahkamlovchi “e-Government outsourcing” modeli shakllangan. Bu tizim davlat xizmatlarini tez, sifatli va iqtisodiy jihatdan maqbul shaklda aholiga yetkazish imkonini yaratgan.

Rossiya Federatsiyasida esa autsorsing amaliyoti 2008-yildan boshlab joriy etilib, dastlab infratuzilma, transport va kommunal xizmatlar sohalarini qamrab olgan. Keyinchalik bu model markazlashgan boshqaruv nazorati ostida iqtisodiy samaradorlikni oshirish vositasiga aylangan. Rossiya modelining xususiyati shundaki, u davlat tomonidan qat’iy nazorat qilinadigan, ammo xususiy sektorning texnik va tashkiliy salohiyat-

idan foydalanishga yo‘naltirilgan tizimdir. Barcha shartnomalar Federal kontrakt tizimi to‘g‘risidagi qonun asosida tuziladi va xavfsizlik, hisobdorlik hamda moliyaviy shaffoflik talablari qat’iy nazorat qilinadi[8].

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, autsorsing tizimi samarali ishlashi uchun uchta konstitutsion omil muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, davlatning yadro funksiyalari doirasi aniq belgilanib, ular xususiy sektorga topshirilmasligi lozim; ikkinchidan, oshkoralik va hisobdorlik mexanizmlarini huquqiy jihatdan kafolatlaydigan qonuniy tizim mavjud bo‘lishi zarur; uchinchidan, autsorsing jarayonida ishtirok etuvchi xususiy subyektlarning javobgarligini belgilovchi aniq normalar ishlab chiqilishi kerak.

Shunday qilib, xalqaro amaliyot autsorsingni nafaqat iqtisodiy tejamkorlik, balki konstitutsion boshqaruvning yangi shakli sifatida namoyon etmoqda. U davlat xizmatlarini inson manfaatlariga yaqinlashtirish, boshqaruvda shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash, hamda raqobat muhitini rivojlantirish orqali demokratik boshqaruvning amaliy ifodasiga aylanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, autsorsing tizimi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashning muhim mexanizmlaridan biri bo‘lib, u faqat iqtisodiy kategoriya emas, balki konstitutsion-huquqiy institut sifatida qaralishi lozim. Chunki u davlat faoliyatining asosiy tamoyillari — qonuniylik, javobgarlik, oshkoralik va ijtimoiy adolat bilan uzviy bog‘liqdir.

Autsorsingning konstitutsiyaviy tabiati shundan iboratki, u davlatning vakolatlarini emas, balki bajarish shaklini o‘zgartiradi. Davlat o‘zining yadro funksiyalarini saqlab qolgan holda, yordamchi va texnik xizmatlarni xususiy sektor orqali amalga oshiradi. Bunda asosiy maqsad — davlat xizmatlarini tez, sifatli va shaffof shaklda aholiga yetkazish, byudjet xarajatlarini maqbullashtirish hamda boshqaruvda javobgarlikni oshirishdan iboratdir.

Ilmiy-nazariy tahlil natijasida aniqlanishicha, autsorsingni muvaffaqiyatli joriy etish uchun konstitutsion tamoyillarni amaliy mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirish zarur. Buning uchun esa avvalo huquqiy asosni mustahkamlash talab etiladi. Autsorsing faoliyatini tartibga soluvchi yagona normativ-huquqiy hujjat – masalan, “Autsorsing to‘g‘risida” maxsus qonun – ishlab chiqilishi lozim. Unda autsorsing turlari, davlat va xususiy subyektlarning huquq hamda majburiyatlari, nazorat tartibi va javobgarlik mezonlari aniq belgilanishi kerak.Shu bilan birgalikda oshkoralik va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Buning uchun autsorsing shartnomalari, tender natijalari va moliyaviy hisobotlar bo‘yicha ochiq ma’lumotlar bazasi yaratilishi lozim. Bu jamoatchilik nazorati va korrupsiyaga qarshi profilaktikani kuchaytiradi.

Autsorsing faoliyatida konstitutsion tamoyillarni amaliy mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirish uchun davlat-xususiy sheriklik modelini optimallashtirish muhimdir. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yildagi “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida” Qonuni amaliy asos bo‘lib xizmat qilsa-da, unda autsorsingni mustaqil boshqaruv modeli sifatida rivojlantirish uchun huquqiy takomillashtirish zarur. Bu model orqali ijtimoiy xizmatlar, raqamli boshqaruv, transport, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarida xususiy sektor salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birgalikda kadrlar salohiyatini rivojlantirish ham zarur. Autsorsing tizimini samarali boshqarish uchun davlat xizmatchilari, moliyaviy nazorat organlari va xususiy kompaniyalar vakillari o‘rtasida kasbiy malaka, shaffof boshqaruv ko‘nikmalari va xalqaro standartlar bo‘yicha doimiy o‘quv dasturlari joriy etilishi lozim.

Autsorsing faoliyatini nazorat qilish uchun milliy monitoring va audit tizimini takomillashtirish muhimdir. Har bir autsorsing shartnomasining ijrosi, sifat ko‘rsatkichlari, byudjet tejamkorligi va fuqarolik manfaatlariga ta’siri bo‘yicha mustaqil baholash tizimi ishlab chiqilishi zarur. Bu Konstitutsiyada belgilangan qonuniylik va hisobdorlik tamoyillarining amaliy kafolati bo‘ladi.

Shuningdek, xalqaro tajriba ko‘rsatadiki, autsorsingni joriy etishning muvaffaqiyati huquqiy aniq chegaralar, raqobatbardosh muhit, va fuqarolik ishonchini ta’minlovchi mexanizmlarga tayanadi. O‘zbekiston sharoitida bu jarayon davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishning ajralmas qismi sifatida qaralib, “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan maqsadlar – ochiq, samarali va mas’ul boshqaruv tizimi – bilan uyg‘unlashadi.

Natijada, autsorsing tizimini konstitutsiyaviy asoslarda rivojlantirish davlat boshqaruvining yangi bosqichiga o‘tishni anglatadi. Bu jarayon davlatning vakolatini emas, balki boshqaruv madaniyatini modernizatsiya qiladi; ijtimoiy adolatni, shaffoflikni va fuqarolik ishonchini mustahkamlaydi. Shu bois, autsorsing tizimini huquqiy-institutsional asosda rivojlantirish – nafaqat iqtisodiy zarurat, balki konstitutsiyaviy islohotlarning uzviy tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

ISSN 3030-3230

Аннотация. В статье анализируется роль системы аутсорсинга в практике государственного управления с конституционно-правовой точки зрения. В условиях рыночной экономики усиливающиеся требования к эффективности управления, ответственности и открытости превращают аутсорсинг в важный механизм оптимизации государственных услуг. Автор обосновывает, что аутсорсинг не затрагивает ядровые полномочия государства, а, напротив, обеспечивает реализацию вспомогательных функций через внешних специализированных субъектов, способствуя воплощению в новых организационных формах конституционных принципов служения интересам народа, законности, ответственности и транспарентности.

Ключевые слова: Аутсорсинг, конституционные принципы, государственное управление, законность, ответственность, открытость, теория транзакционных издержек, государственно-частное партнёрство, эффективность управления, Конституция, ядровые функции, институциональные механизмы, международный опыт, LOGCAP, PPP, модернизация управления.

Abstract. The article examines the role of outsourcing in public administration from a constitutional-legal perspective. In a market economy, increasing demands for managerial efficiency, accountability, and transparency have transformed outsourcing into an important mechanism for optimizing public services. The author argues that outsourcing does not affect the core state powers; instead, it enables the performance of auxiliary functions through external specialized entities, thereby implementing the constitutional principles of serving the public interest, legality, accountability, and transparency in new organizational forms.

Key words: Outsourcing, constitutional principles, public administration, legality, accountability, transparency, transaction cost theory, public-private partnership, administrative efficiency, Constitution, core functions, institutional mechanisms, international experience, LOGCAP, PPP, governance modernization.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.
2. Gaziyev, Sh. M. Davlat va huquq nazariyasi: konstitutsiyaviy tamoyillar tahlili. – Toshkent: TDYU, 2022.
3. Karimov, I. A. Huquqiy davlat – taraqqiyot asosi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 125 b.
4. Osborne, D., & Gaebler, T. (1992). Reinventing Government: How the Entrepreneurial Spirit is Transforming the Public Sector. Reading, MA: Addison-Wesley.
5. United States Department of the Army. (2014). Army Logistics Civil Augmentation Program (LOGCAP): Army Regulation 700-137. Washington, D.C.: Department of the Army.
6. HM Treasury. (2012). A new approach to Public Private Partnerships. London: HM Treasury.
7. Bundesministerium des Innern (BMI). (2006). Gesetz zur Modernisierung der Verwaltung (V erwaltungsmodernisierungsgesetz). Berlin: Bundesministerium des Innern.
8. Федеральный закон Российской Федерации от 05 апреля 2013 г. № 44-ФЗ “О контрактной системе в сфере закупок товаров, работ, услуг для обеспечения государственных и муниципальных нужд”

XALQARO TURIZM SOHASIGA OID XALQARO HUQUQIY HUJJATLARNING AHAMIYATI, TASHKILIY VA NORMATIV XUSUSIYATLARI

Usmonova Nigora Aktam qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada xalqaro turizm sohasiga tegishli xalqaro huquqdagi normalar, xalqaro qonunchilikda mavjud normativ-me’yoriy hujjatlar tizimlashtirish orqali tahlil etilgan. Mamlakatimizda turizm sohasining rivojlantirilishi bilan ushbu sohada xalqaro darajada hamkorlik qilish, sohaga oid xalqaro qonunchilikni o‘rganish, bu boradagi xorij tajribasini o‘rganish, xalqaro huquqdagi mavjud normalarni implementatsiya qilish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro huquq subyekti, xalqaro turizm, xalqaro huquqiy hujjat, universal xalqaro-huquqiy hujjatlar, mintaqaviy xalqaro huquqiy hujjatlar, davlatlararo ikki tomonlama shartnomalar.

So‘nggi yillarda butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekiston Respublikasida ham turizm sohasiga alohida e’tibor qaratilayotgani turizmni tamomila rivojlantirish talabini yuzaga chiqarmoqda. Ana shu jarayonda sohaning iqtisodiy, moddiy-texnik, ijtimoiy, kadrlarga oid asoslarini takomillashtirish bilan bir qatorda, ta’bir joiz bo‘lsa eng avvalo, huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish zarurdir va bu borada xalqaro huquqdagi mavjud normalar, bu boradagi yetakchi xorij tajribasini o‘rganish va ularning mamlakatimiz qonunchiligiga implementatsiya qilish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari (xususan, davlatlar va xalqaro tashkilotlar darajasida) o‘rtasida rivojlanadigan universal, mintaqaviy va mahalliy xarakterdagi munosabatlar – davlatlararo munosabatlar deb ataladi.

Turizm sohasidagi davlatlararo munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- birinchidan, ular hukumatlararo jamoat xarakteriga ega;
- ikkinchidan, ular xalqaro huquqning aniq subyektlari: ikki va undan ko‘p davlatlar ishtirokida, shuningdek davlatlar hamda xalqaro hukumatlararo tashkilotlar o‘rtasida shakllanadi;
- uchinchidan, ular xalqaro turistik almashinuvni bevosita amalga oshirish uchun yagona shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Xalqaro turizmni uyg‘un rivojlantirish masalasida asosiy rolni aynan davlatlar o‘ynaydi. Bu borada 1989 yilda qabul qilingan Turizm bo‘yicha Gaaga deklaratsiyasida “turizmning xalqaro jihatlarini hisobga olgan holda uning uyg‘un rivojlanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlatlararo hamkorlik orqali ham global, ham mintaqaviy asosda xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va olib borishni talab qiladi”, deb ta’kidlab o‘tilgan [1] (10-tamoyil, 4-band).

Xalqaro huquqda turizm va xalqaro sayohatga oid xalqaro huquqiy hujjatlarning tashkiliy va normativ ahamiyati katta bo‘lib, bu boradagi barcha xalqaro huquqiy hujjatlarni shartli ravishda to‘rt guruhga bo‘lish mumkin:

I. Umumjahon miqyosidagi ko‘p tomonlama universal xalqaro-huquqiy hujjatlar.

II. Mintaqaviy xalqaro huquqiy hujjatlar.

III. Davlatlar o‘rtasida turizm va xalqaro sayohatlar sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi ikki tomonlama shartnomalar.

IV. Turizm sohasiga taalluqli xalqaro huquqiy hujjatlar.

Umumjahon miqyosidagi ko‘p tomonlama universal xalqaro-huquqiy hujjatlar xalqaro turizm sohasini huquqiy jihatdan tartibga solishda fundamental ahamiyat kasb etuvchi normativ-me’yoriy hujjatlar sanaladi. Ta’kidlash joizki, turizm sohasida xalqaro huquq ijodkorligi jarayoni 1975 yilda Jahon turizm tashkiloti tashkil etilgandan so‘ng faol rivojlana boshladi. Uning tashabbusi va homiyligida bir qator muhim xalqaro huquqiy hujjatlar: deklaratsiyalar va kasbiy kodekslar qabul qilindi. Ularning ba’zilariga kengroq to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

1. 1980 yilda qabul qilingan Jahon turizmi bo‘yicha Manila deklaratsiyasi. 1980 yilda Manila shahrida Butunjahon sayyohlik konferensiyasini chaqirishdan asosiy maqsad turizmning asl mohiyatini, har tomonlama, dinamik va o‘zgaruvchan dunyoda sezilarli ta’sir ko‘rsata oladigan va uning oshib borayotgan rolini oydinlashtirishdan iborat edi. Shuningdek, ushbu

xalqaro anjuman doirasida zamonaviy jamiyatlarda turizmni rivojlantirish uchun davlat mas’uliyati masalasi ham atroflicha muhokama etildi. Konferensiya davomida turizmni rivojlantirish bo‘yicha yo‘nalishlar, fikr-mulohazalar va tavsiyalar belgilab olindi, ularni davlatlar va konferensiyaning boshqa ishtirokchilari, shuningdek, Jahon sayyohlik tashkilotiga e’tiborga olish qat’iy tavsiya etilgan edi [2].

2. Turizm Xartiyasi va Turistik Kodeks. 1985 yilda Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining Bolgariya poytaxti Sofiyada bo‘lib o‘tgan VI sessiyasida tasdiqlangan. Turizm Xartiyasida har bir insonning dam olish va hordiq chiqarish huquqi mustahkamlangan bo‘lib, ushbu huquq natijasida davlatlardan “ichki va xalqaro turizmning uyg‘un rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, undan foydalanuvchilarning barchasi manfaati uchun dam olishni tashkil etish” belgilab qo‘yilgan [3]. Yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish belgilab olingan edi:

a) ichki va xalqaro turizmning tartibli va uyg‘un rivojlanishiga ko‘maklashish;

b) turizm siyosatini turli darajalarda – mahalliy, mintaqaviy, milliy va xalqaro darajada – amalga oshirilayotgan umumiy rivojlanish siyosatiga muvofiqlashtirish va turizm sohasidagi hamkorlikni ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama asosda kengaytirish, shu jumladan, shu maqsadda Jahon sayyohlik tashkilotining imkoniyatlaridan foydalanish;

c) Jahon turizmi bo‘yicha Manila deklaratsiyasi va Akapulko hujjati tamoyillarini “o‘z milliy ustuvorliklariga muvofiq va Jahon sayyohlik tashkilotining ish dasturi doirasida, zarur hollarda, turizm siyosati, rejalari va dasturlarini shakllantirish va amalga oshirishda” tegishli tartibda e’tiborga olish;

d) har bir insonning ichki va xalqaro turizmda ishtirok etishini ta’minlaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishga ko‘maklashish, xususan, ish vaqti va bo‘sh vaqtini tartibga solish, yillik haq to‘lanadigan ta’tillar tizimini yaratish yoki takomillashtirish hamda bunday bayramlar kunlarini yil davomida teng taqsimlash, yoshlar, keksalar va jismoniy nogironlar turizmiga alohida e’tibor berish;

e) inson, tabiat, ijtimoiy munosabatlar va madaniyatni o‘z ichiga olgan butun insoniyat mulki bo‘lgan turistik muhitni hozirgi va kelajak avlodlar manfaatlarini ko‘zlab himoya qilish va boshqa vazifalarning bajarilishini ta’minlash [4].

Turistik Kodeksda turistlarning ayrim huquq va majburiyatlari mustahkamlangan bo‘lib, ularga rioya qilish xalqlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni rivojlantirishga qaratilgan edi.

3. Turizm bo‘yicha Gaaga deklaratsiyasi. Xalqaro turizm bo‘yicha yana bir muhim hujjat Gaaga shahrida 1989 yilda bo‘lib o‘tgan parlamentlararo konferensiya jarayonida qabul qilingan deklaratsiya bo‘lib, u turizm jarayonining barcha ishtirokchilari – parlamentlar, hukumatlar, davlat va xususiy tashkilotlar, turizm faoliyati uchun mas’ul bo‘lgan assotsiatsiyalar va muassasalar, turizm mutaxassislari va turistlarning o‘zlari e’tiborga olishga chaqirgan tamoyillarni mustahkamladi. Bu tamoyillarga quyidagilar kiradi:

- ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishning eng muhim sharti sifatida milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash;
- atrof-muhitni va madaniy merosni muhofaza qilish;
- har bir insonning dam olish va bo‘sh vaqt huquqini umume’tirof etish;
- turistik sayohatlar, turlar, ekskursiyalarni soddalashtirish;
- turistlarning xavfsizligi va daxlsizligi hamda ularning qadr-qimmatini hurmat qilish;
- turizm sohasida kasbiy mahoratni oshirish va kadrlarni tayyorlash tamoyili;
- turizmni rejalashtirish tamoyili va boshqalar [5].

4. Turizm uchun global axloq kodeksi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Butunjahon turizm tashkiloti tomonidan 1999 yilda qabul qilingan va keyinchalik BMT Bosh Assambleyasining 2001 yildagi 56/212-sonli maxsus rezolutsiyasi [6] bilan tasdiqlangan ushbu kodeks uzoq davom etgan maslahatlashuvlar natijasida ishlab chiqilgan 10 ta moddadan iborat bo‘lib, BMT bosh qarorgohida bo‘lib o‘tgan muhokamalarda qabul qilingan edi.

Global axloq kodeksi global turizmni mas’uliyatli va barqaror rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar to‘plamini belgilaydi. Unda ko‘plab oldingi shunga o‘xshash deklaratsiyalar va amaldagi professional kodlarning g‘oyalari mavjud [7].

Global axloq kodeksida Jahon sayyohlik tashkiloti a’zolari turizm huquqi va sayohat qilish erkinligini tasdiqladilar hamda ochiq va liberallashgan jahon bozori iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning barcha tarmoqlariga foyda keltiradigan adolatli, mas’uliyatli va barqaror jahon turizm tartibini targ‘ib qilish istagini bildirdilar.

Global axloq kodeksining oldingi

deklaratsiyalar va kodekslardan o‘ziga xos xususiyati shundaki, u mustahkamlangan tamoyillarni amalga oshirish mexanizmini taqdim etadi. Ushbu mexanizm quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) turizm jarayonining davlat va xususiy ishtirokchilari o‘rtasida belgilangan tamoyillarni amalga oshirishda hamkorlik qilish va turizm jarayonining ko‘rsatilgan ishtirokchilari tomonidan ularning samarali qo‘llanilishini nazorat qilish;

b) Jahon turizm etikasi qo‘mitasi tomonidan turizmning global axloq kodeksini qo‘llash yoki talqin qilish bilan bog‘liq nizolarni kelishuv organi tomonidan ko‘rib chiqish [8].

Yuqorida keltirilgan xalqaro-huquqiy hujjatlar yuridik nuqtai nazardan tavsiya xarakteriga ega, lekin ma’lum sharoitlarda “consensus facit jus” – rozilik qonunini vujudga keltiradi, ular normativ ahamiyatga ham ega bo‘lishi mumkinligini e’tiborga olish va ushbu holatlar kelgusida muayyan bir huquqiy norma ko‘rinishini olib, alohida bir me’yoriy hujjat sifatida qabul qilinishi mumkinligini ham ta’kidlab o‘tmoqchimiz.

5. 1954 yilda qabul qilingan Turistlar uchun bojxona obyektlari to‘g‘risidagi konvensiya davlatlar tomonidan “xalqaro turizmni rivojlantirishga ko‘maklashish” maqsadida tuzilgan va quyidagi bir qator imtiyozlar berishni nazarda tutgan yuridik hujjat hisoblanadi:

– shaxsiy foydalanish uchun tovarlarni import bojlari va soliqlarsiz vaqtincha olib kirish;

– turist tomonidan shaxsiy foydalanish uchun olib kiriladigan narsalarni import bojlari va soliqlarsiz olib kirish;

– qiymati 50 AQSH dollaridan oshmaydigan sayohat esdalik buyumlarini olib kirish;

– turist tomonidan ma’lum bir davlatda sotib olingan umumiy summasi 100 AQSH dollaridan ortiq bo‘lmagan sayohat esdalik buyumlarini eksport bojlari undirmagan holda eksport qilish [8].

Xalqaro turizmni huquqiy tartibga solishda tegishli geografik mintaqa davlatlarining o‘ziga xos manfaatlarini hisobga oladigan **mintaqaviy xalqaro huquqiy hujjatlar** ham muhim o‘rin tutadi. Ana shunday hujjatlar sirasiga Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) doirasida qabul qilingan va amalda bo‘lib kelayotgan bir qator xalqaro huquqiy hujjatlarni kiritish mumkin.

MDH doirasida 1993 yil 23 dekabrda qabul qilingan “Turizm sohasida hamkorlik to‘g‘risida Bitim” doirasida barcha ishtirokchi tomonlar “turizm bo‘yicha me’yoriy hujjatlarning bir xillashtirish” to‘g‘risida kelishib olgan edilar. MDHga a’zo davlatlarning turizm sohasidagi milliy qonunchiligini uyg‘unlashtirish (unifikatsiya qilish) bo‘yicha faoliyatida MDHga a’zo davlatlar Parlamentlararo Assambleyasining (keyingi o‘rinlarda MDH PA deb yuritiladi) o‘rni va ishtiroki katta bo‘lib, mazkur xalqaro tuzilma turizm sohasida MDHga a’zo davlatlarning namunaviy qonun hujjatlarini ishlab chiqish, qabul qilish va nashr etish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirib kelmoqda.

MDH PA tomonidan qabul qilingan turizm sohasidagi namunaviy qonun hujjatlariga quyidagilar kiradi:

– “Bolalar va o‘smirlar turizmi to‘g‘risida”;

– “Klubdagi dam olish to‘g‘risida”;

– “Turizm faoliyati to‘g‘risida”gi namunaviy qonunlar;

– “MDHga a’zo davlatlarning turizm sohasidagi hamkorligining asosiy tamoyillari to‘g‘risida”;

– “Parlamentlararo assambleyaga a’zo davlatlarda iste’molchilar huquqlarini himoya qilishni tartibga solishning umumiy tamoyillari to‘g‘risida”gi tavsiyaviy qonun hujjatlari va sh.k.

Davlatlar o‘rtasida turizm va xalqaro sayohatlar sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi **ikki tomonlama shartnomalar** ham xalqaro huquqda turizm sohasini huquqiy tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etuvchi xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlar sirasiga kiradi. Davlatlarning turizm sohasidagi hamkorligi masalalarini tartibga soluvchi ikki tomonlama shartnomalarga turizm sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va faollashtirishga bevosita daxldor bo‘lgan maxsus shartnomalar kiradi.

Bunday bitimlar (turizm sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida) shartnoma tuzuvchi tomonlar o‘rtasida turizm almashinuvini yaxshilash uchun huquqiy va me’yoriy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday bitimlar taraflari quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmalariga oladilar:

- ahdlashuvchi tomonlar xalqlarining hayoti, tarixi va madaniyati bilan tanishish maqsadida turistik almashinuvni kengaytirishga ko‘maklashish;

- turizm sohasidagi davlat organlari va turizm tashkilotlari, shuningdek, xalqaro va ichki turizmni rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi boshqa tashkilotlar o‘rtasidagi yaqin hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash;

- turistik ma’lumotlar, bosma mahsulotlar, filmlar almashinuviga ko‘maklashish, reklama kampaniyalari, konferensiyalar va seminarlar o‘tkazish, ko‘rgazma va yarmarkalar tashkil etish;

- ahdlashuvchi tomonlarning fuqarolari va chet el fuqarolari uchun an’anaviy va yangi turistik

yo‘nalishlarni ochish bo‘yicha kelishilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- ta’lim va turizm sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarni tayyorlash sohasida hamkorlikni rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro turizm sohasidagi huquqiy munosabatlar bugungi kunda xalqaro huquqning muhim bir yo‘nalishiga aylangan va mazkur sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi mavjud normativ-me’yoriy hujjatlar umumjahon, mintaqalararo, davlatlararo va soha ichidagi xalqaro ahamiyat kasb etuvchi hujjatlarga bo‘linadi.

Ushbu sohada xalqaro huquqiy hujjatlarni yaratish, amaliyotga tatbiq etish va takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Kelgusida xalqaro turizm sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlarni chuqur o‘rganish, shu jumladan, ushbu sohadagi yetakchi xorijiy tajribani tadqiq etish va xalqaro huquqning turizm sohasidagi mavjud normalarini mamlakatimiz qonunchiligiga implementatsiya qilish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Аннотация. В статье анализируются нормы международного права, касающиеся сферы международного туризма, а также нормативные документы, существующие в международном законодательстве, путем их систематизации. Подчеркивается, что с развитием сферы туризма в нашей стране все большую актуальность приобретают такие вопросы, как международное сотрудничество в этой сфере, изучение международного законодательства в данной сфере, изучение зарубежного опыта в этом направлении, а также имплементация действующих норм международного права.

Ключевые слова: субъект международного права, международный туризм, международно-правовой акт, универсальные международно-правовые акты, региональные международно-правовые акты, межгосударственные двусторонние договоры.

Annotation. The article analyzes the norms of international law concerning the sphere of international tourism, as well as the normative documents existing in international legislation, by systematizing them. It is emphasized that with the development of the tourism sector in our country, such issues as international cooperation in this area, the study of international legislation in this area, the study of foreign experience, as well as the implementation of current norms of international law are becoming increasingly relevant.

Key words: subject of international law, international tourism, international legal act, universal international legal acts, regional international legal acts, interstate bilateral treaties.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гаагская декларация по туризму 1989 г. Принята в г. Гааге 10.04.1989 – 14.04.1989. https://docs.cntd.ru/document/901737419
2. Манильская декларация по мировому туризму (1980 г.). https://docs.cntd.ru/document/901813698
3. Хартия туризма. Одобрена резолюцией №1 VI сессии Генеральной ассамблеи Всемирной туристской Организации. 22 сентября 1985 года. https://docs.cntd.ru/document/901756802
4. Хартия туризма. Одобрена резолюцией №1 VI сессии Генеральной ассамблеи Всемирной туристской Организации. 22 сентября 1985 года. https://docs.cntd.ru/document/901756802
5. Гаагская декларация по туризму 1989 г. Принята в г. Гааге 10.04.1989 – 14.04.1989. https://docs.cntd.ru/document/901737419
6. A/RES/56/212 (2001). Resolution adopted by the General Assembly. 56/212. Global Code of Ethics for Tourism. 90th plenary meeting 21 December 2001. https://docs.un.org/en/A/RES/56/212
7. Global Code of Ethics for Tourism (Глобальный этический кодекс туризма). The World Tourism Organization. 1999. https://www.accessibletourism.org/resources/unwto_global_code_of_ethics_en.pdf
8. Конвенция о таможенных льготах для туристов 1954 г. https://docs.cntd.ru/document/1901570

QO‘RIQLANAYOTGAN OBYEKTLARDA INTELLEKTUAL TEXNIK VOSITALAR QO‘LLANISHINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY TALQINI

Kamolov Abdullo Abdurazzokovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. **Mazkur maqolada qo‘riqlanayotgan obyektlar xavfsizligini ta’minlash jarayonida intellektual texnik vositalar, xususan, sensor tizimlar, biometrik monitoring va raqamli kuzatuv texnologiyalarining qo‘llanishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Xavfsizlik va shaxsiy daxlsizlik o‘rtasidagi konstitutsiyaviy muvozanat, texnik vositalardan foydalanishning huquqiy chegaralari, davlatning strategik obyektlarni himoya qilish majburiyatlari hamda zamonaviy texnologiyalarning qo‘riqlash samaradorligini oshirishdagi roli ilmiy asoslarda yoritiladi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston, Yevropa Ittifoqi va MDH mamlakatlari tajribasi solishtirma-huquqiy tahlil qilinadi. Yakunda O‘zbekistonning harbiy va strategik obyektlarida intelektual texnik vositalardan foydalanishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlash bo‘yicha normativ-huquqiy takliflar ishlab chiqiladi.**

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, intellektual texnik vositalar, qo‘riqlash tizimi, davlat xavfsizligi, shaxsiy daxlsizlik, aqlli soat, biometrik monitoring, texnologik suverenitet, huquqiy tartibga solish.

Bugungi raqamli texnologiyalar va suniy intellektga asoslangan qurilmalar jadal rivojlanib borayotgan davrda davlatning qo‘riqlanilayotgan obyektlari xavfsizligini ta’minlash, intellektual texnik vositalardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmadi. Xususan, qo‘riqlash xizmati jarayonida **aqlli qurilmalar**, **GPS-monitoring**, **biometrik datchiklar**, **harakatni aniqlash sensorlari**, **simsiz signal tizimlari** kabi vositalar qo‘riqlash samaradorligini oshirishga xizmat qilmadi.

O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi davlat xavfsizligini mustahkamlash bilan birga shaxs **daxlsizligi**, **shaxsiy ma’lumotlari xavfsizligi hamda obyektlar xavfsizligini ta’minlash** ustuvor vazifalardan biri hisoblaniladi. Shu bois qo‘riqlash tizimida texnik vositalardan foydalanish jarayoni **konstitutsiyaviy me’yorlar doirasida** amalga oshirilishi lozim.

Zamonaviy xavfsizlik tizimlarining murakkablashuvi, strategik va muhim obyektlarda yuzaga kelayotgan yangi turdagi tahdidlar, davlatning jamoat va harbiy xavfsizlik siyosatini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda texnologik yuksalish jarayonlari, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, “Xavfsiz shahar” tashabbuslari, jamoat tartibini ta’minlashning yangi texnik standartlari davlatning xavfsizlik konsepsiyasida intellektual texnik vositalarning o‘rnini sezilarli darajada oshirdi [1].

Qo‘riqlanayotgan obyektlarda intellektual texnik vositalar – sensor tizimlar, videoanalitika, aqlli kiyiladigan qurilmalar (smartwatch), PIDS (Perimeter Intrusion Detection Systems), avtomatlashtirilgan boshqaruv markazlari – harbiy xavfsizlikni mustahkamlashning texnologik poydevoridir. Ammo ushbu tizimlarning qo‘llanilishi nafaqat texnik, balki **konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar doirasida** baholanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasida *“Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi.”* deb qayd etilgan [2]. Shuningdek, 27 va 29-moddalarda shaxsning daxlsizligi, shaxsiy hayotga aralashuvdan himoya va axborot xavfsizligi tamoyillari mustahkamlangan [3].

Shu asosda intellektual texnik vositalar qo‘llanilishi shaxsning huquqlarini cheklashi mumkin bo‘lgan vaziyatda **qonuniylik, zaruriyat va mutanosiblik** tamoyillariga amal qilish masalasini kun tartibiga olib chiqadi.

Tadqiqot konstitutsiyaviy-huquqiy tahlil, taqqoslamali-huquqiy yondashuv va zamonaviy texnik xavfsizlik tizimlarining funksional modellari asosida olib borildi.

Metodologik asos sifatida:

–O‘zbekiston Konstitutsiyasi,

– “Milliy xavfsizlik konsepsiyasi”,

– Prezidentning xavfsizlik va raqamlashtirish bo‘yicha qarorlari (PF–60, PQ–5775, PQ–4699)

ISSN 3030-3230

[4],

– xalqaro standartlar (ISO/IEC 27001, IEC 62676, NATO AEP-55),
– PIDS va IoT xavfsizligi bo‘yicha ilmiy manbalar tahlil qilindi.

O‘zbekiston sharoitida intellektual vositalar qo‘llashning huquqiy modeli ishlab chiqildi:

Model quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Aqlli soat + GPS + signal moduli = xavfning avtomatik aniqlanishi

Sensorlar orqali chegaradan o‘tish holatini aniqlash

Harbiy xizmatchi harakat trayektoriyasini real vaqt nazorati

Xavf signallarini konstitutsiyaviy asosda qayd etish

Shaxsiy ma’lumotlarni faqat xizmat doirasida saqlash

Ushbu model yagona “Harbiy qo‘riqlashning intellektual monitoring tizimi” uchun taklif etiladi.

Mazkur model O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Milliy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonun, “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya va Harbiy-ma’muriy sektorlar reglamentlari talablari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, strategik obyektlarda qo‘riqlash tizimini zamonaviy intellektual texnologiyalar orqali takomillashtirishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida strategik obyektlar xavfsizligini ta’minlash davlatning konstitutsiyaviy ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, zamonaviy sharoitda ushbu vazifani samarali bajarish intellektual texnik vositalarni joriy etishni talab qiladi. Yangi texnologiyalardan foydalanish jarayoni, bir tomondan, xavfsizlikni kuchaytirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, Konstitutsiyada belgilangan shaxsning daxlsizligi va shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish kafolatlari bilan uyg‘un bo‘lishi zarur[5]. Shu bois ishlab chiqilgan huquqiy-texnologik model O‘zbekistonning huquqiy normalari, harbiy reglamentlar va xalqaro xavfsizlik standartlariga asoslangan holda taklif etilmoqda. Modelning markaziy elementini aqlli soat, GPS/GLONASS geolokatsiya moduli, avtomatik signal tizimi, tebranish va harakat sensorlari kabi texnik komponentlar integratsiyasi tashkil qiladi. Aqlli soat orqali real vaqt rejimida qorovul xizmatchisining koordinatalari aniqlanib, harakat trayektoriyasi qayd etiladi va post hududidan cheklangan yo‘nalishlarga chiqish holatlari avtomatik tarzda aniqlanadi. Bu esa obyekt xavfsizligini ta’minlashda qo‘riqlovchining faoliyatini uzluksiz monitoring qilish imkonini yaratadi.

Real vaqt rejimida monitoring serverga shifrlangan aloqa orqali yoki server orqali uzatiladi, bu esa “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun talablari bilan mosdir[6]. Tizimning asosiy vazifasi: qo‘riqlovchining hushidan ketishi, yiqilishi, postni tark etishi, jismoniy zarba yoki xavfli harakatlar yuzaga kelganda darhol markaziy boshqaruv punktiga signal uzatishdir.

Xalqaro tajribada qo‘riqlanayotgan obyektlarda intellektual texnik vositalardan foydalanish yanada kengroq va murakkabroq darajada joriy etilgan. Masalan, AQSh Mudofaa vazirligi tomonidan qo‘llanadigan Perimeter Intrusion Detection Systems (PIDS) standartlari radarlar, LIDAR, mikroto‘lqinli sensorlar, IoT qurilmalar, aqlli soatlar va biometrik tizimlarni o‘z ichiga oladi. DoD Instruction 5200.08 harbiy obyektlarni jismoniy himoya qilishda real vaqt monitoringi, shaxsiy tarkib geolokatsiya nazorati va avtomatik xavf eskalatsiyasi tizimlarini majburiy talab sifatida belgilaydi [7]. AQSh harbiy bazalarida qo‘riqlovchilar uchun maxsus ishlab chiqilgan taktik aqlli soatlar koordinatalar, yurak urishi, harakat trayektoriyasi, xavf zonalariga yaqinlashuv, “Emergency Button” kabi funksiyalar orqali qo‘riqlash samaradorligini keskin oshirmoqda.

Rossiya Federatsiyasida **“**Аргус-Спектр**”** kompaniyasining “Стрелец-Мониторинг”, “Пантера”, “Бастион” kabi komplekslari PIDS standartlariga muvofiq ravishda qo‘riqlovchi shaxs joylashuvini aniqlash, signalizatsiya holatini real vaqt rejimida uzatish va avtomatik javob choralari mexanizmini ta’minlamoqda [8]. Bu tizimlar ayniqsa yopiq harbiy-obyektlar va strategik infratuzilmalarda keng qo‘llanadi. Ular bilan bir qatorda, Isroilning Elbit Systems va Israel Aerospace Industries ishlab chiqargan AI va dron integratsiyalangan perimetr monitoringi dunyodagi eng ilg‘or tizimlardan biri hisoblanadi. Ushbu tizimlarda qo‘riqlovchi uchun taktika mos aqlli qurilmalar, biometrik sensorlar va xavfni bashoratlovchi sun’iy intellekt modullari qo‘llaniladi [9].

Yevropa Ittifoqi davlatlari esa EN 50131-1, EN 50398 kabi xalqaro xavfsizlik standartlari asosida vibratsion kabel, mikrotolqinli perimetr sensori, optik tolali datchik, LoRaWAN asosidagi uzoq masofadan monitoring tizimlaridan foydalanadi. Qo‘riqchi shaxsiy tarkibi uchun GPS va BLE asosida geolokatsiyani aniqlash moslamalari keng

joriy qilingan [10]. Ushbu tizimlar xavfni aniqlash tezligini 30–80% ga oshirishi bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda isbotlangan.

Mahalliy va xorijiy tajribalarni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda qo‘riqlash tizimlari bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinayotgan bo‘lsa-da, xalqaro darajadagi integratsiyalashgan “aqlli qo‘riqlash tizimi” (Smart Guarding System)ni shakllantirish uchun IoT-sensorlar, AI-modellar, taktika mos aqlli soatlar, yuqori darajadagi dron-monitoring, markazlashtirilgan xavfsizlik serverlari va real vaqt analitikasi kabi komponentlarni to‘liq joriy etish zarur. Biroq, mavjud huquqiy baza — Konstitutsiya, AKT to‘g‘risidagi qonunlar, kiberxavfsizlik normalari — bunday tizimlarni joriy etish uchun yetarli normativ poydevor mavjud emas.

Natijada, qo‘riqlanayotgan obyektlarda intellektual texnik vositalar qo‘llanilishining konstitutsiyaviy-huquqiy talqini shundan iboratki, zamonaviy texnologiyalar fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha davlatning konstitutsiyaviy majburiyatidan kelib chiqadigan vosita sifatida qaraladi. Xalqaro tajriba esa O‘zbekistonda ushbu tizimni takomillashtirish uchun aniq texnologik, tashkiliy va normativ yo‘nalishlarni belgilab beradi.

Qo‘riqlanayotgan obyektlarda intellektual texnik vositalar qo‘llanilishini modernizatsiya qilish O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik siyosati, konstitutsiyaviy normalar, texnik imkoniyatlar va xalqaro xavfsizlik standartlari bilan uzviy uyg‘unlikda amalga oshirilishi lozim. Xususan, Konstitutsiyaning 19 va 21-moddalarida davlatning fuqarolar huquq va erkinliklarini ta’minlash majburiyati, shuningdek, ularning daxlsizligini kafolatlash talabi belgilanganligi sababli, qo‘riqlash tizimlarida texnik vositalarni qo‘llash aynan ushbu konstitutsiyaviy vazifalarning amaliy ifodasi sifatida qaraladi. Shu bois, intellektual texnik vositalar — aqlli soatlar, sensorlar, GPS-monitoring, sun’iy intellekt asosidagi tahlil platformalari — xavfsizlikni ta’minlovchi davlat tizimining tarkibiy elementi sifatida kompleks joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, qo‘riqlanayotgan obyektlarda intellektual texnik vositalarni qo‘llashning huquqiy mexanizmlarini yanada aniq belgilash zarur. Amaldagi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonun va PF-60-son Farmonda ko‘zda tutilgan raqamli transformatsiya vazifalarini hisobga olgan holda, strategik obyektlar xavfsizligi uchun mo‘ljallangan maxsus normativ-huquqiy akt ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Ushbu hujjat perimetrni himoya qilish texnologiyalari (PIDS), aqlli qurilmalar yordamida shaxsiy tarkibni monitoring qilish, real vaqt signalizatsiyasi, ma’lumotlarni qayta ishlash va ularning himoyalanishi kabi masalalarni huquqiy tartibga solishi lozim.

Ikkinchidan, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, intellektual texnik vositalar samaradorligi ularning yagona boshqaruv markazi bilan integratsiyalashuviga bevosita bog‘liq. AQSh, Isroil, Yevropa davlatlarida qo‘riqlash tizimlari real vaqt analitikasi, aqlli soatlar va markaziy xavfsizlik serverlari orqali to‘liq qo‘shma ishlash tizimiga ega. O‘zbekiston sharoitida ham harbiy obyektlar, Milliy gvardiya, IIV bo‘linmalari va xavfsizlik xizmatlarida yagona monitoring markazlarini tashkil etish, barcha texnik vositalarni bir protokol asosida ulash istiqbolli yo‘nalishdir. Bu nafaqat tezkor boshqaruvni, balki harbiy-siyosiy barqarorlikning texnologik asosini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, qo‘riqchi shaxsiy tarkib uchun aqlli soat platformasini ishlab chiqish zarurati mavjud. Soatning funksional imkoniyatlarida geolokatsiya, xavf zonalariga yaqinlashganda avtomatik ogohlantirish, yurak urishi va stress monitoringi, “XAVF” tugmasi, postni ruxsatsiz tark etishni aniqlash, markaz bilan ikki tomonlama aloqa kabi modullar bo‘lishi kerak. Bunday tizim Rossiya Federatsiyasidagi “Стрелец-Мониторинг”, AQShdagi taktik soatlar, Isroildagi harbiy IoT-yechimlar tajribasiga mos keladi. Mazkur soat orqali postlar bo‘yicha sodir bo‘layotgan har qanday favqulodda holat markazga darhol yetkaziladi, bu esa javob vaqtining keskin qisqarishiga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, intellektual texnik vositalarda ma’lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Xavfsizlik tizimlarida qo‘llaniladigan aqlli qurilmalar, sensorlar va kameralar orqali uzatiladigan ma’lumotlar shifrlanishi, autentifikatsiya tizimlari mustahkamlanishi, davlat serverlarida saqlanishi va kiberxavfsizlik protokollari bilan himoyalanishi lozim. Chunki xalqaro amaliyotda harbiy obyektlarni elektron kuzatuvga olish bilan bog‘liq tahdidlarning katta qismi aynan ma’lumotlar oqimi orqali yuzaga kelmoqda.

Beshinchidan, qo‘riqlash tizimlarining texnik jihatdan yangilanishi bilan birga,

xodimlarning texnologik savodxonligini oshirish bo‘yicha majburiy o‘quv dasturlarini joriy etish zarur. Xorijiy davlatlar, xususan Yevropa mamlakatlarida intellektual texnik vositalardan foydalanish bo‘yicha maxsus “Security Tech Training Modules” mavjud bo‘lib, har bir qo‘riqchi ushbu texnologiyalarni amaliy qo‘llash bo‘yicha sertifikatga ega bo‘lishi shart. O‘zbekistonda ham bu tizimlarni qo‘llash samaradorligini oshirish uchun shunga o‘xshash o‘quv modulini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Oltinchidan, obyektlarni himoya qilish tizimida LoRaWAN, Wi-Fi Mesh, mobil aloqa va oflayn rejimda ishlay oladigan avtonom signalizatsiya tizimlaridan kompleks foydalanish tavsiya etiladi. Internet uzilib qolgan holatlarda ham tizim o‘z faoliyatini davom ettirishi, SOS-signallarni uzatishi, lokal serverda ma’lumot yozishi zarur. Bu xalqaro standartlar — EN 50131-1 va PIDS protokollarida asosiy talab sifatida belgilangan bo‘lib, xavfsizlik tizimining uzluksiz ishlashini ta’minlaydi.

Yettinchidan, texnik vositalar samaradorligini oshirish maqsadida dron-monitoring, termal kameralar, aqlli perimetr sensorlari, sun’iy intellekt yordamida xatti-harakatlarni bashoratlash tizimlarini qo‘riqlash tizimlariga bosqichma-bosqich joriy etish muhimdir. Bunday yondashuv AQSh va Isroilning harbiy xavfsizlik modelida yuqori natija bergani ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan. Ushbu texnologiyalar tahdidlarni erta aniqlash, xavf zonalarini avtomatik belgilash va inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, O‘zbekiston sharoitida qo‘riqlanayotgan obyektlar xavfsizligini intellektual texnik vositalar yordamida modernizatsiya qilish davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlariga, zamonaviy xavfsizlik talablari va xalqaro tajribalarga to‘la mos keladi. Mazkur yo‘nalishda bosqichma-bosqich texnologik, huquqiy, tashkiliy va ilmiy asoslangan islohotlarni amalga oshirish milliy xavfsizlikning mustahkamlanishi, jamoat tartibining barqarorlashuvi va strategik obyektlarning ishonchli himoyasini ta’minlaydi.

Аннотация: В данной статье анализируется использование интеллектуальных технических средств, в частности сенсорных систем, биометрического мониторинга и цифровых технологий наблюдения, в процессе обеспечения безопасности охраняемых объектов с точки зрения Конституции Республики Узбекистан. Освещается конституционный баланс между безопасностью и неприкосновенностью личности, правовые ограничения на применение технических средств, государственные обязанности по защите стратегических объектов, а также роль современных технологий в повышении эффективности охраны. В ходе исследования проводится сравнительно-правовой анализ опыта Узбекистана, стран Европейского Союза и СНГ. В заключение разрабатываются нормативно-правовые предложения по укреплению конституционных основ применения интеллектуальных технических средств на военных и стратегических объектах Узбекистана.

Ключевые слова: Конституция, интеллектуальные технические средства, система охраны, государственная безопасность, личная неприкосновенность, умные часы, биометрический мониторинг, технологический суверенитет, правовое регулирование.

Annotation: This article examines the use of intellectual technical tools, specifically sensor systems, biometric monitoring, and digital surveillance technologies, in the process of ensuring the security of protected facilities from the perspective of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. It discusses the constitutional balance between security and personal privacy, the legal limits of using technical tools, the state’s obligations to protect strategic facilities, and the role of modern technologies in enhancing security effectiveness. The study includes a comparative legal analysis of the experiences of Uzbekistan, the European Union, and CIS countries. Finally, normative-legal proposals are developed to strengthen the constitutional foundations for the use of intellectual technical tools at military and strategic facilities in Uzbekistan.

Key words: Constitution, intellectual technical tools, security system, state security, personal privacy, smart watch, biometric monitoring, technological sovereignty, legal regulation.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PF–60. “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi”. 2022-yil 16-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 54-moddalar.
3. Konstitutsiya, 27-, 29-moddalar (2023-yil tahriri).
4. PQ–5775 (2020-yil 26-avgust); PQ–4699 (2020-yil 29-aprel); PQ–3832 (2018-yil 3-iyul).
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 27-modda.
6. “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-547-son), 02.07.2019.
7. U.S. Department of Defense. DoD Instruction 5200.08. Physical Security Program (2020). defense.gov
8. Argus-Spektr rasmiy sayti: “Стрелец-Мониторинг” tizimi. argus-spectr.ru
9. Elbit Systems. Integrated Perimeter Protection Solutions (2022). elbitsystems.com
10. European Security Standard EN 50131-1, EN 50398. European Committee for Electrotechnical Standardization (CENELEC).

ISSN 3030-3230

O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI VA MILLATLARARO TOTUVLIK: SHARQIY SLAVYAN DIASPORASINING TARIXIY O‘RNI VA MUSTAQILLIK DAVRIDAGI ROLI

Norbekov Suhrob,
O‘zbekiston Respublikasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Gumanitar fanlar kafedrasi assistenti

Annotatsiya. **Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganining mazmun-mohiyatini millatlararo totuvlik siyosati misolida tahlil qiladi. Tadqiqotda O‘zbekiston SSRning 1924-yilda tashkil topishi va 1991-yil mustaqillikka erishish jarayonlari milliy davlatchilik shakllanishining muhim bosqichlari sifatida baholanadi. Shuningdek, yangi Konstitutsiyamizda mustahkamlangan “barcha fuqarolarning millati, tili va dinidan qat’i nazar teng huquqliligi” tamoyili asosida O‘zbekistonda yashovchi Sharqiy slavyan diasporasining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rni yoritilgan.**

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Konstitutsiyasi, millatlararo totuvlik, Sharqiy slavyan diasporasi, fuqarolar tengligi, mustaqillik, milliy siyosat, bag‘rikenglik, davlatchilik tarixi, ijtimoiy hamjihatlik.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatning siyosiy, huquqiy va ijtimoiy hayotini belgilab beruvchi asosiy huquqiy hujjatdir. U nafaqat davlat tuzilmasini, balki jamiyatning asosiy qadriyatlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, millatlararo munosabatlarning huquqiy tartibini ham belgilab beradi. 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiya mustaqil O‘zbekistonning eng muhim ramzi sifatida mamlakatda yashovchi barcha millat va elat vakillarining huquqiy tengligi, totuvlik va hamjihatligini ta’minlashning poydevori bo‘ldi.

Tarix — bu faqat o‘tgan kunlarning sanalari va voqealari majmui emas, balki xalq xotirasi, uning saboqlari va kelajakka eltuvchi yo‘ldir. O‘zbekiston bu yil o‘z mustaqilligining 34 yilligini keng nishonladi va bu sana xalqimizning asriy orzusi — o‘z taqdirini o‘zi belgilash, milliy davlatchiligini mustahkamlash yo‘lidagi buyuk marradir. Shu bilan birga, aynan shu yilda O‘zbekiston SSR tashkil etilganiga ham 100 yil to‘lmoqda. Bu ikki tarixiy hodisa — biri o‘tgan asrning murakkab siyosiy jarayonlarida yuzaga kelgan davlatchilik shakli, ikkinchisi esa xalq iroda va intilishining mevasi sifatida maydonga chiqqan mustaqil davlat — o‘zaro bog‘liq, ammo ma’nosi va mohiyati jihatidan turlicha bosqichlarni aks ettiradi.

Davlatchilik tarixini o‘rganar ekanmiz, bir haqiqat ayon bo‘ladi: har qanday davlatning kuch-qudrati uning millatlararo totuvlik va ijtimoiy hamjihatlik siyosati bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, Sharqiy slavyan diasporasi vakillari ham bu jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylangan. Ularning ilm-fan, ta’lim, ishlab chiqarish, madaniyat va siyosiy hayotdagi hissasi nafaqat O‘zbekiston SSR davrida, balki mustaqillik yillarida ham o‘z samarasini bergan [6].

Bugungi kunda tarixiy xotira bizdan nafaqat o‘tmishni eslashni, balki undan saboq olishni talab etadi. O‘zbekiston SSRdan mustaqillikkacha bo‘lgan yo‘l — bu bir tomondan sinovlar, ikkinchi tomondan esa millatlararo hamkorlik va totuvlik tajribasining shakllanish davri bo‘ldi. Ushbu jarayonlarni tahlil qilish, ayniqsa Sharqiy slavyan diasporasi misolida ko‘rib chiqish, bizning davlatchilik tariximizni chuqurroq anglash va kelajak avlod uchun mustahkam saboq chiqarish imkonini beradi [7].

1924-yilda O‘zbekiston SSR tashkil topishi o‘zbek davlatchiligi tarixida yangi sahifa ochdi. Bu jarayon sobiq Sovet Ittifoqining milliy-hududiy chegaralash siyosati natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, amalda o‘zbek xalqining siyosiy-huquqiy maqomga ega bo‘lgan davlatga ega bo‘lish yo‘lidagi ilk qadami sifatida tarixda qoldi. Shubhasiz, bu davr murakkabliklar, qarama-qarshiliklar va imkoniyatlar bilan to‘la edi[5].

Davlatning shakllanishi nafaqat o‘zbek xalqi uchun, balki turli millat vakillari uchun ham yangi ijtimoiy-siyosiy makonni yaratdi. Ayniqsa, Sharqiy slavyan diasporasi vakillari — rus, ukrain va belorus xalqlarining vakillari — bu jarayonlarda faol ishtirok etdilar. Ularning yurtimizga kelishi asosan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida boshlangan bo‘lsa-da, sovet davri bu jarayonni jadallashtirdi. Diaspora vakillari yangi

tashkil topayotgan respublikaning boshqaruv tizimi, iqtisodiy islohotlari, madaniy-ma’rifiy hayotida muayyan o‘rin egalladilar [5].

O‘zbekiston SSR tashkil topgan davrda respublika aholisi 5,2 million kishini tashkil etgan. Ularning asosiy qismini o‘zbeklar (taxminan 3,7 mln kishi) tashkil qilgan bo‘lsa, shuningdek, tojiklar (650 ming), qozoqlar (350 ming), qirg‘izlar (120 ming) ham sezilarli ulushga ega edi. Sharqiy slavyan diasporasi vakillari — ruslar, ukrainlar va beloruslar esa umumiy aholining 7–8 foizini tashkil qilib, ushbu xalqlar asosan Toshkent, Samarqand, Farg‘ona vodiysi va sanoat markazlarida yashagan [6].

Ushbu diasporaning O‘zbekiston SSR tashkil topgan davrda dastlabki hissasi sifatida, Toshkentdagi Turkiston davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning ilk professor-o‘qituvchilari orasida diaspora vakillari yetakchi o‘rin tutganligi orqali ularning respublikaning birinchi oliy ta’lim muassasalarida mahalliy kadrlarni tayyorlashga hissa qo‘shganligini aytish mumkin. Ular qurilish, temir yo‘l, energetika, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash sohalarida muhandis va mutaxassis sifatida faoliyat yuritdilar. Masalan, 1920-yillar oxirida Farg‘ona vodiysida paxta sanoatini modernizatsiya qilishda ularning hissasi sezilarli bo‘lgan. Bundan tashqari, diaspora vakillari tibbiyot sohasida ham samarali faoliyat yuritishdi. Toshkent tibbiyot institutida va bir qator yirik shifoxonalarda rus va ukrain shifokorlari faoliyat yuritib, respublikada tibbiyot tizimining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdilar [5].

O‘zbekiston SSRning tashkil topishi mahalliy xalqlar uchun bir tomondan siyosiy-huquqiy maqomni shakllantirgan bo‘lsa, boshqa tomondan markaziy hokimiyat siyosatiga qattiq bog‘liq bo‘lib qolishiga sabab bo‘ldi. Shu bilan birga, aynan shu davrda turli millatlar, jumladan, Sharqiy slavyan diasporasi vakillari bilan muloqot va hamkorlik zaruratga aylandi. Bu jarayon millatlararo totuvlikning ilk tajribalarini shakllantirdi va keyinchalik mustaqil O‘zbekistonning milliy siyosatida muhim ahamiyat kasb etdi [7].

1991-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida tarixiy qaror qabul qilinib, mamlakat mustaqilligi e’lon qilindi . 1-sentabr kuni esa O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi bayrami sifatida nishonlana boshlandi [1]. Bu voqea o‘zbek davlatchiligi tarixida tub burilish yasab, xalqimizning siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti uchun yangi ufqlar ochdi [4].

Mustaqillik faqatgina siyosiy-huquqiy voqea bo‘lib qolmay, balki xalq ongida o‘zligini anglash, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularining yuksalishiga sabab bo‘ldi. Millatlararo munosabatlarda esa mustaqillik davri yangi falsafiy tamoyillarni shakllantirdi. Bu o‘zbek millatining asosiy o‘rni tan olinishi bilan birga, boshqa millatlar ham mamlakat taraqqiyotida o‘z hissasini qo‘shishi uchun sharoit yaratish asnosida, siyosiy mustahkamlikni millatlararo totuvliksiz tasavvur etib bo‘lmasligi haqidagi qarashlar shakllantirdi.

O‘zbekiston Respublikasida barcha millatlar tengligi ta’minlangan xususan, Konstitutsiyamizda “millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha fuqarolarning teng huquqliligi” tamoyili mustahkamlangan bo‘lib, bu barcha millatlar qatorida Sharqiy slavyan diasporasining ham jamiyatdagi mavqeini mustahkamladi [2].

Mustaqillik davrida ham O‘zbekistonda yashovchi sharqiy slavyan diasporasi vakillari millatlararo totuvlik siyosatining faol ishtirokchisiga aylandilar. Ular mustaqillikning ilk yillarida O‘zbekiston Milliy universiteti va boshqa oliygohlarda diaspora vakillari ilmiy salohiyatni saqlab qolishda muhim rol o‘ynadilar. Rus va ukrain madaniy markazlari, adabiy va musiqiy jamoalar millatlararo muloqotni kuchaytirdi. Diaspora vakillari o‘zbek xalqi bilan yonma-yon yashab, diniy bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat tamoyillarining qaror topishiga yordam berdilar.

Mustaqillik davri O‘zbekiston tarixida millatlararo totuvlikning yangi bosqichi sifatida qaraladi. Agar 1924-yilda turli millat vakillari bir siyosiy hudud ichida “majburiy muloqot” sharoitida yashagan bo‘lsa, 1991-yildan keyingi jarayonlarda bu totuvlik ixtiyoriy hamkorlik va o‘zaro hurmat asosida shakllandi. Sharqiy slavyan diasporasi vakillari esa bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylangan bo‘lib, bugungi kunda ham mamlakat taraqqiyotida o‘z o‘rnini saqlab kelmoqda [3].

Xulosa qilib aytganda O‘zbekistonning 1924-yilda O‘zbekiston SSR sifatida tashkil topishi va 1991-yilda mustaqillikka erishishi mamlakat tarixidagi ikki muhim bosqichdir. Bu jarayonlarda nafaqat o‘zbek xalqi, balki turli millat vakillari, jumladan, Sharqiy slavyan diasporasi ham faol ishtirok etib kelganini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Diaspora vakillari dastlabki davrlarda respublikaning sanoat, fan va ta’lim sohalarida muhim rol o‘ynagan bo‘lsa, mustaqillik yillarida ular millatlararo totuvlik, madaniy rang-baranglik va ijtimoiy taraqqiyotning muhim ishtirokchisiga

aylandilar. Bugun O‘zbekiston Respublikasi millatlararo totuvlik va o‘zaro hurmat siyosatini yanada chuqurlashtirmoqda. Bu jarayonda Sharqiy slavyan diasporasining madaniy markazlari, ta’lim muassasalari va jamoatchilik tashkilotlari faoliyati ham katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kun — bu nafaqat yuridik sana, balki millatlararo totuvlik, fuqarolik birdamligi va ijtimoiy barqarorlikning mustahkam poydevori yaratilgan tarixiy kun hisoblanadi. Bugungi kunda Bosh qomusda aks etgan tamoyillar turli millat vakillarining tinch-totuv yashashi, davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishi hamda har bir fuqaroning daxlsiz huquqlari ta’minlanishiga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonning ko‘p millatli jamiyat sifatida shakllanishi, Sharqiy slavyan diasporasi va boshqa etnik guruhlarning taraqqiyotdagi faol ishtiroki Konstitutsiyaviy siyosatning amaliy natijasidir.

Shunday qilib, O‘zbekiston SSR tashkil topishi va mustaqillikka erishish jarayonida Sharqiy slavyan diasporasining o‘rni — bu nafaqat tarixiy haqiqat, balki millatlararo totuvlikning mustahkam poydevori sifatida ham muhim ilmiy xulosa berishga asos bo‘ladi.

Аннотация. В данной статье анализируется сущность и значение принятия Конституции Республики Узбекистан через призму государственной политики межнационального согласия. В исследовании рассматриваются процессы формирования национальной государственности, включая создание Узбекской ССР в 1924 году и обретение независимости в 1991 году как ключевые этапы государственного развития. Особое внимание уделяется роли восточнославянской диаспоры в социально-политической жизни Узбекистана в контексте конституционного принципа «равноправия всех граждан независимо от их национальности, языка и религии», закреплённого в обновлённой Конституции.

Ключевые слова: Конституция Узбекистана, межнациональное согласие, восточнославянская диаспора, равенство граждан, независимость, национальная политика, толерантность, история государственности, общественная сплочённость.

Annotation. This article examines the essence and significance of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan through the lens of the national policy on interethnic harmony. The study evaluates the formation of national statehood, including the establishment of the Uzbek SSR in 1924 and the attainment of independence in 1991 as key stages of state development. Special attention is given to the social and political role of the East Slavic diaspora in Uzbekistan within the framework of the constitutional principle of “equal rights for all citizens regardless of their nationality, language, or religion,” as enshrined in the new edition of the Constitution.

Key words: Constitution of Uzbekistan, interethnic harmony, East Slavic diaspora, equality of citizens, independence, national policy, tolerance, history of statehood, social cohesion.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 31-avgustdagi sessiyasi materiallari. – Toshkent, 1991.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 1992.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi ma’lumotlari. – Toshkent, 2023.
4. Алимова Р. История независимого Узбекистана. – Ташкент: Шарқ, 2001.
5. Халфин Н. Средняя Азия в составе СССР. – Москва: Наука, 1968.
6. Sagdullaev A. O‘zbekiston tarixi: mustaqillik davri. – Toshkent: Fan, 2016.
7. Abdurahmonov A. O‘zbekistonning millatlararo siyosati. – Toshkent: Akademnashr, 2020.

TA’LIMNI TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Qurbonov Baxromjon Baxtiyor o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura talabasi

Annotatsiya. **Ushbu maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimini moliyalashtirishning huquqiy, institutsional va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Konstitutsiyaviy tamoyillar asosida ta’limga ajratilayotgan budjet mablag‘lari hajmi, ularning taqsimoti, nazorat mexanizmlari hamda grantlar, subsidiyalar va xususiy sektor ishtiroki orqali shakllanayotgan ko‘p manbali moliyalashtirish modeli o‘rganiladi. Maqolada ta’limni xarajat emas, balki jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan strategik sarmoya sifatida talqin qilish zarurligi asoslanadi. Moliyaviy siyosatning ta’lim qamroviga, sifatiga va barqarorligiga ta’siri tahlil etiladi.**

Kalit so‘zlar: Ta’limni moliyalashtirish, Konstitutsiyaviy huquq, Davlat budjeti, Strategik sarmoya, Grantlar va subsidiyalar, Ko‘p manbali moliyalashtirish, Ta’lim infratuzilmasi, Huquqiy asoslar, Ijtimoiy adolat, Pedagogik kasbning nufuzi.

Ta’lim har qanday jamiyatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi strategik soha sifatida e’tirof etiladi. U nafaqat bilim berish vositasi, balki inson kapitalini shakllantirish, fuqarolarning huquqiy ongini va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish, innovatsion salohiyatni oshirish hamda barqaror taraqqiyotga erishishning muhim omili sifatida qaraladi. Ta’lim sohasi orqali jamiyatda ijtimoiy tenglik, madaniy merosni saqlash, texnologik yangilanish va iqtisodiy raqobatbardoshlik kabi ustuvor maqsadlarga erishish mumkin bo‘ladi.

Zamonaviy huquqiy davlatlarda ta’limga bo‘lgan munosabat faqat siyosiy qarorlar darajasida emas, balki huquqiy me’yorlar, xususan konstitutsiyaviy tamoyillar orqali belgilab beriladi. Konstitutsiya — bu jamiyatning asosiy huquqiy hujjati bo‘lib, unda ta’limga oid huquq va majburiyatlar aniq ifodalangan. Bu tamoyillar ta’limni davlatning ijtimoiy siyosatidagi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi va uning moliyaviy, tashkiliy hamda institutsional jihatdan barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Ta’limga konstitutsiyaviy darajada e’tibor qaratilishi, avvalo, uning jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini tan olishdir. Bu yondashuv fuqarolarning ta’lim olish huquqini kafolatlash, ta’lim muassasalarining faoliyatini qonuniy asosda tartibga solish, hamda ta’limga ajratiladigan resurslarning adolatli taqsimotini ta’minlash imkonini beradi. Shuningdek, konstitutsiyaviy tamoyillar ta’lim sohasida davlatning majburiyatlarini belgilab, fuqarolarning bu huquqdan to‘laqonli foydalanishini qonuniy jihatdan himoya qiladi.

Ta’limni moliyalashtirishning huquqiy asoslari zamonaviy davlatlar siyosatida nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ijtimoiy adolat va inson kapitalini rivojlantirishning kafolati sifatida qaraladi. Xalqaro miqyosda bu borada bir qator olimlar chuqur nazariy va empirik izlanishlar olib borgan. Eric A. Hanushek (Stanford University) o‘z tadqiqotlarida ta’limga ajratiladigan mablag‘lar miqdorining o‘zidan ko‘ra, ularning huquqiy asosda maqsadli va samarali taqsimlanishi muhimligini ta’kidlaydi. U “The Economics of School Quality” (2010) nomli ishida ta’lim sifatini oshirish uchun moliyalashtirish tizimi qonuniy kafolatlangan bo‘lishi, natijadorlikka yo‘naltirilgan mexanizmlar bilan mustahkamlanishi zarurligini asoslaydi [1].

Barbara Bruns (World Bank Education Economist) esa “Making Schools Work” (2011) nomli monografiyasida ta’limni moliyalashtirishda huquqiy aniqlik va institutsional mas’uliyatni kuchaytirish orqali korrupsiyani kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash mumkinligini ko‘rsatadi. U rivojlanayotgan mamlakatlarda ta’lim budjetining qonuniy asosda shakllanishi — ta’lim tizimining inklyuzivligi va barqarorligini belgilovchi omil ekanini ta’kidlaydi [2].

O‘zbekiston ta’lim siyosatini ilmiy jihatdan tahlil qilgan mahalliy olimlar ta’limni moliyalashtirishda huquqiy aniqlik, institutsional barqarorlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini ustuvor deb hisoblaydilar. Xususan, M. Juraev o‘zining “Ta’limni boshqarish va moliyalashtirishning huquqiy asoslari” nomli monografiyasida ta’limga ajratiladigan mablag‘larning qonunchilikda aniq belgilanishi — davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida qaralishi lozimligini ta’kidlaydi.

ISSN 3030-3230

U O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyani va “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020)ni tahlil qilgan holda, moliyaviy ta’minotning huquqiy kafolatlari ta’lim huquqining amaliy ro‘yobga chiqishini ta’minlaydi, degan xulosaga keladi[3].

N. Jo‘rayev esa “Ta’lim tizimini moliyalashtirishda institutsional muvofiqlik va samaradorlik” mavzusidagi ilmiy maqolasida ta’lim muassasalarini moliyalashtirishda davlat organlari, mahalliy hokimiyatlar, xususiy sektor va donor tashkilotlar o‘rtasidagi funksional muvofiqlikni ta’minlash zarurligini asoslaydi. U O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari orqali belgilangan moliyalashtirish tartiblarining amaliy samaradorligini tahlil qilib, ta’lim infratuzilmasini rivojlantirishda institutsional barqarorlik hal qiluvchi omil ekanini ko‘rsatadi[4].

Konstitutsiyaning 50-moddasida quyidagicha norma belgilangan: “Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi.” [5] Ushbu modda ta’lim huquqining universalligini, ya’ni har bir fuqaro uchun teng darajada amal qilishini ta’minlaydi. Shuningdek, davlat tomonidan umumiy o‘rta ta’limning bepul taqdim etilishi — bu huquqning amaliy ro‘yobga chiqishini kafolatlovchi moliyaviy majburiyatni anglatadi

Ta’lim huquqi boshqa konstitutsiyaviy huquqlar bilan ham uzviy bog‘liq. Masalan, Konstitutsiyaning 19-moddasida fuqarolarning teng huquqliligi, 46-moddasida ijtimoiy himoya kafolatlari belgilangan bo‘lib, ularning barchasi ta’limga kirish imkoniyatini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. Bu esa ta’limni nafaqat shaxsiy huquq, balki ijtimoiy adolat tamoyilining ifodasi sifatida ko‘rishga asos yaratadi.

Konstitutsiyaviy huquq sifatida ta’lim — bu faqat bilim olish imkoniyati emas, balki davlat tomonidan yaratilishi lozim bo‘lgan shart-sharoitlar majmuasidir. Bunga ta’lim muassasalarining mavjudligi, malakali pedagoglar, o‘quv resurslari, infratuzilma va eng muhimi — moliyaviy ta’minot kiradi. Shu bois, ta’lim huquqining to‘laqonli ta’minlanishi bevosita moliyalashtirish mexanizmlarining mavjudligi va samaradorligiga bog‘liq. O‘zbekiston Konstitutsiyasida ta’lim huquqi aniq belgilangan bo‘lib, uning mazmuni faqat deklarativ bayonot emas, balki davlat zimmasiga yuklangan majburiyat sifatida qaraladi. Bu huquqning real hayotda ro‘yobga chiqishi esa moliyaviy, tashkiliy va huquqiy mexanizmlarning uyg‘unligini talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limni moliyalashtirish tizimi bir necha darajadagi normativ-huquqiy hujjatlar orqali tartibga solinadi. Ushbu hujjatlar ta’lim sohasining barqaror rivojlanishini ta’minlash, moliyaviy manbalarni aniqlash, ularni taqsimlash va nazorat qilish mexanizmlarini belgilashga xizmat qiladi. Jumladan, 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-637) O‘zbekiston ta’lim tizimining huquqiy asoslarini belgilab beruvchi asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu qonunda ta’lim faoliyatining moliyaviy ta’minoti alohida bob sifatida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, unda davlat budjeti ta’lim muassasalarining asosiy moliyaviy manbai sifatida e’tirof etiladi. Budjet mablag‘lari ta’lim muassasalarining infratuzilmasini rivojlantirish, o‘qituvchilar mehnatiga haq to‘lash, o‘quv resurslarini xarid qilish va boshqa zarur xarajatlarni qoplash uchun yo‘naltiriladi. Shuningdek, qonunda davlat grantlari orqali oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy himoyaga muhtoj, iqtidorli va ustuvor yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari belgilangan. Subsidiyalar va maqsadli moliyalashtirish vositalari orqali esa ayrim ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari, innovatsion loyihalar va pedagogik kadrlar tayyorlash dasturlari moliyaviy jihatdan rag‘batlantiriladi. Nodavlat ta’lim muassasalari qonun asosida faoliyat yuritadi va ularning moliyaviy mustaqilligi, litsenziyalash tartibi hamda davlat bilan hamkorlik mexanizmlari aniq belgilangan[6]. Mazkur qonun ta’limni moliyalashtirishda davlatning majburiyatlarini huquqiy jihatdan mustahkamlab, fuqarolarning ta’lim huquqini amaliy jihatdan ta’minlashga xizmat qiladi

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasini moliyalashtirish Konstitutsiyada belgilangan huquqiy tamoyillar asosida shakllanib, yildan-yilga takomillashib bormoqda. Davlat tomonidan ta’limga ajratilayotgan budjet mablag‘lari hajmi, ularning tarkibi va taqsimoti ta’lim huquqining amaliy ro‘yobga chiqishini moliyaviy jihatdan kafolatlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, 2020-yildan boshlab ta’limga ajratilayotgan mablag‘lar dinamikasi sezilarli o‘sishni ko‘rsatmoqda. 2020-yilda ta’limga ajratilgan mablag‘lar umumiy davlat budjetining 6.8 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2021–2023-yillar oralig‘ida bu ko‘rsatkich 7.5–8 foizgacha oshdi. Ushbu mablag‘larning 84.7 foizi, ya’ni 36 trillion so‘mdan

ortig‘i pedagog xodimlarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarga yo‘naltirildi. Qolgan qismi esa ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish, darsliklar va o‘quv-uslubiy vositalarni yangilash, maktablar qurilishi va rekonstruksiyasi, IT texnologiyalarni joriy etish kabi yo‘nalishlarga taqsimlandi[7].

2025-yil uchun ko‘rsatkichlariga ko‘ra, ta’limga ajratiladigan mablag‘lar 20 foizga ko‘paytirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bu ta’lim sohasining budjetdagi ulushini 9–10 foiz atrofida bo‘lishini anglatadi. Mablag‘larning tarkibiy tuzilmasi ham diversifikatsiyalashmoqda: davlat budjeti bilan bir qatorda grantlar, subsidiyalar, xalqaro donorlar va xususiy sektor mablag‘lari ham jalb qilinmoqda. Bu esa ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish, sifatli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkonini bermoqda[8].

Moliyalashtirishning ortishi ta’lim bilan qamrab olish darajasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Maktabgacha ta’limda 2020-yilda qamrov darajasi 30 foiz atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 70 foizga yaqinlashdi. Umumiy o‘rta ta’limda qamrov deyarli 100 foizga yetgan. Oliy ta’limda esa 2016-yilda 9 foiz bo‘lgan qamrov darajasi 2024-yilda 38 foizga yetdi. Bu raqamlar ta’limga ajratilayotgan mablag‘larning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham samara berayotganini ko‘rsatadi[9].

Xulosa qilib aytganda O‘zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlar konstitutsiyaviy huquqiy asos, strategik moliyalashtirish va xalqaro hamkorlikning uyg‘unlashgan natijasi sifatida shakllanmoqda. Konstitutsiyada belgilangan ta’lim olish huquqi — bu nafaqat deklarativ norma, balki davlat zimmasiga yuklangan amaliy majburiyat bo‘lib, uning real hayotda ro‘yobga chiqishi moliyaviy, tashkiliy va institutsional mexanizmlarning samarali ishlashiga bog‘liqdir.

Davlat tomonidan ta’limga ajratilayotgan mablag‘larning izchil oshirilishi, pedagogik kasbning obro‘sini tiklash, raqamli ta’lim va innovatsion metodikalarni joriy etish, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar — bularning barchasi ta’limni jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan strategik sarmoya sifatida talqin qilishga asos yaratadi.

Ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar davomida mavjud yutuqlar bilan bir qatorda, tizimni yanada takomillashtirish zarurati ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’limning barcha bosqichlarini qamrab olgan bir qator ishlarni amalga oshirish lozim. Avvalo, maktabgacha ta’limda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash maqsadida yangi bog‘chalar qurish, mavjudlarini modernizatsiya qilish va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish zarur. Bu orqali har bir bola teng va sifatli boshlang‘ich ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Umumiy o‘rta ta’lim sifatini oshirish uchun ta’lim dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, STEM(fan (science), texnologiya (technology), muhandislik (engineering) va matematika (mathematics)) fanlarini chuqurlashtirib o‘qitish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning maqomini oshirish, ularning malakasini doimiy ravishda xalqaro mezonlar asosida takomillashtirish, ijtimoiy va moddiy qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rilishi lozim. Ta’lim tizimining rivojlanishida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish ham muhim o‘rin tutadi. Xususiy maktablar sonini ko‘paytirish, sarmoyadorlar uchun qulay sharoitlar yaratish orqali raqobatbardosh ta’lim muhiti shakllantiriladi. Professional ta’limni zamonaviy mehnat bozoriga moslashtirish, dual ta’lim tizimini keng joriy etish va ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Shuningdek, oliy ta’lim bilan qamrovni oshirish, ta’lim kreditlari va davlat grantlari tizimini kengaytirish, oliy o‘quv yurtlarining ilmiy va akademik salohiyatini mustahkamlash orqali yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish zarur.

Yuqoridagi ustuvor yo‘nalishlarni izchil amalga oshirish ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqib, raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishga xizmat qiladi.

Аннотация. В статье анализируются правовые и институциональные основы финансирования системы образования Узбекистана. Особое внимание уделяется объёму бюджетных ассигнований, их распределению, механизмам контроля, а также формированию многоканальной модели финансирования через гранты, субсидии и участие частного сектора. Образование рассматривается не как расход, а как стратегическая инвестиция в развитие общества. В работе обосновывается влияние финансовой политики на охват, качество и устойчивость образовательной системы.

Ключевые слова: Финансирование образования, Конституционное право, Государственный бюджет, Стратегические инвестиции, Гранты и субсидии, Многоканальное финансирование, Образовательная инфраструктура, Правовые основы, Социальная справедливость, Престиж педагогической профессии.

Annotation. This article explores the legal, institutional, and practical dimensions of education financing in Uzbekistan. It focuses on the volume and allocation of budgetary resources, oversight mechanisms, and the emergence of a multi-source funding model involving grants, subsidies, and private sector participation. Education is framed not as a cost but as a strategic investment in societal development. The study provides an evidence-based analysis of how financial policy impacts access, quality, and sustainability within the education system.

Key words: Education financing, Constitutional right, State budget, Strategic investment, Grants and subsidies, Multi-source funding, Educational infrastructure, Legal framework, Social equity, Teaching profession prestige.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hanushek, E. A., & Woessmann, L. (2010). The Economics of International Differences in Educational Achievement. In E. A. Hanushek, S. Machin, & L. Woessmann (Eds.), Handbook of the Economics of Education (Vol. 3, pp. 89–200). Amsterdam: Elsevier.

2. Bruns, B., Filmer, D., & Patrinos, H. A. (2011). Making Schools Work: New Evidence on Accountability Reforms. Washington, DC: The World Bank.

3. Juraev, M. (2021). Ta’limni boshqarish va moliyalashtirishning huquqiy asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot va huquq nashriyoti.

4. Jo‘rayev, N. (2022). Ta’lim tizimini moliyalashtirishda institutsional muvofiqlik va samaradorlik. O‘zbekiston pedagogika fanlari jurnali, 4(2), 45–58.

5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). Qabul qilingan: 2023-yil 20-aprel. 50-modda. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, rasmiy nashr.

6. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Ta’lim to‘g‘risida” (O‘RQ–637). Qabul qilingan sana: 2020-yil 23-sentabr. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, rasmiy nashr.

7. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2024). 2025-yil uchun davlat budjeti loyihasi: Ta’lim sohasiga ajratiladigan mablag‘lar tahlili. — Toshkent: Moliya vazirligi rasmiy axboroti.

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2024). Oliy ta’limda qamrov darajasi va investitsiya ko‘rsatkichlari. — Toshkent: Tahliliy ma’lumotlar to‘plami.

9. https://president.uz/uz/lists/view/8538

DAVLAT BOSHQARUVINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARINING MOHIYATI

Mirzayev Jahongir Mirg‘olib o‘g‘li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada davlat boshqaruvining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, ularning nazariy va amaliy ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan boshqaruv prinsiplari, ijro hokimiyati tizimining huquqiy jihatdan takomillashtirilishi hamda davlat boshqaruvida demokratik va insonparvarlik tamoyillarining o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: davlat boshqaruvi, Konstitutsiya, huquq ustuvorligi, ijro hokimiyati, demokratiya, davlat islohotlari.

Davlat boshqaruvi har bir mamlakatning siyosiy va ijtimoiy tizimini samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi. Uning huquqiy asosi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etuvchi manba – Konstitutsiyada belgilanadi. Konstitutsiya davlat boshqaruvi tizimining shakli, vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab, ijro hokimiyatining chegaralarini huquqiy jihatdan belgilab beradi.

Bugungi kunda O‘zbekistondagi jadal islohotlar davlat boshqaruvini takomillashtirishni, unda sifat o‘zgarishlari yasashni taqozo etmoqda. Bu vazifa davlat va jamiyatning taraqqiyotiga turtki bo‘ladigan omillardan oqilona foydalanish, ilg‘or mamlakatlar tajribasida sinalgan yondashuvlarni qo‘llashga undaydi. E’tiborlisi shundaki, davlat boshqaruvidagi o‘zgarishlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-ma’rifiy sohalar bilan uzviy bog‘liqlikda amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, davlat boshqaruvi sohasining samaradorligini oshirish uchun ushbu uyg‘unlikni ilmiy tadqiqotlarda aks ettirish zarurati tug‘iladi. Buning uchun davlat boshqaruvini mantiqan o‘zaro bog‘liq tarmoqlarni o‘z ichiga qamrab olgan, yaxlit soha sifatida ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa davlat boshqaruvining mohiyati va o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish, shu asosda sohaga oid muammolarni aniqlash hamda bartaraf etish imkoniyatini kengaytiradi.[1]

Darhaqiqat, davlat boshqaruvi ijro etuvchi hokimiyat faoliyati bo‘lib, u davlat vazifalarini amalga oshirish uchun qonunlar asosida tashkil etiladi. Boshqaruvning huquqiy tabiati, avvalo, qonuniylik, hisobdorlik va inson huquqlariga rioya etishda namoyon bo‘ladi. Ijro hokimiyati faqat huquq normalari doirasida harakat qilishi mumkin. Bu holat boshqaruvning huquq ustuvorligi prinsipiga asoslanadi. Davlat boshqaruvining har bir qarorini qabul qilishda huquqiy asosning mavjudligi – konstitutsiyaviy davlatning belgisidir.

Ta’kidlash joizki, Konstitutsiya davlat boshqaruvining huquqiy va institutsional poydevorini tashkil etadi. Unda davlat hokimiyatining bo‘linishi, ijro organlarining vakolatlari va fuqarolarning siyosiy huquqlari belgilab qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasiga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan organlar tomonidangina amalga oshiriladi. Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o‘zlashtirish, hokimiyat organlari faoliyatini to‘xtatib qo‘yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi”, 11-moddaga asosan, “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi” degan mazmundagi muhim qoidalar belgilangan bo‘lsa, uning bevosita beshinchi bo‘limi “Davlat hokimiyatining tashkil etilishi”ga bag‘ishlangandir.[2]

Albatta, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘i sifatida davlat hokimiyati organlarining tashkil etish va faoliyat yuritishida muhim vakolatlarga ega. Xususan, konstitutsiyamizning 109-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti vazirliklarni va boshqa respublika ijro etuvchi

ISSN 3030-3230

hokimiyat organlarini tuzadi hamda tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritish, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining va hokimlarning hujjatlarini to‘xtish, bekor qilish, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqliligi kabi Konstitutsiyaviy vakolatlarni amalga oshiradi.

Bosh qomusimizda, alohida XX-bobda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi”ga oid muhim Konstitutsiyaviy qoidalarning mustahkamlanishi ijro etuvchi hokimiyatning huquqiy maqomini, vazifa va vakolatlarini belgilab, uning davlat boshqaruvidagi o‘rnini aniqlashtirib, hokimiyatlar bo‘linishi prinsipining amal qilishini konstitutsiyaviy ta’minlanishi bilan ahamiyatlidir. Hukumat faoliyatining qonuniyligini kafolatlash orqali uning faqat Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritishi shart bo‘ladi. Bu esa davlat boshqaruvining shaffof va qonuniy bo‘lishiga xizmat qiladi.

Agar rivojlangan davlatlar konstitutsiyaviy tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, jumladan, 1787-yilda qabul qilingan Amerika Qo‘shma Shtatlarining asosiy qonuni dunyodagi eng qadimgi amalda bo‘lgan yozma konstitutsiyalardan biri bo‘lib, hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud tarmoqlariga bo‘lish tamoyiliga asoslanadi. Konstitutsiya muqaddima, yetti modda va asl matnni to‘ldiruvchi hamda o‘zgartiruvchi 27 ta tuzatishdan iborat. AQSH Konstitutsiya haligacha amal qiladigan eng barqaror tuzilmalardan biri bo‘lib, unda hokimiyatning uch tarmog‘i Kongress, Prezident, Oliy sud o‘rtasidagi muvozanat qat’iy belgilangan.

Amerika Qo‘shma Shtatlari Konstitutsiyasi II-modda 1-qismiga ko‘ra, Ijroiya hokimiyati Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidentiga tegishli. U o‘z lavozimini to‘rt yil davomida egallaydi.[3]

Norvegiyaning 1814-yilda qabul qilingan Konstitutsiya Yevropadagi eng qadimgilardan biri hisoblanib, demokratiya, inson huquqlari va parlament boshqaruvi to‘liq ifodalangan. Norvegiya Qirolligi Konstitutsiyasiga ko‘ra, “Ijro etuvchi hokimiyat Qirolga yoki Qirolichaga tegishli bo‘ladi, agar u ushbu Asosiy Qonunning 6, 7 yoki 48-moddalariga muvofiq tojni meros qilib olgan bo‘lsa. Ijro etuvchi hokimiyat Qirolichaga o‘tganda, unga ushbu Asosiy Qonun va mamlakat qonunlariga ko‘ra Qirolga tegishli bo‘lgan barcha huquq va majburiyatlar yuklanadi”.[4]

Germaniya Federativ Respublikasining konstitutsiyasi (Asosiy qonun) 1949-yil 8-mayda a’zolari shtat parlamentlari tomonidan saylangan Parlament kengashi tomonidan qabul qilingan va ittifoqchilar tomonidan tasdiqlangan. Asosiy qonun Germaniya Federativ Respublikasining muhim tizimli va qiymatga asoslangan qarorlarini o‘z ichiga oladi. U boshqa barcha nemis huquqiy normalaridan ustun turadi. Asosiy qonunga o‘zgartirishlar kiritish uchun Bundestag (Federal parlament) a’zolarining uchdan ikki qismi va Bundesrat (Federal Kengash) a’zolarining uchdan ikki qismining ovozlari ma’qullanishi kerak. Biroq, Asosiy qonunning 79-moddasi 3-bandiga ko‘ra, davlatlarning qonunchilikdagi asosiy ishtirokini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Asosiy Qonunning 1 va 20-moddalarida belgilangan tamoyillar o‘zgartirilmaydi ya’ni 1-modda inson qadr-qimmatini kafolatlaydi va asosiy huquqlarning qonuniy majburiyligini ta’kidlangan bo‘lsa, 20-moddada demokratiya, ijtimoiy farovonlik va qonun ustuvorligi kabi davlatning asosiy tamoyillari bayon etilgan. Xususan, 20-moddaga ko‘ra, “Germaniya Federativ Respublikasi demokratik va ijtimoiy federativ davlatdir. Barcha davlat hokimiyati xalqdan kelib chiqadi. U xalq tomonidan saylovlar va referendumlar, shuningdek, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari orqali amalga oshiriladi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat konstitutsiyaviy tuzum bilan bog‘langan; ijro va sud hokimiyati qonun va adolat bilan bog‘langan”.[5]

Muxtasar qilib aytganda, davlat boshqaruvining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari davlat hokimiyati tizimining barqaror faoliyatini ta’minlaydi. Konstitutsiya davlat boshqaruvini huquqiy jihatdan tartibga solib, ijro hokimiyatining chegaralarini belgilaydi hamda uni xalq oldida hisobdor qiladi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar davlat boshqaruvining demokratik mohiyatini kuchaytiradi va fuqarolarning davlat bilan munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

Аннотация: В статье анализируются конституционно-правовые основы государственного управления, их теоретическое и практическое значение. Также освещены принципы управления, закрепленные в Конституции Республики Узбекистан, правовое совершенствование системы исполнительной власти, а также роль демократических и гуманистических принципов в государственном управлении.

Ключевые слова: государственное управление, Конституция, верховенство права, исполнительная власть, демократия, государственные реформы.

Abstract: This article analyzes the constitutional and legal foundations of state governance, as well as their theoretical and practical significance. It also examines the principles of governance enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the legal improvement of the executive power system, and the role of democratic and humanitarian principles in state administration.

Key words: state governance, Constitution, rule of law, executive power, democracy, state reforms.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Давлат бошқарувини такомиллаштириш имконияти. https://yuz.uz/news/davlat-boshqaruvini-takomillashtirish-imkoniyati.

2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. «Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси» https://lex.uz.

3. Америка Қўшма Штатлари Конституцияси. https://constitutioncenter.org/the-constitution/full-text.

4. Норвегия Қироллиги Конституцияси. https://legalns.com/download/books/cons/norway.pdf

5. Германия Федератив Республикасининг конституцияси (Асосий қонун). https://www.bundestag.de/parlament/aufgaben/rechtsgrundlagen/grundgeset.

КОНСТИТУЦИЯ: ГАРАНТ РАЗВИТИЯ ДЕТСКОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Алимова Райхона Баходировна,
Магистрант Банковско-финансовой
Академии Республики Узбекистан

Аннотация. **В статье рассматриваются положения обновлённой Конституции Республики Узбекистан и Стратегии «Узбекистан – 2030», направленные на развитие детского и молодёжного туризма. Особое внимание уделено вопросам интеллектуального, физического и духовного воспитания детей и молодёжи, организации их безопасного и полезного отдыха. Автор анализирует необходимость совершенствования законодательства в сфере сертификации туристских услуг, а также обобщает опыт зарубежных стран в данной области.**

Ключевые слова: детский туризм, Конституция, стратегия «Узбекистан – 2030», сертификация, социальная защита, безопасность, отдых, молодёжная политика.

Сегодня вопросы воспитания гармоничного общества, способного обеспечить устойчивое развитие страны, напрямую связанно с воспитанием «здорового» и духом, и телом, и мировоззрением молодёжи. 30 апреля 2023 года в Узбекистане всенародным голосованием на референдуме была принята Конституция в Новой редакции [1]. Она стала воистину «народной Конституцией» так как каждое слово, каждая статья в ней формировалась с учётом мнения народа, его предложений и приоритетов. Хотелось бы отметить, что обновлённая Конституция нашей страны стала отличаться человеко-ориентированностью, так в статье 78 внесена норма согласно которой «Государство и общество заботятся о формировании у детей и молодежи приверженности национальным и общечеловеческим ценностям, гордости за страну и богатое культурное наследие народа, чувства патриотизма и любви к Родине» [1]. Кроме того впервые в статье 79 закрепляется норма в соответствии которой Государство берёт на себя обязательства по «созданию условий для интеллектуального, творческого, физического и нравственного формирования и развития молодежи, реализации ее прав на образование, охрану здоровья, жилье, трудоустройство, занятость и отдых» [1]. Отдельно хотелось бы отметить, что сегодня и интеллектуально-творческие способности детей и молодёжи, и их нравственно-физическое состояние, здоровье связано с отдыхом и восстановлением – то есть туристско-рекреационной деятельностью. В этой связи, развитие туристско-рекреационной сферы приобретают приоритетное значение. В соответствии с такими жизненно важными для народа Узбекистана правами и свободами, закреплёнными в Обновлённой Конституции страны, была утверждена Стратегия «Узбекистан -2030» (далее Стратегия).

Именно поэтому в Стратегии поставлены первостепенные цели устойчивого развития страны. Здесь вопросам создания условий для детей и подростков уделяется отдельное, приоритетное место. Так, например, поставлена цель: «повышение эффективности профилактики и лечения наследственных заболеваний у детей. Сокращение в 2 раза наследственных заболеваний у детей. Повышение не менее, чем на 50 процентов охвата селективными скрининговыми обследованиями на наследственные заболевания у младенцев» [2]. А также, «сокращение материнской и детской смертности, обеспечение здорового детства. Снижение в 2 раза смертности среди женщин, начиная со времени определения беременности до 42 дней после родов, новорожденных и детей до пяти лет. Увеличение на 35 процентов количества родильных мест. Бесплатное обеспечение детей в возрасте 6-23 месяцев микронутриентным порошком, детей в возрасте 2 - 10 лет - специальными препаратами по профилактике гельминтоза, детей в возрасте 3 - 15 лет - препаратами йода, девушек и женщин в возрасте 15 - 35 лет - поливитаминами, препаратами железа и фолиевой кислотой. Сокращение среди детей инфекционных и неинфекционных заболеваний на 20 процентов» [2]. Хотелось бы отдельно отметить поставленную в Стратегии задачу по «формированию среди населения правильного питания и здорового образа жизни» [2].

Здесь особое значение уделяется таким задачам как: «снижение на 32 процента доли населения, потребляющего соль выше нормы, на 22 процента - населения, не имеющего достаточной физической активности, взрослого населения, имеющего лишний вес и ожирение, соответственно, на 32 и 23 процента, снижение в среднем в 2 раза доли детей в возрасте до 5 лет с задержкой роста, недостаточным весом и лишним весом, ограничение 100 процентов привоза, приготовления, реализации в образовательных и медицинских учреждениях продукции с большим количеством в составе трансжиров, соли и сахара» [3]. Кроме того, в стратегии отдельно поставлена задача по «совершенствованию системы социальной защиты детей» [3].

Таблица 3.1.1

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В СФЕРЕ ТУРИЗМА[4] .

Основными направлениями государственной политики в сфере туризма являются:
развитие данной сферы как стратегической отрасли экономики страны;
обеспечение прав граждан на отдых, свободу передвижения и иных прав при совершении путешествий;
рациональное использование и сохранение туристских ресурсов;
совершенствование нормативно-правовой базы;
создание необходимых условий для развития внутреннего туризма, включая организацию туризма и экскурсии детей, молодежи, престарелых, а также лиц с инвалидностью и малообеспеченных слоев населения в рамках развития социального туризма;
привлечение инвестиций и создание благоприятных условий для инвестирования в сферу туризма;
развитие государственно-частного партнерства в данной сфере;
создание равных возможностей на рынке туристских услуг для субъектов предпринимательства;
стимулирование посредством установления налоговых и таможенных льгот субъектам сферы туризма;
обеспечение безопасности туристов и экскурсантов, защиты их прав, свобод и законных интересов и имущества;
организация и развитие научных исследований;
подготовка, переподготовка и повышение квалификации кадров;
развитие международного сотрудничества;
повышение имиджа Республики Узбекистан как страны, привлекательной для туризма;
оказание субъектам сферы туризма государственной поддержки в продвижении ими национального туристского продукта на туристских рынках;
стимулирование внедрения передовых инновационных и информационно-коммуникационных технологий;
стимулирование развития туристских зон и туристских кластеров.

Нужно отметить, что нормативно-правовая база детско-юношеской туристско-рекреационной деятельности в соответствии с внесёнными нормами в Обновлённой Конституции страны и Стратегии, нуждается в переосмыслении и в совершенствовании. Так к примеру, в Законе Республики Узбекистан «О туризме» (далее Закон о туризме) определены основные направления государственной политики в сфере туризма (таб. 3.1.1) [5] . Отдельное внимание заслуживает закрепление в Законе туризме

ISSN 3030-3230

приоритетное значение туристской индустрии, а ее развитие данной сферы рассматривать как – развитие стратегической отрасли страны. Кроме того, в законе четко прописано, что в одним из основных направлений государственной политики в развитии туристско-рекреационной сферы является – организация туризма и экскурсий для детей и молодёжи. Однако, нет даже упоминания о том какую возрастную категорию охватывает понятие «детский» туризм, а какую «молодёжный». Значимость определения возрастной группы имеет стратегическое значение при организации и формирования туристского продукта и туристского предложения. Ещё одним немаловажным моментом в совершенствовании нормативно-правовой базы туристской индустрии и ее первичного Закона о туризме, является тот факт, что в нём нет упоминания о такой возрастной группе и виде туризма как «юношеский». В данном законе, и «юношеский», и «молодежный» туризм обобщены и представлены как «молодёжный». Анализируя Закон о туризме, хотелось бы остановиться на вопросах сертификации туристских услуг, которые приобретают особое значение в организации детско-юношеской туристско-рекреационной деятельности (таб.3.1.2).

уполномоченном государственном органе. Однако во второй части данного Закона конкретно прописано, что «освобождаются от обязательной сертификации в качестве средств размещения дома отдыха и зоны отдыха, организуемые на базе детских оздоровительных лагерей в системе профессиональных союзов в период вне сезона отдыха детей» [6]. Это исключение предполагает, что закон позволяет зонам отдыха, организованным на базе детских лагерей осуществлять свою деятельность, обходя процедуру сертификации. Считаем, что такое положение направлено на поддержание инфраструктуры детских лагерей в несезонный период. Конечно, данная норма позволяет повысить интенсивность предоставления услуг даже детских лагерей в несезонный период, а это положительно отразится и в валовом региональном продукте (ВРП) размещения данного туристско-рекреационного объекта, и в развитии внутреннего туризма. Однако, отсутствие указания конкретного периода, который бы в полной мере мог бы показать краткосрочность организации туристско-рекреационных услуг для детей. В этой связи, считаем, что определения временного отрезка как «в период вне сезона отдыха детей» является недостаточным и может стать фактором, негативно влияющим на качество

Таблица 3.1.2

СЕРТИФИКАЦИЯ ТУРИСТСКИХ УСЛУГ [5] .

Средства размещения, горнолыжные трассы и пляжи подлежат обязательной сертификации, за исключением случаев, предусмотренных частью второй настоящей статьи.
Освобождаются от обязательной сертификации в качестве средств размещения дома отдыха и зоны отдыха, организуемые на базе детских оздоровительных лагерей в системе профессиональных союзов в период вне сезона отдыха детей.
Сертификация, средств размещения, горнолыжных трасс и пляжей осуществляется аккредитованной организацией по сертификации при уполномоченном государственном органе.
Сертификация туристских услуг осуществляется на предмет их соответствия требованиям нормативных документов в области технического регулирования и направлена на обеспечение безопасности и качества этих услуг.
Уполномоченный государственный орган осуществляет ведение Реестра сертифицированных туристских услуг.
Сертификация услуг туроператоров осуществляется на добровольной основе.

В Законе о туризме вопросы сертификации отражены в статье 21, здесь подробно закрепляются вопросы обеспечения качественных услуг и повышенной безопасности. Также конкретно прописано, что аккредитация должна осуществляется организациями по сертификации при

предоставляемых услуг, санитарные и другие подобные мера, а также на организацию безопасного отдыха детей. Данное предложение нами сформировано на основе изучения опыта Российской Федерации, Республики Казахстан, Великобритании, Армении и других стран. Так к примеру, в Великобритании тоже введены

исключения в сертифицировании туристских услуг. Однако, в Великобритании такие исключения применяются для клубов кемпинга или скаутским группам. Однако, законодатель строго определяет тот факт, что исключения в сертифицировании действуют только в том случае, если кемпинг организуется не более чем 60 дней в году, из которых не более 42 дней подряд и только для членов организации [7]. В этой связи законодателем определены два типа об освобождении от уплаты налогов:

- сертификаты об освобождении от кемпинга (только для палаток)
- сертификаты об освобождении от уплаты налога на караваны - только для кемперов и автодомов [7].

Нами также был изучен российский опыт развития туристско-рекреационной деятельности. Так, в статье 14 «Обеспечение безопасности туризма» федерального Закона РФ «Об основах туристской деятельности в Российской Федерации» установлено, что организация детской туристско-рекреационно деятельности осуществляется «совместно федеральным органом исполнительной власти и уполномоченным Правительством Российской Федерации в сфере организации отдыха и оздоровления детей, общие требования к организации и проведению в природной среде следующих мероприятий с участием детей, являющихся членами организованной группы несовершеннолетних туристов» [8].

В целом, проведённый анализ показывает, что обновлённая Конституция Республики Узбекистан создала прочную правовую основу для развития детского и юношеского туризма как важного элемента государственной социальной и молодежной политики. Нормы, закреплённые в статьях 78 и 79 Основного закона, не только определяют приоритет духовного, физического и интеллектуального воспитания молодёжи, но и формируют предпосылки для расширения туристско-рекреационных программ, направленных на оздоровление и воспитание подрастающего поколения.

Однако детско-юношеский туризм в Узбекистане всё ещё сталкивается с рядом проблем: отсутствием чётких возрастных категорий в законодательстве, недостаточной системой сертификации услуг в сфере детского отдыха, слабо развитой инфраструктурой вне сезона. Нормативно-правовая база требует уточнения, чтобы повысить уровень безопасности, санитарно-гигиенических стандартов и профессиональной подготовки кадров, работающих с детьми.

В этой связи нами предлагается:

1. Внести изменения в статью 21 Закона «О туризме», дополнив её конкретным временным ограничением предоставления услуг вне сезона детского отдыха (например, не более 45 календарных дней). Это позволит минимизировать риски снижения качества и безопасности услуг.

2. Разработать отдельный нормативный акт – «Положение о детско-юношеском туризме и отдыхе», где будут определены возрастные границы категорий «детский», «юношеский» и «молодёжный» туризм, а также установлены требования к персоналу, условиям размещения, питанию и безопасности.

3. Создать систему добровольной сертификации детских туристских организаций с участием профессиональных союзов, родительских комитетов и независимых экспертов.

4. Внедрить международный опыт, в частности, британскую практику краткосрочного лицензирования и российскую модель совместного управления детским отдыхом между различными ведомствами.

5. Развивать социальный туризм через государственно-частное партнёрство, предоставляя льготы организациям, обеспечивающим доступный детский отдых для семей с низким доходом.

6. Разработать образовательные программы и курсы повышения квалификации для педагогов, экскурсоводов и инструкторов, работающих в детско-юношеском туризме, с акцентом на безопасность, инклюзивность и патриотическое воспитание.

Таким образом, реализация предложенных мер позволит не только укрепить нормативно-правовую базу, но и обеспечить устойчивое развитие детско-юношеского туризма как важного механизма воспитания, социализации и оздоровления молодёжи в Узбекистане. Детский туризм должен стать не просто формой отдыха, а эффективным инструментом воспитания граждан, любящих свою страну и ведущих здоровый образ жизни.

ISSN 3030-3230

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida yoshlar hamda bolalar turizmini rivojlantirishga oid me’yorlar tahlil qilingan. Xususan, bolalar va yoshlarning intellektual, jismoniy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash, ularning sog‘lom dam olishini tashkil etish hamda turistik faoliyatda xavfsizlikni kuchaytirish bo‘yicha Konstitutsiyada belgilangan vazifalar ochib berilgan. Shuningdek, maqolada turizm sohasida sertifikatlash jarayonining takomillashtirilishi va xorijiy tajribani qo‘llash zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: bolalar turizmi, Konstitutsiya, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, sertifikatlash, ijtimoiy himoya, xavfsizlik, dam olish, yoshlar siyosati.

Annotation. This article analyzes the provisions of the New Edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the “Uzbekistan – 2030” Strategy regarding the development of children’s and youth tourism. It highlights the state’s obligations to ensure the intellectual, physical, and moral development of young people, as well as to promote safe and inclusive recreation. The article also discusses the improvement of tourism service certification mechanisms and explores relevant international experiences.

Key words: children’s tourism, Constitution, “Uzbekistan – 2030” Strategy, certification, social protection, safety, recreation, youth policy.

Использованная литература:

1. Конституционный Закон Республики Узбекистан «О Конституции Республики Узбекистан» под № ЗРУ-837 от 1 мая 2023 года.
2. Указ Президента Республики Узбекистан «О СТРАТЕГИЯ «УЗБЕКИСТАН – 2030» под № УП-158 от 11 сентября 2023 года.
3. Указ Президента Республики Узбекистан «О СТРАТЕГИЯ «УЗБЕКИСТАН – 2030» под № УП-158 от 11 сентября 2023 года.
4. Законе Республики Узбекистан «О туризме» под № ЗРУ-549 от 18 июля 2019 года (статья 6).
5. Законе Республики Узбекистан «О туризме» под № ЗРУ-549 от 18 июля 2019 года.
6. Законе Республики Узбекистан «О туризме» под № ЗРУ-549 от 18 июля 2019 года (статья 21).
7. https://www.gov.uk/guidance/camping-and-caravanning-site-exemption-certificates-know-the-rules-and-how-to-apply?utm_source=chatgpt.com.
8. Российская федерация федеральный «Закон об основах туристской деятельности в Российской Федерации» от 24 ноября 1996 года № 132-ФЗ (статья 14).

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida chop etish uchun maqolalarni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan

TALABLAR

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning yo‘nalishlari, bosqichlari va natijalari, ijtimoiy-gumanitar, texnikaviy, huquqiy, iqtisodiy shuningdek, harbiy fanlar sohasida erishilgan yutuqlar, ilg‘or xorijiy tajribaning ilmiy-nazariy tahlili va natijalari nashr etiladi. Jurnal bir yilda to‘rt marta (har chorak) chop etilib, unda quyidagi asosiy ruknlar bo‘yicha ilmiy maqolalar e’lon qilinadi:

- KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK;
- JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI;
- HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR;
- IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI;
- TA’LIM-TARBIYA JARAYONI;
- IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT;
- TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI;
- XORIJIY TAJRIBA;
- YOSH OLIMLAR MINBARI.

Maqolani tahririyatga topshirish uchun KERAKLI HUJJATLAR

1. Tahririyatga taqdim etilayotgan qo‘lyozma bo‘yicha muallif ilmiy-tadqiqot ishi olib borayotgan tashkilot rahbariyatining **xati**, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi **ekspert xulosasi** hamda **ikkita taqriz** bo‘lishi kerak. Maqola o‘zbek, rus yoki ingliz tilida yozilgan bo‘lishi mumkin. Maqola nomi, uning 8-10 qator (500 tadan oshmagan chop etish belgilar) hajmdagi annotatsiyasi hamda kalit so‘zlari o‘zbek, rus va ingliz tillarida berilishi lozim, shuningdek muallif(lar)ning familiya, ism-shariflari, ish joylari (OTM, ITI, tashkilot) ham uch tilda taqdim qilinishi zarur.
2. Tahririyatga qo‘lyozma matni ikki nusxada topshiriladi, ikki nusxasi ham barcha mualliflar tomonidan imzolanadi. Maqolaning elektron ko‘rinishi ham taqdim etiladi.

Maqola mualliflarining familiyalari, ism-shariflari, ish joyi va lavozimi, manzillari, elektron manzillari (E-mail) hamda xizmat va uyali telefon raqamlari ko‘rsatilgan ma’lumotnoma beriladi.

Maqolani rasmiylashtirish TALABLARI

1. Maqola matni MS Word matn tahrirgichda Times New Roman shriftida 14 o‘lchamda terilgan bo‘lishi kerak.
2. Maqola hajmi bir intervalda bosilgan matn hisobida (jadvallar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda) to‘liq 8-10 bet bo‘lishi kerak.
3. Varaq o‘lchami: 210x297 mm (A4 - format), rasm (sxema, grafik)larning o‘lchamlari 6x9 sm dan oshmasligi kerak. Matn chegarasi o‘lchami: yuqoridan - 2,0 sm, pastdan – 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o‘ngdan – 1,5 sm bo‘lishi kerak.

1. Maqoladagi materiallarda eng zaruriy matematik ifodalargina berilishi kerak.

2. Maqola boshida UDK, keyingi qatordan (berilgan o‘lchamda bosh harfda, o‘rtada, qalin qilib) maqolaning nomi, undan keyingi qatorda muallif(lar)ning familiyasi va ism-sharifi, keyingi qatorda muallifning ish joyi (OTM, tashkilot, muassasa nomi) kichik bosma harfda o‘zbek, rus, ingliz tillarida teriladi. Keyingi qatordan maqola annotatsiyasi kursivda yoziladi. Keyingi qatorda 8-10 ta so‘zdan iborat kalit so‘zlar yoziladi. Bir qatordan so‘ng maqola matni teriladi.

3. Maqola bo‘lim va punktlarga bo‘linishi mumkin. Bo‘limlarning nomi qalin shriftda alohida qatorda tegishli ravishda kichik bosma (qalin) harflar bilan terilib, matn chap tomonidan tekislanadi. Punktlar nomi matnning birinchi qatoriga (qalin qilib) kiritiladi.

4. Adabiyotlar (so‘nggi 10 yildagilar tavsiya etiladi) ro‘yxati maqola oxirida, matndagi havolalar ketma-ketligi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar ko‘rsatiladi: a) jurnalda bosilgan maqolalar va ma’ruza tezislari uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, maqolaning nomi, jurnalning nomi, nashr yili, soni yoki qismi (bo‘lsa) va betlari; b) kitoblar uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, kitobning nomi, nashr joyi (shahar), nashriyot nomi, nashr yili, betlari.

5. Tahririyat barcha maqolalarni taqrizga yuboradi.

6. Tahririyatga maqolaning tahririyat taqrizidan keyin qayta ishlangan matni topshirilgan vaqt maqolaning tahririyatga tushgan kuni hisoblanadi.

Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar ko‘rib chiqishga qabul qilinmaydi, maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi. Maqolani ko‘rib chiqish natijalarini muallif tel: (71) 230-32-71, (71) 230-32-82 (kommutator) va 1045, 1046 ichki telefonlar orqali bilishi mumkin.
E-mail: info@mgjxu.uz

Tahririyat manzili: 100109, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chor-su qo‘rg‘oni, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti.

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining Tahririyat-noshirlik bo‘limida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to‘liq yoki qisman ko‘chirib bosilganida «Jamoat xavfsizligi» ilmiy-amaliy jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi shart.

Qo‘lyozmalarga taqriz berilmaydi va ular qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi. Tahrir hay’atining fikri muallif fikridan o‘zgacha bo‘lishi mumkin. Qo‘lyozmalar mazmuni va keltirilgan faktlarning haqiqiyligi uchun muallif javobgar.

Nashr. lits. №148674. 20.10.23. Bichimi 60x84 1/8. «Times New Roman» garniturasida raqamli bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 15,8. Adadi 15 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi 02.12.2025 y. Buyurtma № 625.

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025

O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universitetining

YANGI ADABIYOTLARI



















t.me/jamoat_xavfsizligi_universiteti

jamoatxavfsizligi_universiteti

@jamoatxavfsizligiuniversiteti2120